

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Buxoro davlat universiteti  
Buxoro tarixi kafedrası**

**Halim To‘raev**

# **BUXORO TARIXI**

*O‘quv qo‘llanma*

**Ta‘lim yo‘nalishi: 5121000 – Tarix. Buxoro tarixi**

**“Durdona” nashriyoti  
Buxoro – 2020**

**KBK 94(575.146)(075.8)**

**63.3(50')ya73**

**T 97**

To'raev, Halim.

Buxoro tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / Halim To'raev. - Buxoro :  
"Sadridin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti, 2020. - 320 b.

**KBK 63.3(50')ya73**

**Mas'ul muharrir:** t.f.d., professor **Q.Rajabov**

**Taqrizchilar:**

Tarix fanlari doktori, professor **S.Inoyatov**

Tarix fanlari doktori **R.Almeev**

Tarix fanlari nomzodi **B.Aminov**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent **S.Raupov**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) **O.Qilichev**

O'quv qo'llanma Buxoroning qadimgi zamonlardan hozirgi kunlargacha bo'lgan tarixi masalalarini o'z ichiga oladi. Buxoro vohasining arxeologik o'rganilishi, vohada joylashgan ko'hna qo'rg'onlar, Buxoroning shahar sifatida shakllanishi, sulolalar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot va uning turli qirralari xronologik tartibda yoritib berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma Buxoro davlat universiteti 5121000 – Tarix. Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishi talabalari, shuningdek, Buxoro tarixi bilan qiziquvchi tarixchi, muzeyshunos, o'lkashunos, arxivshunos va tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 359-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga tavsiya qilindi.

**ISBN 978-9943-6571-0-6**

## SO'ZBOSHI

Buxoro O'zbekistonnig qadimiy madaniy maskanlaridan biri. Uning tarixi, madaniyati O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlar o'tmishining bir bo'lagi hisoblanadi. Alohida olingan bir qadimiy hudud o'tmishini O'zbekiston tarixi doirasida maxsus o'rganish O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi.

Buxoro tarixi o'quv kursi hududiy ahamiyatga egaligi bois, tanlov fanlar turkumiga kiritilib, Buxoro davlat universiteti tarix ta'lim yo'nalishida 2005-2006 o'quv yilidan qisqacha tarzda o'qitila boshladi. Bunda asosiy e'tibor Buxoroning umumiy tarixiga emas, ko'proq shahar tarixi, arxeologik tadqiqot natijalari, me'moriy obidalar tarixiga qaratildi. Maxsus adabiyotlarning ozligi, borlarini esa qo'lga kiritish imkoniyatining cheklanganligi, o'quv qo'llanma va darsliklarning yo'qligi talabalarga bu kursni o'zlashtirish uchun qiyinchilik tug'dirardi. Buxoro tarixiga oid ma'lumotlarning turli akademik nashrlar va ilmiy adabiyotlarga sochilib ketganligi muammoni yanada chigillashtirar edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil fevralda Buxoro viloyatiga tashrifi Buxoro tarixini maxsus o'qitish borasidagi masalaning ijobiy yechim topishiga yo'l ochdi. Prezidentimiz tomonidan Buxoro davlat universiteti huzurida Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishini ochish to'g'risida berilgan topshiriqqa binoan 2018-2019 o'quv yilida Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishi tashkil etilib, hozirgi paytda unda talabalar tahsil olmoqda. O'qitilayotgan va o'qitilishi mo'ljallanayotgan maxsus fanlar Buxoro tarixining barcha masalalarini qamrab oladi, chunki yo'nalishning asosiy maqsadi Buxoro tarixi bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash. Shuningdek, ushbu yo'nalish gidlar tayyorlash yoki gidlikka yo'naltirish, ularga me'moriy obidalar bo'ylab ekskursiya o'tkazish medotologiyasini o'rgatish vazifasini ham o'z zimmasiga oladi. Zero, me'moriy obida to'g'risida ma'lumot berayotganda obidaning qurilish davridagi ijtimoiy-siyosiy ahvol uning qaysi hukmdor davrida bunyod etilganligi va davrning o'ziga xos jihatlari masalasiga e'tibor qaratish lozim.

Ushbu o'quv qo'llanma Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishi I bosqich talabalariga mo'ljallangan. Talabalar keyingi bosqichlarda Buxoro

etnologiyasi, Buxoro o'lkashunosligi, Buxoro toponimikasi, Buxoro tarixi yozma manbalari, Buxoro tasavvuf maktablari tarixi, Buxoro me'moriy obidalari tarixi, Buxoroning eng yangi davr tarixi fanlarini o'zlashtirishdan oldin Buxoroning qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha bo'lgan tarixini o'rganishi kerak.. Shu nuqtai nazardan o'quv qo'llanmada Buxoroning ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Buxoro vohasining qadimgi davr tarixini o'rganishda hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ahamiyati beqiyos. Vohadagi Poykent, Varaxsha yodgorliklarini arxeologik o'rganish XX asr birinchi yarmida boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. L.A.Zimin, V.A.Shishkin, A.R.Muhammadjonov, J.Mirzaahmedov kabi olimlar tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida yodgorliklarning voha ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida egallagan salmoqli o'rni aniqlanib, to'plangan ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etildi. Shuningdek, bronza davriga oid Zamonbobo yodgorligi Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasining a'zolari Yahyo G'ulomov va Ahmadali Askarov tarafidan o'rganilib, Buxoro vohasining janubiy-g'arbiy qismida ibtidoiy madaniyat izlari mavjudligi aniqlandi. Qo'lga kiritilgan ushbu ilmiy yutuqlarning talabalar diqqatiga havola etilishi, ularning qadimgi mahalliy madaniyat to'g'risidagi bilim va tasavvurlarini kengaytiradi.

Buxoro shahrini yoshini aniqlash borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar hason o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Vohada ilk shaharlarning vujudga kelishi tabiiy iqlim sharoitlari, geografik joylashuv va asosiysi Zarafshon daryosining ahamiyati bilan belgilanadi. Zarafshon daryosining Xitfar, Rudizar, Qorako'ldaryo, Moxondaryo kabi irmoqlari Buxoro vohasida o'troq dehqonchilik va urbanizatsiya jarayonlarining keng yoyilishida muhim o'rin tutgan. Akademik V.V.Bartold ta'biri bilan aytganda, Buxoro shahri dastlabki paydo bo'lgan hududini o'zgartirmasdan, hamon o'sha joyda qad ko'tarib turibdi. Aynan shunday holat Buxor shahri hududida arxeologik tadqiqotlar olib borish ishlarini ancha murakkablashtirib yubordi. Shunday bo'lsa-da, shaharda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar uning qadimiyligini isbotladi. Shuningdek, o'rta asr tarixchisi Narshaxiyning Buxoro tarixiy topografiyasi yuzasidan qoldirib ketgan ma'lumotlari arxeologik tadqiqotlar natijasida o'z tasdig'ini topdi.

Arablarining Movarounnahrda qilgan istilochilik yurishlari davridagi yuz bergan “Oq kiyimlilar” harakati markazlaridan biri aynan Buxoro vohasi edi. O‘quv qo‘llanmada Buxoro atrofidagi Narshax qal’asi mudofaachilarining mardonavor kurashi to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda yuz bergan uyg‘onish markazlashgan davlatlar tashkil topishi uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Somoniylar davrida davlat boshqaruvini mustahkamlash va ijtimoiy hayotni muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi har bir sohani rivojlantirishni ko‘zlagan devonlarni ta’ sis etishda namoyon bo‘ladi. Ilm-fan, ta’lim sohalarida jahonshumul yutuqlarning qo‘lga kiritilishini, albatta shu davrda yashab ijod qilgan allomalar merosi orqali bilib olamiz. Abu Xafs Kabir Buxoriy, Imom Buxoriy, Abu Mansur Qumriy, Ibn Sino, Narshaxiy, Rudakiy kabi olimu adiblar merosi bugungi avlod uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarning o‘quv qo‘llanmadan joy egallashi talaba yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashda o‘z ijobiy natijasini berishiga umid bog‘lash mumkin.

Buxoro Sharq tibbiyot ilmi o‘choqlaridan biri hisoblanadi. Ibn Sinodek buyuk allomaning shakllanishida o‘rta asrlar Buxorosidagi tibbiy muhit, tibbiy bilimlar darajasi shart-sharoit yaratdi, deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki Buxoro yaqinidagi ko‘hna Poykent shaharchasi hududidan qadimiy dorixona qoldiqlarining topilishi arablar istilosiga qadar Buxoro vohasida tibbiy bilimlarning amaliyotga joriy qilinganligidan dalolat beradi. Ibn Sinoga tabobatdan ustozlik qilgan Abu Mansur Qumriy X asr tabobat ilmida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan mashhur hakim hisoblanadi. U tibbiyotga oid bir qancha asarlar muallifi. Uning ta’siri ostida shakllangan va tibbiyot allomasiga aylangan Ibn Sino qadimgi yunon tib ilmining asoschisi Gippokrat, sharq tabobati namoyandasi ar-Roziy tibbiy qarashlarini qayta ko‘rib chiqib, tibbiyot sohasida o‘zining yangi ilmiy sistemasini yaratdi. Bu sistema 600 yil mobaynida Evropada ustivorlik maqomini saqlab qoldi. Ibn Sinoning buyukligi ham shunda. Ibn Sinoning tib ilmidagi buyuk kashfiyotlari va ularning amaliy ahamiyati to‘g‘risida o‘quv-qo‘llanmada ma’lumotlar mavjud.

Buxoro ilohiyot ilmining Movarounnahrda markazlaridan biri bo‘lganligi barchamizga ma’lum. Birinchi madrasaning aynan

Buxoroda qad ko'tarishi bu fikrni tasdiqlaydi. Abu Xafs Kabir Buxoriyning islom ilohiyoti ilmidagi xizmatlari Buxoroning "Qubbatul islom" (Islom gumbazi) unvoni bilan e'tirof etilishida namoyot bo'ladi.

Mo'g'ullar istilosidan eng ko'p talofot ko'rgan shaharlardan biri Buxorodir. Shahar bir asrning o'zida ikki karra qattiq talafot va qirg'inga uchradi. Mo'g'ullar istibdodiga qarshi 1238-yil Mahmud Tarobiy boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olon mahalliy aholining jasorati va mardonavorligi sinovi bo'lib, mo'g'ullarni ancha yon berishga majbur qildi.

XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Buxoroda ijtimoiy hayot yana izga tusha boshladi. Temuriylar davrida Samarqand davlatning poytaxti sifatida katta ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyat kasb etgan bo'lsa, Buxoro islom dinining gumbazi maqomini saqlab qoldi va sohibqiron Amir Temurning e'tiboriga sazovor bo'ldi. Temuriylar davrida Buxoroda o'ziga xos adabiy muhit shakllandi va bu Xo'ja Ismat Buxoriy adabiy merosida teranroq ko'zga tashlanadi. Temuriylar davridagi ma'naviy muhit dunyoga Bahouddin Naqshbandek buyuk pirni va u asos solgan Naqshbandiya tariqatini berdi. Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalari xususida o'quv qo'llanmada ma'lumotlar mavjud.

Shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi va Abdullaxon tomonidan Movarounnahr hamda Xurosonning bir qismini Buxoro atrofiga birlashtirilishi, Buxoroda ijtimoiy jarayonlarning jadallashuviga shart sharoit yaratdi. Maishiy-xo'jalik, ma'muriy, madaniy-ma'rifiy ahamiyatga molik binolarning qurilishi Shayboniylar davriga to'g'ri keladi. Movarounnahrda umumiy tanazzul, mintaqaning xonliklarga bo'linib ketishi Buxoroga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Shunga qaramasdan, ashtarxoniylar va mang'itlar davrida ma'rifiy-madaniy jarayonlar hech qachon to'xtab qolmagan. Bu davrda ko'plab shoir, adib va tarixchilar etishib chiqdiki, ularning ilmiy-adabiy merosidan hozirgi avlod, talaba-yoshlar bahramand bo'lib kelmoqda. O'quv qo'llanmada ushbu jarayonlarga e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda Ya.G'ulomov, A.Muhammadjonov, A.Asqarov, B.Ahmedov, V.Bartold, O.Suxareva, B.Lunin, Q.Rajabov, S.Inoyatov, U.Rashidov, J.Barakaev,

B.Mirzaqulov kabi olimlar va L.Asrorova, A.Zamonov, O.Qilichev, I.Azizov singari yosh tadqiqotchilarning ishlaridan foydalanildi.

Buxoro tarixini tadqiq qilish natijasida amalga oshirilgan akademik nashrlar Buxoro tarixining biror bir jihatini chuqur ochib berishga qaratilganligi bilan ilmiy ehtiyojlarni qondirsa-da, keng kitobxonlar, qiziquvchilar, havaskor tarixchilar, ayniqsa talabalar tafakkuri va ilmiy imkoniyatlariga muvofiq keladigan nashrlarni tayyorlash zaruriyati hamon o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, ushbu o'quv qo'llanmada Buxoroning qadimgi zamonlardan hozirgacha bo'lgan tarixi o'z aksini topgan. Mustaqillik yillarida, shuningdek, Prezident Sh.M.Mirziyoev rahnamoligida Buxoroda amalga oshirilgan va oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, madaniy-ma'rifiy sohadagi tub o'zgarishlar ushbu o'quv qo'llanmadan joy olganki, ushbu ma'lumotlar talabayoshlarda madaniy meros va qadriyatlarga hurmat, uni e'zozlash, ona yurtga sadoqat tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## MUQADDIMA

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning muqaddimasida birinchidan, asosiy narrativ manbalarning Buxoro tarixini o‘rganishdagi ahamiyatini ochib berish, ikkinchidan Buxoro tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ilmiy salohiyati va qiyosiy tahlilini amalga oshirish (bunga Mustaqillikkacha va Mustaqillik yillaridagi nashrlar, jumladan, xorijiy nashrlar kiradi), uchinchidan Buxoro tarixining muayyan tomonlarini qamrab olgan o‘quv adabiyotlarini tahlil qilishga harakat qilindi.

Buxoro tarixi O‘zbekiston tarixining tarkibiy qismi sifatida O‘zbekiston Mustaqilligi yillarida, ayniqsa keyingi uch yilda madaniy-ma‘rifiy jabhalarda olib borilayotgan keng islohotlar natijasida fan darajasiga ko‘tarildi. Buxoro tarixiga qiziqish va uni jamiyatning ziyoli tabaqalari o‘rtasida targ‘ib qilish uzoq o‘rta asrlardan boshlangan. Bu holatni o‘sha davrning ma‘rifiy ehtiyoji deb qarash kerak. Bunga misol qilib Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarini ko‘rsatish mumkin. Undagi ma‘lumotlar ayrim hollarda rivoyatlar bilan omuxta holda taqdim qilinishini o‘sha davrning uslubi va tarix yozish tartibi deb hisoblash o‘rinli. Shunga qaramay, asar faktik ma‘lumotlarga boyligi bilan ilk mahalliy tarixnavislikning diqqatga sazovor namunasi.

Asar nafaqat Buxoro vohasi, balki qisman Movarounnahrning qadimgi va ilk o‘rta asrlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotining turli jihatlarini aks ettiruvchi qimmatli asar hisoblanadi. 943-944-yillarda yozilgan 36 bobdan iborat bu asarda Buxoro shahrining paydo bo‘lishi, nomlari, Buxoroda hukmronlik qilgan Buxorxudotlar sulolasi va ularning vakillari, Buxoro vohasida joylashgan qadimgi qishloq-qo‘rg‘onlar, shaharning tarixiy topografiyasi, vohaning arablar tomonidan istilo qilinishi va unga qarshi halq harakatlari, Somoniylar sulolasi vakillarining siyosiy faoliyati va qator e‘tiborga molik tarixiy ma‘lumotlar o‘z in‘ikosini topgan. Asarga qiziqish va uning ma‘lumotlaridan istifoda qilish keyingi o‘rta asr tarixchilari ijodida yorqin kuzatiladi. Bir so‘z bilan aytganda, “Buxoro tarixi” keyingi davr tarixiy asarlariga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Ibn Havkal, Abdulkarim Sam‘oniy, Ahmad ibn Mahmud, Sayyid Nosiriddinto‘ra Buxoro tarixining ayrim tomonlarini yoritishda Narshaxiy merosiga murojaat



qilishgan. XIX asrga kelib asarga qiziqish mahalliy doiradan chiqib, dunyo miqyosiga ko‘tarildi.

O‘lkamiz tarixiga bag‘ishlangan asarlar ichida Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” (“Tarixi Narshaxiy”) asarichalik ommalashgan, yashovchan, ahamiyatini saqlab qolgan va turli tillarga tarjima qilingan hamda qayta-qayta chop etilgan asar kam topiladi. Buning sababi uning mahalliy tarixga bag‘ishlangan dastlabki asar bo‘lganligi, keng qamrovliligi, tarixiy geografiya va topografiyaga oid muallif ma’lumotlarining nisbatan aniqligi va ko‘pligi, sof shaharsozlik tarixini aks ettirishi va hokazolar hisoblanadi. Bu asar tarixiy manba sifatida qadrlanadi va unga bo‘lgan ilmiy-ma’rifiy ehtiyoj hamon yuqoriligicha qolmoqda. Atoqli sharqshunos akademik V.V.Bartold<sup>1</sup>, shuningdek, I.I.Umnyakov<sup>2</sup>, V.A.Shishkin<sup>3</sup>, O.A.Suxareva<sup>4</sup>, O.G.Bolshakov<sup>5</sup>, M.Saidjonov<sup>6</sup>, A.R.Muhammadjonov<sup>7</sup> va boshqalar Buxoro tarixini va tarixiy topografiyasini o‘rganishda asardan foydalanganlar.

O‘z davrida Evropa sharqshunoslari va Sharq noshirlari asar qimmatini to‘g‘ri baholagan holda uning ruscha, inglizcha tarjimasi va forscha matni nashrini amalga oshirdilar. Fransuz olimi Charlz Shefer<sup>8</sup> 1892-yil Parijda asarning forscha matnini, rus o‘lkashunosi N.S. Likoshin<sup>9</sup> 1897-yil Toshkentda ruscha tarjimasini, ingliz olimi Richard Fray<sup>10</sup> 1954-yil Kembrijda inglizcha tarjimasini chop

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. В 9 томах. Т.1. – Москва: Наука, 1963.

<sup>2</sup> Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии Бухары // Сборник Туркестанского восточного института в честь А. Э.Шмидта.- Ташкент, 1923.

<sup>3</sup> Шишкин В.А. Варахша.- Москва: Наука, 1963.

<sup>4</sup> Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства.- Ташкент: Фан, 1958

<sup>5</sup> Большаков О.Г. Хронология восстания Муканна // История и культура народов Средней Азии.- Москва: Наука, 1976. - Б.90-98.

<sup>6</sup> Саиджонов М. Бухоро ва эски бинолари / “Маориф ва ўқутғувчи”. Тошкент, 1927, № 9-10

<sup>7</sup> Мухамеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса.- Ташкент: Фан, 1978; шу муаллиф: Қадимги Бухоро.- Т.: Фан, 1991.

<sup>8</sup> Description topographique et historique de Boukhara par Mohammed Necshakhy, texte person, public par Charles Schefer, Paris, 1982.

<sup>9</sup> Мухаммад Наршахи. История Бухары / Перевод с персидского Н.Лыкошин, под редакцией В.В Бартольда. Ташкент, 1897.

<sup>10</sup> The history of Bukhara. Translated from a Persian Abridgment of the Arabic original by Nershekhi Richard N. Frye, Cambridge – Massachusetts, 1954.

ettirdilar. Shuningdek, eronlik olim Mudarris Rizaviy<sup>1</sup> 1939-yil Tehronda asarning forscha qiyosiy matnini e'lon qildi. 1904-yil Kogonda "Tarixi Narshaxiy" nomi ostida asarning toshbosma varianti nashr qilinganini ham eslab o'tish joiz. Misrlik olim Mubashshir at-Tiroziy 1965-yil Qohirada "Buxoro tarixi"ning arabcha tarjimasini e'lon etdi<sup>2</sup>. Asarning muqaddima, birinchi va ikkinchi boblarining O.I.Smirnova tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasini 1965-yil Moskvada chop qilindi<sup>3</sup>.

Narshaxiy asariga qiziqish bugungi kunda ham so'ngani yo'q. O'zbekistonlik olim Sh.Kamoliddinov "Buxoro tarixi"ni N.Likoshin va boshqa ayrim nashrlar asosida rus tiliga qayta izohli tarjima qilib, 1911-yil Toshkentda nashr etdi. Kitobga D.Yu.Yusupova so'zboshi, tarjimadagi arxeologik va topografik ob'ektlarga buxoroshunos olimi E.Nekrasova keng sharh yozgan<sup>4</sup>.

Imom Buxoriy, G'unjoriy kabi mahalliy mualliflar tomonidan ham "Buxoro tarixi" nomli asar yozilganligi to'g'risida ilmiy farazlar mavjud. Biroq bu asarlar bizgacha etib kelmagani bois, ularning ilmiy ahamiyati to'g'risida aniq fikrlarni ilgari surish mushkul.

Arab tarixiy-geografik adabiyotida Buxoro vohasining tabiiy geografiyasi, iqlimi, etnik tarixi, shaharsozligi, aholisining tili, urf-odatlarini atroflicha tasvirlab berilgan. Ibn Havkalning "Kitob surat al-ard" kitobi bunga misoldir. Asarda joy nomlari, ariqlar, qishloqlar nomi ba'zan g'alizroq, arablashtirilgan holda talqin qilinishiga qaramasdan, Buxoro vohasining X asrdagi tarixiy geografiyasini o'rganish uchun bu asarning ahamiyati katta. Seminar mashg'ulotlarida talabalar ushbu asar ma'lumotlaridan keng foydalanishlari mumkin.

Buxoro mozorlari va shaharning XIV-XV asrlar tarixiy topografiyasi masalalarini o'rganishda Ahmad ibn Mahmud

---

<sup>1</sup> تاريخ بخارا . تاليف ابو بكر محمد بن جعفر النرشخي . ترجمه ابو نصر احمد بن محمد بن نصر القباوى تخلص محسد بن زفر بن عمر و تصحيح مدرّس رضوى . تهران , 1939

<sup>2</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. Таърих Бухоро// ...дуктур Мубашшир ат-Тирози.- ал-Кахира: Дор ул-Маориф би Миср,1385/1965

<sup>3</sup> Смирнова О.И. «История Бухары» Наршахи (к истории сложения текста и о задачах его издания) // КС ИНА. №69. Исследование рукописей и кирилографов ИНА.- Москва: Наука, 1965. – Б.155-179.

<sup>4</sup> Мухаммад ан-Наршахи. Тарихи-и Бухара. История Бухары // Вступительная статья Д.Ю.Юсуповой. Перевод, комментарии и примечания Ш.С.Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г.Некрасовой. – Ташкент: SMI – ASIA, 2011, 600 с.

Buxoriyning “Tarixi Mullozoda” asari beqiyos ahamiyatga ega. Ayniqsa, unda qayd etilgan Buxoro ulamo va fuzalolarining tarijimai holi, ijtimoiy-ma’rifiy faoliyati, dafn qilingan joylari to’g’risidagi ma’lumotlar o’sha davr ma’naviy-madaniy muhitini to’laqonli tasavvur va tafakkur qilishda nafaqat ilmiy-ma’rifiy, balki tarbiyaviy mazmun ham kasb etadi.

Buxoro tarixiga bag’ishlangan XVI asr tarixiy adabiyotlari ichida Ibn Ruzbehxonning “Mehmonnoma Buxoro”, Muhammadyor ibn Arab Qatag’anning “Musaxxir al-bilod”, Badriddin Kashmiriyning “Ravzat ar-rizvon”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarlari alohida o’rin tutadi. Ular bir tarixiy davrda va bir sulola tarixiga bag’ishlangan bo’lsa-da, qayd etilgan ma’lumotlar mazmuni jihatidan bir-birini to’ldiradi, boyitadi. Masalan “Mehmonnoma Buxoro” xronolik qisqa davrni o’z ichiga olib, asosan Muhammad Shayboniyxon siyosiy faoliyatini aks ettirsa, “Musaxxir al-bilod” tarixiy tazkira usulida yozilgan bo’lib, shayboniy sultonlarining biografiyasi va siyosiy faoliyatini o’z ichiga oladi. Asarda qariyb barcha katta-kichik shayboniy sultonlari xususida ma’lumot beriladi.

“Ravzat ar-rizvon”ni tarixiy-agiografik asarlar sirasiga kiritish mumkin. Asar garchi Jo’ybor xo’jalari tarixiga bag’ishlangan bo’lsa ham, unda Abdullaxonning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, markaziy hokimiyat bilan din peshvolari o’rtasidagi munosabat, Buxoroda kuchli ijtimoiy mavqega ega qatlamlarning davlat boshqaruvi va siyosatga ta’siri masalalari atroflicha bayon qilingan. Asarda boshqa tarixiy xronikalarda uchramaydigan ma’lumotlar o’z ifodasini topgan.

“Abdullanoma” XVI asrning shoh tarixiy asari hisoblanadi. Hajm jihatdan ham, mazmun jihatdan ham bu asar yuqorida tilga olingan asarlardan farq qiladi va qator afzallik va ustunliklarga ega. Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti, etnik tarixi, qo’shni mamlakatlar bilan munosabatlari, Abdullaxonning shaxsiy sifatlari, markazlashgan davlat barpo etish uchun olib borgan kurashlari xususida asarda qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Masalan shayboniylarning davlat boshqaruvi to’g’risidagi masalalar Buxoro tarixini o’rganuvchi talabalar uchun ahamiyatli. Markaziy davlat boshqaruvidagi *otaliq, naqib, vazir, vazir-i a’zam, devonbegi, mushrif, xazinachi, shig’ovul, eshik-og’aboshi, parvonachi, sadr, miroxur, chuhra-og’asi, tavoji, jarchi, munshiy, tug’begi, qo’rchi-boshi, bakavul* kabi lavozimlar to’g’risidagi ma’lumotlar

talabalarning shayboniylar davri boshqaruvi to'g'risidagi tasavvur va bilimlarni boyitadi. Hofiz Tanish Buxoriy o'z asarida shunchalik ko'p shaxs nomlarini va ular bilan bog'liq voqealarni keltiradiki, ularning hayratomuz miqdori muallif tarixiy bilim darajasining benihoya keng va yuksak ekanligidan dalolat beradi.

Buxoro xonligining ashtarxoniylar davri tarixidan bahs yurituvchi Muhammad Yusufning "Muqimxon tarixi", Muhammad Aminning "Ubaydullanoma", Abdurahmon Davlatning "Abulfayzxon tarixi" asarlari mazmunan bir-birini to'ldiruvchi qimmatli manba hisoblanadi. Jumladan, "Muqimxon tarixi" asarida Buxoro xonligining XVII-XVIII asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti keng tahlil qilinadi. Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi to'g'risidagi ayrim ma'lumotlar boshqa yondosh manbalarda uchramaydi. Jumladan, shayboniy Abdulmo'minning fitna oqibatida o'ldirilib, ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi masalasi muallif tarafidan tarixiy faktlar asosida qiziqarli tarzda bayon etilgan.

"Ubaydullanoma" asarining bir ustunlik jihati unda Buxoroda 1708 yil o'tkazilgan pul islohoti ayanchli oqibatlarining atroflicha bayon etilganidadir. Shuningdek, Ubaydullaxon davrida boshlangan boshboshdoqliklarning tub sabablariga asarda xolis baho berishga harakat qilingan.

"Abulfayzxon tarixi" asari 1722-yil voqealari bilan yakun topganligi sabab Abulfayzxonning boshlang'ich o'n yillik siyosiy faoliyatini qamrab oladi. "Abulfayzxon tarixi"ning yuqoridagi ikki asardan farqli jihati, unda Ubaydullaxonning bir guruh fitnachilar tarafidan 1711-yil Buxoro shahri yaqinidagi Piri marza saroyida qatl etilishi batafsil bayon qilinadi. Hokimiyat tepasiga kelgan Abulfayzxonning ichki-tashqi siyosatidagi muhim tamoyillar mamlakatda yuz berayotgan parokandalikka barham berish, markaziy hokimiyatni mustahkamlash, urug' boshliqlari itoatsizligini tizginlashga qaratilgani xususida asarda muhim ma'lumotlar mavjud.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoroda tarixnavislik keng ko'lam kasb eta boshladi. Muarriflar mang'it amirlarining hukmronlik davrida kechgan voqea-hodisalarni asosiy tarixiy ob'ekt sifatida tanlab olib, amirlar faoliyatini xronologik ketma-ketlikda bayon qila boshladilar Buyurtma asarlardan tashqari, mualliflarning o'z xohish-istaklari bilan erkin tarzda yozilgan asarlar dunyoga kela

boshladi. Ahmad Donishning (1827-1897) “Mang‘itlar sulolasining qisqacha tarixi” nomli asari mavjud tartib-qoidalar, ijtimoiy tuzumga nisbatan tanqidiy ruhda yozilgan. Har bir amir siyosiy biografiyasiga baho berishda muallif uning zaif, qusurli jihatlarini ochiq-oshkora ifoda etishga harakat qiladi. Jamiyatni qoloqlik girdobiga tortayotgan illatlarga nisbatan go‘yo ijtimoiy norozilik e‘lon qiladi.

Buxoro tarixini sulolaviy xronika yo‘nalishida tasvirlab berishni asosiy maqsad qilgan tarixchilardan biri Mirzo Somiy (1838-1907) hisoblanadi. Mirzo Somiyning yirik tarixchiligini tasdiqlovchi ikki tarixiy asar – “Tuhfai shohiy” va “Tarixi salotini mang‘itiya” fanda bir tarixiy asarning rasmiy va norasmiy variantlari, deb e‘tirof etiladi. “Tuhfai shohiy” saroy tarixchiligi an‘analari usulida, ya‘ni hukmdorlarni maqtab yozilgan bo‘lsa, “Tarixi salotini mang‘itiya”da ular faoliyatiga ba‘zan keskin munosabat ifoda etiladi. Masalan, muallifning birinchi tarixiy-adabiy asari “Daxmai shohon”da amir Nasrullonning qattiqqo‘lligi va zolimligi oshkora bayon qilingan. “Tuhfai shohiy” da esa uning davrida adolat tantana qilgani, o‘zaro nizolar barham topgani, mamlakat hududlari kengaygani qayd etiladi<sup>1</sup>. “Tuhfai shohiy” hajm jihatdan “Tarixi salotini mang‘itiya”dan kattaroq.

“Tarixi salotini mang‘itiya” asarida Rossiya imperiyasi istilolari masalasiga keng o‘rin berilgan. Ushbu mavzuga Mirzo Somiydan tashqari Ahmad Donish, Mirza Salimbek, Sharifjon Maxdum, Qozi Baqoxo‘ja kabi buxorolik muarrixlar qo‘l urishgan. Bular ichida masalani atroflicha yoritib bergan eng sara muallif Mirzo Somiydir. Uning “Tarixi salotini mang‘itiya” asari faktlarga boyligi bilan yuqorida tilga olingan mualliflarning asarlaridan farq qiladi. Asar uch qismdan iborat: 1.Asarning umumiy kompilyasiya qismi va amir Muzaffarning hokimiyatga kelishi. 2.Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi janglar va Buxoro amirligiga qarashli ayrim hududlarning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi. 3.1904-1905-yillardagi rus-yapon urushi, birinchi rus inqilobi, 1898 yilgi Andijon qo‘zg‘oloni.

“Tarixi salotini mang‘itiya”ning muayyan qismida jamiyatga sotsiologik nuqtai nazardan baho beriladi, muallif illat va nuqson deb

---

<sup>1</sup> Елифанова Л.М. Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения её к России. -Ташкент: “Наука” (Фан),1965.- 29-бет.

sanagan jihatlar ochib tashlanadi. Mirzo Somiy Amir Muzaffar iltifotlaridan bahramand bo'lgan bo'lsa-da, uning davrida ildiz otgan badxulqlik, amir fe'l-atvoridagi kibru havo, adolatsizlik tanqid ostiga olinadi va ushbu illatlar davlatni halokat yoqasiga olib keldi, degan xulosaga kelinadi. Buxoro davlati inqirozining tashqi omili sifatida mamlakatning Rossiya imperiyasi ta'siriga tushib qolishi hisoblanadi. Mirzo Somiy Rossiya imperiyasining tashqi siyosatiga nisbatan keskin pozitsiyada turgan. 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushida Rossiyaning mag'lubiyatini qo'llab-quvvatlagan<sup>1</sup>. Rossiya hukumati tomonidan harbiylarga to'lanadigan maosh miqdorining yuqoriligi rus xalqi ahvolini og'irlashtirdi, deb hisoblaydi.

“Tarixi salotini mang'itiya”da qiziq paradoksga duch kelamiz. Rossiya imperiyasi istilosi, tashqi siyosati, rus tartiblari, xristian madaniyatini hazm qila olmagan Mirzo Somiy Rossiya imperializmiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni qo'llab-quvvatlamaydi. Uning mohiyati, milliy-ozodlik xarakteri va siyosiy ahamiyatini idrok etishga sub'ektiv yondashadi. Andijon (Dukchi Eshon) qo'zg'olonini, zamonning ustuvor dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, o'z piriga sadoqatli, itoatkor muridlarning diniy harakati sifatida talqin qiladi.

Mirzo Somiy ijodiy merosining bir qirrasini bo'lmish tarixnavislik unga sharaf keltirdiki, bu e'tirof yuqorida tilga olingan tarixiy asarlar va ularda tasvirlangan tarixiy voqealar hamda “Tarixi salotini mang'itiya” asarining rus tilidagi xorijiy nashri misolida o'z isbotini topdi.

Tilga olingan asosiy tarixiy adabiyotlar Buxoro tarixini Evropa va rus olimlari tarafidan ilmiy o'rganish va qator ilmiy nashrlarni amalga oshirish uchun manba bo'lib xizmat qildi. Shu o'rinda Herman Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” nomli asarini eslatish o'rinli. Muallifning tarjimai holi, maqsadi va siyosiy maslagi to'g'risida ko'pchilikda muayyan bilim va tushuncha mavjud. Ushbu masalaga ortiqcha to'xtalishga hojat yo'q. Lekin asar nomi Evropada XIX asr birinchi yarmida Buxoro tarixiga qiziqishning mavjudligidan darak beradi. Adolat yuzasidan aytadigan bo'lsak, asarda aynan Buxoro to'g'risida ma'lumotlar deyarli uchramaydi yoki benihoya oz. Arablar istilosidan Muhammad Shayboniyxongacha bo'lgan

---

<sup>1</sup> Ўша асар, 120-бет.

Movarounnahr tarixi asarning asosiy mazmuni va xronologik chegarasini tashkil etadi. Evropada o'sha davrlarda "Buxoro" deganda butun Movarounnahr tushunilgan va asarning aynan yuqoridagidek nomlanishiga shu narsa sabab bo'lgan. Albatta bu holat asar ilmiy qimmatini pasaytirmaydi. Umuman Herman Vamberi asarida Movarounnahrning o'rta asrlar davri, jumladan, temuriylar tarixiga oid e'tiborga sazovor ilmiy ma'lumotlar mujassam.

Rus sharqshunosligida Buxoroga maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida qaralganligi uning arxeologik, etnografik, tarixiy jihatdan keng o'rganilganlikda o'z tasdig'ini topdi. Rus sharqshunosligi Buxoro bo'yicha juda katta tadqiqot bazasiga ega. Ularning barchasini sharhlashning iloji yo'q, shu bois asosiylarigagina to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Buxoro tarixi to'g'risida so'z ketganda akademik V.V.Bartold (1869-1930) ilmiy merosini tilga olmaslik mumkin emas. Uning ijodida Buxoro tarixi alohida o'rin tutadi. U o'zining dastlabki asarlaridayoq Buxoro tarixi bayoniga salmoqli o'rin ajratgan. 1900-yil Peterburg universitetida dissertatsiya sifatida himoya qilingan va keyinchalik alohida kitob holda nashr etilgan "Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston" asarida Movarounnahrning, jumladan, Buxoroning qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo'lgan tarixi yozma manbalar asosida to'laqonli aks ettirilgan. Uning shaxsiy tashabbusi va rahbarligi ostida rus sharqshunosi N.S.Likoshin Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarini rus tiliga tarjima qilib, 1897-yil Toshkentda chop etdi. N.S.Likoshin tarjima jarayonida qator qiyinchiliklarga duch kelgan va hatto tarjimadan voz kechmoqchi ham bo'lgan. Lekin V.V.Bartoldning qo'llab-quvvatlashi va yordami bilan tarjima oxirigacha etkazildi. V.V.Bartold "Buxoro va uning atrofida islomdan oldingi sajdagohlar" nomli ishini Narshaxiy asari hamda boshqa qo'lyozma manbalar asosida yozadi<sup>1</sup>. Olimning bu tadqiqoti Buxoro va uning atrofida islomgacha mavjud bo'lgan budda, zardushtiylik ibodatxonalari, arablar istilosi davrida ularning masjidga aylantirilishi, Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi va toponimikasi, qadimgi shahriston darvozalari, Buxoro shahrining shakllanish evolyusiyasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Места домусульманского культа в Бухаре и её окрестностях. Соч. в 9-томах. Том 2. часть 2. – М.: Наука, 1964.

Uning asarlari amaliy ahamiyatga ega. 1925-yil “Pravda Vostoka” gazetasida e’lon qilingan “Buxoro. Uning yodgorliklari va ularning taqdiri” nomli maqolasi Buxoro me’moriy obidalarini asrashga da’vat bo’lib xizmat qildi. U Buxoro shahri darvozalarining tarixiy nomlarini saqlab qolish zarurligini doimo uqtirib keldi. 1927-yil V.V.Bartold tomonidan yozilgan “Turkiston madaniy hayoti tarixi” asarining “Buxoro” deb atalgan bobi Buxoro tarixi bilan qiziquvchilar, ayniqsa Buxoro tarixi ta’lim yo’nalishi talabalari uchun muhim qo’llanmadir. Unda Buxoroning Rossiya imperiyasi yarim mustamlakasiga aylanishi va protektorat davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti atroflicha yoritib berilgan.

Buxoroning saroy udumlari tarixini o’rganishda V.V.Bartold asarlaridan foydalanish yaxshi natija beradi deb hisoblaymiz. “O‘zbek xonliklari saroyidagi an’analar” asari Buxoro xonligi saroyidagi etnomadaniy masalalarni yorituvchi manba bo’lib xizmat qiladi. Jumladan, Buxoro xonlarining taxtga chiqish marosimi, marosim ishtirokchilarining etnik mansubligi, lavozimi, marosim jarayonidagi joylashish tartibi va hokazolar to’g’risida muallif batafsil ma’lumot beradi. Ushbu masalani keyinchalik M.S.Andreev va O.D.Chexovich “Buxoro Arki” nomli kitobida batafsil yoritgan bo’lsa-da, baribir V.V.Bartold ma’lumotlari o‘z originalligini saqlab qolgan.

Ta’kidlash joizki, V.V.Bartoldning Buxoroga doir ma’lumotlarini ba’zan tanqidiy qabul qilish, ayrimlarining eskirganligini e’tirof etish va uning o’rniga yangilarini taqdim etish zarur deb o’ylaymiz. Talabalarga ham shuni tavsiya etamiz.

Rus tadqiqotchilaridan P.P.Shubinskiy, I.I.Umnyakovning Buxoroga oid tadqiqotlari qiziqarli va zaruriy materiallarga boyligi bilan diqqatni tortadi. P.P.Shubinskiy “Buxoro ocherklari” asarida Buxoro mang’it amirlarining tarjimai holi, valiahd tayinlashdagi an’anaviy va noan’anaviy siyosiy usullari, ayniqsa Amir Abdulahad faoliyatini keng ko’lamda yoritib beradi. Uning boshqa nashrlardan farqli jihatida matn orasida Buxoro amirlarining retushlangan va grafika usulida bajarilgan suratlari joylashtirilgan<sup>1</sup>.

Buxoro shahri tarixiy topografiyasi masalalariga qo’l urgan yana bir tadqiqotchi I.I.Umnyakovdir. Buxorodagi rus siyosiy agentligi mahkamasida faoliyat ko’rsatgan davrlarda, ya’ni 1916-1920-yillar

---

<sup>1</sup> Шубинский П.П. Очерки Бухары. СПб, 1892.



orasida Buxoro shahri tarixiy topografiyasi masalalari bilan jiddiy shug‘ullanadi. Mahalliy va arab manbalarini jalb qilgan holda Buxoro shahrining ilk o‘rta asrlardagi tarixiy qo‘rinishini tiklashga muvaffaq bo‘ldi. Qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlar uning “Buxoroning o‘rta asrlar tarixiy topografiyasi masalalariga doir”<sup>1</sup> kitobida o‘z aksini topdi. Mahalliy va arab geograflari ma‘lumotlarini qiyosiy o‘rganish natijasida Buxoro shahri tarixiy topografiyasi davrlar osha o‘zgarib borganligi va hatto darvozalar nomi ham zamonga qarab o‘z nomini o‘zgartirib turgani xususida qimmatli ma‘lumotlarni taqdim etadi.

Buxoroda sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin ham Buxoroni o‘rganish ishlari davom etdi. 1921-yil Buxoroda tashkil topgan dastlabki ilmiy o‘lkashunoslik jamiyati - “Tarixi anjuman” o‘z tarkibiga V.V.Bartold, A.A.Semenov, P.Soliev singari atoqli olimlardan tashqari, bir guruh mahalliy ziyoli ma‘rifatparvarlarni birlashtirgan ediki, ular safida Sayyid Muhammad Nosir ham bor edi.

“Tarixi anjuman” jamiyati vazifasi doirasida amalga oshirilgan yagona ish Sayyid Muhammad Nosir tomonidan tayyorlangan “Tadqiqoti arki Buxoro” asaridir. O‘z davri uchun yuqori intellektual salohiyatga egaligi va eng asosiysi, Buxoro arkining tarixi, tarixiy topografiyasini yaxshi bilgani tufayli, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, “Tarixi anjuman”ga qabul qilinadi va unga Buxoro arkining tarixi, tarixiy topografiyasi bo‘yicha risola tayyorlash vazifasi topshiriladi. Boshqa bir sabab, amirlik davrida arkdan chiqmaslik majburiyati bilan cheklangan bu shahzodaning hayoti Buxoro arki ichida, xalq tili bilan aytganda, “shahar ichidagi shahar”da o‘tdi. Tabiiyki, u arkning tarixiy topografiyasi, me‘moriy, ma‘muriy, xo‘jalik binolari tarixini yaxshi bilgan va bu masalada o‘sha davrda yagona bilimdon sanalgan. To‘rt gektarli ark ustida qad ko‘tarib turgan barcha binolarni u o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, ayrimlarining ichiga kirgan, holatidan xabardor bo‘lgan. Arkda olib borgan tadqiqot va kuzatuvlarining natijasi “Tadqiqoti arki Buxoro” asarida o‘z ifodasini topadi.

O‘tgan asr 20-yillarida Buxoro tarixi, aniqrog‘i shaharsozlik tarixi masalalari bilan bir guruh mahalliy o‘lkashunos olimlar ham shug‘ullandilar va e‘tiborga sazovor natijalarga erishdilar. Taniqli

---

<sup>1</sup> Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары. Сборник Туркистанского Восточного Института в часть проф. Э.А. Шмидта, Ташкент, 1923.

tarixchi-o'lkashunos olim Muso Saidjonovning (1893-1938) bu boradagi faoliyati ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Uning "Buxoro shahri va eski binolari" nomli tadqiqoti Buxoro shahrining tarixiy topografiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda Buxoro shahristoni, Ark va undagi imoratlar, Registon va unga tutash hamda yaqin joylarda joylashgan binolar to'g'risida ma'lumot beriladi. Ish boy tarixiy manbalar, jumladan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi", o'rta asr vaqf hujjatlari, arxeologik ashyolar asosida yozilgan va hanuzgacha o'z ilmiy qimmatini saqlab kelmoqda. Muallif V.V.Bartold, I.I.Umnyakov kabi mashhur olimlar tadqiqotlari, shuningdek, Fotih Karim tarjimalaridan ham foydalangan.

Muallif Buxoro vohasida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuv bosqichlarini ochib beradi. Buxoro shahrining paydo bo'lish tarixiga ilmiy yondashgan birinchi mahalliy tarixchi Muso Saidjonovdir. Muso Saidjonov asari sermashaqqat arxeologik kuzatuvlar, somoniylar, temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar davri vaqf hujjatlarini o'rganish, ularni qiyoslash natijasida olingan ilmiy xulosalar mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun unga qayta-qayta murojaat qilish mumkin.

Muso Saidjonovning Buxoro shahristoni tarixiy topografiyasi bo'yicha amalga oshirgan tadqiqoti boshqa olimlar tadqiqotidan o'z aniqligi, ilmiy dalillarga asoslanganligi bilan farq qiladi. Olim shahristonning har bir tomoni uzunligini, shuningdek, uning etti darvozasi joylashgan erni vaqf hujjatlari asosida aniq ko'rsatgan. SHahriston ichida va unga yaqin erlarda joylashgan binolar to'g'risida ham qimmatli ma'lumot beradi. Jumladan, "Darvozai kabiriya" deb atalgan darvoza vaqf hujjatlarida "Darbi islom" nomi bilan tilga olinib, u hozirgi Takbandbofon guzariga chiqiladigan ko'cha boshida joylashgan. Muso Saidjonov Darvozai nav shahristonning shimoli-sharqida, hozirgi Shoh Aysi mozori va xonaqosi g'arbida joylashgan, deb hisoblaydi. Muallifning qat'iy fikricha, shahriston atrofi xandak bo'lgan. Bu xandakning ba'zi qismlari shayboniy Abdullaxon (1557-1598) davrigacha mavjud edi. Bu fikr boshqa olimlarda uchramaydi va Buxoro shahri tarixiy topografiyasini tadqiq qilish borasidagi yangilikdir.

XX asr 20-yillarida me'morchilik fanida Ismoil Somoniy maqbarasi XII asrda qurilgan degan fikr mavjud edi. Bu fikrni ilgari suruvchilar Qoraxoniylar davrida O'zganda qurilgan minora va

maqbaralar me'moriy uslubi bilan Ismoil Somoniy maqbarasiga o'xshashligini asos qilib olgan edilar. Muso Saidjonov esa bunga muqobil fikrni ilgari suradi, ya'ni Somoniylar davridagi me'moriy uslub Qoraxoniylar davrida ham davom etganligini ta'kidlaydi.

Olim o'z tadqiqotlarida ashtarxoniylar davrida Buxoro Registoni va unga yaqin erda qurilgan Masjidi Poyanda, Madrasai Bozori go'sfand, Madrasai Dor ash-shifo, Madrasai Xo'ja Nihol, Boloi havz kabi binolar to'g'risida ma'lumot beradi. Uning ma'lumotlari vaqf hujjatlariga asoslangan bo'lib, bunday ma'lumotlar tarixiy asarlarda uchramaydi. Buxoro Registoni g'arbida joylashgan Bolohovuz masjidining qurilish tarixi to'g'risida muallif kam ma'lum bo'lgan dalillarni keltiradi. Uning fikricha, Bolohovuz masjidi ashtarxoniy Abulfayzxonning (1711-1747) onasi "Bibi podshoh" taxallusini olgan Sitorai Mohi Xosa tarafidan qurilgan. Sitorai Mohi Xosa nomli hozirgi amir saroyi o'rnida shu ayol tomonidan bog'barpo etilgan. Amir Abdulahad (1885-1910) zamoniga kelib bu bog' xaroba holga tushib qolgan edi. Amir Abdulahad bog'ni obod qilib uning tarixiy nomini qayta tiklaydi va "Sitorai Mohi Xosa" nomini beradi. Demak, Muso Saidjonov ma'lumotlari Sitorai Mohi Xosa saroyi va uning nomining paydo bo'lishi to'g'risidagi hozirgi mavjud ma'lumotlar va xalq og'zida yurgan rivoyatlar mazmunini butunlay o'zgartirib yuboradi.

Olimning tilga olingan asari Buxoroning o'rta asrlardagi tarixiy topografiyasi, shahardagi ba'zi obidalar tarixini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning 20-30-yillarida sermahsul ijod qilgan atoqli muarrix Po'lat Solievning ilmiy merosi, uning ijodi to'g'risidagi ayrim biografik va publitsistik maqola va risolalarni istisno qilganda, hali etarli bahosini olmagan.

Po'lat Solievning "Mang'itlar saltanati davrida Buxoro o'lkasi" nomli asari mang'itlar davri tarixini o'rganish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda muallif o'zidan oldingi tarixchilarning asarlaridan manba sifatida foydalangan bo'lsa-da, Ahmad Donish, Mirzo Somiy nuqtai nazarini to'liq qabul qilmagan va o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan.

Buxoro o'lkasining tanazzulga yuz tutish sabablarini Po'lat Soliev mang'itlar hukmronligi bilan bog'laydi. IX-XV asrlarni Buxoro tarixidagi porloq davrlar deb hisoblaydi. Negadir mo'g'ullar istilosi davridagi vayronagarliklar, iqtisodiy va siyosiy tanazzul muallif

tomonidan chetlab o'tilgan. Buning o'rniga mang'it qabilalarining aynan mo'g'ullar istilosi davrida Chingizxon qo'shinlari tarkibida g'arbga tomon siljiganligi va Amudaryoning quyi oqimiga kelib o'rnashib olganligi va keyingi asrlarda, xususan Shayboniyxon hukmronlik yillarida uning qo'shini tarkibida Xuroson yurishlarida ishtirok etishi, keyinchalik Qarshi atroflarida joylashib olishi kabi ma'lumotlar tavsiya etiladi.

Ahmad Donish va Sadriddin Ayniydan farqli o'laroq, Po'lat Soliev mang'itlar davri tarixini qisqa xronologiyada beradi. Asosan Amir Shohmurod, ya'ni Amir Ma'sumdan Amir Muzaffargacha bo'lgan davr qamrab olingan. Mang'itlarning tashqi siyosatiga tanqidiy munosabat bildiradi. Evropaning qudratli davlatlari tashqi siyosatida ustuvor bo'lgan "Sharq masalasi"ning musulmon mamlakatlari uchun qay darajada xavfli ekanligidan Buxoro hukmdorlari bexabarligini afsus bilan yozadi.

Po'lat Soliev fikricha, mang'itlar hukmronligi Amir Ma'sumdan, ya'ni Amir Shohmuroddan boshlangan. Muhammad Rahimxonni umuman tilga olmaydi. Lekin Amir Doniyolning Ashtarxoniylar davridagi obro'-e'tiborini adolat yuzasidan e'tirof etadi. Buxoroning so'nggi o'rta asrlar tarixnavisligida Amir Shohmurod shaxsi ijobiy bo'yoqlarda tasvirlanadi. Ayniqsa, Ahmad Donish Amir Shohmurodni ummaviylarning sakkizinchi xalifasi Umar bin Abdulazizga qiyoslab, uning darvishona turmush tarzini maqtovlar silsilasida bayon etadi.<sup>1</sup> Po'lat Soliev ushbu an'anadan chekingan holda Amir Shohmurod shaxsiga o'ta tanqidiy munosabatda bo'lgan va uning islohotchilik faoliyatiga panja ortidan qaragan. Amir Shohmurod davrida dinning maydalashib ketganini qoralaydi. Mazkur masalada Po'lat Soliev va Fitrat fikrlari mushtarak.<sup>2</sup>

Po'lat Solievning "Mang'itlar saltanati davrida Buxoro o'lkasi" nomli risolasini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

---

<sup>1</sup> Аҳмад Махдуми Дониш. Рисола, 14-16 бетлар; яна қаранг: Акке фон Кюгельген. Легитимация, 398-399 бетлар.

<sup>2</sup> Абдурауф Фитрат Амир Шохмуроднинг диний сиёсатиға ўта салбий муносабатда бўлган. Уни ислом амалиётиға ҳаддан зиёд берилиб кетганликда айблайди ва ҳатто баъзи ўринларда ноҳолис бўрттиришларға йўл қўяди. Қаранг: Фитрат. Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври, 7-бет.

-risola murakkab tarixiy davrda yozilgani bois, unda davr ilmiy tafakkuri aks etishi muqarrar edi;

-muallif masalani hukmron mafkura talablari doirasida bayon etish uchun o'zini mas'ul deb hisoblagan;

-muallif Buxoro amirligining Rossiyaning yarim mustamlakasiga aylanishini Buxoroning o'z mustaqilligidan to'la mahrum bo'lishi deb hisoblab, so'nggi Buxoro amirlari – Amir Abdulahad va Amir Olimxon siyosiy faoliyatini izohlashni lozim topmagan;

-asar oldindan rejalashtirilgan maqsad va vazifalar doirasida yozilganligi uchun, unda bir tomonlamalikka yo'l qo'yilgan.

Buxoro xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan Jo'ybor xo'jalari xonadoni tarixi bo'yicha o'tgan asrning 50-yillarida P.P.Ivanov tomonidan fundamental tadqiqot amalga oshirildi <sup>1</sup>. Olimning qiziqish doirasi Jo'ybor xo'jalari xo'jaligining tashkil topishi va rivojlanishi masalalarini qamrab oladi. U Xo'ja Islomning Buxoro xoni Abdullaxonga bo'lgan ta'sirining moddiy va ma'naviy sabablarini ochib berish jarayonida xonadonga tegishli erlarning miqdori to'g'risida ma'lumot beradi Umuman, Xo'ja Islom tomonidan xonadon iqtisodiy poydevorining yaratilishi va mustahkamlanishini misollar bilan ko'rsatib o'tadi.

Xonadoninig boshqa bir vakili Xo'ja Sa'd xo'jalik faoliyati P.P.Ivanov diqqat markazidagi alohida masalalardan biri bo'lgan. Uning qaramog'idagi erlar va ularning hajmi, joylashgan o'rni, yirik mulklarni boshqarish maqsadida Xoja Sa'd tomonidan joriy etilgan tizim kabi qator masalalar olim tadqiqot ob'ektining asosini tashkil etadi. "*Matlab at-tolibin*" asarida keltirilgan Xo'ja Sa'dning ko'plab ziyofatlar uyushtirishi to'g'risidagi ma'lumotlarni e'tirof etgan holda bu ziyofatlarga ketgan xarajatlar miqdoriga shubha bildiradi. Jo'ybor xo'jalarining keyingi vakillari faoliyati ham asarda yaxshi ochib berilgan.

Umuman P.P.Ivanovning bu ishini davriy va metodologik jihatdan eskirgan deb hisoblasak-da, uni Buxoroning XVI-XVII asrlar tarixidan bahs yurituvchi va faktik materiallarga boy asarlar sirasiga kiritish mumkin.

---

<sup>1</sup> Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1954.

Atoqli tarixchi M.A.Abduraimov Buxoro xonligidagi agrar munosabatlari tarixiga bag‘ishlangan “Buxoro xonligida agrar munosabatlar ocherklari” asari bilan Buxoro tarixi sahifalarini boyitdi<sup>1</sup>. Yer egaligi turlari, soliqlar miqdori va ularni yig‘ish tartiblari, in‘om etiladigan mulklar, suyurg‘ol, tanxoh, qo‘shimcha soliq va majburiyatlar, soliq siyosatiga qarshi xalq chiqishlari kabi masalalar asarda keng ochib berilgan.

O‘tgan asr 70-yillaridan Buxoro tarixining akademik nashrini tayyorlash yuzasidan boshlangan ishlar 1976-yil o‘z nihoyasiga etdi va akademik I.Mo‘minov tahriri ostida rus tilida “Buxoro tarixi” asari nashr etildi<sup>2</sup>. Kitob mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlanib, har bir bobini davr bo‘yicha mutaxassis muallif yozgan. To‘qqiz bobdan iborat kitobda Buxoroning eng qadimgi zamonlardan XX asrning 70-yillarigacha bo‘lgan tarixi yoritib berilgan. Kitob sovet mafkurasi doirasida yozilganligini inobatga oladigan bo‘lsak, uni mafkuraviy jihatdan eskirgan deb hisoblashga asos bor. Lekin Buxoroning qadimgi davrlarga oid tarixiga bag‘ishlangan qismidagi ma‘lumotlardan ayni paytda ham foydalanish mumkin.

Mustaqillik yillarida Buxoro tarixining ayrim masalalari dissertatsion tadqiqot darajasiga ko‘tarilib, ba‘zi jihatlari monografiya, risola va maqolalarda, shuningdek, darsliklarda o‘z aksini topdi. Bunga akademik A.Asqarov tahriri ostida nashr etilgan ikki jildli O‘zbekiston xalqlari tarixi<sup>3</sup>, B.A.Ahmedovning “Tarixdan saboqlar”<sup>4</sup>, A.Muhammadjonovning “O‘zbekiston tarixi”<sup>5</sup>, O‘zR FA Tarix instituti tomonidan rus tilida tayyorlangan “Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX veka)”<sup>6</sup>, B.Mirzaqulovning “Buxoro tarix zarvaraqlarida”<sup>7</sup>, Rustam Shamsiddinov va boshqa bir guruh

---

<sup>1</sup> Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI - первой половине XIX века. – Т.: Фан, 1970.

<sup>2</sup> История Бухары с древнейших времен до наших дней. Под редакцией академика И.М.Муминова. – Т.: Фан, 1976.

<sup>3</sup> Ўзбекистон халқлари тарихи. I- II жилд. Академик А.Аскарлов тахрири остида.- Т.:Фан, 1993.

<sup>4</sup> Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994.

<sup>5</sup> Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004.

<sup>6</sup> История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века. – Т.: Фан, 2012.

<sup>7</sup> Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида.1-китоб. –Т.: Lessor Press, 2016; шу муаллиф, Бухоро тарих зарварақларида.2-китоб. –Бухоро: Дурдона нашриёти, 2018.

mualliflar ijod mahsuli hisoblangan “Vatan tarixi”<sup>1</sup>, Q.Rajabov va S.Inoyatovlarning “Buxoro tarixi”<sup>2</sup> va boshqa qator darslik va kitoblarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

A.Asqarov tahriri ostida nashr etilgan “O‘zbekiston xalqlari tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmaning ikkinchi jildida o‘lkamiz tarixining XV- XX asr boshlari davri qamrab olingan. O‘quv qo‘llanmada, jumladan, Buxoro xonligining shu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti qisqa satrlarda yoritib berilgan. Mustaqillik yillaridagi dastlabki o‘quv nashrlaridan biri bo‘lgani sabab, unda illyustrativ materiallar, xarita va sxemalar mavjud emas. O‘quv qo‘llanmadan o‘sha davr uchun muhim bo‘lgan tarixiy ma’lumotlar joy olgan. Unda shayboniylarga nisbatan qo‘llanilgan “ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati”, “ko‘chmanchi o‘zbeklar tomonidan Movarounnahrning zabt etilishi” kabi iboralar hozirgi o‘quv adabiyotlarida qo‘llanilmaydi va eskirgan hisoblanadi.

B.A.Ahmedovning “Tarixdan saboqlar” kitobi O‘zbekiston tarixidan darsliklar nashr etish boshlangan va Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchi va talabalarini O‘zbekiston tarixidan yangi bilimlar bilan qurollantirish dolzarb bo‘lib turgan bir davrda nashr yuzini ko‘rdi. Tabiiyki o‘sha davrda bu mazmundagi o‘quv adabiyotiga talab yuqori edi. Kitobda Buxoro tarixiga oid qo‘lyozma manbalar, jumladan, “Ravzat ar-rizvon”, Buxoro xonligining XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim mavqega ega bo‘lgan Jo‘ybor xo‘jalari tarixi, shayboniy hukmdorlaridan Baroqxon (Navro‘z Ahmadxon) to‘g‘risida qisqa, lekin kerakli ma’lumotlar keltiriladi. Ushbu kitob O‘zbekiston tarixi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan Buxoro tarixi bo‘yicha qo‘shimcha o‘quv adabiyoti bo‘lib xizmat qildi.

A.Muhammadjonov tomonidan yaratilgan “O‘zbekiston tarixi”<sup>3</sup> darsligi universitet bakalavrlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, xronologik chegarasi IV asrdan XVI asr boshlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Aytish joizki, darslik tajribali arxeolog olimning darsliklar yaratish borasidagi salohiyatini to‘la namoyon qiluvchi nashrdir.

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S., Ubaydullaev O’. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. – T.: «Sharq» nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016.

<sup>2</sup> Ражабов Қ., Иноятлов С. Бухоро тарихи. – Т.: Tafakkur, 2016.

<sup>3</sup> Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи (IV асрдан XVI аср бошларигача). – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2004.

Darslik xronologik jihatdan cheklangan bo‘lishiga qaramay, Buxoro tarixining arablar istilosi, somoniylar, qoraxoniylar davri atroflicha ochib berilgan.

O‘zR FA Tarix instituti tomonidan rus tilida tayyorlangan “Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX veka)”<sup>1</sup> nomli ilmiy nashrda Buxoro xonligining XVI–XIX asrlar birinchi yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti fundamental tadqiq qilingan. Davr bo‘yicha amalga oshirilgan eng so‘nggi tadqiqotlar va dissertatsiyalardan foydalanilgan holda yaratilgan bu kitob Buxoro tarixiga doir yangi ma‘lumotlarni o‘zida mujassam qilganligi bilan O‘zbekiston tarixi, shuningdek, Buxoro tarixiga qiziquvchilar va shug‘ullanuvchilar hamda talabalarga zaruriy bilim va ma‘lumotlarni taqdim etadi.

B.Mirzaqulov kitobida Buxoroning qadimgi zamonlardan to Mustaqillik yillarigacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, xo‘jalik hayoti, qadimgi va o‘rta asrlar tarixining asosiy masalalari, sovet davri, jumladan, qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish va uning og‘ir oqibatlari, uzoq o‘lkalarga surgun qilinganlar ro‘yxati, ikkinchi jahon urushi yillarida Buxoroning qishloq xo‘jaligi, sanoati, maorifi, buxorolik urush qahramonlari, sovet davrida Buxoro xalq xo‘jaligining mustamlakachilik manfaatlariga bo‘ysundirilgani, “Paxta ishi”ning Buxoro viloyatidagi salbiy oqibatlari kabi masalalar qamrab olingan.

R. Shamsiddinov va boshqa bir guruh mualliflar hamkorligida nashr etilgan “Vatan tarixi” o‘quv qo‘llanmasi ikkinchi kitobida Vatanimiz tarixining Shayboniylar davlatining tashkil topishidan to XX asr boshlarigacha bo‘lib o‘tgan muhim voqealar yoritilgan. Kitobda shayboniylar, ashtarxoniylar, o‘zbek xonliklari, Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, o‘lkadagi mustamlaka hukmronligi, mustamlakachilikka qarshi kurash, demokratik va milliy-ozodlik, jadidchilik harakatlari asosida aks ettirilgan. Buxoro xonligidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar shayboniylar, ashtarxoniylar, mang‘itlar hukmronlik davri misolida yoritib berilgan. Matn ichida tarixiy shaxslar surati berilgan, biroq xarita mavjud emas.

Qahramon Rajabov va Sulaymon Inoyatov ijod mahsuli hisoblangan “Buxoro tarixi” kitobi Buxoro tarixiga o‘ziga xos

---

<sup>1</sup> История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века. – Т.: Фан, 2012.



yondashuv bilan yuqoridagi kitobdan farq qiladi. Mazkur nashr keng ilmiy jamoatchilik, ziyolilar, o‘qituvchi va o‘quvchilar, talabalarga mo‘ljallanganligi bois, undagi ma’lumotlar qomusiy mazmunga ega. Kitobda Buxoro to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlardan tashqari, har bir soha tarixiga oid maxsus ma’lumotlar mavjud. Hunarmandchilik turlari, jumladan, zardo‘zlik, zargarlik, kandakorlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi alohida ko‘rib chiqilgan. Buxoro musiqasining shoh asari bo‘lmish SHashmaqom, Buxoro raqs san’ati tarixi maxsus tadqiq etilgan. Buxoroning o‘rta asrlardagi me’moriy obidalari, darvozalar, boshqa turdagi tarixiy obidalari, aziz avliyolari, matbuoti, adabiyot va san’at namoyandalari, Mustaqillik yillaridagi sanoati, madaniyati, maorifi, ommaviy axborot vositalari va hokazolar to‘g‘risidagi masalalar xronologik izchillik bilan ochib berilgan.

“Buxoro mavjlari” jurnali sahifalarida Q.Rajabov tomonidan Buxoro hukmdorlari faoliyatiga doir turkum maqolalarning e’lon qilinishi ziyolilar, keng ilmiy jamoatchilik, tadqiqotchilar va ayniqsa buxorolik talabalarni Buxoro tarixiga yaqinlashtirdi, uning o‘qilmagan sahifalaridan ogoh bo‘lish imkonini berdi.

Buxoro tarixining tarixiy o‘lkashunoslik fani bilan chambarchas bog‘liqligi ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlash jarayonida tarixiy o‘lkashunoslik fani yutuqlaridan va bu yo‘nalishda Rossiyada va qisman qo‘shni mamlakatlarda yaratilgan “Tarixiy o‘lkashunoslik” o‘quv qo‘llanmalaridan metodologik asos sifatida foydalanish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Rossiyalik G.N.Matyushin<sup>1</sup>, I.V.Viborova<sup>2</sup>, A.A.Raspopina, I.A.Raspopina, G.E.Kornilov<sup>3</sup>, qozog‘istonlik muallif Sh.S.Axmetova<sup>4</sup> tomonidan yaratilgan shu mavzuga doir o‘quv qo‘llanmalar bunga misoldir.

Rossiyalik taniqli o‘lkashunos G.N.Matyushin qalamiga mansub “Tarixiy o‘lkashunoslik” darsligida tarixiy o‘lkashunoslikning shakllanishida muhim rol o‘ynagan arxeologiya, etnografiya, me’moriy obidalar, san’at asarlari, yozma va og‘zaki manbalar

---

<sup>1</sup> Матюшин Г.Н. Историческое краеведение: учебное пособие. – М.: Просвещение, 1987.

<sup>2</sup> Выборова И.В., Распопина А.А., Распопина И.А. Иркутское краеведение: основы экскурсионной работы: учебно-методический материал. – Иркутск: БГУЭП, 2008.

<sup>3</sup> Корнилов Г.Е. Историческое краеведение Урала: учебное пособие. – Екатеринбург: Уральский государственный университет, 2015.

<sup>4</sup> Ахметова Ш.С. Историческое краеведение в Казахстане: учебное пособие. – Алма-Ата, 2012.

to'g'risida keng ma'lumot beriladi. O'lkashunoslik materiallarini tarix darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash usullari ko'rsatib o'tiladi. Ushbu darslik Rossiya oliy o'quv yurtlari tarix ixtisosligi ta'lim yo'nalishida hozir ham o'qitilib kelmoqda.

I.V.Viborov va boshqalar hamkorligida chop etilgan "Irkutsk o'lkashunosligi" nomli o'quv qo'llanma tarixchi talabalar bilan birga gidlarga mo'ljallangan bo'lib, o'lkashunoslikka doir uslubiy ma'lumotlar beradi va shahar bo'ylab obzor ekskursiyalar o'tkazish, ekskursiya yo'nalishlarini belgilash, tarixiy ob'ektlarni tanlashga ko'mak beradi.

G.E.Kornilovning "Ural tarixiy o'lkashunosligi" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida talabalarni nafaqat o'lkashunoslikning predmeti, manbalari, usullari bilan tanishtirish, balki uning muhim va ishonchli tajribasini amaliyotga qo'llash yo'llarini o'rgatish maqsad qilib olingan. Qo'llanmada XVIII -XX asr boshlarida Rossiyada tarixiy o'lkashunoslik masalalari. Rossiya va Uralda XX-XXI asr boshlarida tarixiy o'lkashunoslikning yozma, arxeologiya, etnografiya, san'atshunoslik manbalari ko'rib o'tilgan.

Sh.S.Axmetova tarafidan nashr etilgan "Qozog'istonda o'lkashunoslik" nomli o'quv qo'llanmada Qozog'istonda tarixiy o'lkashunoslikka oid ishlar umumlashtirilgan va ularga ilmiy baho berilgan.

Yuqoridagi fikrlarga ilova tariqasida shuni ta'kidlamoqchimizki, tarixiy o'lkashunoslikka mamlakatimizda ham katta e'tibor berib kelinmoqda. Tarixchi, o'lkashunos olim A.Nabievning hozirga qadar o'qitilib kelinayotgan "Tarixiy o'lkashunoslik" nomli o'quv qo'llanmasi fikrimizni tasdiqlaydi<sup>1</sup>.

Chet ellarda ham Buxoro tarixiga befarq emaslikning namunasi sifatida Amir Olimxonning farzandlaridan biri Sayyid Mansur Olimiy qalamiga mansub "Buxoro – Turkiston beshigi"<sup>2</sup> nomli kitobni eslatish foydadan xoli emas. Kitob 1996-yil Turkiyada chop etilgan. Kitobda Turkistonning arablar tomonidan istilo qilinish davridan to XX asr 20-yillarigacha bo'lgan tarix o'z aksini topgan. Asosiy e'tibor mang'itlar xonadoni hukmronlik davriga qaratilgan. Bolsheviklar tomonidan Buxoroning bosib olinishi va uning oqibatlarini, istiqloqlilik

<sup>1</sup> Набиев А. Тарихий ўлкашунослик: ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

<sup>2</sup> سيد منصور عالمي بخارا گھواره تركستان Саййид Мансур Олимий. Бухоро-Туркистон бешиги. Анқара – 1996.

harakati, bu harakatning ko‘zga ko‘ringan vakili Mullo Ibrohimbek tarjimasini holi, Amir Olimxonning Afg‘onistondagi iztiroblarga to‘la hayoti kitobdagi voqealar negizini tashkil etadi. Kitobning bir e‘tiborga molik jihati, Amir Olim nafaqat hukmdor, balki shaxs sifatida ham talqin qilingan. Kitob Buxoroda o‘rnatilgan sovet rejimiga qarshi ruhda yozilgan va unda ba‘zi munozarali masalalar ko‘zga tashlanadi. Muallif mang‘itlar xonadoniga mansub bo‘lganligi sabab, ayrim masalalarga sub‘ektiv yondashgan. Muallifda mang‘it hukmdorlari va ular hukmronlik davrini faqat ijobiy bo‘yoqlarda ko‘rsatish tendensiyasi ustuvor.

Xorijlik tadqiqotchilar ilmiy merosi so‘nggi yigirma yilda Buxoro tarixining turli tomonlarini qamrab olish bilan yanada boyidi. Yurgen Paul<sup>1</sup>, Devin Devis<sup>2</sup>, Florian Shvars<sup>3</sup>, Anke fon Kyugelgen<sup>4</sup>, Mariya Shuppe<sup>5</sup>, Oleg Akimushkin<sup>6</sup>, Aleksey Xismatulin<sup>7</sup> va boshqa xorijlik hamda rossiyalik tadqiqotchilar ilmiy yo‘nalishida Buxoro alohida ahamiyat kasb etib, maxsus tadqiqot ob‘ektiga aylandi. Bu tadqiqotchilarning aksariyati Buxoroda shakllangan Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy hayotdagi o‘rni masalasini chuqur tahlil qilishni asosiy vazifa sifatida tanlab, shu yo‘nalishda qator tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Aynan shunday holat birinchidan, bu mualliflar ishlaridan faqat tor mavzular doirasida foydalanish mumkinligini taqozo etsa, ikkinchidan bu asarlar orqali Buxoro tarixining barcha masalalari yuzasidan ma‘lumot olish imkonini cheklaydi. SHunga

---

<sup>1</sup> Jürgen Paul. *Doctrine and Organization the Khwajagan-Naqshbandiya in the First Generation After Baha‘uddin: Das Arabische Buch*, 1998 (ANOR 1).

<sup>2</sup> Devin De Weese. *Kojagani Origins and the Critique of Sufism ...*, Ed. by Frederick De Jong and Bernd Radtke. Leiden-Boston-Köln, 1999. – P. 492-519.

<sup>3</sup> Florian Schwarz. *Unser Weg schließt tausend wege ein. Derwische und Gesellschaft im islamischen...* Berlin, 2000.

<sup>4</sup> Anke von Kugelgen. *Die Legitimierung der mittelasiatischen Mangitendynastie.* – Istanbul, 2002.

Шу муаллиф, *Легимитация среднеазиатских династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв).* – Алматы: Институт Востока Германского Восточного общества, 2004.

<sup>5</sup> Bakhtiyar Babajanov et Mariya Szuppe. *Les inscription persanes de Char Bakr, necropole familiale des Khwaja Juybary pres de Boukhara // Corpus Inscriptionum Iranicarum.* London, 2002.

<sup>6</sup> Акимушкин О. *Накшбанд // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Том 1.* – М.: Восточная литература, 2006. – Б.299-301.

<sup>7</sup> Хисматулин А. *Ходжаган // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Том 1.* – М.: Восточная литература, 2006. – Б. 417-425.

qaramasdan, tilga olingan mualliflar tarafidan e'lon qilingan ishlardan xorijiy mamlakatlardagi Oliy ta'lim muassasalarida professor o'qituvchilar, magistrlar va talabalar foydalanib, o'z bilimlarini oshirib kelmoqdalar. Bular ichida Anke fon Kyugelgenning "Mang'it tarixchilari asarlarida O'rta Osiyo mang'itlar sulolasi legimitatsiyasi (XVIII – XIX asrlar)" nomli kitob g'arb tarixshunosligi zamonaviy metodologiyasining prinsipial jihatlarini o'zida aks ettirgan fundamental tadqiqot sifatida jahon sharqshunoslari tomonidan iliq kutib olindi va unga ko'plab taqrizlar yozildi. Kitobda mang'it amirlaridan Muhammad Rahimxon, Amir Shohmurod va Amir Haydar ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ularning toj-taxtga nisbatan qonuniylik va vorisiylik huquqi tahlil qilinadi. Kitobda Naqshbandiya-mujadiddiya ta'limotining amaliy ko'rinishi va amirlik ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotidagi o'rni nemis olimi Florian Shvars ilgari surgan "Shayxsiz imperiya yo'q" tezisi doirasida ochib beriladi. Shu munosabat bilan Amir Shohmurodga ma'naviy ta'sir ko'rsatib, uning piri maqomida turgan Shayx Safar ma'naviy merosiga maxsus e'tibor qaratilgan. Shayxlar merosiga munosabat masalasida g'arb metodologiyasining barcha jihatlarini qabul qilish va ulardan ayniqsa darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki xorij tarixshunosligida bu masalaga o'zgacha yondashiladi va ayrim hollarda shayxlar merosi hatto tanqid ostiga olinadi. Shayxlar va ularning ma'naviy merosi biz uchun o'tmishda ham, hozir ham ibrat namunasi bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Umuman Anke fon Kyugelgen kitobi talabalarga Buxoroning ijtimoiy-siyosiy tarixiga doir yangi yoki kam ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishi bilan e'tiborga sazovor.

Venada Buxoro mavzusiga e'tiborning mavjudligi keyingi yillarda e'lon qilinayotgan ilmiy, ilmiy-ma'rifiy nashrlar orqali o'z tasdig'ini topmoqda. Avstriyalik olim Paolo Sartori va o'zbekistonlik yosh tadqiqotchi Ulfat Abdurasulov o'rtasidagi ilmiy hamkorlik o'zining ijobiy samarasini namoyon etmoqda. Ular hamkorligining go'zal namunasi bo'lmish Mamed Yusupovning "Buxoroda sud ishlari"<sup>1</sup> asarining 2016-yil Venada nashr etilishi buxoroshunoslikda haqiqiy ilmiy voqelik bo'ldi. Mamed Yusupovning bu ishi 1941 yil

---

<sup>1</sup> Юсупов М.С. Суд в Бухаре. Судостройство и судопроизводство в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX в. / Текст и вводная статья: Ульфат Абдурасулов и Паоло Сартори. – Ташкент – Вена 2016.

nashrga tayyorlanib, qo‘lyozma holda qolib ketib unut bo‘lgan edi. Ushbu asar Buxoro tarixining o‘rganilmagan sahifalarini ochishga ko‘mak beradi. Unda Buxorodagi sud tizimi, jazo turlari, guvohlik berish tartibi, qatl, minoradan tashlash kabi jazo turlari xususida muhim va mukammal ma‘lumotlar beriladi. Buxoro tarixi bilan qiziquvchilar, shuningdek, Buxoro tarixi ta‘lim yo‘nalishi talabalariga ushbu kitobdan foydalanishni tavsiya etamiz.

Ma‘lumki, Buxoro tarixi O‘zbekiston tarixining tarkibiy qismi hisoblanadi. Buxoro davlat universiteti Buxoro tarixi ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan ushbu qo‘llanmada aynan shu holat inobatga olindi va undagi mavzular shu aspektda yoritib berildi. Buxoro tarixi O‘zbekiston arxeologiyasi, etnografiyasi, madaniyati, san‘ati tarixi bilan uzviy bog‘liq. Shu bilan birga jahon tarix fanida amalda bo‘lgan “mikro tarix”, ya‘ni kichik tarix, aniqrog‘i tarix masalalarini muayyan mintqa doirasida o‘rganish va o‘rgatish an‘anasi mazkur o‘quv qo‘llanmaga nisbatan ham tadbiiq etildi.

Keyingi uch yilda Oliy ta‘lim tizimida yuz berayotgan tub burilishlar, 2020 yilni Prezidentimiz tomonidan “Ilm-ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb elon qilinishi nafaqat aniq fanlar, balki ijtimoiy-gumanitar va uning bir sohasi bo‘lgan tarix fanini ham jahon standartlariga muvofiqlashuvi va integratsiyalashuvini taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, zamonaviy talablarga javob beradigan, bir-birini takrorlamaydigan o‘quv adabiyotlarini yaratish, jumladan, Buxoro tarixi ta‘lim yo‘nalishi talabalarini shunday o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minlash Oliy ta‘lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Shu talab va mas‘uliyatdan kelib chiqib tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanma yuqorida tilga olingan o‘quv adabiyotlaridan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Buxoro tarixi o‘quv qo‘llanmasida mavzu va ma‘lumotlarning ixchamligi, talabalar bilimi va ilmiy dunyoqarashi, tafakkuriga mosligiga e‘tibor qaratildi. Mavzular xronologik va sulolalar kesimida berildi. Buxoroning ilmiy, ayniqsa arxeologik jihatdan o‘rganilish masalasiga e‘tibor qaratilishining boisi, shu arxeologik tadqiqotlar natijasi o‘laroq, Buxoroning yoshi aniqlanib, u qadimiy shahar sifatida YUNESKO tarafidan e‘tirof etildi va shaharning 2500 yilligi Mustaqillik yillarida umumjahon miqyosida nishonlandi. Vohada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari, shuningdek, bevosita shahar ichida o‘tkazilgan arxeologik

izlanishlar, Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi, vohaning tarixiy geografiyasi masalalari yondosh o'quv adabiyotlardan farqli ravishda, ushbu o'quv qo'llanmada maxsus yoritildi. Har bir bob madaniyat tarixi masalalari bilan nihoya topishi keyingi davr ilmiy nashrlari va o'quv adabiyotlarida negadir e'tibordan chetda qolmoqda. Mazkur o'quv qo'llanmada shu kenglikni to'ldirishga harakat qilindi. Yana bir o'ziga xoslik, ushbu o'quv qo'llanmada ilova va illyustratsiyalar salmoqli miqdorni tashkil qiladi va ular alohida-alohida berilgan. "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" an'anaviy uch qismdan emas, balki to'rt qismdan iborat qilib belgilandi va unga "Mustaqil o'qish uchun tavsiya etilayotgan manba va adabiyotlar" ro'yxati alohida tarzda qo'shildi.

Ushbu o'quv qo'llanma Buxoro tarixi bo'yicha kichik xrestomatiya jihatida ham boshqa o'quv adabiyotlari va yuqorida tilga olingan kitob va qo'llanmalardan farq qiladi. "Ilova"da Buxoro tarixiga doir asosiy qo'lyozma manbalar, toshbosma asarlar, nashr etilgan manbalar hamda e'lon qilinmagan tarixiy hujjatlar tarjimai, ayrimlarining fotonusxalari aynan berildi. Amir Muzaffarning Rum (Turkiya) sultoniga yozgan maktubining biz tomondan o'zbek tiliga qilingan tarjimai o'quv adabiyotida ilk bor berilmoqda. Oldindan shuni ta'kidlashni istardikki, mazkur o'quv qo'llanma Buxoro tarixi fani bo'yicha istiqbolda yaratilajak alohida xrestomatiya uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2019-yil 17.08 № 5121000-2.02 bilan ro'yxatga olingan va 2019-yil 6.10 sana bilan tasdiqlangan Buxoro tarixi fan dasturi asosida yaratilgan ushbu o'quv qo'llanma Buxoro davlat universiteti Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mazkur fanni o'zlashtirishga baholi qudrat ko'mak beradi, degan umiddamiz.

# **1-MODUL. QADIMGI VA O‘RTA ASRLARDA BUXORO**

## **1-MAVZU: BUXORO VOHASINING O‘RGANILISH TARIXI**

**1.1.Buxoro vohasida amalga oshirilgan dastlabki ilmiy-tarixiy, arxeologik tadqiqotlar**

**1.2.Vohadagi Poykent, Varaxsha yodgorliklari arxeolog L.A.Zimin va V.A.Shishkin tadqiqotlarida**

**1.3.Zamonbobo yodgorligini S.P.Tolstov, Yahyo G‘ulomov, A.Asqarov tomonidan o‘rganilishi**

**1.4.Shahar yoshini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar**

### **1.1.Buxoro vohasida amalga oshirilgan dastlabki ilmiy-tarixiy, arxeologik tadqiqotlar**

O‘rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri Buxoroning tarixiy o‘tmishi va hozirgi davri ko‘plab tarixiy manba va adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Buxoro vohasida amalga oshirilgan dastlabki ilmiy-tarixiy tadqiqotlarda Rossiya olimlari sermahsul faoliyat olib bordi. Ular orasida mashhur sharqshunoslar ham ko‘p edi. Buxoroning o‘tmishi va bugunini o‘rganish borasida N.I.Veselovskiy ko‘p mehnat qildi. “Endilikda Buxoroda hukmronlik qilayotgan Mang‘itlar sulolasi” (1878), “Buxoroda Qurbon bayrami” (1888), “I.D.Xoxlov XVIII asrda Rusiyaning Eron va Buxorodagi elchisi” (1891) va hokazo asarlar uning qalamiga mansubdir<sup>1</sup>.

Buxoroning o‘tmishiga oid qo‘lyozmalarni yig‘ish, ularni o‘rganish borasida ko‘p mehnat qilgan sharqshunos akademiklardan biri K.G.Zaleman (1849-1916) bo‘lib, bu olim Buxoroga ikki marta tashrif buyurdi.

Sharq tarixining chuqur bilimdoni akademik V.V.Bartold Buxoro o‘tmishini o‘rganish borasida ko‘p ish qildi. Uning qalamiga mansub bir qancha mashhur asarlarda, xususan “Turkiston mo‘g‘yillar istilosi davrida”, “Orol dengizi va Amudaryoning quyi oqimlari haqida ma’lumotlar. Qadimgi davrdan to XVII asrga qadar”, “Turkistonni sug‘orish tarixiga doir”, “Turkiston tarixi”, “Evropa va

---

<sup>1</sup> Бухоро шарқ дурдонаси /муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.90-93.

Rossiyada SHarqni o‘rganish tarixi”, “Turkistonning madaniy hayoti tarixi” va boshqalarda Buxoroga oid xilma-xil ma’lumotlar mavjud.

V.V.Bartold Buxoroga bag‘ishlab maxsus asarlar ham yaratgan. Masalan, “Buxoro” (Islom ensiklopediyasida, 1-j., 1913), “Buxoro va Xiva xonliklari haqida” (1917), “Buxoro. Uning yodgorliklari va ularning taqdiri”(1925), “Buxoro va uning chekkalarida islomdan oldingi dinning o‘rni” (1927)<sup>1</sup> va h. k.

XX asr boshlarida akademik A.N.Samoylovich Buxoroda bir muddat faoliyat ko‘rsatdi. Uning Buxoroga oid asarlari orasida yosh buxoroliklarning birinchi harakati haqidagi maqola ayniqsa qimmatli.

Buxoro tarixini o‘rganishga sharqshunos A.A.Semyonov (1873-1958) katta hissa qo‘shdi. U Moskvadagi Lazarevskiy Sharq tillari institutida o‘qib yurgan kezlaridayoq Markaziy Osiyoga tashrif buyurdi va o‘shandan buyon o‘z asarlarini shu hududning tarixiy o‘tmishini o‘rganishga, shu jumladan, “O‘rta Osiyo musulmonlari uchun muqaddas” bo‘lgan Buxoroning o‘tmishi va bugunini tadqiq etishga bag‘ishladi. Ko‘p o‘tmay, matbuotda uning safar xotiralari paydo bo‘ldi: “Muqaddas Buxoroda” (1897), “Buxoro sarhadlari bo‘ylab” (1902). Keyin uning: “Muqaddas Buxoroning vujudga kelishi” (1903), “Buxoroning ikkita qadimiy mis idishi” (1910), “Buxoro shayxi Baxouddin” (1914), “Buxoro mang‘itlari tarixiga oid”(1924), “Buxoro xonligi er solig‘i va soliq tizimi ocherklari” (1929), “Aleksandr I bilan amir Haydar Buxorosi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiga doir” (1945), “Martaba va unvonlar va o‘rta asr Buxorosida ularga ega bo‘lganlarning majburiyatlari haqida risola” (1948), “XIX asr boshlarida Rossiya bilan Buxoro o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixiga doir” (1951), “Keyingi davrda Buxoro xonligida markaziy ma‘muriy-boshqaruv tuzilishi ocherklari” (1954) va boshqa asarlari chop etildi.

Sharqshunos V.L.Vyatkin Buxoroning shahar kitob bozori haqida maxsus asar yozgan. Peterburg universitetining sharq fakultetida tahsil qo‘rgan I.I.Umnyakov ham Buxoroda bo‘lib, bu erda tadqiqot ishlari olib borgan. Uning “O‘rta asr Buxorosining tarixiy topografiyasiga doir” asari 1923- yilda, oradan to‘rt yil o‘tgach “Buxoroda yangi usul maktabi tarixiga oid” asari nashr etildi. 1895-

---

<sup>1</sup> Лунин Б.В. В.В.Бартольд (Ўрта Осиё халқлари тарихининг билимдони, академик В.В.Бартольднинг ҳаёти ва илмий фаолияти). –Тошкент: Фан, 1970. 76 б.



yili Toshkentda tashkil etilgan havaskor arxeologlarning Turkiston to‘garagi Buxoroning tarixiy o‘tmishini o‘rganishga o‘z hissasini qo‘shdi.

Shu to‘garakning faol arbobi N.F.Sitnyakovskiy 1896- yilda Buxoro tarixi uchun bag‘oyat muhim bo‘lgan Buxoro vohasining ulkan qadimiy mudofaa inshooti - Kampirdevor qoldiqlarini o‘rgandiki, bu devorning mavjudligi haqida o‘rta asr arab geograflari xabar bergan edilar. U mudofaa inshootlari xarobalari bo‘lgan joylarni ham belgiladi. N.F.Sitnyakovskiyning Buxoro shahri aholisining sonini aniqlashga oid maqolalari ham mashxur.

To‘garak a‘zosi L.A.Zimin Buxoroga safar qilib, o‘z hisobotida qadimiy obidalarga alohida e‘tibor bergan. To‘garak a‘zolarining faol ishtirokida Buxorodagi qadimiy obidalar hisobga olinib, muayyan darajada me‘morchilik tarixi o‘rganilgan<sup>1</sup>.

Turkiston statistika qo‘mitasi, Rossiya geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi (Toshkent), O‘rta va Markaziy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik va geografik jihatdan o‘rganuvchi Rus qo‘mitasi ham Buxoroning o‘tmishi va hozirini tadqiq etishga katta hissa qo‘shdi.

Ilmiy-tibbiy jamiyatlar, xususan Turkiston shifokorlari jamiyati, Turkiston o‘lkasi tibbiyotshunoslari va shifokorlari jamiyati va boshqalarning faoliyati Buxoro uchun yuqori darajada foydali bo‘ldi. Zamonaviy sog‘likni saqlash ishlari xarob ahvolda bo‘lgan bir sharoitda Turkistonning oz sonli shifokorlari aholi o‘rtasida bilimlarni yoyish, shifokorlik amaliyotini ilmiy izlanish bilan birga olib borish, Buxoro amirligi hududida avj olgan o‘lat, terlama, bezgakning mahalliy turlari, teri kasalliklari singari ofatlarga qarshi kurash choralarini izlash borasida barcha tadbirlarni ko‘rdilar.

Buxoroning “O‘rta Osiyo madaniyati va O‘rta Osiyo karvon savdosi to‘plangan” maskan sifatida jahonga mashhurligi Rossiya va boshqa mamlakatlarning sayyohlari, ijtimoiy-siyosiy arboblari, ishbilarmonlarining e‘tiborini ko‘proq jalb qila bordi. Bu erga kelgan sayyohlar, sharqshunoslar va boshqa shaxslarning Buxoro bilan bog‘liq ocherklari fan uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shulardan biri I.T.Poslavskiy Buxoro shahrining mukammal tavsifini yaratdi.

---

<sup>1</sup> Кличев О.А. Л.А.Зиминнинг Бухородаги изланишлари //Ўзбекистон Миллий университети хабарлари илмий журнали. – Тошкент: 2016. – №1-2. – Б.13-15.

Bibliograf V.I.Mejov 416 jildli noyob “O‘rta Osiyo va ayniqsa, Turkiston o‘lkasiga taalluqli asarlar va maqolalarning Turkiston to‘plami”ni tuzib, fan uchun bebaho hissa qo‘shdi. Unga 1867- yildan to 1888-yilgacha nashr etilgan asarlar kiritilgan. Mazkur to‘plam jildlarida Buxoroga oid talaygina materiallar bor. Buxoroning ko‘p asrli va serqirra o‘tmishini o‘rganishda qimmatli manbalar xisoblangan sharq qo‘lyozmalarini yig‘ish va saqlash ishlariga sharqshunoslar, tarixchilar, o‘lkashunoslar o‘zlarining bebaho hissalarini qo‘shdilar<sup>1</sup>.

Buxoroda ilm-fanning rivojlanishi XIX asr oxiri-XX asrda ancha ildamladi. Fanning taraqqiy etishida mahalliy aholi orasidan etishib chiqqan olimlarning hissasi orta bordi. 1925-1935-yillarda faoliyat olib borgan qadimiy va san‘at obidalarini saqlash hamda o‘rganish Buxoro qo‘mitasi (Buxkomstaris)ning sermahsul, hali o‘z tadqiqini kutib turgan faoliyati fikrimizga yaqqol misol bo‘ladi.

Uning tarkibida turli millat vakillari bo‘lib, asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etgan. Ushbu qo‘mita faoliyati Buxoro shahri va viloyatidagi tarixiy-me‘morchilik va boshqa obidalarni muhofaza qilish, ta‘mirlash, tiklash hamda o‘rganish ishida yangi sahifa ochdi. U faoliyat olib borgan davrda bu sohadagi ishlar ilk bor rejali va izchillik xususiyatini kasb etdi. Uning ishiga mutaxassislar, qurilish ishlari asriy an‘analarining sohiblari, xalq ustalari jalb etildi, aholi o‘rtasida tarixiy bilimlar targ‘ib qilindi. Bu qo‘mitani ma‘lum vaqt buxorolik jamoat va siyosat arbobi, olim, shoir, dramaturg, o‘zbek xalqining o‘tmishi va hozirgi kunining, moddiy va ma‘naviy madaniyatining ajoyib bilimdoni Abdurauf Fitrat boshqardi. Uning adabiy va ilmiy faoliyati XX asrning dastlabki o‘n yilliklaridayoq boshlangan edi. Fitrat Buxoroda va boshqa shaharlarda qadimiy sharq qo‘lyozmalarining 150 nomdagi ajoyib majmuasini to‘plab, 1934-yilda Toshkentdagi O‘zbekiston Davlat xalq kutubxonasiga topshiradi.

Qo‘mita ilmiy kotibi vazifasida arxeolog, tarixchi, san‘atshunos Muso Saidjonov ishlab, Fitratdan keyin qo‘mitaga raislik kiladi. Muso Saidjonov Buxoro tarixi va uning tarixiy topografiyasiga oid bir qancha maqolalar yozdi. Jumladan, Ismoil Somoniy me‘moriy yodgorligi bunyod etilgan sanani aniqladi. U tavsiya etgan sana, ya‘ni X asr fanda qabul qilinib, xozirga qadar mustahkam saqlanib

---

<sup>1</sup> Бухоро шарқ дурдонаси /муаллифлар жамоси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.91.

kelmoqda. U Buxoro tarixiy va me'morchilik obidalarining umumiy obzorini ham yaratdi. 1927-yil Buxoroda ochilgan va arxeologiya, etnografiya hamda zoologiya bo'limlaridan tashkil topgan o'lkashunoslik muzeyining tashkilotchilaridan biri bo'ldi.

Arxeolog V.A.Shishkinning ilmiy faoliyati ushbu qo'mita ishida qatnashishdan boshlanadi. U Buxoroning qadimiy va ko'hna obidalarini o'rganishga katta hissa qo'shdi va shu qo'mitani ma'lum vaqt boshqardi. "Buxoroning me'moriy yodgorliklari"(1936), "Buxoro vohasida arxeologik ishlar"(1940), "Buxoroning yangi qurilishlaridagi kuzatuvlardan" (1940), "Buxoro vohasining arxeologik o'rganilishi" (1947), "Buxorodagi katta jome masjidi peshtoqidagi yozuvlar. XVI asr" (1947), "Mag'oki Attoriy masjidi. XII asr" (1948) va boshqa asarlar uning qalamiga mansub. Buxorxudotlarning Buxoro yaqinidagi qarorgohi - Varaxshadagi qazishmalar xam bevosita V.A.Shishkin nomi bilan bog'liq.

Buxoroning eng qadimgi davrlardagi tarixini yoritishda arxeologik kuzatish va tadqiqotlar, yozma manbalar birinchi o'rinda turadi. Arxeologik kuzatish va tadqiqotlar o'tkazish orqali Buxoroning eng qadimgi davrlardagi tarixini o'rganishda mashhur arxeolog olimlarimizning xizmatlari katta bo'ldi. 1969-1970-yillarda Buxoro shahrida Yahyo G'ulomov rahbarligida o'tkazilgan arxeologik kuzatuv ishlari shahar tarixiga oid ko'plab yangi-yangi ma'lumotlar bergan bo'lsa, uning iste'dodli shogirdi, Buxoro tarixining bilimdonlaridan biri, taniqli arxeolog, O'zbekiston FA ning akademigi Abdulahad Muhammadjonov rahbarligida 70-yillarning ikkinchi yarmi va 80-yillarda olib borilgan arxeologik kuzatuv ishlari va tadqiqotlar Buxoro tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar berdi va Buxoroning yoshi masalasiga ayrim aniqliklar kiritdi.

Shunday qilib, Buxoroda ilm-fanning turli sohalarida, ayniqsa shahar tarixi xususida olib borilgan izlanishlar qimmatli natijalar berdiki, ular jahon fani xazinasini boyitishga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

## **1.2.Vohadagi Poykent, Varaxsha yodgorliklari arxeolog L.A.Zimin va V.A.Shishkin tadqiqotlarida**

Buxoroning qadimgi tarixiy-arxeologik yodgorliklari XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus ilmiy jamiyatlari va jamoatchiligi tomonidan o'rganila boshlandi. Bu kabi faoliyatni tashkil etish ishiga

Rossiya Imperatori Arxeologiya Jamiyati, qolaversa, o'lkada tashkil etilgan Turkiston axreologiya havaskorlar to'garagi rahbarlik qildi. Jamiyat va to'garak a'zolari Buxorodagi tarixiy joylarga ekspeditsiyalar uyushtirganlar. 1913-1916-yillar davomida Buxoro amirligida amalga oshirilgan shunday ekspeditsiyalarning biriga L.A.Zimin boshchilik qiladi.

L.A.Zimin Turkiston axreologiya havaskorlar to'garagining kotibi sifatida faoliyat olib borganligi bois, to'garak uni Buxoroda joylashgan tarixiy yodgorliklarni o'rganish ishiga jalb qildi. Shu bilan birga, bu faoliyatni tashkil etishdan nafaqat to'garak ma'muriyati balki, Rossiya Imperatorining homiyliги ostida faoliyat olib borgan va O'rta va Sharqiy Osiyoni o'rganishni maqsad qilgan Rus komiteti ham manfaatdor bo'lgan.

Buxorodagi rus siyosiy agentligi L.A.Ziminga ko'mak berishni so'rab amirlik hukumatiga murojaat qilgan. Rasmiy muassasalarning o'zaro ko'mak berish mazmunidagi xatlaridan tashqari, shaxsan L.A.Ziminning o'zi amirlik hududida arxeologik qazuv ishlarini amalga oshirish uchun Buxoro amirligi qushbegisiga murojaat qilgan.

L.A.Ziminning Buxoro amirligi hududida amalga oshirgan ilmiy izlanishlari Rossiya Imperatorining homiyliги ostida bo'lib, Rus komiteti mablag'lari asosida amalga oshirilgan. L.A.Ziminning 1914-yilda Poykentga ikki marotaba tashrif buyuradi va dastlabki tashrifi 1914-yil 31 martdan 13 aprel sanalarida amalga oshiriladi. Mazkur tashrifni tashkil etish xususida N.Ostroumov 1914-yil 18 mart sanasida Buxorodagi rus siyosiy agenti nomiga xat bilan murojaat qilgan. Xatda Ostroumov L.A.Ziminning Poykentda qazuv ishlari davomida Buxoro mamuriyati o'z amaldorini ajratishni so'rab murojaat qilgan. Ekspeditsiyaning faoliyati doirasida Ostroumov Buxoro amirligi qushbegisining ruxsati bilan Yakkatut stansiyasida Ziminga dastlabki qazuv ishlari uchun 10 nafar ishchi, ot va aravalar bilan kelishlarini so'ragan. 1 aprel sanasidan esa yana 20 nafar ishchilar va ular ustida nazoratini amalga oshirish maqsadida o'n boshini ajratishni bildirgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Кличев О.А. Л.А.Зиминнинг Бухородаги изланишлари //Ўзбекистон Миллий университети хабарлари илмий журнали. – Тошкент: 2016. – №1-2. – Б.13-15.



**Poykent yodgorligi**



**Poykent yodgorligi**

L.A.Zimin o'zining 1914- yilgi dastlabki tashrifi yakunlanishi munosabati bilan 10 aprel sanasida Yakkatut stansiyasidan Buxorodagi rus siyosiy agentlik nomiga telegramma yo'llaydi va unda

qazuv ishlari natijasida aniqlangan bino va buyumlarni iyun oyigacha bo'lgan muddatda xavfsizligini taminlashni so'rab murojaat qiladi. Shunday mazmundagi xatni 1914-yil 14 aprel sanasida N.Ostroumov Buxorodagi rus siyosiy agenti nomiga yo'llaydi. Unda L.A.Ziminning qadim Poykent hududida uch arshin chuqurlikda devorlari pishiq g'ishtdan qurilgan bino qoldiqlarini aniqlaganligini bildiradi.

N.Ostroumov L.A.Ziminning Poykentda mart-apreldagi faoliyatining yakuniga binoan hududda mahalliy aholi qazuv ishlarini olib bormasligi va qazuv natijasida mavjud buyumlarni olib ketmasligini ta'kidlagan. SHu bilan birga Poykentda ruxsatsiz qazuv ishlari yoki buyumlarni olib ketilishi kuzatilsa, unga jazo choralari ko'rish kerakligi ham bildiradi. Xatning so'ngida bu holatlar xususida Poykent yaqinidagi Sho'rabod, Qizilrabot, Poykent, Janopar, Qulonch, Alekya, Sayot, Salor va Do'rmon qishloqlari aholisiga alohida bildirishni ham ta'kidlaydi.

L.A.Ziminning Buxoro amirligidagi ilmiy izlanishlari doirasi nafaqat Poykent xarobalarini o'rganish bilan chegaralangan edi, balki, hududning boshqa shahar va beklklarida ham uning tomonidan izlanishlar olib borilgan. L.A.Ziminning 1915-yildagi ekspeditsion faoliyati mart-may oylari davomida amalga oshiradi.

Turkiston arxeologiya havaskorlar to'garagi boshqaruvchisi V.N.Ostroumov Buxorodagi rus siyosiy agenti nomiga yo'llagan xatida Ziminga O'rta Osiyo temir yo'lidagi Qiziltepa stansiyasida ot va aravalarni tayyorlash bildiriladi.

L.A.Ziminning o'zi ham amirlik qushbegisi murojaat qilib, Buxoro amaldorini Qiziltepa stansiyasiga ot va aravalar bilan kelishini va qazuv ishlari uchun odamlar ajratishni so'raydi. Zimin o'zining 1915-yildagi faoliyatini 2 may kuni Buxoroda joylashgan arxeologik ob'ektlarni va Romitan qishlog'i hududidagi qadim tepalarni borib ko'rish bilan yakunladi.

L.A.Ziminning 1913-1916-yillar davomida Buxoro amirligi hududida amalga oshirgan ilmiy izlanishlari keyinchalik uning "Развалины старого Пейкенда", "Отчеты о весенних и летних раскопках 1914 г. в развалинах Старого Пейкенда", "Отчет о двух поездках по Бухаре с археологической целью", "Краткий отчет о поездке по Бухаре в 1916 г", "Кала-и Дабус", "Нахшеб, Насаф,

Карши. Их история и древности” nomli hisobot va kitoblarida o‘z aksini topdi<sup>1</sup>.

Keyingi arxeologik ob’ekt Varaxsha bo‘lib, u erda arxeologik tadqiqot ishlarini V.A.Shishkin amalga oshiradi. V.A.Shishkin ma’lumotlariga ko‘ra, Varaxsha yodgorligi Buxorodan 40 km shimoli-g‘arbda, Dashti Urganji ko‘lining qadimgi Rajfandun vohasida joylashgan. Varaxsha maydoni 9 ga va balandi 10-20 metrli ulkan tepa shaklida saqlangan. V.A.Shishkin Varaxsha va uning atrofida 1937-1939-yillar va 1947-1954-yillarda keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar olib boradi. Keyinchalik bu yodgorlikda A.Muhammadjonov 1975-1977-yillar, O.V.Obelchenko 1977-1979-yillar va G.V.Shishkina 1987-1990-yillarda Varaxshaning ayrim qismlarida qazishmalar ishlarini olib borishadi. Arxeologik qazishmalardan ma’lum bo‘lishicha, Varaxsha miloddan avvalgi II-asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istehkomliqishloqlar tarzida qad ko‘targan<sup>2</sup>.



### **Varaxsha yodgorligi**

V.A.Shishkin tomonidan Varaxsha xarobalarining shimoli-g‘arbida qadimgi qo‘rg‘onlardan birining tashqi devori hamda yarim doira shakldagi burji (ichki sahni 4,5x5 m) kavlab o‘rganilgan. Devor (qalinligi 1,8-1,9 m) xom g‘ishtdan (hajmi 37x41x10 sm) qurilgan.

<sup>1</sup> Кличев О.А. Пойкентнинг илк изланишлари тарихидан (Л.А.Зимин тадқиқотлари ва расмий ёзишмалари асосида // О‘zbekiston arxeologiyasi илмий журнал. – Самарқанд: 2016. – №2. –Б.83-90.

<sup>2</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Том-2. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б.745.

Devor va burjlarida paykonsimon nishon tuynuklari (ichki tomoni 38-40 sm, tashqarisi 75-80 sm, kengligi 20-22 sm) ochilgan. Miloddan avval II-I-asrlarda va milodiy I-II-asrlarda Varaxsha va uning atrofida madaniy hayot gullagan. III-IV-asrlarda Varaxsha tanazzulga uchragan. V-asrda Varaxsha yana tiklanib, Buxoroning qadimgi hukmdorlari- buxorxudotlarning qarorgohiga aylangan. Shu davrda Varaxsha mustahkam devor bilan o'ralgan, uning janubi qismida ark qurilgan. VIII-X-asrlarda, ayniqsa, obod bo'lgan. Varaxsha va uning atroflari 12 kanal bilan sug'orilib, Rajfandun vohasidagi eng yirik va markaziy qal'alardan biriga aylangan.

Buxoro va Xorazm oralig'idagi karvon yo'li Istaxriy va Ibn Havqal ma'lumotlari ko'ra, Varaxsha orqali o'tgan. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy ma'lumotiga ko'ra, har o'n besh kunda Varaxshada bir kunlik, yil oxirida 20 kunlik bozor sayli (navro'zi kasho varzon, ya'ni dehqonlar yangi yili) o'tkazilgan<sup>1</sup>. Buxorxudotlar qarorgohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylangan. XI-XII-asrlarda uning hududi eniga 6 km dan ziyod bo'lgan. XII-asrda Varaxsha vohasidagi hayot to'satdan noma'lum sabablarga ko'ra to'xtab qolgan.

V.A.Shishkinning 1949-1954-yillardagi tadqiqotlarida, Varaxsha me'morchiligi va san'ati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan. Kvadrat shakldagi yirik xom g'ishtlardan qo'shminora tarzida o'rab chiqilgan tagkursilarning biriga podsho capoyi va ikkinchisiga soqchixonali darvozaxona bino qilingan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yo'laksimon (navkarxona va darvozaxona) xonalar mavjud bo'lgan. Arkning markazida janubi tomoni mudofaa devoriga yondoshgan Varaxsha hukmdorining saroyi joylashgan. U Sharqiy (11,5x17m) va G'arbiy (6,6x7,25m) mehmonxona hamda Qizil xona(8,5x12m)lardan iborat bo'lgan. Saroy g'arb tomonidan 3 ravoqli ganchkori ustunlar o'rnatilgan hashamatli peshayvon bilan o'ralgan. Ayvon ravoqlarining ustunlari va toqilari ganchkori qabartma tasvirlar hamda turli xil girixlar bilan bezatilgan. Saroyning Qizilxona va Sharqiy mehmonxonalari to'la kovlab ochilgan. Xona devorlari mayda somonli loy suvoq ustidan yupqa ganch suvoq qilinib, devoriy rasmlar

---

<sup>1</sup> Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Шарк баёзи. 1993. -Б.30.



qizil, sariq, kulrang, qora, zangori, pushti va jigar rang bo‘yoqlar bilan bezatilgan. Ularda turli xil manzaralar, fil mingan shahzoda va chokarlarning old va ortdan chovut solgan qoplonlar bilan olishuvi; qayrilib nishonga kamondan o‘q uzayotgan ot ustidagi chavandoz, qanotli tuya shaklidagi oltin taxtga o‘tirgan hukmdor tasvirlangan. Sharqiy mehmonxona devorida tiz cho‘kib, qo‘lida qadah tutgan malika, belida shamshir, bir qo‘lida qisqich ushlagan podshoh, o‘rtada vazasimon otashgohda yonib turgan muqaddas olov-azarxurro, otashgohdan o‘ngda beliga xanjar taqilgan shahzodaning tiz cho‘kib ibodat qilayotgan tasviri yoki sovut va dubulg‘a kiygan, qo‘llarida nayza, qalqon ushlagan suvoriylarning jang qilayotgan, shuningdek butazor, to‘qay ichidagi ov manzarasi kabi tasvirlar ayniqsa diqqatga sazovordir.



**Varaxsha devoriy rasmlari**

Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha, janubiy xonalarning ikkinchi qavatidagi xona ganchkori naqshlar bilan bezatilgan ekan. Ko‘plab topilgan qabartma ganchkori naqshlar orasida hovuzda suzib yurgan baliqlar, elkasidan o‘q egan arxar, elib borayotgan jayran,

bedanalar, ayol boshli baxt qushi-Humo, hamlaga tayyorlanayotgan ajdarho, taqimiga sadoq bog‘lagan suvoriy hamda ko‘pdan-ko‘p ayollarning bosh qismlari bilan bir qatorda turli xil islamiy va girix parchalari uchraydi.

### **1.3.Zamonbobo yodgorligini S.P.Tolstov, Yahyo G‘ulomov, A.Asqarov tomonidan o‘rganilishi**

Buxoro vohasidagi Moxandaryo va Gujayli o‘zanlarining yuqori qismi hamda Poykent atroflari qadimiy maskan hisoblanib, bu erlarda eramizdan avvalgi II va I ming yillik boshlariga oid yodgorliklar uchraydi. Bu hududlarda 30 dan ortiq arxeologik yodgorliklar topib o‘rganildi. Mazkur yodgorliklar va ulardan chiqqan turli xil ashyoviy topilmalardan aniqlanishicha, bu davrga kelib qadimgi buxoroliklar hayotida ikki yangi xo‘jalik - ibtidoiy dehqonchilik va chorvachilik shakllanib, ular aholi hayotining asosiy tirikchilik manbaiga aylangan. Ovchilik va baliqchilik esa shu davrdan boshlab, ikkinchi darajali yordamchi xo‘jalik bo‘lib qolgan. Bu, shubhasiz, Buxoro va Qorako‘lning qadimgi aholisi xayotida yangi tarixiy davr bo‘lib, o‘lkani asta-sekin obod etib, uni iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirishga kirishilganidan, aholisi esa batamom ishlab chiqarish xo‘jaligiga ko‘chganidan dalolat berar edi.

Bu davrga mansub arxeologik yodgorliklar orasida Zamonbobo ko‘lining shimoliy sohilida qayd etilgan ibtidoiy dehqonlarning qabristoni hamda ko‘ldan 500 m sharqda Gujaylining qurib qolgan qadimgi o‘zani yoqasida kovlab ochilgan turar joy xarobalari, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Zamonbobolik ibtidoiy dehqonlar qabristonini o‘rganishda atoqli arxeolog Ya.G‘ulomovning xizmatlari e‘tiborga molik. Yodgorlik Ya.G‘ulomov tarafidan 1951-1953-yillar davomida qazib o‘rganildi. O‘z davrida Buxoroning ibtidoiy jamiyat tarixini o‘rganish masalasida buriilish yasagan bu yodgorlikning topilishi tasodifiy emas, albatta. Unda Ya.G‘ulomovning Xorazmda S.P.Tolstov bilan hamkorlikda olib borgan ko‘p yillik arxeologik tadqiqotlardan to‘plagan ulkan tajribasi, ayniqsa qo‘l kelgan edi. Shu sababli bo‘lsa kerak, taqir tuproq orasidan favqulodda topib olingan kamon o‘qining toshdan yasalgan paykoni bu nodir obidaning kashfiyotiga turtki bo‘lgan. Chunki Zamonbobo ko‘li sohilida joylashgan bu qadimgi go‘ristonning ko‘zga tashlanadigan birorta ham belgisi bo‘lmay, usti

bir oz qumliklar bilan qoplangan tekislikdan iborat edi. Bizning davrimizgacha qabristondagi qadimiy go'rlarning faqat ostki lahad kismalarigina saqlanib, ularning atrofi ham tekislanib, mutlaqo bilinmay ketgan. Kabrlarning supa va ustki gumbaz qismlari asrlar davomida tuproq eroziyasi oqibatida emirilib, ularni shamol o'zi bilan uchirib olib ketgan. Qazib ochilgan 46 ta qabr qoldiqlaridan 8 tasida juft, 28 tasida esa yakka holda dafn etilgan jasad skeletlari qayd etildi. Hatto ikki qabrda kattalar yoniga yosh bola jasadi ko'milgani aniqlandi. Saqlanib qolgan skeletlarning holatiga qaraganda jasadlarning deyarli hammasi o'ng yoki chap yoni bilan yonboshlatib, g'ujanak tarzda dafn etilgan<sup>1</sup>.

Qazishma jarayonida erkaklar dafn etilgan qabrlarda asosan o'q-yoy paykonlari, pichoqsimon tosh qurollar va turli shakldagi sopol idishlar, ayollarga mansublarida esa sopol idishlar bilan bir qatorda jez ko'zgu, upadon, surmadon kabi pardoz-andoz buyumlari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho jilvir toshlar, lojuvard, feruza, aqiq singari toshlardan yasalgan turli shakldagi munchoq va marjonlar qayd etildi. Topilmalar orasida ayol haykalchasi, xovoncha dastalari, oltin munchoq va boshqalar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Shuni ham qayd etish lozimki, bu davrda er kovlovchi mehnat qurollari hali takomillashmagan, bunday qurollar bilan qabr qazish g'oyatda mashaqqatli bo'lgan. Oqibatda tor-tanqis qabrlarga marhumlarni bukib ko'mish odat tusini olgan. Erkak murdalarni qurol-asbob, ayol murdalarni esa bezaklari bilan, idish-tovoqlarda esa emakliklar bilan ko'mib dafn etish Qorako'lning ibtidoiy dehqon ahlida o'sha qadim zamonlardayoq narigi dunyoga ishonish e'tiqodi mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Buxoroning ibtidoiy dehqonlariga mansub obidalarni topib o'rganishga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan olimlardan yana biri arxeolog A.Askarov bo'ldi. U 1961 yilning kuzida Zamonbobo ko'lidan 500 m sharqroqda Gujayli daryosining qadimgi qo'riq o'zanining o'ng sohilida joylashgan ibtidoiy dehqonlarning turar joy qoldiqlarini topib tekshirdi. Ibtidoiy dehqonlarning bu qadimgi qishlog'i yarim erto'la va taqir ustiga o'rnatilgan ikkita engil chaylalardan iborat bo'lib, ulardan birinchisi bizgacha juda yaxshi

---

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих). –Тошкент: Фан, 1991. –Б.23.

saqlangan. Chunki aholi tomonidan tashlab ketilgach, bu turar-joylar ko'chma qumlar ostida ko'milib ketgan. 1961-1964-yillarda olib borilgan qazish ishlari tufayli bu qadimgi dehqonlar qishlog'i qoldiqlari to'la qazilib, sinchiklab o'rganildi.

Uning umumiy maydoni, chaylalarning tarxi, tuzilishi, ishlatilgan qurilish materiallari, qayd etilgan ashyoviy qoldiqlar asosida bu erda istiqomat qilgan ibtidoiy dehqon jamoasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining ayrim tomonlari aniqlandi. Qazib ochilgan birinchi turar joy yarim, erto'la shaklidagi kattagina chayladan iborat. Uning poydevori bir metr chuqurlikda o'yib ishlangan. Chaylaning uzunligi 23,5 m, kengligi 9 m. Chayla ichi va atrofidagi ustun o'rnatish maqsadida kovlangan chuqurchalarga qaraganda, u sinchkori bo'lib, devorlari yulg'un novdalaridan chetan qilib to'qilgan, atrofiga lo'mboz bosilib, tomi qamishlar bilan ikki nishabli qilib yopilgan. Bu turar joyning umumiy maydoni 170 kv. m. bo'lib, unda taxminan 60-65 jon istiqomat qilgan. Chaylaning ichi va tashqarisida bir nechta o'choq o'rinlari, xo'jalik o'ralari ko'zga tashlanadi. Ular tevaragida esa sopol idish bo'laklari, turli xil tosh qurollar, xonaki hamda yovvoyi hayvon (echki, qo'y, qoramol, kiyik, to'ng'iz), parranda, baliq suyaklari, shuningdek, aqiq, lojuvard singari jilvir toshlardan yasalgan munchoq, marjon kabi taqinchoqlar, jezdan yasalgan ko'zgu parchalari sochilib yotardi.

Bu qadimgi turar joyning hovlisidan topilgan xonaki kulolchilik xumdonining qoldiqlari, ayniqsa noyob topilma hisoblanib, u zamonbobolik ibtidoiy dehqonlar xo'jalik hayotining muhim sahifalarini aniqlash imkonini berdi. Diametri 90 smli bu xonaki xumdon noksimon shaklda yasilib, o'rtasida loy ustuncha, tepasi gumbazli, tashqarisi somonli loy bilan suvalgan. Bir tomonida olovxonasi bo'lib, gumbazidan bir nechta dudburon teshikchalar qo'yilgan<sup>1</sup>.

Zamonbobolik ibtidoiy dehqonlarning bu qadimgi qishlog'i Gujaylining quyi irmog'laridan biri uch tomondan o'rab o'tgan burunda joylashgan. SHu sababli u shubhasiz mavsumiy daryo toshqini xavfi ostida bo'lgan. Bunday xavfni oldini olib, uni bartaraf etish maqsadida qarorgoh sharq va janub tomonlardan maxsus

---

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих). –Тошкент: Фан, 1991. –Б.24.

ko'tarma band-marza bilan o'rab olingan. Daryo toshqiniga qarshi barpo etilgan bu qadimgi inshootning uzunligi 10 m, kengligi esa 2 metrga teng. Bizga qadar u 20-25 sm balandlikda saqlangan. Bu o'ziga xos noyob osori-atiq namunalaridan bo'lib, Buxoro vohasi hududida qayd etilgan dastlabki eng qadimgi suv inshooti qoldig'i edi. U shubhasiz suv inshootlari-bandlar vositasida daryo toshqinlarini boshqarib, sun'iy sug'orish barpo etila boshlanganidan guvohlik beradi.

A.Asqarovning yozishicha, Zamonbobo qabristoni va qarorgohidan topilgan ashyoviy qoldiqlar bir-biriga juda o'xshash bo'lib, ular qadimgi zamonboboliklar asosan dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan kun kechirganliklaridan guvohlik beradi. Topilgan ko'pdan-ko'p tosh asboblaridan hamda saqlanib qolgan jaydari arpa va bug'doy kabi boshoqli o'simlik qoldiqlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular toshqinlardan hosil bo'lgan zax erlarda dehqonchilik qilib, o'zlari etishtirgan donlik ziroatlarni qadama tosh o'roqlarda o'rib, donlarini yorg'uchoqlarda yorma qilib, arpa yoki burdoy go'ja, o'moch, qo'g'irmoch hamda halim kabi emakliklar tayyorlaganlar. Qazishlardan chiqqan uy hayvonlari suyaklariga qaraganda, ular qadimgi Gujayli vohasiga qadar tutashib ketgan keng yaylovlarda echki, qo'y va qoramol boqib, chorvachilik mahsulotlaridan ham keng foydalanganlar. Topilgan ayrim urchuqtoshlar hamda suyakdan yasalgan so'zan va ignalarga qarab fikr yuritadigan bo'lsak, ular echki va qo'y junlaridan ip yigirib, kiyim-kechaklar uchun jun mato to'qiganlar, kigiz bosib, bosma jun chakmonlar tayyorlagan bo'lishlari haqiqatdan uzoq emas<sup>1</sup>.

Bu davrda odamlar tirikchilikdan bir muncha bo'shab, bir oz dam olish, yig'ilib suhbat qilish imkoniga ham ega bo'lganlar. Qablardan chiqqan turli xil taqinchoqlar, surmadon, qalamqosh, upalik solingan sopol idishchalar va jez ko'zgularga qaraganda, qadimgi zamonbobolik ayollar endilikda mol-hol va bola-chaqadan ortib, o'zlariga oro berish uchun vaqt topa olganlar. Bilaguzuk, buloqi, isirg'a, munchoq va marjonlar taqib qo'shni o'lkalarda biror mahsulotga ayrboshlab olib kelingan jez ko'zgularga boqib, betlariga

---

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих). –Тошкент: Фан, 1991. –Б.25.

upa-elik, qoshu-kipriklariga surmalar tortib, o'z sohibi xonadonlarining xizmatida bo'lganlar.

Qayd etilgan ashyoviy topilmalarga qarab fikr yuritilsa, zamonboboliklar jamoasida hunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan, kulolchilik, jezni eritib undan har xil buyum ashyolar yasash, ayniqsa, toshga ishlov berish texnikasi rivoj topgan. Sopol idishlar asosan qo'lda yasalgan, naqshsiz, tuxumsimon va yassi tubli, qisman charxda ishlanganlari ham uchraydi. Topilmalar orasida qo'shni Baqtriya yoki Marg'iyonada yasalgan idishlar yoki Badaxshon lojuvardidan ishlangan bezaklar bo'lib, shubhasiz ular zamonboboliklarning o'zlaridan janubroqda yashagan o'troq dehqon jamoalari hamda shimolroqda istiqomat qiluvchi chovador aholi bilan ham qandaydir ayirbosh savdo va madaniy aloqada bo'lganidan dalolat beradi. Bu yodgorliklar kompleksi o'ziga xos xarakterli belgilariga ko'ra, tarix faniga "Zamonbobo madaniyati" nomi bilan kiritildi. A.Asqarovning ta'kidlashicha, Zamonbobo madaniyati janubning o'troq dehqonchilik jamoalari ta'sirida shakllangan, u xonaki chorvachilik va motiga (ketmoncha) dehqonchiligi bilan kun kechirgan. Buxoroning tub mahalliy aholisiga mansub bo'lib, dastavval u miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi yarmi bilan sanalgan. Keyinchalik, Surxondaryo vohasida qadimgi o'troq dehqonchilikning "Sopolli madaniyati"ga mansub qator osori-atiqalarning topilib tadqiq etilishi bilan Zamonbobo madaniyati davriga bir muncha aniqlik kiritilib, hozirgi vaqtda u miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi bilan belgilanmoqda. "Sopolli madaniyati" yodgorliklarining so'nggi bosqichiga mansub qabrlardan xuddi Zamonbobo topilmalariga aynan o'xshagan sopol idishlar va jezdan yasalgan ashyolar qayd etiladi. Bu ikki xil madaniyat izlarining birgalikda uchrashi, shubxasiz, Sopolli madaniyatiga mansub qadimgi o'troq dehqonlar aholisining so'nggi vorislari zamonboboliklar bilan bir davrda yonma-yon yashaganliklaridan hamda ular bir-birlari bilan yaqin muloqotda bo'lganidan, qolaversa, qon-qarindosh bo'lib ketganidan dalolat beradi. Bunday tarixiy manzarani topilmalarda qayd etilishi esa shubhasiz Zamonbobo madaniyati davriga berilgan dastlabki sanani bir muncha yoshartirish uchun etarli darajada asos bo'ldi.

Shunday qilib, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida, ya'ni hozirgi kundan qariyb 3-3,5 ming yil muqaddam

Buxoro vohasining daryo adog'larida endigina ibtidoiy dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ilk qishloqlar paydo bo'lib, ular ayrim erto'la va cho'pkori engil chaylalardan iborat turar joylardan tashkil topgan. Bu ilk qishloqlarda xonaki hunarmandchilikning kulolchilik, misgarlik, sangtaroshlik, to'qimachilik kabi turlarigina mavjud bo'lsa-da, ammo, hali ular kasb-hunarning rivoj topgan mustaqil sohasi darajasiga etib bormagan edi<sup>1</sup>.

#### **1.4. Shahar yoshini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar**

Urbanizatsiya masalalari jamiyatning sotsial-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida hamisha eng dolzarb muammolardan bo'lib, uning tarixini tadqiq qilish esa fanda eng muhim mavzulardan hisoblanadi. Shuning uchun ham arxeologiya fanida bu mavzuga doimo alohida e'tibor berib kelindi. Jumhuriyatimiz hududidagi shaharlarning paydo bo'lishi va shahar madaniyatining rivojlanish tarixini o'rganish munosabati bilan 60-yillardayoq Ya.G'ulomov rahbarligida maxsus arxeologik ekspeditsiya tashkil etildi. Arxeologlar avval Farg'ona vodiysida qad ko'targan qadimiy shaharlardan Quva va Axsikent, Samarqandda esa Afrosiyob shahar xarobalarida qazish ishlarini boshlab yubordilar. 1970-yilning kuzida Afrosiyobda topilib tadqiq etilgan dastlabki arxeologik materiallar asosida O'rta Osiyodagi eng ko'hna shaharlardan biri Samarqandning 2500 yillik to'yi nishonlandi. Bu voqea, shubhasiz Toshkent, Buxoro, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida arxeologik tadqiqotlarning kengayishiga bir muncha turtki ham bo'ldi. Shu tufayli 1970-yildayoq Ya.G'ulomov rahbarligida Buxoro shahrida ham ko'p yillarga mo'ljallangan muntazam arxeologik qazish ishlari boshlangan edi.

Ammo tadqiqotchilar hali nihoyasiga etar-etmas Buxoro jamoatchiligi, ayniqsa, fidoiy ziyolilar o'rtasida "Buxoroning yoshi 3000 yildan kam emas" degan qat'iy fikr keng tarqala boshladi. Garchi arxeologik qazishmalarda bu raqamni tasdiqlovchi birorta osori-atika uchramagan bo'lsa-da, ammo, Buxoroning yoshi 3000 yildan kam emas degan fikrda ham asos bo'lishi kerak.

---

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих). –Тошкент: Фан, 1991. –Б.22-27.

Aslida bu ma'lumot Muxammad Narshaxiyga mansub bo'lib, u o'zining "Buxoro tarixi" nomli kitobida ikki bor ana shu raqamni qayd qilib o'tgan va Arkning qurilishini qadimgi Eronning afsonaviy shahzodasi Siyovush nomi bilan bog'lagan: "Siyovush-ibn Kaykovus o'z otasidan qochib Jayxun daryosidan (kechib) o'tib, Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi tufayli Siyovush bu erda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib u Buxoro Hisorini bino qildi va ko'proq vaqt o'sha joyda turdi. Kimlardir u bilan Afrosiyob o'rtasida yomon gap yurgizdi va natijada Afrosiyob uni o'ldirdi hamda shu Hisorda sharqiy darvozadan kiraverishdagi "Darvozayi go'riyon" deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etildi... Bu gaplar bo'lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi".

Agar shu raqamni dalil sifatida tahlil etib, xulosa qilinadigan bo'lsa, Buxoro arki 4000 yildan oshiqroq vaqt ilgari qurilgan bo'lib, Buxoro yoshi buxorolik birodarlar hamisha ta'kidlab kelganidek, 3000 ming emas, balki, 4000 yilga teng bo'lib chiqadi.

Modomiki, Buxoroning paydo bo'lgan vaqti haqida so'z borar ekan, M.Narshaxiyning ushbu kitobida keltirilgan shunga oid yana bir muhim ma'lumotga e'tibor beraylik. Unda Buxoro hali shahar sifatida shakllanmagan, ammo endigina ayrim qishloqlar paydo bo'lgan davr tasvirlanib shunday bayon etiladi: "Xalq ko'paygach, bir kishini saylab amir qildilar, uning nomi Abruy edi. Hali Buxoro shahri vujudga kelmasdan, lekin qishloqlardan ba'zilar paydo bo'lgan edi. Nur, Harqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna va Isvona o'sha qishloqlar jumlasidandir".

Bu ma'lumotga qaraganda, Buxoroga ilk bor podsho bo'lgan hukmdorning nomi Abruy bo'lgan. Darhaqiqat, Abruy Afrosiyob yoki Siyovush kabi afsonaviy emas, tarixiy shaxs. Tarixdan ma'lumki, u VI asrning 80-yillari boshida yirik mulkdorlarga qarshi Poykand shahrida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloniga boshchilik qilgan. Qo'zg'olon oqibatida poykandlik mulkdorlar quvib yuborilib, shahar qisqa muddatga bo'lsa-da, Abruy boshliq kambag'al kadivarlar-qishloq ahli ko'liga o'tgan. Turk xoqoni Qorachurinning yordami bilan milodiy 586-yilda Abruy o'ldirilgan. Binobarin, M.Narshaxiyning ushbu



ma'lumotini asos qilib oladigan bo'lsak, Buxoro yoshi 4000 ham, 3000 ham emas, balki 1400 yildan sal oldinroq bo'lib chiqadi.

Buxoro yoshi 3000 yilga teng deb da'vo kiluvchilar nahotki Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning bu ma'lumotiga e'tibor bermaganlar. Qolaversa, shu o'rinda "Bu raqamlarning qay biriga ishonish kerak?"- degan haqli savol tug'iladi. Shu sababli Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning Buxoro shahri yoshi haqidagi ma'lumotlarini arxeologik topilmalar asosida tahlil etish zaruriyati tug'ildi. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy Buxoro atrofida qad ko'targan ayrim qadimiy qishloqlar to'g'risida so'z yuritar ekan, Varaxsha, Poykand, Romish va Romitoni "Buxorodan qadimiyroqdir" deb ta'kidlaydi. Uning yozishicha, Varaxsha va Poykand podshohlar qarorgohi bo'lgan: "Podshoh turadigan katta qishloq Boykand (Poykand) edi. SHahar "Kalayi Dabusiy"- "Dabusiy qal'asi" bo'lib, shahar deb shuni atar edilar". SHuningdek, u ba'zi kitoblarda Romitoni "Buxoro deb ataganlar" degan ma'lumotni keltiradi. "Bu qishloq qadim vaqtlarda podshohlarning turar joylari bo'lgan. Keyinroq esa, Buxoro shahri bino bo'lganidan keyin podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo'lganlar. Bu erlar islom davlatiga o'tganda ham shunday bo'lib turgan"- deb ta'riflagan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy ma'lumotlari tahlil qilinar ekan, ehtimol Qo'rg'oni Romiton qadimda haqiqatan ham Buxoro deb yuritilgandir, degan fikr tug'ilishi tabiiydir. Masalaga qisman bo'lsa-da aniqlik kiritish maqsadida Buxoro atrofida bir qancha arxeologik yodgorliklarda qazishmalar o'tkazildi. Varaxsha, Qo'rg'oni Romiton va Romush kabi qadimgi shahar xarobalaridan topilgan materiallar sinchiklab qayta ko'rib chiqildi. Buxoro shahri yaqinidagi Talimurdapartov, Taxmachtepa, Talimohitobon yodgorliklarida qazish ishlari olib borildi. Qadimgi Poykand xarobalarida arxeologik tadqiqotlar boshlab yuborildi. Natijada Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy "Buxorodan qadimiyroqdir" - deb ko'rsatgan Poykand va Romishning quyi qatlamlarida qayd etilgan topilmalarning eng qadimiysi milodgacha bo'lgan IV asr oxiri-III asrga mansub ekani aniqlandi. Garchi Varaxshaning ostki qatlamidan milodgacha bo'lgan V-IV asrlarga oid sopol bo'laklari topilgan bo'lsa-da, ammo kovlab ochilgan yirik hajmdagi

(40x27x10sm) xom g'ishtlardan terib chiqilgan, qalinligi 2 metr keladigan qadimgi devor hamda doira shakldagi ulkan mo'la milod boshlariga tegishli bo'lib chiqdi. Ko'hna Romitonning ostki qatlamlaridagi xarobalar esa milodning III-IV asrlariga tegishli ekani ma'lum bo'ldi.

Shunday qilib, Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning Buxoro va uning atrofida joylashgan qadimiy qishloqlari yoshi haqidagi ma'lumotlari arxeologik qazishmalarda o'z tasdig'ini topmadi. Shunday bo'lsa-da, bu ikki xil manba ma'lumotlari shaharning paydo bo'lish jarayonining umumiy manzarasini tiklashda bir muncha aniqlik kiritdi. Buxoroning xaqiqiy yoshi arxeologik tadqiqotlar orqali aniqlandi.

**Tayanch so'z va iboralar:** arxeologik tadqiqotlar, urbanizatsiya, ilmiy o'rganish, ibtidoiy madaniyat, arxeologik yodgorlik, shahar yoshi, qo'rg'onlar, qazish ishlari, manzilgoh, qishloq.

### *Nazorat uchun savollar*

1. Turkiston havaskorlar to'garagi faoliyatida Buxoro?
2. Varaxshani o'rgangan rus olimining faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
3. Buxoro yoshi haqida fikr bildiring?
4. A.Asqarovning Zamonbobodagi arxeologik tadqiqoti haqida ma'lumot bering?
5. Buxoroda mahalliy arxeologlardan kimlar faoliyat olib borgan?

### *Test topshiriqlari*

1. "Turkiston mo'g'yl istilosi davrida" nomli asarning muallifi kim?
  - a. Yahyo G'ulomov
  - b. V.V. Bartold
  - s. V.A. Shishkin
  - d. L.A.Zimin
2. Poykentda tadqiqot olib borgan rus olimi kim?
  - a. Yahyo G'ulomov
  - b. V.V. Bartold
  - s. V.A. Shishkin

d. L.A.Zimin

3.Qizil xona qaysi yodgorlikdan topilgan?

a. Varaxsha

b. Poykent

s. Zamonbobo

d. Romush

4. Narshaxiy “Buxorodan qadimiyroqdir” deb qaysi xududni ko‘rsatadi?

a. Varaxsha

b. Poykent

s. Zamonbobo

d. Qarshi

5.Buxoro vohasining ulkan qadimiy mudofaa devori “Kampirdevor”ni qaysi rus olimi o‘rgangan?

a. N.F. Sitnyakovskiy

b. V.V. Bartold

s. V.A. Shishkin

d. L.A. Zimin

## **2-MAVZU: BUXORO VOHASI TARIXIY GEOGRAFIYASI**

### **2.1.Zarafshon daryosi va uning irmoqlari**

### **2.2.Buxoro atamasi va uningmazzmuni**

#### **2.1.Zarafshon daryosi va uning irmoqlari**

Buxoro vohasida o‘troq dehqonchilik, shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishida Zarafshon daryosining hayotbaxsh o‘rni beqiyos. Qadimda Misr «Nilning hadyasi» bo‘lganidek, Buxoro vohasini ham Zarafshon daryosining in’omi desa bo‘ladi. Chunki, daryo adog‘ida joylashgan bu o‘lkaning o‘zi, avvalambor, Zarafshonning ming yillar davomida oqizib kelgan loyqa yotqiziqalari tufayli vujudga kelgan.Uning toshqinlaridan hosil bo‘lgan son-sanoqsiz irmoqlar, ko‘l va ko‘lmaklar esa voha tabiatining shakllanishi va uning o‘zlashtirilib obod etnlishida hayotbaxsh rol o‘ynagan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Муҳаммаджонов А.Р. Қадимги Бухоро. –Тошкент: Фан, 1991. –Б.9.

Ma'lumki, muzliklar davri tugab, ob-havo iliy boshlagach, Turkiston, Hisor va Zarafshon tog' tizmalaridagi qalin muzliklar, abadiy qorliklar erib, ulardan hosil bo'lgan ulkan toshqinlar Zarafshon daryosi bo'ylab oqqan. Uning o'sha zamonlardagi toshqinlari, shubhasiz afsonalarda tasvirlangan «Nuh to'foni» ni eslatadi. O'sha zamonlarda Zarafshon o'z vodiysida nihoyatda keng maydon bo'ylab yoyilib oqqan. Uning o'ng qirg'og'i hozirgi Samarkand viloyatida Payariq va Xatirchi adirlarini, so'l qirg'og'i esa Pstdarg'om va Kattaqo'rg'on qirlarini yuvib o'tgan. Bu katta oqimning biror tomchisi ham Zarafshon vodiysining yuqori va o'rta qismlarida na dehqonchilik, na obodonchilik uchun sarf bo'lmay, u hozirgi Navoiy shahri yaqinida tor Xazora darbandini yorib o'tib, konussimon Buxoro vohasiga oqib kirgan.

Buxoro vohasida u qadimgi Xitfar (Vobkentdaryo), Rudizar (Shohrud), Qorako'ldaryo, Moxondaryo va Tayqir kabi bir nechta tarmoqlar hosil qilib, butun voha bo'ylab yoyilib oqqan. O'sha zamonlarda hozirgi Buxoro viloyatining vodiy qismi Zarafshonning toshqin suvlaridan hosil bo'lgan ko'l va botqoqliklardan iborat bo'lib, ular qalin butazor, chakalakzor va to'qayzorlar bilan qoplangan.

Buxoro vohasining bu qadimiy tabiiy manzarasi X asrda yashagan tarixchi Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida quyidagicha tasvirlanadi: «Hozirda Buxoro (o'rnashgan) bu mavze, (ilgari) botqoqlik bo'lib, uning ba'zi erlarini to'qayzor, daraxtzor va ko'kalamzorlar tashkil etgan, ayrim joylari esa shunday bo'lganki, biron hayvon ham oyoq qo'yishga joy topa olmagan. Buning sababi shuki, Samarkand tomonidagi viloyatlarda tog'larda qor erib, suvi (oqib kelib) o'sha joyga yig'ilib yotar edi.

Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uning «Rudi Mosaf»-«Mosaf daryosi» deb ataydilar. Bu daryoga ko'p suv yig'ilgan, u bir talay erlarni yuvib, o'pirib, loyqalarni surib kelgan va natijada bu botqoqliklar to'lib qolgan. Suv ko'p oqib kelaverdi, loyqalarni to Bitik va Farobgacha surib keltira berdi. So'ng suv (toshib kelishi) to'xtadi, Buxoro o'rnashgan joy (asta-sekin) to'lib, tekis erga aylandi va shunday qilib u kattadaryo So'g'd va bu (loyqalar bilan) to'lgan mavze Buxoro bo'lib qoldi»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А.Р. Қадимги Бухоро. –Тошкент: Фан, 1991. –Б.9.

Ayni o'sha zamonlarda hozirgi Qorako'l va Olot nohiyalari o'rnida ulkan ko'l bo'lib, unga bir tomondan Qashqadaryoning, ikkinchi tomondan Qorako'l daryo orqali Zarafshon daryosining suvlari qishin-yozin muttasil quyilib turgan. O'rta asr yozma manbalarida bu ko'l «Buxayrayi Somjan» (ya'ni, Somjan dengizi), «Bahr ul-Buxoro» (ya'ni, Buxoro dengizi), «Borgini Farroh»-«Keng hovuz», «Movoza Boykand», ya'ni Boykand yaqinidagi ko'l kabi bir nechta atamalar bilan tilga olinadi. Turklar uni «Dengiz» yoki «Qorako'l» deb yuritishgan. Bu ko'lning uzunligi ham, kengligi ham 20 farsang, ya'ni 120-140 km ga teng bo'lgan. Buxoro dengizi va Boykandko'l nomlari bilan shuhrat topgan bu ko'lning shimoliy qirg'og'i Shiburdonota balandliklariga tutashgan. Zamonbobo adirliklariga, janubiy qirg'og'i Dengizko'lning janub sohillariga, sharqiy qirg'og'i Poykent-Tayqir qirlari orqali Qarshi dashtiga, g'arbiy qirg'og'i esa Olot tekisliklari orqali Urganjiy dashtiga-Qizilqumga tutashib ketgan. Muhammad Narshaxiyning yozishicha, bu ko'l suv jonivorlariga nihoyatda boy bo'lib, butun Xuroson muzofotida bu erdagidek ko'p miqdorda parranda va baliqlar tutilmagan.

Golotsen davrida, ya'ni miloddan avvalgi XII-X ming yillikda tektonik harakatlar oqibatida Poykand Qorako'l massivi birmuncha ko'tariladi. Zarafshonning qadimiy oqimi Buxoro vohasida damlanib, hozirgi Yakkatut yaqinida Moxondaryo va Gujayli o'zanlari bo'ylab Qizilqumning ichkarisiga tomon urib ketadi. Bu ikki qadimiy o'zan bo'ylab u Chuqurko'l, Moxonko'l, O'rtako'l, Chandirko'l, Zamonbobo, Kichiktuzkon, Kattatuzkon, Lo'xli, Og'achuyuq, Qandirli, Qayiqli, Qurbonboy, Rahmatbobo, Kichikporson, Kattaporson va Echkiqiron kabi bir qancha ko'llar zanjirini hosil qiladi. So'ngra 150 km masofada butun Urganjiy dashtini kesib o'tib, Oqrabod va Nargizqal'a degan joylarda Amudaryoga borib quyiladi. Qadimda Zarafshonni Amudaryo bilan tutashtirgan Moxondaryoning suvsizlikdan keyinchalik qurib qolgan ko'hna o'zanlari hozirgi vaqtda tamoman quruq va usti po'rsiq sho'r hamda atrofi yulg'un bosgan ko'llar orasida deyarli bilinmay ketgan bo'lsa-da, ammo cho'l bag'rida, xususan, barxanlar ostida juda yaxshi saqlangan. Ba'zi joylarda uning kengligi 30, chuqurligi esa 1,5-2 metrga boradi.

Moxondaryoning o'zanlaridan biri Amudaryoning o'ng qirg'og'iga joylashgan XI-XII asr yodgorligi Nargizqal'a yaqinida

to'rtta arnaga ajralib, delta hosil qiladi va chuqur hamda keng jarliklar orqali Amudaryoga borib tutashadi. Jarliklarni mahalliy aholi «suvlot» deb ataydi. Ulardan birinchisi Oxursuvlot, ikkinchisi Jilg'indisuvlot yoki Yulg'unlisuvlot, uchinchisi Sho'rsuvlot yoki Oyxonsuvlot, to'rtinchisi Suvlisuvlot yoki Digisuvlot nomlari bilan mashhur. Bu suvlotlarning eni 75-125, chuqurligi esa 15-20 metrga teng. Moxondaryoning yana bir o'zani Nargizqal'adan 18 km janubi-sharqda joylashgan Oqrabod mavzei yaqinida Sho'ryotoq, Sariboy, Poyanda, Qumsuvlot va Jarsuvlot kabi beshta tarmoqqa bo'linib, u ham Amudaryoga birlashadi.

Shubhasiz, Moxondaryoning kuchli oqimlari natijasida Amudaryoning, baland va mustahkam qirg'oqlari yuvilib hosil bo'lgan bunday chuqur va keng jarliklar qachonlardir uzoq o'tmishda Zarafshon suvlarining Jayxunga tomon qanchalik shiddat bilan oqqanligidan guvohlik beribgina qolmasdan, balki bu ikki daryo aloqalarining qadimgi nishoni-osorul atiqasiga aylangan.

Buxoro va unga yaqin joylarda tashkil etilgan dastlabki aholi manzillar to'g'risida Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy o'zining Buxoro tarixi kitobida yozib qoldirgan. U Buxorodagi qadimgi Farab, Tavois, Iskajkat, SHarg', Zandana, Vardona, Afshina, Barkad, Romtin (Romitan), Varaxsha, Baykand, Karmina manzillar xususida quyidagilarni ta'kidlaydi.

*Karmina* Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, uning suvi Buxoro suvidan keladi, xiroji Buxoro xirojiga qo'shiladi. Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor, unda masjidi jome barpo etilgan. Karminani «Bodyaynxurdak» («Ko'zacha») deb ataganlar. Buxorodan to Karminagacha o'n to'rt farsangdir<sup>1</sup>.

*Nur*<sup>2</sup> katta joy Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u erga boradilar. Nur ziyoratiga borgan kishi hajqilgan (kishining) fazilatiga ega bo'ladi; u ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havoza band qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar.

*Tavois*<sup>3</sup> Buxoro viloyatlaridan bo'lib, (asl) nomi Arquddir. Unda har bir kishi ziynat uchun uyida bita yoki ikkita tovus saqlagan. Arablar (bu erga kelishdan) ilgari tovusni ko'rmagan ekanlar, bu erda

<sup>1</sup> Бу масофа 110-115 километрга тўғри келади.

<sup>2</sup> Ҳозирги Нурота шаҳри.

<sup>3</sup> Навоий вилоятининг Қизилтепа туман маркази ҳудудида жойлашган.

ko'p tovuylarni ko'rib, u qishloqni «Zotut-tavois» - «Tovuylar egasi» deb ataganlar, uning asl nomi esa unutilgan; undan keyinroq «zot» so'zini tashlab Tavois deb qo'ya qolganlar. Unda masjidi jome bor, u katta bir shahristonga ega, qadimgi vaqtlarda (har) kuz faslida u joyda o'n kun bozor bo'lar edi. Har yili (shu o'n kunda) bu bozorga masalan, Farg'ona, Choch va boshqa joylardan kelgan savdogarlar va turli hojatmandlardan o'n mingdan ortiq kishi hozir bo'lishar va ko'p manfaat topib qaytar edilar. SHu sababli bu qishloqning aholisi boy kishilar edilar va boyliklari dehqonchilik tufayli emas edi. Tavois Samarqandga boriladigan katta yo'l ustida bo'lib, undan Buxorogacha etti farsangdir.

*Iskajkat* U bir katta kuhandizga ega. Uning hamma aholisi savdogarlik bilan shug'ullangan. U joyda ko'p bo'z (to'qib) chiqarilar edi. Har payshanba kuni u erda bozor bo'lardi. U kishloq sultonlikka tegishli mulklar jumlasidandir.

*Sharg'* qishlog'i Iskajkat ro'parasidadir, ikkovining orasida katta daryodan boshqa hech bir bog' va bo'sh erlar yo'q. U daryoni Rudya Somjan deb ataganlar. Hozirda esa SHarg' daryosi, ba'zi kishilar bo'lsa, Haromkom deydilar. Bu ikki qishloq o'rtasida dara ustida katta ko'prik bor edi. Ismoil Somoniy bu qishloqni barcha er-suvlari va dov-daraxtlari bilan sotib olib, hammasini Buxoro shahrining ichkarisida Samarqand darvozasida bino etgan rabotga vaqf qilgan. Bu Sharg' va Iskajkat Buxoroning eng yaxshi qishloqlari bo'lgan.

*Zandana* Bu qishloq katta qal'aga, ko'pgina bozor joylarga masjidi jomega ega. Bu qishloqda (to'qib) chiqariladigan narsa - bo'zni «zandaniychi», ya'ni «Zandana qishlog'idan chiqadigan» deb ataydilar. Shu xil bo'zdan Buxoroning ko'p qishloqlarida to'qiydilar va buni ham «zandaniychi» deb ataydilar. Shu qishloqda to'qib chiqarilgan bo'zni Iroq, Fors, Kermon, Hindiston va boshqalar kabi hamma viloyatlarga olib boradilar.

*Vardona* katta bir qishloq bo'lib, kuhandizga, katta va mustahkam hisorga ega. U qadim vaqtlardan podshohlarning turar joylari bo'lgan.

*Afshina* katta shoristonga va mustahkam hisorga egadir. Bir qancha qishloqlar unga mansubdir. U erda har haftada bir kun bozor bo'ladi. Bu qishloqning ekin erlari va biyobonlari madrasa talabalariga vaqf qilingan.

*Barkad* qadimiy va katta bir qishloq; bir katta kuhandizga ega. Bu qishloqni «Barkadialaviyon»-«Ali avlodining Barkadi» deb ataydilar. Bunga sabab shuki, amir Ismoil Somoniy bu qishloqni sotib olgan va olti bo'lakka ajratib, undan ikki bo'lagini Ali va Ja'far avlodiga, ikki bo'lagini darvishlarga va ikki bo'lagini o'z merosxo'rlariga vaqf qilgan.

*Romtin (Romitan)* katta bir kuhandizga ega va mustahkam bir qishloq bo'lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba'zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. Bu qishloq qadim vaqtlarda podshohlarning turar joylari bo'lgan, (keyinroq esa) Buxoro shahri bino bo'lgandan keyin, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo'lganlar.

*Varaxsha.* Bir nusxa (kitob)da Varaxsha o'rnida Rajfandun deb yozganlar. Katta qishloqlardan biri. U Buxoro shahridan qadimiyroqdir. Unda podshohlarning qarorgohi joylashgan. Yilning oxirida esa yigirma kun bozor qilib, yigirma birinchi kuni navro'z - yangi yil bayramini o'tkazadilar. Buni «Navro'zi kishovarzon» - «Dehqonlar navro'zi» deydilar. Buxoro dehqonlari (yil kunlari) hisobini o'sha kundan boshlaydilar va bunga e'tibor beradilar.

*Baykand.* Uni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. Baykand aholisi biror kishining Baykandni qishloq deb atashiga rozilik bergan emaslar. Baykandda Buxoro qishloqlari sonicha, mingdan ortiq rabot bo'lgan.

*Farab* shaharlar jumlasidan bo'lib, alohida joylarga ega, Jayhun daryosi labidan to Farabgacha bir farsang, suv toshgan vaqtlarda esa yarim farsang keladi. Jayhun suvi (toshib) Farabgacha borib etgan<sup>1</sup>.

Aholi joylashuvida shahriston, ark, rabot hamda voha bo'ylab mavjud tepalar muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro vohasida bir guruh tepalar saqlangan bo'lib, ular hududning geografik joylashuvi va aholi hayot tarzi natijasida vujudga kelgan. Quyida bugungi kunga qadar saqlangan tepalar ro'yxatini keltiramiz.

#### ***Buxoro vohasidagi tepalar***

Varaxsha	Xanjar-tepa	Xanjar-tepa	Lavandak-tepa
Poykent	Ashur-tepa	Ashur-tepa	Nur-tepa

<sup>1</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарк машаълига илова, 1993. –Б.20-25.



Vardonze	Setalak-tepa	Oqsoch-tepa	Oqsoch-tepa
Lavandak-tepa	Narchoq-tepa	Nur-tepa	Kumuchqator-tepa
Oyim-tepa	O'rta-tepa	Qipchoq-tepa	Kumuchqator-tepa
Kallon-tepa	Abu Muslim tepa	Qo'shtepa	Shahri vayron
Sekuloh-tepa (XII-asr)	Uchkuloh (XII-asr)	Xo'ja Porso (XII-XIII asr)	Qal'ai Mir Arab (XVIII asr)
	Talli kuluh	Talli-safed	Talli-murda partov

## 2.2. "Buxoro" atamasi va uning mazmuni

Buxoroning qadimgi nomlari to'g'risida asosan xitoy manbalarida ma'lumotlar uchraydi. "Buxoro" atamasi, jumladan, An, Ansi, Ango, Buxo, Buku, Buxe, Buxaer, Buxuaer, Buxala, Buxuala, Fuxo, Puxuala kabi shakllarda qayd etiladi. Dastlabki uch atama shaharning xitoycha nomlari bo'lib, qolgani «Buxoro» so'zining xitoy tilidagi talaffuzidir. O'rta asr arab manbalarida esa Buxoro Numijkat, Navmichkat, Bumichkat (Yangi qo'rg'on), Al-Madina as-sufriyya (Mis shahar), Madinat at-tujjor (Savdogarlar shahri), Foxira (Faxrli shahar) kabi nomlar bilan tilga olinadi<sup>1</sup>.

Buxoro atamasi sanskritcha «vixara» so'zining turk-mo'g'ulcha shakli - «buxor» («ibodatxona») dan kelib chiqqan degan taxminlar mavjud. Bu taxmin ko'pincha V.V.Bartold tomonidan ilgari suriladi. Keyingi tadqiqotlarda bu atama sug'diycha «bug'» yoki «bag» («tangri») hamda «oro» («jamol») so'zlaridan tashkil topgan va «tangri jamoli» degan ma'noni anglatadi, degan fikrlar ilgari surilmoqda.

Buxoroning "Madinat as-sufriya", "Madinat at-tujjor" va "Foxira" nomlari arablar tomonidan berilgan bo'lib. birinchisi - "Mis shahri", ikkinchisi – "Savdogarlar shahri" va uchinchisi "Faxrli shahar" ma'nosini anglatadi.

Shaharning qal'a devorlari anchagina kuchli mustahkamlanganligidan, shahar "Madinat as-sufriya" nomini olgan. U mazmunan "Mis shahar" yoki "Mis qo'rg'on" degan ma'noni be-

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.1.–Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001. –Б 456.

radi. Buxoro Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston, Xitoy davlatlarini bog'lovchi Buyuk Ipak yo'lida joylashgani bois, aholining katta qismi savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Shaxar, shuningdek, xalkaro savdoda xam faol ishtiroketgan. Shu tufayli "Madinat at-tujjor", ya'ni "Savdogarlar shahri" nomi bilan mashhur bo'lgan<sup>1</sup>.

“Numijkat”, “Bumiskat” va “Buxoro” atamalari shaharning maxalliy nomlaridir. Bulardan birinchisi haqiqatda Navmichkat tarzida eshilib, uchta so'z birikmasidan tarkib topgan: "nav" tojik-fors so'zi - yangi, so'g'diy “mich” – kal'a, istehkom va "kat" qishloq ma'nolarini anglatadi. Xullas, Navmichkat, "YAngi kal'a", "Yangi shahar", "Yangi mustahkamlangan qishloq" deganidir. Xitoy manbalarida keltirilgan "Nyumi" nomi esa “Navmich” toponimining buzilgan shaklidir.

Buxoro urbanizmlaridan anglashilishicha, shahar kal'alaridan biri "farovis" deb atalgan. Bu nom bizning kunlarga "Farovis us-Suflo" tarzida etib keldi. Bu - Shoxrud kanali tarmoqlaridan birini nomi, Buxoro to'qimachilarining homiysi Boboyi Porado'z nomidir. Haqiqatan, kadimiy kal'aning nomi aslida "Farobdiz" bo'lgan. So'g'dcha "farob" sohilbo'yi va "diz" - kal'adir. Atama ana shu ikki so'zning qo'shilishidan hosil bo'lib, uning ma'nosi: «Suv yoqasidagi kal'a» yoki «Soxilbo'yi shahri», «Soxilbo'yi qo'rg'oni»demakdir<sup>2</sup>.

Shu bilan birga, “Buxoroyi sharif” (sharofatli Buxoro) - qadimgi Buxoroning keng tarqalgan nomlaridan biri. O'rta asrlarda jahondagi etti shahar: Makka, Madina, Quddus, Buxoro, Bag'dod, Damashq, Mozori Sharifga diniy markaz sifatida shuhrat qozonganliklari uchun «Sharif» unvoni berilgan edi. Buxoro qadimdan turli nomlar bilan atalib kelgan. Ayniqsa, arab xalifaligi va somoniylar davrida shahar yuksalgan. Buxoroning nomlaridan «Foxira» («Faxrli shahar») atamasi Narshaxiynint ta'rifi bo'yicha, islom dinining barqarorligi yo'lida qon to'kkan shahidlar sharafiga nisbat qilib berilgan<sup>3</sup>.

Shahar islomni targ'ib qilish va qaror toptirish yo'lida ham muhim rol o'ynagan. Buxorodan islomiyat va hadis ilmlarining yirik targ'ibotchilari va tasnifchilari etishib chiqdi. Islom huquqshu-

<sup>1</sup> Бухоро шарқ дурдонаси / Муаллифлар жамоаси.— Тошкент: Шарқ, 1997. — Б.29.

<sup>2</sup>Муҳаммаджонов А.Р. Қадимги Бухоро. —Тошкент: Фан, 1991. —Б.50.

<sup>3</sup>Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. —Тошкент: Шарқ машаълига илова, 1993. —Б.27-28.

nosligining Buxoro maktabi tashkil topdi. Buxoroning islom dini, musulmon axloqi, madaniyati va hukuqshunosligining Sharqdagi kuchli markazlaridan biriga aylanishi tufayli unga IX boshlaridayoq «Qubbat ul-islom» - «Islom dinining gumbazi» degan sifat ham beriladi. Narshaxiyning guvohlik berishicha, mashhur fiqhshunos (hukuqshunos) olim Hoja imom Abu Xafsi Kabir Buxoriy tufayli Buxoro «Qubbat ul-islom» deb atalgan.

Shayx Sayfiddin Boharziy faoliyati tufayli Buxoroning shuhrati islom olamida yana ham ko‘proq tarqaldi. Shu sababli XIII asrdan boshlab unga yana bir sifat-«sharif» so‘zi qo‘yilib, u “Buxoroyi sharif”, ya’ni “Sharif Buxoro” nomi bilann yuritiladigan bo‘ldi. Buxoro hukmdorlari tomonidan «Zarbi Buxoroyi sharif», ya’ni “Buxoroyi sharifda zarb etilgan», deb bitilgan tamg‘alar bilan oltin, kumush tangalar hamda mis chaqalar zarb qilingan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Buxoro vohasi, o‘troq dehqonchilik, shaharsozlik madaniyati, daryo, ko‘l, ko‘lmak, tog‘ tizmalari, tabiat, irmoq, Buxoro atamasi, joy nomi. Ipak yo‘li.

### *Nazorat uchun savollar*

1. Zarafshon daryosining Buxoro vohasidagi irmoqlari xususida ma’lumot bering?
2. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida qaysi qo‘rg‘on nomlari sanab o‘tiladi?
3. Buxoro atamasining ma’nosini ta’riflab bering?
4. Nima sababdan Buxoro «Qubbat ul-islom» deb atalgan?
5. Buxorodagi tepalar to‘g‘risida ma’lumot bering?

### *Test topshiriqlari*

- 1.«Movoza Boykand» atamasining ma’nosining aniqlang?
  - a.Boykandning toshi
  - b. Boykand tuprog‘i
  - s.Boykand yaqinidagi ko‘l
  - d. Tilla ko‘l
- 2.Buxoroga nechanchi asrdan e’tiboran “sharif” atamasi qo‘llanib kelinmoqda?
  - A. XIII asr
  - B. XV asr
  - S.VIII asr

D.III asr

3. «Navmichkat» toponimining ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

a Yangi ko'l

b Katta uy

s Katta ko'l

d Yangi kal'a

4. Quyidagi atamalardan qaysi biri "Mis shahar" degan ma'noni anglatadi?

A. Madinat at-tujjor

B. Foxira

S. Al-Madina as-sufriyya

d .Numijkat

5. "Farobdiz" atamasining ma'nosini to'g'ri tanlang.

a. Faxrli shahar

b. Sohil bo'yidagi qal'a

s. Yangi kal'a

d. Savdogarlar shahri

### **3-MAVZU: BUXORODA ILK O'RTA ASR SHAHARSOZLIK MADANIYATI**

**3.1. Buxoro shahrining vujudga kelishi**

**3.2. Shahar arkining barpo etilishi**

**3.3. Shahrison darvozalari, rabot va bozorlar**

#### **3.1. Buxoro shahrining vujudga kelishi**

Zarafshon vodiysining quyi qismiga joylashgan Buxoro vohasi paydo bo'lishi to'g'risida poleogeografik mulohazalarda ilk o'rta asrlardayoq daryo vodiylari shakllanishi va bu jarayonda suv manbalarining tabiiy roli haqida etarli va aniq tushunchaga ega bo'linganligidan dalolat beradi. Qizig'i shundaki, bundan qariyb ming yil avval bu fikr naqadar to'g'ri ekanligini o'lkada olib borilgan gidrogeologik va arxeologik tadqiqotlar tasdiqlab berdi.

Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzoq o'tmishda Zarafshon daryosining quyi o'zanlaridan biri hali ko'hna Buxoro

vujudga kelmasdan avval, hozirgi vaqtda qad ko'tarib turgan Ulug'bek va Abdulazizxon madrasalari, Toqi Zargaron, Mir Arab madrasasi, Minorai Kalon va Masjidi Kalon kabi me'morchilik obidalari bo'y cho'zgan zamin o'rnidan oqib o'tgan. Bu daryo o'zanining kengligi 100-120 metrga borgan, ilk o'rta asr yozma manbalarida u "Zarirud" yoki "Rudizari Buxoro" nomlari bilan tilga olingan. Bu o'zanning toshqin suvlari qadim zamonlardan Poykand shahrigacha etib borgan. Bu ko'hna o'zanning daryovoti va tevarak-atrofini qoplab yotgan qalin butazor va tuqaylarning asriy chirindilaridan Buxoro shahri ostida torf qatlamlari hosil bo'lgan.

Ayrim qazishma maydonlarida qayd etilgan kuchli yong'in qoldiqlariga qaraganda, Buxoro xududini ilk bor o'zlashtirishga kirishgan qadimgi "cho'lquvarlar" bu ko'hna daryovot sohillariga kelib o'rnashib, to'qaylarga o't qo'yib er ochgan bo'lishsa ham ajab emas. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning ta'kidlashicha, "daryo tomondan odamlar yig'ilib, u joy obod bo'ldi. Odamlar Turkiston tomonidan kelar edilar. Bu viloyatda suv va daraxtlar, ov qilinadigan jonivorlar ko'p bo'lganidan kishilarga bu viloyat xush kelib, shu erga joylashdilar"<sup>1</sup>.

Arxeologik tadqiqotlar shuni aniqlab berdiki, Buxoro shahri dastavval qadimgi Zarirud o'zanining ikki sohilida alohida-alohida joylashgan uchta mustaqil qishloq shaklida qad ko'targan. Ulardan biri daryoning o'ng sohilida hozirgi Arkning o'rnida bo'lgan, qolgan ikkitasi Masjidi Kalon, Minorai Kalon, Mir Arab madrasasi va Timi Abdullaxon arxitektura yodgorliklari yo'nalishida, ilk o'rta asrlardagi Buxoro shaxristoni o'rnida, daryo o'zanining ikki betida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ekan.

Arkda olib borilgan qazish ishlarining natijalarini g'oyat samarali bo'ldi. Eng muhimi, arkni o'rganish tarixida birinchi marotaba uning qadimgi quyi zaminigacha kovlab tushildi. Shaharning bu qadimgi qismi ostida hosil bo'lgan madaniy qatlamning umumiy qalinligi 20 metrdan oshiqroq bo'lib, uning ostki qatlamidan kovlab olingan arxeologik topilmalarning eng ko'hnasi miloddan avvalgi IV asr oxiri va III asr boshlariga mansub edi. Moddiy madaniyat izlari orasida 15,5 metr hamda 18,5 metr

---

<sup>1</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. /Форс тилидан А.Расулов таржимаси (қайта нашри). –Тошкент: Шарқ баёзи,1993. – Б.23.

chuqurlikda kovlab ochilgan qadimgi ikki mudofaa devorlari qoldiqlarning topilishi shahar tarixini o'rganishda ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Birinchi mudofaa devori 2,5-3, ikkinchisi 2-2,5 metr balandlikda saqlangan. Yuqori qatlamdan topilgan devor milodning III-IV asrlarida, quyi qatlamdan topilgani esa milodgacha bo'lgan IV-III asrlarda paxsadan barpo etilgan. Bu maydonda madaniy qatlam hosil bo'lgan qadimiy er sathiga qaraganda, Buxoro arki ostida qad ko'targan dastlabki qishloq Zarirud o'zanining so'ng sohilida joylashgan tabiiy do'nglik ustida paydo bo'lgan bo'lib, bu do'nglik tevarak-atrofning umumiy relefidan 8-10 metr baland bo'lgan. Maydoni 1,5-2 gektardan oshmagan. Arxeologik qazishlar natijasida kovlab ochilgan tarixiy manzara shuni ko'rsatadiki, Buxoroning qadimgi markaziy qismi, Arkdan sharqroqda, daryo bo'yida reliefi jihatdan arkka nisbatan ancha-muncha pastroq erda joylashgan, maydoni 12-13 gektarga teng bo'lgan. Mir Arab madrasasining yaqinida olib borilgan qazishmalar chog'ida 4,5 metr chuqurlikda shaharning qadimgi mudofaa devori qoldiqlari qayd etildi. Paxsa hamda yirik hajmdagi xom g'ishtlardan urib chiqilgan bu qala devori 5-6 metr balandlikda saqlangan. Devor poydevori ostida qolib ketgan madaniy qatlam va unda qayd etilgan arxeologik topilmalardan ma'lum bo'lishicha, bu qadimgi mudofaa inshooti milodning V-VI asrlarida qad ko'targan<sup>1</sup>.

Buxoro shahrining barpo negizi bo'lgan uchinchi qishloq Zarirud o'zanining so'l qirg'og'ida joylashgan bo'lib, u ham alohida mudofaa devori bilan o'rab olingan. Maydoni 6-7 gektar. Bu nohiyada so'nggi o'rta asrlarda Buxoro qozikalonining saroyi va mahkamasi joylashgan bo'lgan. Qizig'i shundaki, tadqiq qilingan 18 metrli madaniy qatlamning 9 metri miloddan avvalgi IV-I hamda milodning I-IV asrlarida hosil bo'lgan. Mazkur qatlamda qayd etilgan turli xil ashyoviy topilmalar yuqori sifatli shahar hunarmandchiligi mahsulotining qoldiqlarn bo'lib, ular bu erda qadimdan shaharning gavjum hunarmandchilik mahallalari joylashganidan guvohlik beradi.

Xullas, ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon daryosi quyi o'zanlaridan birining sohilida bir-biriga qarama-qarshi

---

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих). –Тошкент: Фан, 1991. –Б.40-41.

joylashgan uchta aloqida qishloq asosida Buxoro shahri barpo bo'lgani aniqlandi.

### **3.2. Shahar arkining barpo etilishi**

Buxoro tarixida hukmdorlar qarorgohi arkning ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, uning bunyod etish tarixi haqida ma'lumotlar Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida keltiriladi. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr arkning ajoyibotlari haqida to'xtab, shunday deydi: Abul Hasan Nishopuriyning "Xazoin ul-ulum" kitobida aytilishicha, Buxoro ko'handizining, ya'ni Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu voqea sabab bo'lgan: Siyovush ibn Kaykovus o'z otasidan qochib Jayhun daryosidan o'tib Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu erda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko'proq vaqt o'sha joyda turar edi. Kimlardir u bilan Afrosiyob o'rtasida yomon gap yurgizdi va natijada Afrosiyob uni o'ldirdi hamda ana shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishingda "Darvozayi g'uriyon" deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o'sha joyni aziz tutadilar va Siyovushga atab har bir erkak kishi har yili Navro'z kuni quyosh chiqishidan oldin o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisi Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytadilar. Qo'shiqchilar uni "otashparastlar yig'isi" deydilar. Bu gaplar bo'lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko'ra, bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba'zilar esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. So'ng bu hisor buzilib ketib, ko'p yillar vayronligicha qoldi. Tug'shodaning otasi Bidun Buxorxudot taxtga o'tirganidan keyin, odam yuborib bu hisorni tuzattirdi, undagi qasrni ham u tuzattirdi va o'z nomini temirga yozdirib qasrning eshigiga mahkam o'rnattdi. SHu xat bitilgan temir

---

<sup>1</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарк баёзи. 1993. -Б.28.

tarjimonning zamonigacha o'sha qasr eshigida mavjud edi. Lekin Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Hisorni vayron qilganlarida u eshikni ham buzib yuborilgan<sup>1</sup>.

Narshaxiy va Abul-Hasan Nishopuriy ma'lumotiga ko'ra, Bidun Buxorxudot u qasrni bino qilganida buzilib ketdi, qaytadan bino qilgan edilar, yana buzildi. U necha marta bino qilmasin yana vayron bo'laverdi. Hukamolarni yig'ib ulardan maslahat so'radilar. Ular bu qasrni osmondagi etti qaroqchi yulduzlari shaklida ettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar, shu shaklda qurilgandan keyin qasr buzilmadi<sup>2</sup>. Ajoyib tomoni shuki, bu qasr bino qilingandan beri bunda hayot kechirgan hech bir podshoh mag'lubiyatga uchragan va aksincha hamisha g'alaba qozongan hamda bu qasrni bino qilganlaridan beri biror podshoh ham uning ichida o'lmagan. Podshohning ajali etgan vaqtda biror sabab yuz berib u qasrdan tashqariga chiqqan va boshqa bir joyda vafot topgan-bu qasr bino qilinganidan to vayron bo'lgunicha shunday bo'lib kelgan.

Bu hisorning ikkita darvozasi bor, biri sharq tomonda, biri g'arb tomonda, sharq tomondagisini "Dari g'uriyon", g'arb tomondagisini "Dari Registon" deydilar, ayrim adabiyotlarda "Dari alaffurushon" ham deb ataladi. Hisorning o'rtasida bu darvozadan to u darvozagacha to'g'ri yo'l o'tgan. Bu hisor podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turar-joylari bo'lib, zindon, podshohlik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu erda bo'lgan. Haram saroyi va xazina ham shu hisorda bo'lgan.

X asrda bu hisor buzilib ketadi. Arslonxon uni yangilashga buyuradi va o'ziga turar joy qilib oladi hamda hisorni ma'lum shartlarga muvofiq idora qilib tursin uchun, ulug' bir amirni qutvol qilib tayinlaydi. Bu hisor xalq ko'zida zo'r e'tiborga ega bo'lgan.

1139-1140-yillari Xorazmshoh Buxoroga kelganida amir Zangi Ali xalifa Sulton Sanjarning farmoni bilan Buxoroning voliysi edi. Xorazmshoh uni qo'lga olib o'ldiradi va hisorni vayron qiladi. Hisor ikki yildan ortiqroq shu vayronligicha qoldi. 1141-1142-yillari Go'rxon tomonidan Buxoroga voliy qilib tayinlangan Alptegin o'sha yiliyoq hisorni obod qilishga buyurdi va uni o'zi uchun turar-joy qilib oldi. 1144 yil g'uz askarlari Buxoroga bostirib keladi. Ko'p jang va

---

<sup>1</sup> Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Шарк баёзи. 1993. -Б.29.

<sup>2</sup> Ўша жойда.



qiyinchiliklardan keyin g‘uz askarlari hisorni olib uni vayron qiladilar. 1207-1208 yillari Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash Buxoroni olib, hisorni qaytadan tikladi. 1219-1220 yillarda mo‘g‘ul lashkarlari Buxoroga bostirib keladi va Chingizxon qal‘a darvozasida o‘n ikki kun jang qilib, uni bosib oladi va vayron qiladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, arkning maydoni 34 675 kv. metrga to‘g‘ri keladi, bizning vaqtimizgacha ham shu holicha etib kelgan. Devor aylanasi esa 780 metr bo‘lgan.

Buxoro ko‘xandizida qadim zamonlarda shoh devoni va xazina joylashgan bo‘lib, qo‘handizda hokimdan tashqari, yana uning qarindoshlari, ular bilan birga saroy ahli ham yashar edi. Ko‘xandiz hovlisida shoh qo‘riqchilari, ya‘ni hokimning harbiy xizmatkorlari joylashgan.

Muhammad Narshaxiyning yozishicha, Buxoro xalqi Buxoro amiri bo‘lib turgan Ahmad ibn Xoliddan: “Shahrimiz atrofida devor bo‘lishi kerak, toki biz kechasi darvozalarni berkitib, o‘g‘rilar va yo‘lkesarlardan tinch bo‘laylik”, - deb iltimos qiladi. Shundan keyin u devor qurishga buyuradi va juda mustahkam devor qurib, minoralar barpo qildilar, darvozalar o‘rnatdilar. Bu ish 849-850 yilda tamom bo‘ldi. Har qachonki biror lashkar Buxoroga qasd qilsa, devorni qaytadan tuzatishar edi<sup>1</sup>. Arslonxon, Mas‘ud Qilich Tamg‘achxon va Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash davrlarida ham Buxoro devorlari yangidan qurildi.

### 3.3.Shahriston darvozalari, rabot va bozorlar

Shahriston darvozalari nomlanishini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

<b>Istahriy va ibn Xavqal</b>	<b>Maqdisiy</b>	<b>Narshaxiy</b>
Al-madina darvozasi	Nur	Bozor darvoza “xushbo‘y atirlar sotiladigan darvoza” (Attoron)
Nur	Xufre	SHahriston
Xufre	Al-xadid	Banu Sa‘d
Al-xadid	Al-ko‘handiz	Banu Asa‘d (imlomgacha

<sup>1</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарк баёзи. 1993. -Б.37.

Al-ko‘handiz	Banu Sa’d	Muxra )
Banu Asad yoki	Banu Asad	Qo‘rg‘on darvoza
Muxra		Haq-rah
Banu Sa’d	Al-madina	Nuv

*Bozor darvozasining* ikkinchi nomi Attoron, ya’ni “xushbo‘y atirlar sotiladigan darvoza”. Qutayba kelgan paytda bu joyda bozor bo‘lgan. Darvozadan uncha uzoq bo‘lmagan joyda nasroniylar ibodatxonasi bo‘lib, keyinchalik uning o‘rniga Masjidi Kalon qurilgan. Tub joy aholi Attoron darvozasini “Ohangaron” deb ham atagan.

*Banu Sa’d darvozasi* Attoron darvozasidan g‘arbda joylashgan, uni Sa’dobod deb ham nomlashgan, uning yaqinida Arslonxon Muhammad o‘zi uchun saroy qurdirgan va u shahristonning janubi-g‘arbida joylashgan. Uning yaqinida hammom joylashgan bo‘lib, u hozirgi kunda “hammomi Kunjak” deyiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu hammom Arslonxon davrida qurilgan.

*Banu Asad darvozasi* islomgacha bo‘lgan davrda Muxra darvozasi deyilgan. Darvoza Xuroson amiriga boradigan yo‘l ustida, “Ko‘shki mug‘on” degan butparastlar ibodatxonasi yonida joylashgan.

*Qo‘rg‘on darvozasi.* Darvozaning ikkinchi nomi Bob al-ko‘handiz. Shahristonning shimoli-g‘arbida joylashgan. Narshaxiy ma’lumotiga ko‘ra, u o‘z davrida Buxorodagi eng mustahkam darvoza bo‘lgan.

*Nur darvozasi* shahristonning shimoliy qismida, Abu Xafs Kabir qabriga boradigan yo‘l ustida joylashgan. Yo‘l esa Abu Xafs Kabir qabristoniga olib chiqqan.

*Xakk-rax,* ya’ni haqiqat yo‘li (to‘g‘ri yo‘l) *darvozasi.* Mahalliy aholi bu darvozani “rax-i xakk” yoki “Darvozai Xafs” deb nomlagan. Bunday nomlanishiga sabab, mashhur olim Abu Xafs Kabir shu erda yashagan..

Shahriston devoridan tashqari joylar rabot deyilgan. Rabotda doimiy bozor bo‘lgan va shahriston aholisi bilan ijtimoiy-iqtisodiy shartnomalar tuzilgan. Qoraxoniylar davrida (XI asr) shahar kengaygan, shahriston va rabot qo‘shilishi natijasida o‘rta asrlardagi shahar qiyofasi shakllangan. Darvozai bozor yoki Darvozai attoronning arab geograflari tarafidan Bob al-xadid, ya’ni Temir

darvoza deb atalishiga sabab, VIII asr boshlarida Buxoro Qutayba tarafidan bosib olinayotgan paytda shahar yaqinidagi bozor shu erda joylashgan edi. Bu erlar hozirda Buxoro shahridagi Aziya mehmonxonasi va uning qarama-qarshisidagi Mag'oki attori obidasi joydashgan hududga to'g'ri keladi.

Buxoro qadimdan savdo chorrahasida joylashgan bo'lib, dunyoning turli tomonlaridan karvonlar bu o'lkaga kelgan va undan chiqib boshqa o'lkalarga o'z safarini davom ettirgan. Buxoro shahri va uning atroflarida ko'plab rabotlar joylashgan bo'lib, ularning har birini o'zining bozori bo'lgan. Quyidagi jadvalda Narshaxiy ta'kidlab o'tgan Buxoro va uning atrofidagi bozorlar xususida to'xtalib o'tamiz.

### **Man**

### **Ta'rif**

#### **zil**

#### **1. Tavois**

Bozorga yonma-yon masjidi jome, katta shahriston bo'lib, qadimgi vaqtlarda kuz faslida u joyda o'n kun bozor bo'lgan. U bozorda shunday rasm bor ediki, boshqa bozorlarda sotilmay qolgan har qanday nuqsonli qullar, chorva mollari va boshqa aybli qoldiq narsalar bo'lsa, hammasi bu bozorda sotilar edi. Ularni qaytarib berishning hech iloji bo'lmagan, na sotuvchi va na oluvchining hech bir sharti qabul qilingan. Har yili o'n kun bu bozorga Farg'ona, CHoch va boshqa joylardan kelgan savdogarlar va turli hojatmandlardan o'n mingdan ortiq kishi hozir bo'lishar va ko'p manfaat topib qaytar edilar. SHu sababli bu qishloqning aholisi boy kishilar edi va boyliklari dehqonchilik tufayli emas, savdogarchilikdan edi. Tavois Samarqandga boriladigan katta yo'l ustida bo'lgan, undan Buxorogacha etti farsang masofa yo'l edi.

#### **2. Iskajkat**

Bu bir katta ko'handiz bo'lib, uning aholisi boy kishilar bo'lgan, boyliklari dehqonchilikdan bo'lmagan, chunki u qishloqning erlari xarob bo'lib, yaxshi erlari ming juftga etmagan. Uning hamma aholisi savdogarchilik bilan shug'ullangan. U joyda ko'p bo'z to'qib chiqarilar edi. Har payshanba kuni u erda bozor bo'gan.

- 3 *SHarg'* Muhammad Narshaxiy ma'lumotiga ko'ra, Iskajkat ro'parasidadir, ikkovining orasida katta daryodan boshqa hech bir er yo'q. Bu joy aholisining qadimda bir bozori bo'lgan, har yili qish o'rtasida o'n kun davom etgan. Kishilar uzoq viloyatlardan kelib savdo qilishgan. Narshaxiy ma'lumotiga ko'ra, u joydan ko'proq shinni bilan tayyorlangan mag'izli holva chiqar edi, yana u joydan ko'proq chiqadigan narsa qintoriy va cho'p (yog'och)lar, tuzlangan baliq, yangi baliq, qo'y va qorako'l terilaridan tikilgan po'stinlardan iborat edi. Bu erda ko'p savdo bo'lar edi. Ammo bugun bizning davrimizda har juma kuni bozor bo'lib, shahar va qishloqlardan savdogarlar u joyga boradilar. U qishloqdan chiqadigan va bu kunlarda savdogarlar boshqa viloyatlarga olib boradigan narsa - mis va bo'zdir.
4. *Zandana* Bu qishloq katta qal'aga ega bo'lib, bozor va masjidi jomega ega. Bu qishloq o'zining "zandaniychi"si bilan mashhur bo'lib, bu xildagi bo'z Iroq, Fors, Kirmon, Hindiston va boshqa viloyatlarga ham xaridorgir bo'lgan. Bu qishloqda har juma kuni bozor bo'lib, namozdan keyin aholi bozor qilgan.
5. *Vardona* Katta qishloq bo'lib, kuhandizga, mustahkam hisorga ega edi. U qadim vaqtlardan podshohlarning turar-joylari bo'lgan. U joyda har haftada bir kun bozor bo'lib, savdogarlar ko'p kelangan. U erdan chiqadigan narsa ham yaxshi xil "zandaniychi" bo'lgan.
6. *Afshina* Katta shahristonga va mustahkam hisorga ega bo'lib uning atrofida bir qancha qishloqlar ham bo'lgan. U erda har haftada bir kun bozor bo'ladi.
7. *Varaxsha* Varaxshaning o'rnida Rajfandun bo'lib, u Buxoro shahridan qadimiyroqdir. Varaxshada har o'n besh kunda bir kun bozor bo'lgan. Yilning oxirida esa yigirma kun bozor qilinib, yigirma birinchi kun navro'z - yangi yil bayrami

o‘tkazilgan.

**8. Mox bozori**

Buxoroda bir bozor bor bo‘lganki, uni “Bozori Mox ro‘z” deganlar. U erda yiliga har gal bir kundan ikki marta bozor bo‘lgan va bozor bo‘lgan kuni ko‘proq butlar sotilgan. Bozor kuni ellik ming dirhamdan ortiq savdo bo‘lgan. Narshaxiy shunday deydi: “Bu bozor bizning vaqtlarda ham bor edi, men nega bunday odat rasm qilingan, deb juda ajablanar edim. Buxoroning keksalari va shayxlaridan: “buning sababi nima”, deb so‘radim. Ular: “Qadim vaqtlarda Buxoro aholisi butparast bo‘lganlar va bu bozor rasm bo‘lib, o‘sha davrlardan boshlab bu erda but sotganlar va bozor hozirda ham o‘sha qadimgidek qolib kelmoqda”,-deb javob berdilar. Nishopuriyning “Xazoin ul-ulum” kitobida bozor haqida shunday yoziladi: Buxoroda bir podshoh bo‘lib, uning nomi Mox edi. U ana shu bozorni qurishga buyurdi, uning farmoni bilan duradgorlar va naqqoshlar u yildan bu yilgacha but yo‘nib, belgilangan kunda shu bozorga keltirib sotishar va xalq uni sotib olar ekan. Har qachon u but yo‘qolsa yoki sinsa, yoki eskirsa, shu bozor kuni boshqasini sotib olar va eskisini tashlar ekanlar.

Mox masjidi o‘rnashgan erda katta ariq bo‘yida serdaraxt tekislik joy bo‘lgan, shu daraxtlar soyasida bozor bo‘lgan. Podshoh xalq but sotib olishga qiziqsin uchun, shu bozorga kelib hozirda Mox masjidi o‘rnashgan erda taxtda o‘tirgan, har kim o‘zi uchun but sotib olgan va uyiga olib ketishni kuzatgan. Bu joy otashparastlar ibodatxonasi ham bo‘lib, bozor kuni odamlar bu erga yig‘ilganlarida hammalari ibodatxonaga kirib olovga sig‘inganlar. Bu ibodatxona to islomgacha bor bo‘lib, musulmonlar kuchayib ketgach, mazkur ibodatxona o‘rniga masjid bino qildilar.

Buxoro ilk oʻrta asrlarda vatanimiz shaharsozlik madaniyatining barcha jihatlarini oʻzida mujassam qilgan shahar sifatida tarixda muhrlanib qoldi.

**Tayanch soʻz va iboralar:** ilk oʻrta asrlar, suv manbalari, daryo oʻzani, tabiiy doʻnglik, ark, madaniy qatlam, hisor, darvoza, bozor, shahriston, rabot.

### *Nazorat uchun savollar*

1. Buxorodagi savdo toqlari haqida maʼlumot bering?
2. “Buxoro shahri va eski binolari” maqolasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Bozori Mox haqida maʼlumot bering?
4. Shahriston darvozalari haqida maʼlumot bering?
5. Arkning bunyod boʻlishi haqida gapirib bering?

### *Test topshiriqlari*

1. “Buxoro shahri va eski binolari” nomli maqolaning muallifi kim?
  - a. Yahyo Gʻulomov
  - b. V.V. Bartold
  - s. V.A. Shishkin
  - d. M. Saidjonov
2. Shahriston darvozalari toʻgʻrisida tadqiqot olib borgan rus olimi kim?
  - a. I.I.Umnyakov
  - b. V.V. Bartold
  - s. V.A. Shishkin
  - b. L.A.Zimin
3. Bolohovuz masjidi kim tomonidan qurilgan?
  - a. Ubaydullaxonning onasi Sitorai Moxi-Xossa tarafidan qurilgan
  - b. Abulfayzxonning onasi Sitorai Moxi-Xossa tarafidan qurilgan
  - s. Abdullaxon
  - d. Amir Olimxon
4. Zandanichi matosi qaerda toʻqilgan?
  - a. Varaxshada
  - b. Poykentda
  - s. Zamonboboda

- d. Zandanada
- 5. Buxoro hisorida nechta darvoza bor?
  - a. 2
  - b. 3
  - s.11
  - d. 7

## **4-MAVZU: ILK O‘RTA ASRLARDA BUXORO**

### **4.1. Buxoro vohasi arablar istilosi arafasida**

### **4.2. Arablarga qarshi qaratilgan xalq harakatlari**

#### **4.1. Buxoro vohasi arablar istilosi arafasida**

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Buxoro vohasidagi Boykand shahri Eftaliylar davlatining poytaxti bo‘lgan. Buni Narshaxiyning Boykand va uning ijtimoiy-siyosiy mavqei to‘g‘risidagi ma‘lumotlari, qolaversa arxeologlar tomonidan uzoq yillardan beri amalga oshirib kelinayotgan arxeologik izlanishlar tasdiqlaydi.

Eftaliylar poytaxti Boykand o‘z davrining eng ko‘rkam, obod shaharlaridan sanalgan. Bu erda hunarmandchilik, savdo-sotik, qurilish ishlari ancha rivojlangan. SHaharning Buyuk ipak yo‘lida joylashganligi unda mahalliy va xalqaro ahamiyatga molik savdo-sotiqning rivojlanishiga keng imkon ochgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan karvonsaroy, bozor va rasta qoldiqlari ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Vohaning muhim iqtisodiy, siyosiy va madapniy ahamiyatga sazovor shaharlaridan yana biri - bu Buxoro shahri edi. Turk xoqonligi davrida Buxoro muhim ahamiyat kasb etgan shaharlardan sanalgan. Xoqonlikka qarshi qaratilgan xalq harakatlari orasida VI asrning 80-yillarida Buxoro vohasida Abruy boshchiligida ko‘tarilgan qo‘zg‘olon alohida ajralib turadi. Bu harakat Buxoro vohasidagi jamoa erlarida yashagan kadivarlarning yirik er egalariga qarshi isyon ko‘tarib, ularning hovli-joylariga hujum qilish, erlarini tortib olish, o‘zlarini esa quvgin qilish bilan xarakterlidir.

Buxoro vohasida ro'y bergan xalq qo'zg'olonidan Turk xoqonligining xonadonidan bo'lmish Abruy ustamonlik bilan foydalanishga harakat qilgan. Abruy Turk hoqoni Moxonning o'g'li bo'lib, otasining o'limidan keyin boshqa shahzodalar qatori otasining taxtiga da'vogarlik qiladi. Ammo taxt uchun kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyin, o'ziga sadoqatli kishilar bilan hoqonlik markazidan qochib, Buxoro vohasiga kelib qolgan edi.

Buxoro ahli Abruyga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" kitobida ushbu hodisa to'g'risida quyidagilarni yozadi: "So'ngra Buxoroda qolgan kishilar o'zlarining (qochib ketgan) sarkardalariga odam yuborib, Abruyning jabr-zulmidan qutqarishni so'radilar. SHunda sarkardalar va dehqonlar turklar podshohining oldiga bordilar, u podshohning nomi Qarojurin turk bo'lib, ulug'ligi sababli unga Biyog'u deb laqab bergan edilar va Biyog'udan arz-dodlarini eshitishni iltimos qildilar. Biyog'u Sheri Kishvar nomli o'z o'g'lini ko'p lashkar bilan yubordi. Sheri Kishvar Buxoroga kelgach, Baykandda Abruyni tutib band qildi. Uning farmoni bilan bir katta qopni qovoq ariga to'lg'izib, Abruyni shu qopga soldilar va u qop ichida o'ldi. Sheri Kishvarga bu viloyat yoqib qolib, otasiga xat yubordi va undan bu viloyatni talab qilib, Buxoroda turishi uchun ruxsat berishini iltimos qildi. Biyog'udan: «u viloyatni senga bag'ishladim», degan javob kelgach, Sheri Kishvar Hamuketga odam yuborib, Buxorodan qochib ketgan kishilarni xotin va bola-chaqalari bilan Buxoroga oldirib keldi va o'sha vaqtdayoq yana: «Ham u ketidan kelgan har bir kishi (amirning) yaqin kishilaridin bo'ladi» degan buyruq bo'ldi. Buning sababi, kimki boy va katta dehqon bo'lgan bo'lsa, Buxorodan qochib ketgan, kambag'al va bechoralar esa Buxoroda qolgan edilar. Qochib ketgan kishilar qaytib kelgach, chorasiz (Buxoroda) qolgan (kambag'al)lar ularga xizmatkor bo'ldilar. Buxoroga qaytib kelgan guruh orasida bir katta dehqon bor edi, u qadimiy dehqonzoda va ko'proq daromadli erlar uniki bo'lganligidan uni «Buxorxudot» der edilar va (Buxoroda qolganlarning) ko'plari uning kadivarlari va xizmatkorlari edilar. Sheri Kishvar Buxoro shahristonini qurdi hamda Mamostin, Saqmatin, Samtin va Farab qishloqlarini bino qildi. U yigirma yil podshoh bo'lib turdi. Undan keyin bo'lgan boshqa podshoh Iskajkat, Sharg' va



Romtin qishloqlarini bino qildi, so'ngra Faraxshiy qishlog'iga asos soldi"<sup>1</sup>.

Arablar Buxoroda boshqargan hukmdorlarni o'z tillariga moslab "Buxorxudotlar", «Buxor-xudo» (Buxoro hokimi) deb ataganlar. Buxorxudotlarning hududi Buxoro viloyatining Buxoro, Vobkent, Kogon, Romitan, Jondor va Qorako'l tumanlari erlaridan iborat bo'lgan. Arablar Buxoroni fath etgandan keyingi dastlabki yillarda hokimiyatni buxorxudotlar bilan birgalikda boshqarganlar. 715-yili Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim o'ldirilgach, buxorxudotlar Buxoroni bir yil davomida mustaqil idora qilganlar.

782-yil so'nggi buxorxudot Bunyod Muqanna qo'zg'olonini qo'llab-quvvatlagani uchun arablar tomonidan qatl etiladi. Buxorxudot Kono birinchi bo'lib o'zining tasviri va uning ostiga «Buxoro hokimi» degan yozuv zarb qilingan kumush tangalar (dirhamlar) chiqargan. Bunday tangalar arxeologik qazishmalar vaqtida ko'plab topilgan. Tarixchi G'.G'oibovning «Arablarining O'rta Osiyoga qilgan ilk yurishlari» nomli kitobida buxorxudotlar vakillari quyidagi tartibda berilgan: Bidun (?-673), Xo'tak xotun (673-692), Tug'shoda I (692-724), Tug'shoda II (724-738), Qutayba ibn Tug'shoda (738-753), noma'lum buxorxudot (Tug'shoda III) (753-768), Sukon (768-775), Bunyod (775-782).

Arablar tomonidan Buxoroni egallanishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Xalifa Muoviya tomonidan yuborilgan Ubaydulla ibn Ziyod 674-yil Poykandni qamal qildi va shaharni egalladi. Ubaydulla ibn Ziyod Buxoro va Poykandda qurol-yarog', kiyim-kechak, oltin, kumush va juda ko'p asirlardan iborat katta o'ljaga ega bo'ladi. Bu arablar tomonidan hududni egallashga qaratilgan birinchi harbiy harakatlar edi.

Navbatdagi hujum 676-yil Said ibn Usmon tomonidan amalga oshirilib, bunda Said ibn Usmon bilan Xotun o'rtasida shiddatli janglar bo'lib o'tadi. Sug'd, Kesh va Nasaf hokimlari qo'shinlarining Xotunga ko'makka kelishiga qaramay, jang arablar g'alabasi bilan yakunlandi. Natijada Xotun katta boj to'laydi va 70 kishini garovga berib, sulh tuzishga majbur bo'ladi. Tarixchi Bilozuriyning so'ziga

---

<sup>1</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарк машъалига илова, 1993. –Б.16-17.

qaraganda, Buxorodan garovga olib ketilgan kishilar qullarga aylantirilgan va sun'iy sug'orish ishlarida ishlatilgan<sup>1</sup>.

Qutayba ibn Muslim Xuroson amiri qilib tayinlangach, Xurosonni o'ziga bo'ysundirdi va Toharistonni fath etdi. Qutayba tomonidan Poykentning ishg'ol qilinishini Narshaxiy shunday tasvirlaydi: "U sakson sakkizinchi yili (12 dekabr 706-30 noyabr 707) Jayhun daryosidan o'tdi. Baykand aholisi bundan xabardor bo'lib, Baykandni juda mustahkam hisor bilan o'radilar. Qadimgi vaqtlarda Baykandni shohriston deganlar va mustahkamligidan, uni «jez shahar», deb ham ataganlar. Qutayba juda qattiq janglar qildi; musulmonlar ellik kungacha (hisorni olish uchun) chora topolmay zahmat chekdilar va (oxiri) hiyla ishlatdilar. Bir guruh (askarlar) devor tagidan minora va hisorning ichkarisi tomon lahm qazib, otxonadan chiqdilar, (so'ng) devorni kovlab rahna ochdilar; musulmonlar hanuz ham hisorga kela olmayotgan edilar, (endi) rahna orqali ichkari kirdilar"<sup>2</sup>.

Qutayba 707-yil yana Buxoroga yurish boshlaydi va kadimiy shahar Romtin (Romitan) ni egallaydi. Biroq bu erda yordamga kelgan turkiylarning qattiq qarshiligiga duch kelib, Romitandan nariga o'ta olmadi. Xalifa al-Xarroj Qutaybaga 708 yil maktub yo'llab, Buxoroga qaytishni va uni ishg'ol qilishni amr qiladi. Biroq Qutayba bu ishning uddasidan chiqa olmadi. Uning Tanzor ismli arab bo'lmagan ayg'oqchisi bo'lib, buxoroliklar uni sotib oladi. Tanzor Qutaybadan bu erni tark etib, tashlab ketishini suraydi, ammo u fosh etilib o'ldiriladi. Narshaxiyning yozishicha, Qutayba Xunbunga qarab jo'naydi va ko'p janglar kilib Xunbunni, Tarobni xamda ko'pgina mayda qishloqlarni oladi va Vardonaga ketadi. U erda Vardonxudot nomli bir podshoh bor edi, u bilan ko'p urushdi. Buxoro qishloqlaridan Tarob, Xunbun va Romtin oralig'ida ko'p lashkar to'planib Qutaybani o'rab oladilar. So'g'd podshohi Tarxun ko'p lashkar bilan Xunuk xudot ko'p askari bilan, Vardonxudot o'z askari bilan keldilar. Xitoy podshohining jiyani Kurmagonunni ham yollagan edilar, u 40 ming askari bilan yordamga keldi. Kutaybaning ishi og'irlashdi.

---

<sup>1</sup> Баракаев Ж., Хайдаров Й. Бухоро тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1991. –Б.18.

<sup>2</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарк машъалига илова, 1993. –Б.44-46.

Vardonxudot Zarafshon vodiysidagi hukmdorlar ichida eng kuchlisi bo'lgan. Bir vazir Turkistondan kelgan edi va Vardonxudot nomli bu vazirga butun Vardona erlari tegishli edi, deb yozadi Narshaxiy. Boshka muarrix, ya'ni Tabariyning hikoya qilishicha, 708-709-yillardagi jangda arab qo'shinlari Vardonxudotdan engilgach, Qutayba hiyla ishlatib Vardonxudotga yordamga kelgan So'g'd hokimi Tarxun bilan sulh tuzib, birlashgan kuchlarni zaif qilib qo'yish yo'li bilan g'alaba qozongan. Narshaxiy buni quyidagicha bayon etgan. Qutaybaning yaqinlaridan biri bo'lgan Xayyoni Nabotiy Sug'd hokimi Tarxunning oldiga kelib, havo sovib bormoqda, bizlar issiq vaqtida bu erda bo'lamiz, sovuq tushishi bilan jo'nab ketamiz. Turklar esa sening erlaringni biz ketishimiz bilan egallab oladi, sen yaxshisi Qutayba bilan sulh tuzgin. Turklarga esa Xuroson noibi Xajjojdin Kesh va Naxshab yo'li bilan arablarga ko'p lashkar yordam kelayapti, deb tushuntirasan deydi. So'g'd hokimi Tarxun ham bu gapga ishonib, darhol borib Qutayba bilan sulh tuzib, ikki ming dirham yuborgan<sup>1</sup>.

Ubaydulloh ibn Ziyod va Sa'id ibn Usmon tomonidan Buxoroni egallashga qaratilgan har bir harbiy harakat aholining keskin qarshiligiga uchradi. Poykent aholisining mag'lub bo'lishiga Xitoy va boshqa mamlakatlarda savdo qilib yuruvchi mahalliy savdogarlarning shaharda bo'lmagani va mudofaa kuchlarining ozligi sabab bo'lgan ekan. Ular qaytib kelishgach, o'z xotin-qizlarini tovon to'lash evaziga arablardan qaytarib olishgan. Qutayba ibn Muslim Poykentni egallagandan so'ng aholi bilan sulh imzolab, shaharni boshqarishni Varqo ibn Nasr Bohiliyga topshiradi.

Qutayba ibn Muslim Buxoroga to'rt marotaba qo'shin tortib kelgan. Shaharni egallagandan so'ng amalga oshirgan asosiy tadbiri aholi o'rtasida islom dini tarqatish va islomiy ruknlarga rioya etishni joriy qilish edi. Shunga qaramasdan, aholi islom dinini yuzaki qabul qilgan. Yangi dinini qabul qilgan ba'zi bir ikkilanuvchi odamlar eski ma'budalariga hamon ibodat aylab, yashirin joylarda va erto'lalarda ularga sajda qilardilar. Shundan so'ng, Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga yashab ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo'ladilar, degan maqsadda

---

<sup>1</sup>Мирзакулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. –К.1. Тошкент: LESSON PRESS, 2016. – Б.35.

Buxoro aholisiga o‘z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqargan.

Narshaxiy o‘z kitobida Qutayba ibn Muslim Buxoroni olgach, shahar aholisiga o‘z uylari va erlarining yarmini arablarga berishni buyurganligini qayd etadi. Shuningdek, Buxoroda yashagan kashkashon qavmi xususida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Buxoroda bir qavm bor ediki, uni kashkashon der erdilar; ular hurmatli, qadr-qiymatli va e’tiborli odamlar bo‘lib, Buxoro aholisi o‘rtasida zo‘r obro‘ga ega edilar; ular dehqonlardan bo‘lmay, chetdan kelgan kishilar bo‘lib, aslzoda, savdogar va boy odamlar edilar. Qutayba uylar va asbob-anjomlarni taqsim qilib berishga qistay bergach, ular o‘z uy-joylari va asbob-anjomlarini butunlay arablarga qoldirib, o‘zlari uchun shahar tashqarisida etti yuzta ko‘shk bino qildilar.

U vaqtlarda shaharning kattaligi (hozirgi) shahristonday kelar edi. (Kashkashonlardan) har biri o‘z ko‘shkining atrofiga xizmatkorlar va o‘ziga qarashli odamlar uchun uylar qurdi va har bir kishi o‘z ko‘shkining oldiga bog‘ va tekis maydon barpo qildi va ular ana shu ko‘shklarga ko‘chib keldilar”<sup>1</sup>.

Herman Vamberi ham arablarning Buxoroda joylashishi hamda mahalliy aholi vakillarining islom dinini qabul qilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Jumladan, “.....oxir oqibatda islom mamlakati bo‘lgan Buxoro uchun ham boshqa hududlarda qo‘llanilgan siyosiy tadbirlar kabi og‘ir edi. Lekin islomni tarqatish yo‘lidagi ba’zi bir sirli usullarni mag‘rur buxoroliklar ham chuqur his etdilar. Arablarga ma’lum bo‘lishicha, islom dinini qabul etgan ba’zi bir ikkilanuvchi odamlar eski ma’budalariga hamon ibodat aylab, yashirin joylarda va erto‘lalarda sajda qilardilar.

Shu sababli har bir buxorolik o‘z hovlisining yarmini arablarga berishi amr qilindi. U arab uy egalariga islom shariatidan ta’lim berdi hamda ularning islom odobiga rioya qilishlarini kuzatib turdi. Agarda isyon etsalar, arab ma’murlariga chaqar edi. Yangi dinga kiruvchilar uchun mukofot qilib pul beriladigan bo‘ldi. Juma kuni Qutayba jome’siga namozga kelgan kishilar ikki dirham mukofot olardilar. Registonda bino qilingan bu masjidida ham qiyom, ruku’, sajdalar arkoni ibodatga, ya’ni imomga suyanib bajarilar edi. Ibodat duolari,

---

<sup>1</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарк машъалига илова, 1993. –Б.33-34.

Qur'on oyatlari arabcha, hatto forscha o'qilar edi. Eski din tarafdorlari o'zlariga taklif etilgan dinga bir muncha davr qarshi turdilar. O'sha zamonga oid qusurli ma'lumotlarga qaraganda, Buxoro musulmonlari o'n yillar mobaynida masjidga borganlarida yonlarida qurol olib yurishgan. Erli xalqlarga esa, islomni qabul etgan bo'lsalar-da, qurol taqishga ruxsat berilmagan. Ikki orada tez-tez kelishmovchilik bo'lib turgan"<sup>1</sup>.

#### **4.2. Arablarga qarshi qaratilgan xalq harakatlari**

Buxoro va uning atrofida 750 yilda abbosiylarga va Abu Muslimga qarshi qo'zg'olon boshlangan. Qo'zg'olonga asli arablardan bo'lgan Sharik ibn Shayx al-Maxriy boshchilik qilgan. Harakat abbosiylar va ummaviylar o'rtasidagi kurash natijasi ham edi.


Narshaxiy ma'lumotlariga qaraganda, Sharikning tarafdorlari ichida hatto Buxoro amiri Abduljabbor ibn Shayb va Xorazm amiri Abdulmalik ibn Xuzayl kabi nufuzli kishilar ham bor edi, lekin bu ikki amir qo'zg'olonga rahbarlik rolini o'ynamagan.

Oradan ko'p o'tmay, 770-780-yillarda Movarounnahrda "oq kiyimliklar" ko'zg'oloni deb nom olgan Muqanna boshchiligidagi harakat keng yoyiladi. Harakatga Muqanna (Niqobdor) laqabi bilan mashhur bo'lgan marvlik hunarmand Hoshim ibn Hakim rahbarlik qiladi. U Mazdak g'oyalariga (ijtimoiy tenglikni, xususan er-zamin, boylik-zar, hokimiyat-zo'r, ayollar-zanni teng ravishda taksimlash) asoslangan ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da'vat etuvchi ta'limotni targ'ib etib, paygambarlikni da'vo qilgani va Xuroson noibining xalifaga qarshi isyonida qatnashgani uchun xalifa Mansur tomonidan zindonga tashlangan edi. Zindondan qochib, 769-yil yana Marvga qaytib keladi va atrofiga tarafdorlarini to'plab, arablar zulmiga va xukmronligiga karshi ko'zg'alishga da'vat qiladi va Movarounnahrning barcha viloyatlariga tashviqotchilarini yuboradi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup>Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. –Тошкент: Ғафур-Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. –Б.15.

<sup>2</sup> Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. 1 китоб. –Тошкент: LESSON PRESS, 2016. -Б.35.



### **“Oq kiyimlilar” harakati**

Ushbu harakat tarixda “oq-kiyimlilar” qo‘zg‘oloni nomini bilan mashhur. Samarkand, Kesh, Buxoro va Narshax shaharlari qo‘zg‘olonchilar markaziga aylanadi.

Narshax qo‘rg‘oni (hozirgi Vobkent tumani markazi yaqinida) qo‘zg‘olon markazlaridan biri bo‘ldi. Umuman, Buxoro shahri atrofi harakatning eng yirik markazlaridan biri edi. Bu erda harakatni islom dinidan qaytgan buxorxudot Buniyot ibn Tug‘shodaning o‘zi qo‘llab-quvvatlardi. U arablar hokimiyatini juda yomon ko‘rgan va Buxoro erini hamda uning mustaqilligini qayta tiklash uchun qo‘zg‘olonda ishtirok etadi.

Muqannaning Buxoro shahri atrofida juda tez muvaffaqiyat qozonishi buxoroliklarni juda tashvishga soladi. Shaharning musulmon doiralari Muqannaga qarshi darhol qat‘iy kurash olib borish bilangina o‘zimizni qutqara olamiz, deb o‘ylaganlar, chunki Buxoroning o‘zidayoq Muqannani qo‘llashga tayyor turgan guruhlar ham bor edi. Bular ichida Muqannaning qizg‘in tarafdori bo‘lgan Hakim ibn Ahmad degan kishini ko‘rsatib o‘tish lozim. Narshaxiy

uning uch yordamchisining ismini keltiradi. Ulardan ikkitasi - Xashariy yoki Hishriy va Bohiy, aftidan, Buxoro atrofida joylashgan Fuzaiy keshkidan chiqqan bo'lib, Hakim ibn Ahmadda sarxang (ya'ni kichikroq qo'shin lashkarboshisi) bo'lib xizmat qilishgan. Uchinchi sarxangning nomi Girdak edi. U g'ijduvonlik bo'lgan. Ismlariga qaraganda, ularning uchchovi ham so'g'dli bo'lganlar. Chamasi ular arab ismlaridan namoyishkorona voz kechib, o'zlarini so'g'd ismlari bilan ataganlar. Narshaxiy ularning, shubhasiz qobiliyatli bo'lganliklarini inkor qilmaydi, lekin o'zi Muqanna harakatining dushmani bo'lgani uchun ularni ayyorlar, deb ataydi.

Ular Narshax qo'rg'onini mustahkamlab, Buxoroga hujum qiladilar. Bu vaqtda Buxoro amiri bo'lgan Husayn ibn Maoz halifa Maxdiy tomonidan maxsus yuborilgan Jabroil ibn Yahyoni yordamga chaqirdi. Buxoro amiri buyrug'i bilan musulmonlar 776-yil aprelida katta qo'shin bilan Narshax devorlari tagiga keldilar. Buxoro qozisi Amir ibn Imronning taklifi bilan Muqanna tarafdorlarini xato yo'ldan voz kechib, islom diniga qaytishga undash uchun harakat qilib ko'rildi. Biroq oq kiyimlilar qattiq turdilar va sharmandalarcha taslim bo'lish to'g'risidagi taklifni eshitgilari ham kelmadi. Yana to'qnashuvlar boshlandi, to'rt oycha davom etgan qattiq to'qnashuvlardan so'ng Muqanna tarafdorlari engildilar va bu jangda ular faqat o'lganlar hisobidan 700 kishi yo'qotdilar.

Ular sulh tuzishga majbur bo'ldilar. Tuzilgan shartnomaga muvofiq, qo'zg'olonchilar o'z qishloqlariga tarqab ketishlari, qonuniy amirlarga bo'ysunishlari, yo'llarda musulmonlarni talamasliklari, musulmonlarning uylariga hujum qilmasliklari va qaytadan musulmon bo'lishlari kerak edi. G'oliblar esa qo'zg'olonchilardan o'ch olmaslikka va'da berdilar. Shartnomaga Buxoro oqsuyaklari imzo chekdilar. Biroq, musulmon askarlari Buxoroga qaytib kelishga ulgurmaslaridanoq Muqanna tarafdorlari yana qo'zg'olon ko'tardilar. Buxoro atrofi yana qo'zg'olonchilar qo'liga o'tdi.

Xalifa Mahdiy kurashning borishidan tashvishga tushib, Muqannaga qarshi Buxoro va uning atroflarida muvaffaqiyatli kurash olib borish uchun Jabroil ibn Yaxyoga qo'shimcha kuchlar yubordi. Narshaxiyning yozishicha, Jabroil ibn Yaxyo qo'shin bilan Buxoroning shimoliy tomoniga kelgan va shaharning Samarqand darvozasi yonida istehkom qurgan.

Keyingi ikki yil ichida ham Buxoro hukmronlari Muqanna tarafdorlariga qarshi kurash olib borganlar. Arablar Muqannaga Buxoroda zarba berishning bosh yo'li sifatida ularning asosiy tayanch markazi Narshax qal'asini qo'lga olishga harakat qiladilar.

Chunki bu qal'a qo'lga olinmas ekan, arablar Buxoro shahri va uning atroflarini erkin boshqara olmas edilar. Bu o'lkada o'zlarining xo'jalik siyosatini yurgizishlariga hamisha to'siq bor edi. Negaki, Muqanna tarafdorlari ham dastlabki muvaffaqiyatsizliklardan so'ng bekor o'tirmadilar. Garchi hali yoz endi boshlangan va g'alla hali pishmagan bo'lishiga qaramay, qo'zg'olonchilar g'allani ko'kligicha o'rib, Narshax qal'asiga tashib keltira boshlaydilar. Chunki bo'lajak qattiq kurashga tayyorlana boshlagan edilar.

Vaziyatning murakkablashib borayotganligini ko'rgan Buxoro amiri Narshax qal'asiga qat'iy hujum qilishni buyuradi. Jabroil ibn Yaxyo qishloqni o'rab turgan devorlar atrofida 50 gaz chamasi nariroqdan zovur qazishni buyuradi va bu zovurda o'z askarlarini joylashtiradi. Jabroil ibn Yaxyo qishloqni bir necha muddat qamal qiladi, lekin qamal muvaffaqiyatsiz chiqqach, qal'aning tagini kovlamasdan uni olib bo'lmasligiga ishonadi.

Arablar o'z qarorgohlaridan Narshax devoriga qarab chuqur zovur qaziydilar. Qazish ishlari tun qorong'uligida olib boriladi. Zovurning qazib bo'lingan joylariga ustunlar o'rnatilib, ustini qamish va tuproq bilan yopadilar.

Yashirincha qazilgan bu zovur ham 50 gazga etgandan so'ng Jabroil ibn Yaxyo darvoza yaqinidagi asosiy minoralardan birining tagiga ko'p o'tin qalashga va ustiga neft sohib o't qo'yishni buyuradi. Biroq o'tin yonmaydi, chunki bu joyning usti yopiq bo'lganligi uchun havo kirmas edi. Shundan keyin tagiga zovur qazilgan minora qarshisiga manjaniqlar, ya'ni katta toshotar mashinalar keltirishga buyruq beriladi. Bu mashinalar ishga tushirilgandan so'ng minoraning kattagina joyi yoriladi. Zovur o'pirilib havo kira boshlaydi va qalab qo'yilgan o'tin yonib ketib o't butun minoraga tarqaladi. Natijada Narshaxni o'rab turgan devorning bir qismi qulab tushadi. Shundan so'nggina Jabroil ibn Yaxyoning askarlari qal'aga kiradilar.

Arablar Narshax mudofaasining iste'dodli boshlig'i bo'lgan Hakim ibn Ahmadni qo'lga tushiradilar va Jabroil ibn Yaxyo o'z o'g'li Abbosga uni yashirin ravishda o'ldirishni buyuradi. U shu tariqa



o'ldiriladi. Jang qilganlar ichida Hakim ibn Ahmadning yordamchilaridan biri - Bohiy ham halok bo'ladi. Faqat Girdak qutulib qoladi. U o'zini ta'qib qilib kelayotgan kishilardan yashirib, Muqanna askarlari safiga qo'shilish uchun Muqanna oldiga ketadi.

Xalifa qo'shinlari Buxoroda g'alaba qilganlaridan keyin Sug'dga yurish qiladilar. Nihoyat, arablar 783-yil Muqanna joylashgan qal'ani egallaydilar. 806-810-yillarda butun Movarounnahr amir Rafe' ibn Lays qo'lga o'tdi. Uni Xuroson noibining og'ir soliq zulmidan va poraxo'rlikidan g'azablangan so'g'diylar faol ko'llab-quvvatlashdi. 809-yilda xalifa Horun ar-Rashid unga qarshi katta qo'shin yubordi va Buxoro qamal qilindi. Mudofaaga Rafe' ibn Laysning ukasi Bashir boshchilik qildi. Nihoyat shahar zabt etildi, Bashir asir olinib, xalifaning buyrug'iga ko'ra qatl qilindi.

Abbosiyalar halifalikning sharqiy erlariga, sharqiy viloyatdan chiqqan axoliga Ummaviylarga nisbatan ko'proq tayanishgan. Ammo vaqt o'tishi bilan, avvalo, muttasil bo'lib turgan qo'zg'olonlar ta'sirida ular hokimiyatga mahalliy, arab bo'lmagan zodagonlar vakillarini ham jalb etish zarurligini tushunib etdilar. Bunday zodagonlar vakillari jumlasiga Hirot viloyatidagi Pushanga (Bushmanja) shahridan chiqqan Tohir ibn Husayn ham mansub edi. 811- 812-yillarda Tohir nbn Husayn Axvazning isyonkor noibiga qarshi yurish qildi. Uch bosh ko'mondonning ikki nafari: Tohir va buxorxudot Abbos asli Buxorodan chiqqan. Boshqa buxorxudot Muhammad ibn Ahmad Babak qo'zg'olonini (816-837) bostirgan lashkarning yirik harbiy boshliqlaridan biri edi<sup>1</sup>.

Tohiriylar sulolasining asoschisi Tohir ibn Husayn 874-yili Xorazmdan chiqib, Buxoro voxasi tomon yo'l oldi va besh kunlik qamaldan keyin Buxoroni ko'lga kiritdi. Uning qo'shinlari tomonidan qilingan beboshlik sababli, shaharning kattagina qismi yonib ketdi, buxoroliklar qo'zg'olon ko'tarib, Husayini qochishga majbur qildilar. Undan keyin Buxoroni keyinchalik mashhur bo'lgan Somoniy amir Ismonl ibn Ahmad boshqara boshladi.

Arablar fathi Markaziy Osiyo, jumladan, Buxoro tarixida muhim burilish davri bo'ldi. Islom dini mintaqaga hayotiga kirib keldi va bu erda mustahkam ildiz otdi. Buxoroda musulmon davrini islomgacha bo'lgan davr bilan bog'lovchi zanjir tanga zarb qilishdir.

---

<sup>1</sup>Бухоро Шарқ дурдонаси / Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.36-37.

Arablar kelishi bilan buxorxudot tangalari namunasida kumush tanga ishlab chiqarish davom etdi. Lekin ikkala davr tangalari o'rtasidagi farq shunda ediki, endi bu tangalar draxma emas, balki dirham deb atalgan va ularda pahlaviy va so'g'd yozuvlari barobarida, odatda qisqa (bir-ikki so'z) arab yozuvlari bitilgan. IX-X asr ko'lyozma manbalarida shunday tangalarning uch turi: musayyabiy dirhamlari, muhammadiy va g'itrifiy turlari tavsiflangan.

**Tayanch so'z va iboralar:** tarixiy manbalar, oq kiyimlilar, hunarmandchilik, savdo-sotik, qurilish ishlari, buxorxudotlar, qamal, hokimlar, fath, musulmonlar, sulola, fath, lashkar.

### *Nazorat uchun savollar*

1. Buxoroning Eftaliylar va Turk xoqonligidagi siyosiy mavqei xususida ma'lumot bering.
2. Buxorxudodlar hukmdorlari to'g'risida ma'lumot bering.
3. Poykentning arablar tomonidan egallanishi haqida ma'lumot bering.
4. Arablarga qarshi qaratilgan xalq harakatlari.
5. Islom dinining Buxoro vohasida tarqatilishi.

### *Test topshiriqlari*

1. Qutayba ibn Muslim tomonidan Poykent egallangandan so'ng, shaharni boshqarish uchun kim tayinlagan?
  - a. Muhammad ibn Ahmad
  - b. Jabroil ibn Yahyo
  - s. Varqo ibn Nasr Bohiliy
  - d. Sheri Kishvar
2. Buxorxudot Tug'shoda I ning hukmronlik yillarini aniqlang.
  - a 738-753 yillar
  - b 724-738 yillar
  - s 768-775 yillar
  - d 692-724 yillar
3. Qaysi Xuroson noibi Buxoroda aholini islom diniga itoat qilishni joriy qilgan?
  - a. Hakim ibn Ahmad
  - b. Rafe' ibn Lays
  - s. Qutayba ibn Muslim

d. Tugʻshoda

4. Narshaxiyning maʼlumotlariga koʻra, kim Buxoro shahristonini, shuningdek, Mamostin, Saqmatin, Samtin va Farab qishloqlarini bino qilgan?

a. Varqo ibn Nasr Bohiliy

b. Muhammad ibn Ahmad

s. Sheri Kishvar

d. Jabroil ibn Yahyo

5.806-810-yillarda butun Movarounnaoʻr kimning qoʻliga oʻtgan?

a. Horun ar-Rashid

b. Rafeʼ ibn Lays

s. Girdak

d. Tohir ibn Husayn

## **5-MAVZU: SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA**

### **5.1.Somoniylar va Qoraxoniylar davri siyosiy hayotida**

#### **Buxoroning oʻrni**

#### **5.2.Ilm-fan, taʼlim va meʼmorlik**

### **5.1.Somoniylar va Qoraxoniylar davri siyosiy hayotida**

#### **Buxoroning oʻrni**

Xalifa Maʼmun davrida Somonxudotning nabiralari, yaʼni somoniylar xonadoni vakillari Movarounnahrning ayrim shahar va viloyatlariga noib qilib tayinlanadi. Samarqandga Nuh, Fargʻonaga Ahmad, Shoshga Yahyo, Hirotga Ilyos tayinlanib, ular xalifaga noiblik maqomida bu viloyatlarni idora etishgan. Bulardan ayrimlari, xususan Nuh, keyinchalik Ahmad Movarounnahrni mustaqil boshqarishga harakat qilishadi va hatto mis chaqalar zarb etishadi. Ahmad vafotidan keyin 865-yil uning oʻgʻli Nasr Samarqand taxtiga oʻtiradi va uni markazga aylantiradi. Nasrning maqsadi Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va Xurosondan ajratib olish edi. Tohiriylar davlati barham topgandan soʻng, Movarounnahrni mustaqil idora qilish imkoniyati yanada kengaydi. Oʻz holiga tashlab qoʻyilgan Buxoro ahli uchun murakkab vaziyat yuzaga keladi. Chunki 873- yil Xurosonda tashkil topgan Safforiylar

davlati Tohiriylarga barham berib, Buxoroni o‘z ta‘siriga olishga harakat qilayotgan edi. Lekin amalda buning uddasidan chiqa olmaydi. Shunday vaziyatda Buxoro shahri zodagonlari mashhur faqih Abu Xafs Kabirning farzandi Abu Abdulloh boshchiligida o‘zaro maslahatlashib somoniylarga murojaat qiladilar va, Samarqandga Nasr ibn Ahmad huzuriga elchi yuboradilar. Maqsad Buxoroni Nasr ibn Ahmad ta‘sir doirasiga kiritish va shaharga somoniylarning bir vakilini hukmdor etib tayinlash edi. Nasr bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, ukasi Ismoilni 874 -yil Buxoroga noib qilib yuboradi. Shu sanadan boshlab somoniylarning Buxoroga, keyinchalik butun Movarounnahr va Xurosonga hukmronligi boshlanadi. Ayni shu vaqtdan boshlab Nasr ibn Ahmad o‘zini butun Movarounnahrning hukmdori deb hisoblay boshlaydi va somoniylar hukmronligi tarixida birinchi bo‘lib kumush tanga zarb etadi. Shu bir holatning o‘zi uning mustaqil hukmdor sifatidagi huquqini mustahkamlar edi. Chunki kumush tangalar davlat mustaqilligining ramzi hisoblanib, shu vaqtga qadar xalifalik tasarrufidagi viloyatlardan tohiriylargina bunday darhamni zarb etish huquqiga ega edilar. Nasr ibn Ahmad shunday huquq va vakolatni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘lishiga qaramay, ukasi, ya‘ni Buxoro noibi Ismoil unga itoat qilishni istamaydi. Noibligining dastlabki yillaridanoq Ismoil qator muammolarpga duch keladi va ularni uddaburonlik bilan hal qiladi. Jumladan, akasi Nasrning o‘ziga nisbatan ishonchsizligini engish, Buxoro atroflarida izg‘ib yurgan qaroqchilar to‘dasini tugatish, Buxoro zodagonlari bilan umumiy til topish kabi masalalar Ismoilning ziyraklik va aqlu farosat bilan ish tutishi oqibatida o‘z echimini topadi. Masalan, Barkad va Romitan orasidagi hududda talonchilik qilib yurgan to‘rt ming qaroqchiga zarba berib, bu erlarda osoyishtalik o‘rnatishga muvaffaq bo‘ladi.

Ismoil Buxoroni iloji boricha iqtisodiy mustaqil boshqarishga va Samarqanddagi Nasr xazinasiga yuborilishi zarur bo‘lgan yillik to‘lovlarni to‘xtatishga harakat qildi. Natijada aka-uka o‘rtasida adovat paydo bo‘lib, u 888-yildagi jangga olib keladi. Jangda Ismoilning qo‘li baland kelib, Nasr mag‘lubiyatga uchraydi. Nasr asirga olinib sulolaning nomigagina oliy hukmdori sifatida Samarqandga yuboriladi. Nasr vafotidan oldin ukasi Ismoilni o‘zining

vorisi etib tayinlaydi va 892-yil, ya'ni Nasr vafotidan so'ng Ismoil butun Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi<sup>1</sup>.

Ismoil Somoniyni nomi qobiliyatli, zukko, serg'ayrat davlat arbobi sifatida tarixda qoldi. U Movarounnahrni birlashtirgach, markazlashgan va har jihatdan qudratli davlat tuzishga intiladi. Shu maqsadda dastlab 893-yil shimoldagi Taroz shahrini zabt etib, dashtliklarga zarba beradi. Natijada dashtliklarning Movarounnahr viloyatlariga uyushtirib turgan uzluksiz yurishlari birham topadi. Shungacha Buxoro aholisi vohani o'rab turgan 300 kilometrli "Kampirak" devorini muntazam ravishda hashar yo'li bilan ta'mirlash ishlariga jalb qilinardi. Endilikda bunga ehtiyoj qolmadi, chunki Ismoil Somoniy vohani mudofaa qilishni Narshaxiy ta'biri bilan aytganda "Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman", degan ibora bilan o'z zimmasiga oladi.

Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishib, bu diyorda Somoniylar davlatining tobora kuchayib borishi shubhasiz sharqiy viloyatlardan muttasil undirilib olinadigan katta boyliklardan mahrum bo'lgan Arab xalifaligini, bir tomondan, nihoyatda ranjitsa, ikkinchi tomondan, cho'chitar ham edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni to'qnashtirishga va bu yosh ikki davlatning har ikkisini zaiflashtirib, boy viloyatlarda ma'lum darajada o'z ta'sirini qayta tiklashga harakat qiladi. 900-yilda ular o'rtasida boshlanib ketgan urush Ismoilning g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilning bunday ulkan davlatini tan olishga, unga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo'ladi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtiradi, Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham beradi va uni o'z davlatiga qo'shib oladi. Natijada poytaxti Buxoro shahri bo'lgan zamonasining eng yirik mustaqil o'rta asrlar davlati tashkil topadi. Bu davlatni somoniylar xonadonidan bo'lgan hukmdorlar - amirlar X asr oxirlarigacha idora qiladilar.

Movarounnahr mustaqilligining barqarorligi, avvalambor, markazlashgan mustahkam hokimiyatning qaror topishiga bog'liq edi.

---

<sup>1</sup> Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. –Б.99-100.

Buni yaxshigina anglagan somoniylar o'z tasarrufidagi ulkan mamlakatni boshqarishda dastavval ixcham davlat ma'muriyatini tashkil etadilar. U podsho dargohi va devonlar-markaziy hokimiyatdan iborat edi. Dargohda amir harami va qarorgohi hamda saroy a'yonlariyu navkar va xizmatkorlarining turar joylari bo'lar edi. Narshaxiyning ma'lumoti bo'yicha, Somoniylar davlati asosan devoni vazir, mustavfiy, amidal-mulk, sohibi shurat, sohibi muayyid, mushrif, mumallikayi xos, muhtasib, avqof va qazo nomlari bilan yuritiladigan 10 ta devonlar boshqaruvida idora etilardi. Ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanar va davlatning ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazoragi ostida tutib turilardi. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi. Mustavfiy devoni xazina (moliya) kirim-chiqimlar; amidal-mulk - davlat hujjatlari va elchilik aloqalari; sohibi shurat - soqchiboshi, ya'ni harbiy, xususan, amirning muntazam turkiy saroy navkarlari, uning ta'minoti; sohibi muayyid - maktubot va axborot, ya'ni pochta; mushrif - saroy ishboshqaruvchisi; mumallikayi xos - davlat mulklari; muhtasib - bozorlardagi toshu tarozular, narx-navo hamda fuqarolarning mafkurasi; qazo - adliya; avqof - masjid va madrasalarning vaqf xo'jaliklari bilan shug'ullanar edi.

Nasr ibn Ahmad (914-943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi mana shu maxsus binoda joylashgan edi <sup>1</sup>. Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniy va zodagon dehqonlardan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga ular muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Odatda, ular arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Kur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan bir muncha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan. Shubhasiz, bu o'rta asrlarning o'ziga xos amaldorlik madaniyati edi. Qadimiy an'analarga asoslangan bu madaniyat somoniylar davrida ancha-muncha boyitilgan edi.


Markaziy mahkama viloyatlardagi mahalliy boshqarmalar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Viloyatlarda, maktubot va axborot (pochta) devonidan tashqari, barcha devonlarning vakillari bo'lgan. Viloyat devonlari, bir tomondan, mahalliy hakimga, ikkinchi tomondan esa

---

<sup>1</sup>Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. –Б.101.

markaziy mahkamaning tegishli devonlariga bo‘ysunar edilar. Viloyat hokimlari ba‘zan vazir deb yuritilardi. Ular sulolaviy xonadonga tegishli amirzodalar yoki sobiq mahalliy hukmdorlar hamda zodagon dehqonlardan tayin etilardi. Bulardan tashqari, har bir shaharda rais-shahar boshlig‘i hamda muxtasib - nazoratchisi bo‘lardi. Ularni hokimning bevosita o‘zi mahalliy aslzodalar yoki ko‘pincha oliy tabaqa ruhoniylarning nufuzli vakillaridan tayinlar edi. Mansabdorlarning xizmat haqi uchun davlatning yillik daromad-buromadi (byudjeti)ning deyarli yarmi sarf etilardi.

### Somoniylar davridagi davlat devonlari



Movarounnahr mustaqillikka erishib, Somoniylar davlatining qaror topishi va uning ravnaqida islom dini ruhoniylarining hissasi

katta bo'ldi. Shu boisdan ularning obro'si oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, shu jumladan, jome' masjidi, xonaqo (g'aribxona) va namozgoh (iydi ramazon va iydi qurbon ibodatlari o'qiladigan sajdagohlar bino qilindi. Xuddi shu davrda musulmon Sharqidagi ilk madrasalardan biri Buxoro shahrida qad ko'tardi. Buxoroning qadimiy madrasasi shaharning Darvozai Mansur mahallasida xon hammomining yonida joylashgan edi.

Mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda «ustod» deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom tark etilib, din peshvolari va islom ulamolarining rahnamosi «shayxulislom» nomi bilan yanada ulug'lanadi. Ustodan keyin «xatib»lar turardi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat beradilar. Masjid, madrasa, xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-xarajati uchun katta-katta mulklar ajratilib beriladi. Natijada diniy muassasalar tasarrufidagi erlar kengayib, yangi turdagi diniy-vaqf xo'jaligi tarkib topadi. Masalan, Narshaxiyning yozishicha, Afshona qishlog'ining ekin erlari atrofidagi yaylovli biyobonlar Ismoil Somoniy tomonidan Buxoro madrasasining talabalariga vaqf qilib beriladi. Shuningdek, amir Registon maydoniga tutashgan va Dashtak deb shuhrat topgan keng qamishzor erlarni Hasan ibn Muxammad Tolut ismli mulkdor arab lashkarboshidan 10 ming dirhamga sotib olib, Buxoro shahrining jome' masjidi vaqfiga qo'shib beradi. Masjid va madrasalar tasarrufida katta-katta er va mulklar to'planishi hamda vaqf xo'jaligining tarkib topishi shu tariqa yuzaga keldi. Bu jarayon aynan Buxorodan boshlandi.

Somoniylar tashqi va ichki dushman hurujlaridan mamlakatni muhofaza qilish masalasiga katta e'tibor beradilar. Xususan, Ismoil Somoniy yaxshi kurollangan harbiy qo'shinlar va maxsus muntazam saroy soqchi navkarlar sho'ratini tuzadi. Somoniylar davlatining janubiy hududlari, xususan Hirot va Nishopurda qarmatlik harakati keng yoyilib, harakatning mamlakat poytaxti Buxoroga ham tarqalish xavfi bor edi. Uning namoyandalari Husayn Marvazi va Ahmad Naxshabi qarmatlar mafkurasini somoniy hukmdorlariga va ularning saroy ahllariga singdirishga harakat qildilar va ma'lum ma'noda bunga erishdilar. Masalan, somoniylar yirik amaldori Abubakr Ash'as shunday chaqiriqlar ta'siri ostida qarmatilylikni qabul qiladi. Somoniy



hukmdorlari iloji boricha ushbu harakatning Movarounnahrda, jumladan, Buxoroga tarqalishining oldini olishga harakat qilishgan. Masalan Nuh ushbu jarayonning oldini olish maqsadida qarmatlik harakati namoyandalaridan biri Ahmad Naxshabiynig saroyga chaqirtirib, qarmatlikning afzalligi masalasida musulmon faqihlari bilan bahsga kirishishni taklif qiladi. Bo'lib o'tgan bahs-munozaralarda Ahmad Naxshabiy mag'lubiyatga uchraydi va Nuh farmoni bilan Buxorodagi maydonga osib o'ldiriladi. Xullas, qarmatlik harakatiga chek qo'yiladi.

Somoniylarning harbiy yurishlari, xukmron sulolaning ichki nizolari, maxalliy hokimlar boshboshdoqlik harakatlarining borgan sari avj olib borishi bilan uzluksiz davom etgan uzaro kurashlaridan aholi bezor bo'lgan edi. Bunday og'ir siyosiy vaziyat oqibatida mamlakatda iqtisodiy tanglik sodir bo'ladi. U shunchalik og'ir kechardiki, xatto harbiylar, shu jumladan, amirning turkiy muntazam soqchi navkarlariga ham maosh tulashtirish uchun uzoq, vaqt mablag' topilmaydi. Bunday og'ir ahvoldan chiqish uchun 942-yilda aholidan 2 marta soliq undirib olinadi. Bunday tartibsizlik, shubhasiz, mamlakatda vaziyatni yanada keskinlashtirib, aholi turli tabaqalarining hokimiyatga qarshi ko'zg'alishiga sabab bo'ladi. Siyosiy vaziyat, ayniqsa, Nuh ibn Nasr II (943-954) va uning nabirasi Nux II ibn Mansur (976-997) hukmronlik qilgan davrda nihoyatda keskin tus oladi. 947-yilda Nuh ibn Nasrning amakisi Ibrohim ibn Ahmad isyon ko'taradi. U saroy turkiy muntazam navkarlari va Chag'oniyni yirik zodagon dehqoni Abu Ali Chag'oni yordamida Buxoro taxtini egallab oladi. Lekin juda qisqa muddat hukmronlik qiladi. Ko'p vaqt o'tmay Abu Ali Chag'oni bosh ko'taradi. Nuh ibn Nasr qo'zg'olonni kuch bilan bostira olmaydi. 952-yilda Abu Ali Chag'oni avval Chag'oni yong'a, so'ngra Xurosonga hokim qilib tayinlashga majbur bo'ladi. 961-yilda Buxoro harbiy lashkarlarining g'alayoni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar amir saroyini talaydilar va unga o't qo'yib yuboradilar. Bunday voqealarning tez-tez qaytarilib turishi, shubhasiz, markaziy hokimiyatning zaiflashib qolganidan, Arab xalifaligidan uzil-kesil ajralib, mustaqilligini tiklab olgan Movarounnahrda tashkil topgan Somoniylar davlatining inqirozga yuz tutganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, IX-X asrlarda Movarounnaxr va Xurosonda Somoniylar davlati tashkil topdi. O'rta asrlar zamonining bu yirik

davlatini boshqarishda hukmdor xonadon Sharqning qadimiy davlat boshqaruvi an'analariga suyanib, muntazam soqchi armiya va kuchli xarbiy qo'shinlarga ega bo'lgan markazlashgan boshqaruv mahkamasini tashkil qildi. O'rta asrning bu yirik davlati o'zining boshqaruv tizimi jihatidan, shubhasiz, O'rta Osiyoda o'rta asrlar davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyoti tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

X asr o'rtalarida Issiqkulning janubi va Qoshg'arda yashagan yag'mo qabilalari kuchayib, avval o'zlaridan shimoli-sharqroqda yashovchi chigil qabilalari bilan yagona ittifoqda birlashadi. So'ngra Ettisuvga xuruj qilib, qarluqlarni bo'ysundiradi va ulkan hududda Qoraxoniylar davlatini tashkil qiladilar.

MOVAROUNNAHR (IX–XII asrlarda)



992-yilda Xasan Bug'raxon boshliq qoraxoniylar Movarounnahrda hujum boshlaydilar. Ularning harbiy yurishlarida Shosh, Farg'ona va boshqa viloyatlarda yashovchi turkiy qabilalar ham qatnashadilar. Natijada Qoraxoniylar bilan birikib ketadilar. Bu davrda somoniylar ma'muriyati va harbiy qo'shinlari boshqaruvini o'z qo'liga olgan turk hojiblari, hatto ayrim viloyatlarni egallab olib, deyarli mustaqil hukmronlik qilayotgan turk sardorlari mamlakatni

<sup>1</sup> Мухаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. –Б.105.

dushmandan mudofaa qilish o‘rniga xoinlik yo‘lini tutib, qoraxoniylarga yon bosadilar.

Qoraxoniylarning Buxoroga yurishi oldidan somoniylarning eng e‘tiborli turk lashkarboshilaridan Xuroson noibi Abu Ali Simjuriy amir Nux ibn Mansurdan yashirincha Bug‘raxon bilan Somoniylar davlatini bo‘lib olish haqida muzokara olib boradi. Ikkinchi Turk lashkarboshisi Ayach boshliq qo‘shin tor-mor qilinadi va uning o‘zi asirga olinadi. Raboti Malik yaqinidagi Harjan yonida yana bir turk hojibi Foyiq katta qo‘shin bilan Bug‘raxonga qarshi jang qiladi. Ammo Foyiq jang qizg‘in ketayotgan paytda atayin taslim bo‘ladi. Shu sababli Buxoro himoyasiz qoladi. Nuh ibn Mansur poytaxtni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi. Qoraxoniylar Buxoroni qarshiliksiz ishg‘ol qiladilar. Ko‘p vaqt o‘tmay Bug‘raxon Foyiqni Termiz va Balxga noib qilib tayinlaydi. Ammo Bug‘raxon Buxoroda uzoq tura olmaydi. Kasallik uni poytaxtni tark egib, o‘z vatani Qoshg‘arga qaytishga majbur etadi. Yo‘lda u vafot qiladi. Bunday qulay sharoitdan foydalangan Nuh ibn Mansur Buxoroga qaytib o‘z taxtni egallaydi. Ammo ikki maxalliy turk sarkardasi Foyiq Balxda, Abu Ali Simjuriy Xurosonda amirga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. O‘z kuchiga ishonmagan Nuh ibn Mansur G‘azna hukmdori Sobuqtakinni yordamga chaqiradi. Yigirma mingli qo‘shin bilan u Movarounnahrغا etib keladi va Nuh bilan birlashib qo‘zg‘olonchilarga qarshi yurish qiladi. Bir necha janglardan so‘ng Foyiq va Abu Ali qo‘shinlari tor-mor qilinadi. Sobuqtakinning bu yordami evaziga Nuh ibn Mansur unga «Nosir ud-din va ud-davla», ya‘ni «din va davlat homiysi», uning ug‘li Mahmudga esa «Sayf ud-din» yoki «din shamshiri» degan unvonlarni taqdim etadi. Shuningdek, Sobuqtakinni Abu Ali Simjuriy o‘rniga Xurosonning noibi qilib tayinlaydi. Natijada G‘azna va Xurosonda Sobuqtakin va Maxmudning siyosiy hukmronligi mustahkamlanib, G‘aznaviylar davlati tashkil topadi. Tez orada bu davlat kuchayib, Hindiston chegarasidan Amudaryogacha bo‘lgan erlarni egallaydi<sup>1</sup>.

996 yilda qoraxoniylar Movarounnahrغا yana hujum boshlaydilar. Ularga Nasr ibn Ali boshchilik qiladi. Nuhga yordam berish uchun Sobuqtakin, CHag‘oniyon, G‘uzg‘on va Xuttalon

---

<sup>1</sup>Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. –Б.121.

hokimlarining birlashgan qo‘shinlaridan iborat katta kuch bilan Keshga etib keladi. Nuhning ham o‘z qo‘shini bilan unga qo‘shilishini talab qiladi. Bu somoniylar amirining hukmdorlik huquqlarini mensimaslik va ochiqdan-ochiq unga qarshi chiqish edi. Nuh, shubhasiz, bundan bosh tortadi va farmoyish yuborib, Sobuktakinni Buxoroga chakirtiradi. Bunga javoban Sobuqtakin qo‘shin yuborib Buxoroni egallaydi. So‘ngra u Qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi. Natijada ular o‘rtasida shartnoma tuzilib, unga muvofiq Sirdaryo havzasi qoraxoniylar qo‘liga o‘tadi. Sobuqtakin esa Amudaryodan janubdagi erlar, shu jumladan, Xurosonga hukmdor bo‘lib oladi. Somoniylarga Movarounnahrning markaziy qismigina beriladi, xolos. Biroq ko‘p vaqt o‘tmay qoraxoniylar Buxoroni bosib oladi. Garchi somoniylar to 1005-yilgacha Samarqand va Buxoroni qaytarib olishga uringan bo‘lsalar-da, ammo 999-yilda Buxoroning Nasr Eloqxon tomonidan zabt etilishi bilan somoniylar hukmronligi barham topadi.

## **5.2. Ilm-fan, ta‘lim va me‘morchilik**

Buxoro ilm ahli, adiblari haqida qimmatli va boy ma‘lumotlar yozib qoldirgan Muxammad ibn Ja‘far Narshaxiy, Abu Mansur Abdumalik ibn Muxammad as-Saolibiy (961-1038), Najmiddin Abu Hafs Umar ibn Muxammad an-Nasafiy (1068-1142), Abu Sa‘d Abdukarim ibn Muxammad as-Sam‘oniy (1113-1167), Yoqut al-Hamaviy (1179-1229), Mu‘in al-fuqaro Ahmad ibn Mahmud al-Buxoriy (XIV-XV) kabi mualliflar asarlari bizga qadar etib kelgan. Mutaxassislar ularning orasida Yoqut al-Xamaviyning «Mu‘jam al-udabo», «Mu‘jam buldon» asarlaridagi Buxoroga oid ma‘lumotlardan ham foydalanishgan. Biroq, ular alohida tadqiqot mavzusi sifatida tanlab olinmagan va etarli darajada to‘liq o‘rganilmagan. O‘rta asrlarning mashhur sayyohi va olimi Yoqut al-Xamaviyning «Mu‘jam ul-udabo» (Adiblar lug‘ati) asarida Buxoro adiblari xaqida ham muhim ma‘lumotlar uchraydi. Mo‘g‘ullar bosqini tufayli Yokut al-Xamaviy Buxoroga borish va u erdagi adabiy muhit bilan yaqindan tanishish imkoniyatidan maxrum bo‘lgandi. U Abu Ruj‘a ibn Sa‘id, Muxammad ibn Ishoq, Islomiy, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Sa‘d Abdukarim as-Sam‘oniy, Al-Xakim ibn al-Bayya’ kabi allomalar asarlaridan foydalanib to‘qqiz nafar buxorolik adib xaqida axborot

beradi. Yoqut al-Xamaviy ma'lumotlari ham ushbu tadqiqotga jalb qilindi.

Somoniylar davrida Buxoroda ilm-fan ravnaq topib, madaniyat gullab-yashnaganini tasdiqlovchi qo'plab tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bu jarayon qoraxoniylar, g'aznaviylar, buyuk saljuqiylar va xorazmshohdar davrida izchil davom etadi. Xorazm faxri Maxmud az-Zamaxshariy, Iroq as-Sinoriy, Muxammad ibn Sobit Muhammad Isbaxoniy kabi davrining mashhur allomalari ilmlarini mukammallashtirish maqsadida Buxoroga kelishgani bejiz emasdi. Buxoro allomalari va adiblari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan mualliflar asarlarida

VIII - XI asrlar oralig'ida Muqotil ibn Sulaymon al-Kurayshiy, Abdullox, ibn Abduya (Abdavayx,) ibn an-Nazr ibn Xushtyor, Isxoq ibn Bashir ibn Muhammad al-Buxoriy, Shayx Xoja Abu Xafs ibn az-Zabirqon ibn Abdullox, ibn al-Bahr al-Ijli al-Buxoriy, Abu Abdullox, Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Mug'iyra ibn Vardazbex, al-Ju'fiy al-Buxoriy, Abu Ahmad Isa ibn Muso Gunjar al-Buxoriy, Abdulloh, ibn Yakub ibn al-Horis al-Buxoriy, Muxammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Sulaymon ibn Komil al-Gunjar, Abdullox, ibn Abul Lays Ubaydullox, ibn Surayj Buxoriy, Abu Hafs Kutayba ibn Ahmad ibn Surayj ibn Usmon al-Buxoriy, Abu Solih, Xalaf ibn Muhammad al-Buxoriy, Abu Hafs Umar ibn Mansur ibn Ahmad al-Buxoriy singari yuzlab olimlar yashagan. Ular tilshunoslik, adabiyot, tafsir, hadis, riyoziyot (matematika) kabi turli ilmlar sohasida ko'plab asarlar yozishgan va o'z davrining mashhurlaridan<sup>1</sup>.

Islom dini VIII asrda bu o'lka zaminiga chuqur ildiz yoydi va mustahkamlandi. Shu asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa oxirgi choragida mamlakatda yangi tamaddunni shakllantiruvchi hadis, tajvid, tilshunoslik, tafsir, tarix, butkul o'zga mazmundagi adabiyot va boshqa ilmlar paydo bo'ldi.

Bir guruh qo'lyozma manbalar asosida Buxoro ta'limi tizimi tarixini o'rgangan A.Jumanazarov shahardagi eng qadimiy madrasalar xususida quyidagilarni ta'kidlaydi. "Muxammad Sharif Mahdum bayon qilgan Buxoro ilm ahli o'rtasidagi bahsni hisobga olib *Kalabod* va *Garibiya* madrasalarini eng ko'hna ilm dargohlari qatoriga kiritdik.

---

<sup>1</sup>Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент: Akademiashr, 2017. – Б.43-46.

Ishimizda ularning safiga yana beshta Madrasa qo‘shildi. *Abu Hafs al-Kabir madrasasi* VIII asr oxiri va IX asr boshlarida qurilgan. *Abu Bakr ibn al-Fazl madrasasi* IX asr oxiri va X asr boshlarida qurilgan. Abdukarim as-Sam‘oniy u haqida yozib qoldirgan. *Forjak madrasasi* to‘g‘risida dastlabki ma‘lumot Narshaxiyga tegishlidir. Buxoroning eng qadimiy madrasalaridan biri edi, milodiy 937-yil may-iyun oyida yonib vayron bo‘lgan.

Keyinchalik Madrasa qayta ta‘mirlanadi. XII asr mualliflaridan Abdukarim as-Sam‘oniy uni Farjak darvozasi yonida deb ko‘rsatadi. *Timchai Xon madrasasi* haqida Mu‘in al-fukaro Ahmad ibn Mahmud axborot beradi. *Imom ul-muslimin madrasasi* qorixona edi. Balki, keyingi davrlarda barpo kilingandir. O‘rnini hozircha aniklay olmadik. Ammo Abu Xafs Kabir Buxoriy mozorida joylashgan bo‘lsa kerak, degan taxminimiz mavjud”<sup>1</sup>.

A.Jumanazarovning ma‘lumotlariga qaraganda, XI-XIV asrlar davomida Buxoroda quyidagi madrasalar faoliyat yuritgan:

XI-XIV asrlar *Kulartegin madrasasi* Jubayi baqdolon (Baqqollar bozori) guzarida joylashgan. Narshaxiy kitobida ushbu madrasaning bunyod bo‘lishi to‘g‘risida qiziqarli ma‘lumot keltiriladi. Qadrxon Jabrail yoki Kulartegin qoraxoniylar sulolasi hukmdorlaridan edi. U 1099-1102-yillarda Arslonxon Muhammad ibn Sulaymondan oldin hukmronlik qilgan.

*Arslonxon madrasasi* - xon madrasasi deb ham yuritiladi. Muhammad SHarif Maxdumning aytishicha, uning asl nomi Kalaboddir. XII - XVII asrlar oralig‘ida Arslonxon madrasasi nomi bilan ham mashhur bo‘lgan.

*Imom Muxammad G‘azzoliy madrasasi* Sufiyon dahasida Imom G‘azzoliy guzarida edi. Qorixona bo‘lgan. Qurilgan davri aniq emas. Mashhur alloma Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy at-Tusiyning (1058-1111) yashagan davrini hisobga olib mazkur ro‘yxatga kirityapmiz<sup>2</sup>.

Mazkur oliy o‘quv dargohlaridan faqat Arslonxon madrasasining XI asrga mansub vaqf hujjati saqlanib qolgan. Jo‘yboriy Abdurahimhoja Kalobod madrasasini qayta qurdirib, unga

---

<sup>1</sup>Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б.43-46.(592 б)

<sup>2</sup>Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б.47.

mulklar vaqf qilganida tuzgan hujjati oldidan Arslonxon madrasasi vaqf hujjatini ham keltiradi.

Buxoroda Somoniylar sulolosining hukmronligi sharq uygʻonish davri bilan uygʻun holda kechdi. Bu davrda Buxoroda tugʻilib, ijod qilgan, oʻzining koʻp qirrali ilmiy faoliyati bilan odamni hayratga solgan koʻp olimlar, fozil-donishmandlar etishib chiqdi. Ana shunday allomalardan biri Imom Ismoil al-Buxoriy boʻlib, u Buxoroda tugʻilib voyaga etdi, koʻp yillar Makkayu-Madina, Damashq, Bagʻdod shaharlarda yashab-al-Jomi' as-sahih (Sahih hadislar toʻplami)ni yaratdiki, bu toʻplam hozirgi vaqtda ham oʻz axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatini yoʻqotmagan va islom dinida Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi oʻrinda turadi.

Jumladan, Abu Hafs Kabir (Imomi Hojatbaror) ham islom fiqh ilmida dong taratgan ilohiyotchi olimlaridan biri edi. U Qur'oni Karimni chuqur oʻrgangan fiqh olimi boʻlib, butun islom olamida islom huquqshunosligi bilan bogʻliq dolzarb muammolar shu kishi mashvarati bilan hal qilingan. Muhammad an-Narshaxiy - Buxoro tarixi kitobining muallifi, oʻz davrida Mavarounnahr tarixini yozib qoldirganki, bu kitob hozirgi vaqtda ham tarixchi olimlar uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Buxoroda Somoniylar saroyida yashab ijod qilgan, Odam-ush-shuaro unvoniga sazovor boʻlgan Abu Abdulloh Roʻdakiy – butun dunyoda fors-tojik sheʼriyati asoschisi sifatida tan olinadi. Bu tabbaruk siymolar Buxoroni butun dunyo ahamiyati ega shaharlardan biriga aylanishida munosib hissa qoʻshgan, beminnat xizmat qilgan maʼrifat peshvolari edilar.

*Abu Bakr Muhammad ibn Jaʼfar an-Narshaxiy* 899-959-yillar Buxoro yaqinidagi Narshax (hozirgi Vobkent tumanida) qishlogʻida 899-yilda tavallud topgan. Narshaxiyning ilmiy asarlari toʻgʻrisida maʼlumotlar juda kam. Uning faqat “Tarixi Buxoro” (“Buxoro tarixi”) asari bizgacha etib kelgan. Asar qoʻlèzma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy tarixiy adabiyotlarda “Tarixi Narshaxiy”, “Taxqiq ul-Viloyat” (“Viloyat haqiqatini aniqlash”), “Axbori Buxoro” (“Buxoro haqida xabarlar”) kabi nomlar bilan atalib kelingan. Asarning turli nomlar bilan atalishiga ham sabablar bor. Bu asarning Narshaxiy tomonidan yozilgan dastlabki asl nusxasi saqlanib qolmagan. Uning bizgacha etib kelgan qismi 1128-yilda Quva shahridan boʻlgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy arab tilidan fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan nusxasidir. Undan keyingi yillarda ham

Narshaxiyning asari bir necha tahrirlarga uchragan, ba'zi matnlari qisqartirilgan va so'ngi voqealar asosida to'ldirilgan.

Abu Nasr Ahmad Qubaviy asar matnini qisqartirish bilan chegaralanmay, balki Tabariy, Abu Hasan Nishopuriyning "Hazoiq ul-ulum", Ibrohimning "Axbar-i Muqanna" kabi asarlaridan foydalanib, uni to'ldiradi. Ana shu tariqa, Buxoro tarixiga Narshaxiy yashab o'tgan davrdan keyingi, 1178-1179-yillardan 1220-yillarga qadar bo'lib o'tgan tarixiy voqealar kirib qolgan.

"Buxoro tarixi" asari o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan va hozirgi kunda Somoniylar davri tarixi bo'yicha eng noyob, qimmatli asar hisoblanadi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Movarounnahr va Xuroson aholisining arab bosqinchilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo'zg'oloni bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar ham bu asarda ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Narshaxiy saroy tarixchisi bo'lganligi sababli hukmron tabaqa siyosatini yoqlab, xalqning hokimiyatga chiqishini qoralagan.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida somoniylar davrida faoliyat yuritgan hunarmandchilik ustaxonalari to'g'risida ham to'xtalib o'tadi. Jumladan, "Buxoroda-Hisor bilan shahriston o'rtasida, masjidida jome yaqinida bir korxonada bor edi unda paloslar, darpardalar, yozdij kiyimliklar, yostiq jildlari, funduqiy joynamozlar va ust kiyimlarni xalifa uchun to'qir edilar; bitta darpardaga (butun) Buxoro xiroji sarf bo'lardi. Bag'doddan har yili alohida bir omil kelib, Buxoro xirojining evaziga shu kiyimlilardan olib ketar edi. Bir vaqt kelib bu korxonada bekor qoldi va bu hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar tarqalib ketdilar"<sup>1</sup>.

Shuningdek, Narshaxiy Buxoroda tayyorlangan mahsulotlarning xalqaro savdodagi ahamiyatini alohida ta'kilaydi: "Buxoro shahrida shunday ishga tayin qilingan ustalar bo'lar edilar: viloyatlardan savdogarlar kelib, odamlar zandaniychini olib ketganlaridek, u kiyimlardan Shom va Misr, Rum shaharlariga olib ketar edilar. Xurosonning hech bir shaharida bunday (matoni) to'qiy olmas edilar. Shunisi qiziqki, bu hunar egalaridan ba'zilar Xurosonga bordilar va bu ish uchun kerakli asboblarni shaylab shu kiyimlikdan

---

<sup>1</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарк машаълига илова, 1993. –Б.26.



to'qidilar, lekin Buxorodagidek sifatli bo'lib chiqmadi. Bu kiyimlikka ega bo'lmagan birorta ham podshoh, amir, rais yoki boshqa mansab egasi yo'q edi. Uning qizil, oq va yashil ranglisi bo'lar edi. Bugun hamma viloyatlarda u kiyimidan ko'ra zandaniychi mashhurroq"<sup>1</sup>.

Ushbu ma'lumotlar somoniylar savdo-sotiq masalalariga alohida e'tibor berganligidan dalolat beradi. Chet ellarga chiqariladigan mahsulotlar qatoriga tangalar ham o'rin olgan. X asrda Buxorodan tilla (dinorlar), kumush (dirhamlar) va mis (chaqa) tangalar chiqarilgan. Dinorlar kichik ko'lamda zarb qilinib unchalik katta rol o'ynamagan. Ismoil ibn Ahmad nomi bilan so'qilgan ismoiliy dirhamlari ancha mo'l chiqarildi. Ular yuqori sifatli bo'lganligidan xalqaro savdoda juda faol ishlatildi. SHu boisdan X asr Somoniy dirhamlari, jumladan, Buxoro dirhamlari Eron, Iroq, Kavkaz ortida ko'prok, Sharqni va Shimoliy Evropada yanada ko'proq.



### **Somoniylar davri tangalari**

Movarounnahrda, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida tib ilmining eng taraqqiy etgan davri X-XI asrlarga, ya'ni Ibn Sino (980-1037) yashab ijod etgan yillarga to'g'ri keladi. Biroq Ibn Sino kabi buyuk olimning vujudga kelishi tasodifiy bir hodisa bo'lmay, balki ko'p vaqtlardan beri davom etib kelayotgan mahalliy ilmiy an'ananing mahsuli edi. Ibn Sinoga tabobatdan dars bergan buxorolik tabib Abu Mansur Qumriyning ilmiy merosi ushbu fikrni tasdiqlaydi. U X asrning boshlarida Buxoroda tug'iladi va somoniy amirlari saroyida tabib bo'lib xizmat qiladi. Taxminan 999-yili vafot etadi.

O'sha davrdagi ko'pchilik olimlardan farqli o'laroq, Qumriy turli xil fanlar bilan baravar shug'ullanmasdan, o'z diqqatini asosan tib ilmiga qaratdi. Tabobatga oid asarlaridan sakkiztasi tib ilmida mo'tabar sanaladi, Jumladan, "Kitob al-g'ino va-l-muno" (Etarli va istalgan kitob), "Kitob at-tanvir fi-l-istilohot at-tibbiya" (Tibbiy istilohlarni yorituvchi kitob), "Kitob al-ilal al-ilal" (Kasalliklar sababi

<sup>1</sup> Шу маъба –Б.22.5

haqida kitob). Qumriyning “Kitob al-g‘ino va-l-muno” kitobining ahamiyati avvalo Shundan iboratki, u Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi. Qumriy o‘z asarini yozishda foydalangan manbalari va ularning mualliflarini qayd etadi. Qumriyning bizgacha etib kelgan “Kitob at-tanvir” asari tibbiy istilohlarni izohlovchi arab tilida tuzilgan birinchi lug‘at hisoblanadi<sup>1</sup>.


*Abu Ali Ibn Sino* (980-1037) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida amaldor oilasida tug‘iladi. U jahon ilm-fani rivojiga katta hissa qo‘shgan ensiklopedik olimdir. Ibn Sino olti yoshga to‘lganda, ya’ni 986 yil oilasi Buxoroga ko‘chadi. Buxoro bu davrda ilm-fan, adabiyot, she’riyat ravnaq topgan va uzoq ilmiy-ma’rifiy, madaniy an’analar davom etib kelayotgan Somoniylar davlatining ma’muriy-siyosiy markazi edi. Buxoro butun Movarounnahr, O‘rta va YAqin SHarqda madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lib, shaharda tabobat, falsafa, mantiq, nazm, fiqh, tarix bilan shug‘ullanuvchi etuk olimlar, shoirlar to‘plangan edi. Ibn Sino boshlang‘ich ma’lumotni shu erda oldi. U iste’dodli, xotirasi kuchli, zehni o‘tkir bo‘lgani bois o‘z davrida ma’lum bo‘lgan ilmlarni tezda egalladi. O‘n yoshida Qur’onni to‘liq yod oldi. 10-13 yoshidan boshlang‘ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug‘ullana boshladi. U yosh bo‘lishiga qaramay, Abu Abdulloh Notiliydan falsafa ilmini, o‘sha davrning mashhur tabibi Abu Mansur Qumriydan esa tibbiyotni o‘rgandi. Ba’zi masalalarda ustozlaridan o‘zib ketdi.

U Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o‘rganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy va falsafiy merosini, xususan, Aristotel, Evklid, Ptolomey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Porfiriylar kabilarning asarlarini ham qunt bilan o‘rgandi. Ibn Sino 17 yoshida mashhur tabib sifatida tanildi. Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansurni davolash evaziga saroy kutubxonasidan foydalanish huquqini oldi va bu mashhur kutubxonada yuqorida tilga olingan olimlarning asarlari bilan tanishish va ularni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ldi.

---

<sup>1</sup> Каримов У.И. Ибн Синога табобатдан дарс берган олим // Шарқшунослик (тўплам).- №1.-Тошкент: Фан, 1990.- Б.12-16.

## Ibn Sino



Ibn Sino barcha zaruriy ilmlarni Buxoroda oldi va ilmiy faoliyati 18 yoshdan boshlandi. Uning birinchi ilmiy asari “Urjuza” deb nomlanib, u Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansurga bag‘ishlangan tibbiy she‘riy asar hisoblanadi. Asarda nafsoniy quvvatlar masalasi tushunarli bo‘lishi uchun she‘riy tarzda bayon qilib berilgan. O‘z qo‘shnisi va do‘sti Abu-l-Husayn al-Aruziyning iltimosiga ko‘ra, ko‘p fanlarni o‘z ichiga olgan navbatdagi ilmiy asari “Al-hikmat al-Aruziy” (Aruziy hikmati) asarini yozadi. Boshqa bir do‘sti Abubakr al-Barqiy iltimosi bilan 20 jildli qomusiy “Al-hosil val-mahsul” (Yakun va natija) va 2 jildli “Kitob albir va-l-iom” (Saxovat va jinoyat kitobi) nomli asarlarini bitadi.

999-yil Movarounnahr Qoraxoniylar tomonidan ishg‘ol qilingandan so‘ng Ibn Sino dastlab Xorazmga ketadi va bir muddat bu erdagi Xorazm Ma‘mun akademiyasida ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Lekin o‘lkadagi siyosiy beqarorlik uni bu erlarni ham tark etishga majbur qiladi. Olimning keyingi hayoti Movarounnahrda tashqarida, Niso, Obivard, Tus, Ray, Jurjon, Isfahon, Hamadon orasida sarsonlikda kechdi va umrining oxirigacha o‘zga yurtlarda ilmiy, ijtimoiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Qomusiy olim umri davomida 450 (280) ortiq asar yozgan bo‘lsa, shulardan 242 (160) tasi bizgacha etib kelgan. Ulardan 80 tasi falsafa, 43 tasi tibbiyot, qolganlari esa fanning boshqa sohalariga oid asarlardir.

O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida tib ilmining eng taraqqiy etgan davri X –XI asrlarga, ya’ni Ibn Sino yashagan va ijod qilgan davrga to‘g‘ri keladi. Biroq, Ibn Sino kabi olimning vujudga kelishi tasodifiy bir hodisa bo‘lmay, balki ko‘p vaqtlardan beri davom etib kelayotgan mahalliy ilmiy an‘ananing mahsuli hisoblanadi. Ibn Sinoga qadar qadimgi yunon olimi Gippokrat, Rim olimi Galen va o‘rta asr Sharqida Zakariyo Roziy kabilar tabobatda eng mashhur hasoblanardilar. Ibn Sino ilmiy merosining bosh asari bo‘lgan “Kitob al-qonun fit-tibb”da yuqoridagi olimlarning fikr - mulohazalari shaxsiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqiladi va inson organizmini o‘rganish sohasida hali ilmda ma’lum bo‘lmagan bir qancha yangiliklar bayon etiladi. Kitob besh mustaqil katta asardan tarkib topgan.

Kasallik va uning kelib chiqishi, diagnostika va davolashda Ibn Sino determinizmni asos qilib oladi: har bir kasallik muhit, sharoit, ovqatlanish, tananing o‘ziga hos xususiyatlari, organizmning tashqi ta’sirga munosabati kabi omillar bilan uzviy bog‘liq holda, ma’lum sistemada tekshiriladi.

Ibn Sino Pasterdan deyarli sakkiz asr oldin yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi mikroblar to‘g‘risidagi fikrni asoslab, buyuk kashfiyot qildi. U inson hayotida pulsning juda katta ahamiyatini aniqladi. “Kitob al-qonun” 600 yil davomida tibbiyotga oid asosiy qo‘llanma bo‘lib keldi.

Uning boshqa asari “Kitob ash-shifo”da botanika, geologiya, mineralogiya, astronomiya, matematika, ximiyaga oid ko‘p ma’lumotlar keltiriladi.

*Abu Abdulloh Ja’far Rudakiy* taxminan 960-yilda Samarqand yaqinida joylashgan Panjrudak qishlog‘ida tug‘ilgan. Shuning uchun ham shoirning taxallusi shu tug‘ilgan qishlog‘ining nomidan kelib chiqib, Rudakiy bo‘lib hisoblanadi. Yana boshqa manbalarda aytilishicha, o‘sha davrda xalq cholg‘u asboblari orasida “rud” nomli musiqa asbobi bo‘lib, shoir uni chalishni juda yaxshi o‘rgangan, shuning uchun ham shoir taxallusini shu asbobdan olgan deb ham hisoblaydilar.

Rudakiyning ijod qilgan davrda she’riyat, ayniqsa, saroy she’riyati, qasidanavislik, ya’ni shaxsga madhiya o‘qib, ko‘klarga ko‘tarib maqtash keng avj olgan edi. Qasidanavislikdan asosiy maqsad, uning mohiyati maqtov kimning shaxsiga qaratilgan bo‘lsa,

o'sha kishini shaxsni ulug'lashtirish bo'lgan. Rudakiy esa ma'lumotlarga qaraganda, qasida to'qishga usta bo'lgan. SHuning uchun ham bo'lsa kerak, uning Somoniylar saroyiga taklif qiladilar. U davrda hokimiyat tepasida Nasr ibn Ahmad turardi. Shu davrdan boshlab, uning hayotida saroy davri boshlanadi. Saroy hayoti o'zining o'ta murakkabligi bilan ajralib turgan, fisqu-fasodlarga to'la bo'lgan.

Rudakiy fors-tojik she'riyatining asoschilaridan biri hisoblanadi. XI asr shoiri Rashidiyning aytishicha, Rudakiyning bir million uch yuz ming bayt she'ri borligi hisoblab chiqilgan. Ammo, bizgacha ming bayt, ikki qismda ellik ruboiy, she'rlar, doston va boshqalar etib kelgan, xolos. Bu asarlarda shoir do'stlik, muhabbat, yaxshilik qilish, birovning dilini og'ritmaslik kabi ulug' insoniy fazilatlarni ulug'laydi. Doimo ezgulik qilishga chorlaydi.

Bizga qadar Rudakiy qalamiga mansub "Kalila va Dimna", "Davroni oftob", "Sindnoma" kabi poemalardan parchalar etib kelgan. Rudakiyning asarlari haqida gap yuritar ekanmiz, uning tili sodda, keng xalq ommasiga juda ham tushunarli bo'lganligini ko'ramiz. Shuning uchun ham u keng xalq ommasi orqali shuhrat topgan. Uning asarlari hozirgi o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Somoniylar va Qoraxoniylar davrida Buxoroda fan, madaniyat va san'atni rivojlantirish bilan birga hokimiyatni markazlashtirish orasida ham bir qancha ijobiy ishlarni amalga oshirgan ekanlar. Jumladan, shahar somoniylar davrida bir qancha qismlardan tashkil topgan. Bu qismlar orasida eng mustahkami Ark (qal'a) edi. U juda baland va qalin devor bilan o'ralgan deyarli o'lchab bo'lmasdi. Arkdan sharq tomonda mustahkamlangan shahriston (shaharning qadimiy qismi) joylashgan. Shahar tashqarisi rabot ham devor bilan o'ralgan na ichki hamda tashqi rabotlarga bo'lingan.

Arkning g'arbiy etagida katta Registon maydoni bo'lib unda 10 ta davlat boshqarmalari devonxona binosi qad ko'targan. Xuddi shu erda saroy qurilgan bo'lib, Buxoroga X asr oxirlarida kelgan Mukaddasiy musulmon olamida bunday muhtashamroq saroyini qo'rmaganini ta'kidlaydi. Registonda shuningdek, hayit namozlari o'qiladigan iydgoh musallo ham bo'lgan. Ammo somoniylar davrida shahar aholisi shu qadar ko'paydiki, natijada eski musalloga barcha namozxonlar sig'may qoldi. 971-yilda qal'ada yarim farsax - 3-4 kilometr masofada yangi musallo quriladi. Yana bir podshoh saroyi quriladi.

IX-X asrlardagi Sharq matematikasining yutuqlari Buxoro me'morlari ijodida o'z aksini topgan. Buxorodagi Somoniylar davri inshootlaridan faqat Somoniylar maqbarasi Markaziy Osiyoda eng ko'hna musulmon me'moriy ishooti butunlay pishiq g'ishtdan ko'tarilgan. Yodgorlik islom dinigacha bo'lgan mahalliy so'g'diy me'morlar tajribasiga asoslangan. Qadim vaqtlarda me'morlar qurilishda yog'och va xom g'ishtdan foydalanganlar. Ma'lumki, ular ancha chidamsiz qurilish materiallari edi. Maqbara gumbazining sakkiz qirrali gardish bilan tokchalar ustida urishi, borgan sari torayib boradigan ravoqli kiraverish joylari pastakkina darchalar, binoga tutashib ketgan burchak ustunlari, ichkaridagi ustunchalar, gishtlarni turlicha terish yo'li bilan qilingan friz va arxivoltlarning shakli, sopol bezaklar bularning hammasi qadimiy so'g'diy me'morchiligi san'atida ham uchraydi. Binobarin, Buxoroning Somoniylar davridagi hashamatli me'morchiligi so'g'diy me'morchiligining an'analari bilan uzviy bog'langandir.



### **Somoniylar maqbarasi**

Maqbaraning umumiy ko'rinishi kvadrat planiga mos tushgan. Maqbara juda oddiy bo'lib, ikkita turg'un shakldan qaror topgan,

ya'ni yarim shar shaklidagi qubba bilan tugallangan kub nusxa binodan iborat. Binoning to'rtala tomoni ham arxitektura jihatidan bir xilda bezatilganligi maqbaraning sentrik kompozitsiya uslubida yaratilganligini ko'rsatadi. Bino qismlarining muvozanatligi fasadlarining ishlanishida ham, devor va uning ustidagi qismlarining uzviy mutanosibligida ham ko'rinadi. Taglik chizig'i bino asosini ko'rsatib turadi, bino devorining yuqori qismi esa ravoqlar gallereyasi bilan tugaydi, bino burchaklarida chorak qismi devorga tutashib ketgan baquvvat ustunlar bor, maqbaraga to'rtala tomoniga ham bir xil qilib ishlangan ravoqsimon peshtoqdan kiriladi. Peshtoqda birin-ketin uchta ravoq bo'lib, ular borgan sari kichiklashaveradi. Har bir ravoq etagi to'g'ri burchakli romga tutashgan. Maqbaraning ichkarisida ham arxitektura elementlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Devorlarning yuqori burchaklarida tokchalar bo'lib, tokcha va darchalarning usti sakkiz qirrali gardish qilib ishlangan. Maqbara gumbazi ana shu gardishga qo'ndirilgan.

Binoning tashqi va ichki tomonidagi elementlar bir-biriga juda monand tushgan. Maqbara ichkarisidagi zamin tashqarisidagi sokol sathiga to'g'ri keladi, kiraverish ravoqlari yonidagi belboqqa o'xshash chiziq bino ichkarisida ham takrorlangan. Past-past qilib ishlangan tashqi gallereyiga ichki tokchalar to'g'ri keladi. Ichki tomondan panjara qo'yilgan, kichik ravoqli darchalardan ichkariga etarli darajada yorug'lik tushib turadi. Maqbaraning devorlari va yuqori qismlariga mayda yupqa g'isht, tagligiga esa yirik g'isht, ayrim bezaklarda shakl qilib o'yilgan g'ishtlar ishlatilgan<sup>1</sup>.

Shamsulmulk Buxoro tevaragida Shamsobod quriqxonasi barpo ettirib, saroy, bog', yaylov va xayvonot bog'i tashkil kildi, shaharning o'zida esa 1069-yili yangidan jome masjid qurdirdi. Shamsulmulk vorislaridan biri Buxoroda yana muhtasham qasr qurdirdi. Arslonxon Muxammad (1102-1130) bu erda, ayniqsa, ko'p qurilishlar qildi. U qo'rg'onni va shaharning tashqi devorlarini tiklatdi. Yangidan minorali muhtasham jome masjidi, ikkita hammom, ikkita saroy qurdirdi.

Minorai kalon 1127-yili me'mor Baqo loyihasi asosida Arslonxon buyrug'i bilan qurdirgan. Minora poydevori tosh va

---

<sup>1</sup>Пугаченкова Г.А. Исмоил Сомоний мақбараси. –Тошкент: Госиздат УзССР, 1964. – Б.2-3.

maxsus qir qorishmasidan terilgan. Er sathidan 9 m chuqur, balandligi 50,0 m, kursisi qirrador, tanasi g‘o‘lasimon, tepasi gumbazli davra qafasa-ko‘shk bilan bog‘langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 pillapoya aylanma zina orqali chiqiladi. Masjidi kalon tomonidan minoraga o‘tiladigan ko‘prikcha bo‘lgan. Minoraning o‘zagi ham, bezagi ham chorsi g‘isht (27x27x4x5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak g‘ishti o‘rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari g‘ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan.




**Minorai Kalon**

Shu bilan birga bugungi Buxoro viloyatining Vobkent tumanida joylashgan Vobkent minorasi ham XII asrda qirib bitkazilgan. Minora o‘n ikki qirrali supa asosga o‘rnatilgan g‘o‘la (quyi qismining diametri - 6,19 m, yuqori qisminiki - 2,81 metr shaklida rangdor, pishiq g‘ishtlardan qurilgan. Bir paytlar yonida mavjud bo‘lgan masjid tomonidan kirib, yuqoriga aylanma zinapoya orqali chiqilgan.



Boʻrtma naqshli oʻn belbogʻ bilan qismlarga ajratilgan, har bir qismi bir-biriga oʻxshamaydigan qilib gʻisht terib naqshlangan, quyisidagi naqshlar orasida qurilgan yili va qurdirgan shaxs Sadr Burhoniddin Abdulaziz II ning nomi kufiy uslubida yozilgan.



### **Vobkent minorasi**

Minoraning uchi kengaytirilib, qafasa ishlangan diametri 3,66 m, gʻisht terib ishlangan 10 ravob orasida 10 darcha hosil kilingan, darchalarning quyisi gʻisht panjara bilan toʻsilgan. Minoraning tashqi koʻrinishi koʻp jihatdan Minorai kalonga oʻxshaydi, lekin muqarnaslari ancha sodda. Minora supasi tuproq ostida qolgan, qurilgan paytida uning balandligi 2,3 m boʻlganini arxeologik

tadqiqotlar ko'rsatadi. Minoraning umumiy balandligi esa 40,3 metrni tashkil etadi.

**Tayanch so'z va iboralar:** somonxudot, xalifa, devon, vazir, mustavfiy devoni, elchilik aloqalari, sohibi shurat, davlat mulklari, vaqf xo'jaliklari, madrasa, sulola, ilm-fan, tabiiy fanlar, tabobat, kufiy yozuv, maqbara, naqsh, g'isht panjara, me'moriy uslub.

### *Nazorat uchun savollar*

6. Somoniylar davridagi davlat boshqaruv tizimi nimaga asoslangan edi?

7. Somoniylar davrida Buxoroda qurilgan inshootlar to'g'risida ma'lumot bering?

8. Minorai Kalon va Vobkent minorasining qurilishi xususida ma'lumot bering

9. IX-XIII asrlarda Buxoroda faoliyat yuritgan madrasalar to'g'risida ma'lumot bering?

10. IX-XIII asrlarda Buxorodan etishib chiqqan ilm-fan namoyondalari.

### *Test topshiriqlari*

1. Somoniylar davrida qaysi devon xazina sarfiyoti nazoratini amalga oshirgan.

- a. devoni muhtasib
- b. devoni mushriflar
- s. devoni adliya
- d. devoni vaqf

2. Vobkent minori qaysi davrda qurib bitkazilgan.

- a XIII asr
- b XV asr
- s XII asr
- d III asr

3. Kulartegin madrasasi Buxoroning qaysi gazarida joylashgan.

- a. Zargaron
- b. Sufiyon
- s. Jubayi bakdolon
- d. Shergiron

4. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning Buxoro tarixi kitobi dastlab qaysi tilda yozilgan.

- a. Fors
- b. Arab
- s. Turkiy
- d. So'g'd

5. Quyida qaysi yodgorlikning balandligi 40,3 metrni tashkil etadi.

- a. Minorai Kalon
- b. Vobkent minori
- s. Ismoil Somoniy maqbarasi
- d. Ark

## **6-MAVZU: XIII-XV ASRLARDA BUXORO**

### **6.1. Mo'g'ullar va temuriylar davrida Buxoroda siyosiy hayot**

### **6.2. XIII-XV asrlarda Buxorodagi madaniy jarayonlar**

#### **6.1. Mo'g'ullar va temuriylar davrida Buxoroda siyosiy hayot**

XIII-XV asrlarda Buxoro shahri ikki bir-biriga zid jarayonni boshidan kechirdi. Ya'ni, mo'g'ullar istilosi natijasida yarim vayronaga aylangan shahar temuriylar davrida qayta tiklanib, Movarounnahrning ilmiy-madaniy markazlaridan biriga aylandi.

XIII asrning birinchi choragida Movarounnahr hududi mo'g'ullar tomonidan istilo qilindi. O'tror, Sig'noq, Jand, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlar mo'g'ullar qo'shiniga qarshi mardonavor qarshilik ko'rsatdi. Yaxshi tayyorlanmagan Buxoroga mo'g'ullar 1220-yilning fevralida yaqinlashdi. Mo'g'ul qo'shini shaharni egallashdan oldin uning shimolida joylashgan Sartoqqa hujum qiladi. Mo'g'ullar o'z odatlariga binoan shaharga elchi yuboradilar. Urush natijasida shahar mo'g'ullarga taslim bo'ladi. Natijada mo'g'ullar Sartoqqa «Qutlug' baliq» (Baxt shahri), deb nom beradilar

Buxoroga qarshi yurishda Chingizxon zabt etgan ikkinchi shahar - Nur bo'lgan. Herman Vamberining ma'lumotlariga ko'ra, mo'g'ullar Nurga qadar turkman qabilalari yordami bilan yangi

yo‘ldan kelishgan va keyinchalik bu yo‘l ko‘p zamonlargacha «Xon yo‘li» deb ataldi.

Herman Vamberi Nur qal’asiga hujum qilish uchun mo‘g‘ullar Tohir Bahodir ismli bir musulmon yoki turk rahbarligida Nur atrofidagi o‘rmonlarda uzun narvonlar yasalganligi xususida ma’lumot beradi. Narvonlarni otda va qo‘lda ko‘tarib kelib shahar devoriga qo‘yadilar. Qal’a darvozalari qisman Chingizxonning kuchiga, qisman Sulton Muhammad yordamiga ishonib yopib qo‘yilgan. Tohir Bahodir ularga: «Haqiqatan ham kuchli bo‘lgan mo‘g‘ul xoni, ya’ni Chingizxon keladir. Agarda shahar aholisi qarshilik ko‘rsatmasa, u bir necha kun qoladi», dedi. Shundan so‘ng Nur shahrining darvozalari ochildi<sup>1</sup>.

Ular buyruqqa muvofiq shaharda qishloq xo‘jaligi uchun kerakli asboblarni va hayvonotni qoldirib chiqib ketdilar. So‘ngra mo‘g‘ullar shaharga kirdilar. Uylarni taladilar, faqat odamlarni o‘ldirmadilar, xolos. Aholi nomidan Chingizxon oldiga borgan muzokarachilar hay’ati iltifot bilan qabul qilindi. «Hozirgacha qancha soliq to‘ladinglar?», degan savolga ular 500 dinor deb javob berishdi. Shundan keyin Chingizxon bu miqdor pulni qo‘shinning mahkamasiga berishni amr etib, hay’atni xushhollik bilan qaytarib yubordi.

Shundan so‘ng Chingizxon Buxoro tomonga otlandi. 1220-yil fevral oyida u o‘z qarorgohini Buxoro devorlari yoniga tikdi. Uning tayyor askarlari o‘sha zahoti shaharning tashqi burjlariga hujum qila boshladi. Albatta, Buxoro ahli avval sodir bo‘lgan qonli voqealardan xabardor edilar. Binobarin, ular o‘z boshiga kelgan baloni bartaraf etishga tayyor ham emasdi. Qal’aning devorlari ortida 20 ming kishilik qo‘shin yashiringan edi. Bu qo‘shinga Sevinchxon, Qushlixon ham Ko‘kxon boshliq edi. Keyingisi mo‘g‘ullardan qochib kelgan uyg‘urlardan edi. Kuch jihatdan bir necha baravar ortiq bo‘lgan mo‘g‘ullarga qarshi Buxoro lashkari qarshilik ko‘rsatdi. Ular mo‘g‘ullarga hujum qildilar va deyarli butunlay qirilib ketdilar. Ularning ozgina qismi shahar ichiga kirib qutuldi.

Herman Vamberi mo‘g‘ul xonining Buxoro shahriga kirib kelishini quyidagicha tasvirlaydi: “Chingizning ko‘zi dastlab ulug‘

---

<sup>1</sup> Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. –Тошкент: Фафур-Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. –Б.22.

Somoniy tarafidan muhtasham bezaklar bilan qurdirilgan jome masjidiga tushdi. U o'g'li Tulu bilan birga otdan tushmay masjidga kirdi. Minbar oldiga borib to'xtadi. Tuli otdan tushmay minbar oldida turib qoldi. Chingiz so'radi: «Bu sultonning o'z saroyimi?» Unga: «Bu baytulloh» deb javob berildi. Shundan so'ng otdan tushdi. Minbarning bir necha zinasiga ko'tarildi-da, orqasida turgan mo'g'ullarga qichqirdi. «O'tloq o'rildi, otlaringizga em beringiz!». Bu talon-taroj qilishga ruxsat ishorasi edi. Mo'g'ullarning baxtsiz Buxoroga qanday hujum qilganlari, O'rta Osiyo poytaxtining zeb-ziynatlariga ko'zlari ko'r bo'lgan sahroyilarning qanchalik hirs bilan tashlanganliklarini mulohaza etish oson.

Barcha uylar vayron qilindi, hamma sandiqlar buzildi. Behisob xazinalar talandi. Ko'rinishdan hech bir qiymati bo'lmagan muqaddas narsalarni ham ayamadilar. Kitoblar yirtilib, hayvonlar oyog'i ostiga somondek sochildi. Muqaddas kitoblar saqlangan sandiqlarni otlarga oxur sifatida ishlatdilar. Ilm yulduzlari bo'lgan mullolar, shayxlar, qullar kabi e'tiborli jangchilarga xizmatkor qilib, goho esa, mo'g'ul baxshilariga masxara uchun berildi. Ko'pgina mo'tabar qozilar eshak va xachir boqishga majbur qilindi. Chingizxon shaharda bir necha soat turdi. Keyin shahar tashqarisidagi hayit namozi o'qiladigan musalloga bordi. Butun aholi shu erda yig'ilgan edi. Mo'tabar kishilar, boylar kimlar ekanini so'radi. Unga 280 kishi ko'rsatildi. (190 kishi buxorolik bo'lib, 90 tasi ajnabiy savdogarlar edi). Chingiz ularga xitob qilib hamda Sulton Muhammadning zulmiga ishora etib dedi: «Ey odamlar! Bilingiz, sizlar og'ir gunoh qildilaringiz. Buning asosiy sababchisi sizlarning xonlaringiz. Sening o'zing kimsanki, biz bilan bunday gaplashmoqdasan, deb so'rarsiz. Bilingiz, men Tangrining farzandiman. Agarda siz gunohkor bo'lmasangiz, Tangri sizning jazoingizni berishga meni yubormas edi. Endi, sizning er ustidagi boyliklaringiz to'g'risida sira ma'lumot so'ramaymiz, ammo siz, erga yashirganlaringizni aytishingiz va ularni topib berishingiz kerak». U bu paytda shahardan saylangan kishilarni hujum va masxaradan saqlash uchun mo'g'ul va turklardan soqchi qo'yishni unutmaydi. Ishlar shu tarzda bordi. Lekin Sulton Muhammadning shaharda yashiringan askarlari Chingizni tungi hujumlari bilan bezor qilishgani uchun ularni tutib berishlarini talab qildi.

Buxoroliklar g'olibning buyrug'ini bajarmay, ularni asrab turdilar va tungi hujumlariga yordam berdilar. Shundan keyin

Chingizxon nihoyatda g'azablanib, shaharni yondirishga amr etdi. Aksari yog'och imoratlardan iborat bo'lgan Buxoro bir necha kun ichida tagigacha yonib tushdi. Faqat tosh va g'ishtdan qurilgan masjidlar, saroylargina o't dengiz ichida qora tosh va nuqtalar bo'lib qoldilar. Zarafshon ustidagi ma'mur shahar xas-xashakka aylandi. Qal'a ichidagi askarlar Ko'kxon rahbarligida mudofaani davom ettirdi. Uning qahramonligiga biz hamisha qoyil qolamiz. Mo'g'ullar bu qal'ani zabt etish uchun barcha tadbirlarni qo'llab ko'rdilar. Hatto, hujum boshiga buxoroliklarni ham qo'yib ko'rishdi. Lekin hammasi bekor ketdi. Qal'a ichidagi barcha chuqurlar odam va hayvon mayitlari (jasadlari) bilan to'lib toshgandan, qahramon mudofaachilar jonlarini fido qilganlaridan keyingina ularning qarorgohlari zabt etildi. Bu jasoratli qarshilik uchun shahar aholisi qurbon qilindi: 30 mingdan ziyod aholi halok etildi. Qolganlari esa, tabaqalariga qaramay, qul qilindi. San'ati, ilm-ma'rifati, nozik tabiati va axloqi go'zal bo'lgan Buxoro aholisi baxtsiz va masxara etildi. Buyuk bir el shamolday tarqab ketdi. Bu qochoqlardan biri Xurosonga kelib, o'z vatanining ahvoli haqida keng shuhrat qozongan quyidagi baytni aytgan edi: «*Omadand va kundand va so'xtand va kushtand va burdand va raftand*» (*Keldilar va emirdilar, yondirdilar va o'ldirdilar, taladilar va ketdilar.*)<sup>1</sup>.

Chingizxonning Movarounnahrni egallash tadbirlarining so'ngida mazkur hudud Chig'atoy ulusi tarkibiga kirdi. Hududda mo'g'ullarga qarshi norozilik harakatlari ham sodir bo'ladi. Tarixchi Juvayniy, ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda 1238-yilda qo'zg'olon yuz berdi. Buxorodan uch farsax narida Torob qishlog'i bo'lib, bu qishloqda elakchi Mahmud Torobiy istiqomat qilardi.

Mahmud Torobiyning Buxorodagi tarafdorlari o'rtasida zodagonlardan bo'lgan olim Shamsiddin Mahbubiy ham bor edi. Shamsiddin Mahbubiy bir qancha sabablarga binoan o'z maslakdoshlari bilan qattiq janjallashib, yuqori mansabdagi ruxoniylar nazarida murtad bo'lib qolgan va Mahmud Torobiyning va'z-nasihatlarini zo'r berib quvvatlay boshlagandi. Shamsiddin Mahbubiy Torobiyga qarata shunday degan ekan: «Mening otam Buxoroning

---

<sup>1</sup> Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мвароуннахр тарихи. –Тошкент: Гафур-Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. –Б.24.

Torob qishlog‘idan bir podshoh chiqib dunyoni ozod qilishini aytib uning nishonalarini tasvirlab bergan edi. Mazkur podshoh va uning tavsifi kitobda ham bayon qilingan. Qarasam ul nishonalar sizda namoyon bo‘libdir».



**Mahmud Torobiy haykali**

Maxmud Torobiyning tarafdorlari kun sayin ko‘paya boradi. Torobda va Buxoroning boshqa qishloqlarida aholiga Mahmud Torobiyning va‘z-nasihatlari shu qadar ta‘sir qilgan ediki, xalq mo‘g‘ullarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib chiqishga nishona berilishinigina kutib turadi. Torobiy yurgizgan targ‘ibotning muvaffaqiyatlari mo‘g‘ullarning qulog‘iga borib etadi. Buxorodagi amirlar va bosqoqlar qo‘zg‘olonni bostirish chorasini ko‘rish to‘g‘risida kengash o‘tkazadilar va yuz bergan ahvoldan xabardor qilmoq uchun Ho‘jandga hokim Yalavoch oldiga chopar yuboradilar .

Bosqoqlar va amirlar o‘zlarining hozircha kuchsizliklarini va Mahmud Torobiy hamda uning tarafdorlariga qarshi ochiqdan-ochiq

urush qila olmasliklarini tushunib, xalq yo‘lboshchisini hiyla bilan Buxoroga olib kelmoqchi va yo‘lda o‘ldirmoqchi bo‘ladilar. Shu maqsadda Torob qishlog‘iga Mahmud oldiga Tomsh boshchiligida bir necha mo‘g‘ul lashkarboshisi yuboriladi. Lekin Maxmud Torobiy ularning nayranglarini darrov anglab, yovuz niyatlarini fosh qiladi va shu bilan o‘z hayotini saqlab qoladi. Shunday bo‘lsa-da, u Buxoroga jo‘naydi, Buxoroda xalq uni xursandchilik bilan kutib oladi hamda uni quvvatlashga va‘da beradi. Shu narsa diqqatga sazovorki, Mahmud Torobiy Buxoroga kelgandan keyin darrov Malik Sanjarning saroyiga boradi va shu bilan siyosatda Malik Sanjarning yuqorida aytib o‘tilgan 1207-yilgi harakati ruhida ish qilayotganini ta’kidlaydi. Mahmud borgan mahalla va bozorlar,- deb yozadi Juvayniy, - odam bilan liq to‘lib ketgan edi, mushuk o‘ta oladigan joy ham yo‘q edi.

Bu orada amirlar va bosqoqlar ham jim o‘tirmay, qandaydir yangi fitnalar hozirlaydilar. Bundan Mahmud Torobiy xabar topadi. U Buxoroda turaverish xavfli ekanligini angelaydi. Bundan tashqari, u qo‘zg‘olon uchun qulay fursat kelganini, chunki Mahmud Yalavochning amir va bosqoqlariga yordam uchun Xo‘janddan yuboradigan askarlari etib kelguncha birmuncha vaqt o‘tishini va binobarin, bu fursatni qo‘ldan bermaslik zarurligini yaxshi tushunadi. SHuning uchun Mahmud Torobiy Buxorodan chiqib, shaharga eng yaqin joydagi Abuxafs tepaligida (shahar devoridan shimolda) turishni eng ma’qul ish deb hisoblaydi. Uning Buxoro shahridagi va shahar atrofida joylashgan qishloqlardagi eng yaqin tarafdorlari bu tepalikka kelib to‘plana boshlaydilar. Maxmud Torobiy o‘z tarafdorlariga murojaat qilib bunday deydi: «Hoy haqiqat homiylari, yana nega sustkashlik qilamiz, yana nimani kutib turamiz? Dunyoni kofirlardan tozalash zarur, har bir kishi bisotida bor yarog‘-aslahasini yoki tayog‘ini shaylasin va ishga solsin».

Bu chaqiriq hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mahmud Torobiy yonida yaxshi qurollanmagan bo‘lsa-da, lekin o‘zlarining qarddon shahar va qishloqlarini mo‘g‘ullardan va ularga mansub sheriklaridan ozod qilish ishiga fidokorona tayyor turgan sodiq kishilardan iborat katta qo‘shin to‘plandi. Mahmud Torobiy o‘z tarafdorlarining qurollangan qo‘shini bilan yana Buxoroga kelib, Robia saroyiga joylashadi. Bu safar bosqoqlar va amirlar qo‘zg‘olonchilarga faoliyat maydonini bo‘shatib berishdan va ularga kelgusida zarba berish uchun yashirin ish olib borishdan boshqa iloj topa olmaydilar.



Bu orada Maxmud Torobiy Buxoroning sadrlari, katta amaldorlari va boylarini Robia saroyiga chaqirtiradi. Juvayniyning yozishiga qaraganda, nufuzli oilaga mansub Sadr A'zam Burhoniddin Mahmudni aql-idrok jihatidan ham, oliyhimmatlik jihatidan ham o'ziga nomaqbul kishi bo'lib ko'rinmaganidan unga xalifalik mansabini berdi, o'zi (Sadr A'zam)esa Shamsiddin Mahbubiyi Sadr deb e'lon qildi<sup>1</sup>.

Mahmud Torobiy o'zining Buxoro va uning viloyatidagi hokimiyatini xalq qonuniy hokimiyat deb anglashi uchun biror chora topish zarurligini juda yaxshi bilardi. Mana shu chora sifatida u qonuniy ruhoniy va dunyoviy hokimiyatni o'z qo'l ostiga olish maqsadida yuqori mansabli musulmon ruhoniylarining vakillari bo'lgan sadrlarni o'zini halifa deb e'lon qilishga majbur etadi. Mahmud Torobiy konuniy hukmdor deb e'lon qilinganidan keyin darhol mo'g'ullar bilan yaqin aloqa bog'lab, xalqning nafrati ostida qolgan amaldorlar va zodagonlarga qarshi bir qancha tadbirlarni amalga oshiradi.

Oddiy xalqqa va darbadarlarga esa u iltifot va marhamat ko'rsatadi. Mahmud Torobiy eng qiyin kunlar endi kelishini juda yaxshi bilganidan, Buxoroga kelayotgan mo'g'ul qo'shinlariga qarshi qurolli kurashga zo'r berib tayyorgarlik ko'radi. Buxorodan qochib ketgan amirlar va bosqoqlar Karmanada qo'zg'olonga qarshi markaz uyushtiradilar. Ular yaqin atrofdagi nohiyalarda bo'lgan hamma mo'g'ullarni Karmanaga to'plab, kattagina qo'shin bilan Buxoro ustiga yuradilar. Jangda Mahmud Torobiyning tarafdorlari g'alaba qozonadilar. Tor-mor keltirilgan mo'g'ullar Karmana tomonga qarab qochadi. Qo'zg'olonchilarga Buxoro yaqinidagi hamma qishloqlardan yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Tevarak-atrofdagi yashovchi aholi o'z qishloqlaridan bolta va belkuraklar ko'tarib chiqib, dushmani Karmanagacha quvib boradilar. Bu g'alaba Mahmud Torobiy harakati erishgan katta muvaffaqiyat edi. Keyinchalik, ya'ni qo'zg'olonchilarning kuchlari ancha zaiflashganda bu harakat juda pasayadi. Gap shundaki, qo'zg'olon vaqtida Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiy halok bo'ladilar.

Qo'zg'olonchilar halok bo'lgan rahbarlari o'rniga Mahmudning ikki ukasi Muhammad va Alini o'zlariga boshliq qilib ko'taradilar.

---

<sup>1</sup>Баракаев Ж., Хайдаров Й. Бухоро тарихи.-Тошкент: Ўқитувчи, 1991. –Б.53.

Muhammadda ham, Alida ham tashkilotchilik qobiliyati yo‘q edi. Xalq o‘rtasida ham e‘tiborsiz kishilar edi. Shu sababdan qo‘zg‘olonchilar mo‘g‘ullar bilan bo‘ladigan yangi to‘knashuvga hech qanday tayyorgarlik ko‘ra olmaydilar. Jangdan bir haftagina ham o‘tmay, qo‘zg‘olonchilar ustiga mo‘g‘ullarning Eldiz Noyon va Chekan Kurchi boshliq yangi qo‘shinlari hujum qilib keladi. Qo‘zg‘olonchilar tor-mor keltiriladi va urushda ulardan 20 mingga yaqin odam vafot etadi.

Mo‘g‘ullar yana xo‘jayin bo‘lib oladilar, ular Buxoroga kirib shahar aholisini shafqatsiz suratda talaydilar. Buxoroliklarga va Buxoro shahri atrofida yashovchi dehqonlarga zo‘ravonlik qilish shu darajaga borib etadiki, xatto o‘ta qattiqqo‘l va shafqatsiz kishi bo‘lgan Mahmud Yalavoch ham Buxoroga kelib, odamlarni bekordan-bekorga urish va o‘ldirishni to‘xtatishni talab qiladi. Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni asosan, soliq, o‘lpon va majburiyatlarning haddan tashqari og‘irligiga, shuningdek, bu soliq va o‘lponlarni undirishdagi suiste‘mollarga qarshi qaratilgan edi.

Mahmud Torobiy qo‘zg‘olonidan so‘ng mo‘g‘ullar Buxoro va umuman Movarounnahrda mahalliy aholining, ayniqsa dehqonlar va hunarmandlarning ahvoli og‘irligini seza boshlaganlar. Mo‘g‘ul bosqinchilarida mahalliy aholini ezish kuchaytirilaversa, yangi xalq harakatlari kelib chiqishidan xavotirlanishni sezadilar. Chig‘atoy ulusiga hokimlik qilgan Mahmud Yalavochning o‘g‘li Ma’sudbek hokimligi davrida (1254-1289 yy.) ham mahalliy aholining mo‘g‘ul bosqinchilari uchun bajaradigan majburiyatlari soni oshirildi.

XIII asr ikkinchi yarmida ham Buxoro shahri bosqinchilar tomonidan yana bir necha marta talandi. Bu esa Buxoroning Movarounnahr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o‘rniga putur etkaza boshladi. Masalan, 1272-yilda Eronniig mo‘g‘ul podshosi Xulaguxonning qo‘shini Movarounnahrqa bostirib kirdi. Kesh va Naxshobni taladi, so‘ngra Buxoroni qamal qildi. 1273-yilning 22 yanvarida Xulaguxon qo‘shini shaharni ishg‘ol qildi. Shaharda talonchilik va qirg‘in boshlandi va bu to‘s-to‘polonlar vaqtida «Ma’sudiya» madrasasi va undagi ko‘p qo‘lyozma kitoblar yonib ketdi. Shahardagi talash va o‘ldirishlar bir haftagacha davom etdi. Natijada Buxoro va uning atrofi butunlay vayron bo‘ladi. Etti yil davom etgan xarobalik o‘z oqibatini ko‘rsatdi, Buxoroning savdo, hunarmandchilik va madaniyat markazi sifatidagi ahamiyati yo‘qoldi.

Holbuki,shu vaqtdan salgina ilgari, ya'ni 1262 yildan 1265 yilgacha Buxoroda yashagan aka-uka Pololar Buxoroni O'rta Osiyo va Eronning eng yaxshi shaharlaridan birideb hisoblagan edilar<sup>1</sup>.

Buxoro temuriylar davrida o'z madaniy-ma'rifiy mavqei bilan Movarounnahrning asosiy shaharlardan biri edi. Shahar kattaligi jihatidan Samarqanddan keyin turgan. Mo'g'ullar istilosidan so'ng shahar va undagi inshootlarning aksariyat qismi ta'mirtalab holga kelgan edi. XIV asrning birinchi yarmida Mo'g'ul hukmdorlari G'ozonxon, Kebekxon, Qozonxon, Qozog'on davrida Movarounnahr ma'muriy-harbiy tumanlarga bo'linadi. Ba'zi tuman va shaharlarni mahalliy hokimlarning sulolalari boshqargan bo'lsa, ayrimlari ruhoniylar namoyandalar qo'lida edi. Mazkur davrda Buxoro va uning viloyati sadrlar boshchiligidagi ruhoniylar mulkiga kirar edi.

Amir Temur Buxoroda "sadr ash-shariat" deb nom qozongan katta ruhoniylarning qizi Tegina begim mohning farzandi bo'lgan. Mamlakatni markazlashtirish ishida Amir Temur buxorolik din peshvolarining maslahati va ko'magiga tayangan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Samarqanddagi sarbadorlar harakatida ishtirok etganlar orasida Xurdaki Buxoriy ham buxorolik bo'lib mo'g'ullar istibdodiga qarshi kurashgan shaxslardan biri bo'lgan.

Temurlar davrida garchi Samarqand saltanat poytaxti deb tanlangan bo'lsa-da, Buxoro islom dini gumbazi maqomida bo'lgan. Temuriylar davrida shahar ilm-fan, ta'lim va madaniyat markazlardan biri sifatida qadrlangan. Buxoro shahri poytaxt Samarqandga mudofaa hamda ma'naviy jihatidan eng yaqin markaz sifatida o'z nufuzini saqlab turgan.

Bu davrda shaharda turli ahamiyat va darajadagi imoratlar, jamoat binolari qurilgan va ta'mirlangan. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Buxoro savdo-sotiq markazi vazifasini bajargan. XIX asrning oxirida Buxoro topografiyasini o'rgangan N.F.Sitnyakovskiy Kogondan sharqiy-janubiy tomonda joylashgan hamda xalq orasida Amir Temur farmoyishi bilan qazilgan Temur ariq xususida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Mo'g'ullar davrida deyarli vayron Buxoro vohasining suv xo'jaligi Amir Temur davrida qayta tiklandi. Amir Temurning Buxoro shahriga kelishi bilan bog'liq

---

<sup>1</sup> Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. –Тошкент: Фафур-Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. –Б.24.

ma'lumotlarni tahlil etish natijasida u yoshligida shaharga tez-tez tashrif buyurganligi, markazlashgan davlatga asos solganidan so'ng esa shahardagi muqaddas ziyoratgohlarni ziyorat etganligini ta'kidlash mumkin. Jumladan, Amir Temur har gal harbiy yurishlardan zafar bilan qaytganda, albatta Buxoroi sharifga kelib avliyolarni ziyorat qilib, so'ng poytaxt Samarqandga yo'l olgan.

Sohibqironning siyosiy faoliyatida Buxoro, Xorazm va Oltin O'rda Xoni To'xtamish bilan bo'lgan harbiy harakatlarda muhim rol o'ynagan. Buxoroning Qorako'l, Jondor tumanlarida xorazmliklarning doimiy hujumlari amalga oshirilgan. Amir Temurning Xorazmga qarshi olib borgan janglaridan so'ng ushbu muammo hal etilgan. Oltin O'rda xoni hisoblangan To'xtamish ham Amir Temurning unga ko'rsatgan yordamiga qaramay, sohibqiron saltanatiga rahna solgan. To'xtamish qo'shinlari paytdan foydalanib, Buxoro shahrini qamal qilishga ham botingan. Ammo, mustahkam qal'aga aylantirilgan Buxoro ahli bosqinchilarga qarshi qattiq qarshilik ko'rsata olgan.

1392-yil Eron, Seyiston, Yazd kabi viloyatlarga qaratilgan harbiy harakatlarni amalga oshirish uchun Amir Temur Buxoro shahri orqali o'tgan vaqtda betoblanadi va shahardan to'rt-besh kilometr uzoqlikdagi Jo'yizar mavzesida bir oy davolanadi<sup>1</sup>.

1404-yil noyabrda Samarqanddan Amir Temur saroyidan kaytayotgan Ispaniya elchilari Buxoroga tashrif buyurishdi. Elchi Run Gonsales de Klavixo xotiralarida quyidagilarni o'qish mumkin: "Boyardi (Buxoro) katta shaharga keldik. Shahar keng tekislikda joylashgan. Atrofi tuproq ko'tarmasi pasxa devor va suvga to'la chuqur xandak bilan o'ralib, uning bir chekkasida qal'a bo'lib, u ham pasxadan bunyod etilgan. Chunki, bu erda tosh yo'k..., kal'a yonidan daryo oqqan. Shaxar atrofi keng. U erda xam katta binolar mavjud. Shaxar non, go'sht, sharob singarn oziq-ovqat va boshka mollarga boy. ... Elchilar bu shaharda olti kun turdilar"<sup>2</sup>.

Bobur ham Buxoroga taalluqli xotiralarida shunday yozgan: "Buxoro ko'rkam shahar. Mevalari mo'l va ajoyib kovunlari juda yaxshi. Movarounnahrning biron erida Buxorodagidek ko'p va ajoyib qovun bo'lmaydi. Buxoro olxo'rilari ham mashhur. Buxorodagidek

<sup>1</sup>Қосимов Ф.Х. Темурийлар даврида Бухоро. –Бухоро: Бухоро нашриёти, 1996. –Б.33.

<sup>2</sup>Руи Гонсалес де Клавиho. Самарқандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги / Таржима матнини нашрга тайёрловчи ҳамда сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М.Сафаров. –Тошкент: Ўзбекистон, 2010. –Б.209.

olxo‘ri hech erda yo‘k. Ularning po‘stini archib tozalaydilar, quritadilar va sovg‘a sifatida bir viloyatdan ikkinchisiga olib boradilar”<sup>1</sup>.

Amir Temur vafotidan so‘ng Buxoro ma‘naviy-diniy markaz va davlatning ikkinchi poytaxti sifatida o‘z mavqeini yanada mustahkamlagan. Chunonchi, Amir Temur vafotidan co‘ng Samarkandda hokimiyatni Xalil Sulton egallab olganidan keyin Shohruxning taxtga da‘vogar va mavjud oliy xokimiyatga karshi kayfiyatda bo‘lgan o‘g‘illari - Ulug‘bek va Ibrohim Sulton Buxoroga kelishdi. Shahar kattaligi jihatidan Samarqanddan qolishmas edi. Shaxzoda va beklar dastavval Amir Temur hukmronlik qilgan davrda qurilgan Ayyub payg‘ambar kabrini (Chashmai Ayub maqbarasini) tavof qilgandan so‘ng Buxoro Arkida joylashishdi. O‘sha davrda Arkning hali ishlab turgan sharqiy darvoza kismini Ulug‘bek, g‘arbiy darvozali ikkinchi qismini esa Ibroxim Sulton egallaydi. Shuni ta‘kidlash kerakki, bu vaqt jihatidan Buxoro Arki sharqiy darvozasining so‘nggi bor tilga olinishidir. Chamasi, o‘sha asr davomidayok sharqiy darvoza berkitib qo‘yilgan, chunki keyingi asr manbalarida u tilga olinmaydi.

Buxoro faqat Movarounnahrning Samarqandga qarshi kayfiyatda bo‘lgan ikkinchi markaz sifatidagina emas, balki Xurosonga strategik jihatdan yaqin shahar ekanligi uchun xam shahzodalarga qiziqarli bo‘lib, ular Xurosondan Shohruxdan yordam kutar edilar. Biroq, ular bu erda bir oy (mart) ham tura olishmadi, chunki Xalil Sulton tomonga o‘tgan Buxoro lashkarlari kutilmaganda Arkka hujum qildi va shahzodalar kochishdi. Ularning barcha mol-mulki, qo‘shinlari fitna uyushtirgan shaharliklar tomonidan qo‘lga olinib, talon-toroj qilindi.

Shunga qaramay, birmuncha keyinroq Shohrux Buxoro shayxlarining aholi kayfiyatiga ta‘sirini va ularning davlatdagi ulkan siyosiy ahamiyatini anglab “musulmonlar ishini tashkil qilish, ya‘ni Xalil Sulton mavqeini pasaytirib Movarounnahr taxtiga Ulug‘bekni o‘tqazish uchun Buxoro nakshbandiylarining rahbari Muhammad Porso bilan muttasil aloqa qilib turdi.

Shuni izohlash kerakki, Samarkand shayxul-islomlari yoki Buxoro sadrjahonlari tarzidagi rasmiy diniy arboblilar ilgari

---

<sup>1</sup>Бухоро Шарқ дурдонаси/Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.51.

bo'lganidek, mazkur davrda ham hokimiyatning zodagon qatlamlaridan chiqqan kishilar bo'lib, oliy xokimiyat ular tomonida edi. Ko'pincha Buxoro sadrjahanlari dunyoviy hukmdorlarning rasmiy noiblari xisoblanar edilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning Movarounnahrni birlashtirishga qaratilgan harakatlari davrida Buxoroda butun quvvat va nufuz Abduali Tarxon, Samarqandda esa Xoja Abulmakarim qo'llarida edi.

Mo'g'ullar istilosi Movarounnahrning ko'pgina shaharlari taqdirida qanchalik ayanchli iz qoldirgan bo'lsa, Buxoro uchun ham bu istilo mash'um taqdirning ayanchli ko'rinishini ifoda etdi. Amir Temur va temuriylar, mo'g'ullardan farqli o'laroq, Buxoroga alohida e'tibor qaratib, uning siyosiy, to'g'rirog'i, diniy mavqeini tiklashga sa'y-harakat qildilar.

## **6.2. XIII-XV asrlarda Buxorodagi madaniy jarayonlar**

XIII asr oxiri va XIV asrning birinchi yarmida mo'g'ul hukmdorlari tomonidan amalga oshirilgan ayrim tadbirlar ham Buxoro shahrida mo'g'ullar istilolari davrida yuz bergan vayronagarchilik va xarobazorlarning izlarini yo'qota olmadi.

Shunga qaramasdan, Ma'sudbek idora qilgan vaqtda boshqa joylardan farq qilib, Buxoroda bir qadar jonlanish boshlandi: yangi katta binolar qurildi, bu katta binolarining biri «Ma'sudiya» madrasasi bo'lib, uning 1000 ta talabasi bo'lgan. Ulug' xon Munkening onasi qurdirgan «Xoniya» nomli chiroyli Madrasa ham Buxorodagi katta binolarning ikkinchisi edi. Ammo Buxoroda shahar hayotining birmuncha jonlanganiga va bu ikki binoning qurilganiga qarab, mamlakat xo'jaligi yuksaldi, deb bo'lmas edi. Shahar hayotidagi bu salgina jonlanish mamlakatning umumiy iqtisodiy va madaniy tushkunligidan mustasno bir hol edi.

Buxorodagi ta'lim tizimi tarixi masalalari bilan chuqur shug'ullangan A.Jumanazarov tadqiqotlari orqali XIII asrda Buxoroda faoliyat yuritgan bir guruh madrasalar to'g'risida muhim ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Jumladan, ushbu tarixiy davrda shaharda Xoniya, Ma'sudiya hamda Xoja Bulg'oriy madrasasi mavjud edi.

*Xoniya madrasasi* XIII asrning birinchi yarmida Ulug' Munkaxonning onasi qurdirgan. U anchagina katta va chiroyli imorat

bo'lgan. Unga shayx ul-olam Sayfiddin Boharziy mutavalli etib tayinlangan.

*Mas'udiya madrasasi* Mir Mas'ud guzarida joylashgan. Aytishlaricha, u Buxorodagi eng yirik va chiroyli madrasa bo'lgan ekan. Uni mo'g'ullarning Movarounnahrda Chig'atoy ulusi noibi Mahmud Yalavochning Ma'sudbek ismli o'g'li qurdirgan. U to'g'rida Rashididdin Fazlulloh, Hamadoniy ham yozib qoldirgan.

*Xoja Bulg'oriy madrasasi* shu nomdagi guzar masjid bilan bitta edi. Bu shaxs XIII asrda Buxoroda yashagan.

Sayfiddin Boharziy nomi bilan mashxur Sayid al-Xaq vad-Din Abul-Maani Sayid ibn al-Mutaxxir ibn Sayid al-Boxarziy (1190-1261) taqvodorlik yo'lini uzoq bosib o'tdi. Xalq orasida «shayx ul-olam» (olam shayxi) nomini olgan bu buyuk taqvodor, tasavvuf namoyandasi Buxoro yaqinidagi Fathobod xonaqosini 40 yil boshqardi. Uning tavalludiga qariyb sakkiz asr bo'lgan bo'lsa-da, uning xotirasi xalq orasida hamon yashab kelmoqda.



**Sayfuddin Boharziy xonaqosi va maqbarasi**

Sayfiddin Boharziy 1190-yil Xuroson viloyatining Boxarz shahrida dunyoga keldi. Xirot va Nishopurda diniy-huquqiy bilimlarni egallab, ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Makka va Madinaga haj qildi. O'qishni tugatgandan so'ng Xorazmga ko'chib keladi va bu erda

Kubroviya tariqatiga kirib, shayx Najmiddin Kubroning muridlaridan biriga aylanadi. Tasavvufning muhim jihatlaridan biri - taqvodorlikdir. Soʻfiylar oʻz izdoshlarini ilhomlantirib, ularni komillikka daʼvat qilganlar, shuningdek, etika, estetika adabiyot va sanʼatning rivojiga muhim hissa qoʻshganlar.

Sayfiddin Boharziyning maʼnaviy ustozlari Najmiddin Kubro ilm nurlarini tarqatish uchun uni Buxoroga joʻnatadi. Bu erda u 40 yil mobaynida Fathobod xonaqosini boshqardi. Yirik xonaqohlarga rahbarlik qilgan shayxlar bu davrda hukumatga, mahalliy zodagonlar va xalq ommasiga katta maʼnaviy taʼsir koʻrsatishgan va norozilik hamda ijtimoiy fikrni hukmron doiralarga etkazishga jurʼat qilishgan.

Sayfiddin Boharziy moʻgʻullar bosqini davrida yashadi. Zamon murakkabliklari va ziddiyatlariga qaramasdan, siyosiy maydonda javlon urdi. Kechayotgan voqea va hodisalarga faol munosabat bildirib, mahalliy aholining ruhiy iztiroblariga hamdard boʻldi, uni asl qadriyatlarini kayta tiklashga chaqirdi. Moʻgʻullar olib borayotgan siyosatga aralashishdan, adolatsizlikka karshi norozilik bildirishdan choʻchimadi. Adolatli, haqqoniy mulohazalari natijasi oʻlaroq, u nafaqat mahalliy aholi, balki moʻgʻul xukmron doiralari oʻrtasida katta obroʻy qozondi.

Chingizxon va uning vorislari mahalliy aholini itoatda saqlab turish uchun qudratli va yuksak obroʻ-eʼtiborli shayxlarni oʻz tomonlariga agʻdarib olishga harakat qilishgan. Sayfiddin Boharziyning taʼsir kuchi shunchalik ediki, ayrim moʻgʻul oqsuyaklari islomni qabul qilib, masjid va madrasalar qurilishiga homiylik qila boshlaydilar.

Minglab kishilarni hak yuliga, toʻgʻri yoʻlga daʼvat qilgan Sayfiddin Boharziy toʻgʻrisida butun musulmon olami maʼlumotga ega boʻlgach, uni «Shayxul olam», Buxoroni esa «Buxoroi sharif», deb atay boshladilar. Chingizxonning nevarasi va Botuning ukasi Berkaxon Quyi Volga boʻylaridan Buxoroga, Sayfiddin Boharziy oldiga islomni qabul qilish uchun maxsus kelgan.

Sayfiddin Boharziy Buxorodagi Xoniya madrasasining mudarrisi va mutavaliysi edi. U oʻz fikrlarini sheʼriy tarzda bayon qila olishga qodir isteʼdod sohibi edi. U Qurʼon oyatlariga sheʼriy sharhlar yozgan, shuningdek, arab, fors tillaridagi yirik mumtoz asarlar muallifi hisoblanadi. Ulardan baʼzilari, jumladan, «Sharx al-asma al-xusna» ([Alloxning] ismi va xusni sharxi), «Risola dar ishq» ([Iloxiy]



ishq to‘g‘risida risola), «Vasiyatnoma», «Voqeani xilvat» (Xilvatdagi vokealar), «Ro‘znoma» kabilar bizgacha etib kelgan.

Sayfiddin Boharziy 1261-yil vafot etadi va xonakoh hududidagi maxsus qurilgan kichik dahmaga dafn qilinadi. Yillar o‘tib, bu joy tasavvuf tariqatining ma’naviy va g‘oyaviy markaziga aylandi. Shayx maqbarasi asrlar davomida va bugun ham muqaddas qadamjo, sayyohlik, donishmandlik markazi va timsoli bo‘lib qolmoqda.

Fiqh ilmining rivojida Buxoroning o‘z o‘rni mavjud bo‘lganp bu erda yashab ijod etgan faqihlar misolida isbotini topadi. Jumladan, Alouddin Buxoriy, Mahbubiy Buxoriy, Ubaydulloh Mahbubiy, Shamsiddin Buxoriy va boshqa qator faqihlar Movarounnahr fiqh ilmining darg‘alari sifatida e’tiborga molik yozma meros qoldirib ketdilar. Alouddin Buxoriyning bizgacha etib kelgan “Hayratu-l-fuqaho” (Faqihlar hayrati) nomli asari Movarounnahr islom fiqhshunosligida mashhur hisoblanadi.



**Chashmai Ayub yodgorligi**

Amir Temur Buxorodagi Chashmai Ayub, Sayfiddin Boharziy, Bayonqulixon maqbaralarini ta’irlashga mablag‘ ajratgan. Sohibqiron farmoyishi bilan 1379-yili Chashmayi Ayub maqbarasi ustida katta gumbaz qurilgan. Maqbaraning o‘zi kvadrat tarzida 4,5x4,5 m go‘rxona bo‘lib, XII asrda ikki eshigi bo‘lgan. Go‘rxona


devorida uning Amir Temur farmoyishi bilan 1379 yilda qurilganligi haqida yozuv bor. XV-XVI asrda go'rxonaga taqab gumbazli zal, burchaklarida minorali dahliz bino etiladi. Natijada yodgorlik kengayib maqbaraning qadimgi qismi 16x26m tarxlik binoning ichida qoladi. Inshootning to'rt qismi bir-biriga o'xshamaydigan gumbazlar bilan qoplanadi.

Shu bilan birga, Amir Temur davrida Buxorodagi eng katta masjidlardan biri Namozgohda mehrob devoriga yangicha zeb beriladi. Minorai Kalon yonida katta masjid qurish bilan bog'liq tayyorgarlik ishlari olib boriladi.


Shohruhning Movarounnahrda vakili hisoblangan Mirzo Ulug'bek davrida Buxoroda keng ko'lamli qurilish ishlari olib borilgan. Uning homiyligi va ko'rsatmasi bilan Buxoro, Samarqand hamda G'ijduvonda talabalar uchun madrasalar barpo etiladi. Ular orasida eng qadimgisi 1417-yili Buxoro shahrida qurilgan madrasadir. Madrasa bosh tarzida mahobatli peshtoq, ikki qanotida ikki qavatli hujralar va burchaklarida guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Madrasaning asosiy bezagi peshtoqida bo'lib, unda sirkor g'ishtchalardan tashqari rang-barang gulli parchin va koshindan foydalanilgan. Ravoqli peshtoqdan miyon-saroy orqali hovliga o'giladi. Miyonsaroy ichki gumbazi o'n ikki qirrali, g'ishtdan to'rsimon shakl qilinib, oralariga ko'k va havo rang koshin terilgan. Hovli (26x25 m) atrofida ikki qavatli hujralar qatori va peshtoqli ikki ayvon egallagan. Madrasa 53x41,6 m o'lchamga ega, hujralari mo'jaz, o'zaro mutanosib, ichki va tashqi tuzilishi o'ziga xos. Hovlining shimoliy va janubiy tomonlari qisqaroq ko'rinishga ega bo'lib, devorlari, ravoq va peshtoqlari oq, feruza va binafsha rang sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Hujralar ichi ganch suvoqli. Masjid (15,5x5,5 m) va darsxona (5,5x5,5 m) gumbazli, Miyonsaroyning ikki yon tomonida joylashgan. Miyonsaroyning ikkinchi qavatida kutubxona joylashgan.

1586-yil Xo'ja Sa'd Jo'yboriy tomonidan madrasaning tashqi peshtog'i va yonlaridagi hujralar ta'mir etilib, peshtoq bezagida mayda yozuvli va naqshli koshin ishlatilgan. Hovli g'arbidagi hujra tepasida ganchkori bezaklar orasida ta'mirlovchi usta Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniy nomi saqlangan. Abdurazzoq Samarqandiyning xabar qilishicha, Ulug'bek 1419-yilning 28 noyabrida madrasaga kelib ilm oluvchi talabalarga in'omlar ulashgan. Madrasa eshigining peshtog'ida arab tilida «Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol

uchun farzdir», degan ibora o‘yib yozilgan. Madrasa XX asrda bir necha marotaba ta‘mirlangan. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi 1417-1420-yillar davomida qurilgan. Madrasa ikki qavatli, to‘g‘ri to‘rtburchak tarxli (56x81m). Tashqi to‘rt burchagida to‘rtta baland minora bor.



**Ulug‘bek madrasasi**



**G‘ijduvondagi Ulug‘bek madrasasi**

G'ijduvonda 1433-yil qurilgan Mirzo Ulug'bek madrasasi bu hukmdorning Samarqand va Buxoroda qurdirgan madrasalari ichida eng kichik va soddarog'i hisoblanadi. Madrasa bir qavatli, murabba tarxli (33x30m), masjid, darsxona va yotoqxonadan iborat. Peshtog'i chuqur ravoqli. O'rtada miyonsaroy, ikki yonida masjid va darsxona (8x4,6 m), burchaklarida guldasta joylashgan. Miyonsaroy to'ridagi eshikdan hovliga chiqiladi. Hovli (15x13m)ning 2 yonida 5 ta hujra bo'lib, uning to'rttasi murabba tarhli, tomi qubbali.

Bizgacha madrasaning bosh tarzi, unga tutashgan ayvon va minora saqlangan XIV asr oxiri - XV asr boshlarida Buxoroda Xo'ja Ismat al-Buxoriy, Nosir Buxoriy, Burundiq Buxoriy, Tohir Buxoriy, Hayoliy Buxoriy, Muhammad al-Buxoriy, Muhammad Porso kabi allomalar yashab ijod etganlar. Amir Temur o'z saroyining kutubxonasiga dorug'a sifatida kitobdor Mavlono Orif Buxoriyni tayinlagan.

Temuriylar davri Buxoro adabiy muhitida etakchi mavqeda turgan Xoja Ismatullo Buxoriyning (1365-1436) adabiy merosi va shaxsiyati o'z davrida Alisher Navoiyning e'tiborini tortgan edi. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»da yozishicha, «Xo'ja Ismatullo Movarounnahr buzurgzodalaridandir. Zohir ilmini takmil qilg'ondur. G'oyat xush-ta'bligidin o'zin she'rg'a mansub qilib, devoni mashhur bo'ldi». Ismatullo turk, fors va arab tillarida ijod etgan, Buxoro adabiy muhitida zul-lisonayn, ya'ni ikki tillilik (forsiy, turkiy) an'anasini boshlab bergan shoirlardan. Uning sakkiz ming baytli bir devoni va turkiy tilda yozilgan «Ibrohim Adham» nomli 1035 baytli asari bizgacha etib kelgan.

U ko'proq she'riyatning g'azal, qasida, masnaviy, ruboiy janrlarida asarlar yaratgan. Ismatullo Buxoriyning she'rlari ravonligi, ta'sirchanligi, falsafiy fikrlarga va original tasviriy vositalarga boyligi bilan Movarounnahrda shuhrat qozongan. Shoirning devoni 19 qo'lyozma nusxada Toshkent, Buxoro, Dushanbe, Sankt-Peterburg, Filadelfiya (AQSh), London va Kalkutta (Hindiston) kutubxonalarida saqlanadi.

Burundiq Buxoriy hayotiga oid ma'lumotlar kam uchrasa-da, adabiy merosini tarannum etuvchi she'rlari bizgacha etib kelgan. U temuriy Husayn Boyqaro xizmatida bo'lgan. Husayn Boyqaro Balxda taxtga o'tirganda shoir saroyga chaqirilgan va u hukumdorga atab

noma yozgan<sup>1</sup>. Burundiq Buxoriyning Xo‘ja Ismatullo Buxoriyga atab bir bayti saqlanib qolgan:

***Garchi Buxoroda oshdi xoja Ismat shuhrati***  
***Sozki, Xurosonda yo‘qdir xoja Ismat ismati***

Mazkur bayt mazmuni: Xuroson va Buxoroda Xo‘ja Ismatdek halol, pok, ma’lum va mashhur inson yo‘qdir.

XIV asrda ijod etgan shoirlar orasida Nosir Buxoriy ham o‘z o‘rniga ega edi. U qasida, tarjiband, masnaviy, g‘azal, qita va muxammas janrida ijod etgan. Fozil va darvesh tabiatli bo‘lgan. Hamisha darvesh libosida sayohat qilib, namatdan tikilgan qabo, taqiya, bo‘z cho‘pon kiyib yurgan.

Davlatshoh Samarqandiy o‘zining “Tazkirat ush-shuaro” (Shoirlar bo‘stoni) asarida buxorolik shoir-Tohir Buxoriy xususida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Ismi shahzoda Tohir. Xushfe’l odam bo‘lib, Sulton (Abulqosim) Bobur davrida poytaxt Hirotga kelib qolgan va poytaxt fozillari bilan yaqin aloqada bo‘lgan. ... Poytaxt Hirotga boshqa she’laridan ko‘ra, g‘azallari qo‘proq shuhrat topgan”.

Movarounnahrda keng tarqalgan tariqatlar ichida Naqshbandiya tariqati ham Amir Temur e’tiboridan chetda qolmagan. Bunyodkorlik sohasiga katta e’tibor bergan Amir Temur o‘z faoliyatini Naqshbandiya tariqatining osoyishtalik va farovonlik hamda obodonchilik g‘oyalari bilan omuxtalashtira olgan.

Tariqat asoschisi Bahouddin Naqshband (1318-1389) hayot yo‘li va ta’limoti haqidagi asosiy manbalar jumlasiga Salohiddin ibn Muborakning “Anis ut-tolibin va uddat us-solikin”, Muxammad Boqirning “Maqomoti Hazrat Xoja Naqshband”, Muxammad Porsoning “Risolai qudsiya”, Ya’qub Charxiyning “Risolai unsiya” asarlari kiradi.

Bahouddin Naqshband xijriy 718-yilning muxarram oyida tavallud topgan. Bu sana milodiy 1318-yilning 5 martidan 3 aprelegacha bo‘lgan vaqtga to‘g‘ri keladi. Bu komil inson tug‘ilgan makon Buxoro shahriga yaqin Qasri Hinduvon qishlog‘i bo‘lib, hozirgi kunda Buxoro viloyati Kogon tumanida joylashgan. Bu manzil

---

<sup>1</sup> Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро (Шоирлар бўстони) / Форс-тожик тилидан Б. Ахмедов таржимаси.–Тошкент: Ғафур Ғулوم номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. 224б.

Bahouddin Naqshband tug‘ilgandan keyin uning sharafiga Qasri Orifon deb atala boshlagan va hozirgi kungacha shu nom bilan ma’lum va mashhurdir.



**Bahouddin Naqshband ziyoratgohi**

Bahouddin Naqshbandning asl ismi Muxammad Bahouddin. Bu nom u kishi erishgan maqom, darajani tavsiflab va ylyg‘lab berilgan. “Baho” arab tilidan olingan bo‘lib, “husn”, “jamol”, “go‘zallik”, “ravshanlik” ma’nolarini anglatadi. “Bahouddin” dinning xusni, jamoli, go‘zalligi, ravshanligi demakdir. Muhammad ibn Muxammad al-Buxoriy shunday kamolot darajasiga etganlarkim, u kishiga nazar qilib islom dinimizning qadr-qiyamatini, husni-jamoliyu, go‘zalligini, dillarni ravshan etuvchi nuru tarovatini ko‘rish mumkin bo‘lgan.

Shoh Naqshband naqsh bog‘lovchilarning shohi degan ulug‘ nom otasi bilan kimxob matosiga naqsh bog‘lash kasbi bilan mashg‘ul bo‘lganligini bildirsa-da, aslida Bahouddin Naqqoshi Azal - Allohni qalbida mukammal naqshlagan va mudom uning zikri, fikri, shukri bilan mashg‘ul bo‘lgani va ta’limotlari, nazarlari, ibratlari orqali insonlar qalbida ham Alloh, naqshini naqshlay olganini anglatadi. Bahouddin Naqshband “Naqshni qalbgaga bog‘la”, deb ta’lim bergan.

Bahouddin Naqshbandning otasi Sayyid Muhammad Buxoriy ibn Sayyid Jaloliddin bo‘lib, kimxob to‘quvchi hunarmand bo‘lgan. Onasi Bibi Orifa Xojai Xizr avlodidan bo‘lgan. Bahouddin Naqshband 1336-yilning kuz faslida Buxoroda Xalil ota bilan uchrashib u kishiga murid bo‘ladi va 12 yil u kishidan ta‘lim va tarbiya oladi va xizmatida bo‘ladi.

Bahouddin Naqshband yigirma to‘qqiz yoshidan Buxoroga yaqin Revartun qishlog‘ida yashay boshlaydi va butun umrini darveshlikka bag‘ishlaydi. 1347-yildan 1354-yilgacha Sayyid Mir Kuloldan ilm oladi. 1354-yildan 1360-yilgacha Orif Deggaroniy xizmatida bo‘ladi va Qusam Shayxdan ilm olib, 1361-yildan o‘zi mustaqil faoliyat yurita boshlaydi. 1370-yil Amir Kulol vafotidan keyin Bahouddin Naqshband Naqshbandiya tariqatini tashkil etadi<sup>1</sup>. Buxoroda tashkil topgan bu tariqat keyinchalik boshqa hududlarga keng tarqaldi. Bahouddin Naqshband ikki bor hajga borgan va ikkinchi bor borganda hirotlik shayx, Amir Temurning ma‘naviy ustozlaridan biri Zayniddin Toyibodiy bilan uchrashadi.

Xojagon-Naqshbandiya ta‘limoti asosida 11 tamoyil, ya‘ni qoida yotadi. Xojagon tariqatidagi sakkiz tamoyilga yana uch tamoyil qo‘shib Bahouddin Naqshband insonlarni g‘aflatdan uyg‘otib, Haq yo‘liga kiritishning yangi uslubini kashf etdi. Bahouddin Naqshband insoniyat kamoloti uchun zarur deb hisoblagan va o‘zi kiritgan yangi uch tamoyil quyidagilar: “Vuqufi zamoniyy”- zamondan ogoh bo‘lish, “Vuqufi adadiyy” - adad, sondan ogoh bo‘lish, ya‘ni zikr payti sanoqqa rioya qilish (yoki ko‘plik orasida birni - kasrat ichida axadni- ko‘ra olish), “vukufi qalbiyy” - qalbdan ogoh bo‘lish, ya‘ni inson qalbiga tavajjuh qilib, yuzlanib, qalbi esa Allohdan keladigan fayzga intizor bo‘lib, uni qabul etish va mushohada qilish. Bahouddin Naqshband vaqt, son, qalb xaqidagi tasavvufiy ta‘limotlarni boyitib, ularning yangi qirralarini kashf etdi va birinchi bo‘lib inson kamoloti uchun asosiy amaliyot sifatida kiritdi.

Bahouddin Naqshband asos solgan Naqshbandiya ta‘limoti jahonshumul ahamiyatga ega. Bu ta‘limotni Alouddin Attor, Muhammad Porso, Alouddin Fijdyvoniy, Ya‘qyb Charxiy takomillashtirdilar, Xoja Ahror Valiy uni jahonshumul ta‘limotga

---

<sup>1</sup>Наврўзова Г., Зоиров Э. Бухорои шарифнинг етти пири. –Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2018. –Б.71

aylantirdi va bu tariqat naqshbandiya- mujaddidiya, naqshbandiya-xolidiya nomlari bilan keng tarqaldi<sup>1</sup>.

*Xoja Alouddin Attor* – Bahouddin Naqshbandning sodiq muridi, kuyovi va xalifasi. Buxoroda o‘ziga to‘q oilada tavallud topgan. Ta’limni Buxoro madrasalaridan birida olgan. Bu shaxs Bahouddin Naqshband hazratlarining suhbatlarini tashkil etish, so‘zlarini jamlash, farmonlarini bajarish, sayyohatlarini idora etib, muridlarni boshqarishda yuksak qobiliyat sohibi edi. Bahouddin Naqshband hayotlik vaqtlaridayoq barcha tolib va muridlarining ta’lim-tarbiyasini Alouddin Attorga topshirganlar.

Alouddin Attor vafotidan oldin xalifasi (shogirdi) Ya’qub Charxiyga yaqindagilarni suhbat bilan, uzoqdagilarni esa kitob vositasida tarbiyalash lozimligini vasiyat qilib topshiradi<sup>2</sup>.

Alouddin Attor Hasan Attor (o‘g‘li), Nizomiddin Xomush, Ya’qub Charxiy, Xusomiddin Porso Balxiy, Mavlono Abu Said, Abdulloh Imomiy Isfahoniy, Shayx Umar Moturudiy, Mavlono Ahmad Maska, Sayyid Sharif Jurjoniy kabi shogirdlarni etishtirganlar.

Bahouddin Naqshbandning ma’rifatga oid so‘zlari Muhammad Porsoning “Risolai qudsiya” va Ya’qub Charxiyning “Risolai unsiya” asarlarida saqlangan. Bahouddin Naqshbandning ma’rifatga oid kalomlarining mohiyatini anglash ancha qiyin bo‘lganligi uchun Muhammad Porso “Risolai kudsiya” asarida ularni sharxlagan. Bahouddin Naqshbanddan nasriy va nazmiy ko‘rinishdagi o‘gitlar saqlangan.

*Yaqub Charxiy* - Naqshbandiya so‘fiylik tariqatining vakillaridan. G‘azna (Afgoniston)ning Charx qishlog‘ida tug‘ilgan. Keyinchalik Badaxshonga, u erdan esa Buxoroga kelib, Bahouddin Naqshbandning shogirdi Alouddin Attordan tariqat ta’limotini o‘rganadi va o‘z davrining eng obro‘li shayxlaridan biriga aylanadi.

*Xoja Muxammad Porso* (1345-1419) ham Nakshbandiya tariqati namoyandasi. Buxorodagi madrasalarda tahsil olgan. Kur’on, hadis va kalom ilmini chuqur o‘rgangan. Bahouddin Nakshband uni shogirdlikka qabul qiladi va «porso» (taqvodor, dindor) taxallusini beradi. Bahouddin Naqshband vafotidan so‘ng uning o‘rniga tariqatga

---

<sup>1</sup>Наврўзова Г., Зоиров Э. Бухорои шарифнинг етти пири. –Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2018. –Б.67-78.(806)

<sup>2</sup> Ходжа Абдухолик Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. -Б.60-64.



rahbarlik qiladi. Xoja Muhammad Porso Movarounnahr hukmdori Xalil Sulton bilan muloqotda bo'ladi, Shohrux bilan esa turli masalalar bo'yicha yozishmalar olib boradi. Ulug'bek saroyida, shuningdek, Samarqand va Buxoroda bo'lib o'tadigan ilmiy munozaralarda qatnashib turgan. Tasavvuf va islom tarixiga oid «Risolai qudsiya» (Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari haqidagi risola), «E'tiqod» (E'tiqod haqida risola), «Tahqiqot» (Tasavvuf istilohlari bo'yicha risola), «Tafsiri Qur'on» (Qur'on tafsiri), «Risolai kalifiya» (Karomatlar haqida risola), «Muxtasari tarixi Makka» (Makka shahrining qiskacha tarixi), «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» (Xoja Bahouddin Naqshband maqomoti), «Xaftodu du firqa» (Etmish ikki firqa) kabi 20 dan ortiq asar yozgan. Shariat va tariqat masalalariga bag'ishlangan va unga katta shuhrat keltirgan asari «Fasl ul xitob bivusulil ahbob» (Do'stlar visoliga etishda oq ila qorani ajratuvchi kitob) bo'lib, u o'rta asrlarda islom ulamolari uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. Asar 494-ta masalaga bag'ishlangan bo'lib, ularning xammasi islomda bahsli xisoblangan va muallif turli asarlarga suyangan xolda bu masalalarni echib bergan. Asar bir necha marta chop etilgan.

XIII-XV asrlarda yuz bergan murakkab siyosiy vaziyatga qaramasdan, Buxoro madaniy hayoti o'z hududiy doirasida davom etaverdi. Adabiy jarayonlar bilan bir qatorda, ma'naviy ehtiyojga xizmat qiluvchi Xojagon-Naqshbandiya tariqatining vujudga kelishi va qator tasavvuf allomalarining etishib chiqishi shu davrning mahsuli va buyuk ne'mati hisoblanadi.

**Tayanch so'z va iboralar:** mo'g'ullar istilosi, elchi, siyosiy vaziyat, mo'g'ul xoni, muqaddas narsalar, mo'g'ullar qo'shini, qal'a darvozalari, temuriylar davlati, ruhoniy, dunyoviy hokimiyat, masjid, xonaqoh, tariqat, naqshbandiylik, adabiy muhit.

#### *Nazorat uchun savollar*

1. Mo'g'ullarning Buxoroni egallashga qaratilgan harbiy harakatlari to'g'risida ma'lumot bering.
2. Mahmud Torobiy qo'zg'olonining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati nimalardan iborat?
3. Amir Temurning Buxorodagi bunyodroklik faoliyatiga misollar keltiring.

4. Sayfiddin Boharziyning Buxoro madaniy hayotidagi o‘rni xususida ma’lumot bering.
5. Bahouddin Naqshbandning O‘rta Osiyo tasavvuf tariqatiga qo‘shgan hissasi to‘g‘risida ma’lumot bering.

### *Test topshiriqlari*

- |   |  |
|---|--|
| <p><b>1.</b>“Risolai qudsiya” kitobining muallifi kim?</p> <p><b>a. Muhammad Porso</b></p> <p>b. Ya‘qub Charxiy</p> <p>s. Salohiddin ibn Muborak</p> <p>d. Muhammad Boqir</p> <p><b>2.</b> Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asaridagi quyidagi jumlar qaysi shoirga nisbatan qo‘llanilgan: “Ismi shahzoda Tohiridir. Xushfe‘l odam bo‘lib, Sulton (Abulqosim) Bobur... davrida poytaxt Hirotga kelib qolgan va poytaxt fozillari bilan yaqin aloqada ekan. ... Poytaxt Hirot boshqa she‘laridan ko‘ra, g‘azallari qo‘proq shuhrat topgan”.</p> <p>a Xo‘ja Ismatullo Buxoriy</p> <p><b>b Tohir Buxoriy</b></p> <p>s Burunduq Buxoriy</p> | <p>d Sayyid Mir Kulol</p> <p><b>3.</b>Ulug Munkaxonning onasi tomonidan qurdirilgan madrasani aniqlang.</p> <p>a. Modarixon</p> <p><b>b.Xoniya madrasasi</b></p> <p>s.Mas‘udiy madrasasi</p> <p>d.Xoja Bulgoriy</p> <p><b>4.</b>«Ibrohim Adham» nomli 1035 baytli asar muallifini aniqlang.</p> <p>a. Burunduq Buxoriy</p> <p>b. Tohir Buxoriy</p> <p><b>s. Xo‘ja Ismatullo Buxoriy</b></p> <p>d. Sayyid Mir Kulol</p> <p><b>5.</b> Buxorodagi Mirzo Ulug‘bek madrasasining bunyod etilgan yilini aniqlang.</p> <p>a. 1433 yil</p> <p>b. 1420 yil</p> <p><b>s. 1417 yil</b></p> <p>d. 1418 yil</p> |
|---|--|

### **Seminar mashg‘uloti mavzulari:**

1. Buxoro vohasining o‘rganilish tarixi
2. Buxoro shahrining paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi
3. Buxoro o‘rta asr shaharsozligi madaniyati namunasi
4. IX-XIV asrlarda Buxoro
5. Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro

## **2-MODUL. XVI-XXI ASRLARDA BUXORO**

### **7-MAVZU: SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORO**

- 7.1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi va Buxoroni poytaxtga aylantirilishi**
- 7.2. Abdullaxon tashqi siyosatida Xo‘ja Islom Jo‘yboriyning o‘rni**
- 7.3. Shayboniylar davrida Buxoroda adabiyot, san‘at va me‘morchilik**

#### **7.1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi va Buxoroni poytaxtga aylantirilishi**

XV asrning 90-yillarida Movarounnahrda temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan viloyatlarga aylanib qolgan edi. Kichik bir viloyatda hokimlik qilayotgan temuriy shahzodalarning har biri poytaxt Samarqandni egallash, bobokalonlari o‘tirgan taxtga chiqib, butun mamlakatga yagona hukmdor bo‘lish orzusida edilar. Bu niyatga etish uchun ular o‘rtasida o‘zaro ichki nizo avj olib ketgan bo‘lib, mamlakat aholisining ham temuriylardan noroziligi kuchayib borayotgan bir davr edi.

Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzoning 1494-yilda vafot etishi, bu holatni yanada keskinlashtirdi, mamlakatda boshboshdoqlik, ko‘p hokimiyatchilik vujudga keldi. Bu vaziyatdan temuriylarning shimoldagi qo‘shnisi, Dashti Qipchoqda o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgan Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) foydalanib qolish uchun 1497-yilda Movarounnahrni egallash uchun birinchi marta qurol bilan bostirib kirdi.

Tarixga e‘tibor qaratsak, Shayboniylar asli XI asrdan boshlab Balxash ko‘li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo‘lgan hududlarda qipchoq va boshqa turkiy qabilalarning hukmronlik qilgan. Botuxon 1236-yilda asos solgan Oltin O‘rda davlati XIV asr boshlarida ikki qismga ajralib ketgan bo‘lib, uning sharqiy qismida ayrim tarixiy manbalarda “O‘zbeklar mamlakati” deb yuritilgan Oq O‘rda davlati tashkil topdi. Bu hududda Jo‘jixonning beshinchi o‘g‘li Shaybon urug‘idan bo‘lgan Abulxayrxon (1412-1468 yy.) 1428-yilda mustaqil davlatga asos soldi. Lekin urug‘ boshliqlarining mustaqil hukmronlikka intilishlari va 1468-yilda

Abulxayrxon vafoti bu davlatning inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. XV asrning 80-yillariga kelib, Abulxayrxonning nabirasi, Budoq Sultonning o'g'li Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon bobosining davlatini qayta tiklab, Shayboniylar sulolasiga asos soldi.

Buxoro xonligiga Shayboniylar sulolasi asos soğan va Buxoroni 1500-1601-yillar davomida boshqargan. Bu sulolaga Muhammad Shayboniyxon asos solgan bo'lib, XV-asr oxiri va XVI-asr boshlarida toju-taxt uchun o'zaro kurashayotgan temuriy shahzodalarning o'zaro nizolari oqibatida Movarounnahrning asosiy shaharlari: Samarqand va Buxoroni osonlik bilan egallab, yangi davlatga asos soldi. Keyinchalik Movarounnahrning qolgan hududi va Xuroson ham bu davlat tarkibiga kiritildi. Ismoil I Safaviy bilan bo'lgan jangda Shayboniyxon o'ldirilgach, 1510-yil Ubaydullaxon dushmanga qarshi kurashga otladi. 1511-yilda bo'lgan jangda engilgan Ubaydullaxon va Ko'chkunchixon, Samarkand hokimi Suyunchxo'jaxon, shuningdek, Muhammad Temur Sulon va Jonibek Sulon o'z yaqinlari bilan Turkiston shahriga chekinadilar. 1512-yil 28 aprelda Ko'li Malik jangida Ubaydullaxon g'alaba qozonib, Buxoro va Samarqandni egallaydi. 1512-yil bahorida Ubaydullaxonning shijoati natijasida Movarounnahr yana Shayboniylar qo'liga o'tdi. Biroq Ismoil I yuborgan Najmi Soniy boshchiligidagi 60 ming kishilik safaviylar qo'shiniga suyangan Bobur 1512- yil kuzida G'uzor va Qarshini egallaydi. Najmi Soniy qo'shini G'ijduvoni qamal qilishga kirishdi. Ubaydullaxon va Jonibek Sulon Karmanaga, Kuchkunchixon va Temur Sulon Miyonqolga chekinib, hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rishadi. 1512-yil 24 noyabrdagi G'ijduvon jangida Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin g'alaba qozonadi<sup>1</sup>. 1513-yil yanvarda Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin Xurosonga harbiy yurishlar qilib, safaviylarga kuchli zarbalar berdi. 1513-yil 11 martda Ubaydullaxon Marvni egallaydi. Bu orada Ubaydullaxon Xorazmni ham egallab, o'g'li Abdulazizxonni hokim qilib tayinlaydi. Uzoq davom etgan harbiy to'qnashuvlardan so'ng Mashhad, Hirot va boshqa shaharlar egallandi. Ubaydullaxon Hirotidagi murakkab vaziyatni tartibga solish(bu erda shialarning ta'siri kuchayib ketgan edi) va uning Buxoro bilan aloqalarini mustahkamlashga katta e'tibor

---

<sup>1</sup> Хофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома. биринчи китоб /форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов. –Тошкент: Шарқ, 1999. –Б. 60-62.

qaratgan. Ko'chkunchixon vafot etgach, uning o'g'li Abu Saidxon (1530-1533) davrida ham Ubaydullaxon noiblik vazifasida qolgan. 1533-yilda Abu Saidxon vafotidan so'ng, turkiy an'anaga binoan sultonlar ichida eng yoshi ulug'i Ubaydullaxon Buxoroda Shayboniylar sulolasining xoni qilib ko'tariladi. Poytaxt ham Samarqanddan Buxoroga ko'chirilib, Buxoro xonligining tashkil topish jarayoni boshlandi. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqei kuchaydi.

Ubaydullaxondan so'ng 1539-yil hokimiyatga o'g'li Abdulazizxon taxtga chiqadi. Abdulazizxon ungacha 1538-1539-yillar oralig'ida Xorazmda hokimlik qiladi. Otasining vafotidan so'ng mamlakatda ikki hokimiyatchilik vujudga kelib, Abdulazizxon Buxoro xoni (1540-1550), Ko'chkunchixonning o'g'li Abdullatifxon esa Samarqand xoni (1540-1551) bo'lgan. Abdulazizxon o'z hukmronligi davrida davlat va aholi manfaatlarini ko'zlab qator islohotlar o'tkazdi, ayrim soliqlar, jumladan, tanob puli, tafovut, tavfiri va boshqalarni bekor qildi va Buxoro atrofini yangi mudofaa devori bilan o'rash olishga kirishdi (devor qulilishini keyinchalik Abdullaxon bitkazadi va u XX asr o'rtalarigacha saqlandi)<sup>1</sup>.

Abdullaxon Buxoro xonligida Shayboniylar sulolasidan chiqkan eng yirik hukmdor (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi.

Abdullaxon Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib boradi. Toshkent hokimi Navro'z Ahmadxon bilan Koson yonida 1548-yil va Mo'g'uliston xoni Abdurashidxon va Shayboniy Do'stum sulton qo'shiniga qarshi Forob yonida 1554-yil jang qiladi. Yosh Abdulla sulton o'zining hukmdor sifatidagi butun g'ayrat shijoatini 1551-yil Karmanada namoyish etdi. Shu yil bu viloyatga Toshkentdan Navro'z Ahmadxon va Samarqanddan Abdullatifxon hujum qilgan edi. Viloyat hukmdori Iskandar sulton Amudaryo ortiga qochadi. Abdulla sulton esa otasi vazifasini o'z zimmasiga olib, bu hujumni muvaffaqiyatli qaytaradi. 1552-1556-yillarda o'z mulkini g'arbga-Buxoro tomonga va janubi-sharqqa - Qarshi va Shahrizabz tomonga kengaytirishga

---

<sup>1</sup> Бухоро шарқ дурдонаси . /Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.53-55.

intiladi. Bu sa'y-harakat dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, hatto 1556-yili ota meros mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'lgan. U amakisi, Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Jo'ybor xojalaridan Xoja Muhammad Islom ko'magida Navro'z Ahmadxon, keyinchalik uning o'g'illari Darveshxon va Bobo sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib boradi. Navro'z Ahmadxon vafot etgach, 1556-yil darhol Karmana va Shahrisabzda o'z hukmronligini tiklaydi, 1557-yil may oyida Buxoroni qo'lga kiritadi va uni o'z poytaxtiga aylantiradi.

1561-yil otasi Iskandarxonni davlat boshlig'i, ya'ni xon deb e'lon qilib, uning nomidan mamlakatni boshqara boshlaydi<sup>1</sup>. Markaziy xokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortgan Shayboniy sultonlar bilan kurashib 1574-yil Balxni, 1578-yil Samarqandni, 1583-yil Toshkent, Sayram, Turkiston va Farg'onani egallaydi. 1582-yil Dashtga yurish qilib Ulug'tog'ga qadar boradi. 1583-yil otasi Iskandarxon vafot etgach, mamlakatni o'z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga qarshi 1583-yil Maymana va Garchistonda ko'tarilgan qo'zg'olonni va 1585-yilgi Badaxshon g'alayonini bostiradi. Xorazmga 1594 va 1596-yillarda yurish qilib, u erda markaziy hokimiyat hukmronligini qayta tiklaydi. Abdullaxon mamlakat hududi yaxlitligini tiklash yo'lida qo'shni xorijiy davlatlar bilan ham kurash olib boradi.

Abdullaxon hayotining so'nggi yillarida o'g'li Abdulmo'min bilan chiqishmay qoladi. Abdulmo'min 1582-yil kuzidan Balxni otasi nomidan boshqarayotgan edi. Iskandarxon davrida Abdullaxon II haqiqiy, amaldagi hukmdor bo'lgani kabi, Abdulmo'min ham keksaygan otasiga nisbatan shunday mavqeni egallamoqchi bo'ldi. Faqat ulamolarning aralashuvi tufayligina ota-bola o'rtasida ochiq urush harakatlari boshlanmagan va Abdulmo'min otasiga bo'yin egishga majbur bo'lgan. Ular o'rtasidagi munosabatlar keskinlashganidan xabar topgan qozoq xonlaridan Tavakkalxon Toshkent viloyati va Toshkent-Samarqand oralig'idagi erlarga bostirib kirib, unga qarshi yuborilgan qo'shinni engadi. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon Samarqandga etganda, vafot etadi. 1598-yil Abdullaxon vafotidan so'ng uning o'g'li Abdulmo'min taxtni uzoq boshqara olmadi. So'nggi Shayboniy hukmdori Pirmuhammad II

---

<sup>1</sup> Бухоро шарк дурдонаси. /Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарк, 1997. –Б.54.

(1599-1601) ham bebosh amirlarni tiyib qo‘ya olmadi. XVI asr oxiri XVII asr boshlaridagi murakkab qarama-qarshiliklar natijasida Shayboniylar hokimiyatdan ayrilishdi.

## **7.2. Abdullaxon tashqi siyosatida Xo‘ja Islom Jo‘yboriyning o‘rni**

Shayboniylar sulolasining yirik vakili Abdullaxon (1557-1598) Buxoroni egallash va butun Movarounnahrni uning atrofiga birlashtirishda buxorolik mashhur Jo‘ybor xo‘jalarining yirik vakillaridan biri Xo‘ja Islomning (1493-1563) diniy-ma‘naviy obro‘yidan foydalandi. Ular o‘rtasidagi munosabatlar bir jihatdan temuriylardan keyin Movarounnahrda yuz bergan qisqa markazlashuv jarayonining rivojiga va nisbiy barqarorlikning qaror topishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

1557-yili Burhon sulton qatlidan so‘ng Abdullaxon Xo‘ja Islom qo‘llab-quvvatlashi bilan ikkinchi bor Buxoroni egalladi.

Chorjo‘yning Abdullaxon tasarrufiga kirishiga ham Xo‘ja Islom yordam berdi. 1557-yil yozida Abdullaxon uzil-kesil Buxoroni egallagach, tasarruf qo‘lini boshqa viloyatlarga cho‘zib, birin-ketin ularni zabt eta boshladi. Abdullaxonga qadar Buxoroda hukmronlik qilgan Burhon sulton hali hayotlik vaqtida o‘z qaynotasi Sayyid Haydar Xo‘jani Chorjo‘y voliysi etib tayinlagan edi. O‘z navbatida Chorjo‘y voliysi Sayyid Haydar Xo‘ja kuyovi Burhon sultonga tobe ekanligini tan olardi. Burhon sulton qatl etilib, Buxoro Abdullaxon qo‘liga o‘tgach, Chorjo‘y voliysi Sayyid Haydar Xo‘ja qaysarlik tig‘ini ko‘tarib, Buxoro xoni Shayboniyzoda Abdullaxonga bo‘ysunmay qo‘ydi va o‘zini daxlsiz his eta boshladi. Viloyatlarni o‘z tasarruf halqasiga kiritmoqni maqsad qilgan Abdullaxonga esa Sayyid Haydar Xo‘janing bu o‘zboshimchaligi ma‘qul bo‘lmay, u tezda jang tadorigini ko‘ra boshladi va nukuz qabilasidan bo‘lgan Xushibiy darozga katta sovg‘alar berib, uni o‘z qo‘shinlari bilan Chorjo‘yni zabt etishga jo‘natdi. Abdullaxon tomonidan safarbar etilgan qo‘shin chorjo‘yliklar tomonidan mag‘lubiyatga uchratilib, Xushibiyning o‘zi asirga olindi. Bu orada Burhon sulton qatlidan so‘ng Balxga qochib ketib jon saqlagan Burhon sultonning sadoqatli sarkardalari bo‘lmish Rajabbiy, Imomquli, Muhammadrizo Chorjo‘yga otlanib, Sayyid Haydar Xo‘jaga yordamga shoshildilar. Ular Amudaryodan o‘tib,

Qorako‘lga tobe sanalgan Yoychi mavzeida to‘xtashdi. Buxoroliklar uchun ancha noqulayliklar tug‘dirgan bu yangi muxolif qo‘shinlarini parokanda qilish uchun Buxoro xoni Abdullaxon amir Jonalibiy va Jonpulodbiy boshchiligida navbatdagi qo‘shinni yubordi. Lekin bularga ham zafar yor bo‘lmay, orqaga qaytishga majbur bo‘lishdi. Marhum Burhon sultonning nomlari zikr etilgan sarkardalari esa Chorjo‘yga, voliy Sayyid Haydar Xo‘ja huzuriga yo‘l olishdi. Abdullaxon qo‘shinlariga qarshi kurashda ko‘rsatgan himmatlari uchun voliy ularga behad ehtirom ko‘rsatdi.

Ko‘p o‘tmay Chorjo‘y voliysi Sayyid Haydar Xo‘ja olamdan o‘tdi va o‘rniga, «Ravzat ar-rizvon» muallifi Badriddin Kashmiriyning ta‘kidlashicha, uning xotini (nomi ko‘rsatilmagan) Chorjo‘y taxtiga o‘tirdi. Bu ayol ham marhum eri singari sarkashlik yo‘liga kirib, Abdullaxon hokimiyatini tan olmadi. Hosil al-kalom, Abdullaxon Chorjo‘yni yaxlit qo‘lga kiritishni ko‘zlab navbatdagi hujumni boshladi hamda shahar qal‘asini qamal etdi. Abdullaxon qo‘shinida mashhur Xo‘ja Islomning farzandi Xo‘ja Sa‘d (1531-1589) ham bor edi. Har holda bu xo‘jazoda Abdullaxon qo‘shinida sipoh vazifasida emas (sipohiylik bu xonadon vakillari uchun istisno edi) balki ma‘naviy rahnamo, duogo‘y sifatida ishtirok etganligi shubhadan xoli.

Shahar qal‘asini mustahkam istehkomga aylantirgan chorjo‘yliklar Xo‘ja Sa‘dning Abdullaxon qo‘shini tarkibida ekanligidan voqif bo‘lib, uni qal‘aga taklif qildilar va ikki o‘rtada sulh tuzishga vositachilik qilishga, shu tariqa qon to‘kilishini oldini olishga ko‘maklashishga da‘vat etdilar. Sulhga erishilgan taqdirda, Chorjo‘y qal‘asini Abdullaxonga jangsiz topshirishni va‘da qildilar. Bu bir hiyla ekanligi voqealar rivojidan ma‘lum bo‘ladi. Buxoro hukmdori Abdullaxon bu taklifni eishtib uni qabul qildi. Xo‘ja Sa‘dni muzokara olib borish uchun Chorjo‘y qal‘asiga yubordi. Xo‘jazoda qal‘aga kiringach, uning darvozasi taqa-tuq berkitilib, shahar hokimasi, ya‘ni marhum Sayyid Haydar Xo‘janing bevasi Xo‘ja Sa‘d bilan sulh to‘g‘risida muzokara olib borish u yoqda tursin, hatto suhbat qurishni ham xayoliga keltirmay, unga ko‘z-quloq bo‘lib turish uchun bir necha mulozimlarni tayinladi va ularga Xo‘ja Sa‘dni qal‘adan tashqariga chiqarmaslikni buyurdi. Xullas, Xo‘ja Sa‘d garovga olingan edi.

Bu noxush xabar Buxoroga etib kelgach, xo‘jazodaning otasi Xo‘ja Islom farzandi taqdiri uchun juda tashvishga tushdi. Xo‘ja



Sa'dga ko'z-quloq bo'lib turish uchun tayinlangan mulozimlar orasida marhum Sayyid Haydar Xo'janing Mavlono Boboquli devon ismli bir xizmatkori bo'lib, unda Hazrat Xo'ja Sa'dga nisbatan ixlos va xayrixohlik tuyg'usi paydo bo'ldi va Xo'ja Sa'dning Chorjo'y qal'asidan chiqib ketishiga yordamlashdi. U Xo'ja Sa'dni chopqir otga o'tkizib, qal'a devor va burjlari mustahkamligini birga tekshirib ko'rish bahonasida qal'a darvozasi oldiga olib keldi. So'ngra ikkovlari birin-ketin darvozadan chiqishdi va Jayxun daryosidan o'tib, Burdaliq yo'li orqali sog'-salomat Buxoroga etib kelishdi. Mavlono Boboquli devon bu xizmati uchun Xo'ja Islomning moddiy va ma'naviy marhamatlariga sazovor bo'ldi.

Shu voqea sabab, Abdullaxon Chorjo'y qal'asi qamalini to'xtatdi. SHu kunlarda Chorjo'yda g'aroyib voqealar sodir bo'ldi. Shaharda o'n to'rt yoshli xushsurat bir yigitcha paydo bo'lib qoldi. Bu o'smir ilgari Marvda kosiblar orasida yurardi. Eng qizig'i, uni marhum Burhon sultonning inisi deb qabul qildilar, chunki Burhon sulton ham bolalik yillarida bir zargarga shogird bo'lib, zargarlar orasida yurgan. O'smirni Chorjo'yda yurganligidan xabar topgan hokima, ya'ni marhum Sayyid Haydar Xo'janing bevasi, uni toptirib saroyga keltirdi va taxtga o'tkizdi. Bu bilan ham cheklanmay, unga turmushga chiqib ham oldi. Er-xotinning fisqu fujurlari haddan oshgach, marhum Sayyid Haydar Xo'ja amirlari o'zaro kelishib yangi hokimga qarshi isyon ko'tardilar va tunda uni Chorjo'y qal'asi devoridan pastga tashlab yubordilar. Zaifani esa shahardan badarg'a qilib, Balxga jo'natdilar.

Shu voqeadan so'ng, Mavr hokimi Poyanda Muhammad sultonning mulozimi Oroh Xo'ja Marvdan Chorjo'yga kelib, Poyanda Muhammad sultonning noibi sifatida shaharni boshqara boshladi, ya'ni Chorjo'y Poyanda Muhammad sulton hukmiga bo'ysuna boshladi.

«Ma'noqibi sa'diya»da ko'rsatilishicha, Abdullaxon Marv hokimi Poyanda Muhammad sultonga bir necha bor kishi yuborib Chorjo'yni talab etgan bo'lsa ham, ish uning xohishicha yakun topmadi. Bu ishga Xo'ja Islomning aralashuvi zarur bo'ldi. Xo'ja Islom Abdullaxonga qarata: «Biz kishi uzatamiz va Chorjo'yni undan olamiz» dedi. Va'daga muvofiq, Xo'ja Islom o'z muridi Mavlono Husayniy orqali Marvga, Poyanda Muhammad sultonga maktub yo'llab, undan Chorjo'yni Abdullaxonga topshirishni talab etdi.

Poyanda Muhammad sulton Xo‘ja Islomning sodiq muxlislaridan bo‘lganligi bois uning maktubida qayd etilgan talabni qabul etishga majbur bo‘ldi va nochor Chorjo‘y qal‘asi kalitini Mavlono Husayniy orqali Buxoroga uzatdi.

Bu voqealarning qisqacha tafsiloti Poyanda Muhammad sultonning ukasi Abulmuhammadxonning Xo‘ja Islomga yozgan maktubida ham qayd etilgan.

Xullas, 1558-yil Chorjo‘y Xo‘ja Islom sa‘y-harakatalari bilan jangsiz va qonsiz Abdullaxon qo‘l ostiga o‘tib, Buxoroga tobe bo‘lib qoldi. Oroh xo‘ja esa Buxoro xoni Abdullaxonning Chorjo‘ydagi noibi sifatida o‘z o‘rnida qoldirildi.

### **7.3. Shayboniylar davrida Buxoroda adabiyot, san‘at va me‘morchilik**

Shayboniylar davrida mamlakat poytaxti maqomini olgan Buxoro adabiyot, san‘at, me‘morchilikning badiiy yuksak namunalari o‘zida mujassam qilgan shaharga aylandi. Hasanxo‘ja Eisoriy, Shayx Jalol, Mushfiqiy, Mavlono Qabuliy Buxoriy, Devona Husomiy, Mavlono Kasiriy Buxoriy va boshqa qator shoirlarning ijodi shu davrda badiiy yuksaklikka erishdi. E‘tibolrlisi shundaki, bu davrda ijod qilgan shaxslarda shayxlik xislatlari va qozilik amallari bilan birga nazmga rag‘bat va oshuftalik kuchli edi. Natijada ular tomonidan ko‘plab she‘riy misralar, g‘azallar yozilib, Buxoro adabiy muhitining jozibador namunasi sifatida bizgacha etib keldi. Ularning ayrimlari to‘g‘risidagi quyidagi ma‘lumotlar diqqatga sazovor.

Fatxullaxo‘ja qozi she‘riyatga bo‘lgan yuksak ehtiromi oqibatida qozilik vazifasidan voz kechib, ash‘or bitishni o‘zining asosiy mashg‘ulotiga aylantiradi. Quyidagi misralar uning qalamiga mansub.

*Ey ashki lolagundolmani man dar bog‘ po‘rgul shud,  
Maro bo domanigul didu bulbul betahammul shud*

Mazmuni:

*Lolarang ko‘z yoshimdan etagim bog‘ aro gulga to‘ldi,  
Meni gul yonida ko‘rib bulbul yuragi esa sabr-toqatsizlik ila  
to‘ldi.*

Mavlono Komiyning asosiy kasbi to'quvchilik bo'lsa-da, shoirlik bobida ham o'z zamonasining e'tiborli ijodkorlaridan bo'lgan. To'quvchilikdan bo'shagan paytlari she'rlar bitib, devon ta'lif qilish bilan shug'ullangan.

Mavlono Husayn Turkistoniy Buxorodagi Ulug'bek madrasasida mudarrislik qilish bilan birga, she'rlar mashq qilgan va aruz vaznida she'r bitish borasida yutuqlarga erishgan. SHuningdek, nazmdagi muammo sohasini puxta egallagan. Muammo janrida istalgan tugunni osonlikcha echa olgan. Musiqa sohasida ham ovozi keng tarqalgan ijod ahlidan edi.

Ilohiyot ilmi va shoirlikda nom qozongan shaxslardan biri Shayx Jalol edi. To'liq nomi Shayx Jalol Hiraviy Buxoriy. Tug'ilgan yili manbalarda qayd etilmagan. Lekin vafoti sanasi aniq ko'rsatilgan, ya'ni hijriy 955- (milodiy 1548-1549) yili 70 yoshda vafot etganligi zikr etilgan. Demak, Shayx Jalol 1478- yilda) Hirotda tavallud topgan. O'z ustoz Shamsiddin Muhammad Rujiydan tariqat asoslarini o'rganadi. Shamsiddin Muxammad Rujiy o'z davrining mutasavvif olimi, shoiri, shuningdek, Abdurahmon Jomiyning do'sti edi. Har ikkalasi ham Sa'diddin Koshg'ariydan ta'lim olishgan. Shamsiddin Muxammad Rujiy 1489 -yilda vafot etgach, Shayx Jalol Buxoroga keladi. Buxoroga kelishining boshqa sabablari ham mavjud. XVI asr boshlarida Hirotda sunniy va shia ulamolari o'rtasida keskin nizolar yuz berib, har ikkala tomon bir-birini ta'qib qilishga kirishadi. Ko'plab sunniy ulamolari, shoirlar, tarixchilar, musavvirlar Movarounnahrda ko'chishga majbur bo'ladilar. Bular orasida Shayx Jalol ham bor edi. Shayx Jalol Hirotda Muxammad Shayboniyxon tomonidan olingandan keyin Buxoroga kelgan bo'lishi kerak.

U bu erda va'z o'qish hamda pand-nasihatlar aytish, soliqlarni haq yo'lga da'vat etish bilan shug'ullanadi. XVI asrning birinchi yarmida Buxoroning akobiru zodagonlari uning suhbatlarida qatnashib, katta ma'naviy ozuqa olishgan. U murakkab gapirsa-da, lekin suhbatlari ta'sirli va manfaatli bo'lgan.

Xalq orasida tasavvuf olimi va amaliyotchisi, qisman shoir sifatida tanilgan Shayx Jalol Shayboniy Abdulazizxon (1539-1549) e'tiborini qozonib, uning ma'naviy ustoziga aylanadi. Xon tarafidan ko'p iltifot va muruvvatlar ko'radi. "Muzakkiri ahbob" muallifi Shayx Jalolning maqom va darajasini yaxshi bilgani va uning xalq orasidagi obruyiga guvoh bo'lgani bois, shayx to'g'risida iliq so'zlarni yozib

qoldirgan. Jumladan, “Baxt nishonli bu xon (ya’ni Abdulazizxon) darvishlar muxlisi bo’lib, ularga ko’p e’tiqod qo’ygan edi. Sidq bilan iroda qaydida etuk ustoz Shayx Jalolga murid ham edi... Shayx Jalol shirin kalom va muaddab kishi edi”. Bu ta’rif va tavsiflar Shayx Jalolning ma’naviy-axloqiy cho’qqilarni egallaganidan va Buxoro ma’naviy olamida o’z o’rniga ega bo’lganidan dalolat beradi. U majlislarda hadis aytib, majlis ahlini o’ziga rom etgan. Hadis ma’nolari mag’zini chaqishda esa tengsiz hisoblangan. Uning odatlaridan biri so’zni takror-takror aytish bo’lsa-da, bu narsa tinglovchiga hech malol kelmas ekan.

Tasavvuf ilmida o’z davrining kuchli olimlaridan sanalgan Shayx Jalol she’rlar mashq qilgan. Quyidagi matla’ va ruboiylar uning qalamiga mansub:

*To husni yor az ruhi xubon namudaast,  
Moro xayoli dilbaru shohid rabudaast.*

Mazmuni: Yor husni xublar yuzida ko’ringach, mendan dilbaru talabgor xayolini o’g’irlab ketdi.

*Onho ki zi jomi ishq sarmast shudand,  
Nodida ruhash tamom az dast shudand.  
Dar rohi talab qadam nihodand zi car,  
CHun xok ba rohi ahli dil past shudash.*

Mazmuni: Ishq jomidan sarmast bo’lganlar Uning yuzini ko’rmay turib, butunlay qo’l-oyoqdan tushib qoldilar. Boshlari bilan talab yo’liga qadam qo’ydilar, tuproqdek ahli dil yo’lida erga to’shaldilar.

Buxoro adabiyot muhitida etakchi mavqega ega bo’lgan shoirlardan biri Abdurahmon Mushfiqiydir (1525-1588). U Shayboniy Abdullaxon saroyida xizmat qilib “Malik ush-shuaro” unvonini olgan. “Devoni mutoibot” (Mutoibalar devoni), “Devoni g’azaliyot” (G’azallar devoni), “Devoni qasoid” (Qasidalar devoni), “Sadu yak buvad” (Bir yuz bir tugun) kabi asarlari hajviya, g’azal va qasidalardan iborat. Mushfiqiy go’zallik va muhabbatni tarannum etuvchi “Eram bog’i”, “Soqiynoma”, “Jahonnoma” kabi she’riy asarlar yaratdi.

Adabiy tazkiranavislik janrida ijod qilgan Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahhob” asari Buxordagi adabiy jarayonlarning sermahsul namunasi bo’lib, asar 1566-1567-yillarda

yoziq tugatilgan. Unda muallif davrigacha yashagan, shuningdek, muallifga zamondosh bo'lgan ikki yuzdan ortiq shoir va tasavvuf ahli to'g'risida biografik ma'lumot beriladi, she'rlaridan namunalari keltiriladi.

Adabiy jarayonlar bilan yondosh rivojlangan Buxoro miniatyura san'ati Hirot miniatyura maktabi an'alarini o'zida mujassam etib, Shayboniylar davrida badiiy mukammallik darajasiga ko'tarildi va o'ziga xos yo'nalish kasb etdi. Umumlashtirish, shaklning ixchamligi, kiyim va bezaklarning aniq va yirik ishlanishi, me'moriy tasvir va zaminning soddalashtirilishi Buxoro miniatyura maktabiga xos bo'lgan xususiyatlardir. Miniaturalarda qabul sahnalari, tabiat va maishiy manzaralar, saroy hayotidan olingan lavhalar, shuningdek, ko'chmanchi hayot ko'rinishlari va shahar hayotidan olingan janrli lavhalar hamda hunarmandlar faoliyati aks ettirilgan. Mahmud Muzahhib, Shayxzoda, Abdulla Musavvir Buxoro miniatyura maktabining Shayboniylar davrida ijod qilgan yirik namoyandalari hisoblanadi. Bu maktab vakillari tomonidan Sa'diyning "Bo'ston", Jomiyning "Tuhfat ul-ahror", Dehlaviyning "Tarixi Xizraxon" asarlariga miniatyura va bezaklar ishlangan.

Shayboniylar davri Buxoro me'morchiligining badiiy kompozitsion ko'rinishlari darvozalar, masjid, madrasa va boshqa inshootlar qurilishida o'z ifodasini topgan. Shayboniylardan Abdullazizxon va Abdullaxon davrida Buxoro atrofi yangi devor bilan o'rab olindi va darvozalar qurildi. Abdullazizxon barpo ettirgan qal'a devorlarini Abdullaxon g'arbga tomon kengaytirdi va 11 darvoza barpo etildi<sup>1</sup>. Ular quyidagicha nomlangan: Samarkand darvozasi, Hazrati Imom darvozasi, O'g'lon darvozasi, Talipoch darvozasi, Shergiron darvozasi, Qorako'l darvozasi, Shayx Jalol darvozasi, Namozgoh darvozasi, Salloxona darvozasi, Qavola (Qarshi) darvozasi, Mozori Sharif darvozasi

*Samarqand darvozasi.* Shayboniy hukmdor Abdullazizxon tomonidan qurdirilgan bo'lib, 1557-1560-yillarda Abdullaxon tomonidan qayta ta'mirlangan. Samarkand yo'li orqali G'ijduvon, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardan, uzoq xorijdan kelgan mehmonlar, savdogarlar shu darvozadan shaharga kirishgan. Darvoza

---

<sup>1</sup> Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки).-Ташкент: Изд-во академии наук Узбекской ССР. 1958. 20-36.

yaqinida aravasoqlik, yog‘och materiallari, eshik, deraza bozori bo‘lgan. Keyinchalik amir Abdulahadxon (1885-1910), amir Olimxon (1910-1920) davrida tiklangan yozgi saroy - Sitorai Mohi-Xossaga eltuvchi yo‘l shu darvoza orqali o‘tgan bo‘is, bu maskan savdogarlar uchun juda ahamiyatli hisoblangan. Darvozaning balandligi 11,4 metr, qadimiy devor balandligiga teng bo‘lib, arka va timpanli, kitobasiz tekis qilib, bir nechta darichalar qo‘yib tiklangan, terakot hamda koshindan belbog‘li qilib jilo berilgan. “Guldasta”lari hamda ustki qismi chiroyli qirrali gultoij bilan bezatilib, qadimiy devorga bir xilda birlashtirilgan. O‘tgan asrning 60-yillarida shaharni kengaytirish bahonasida inshoot buzib yuborildi. 2009 yil yanvar oyidan boshlab muhandis-me‘mor Mahmud Ahmedov loyihasi asosida asl qiyofaga mos qilib qayta tiklandi.

*Hazrati Imom darvozasi.* VIII asrgacha Darvozai Nav (Yangi darvoza) deb yuritilgan. So‘ngra buxorolik mashhur ulamo Abu Hafs Kabir Buxoriy (767-832) sharafiga Darvozai Imom deb atala boshlangan. Narshaxiyning ma‘lumot berishicha, Abu Hafs Kabirning qabrlari ham shu darvoza yonidagi tepalikda joylashgan. Hazrati Imom darvozasi Haqroh deb ham atalgan. Darvozaning balandligi 11,6 metr, kengligi 13 metr, asosi 1,5 metrni tashkil etgan. Usti 31 ta gultoijdan iborat bo‘lgan. Guldastalar uch qavatli bo‘lib, u erda qorovullar turadigan xona bo‘lgan. Shaharga kiraverishda yo‘lning o‘ng tomonida savdo do‘konlari bo‘lib, ularda ot-aravalar uchun kerakli anjomlar sotilgan. Yo‘lning chap tomonida esa ombor hamda shisha ishlab chiqaradigan korxonalar hamda yo‘lovchilarni suv bilan ta‘minlaydigan quduq bo‘lgan. Hazrati Imom yo‘li Samarqand, Toshkentga boradigan yo‘lga qo‘shilib ketgan. Bu qadimiy yo‘l Arkdan Sitorai Moxi-Xossagacha qayroq tosh bilan terilgan. 2009 -yil sentyabr oyidan ushbu darvoza qayta tiklana boshlandi. Qurilish ishlarini usta-me‘morlar Muzaffar, Ma‘mur va Ma‘ruf Mirzaevlar olib borishdi.

*O‘g‘lon darvozasi.* Buxoroi sharifning mahobatli darvozalaridan yana biri Chorbaqoli yaqinidagi O‘g‘lon darvozasi bo‘lgan. Bu darvoza oldida Romitan, Gazli tomonga boradigan katta yo‘l joylashgan bo‘lib, shimol tomonda O‘g‘lon mahallasi, janubda esa Nog‘orachilar mahallasi joylashgan bo‘lgan. Ularning ko‘plari Arkdagi podshohlar saroyida nog‘ora, karnay-surnay chalib, xizmat qilishgan.

Darvozai O'g'longa yaqin masjid-madrasa qo'shilgan holatda qurilgan bo'lib, Avliyo O'g'lon Ato qabrlari ham shu erda bo'lgan. Bu erda Xatmi Piridastgir, ya'ni Abdulqodir Giloniy xotirasiga bag'ishlab diniy marosim o'tkazilgan. O'g'lon Ato ulug' avliyolardan biri bo'lgan. Bu haqdagi ma'lumotlar 1887-1888-yillarga tegishli vaqf hujjatlarida saqlanib kolgan.<sup>1</sup>

1948-1950-yillarda O'g'lon darvozasi, yonidagi mozor, masjid, madrasa buzib tashlanadi. Hozirgi paytda undan nomu nishon qolmagan. Darvoza balandligi 11 metr, kengligi 13 metr, asosi 1,40 metrdan iborat bo'lgan. Ustki qismi 19 ta gultoждан tuzilgan, "guldasta"lari uch kator, beshta tuynuk bilan bezatilgan hamda baland ravoq arka va qanosdan iborat bo'lib, kitebasiz qilib qurilgan. Bu usul faqat shu darvozaga xos bo'lib, boshqalarida takrorlanmaydi. Darvozadan kiraverishda savdo do'konlari va baqqollik bozori bo'lgan.

*Talipoch darvozasi.* Mazkur inshoot 1557-1598-yillarda – Abdullaxon II davrida bunyod etilgan. Buxoroning g'arbiy qismida yangi xiyobon barpo ettirgan hukmdor katta tepalik yaqinida bu darvozani qurdirgan. Bu darvoza orqali Amirobod, Chorbakr, Jondor, Xorazmga borilar edi. Darvoza ikki "guldasta", arka, ravoq, kanos kitebali qilib, usti kungurali gultoј bilan bezatilib, qadimiy qal'a devorlariga moslashtirib qurilgan. Zinda fil Ahmad Jomiy qabrlari ziyoratgohi ham shu darvoza yaqinida joylashgan. Darvoza 1960-yilda usta Aminjon Salomov hamda Mubin Mo'minov, 2005-yilda esa Soli Karimov tomonidan qayta ta'mirlandi. Hozirgi vaqtda Talipoch darvozasi yonida Buxoro Markaziy bozori qad rostlagan.

*Shergiron darvozasi.* Abdullaxon qurdirgan darvozalardan biri SHergiron darvozasidir. Darvoza qurilgan joyda qadimda sherlarni saqlaydigai qo'riqxonа bo'lgan va ular urushda foydalanish uchun o'rgatilgan. Shu bilan birga, podshohlar sherlardan xazina qo'riqchisi sifatida ham foydalanganlar. Podshohlar saroyida sherlar haykali o'rnatilgan. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning kitobida yozilishicha, Amiri shahid Ahmad Ismoil as-Somoniy hukmdorning bir odati bor bo'lib, uning saroyida bir sher bo'lgan. Har kecha amir yotadigan eshik yonida sher zanjir bilan bog'lab qo'yilar

---

<sup>1</sup> О.Сухарева. Квартальная община позднефеодалного города Бухары (в связи с историей кварталов). – Москва: Наука, ГРБЛ. 1976.

edi. Kim u uyga kirmoqchi bo'lsa, sher uni halok qilar edi. Bir kuni amir g'amgin bo'lganida uning yaqin kishilari u bilan band (mashg'ul) bo'lib, sher (qo'riqchi)ni olib kelish eslaridan chiqqan. Natijada amir uxlab yotganida uning qullaridan bir to'dasi kirib, amirning boshini tanasidan judo qilishadi. Bu voqea 914-yil 12 yanvarda sodir bo'lgan. Uni Buxoroga olib kelib, Navkand qabristoniga dafn qilishgan (hozirgi Somoniylar qabristoni maqbarasi)<sup>1</sup>. O'sha davrdan boshlab Jondorga boradigan yo'lda qurilgan darvozani Shergiron darvozasi deb ataganlar. XVI asrdan boshlab Shergiron darvozasidan to Mir Do'stim xonaqoh-masjidiga qadar yo'l ustida yopiq bozor bo'lib, unda sabzavot, meva, sut-qaymoq kabi mahsulotlar kecha-kunduz sotilgan. Bu an'ana hozirgi vaqtda ham davom etmoqda. Lekin qadimiy SHergiron darvozasi hamda qal'a devori saqlanib qolmagan.

*Qorako'l darvozasi.* Buyuk ipak yo'li savdo tarmog'idagi asosiy darvozalardan biri bo'lgan Qorako'l darvozasi Abdullaxon tomonidan 1558-1575-yillar oralig'ida qurdirilgan. Darvozaning ichki tomonida bozor bo'lib, to Volidai Azizxon, Havzi Navgacha davom etgan. Qorako'l darvozasi ikki katta "guldasta", svod, arkali qilib qurilgan. Kvadrat shaklidagi 25×25 santimetrli g'isht bilan terilib, ustki qismi kungurali gultoj bilan zeb berilgan hamda qal'a devorlariga tenglashtirib bunyod etilgan. Darvoza 1975-yilda usta Ahror Asrorov tomonidan qayta ta'mirlangan. Buxoro xalqi shu darvoza orqali haj ziyorati uchun yo'lga chiqqan. Shuning uchun uni "Haj darvozasi" deb ham atashgan. Eron, Xuroson, Turkiya davlatlaridan keladigan savdogarlar shu darvoza orqali shaharga kirishgan. Ayni paytda darvoza qal'a devorlaridan ajralgan holda bo'y cho'zib turibdi.

*Shayx jalol darvozasi.* Buxoroning janub tomonida joylashgan, shonli tarixga ega bo'lgan darvozalardan biri Shayx Jalol darvozasidir. Uning tarixi Abdulazizxon davri (XVI asr)ga borib taqaladi. O'sha davrda SHayx Jaloliddinga murid bo'lgan Abdulazizxon hazrat shayx sharafiga ilgari Darvozai bobi morkushon nomi bilan mashhur bo'lgan darvozani uning nomi bilan ataydi. Abdulazizxon 1549-1550-yillar oralig'ida darvozani ta'mirlab, koshin burish rangli g'ishtlar bilan jilo berib, unga yaqinroq joyda xonaqoh, hovuz, minora hamda hujralar

---

<sup>1</sup> Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент: Шарк машаълига илова, 1993. –Б.45.



qurdiradi. Darvozaning balandligi 11-12 metr bo‘lib, kengligi 14×20, tashqi hamda ichki tomonida peshtoqlari bor. Abdulazizxon darvozaninig ustki qismini gultoj bilan bezatib, xonaqoh ustiga ko‘k gumbazlar qurishni buyuradi. 1898-yilda esa ushbu gumbazga e‘tibor berilmay quyilganligi bois koshinlari ko‘chib tushgan. Mazkur davr ustalari gumbazni qayta tiklay olmaganlar. Natijada xonaqoh, minora, hovuz, darvoza ham lokaydlik sababli vayronaga aylangan va buzib tashlangan. Darvozai Shayx Jalol hamda shu nom bilan yuritiluvchi mahalla haqida 1691-1692-yilga oid hujjatlarda ma‘lumotlar uchraydi. Darvozadan tashqarida juda katta bog‘lar bo‘lib, shu qatori Xo‘ja Ismatulloh Buxoriy bog‘lari hamda maqbaralari ham shu hududda joylashgan. 2008-2009-yillar oralig‘ida asliyatga ko‘ra tayyorlangan loyihaga asosan usta-me‘morlar Muzaffar Mirzaev hamda Sharif Rahimovlar tomonidan Darvozai Shayx Jalol qaytadan qurildi. Yon atrofidagi qadimiy qal‘a devori ham tiklandi.

*Namozgoh darvozasi.* Namozgoh darvozasi qurilgan yili ma‘lum bo‘lmay, Abdulazizxon tomonidan 1540-1550-yillarda qayta ta‘mirlanadi. U juda chiroyli mayolika va koshinlar, terakotalar ishlatilib, arka svodtimpan kiteba qilib, “guldasta”larning usti oltita gultojlar bilan bezatilib qurilgan. Yuqori qismi 12 ta gultojdan iborat bo‘lib, eski qal‘aga tenglashtirib bunyod etiladi. Odamlar shahar ichidagi masjidlariga sig‘maganlari uchun Ibrohim darvozasidan Namozgoh masjidiga yig‘ilishgan. Namozgoh gavjum bo‘lgan. Turk xoqoni Arslonxon farmoni bilan Namozgoh atrofi to‘liq tartibga solindi va bog‘lar barpo etilib, pishiq g‘ishtdan minorali devorlar quriladi. Darvoza balandligi 11 metru 6 sm, kengligi 13,8 metrga teng qilib bunyod etilgan.

*Salloxona darvozasi.* Salloxona yoki Mir-Mas‘ud darvozasining tashqi tomonida amir askarlari joylashgan bo‘lib, bu erda 1920-yillarga qadar harbiy mashq o‘tkazilgan. Sobiq sho‘ro davrida ancha vaqtlar parad va anjumanlar shu maydonda o‘tkazilar edi. Salloxona darvozasi Abdulazizxon tomonidan 1540-1549-yillarda qadimiy devor bilan birga qurilgan. O‘sha davrda ziyoratchilar uchun maqbara, masjid, hovuz, quduq va hujralar bunyod etilgan. Afsuski, ular bizning davrimizgacha etib kelmagan. Salloxona darvozasi haqidagi ma‘lumotlar vaqf hujjatlarida (1683-1684-yillar) uchraydi. Darvozaning balandligi 11 metru 10 sm, kengligi 21 metr, asosi bir yarim metrni tashkil etgan. Usti 21 ta gultojdan tuzilgan, “guldasta”lar

ikki qavatli bo‘lib, qorovullar turadigan xonasi bo‘lgan. Shaharga kiraverishda yo‘lning o‘ng tomonida ikki qavatli Abdullabek hovlisi bo‘lgan. Uning yonida esa Arabon masjidi qurilgan bo‘lib, bu masjidda mahalla ahli namoz o‘qigan. Salloxona darvozasi orqali odamlar Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon va Toqi Zargarondan o‘tib, shaharning markaziy savdo rastalariga borishgan. Buxoroning boshqa darvozalari qatori Salloxona darvozasi ham 2009-yil oktyabr oyidan boshlab qaytadan tiklandi va asl holatiga keltirildi. Bunyodkorlik va qurilish ishlarini usta-me‘morlar Muzaffar Mirzaev hamda SHarif Rahimovlar olib bordi.

*Qavola (Qarshi) darvozasi.* Ba’zi manbalarda Rangrez darvozasi deb ham yuritiladi. Rivoyatlarga ko‘ra, Shayxi Rangrez matolarga gul bosish hunari bilan shug‘ullangan va karomatgo‘y avliyo ham bo‘lgan. Uning karomatlarini ko‘rgan Shayx ul-Olam Sayfiddin Boxarziy (XIII asr) shogirdini haqqa etgan deb hisoblab, unga o‘z vaqfidagi qishloqlardan birini hadya etgan. Keyinchalik Abdulloxon shaharni kengaytish chog‘ida ushbu qishloq ham qal’a devori ichida qolgan. Unda qurilgan darvoza esa Qavola deb yuritila boshlangan. Ammo darvoza asosan Qarshi, Kesh aholisining kirish joyi hisoblangani bois mahalliy aholi uni Qarshi darvoza deya atay boshlagan.

*Mazori Sharif darvozasi.* Abdullaxon Buxoro shahrini kengaytirgan vaqtida Bahouddin ziyoratiga boradigan yo‘l ustida Mazori Sharif darvozasini qayta qurdiradi. Darvoza keng va salobatli, 18 ta gultoждан iborat bo‘lib, svod timpan (ravoq) kiteba arkasiz qilib qurilgan, uchta mo‘ri (teshik)dan iborat bo‘lib, usti tekis g‘isht bilan soyali qilib bunyod etilgan. Balandligi 11 metr bo‘lib, shaharning qal’a devoriga teng bo‘lgan. Mozori SHarif darvozasi yonida soqchilar uchun alohida joy, darvozaabonlar uchun maxsus xonalar barpo etilgan. Darvoza qattiq qayrag‘ochdan qalin va mustahkam qilib yasalgan. Darvozaning mustahkamligini yanada oshirish maqsadida yogoch materiallar qizdirilgan yog‘ga botirib olingan. Ular temir mixlar bilan yo‘g‘on to‘sinlar yordamida yaxlit tabaqali qilib yasalgan. Zulfin va xalqalari mis temiridan haftjush usulida tayyorlangan. Darvoza ostonasi tut daraxtidan, tepa to‘sinlari gujumdan yasalgan. Shu sababli bu darvozalar har qanday sharoitda o‘z sifatini yo‘qotmay, asrlar osha xizmat qilgan. Vafot etgan hukmdorlar jasadi Mazori Sharif darvozasidan chiqarilib, Fayzobod

xonaqosida janoza o‘qilgan. U erdan piyoda Bahouddin Naqshband mazoriga eltib, dafn qilingan.

Darvoza yonidan Buxoroning mashhur Shohrud arig‘i oqib o‘tgan. Bu darvoza orqali seshanba, chorshanba, ayniqsa hayit kunlari shahar aholisi Hazrat Bahouddin ziyoratiga borgan.

XVI asr Buxoro me‘morchiligida asosiy rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha har biri taxminan uch o‘n yillikni qamraydigan uchta qurilish davrini ajratish mumkin.

Birinchi davr - 1500-1530-yillar, ya‘ni Buxoroning Temuriylardan keyingi rivojlantirish davrini o‘z ichiga olib, u asosan Ubaydullaxonning bunyodkorlik faoliyati bilan bog‘liq. Unda bir tomondan, Temuriylar davri me‘morchiligi ana‘nalari hali kuchli bo‘lgan, ikkinchi tomondan, Buxoro me‘morchilik maktabining o‘ziga xos mahalliy xususiyatlari shakllangan davr edi. Bu davr binolarining hali ham boy va sermehnat naqsh-qoshinli sopol, yig‘ma mozaika bezatib turadi. Masalan, XVI asr boshlarida qayta qurilgan Masjidi Kalon kirish kismining naqshi, shuningdek, Masjidi Baland va Xo‘ja Zayniddin masjid-xonaqosining ziynati shular jumlasidandir. Bu obidalarda Temuriylar davriga xos “kundal” zarhal naqshlardan ham foydalanilgan<sup>1</sup>.

1530-1560-yillarni o‘z ichiga oluvchi ikkinchi qurilish davri qisman Ubaydullaxonning hukmronlik davriga to‘g‘ri kelsa-da, lekin asosan uning o‘g‘li Abdulazizxon nomi bilan bog‘liq.

Bu davrda tomni yopish konstruksiyasi va binolarning kompozitsiyaviy usullari takomillashdi. Ikki me‘moriy ansambl yaratildi va turli fuqarolik inshootlari bunyod etilib, Buxoro me‘morchiligi maktabining shakllanishi davom etdi. Mazkur davrda Buxoro uchun yangi bo‘lgan zil-zilabardosh konstruksiyalar yuz yillar avval o‘tgan davrda-XV asrning uchinchi choragidan boshlab Temuriylar davri me‘morchiligida ixtiro qilingan va ildam foydalanilgan bir-birini kesib o‘tuvchi arklar va qalqonsimon qism tobora ko‘proq qo‘llana boradi. Bu usul Buxoroda ilk bor, ehtimolki, birinchi marta XV asrda Turki Jandiy maqbarasida ko‘llangan<sup>2</sup>.

XVI asrning ikkinchi choragidan boshlab oldingi davrning eng istiqbolli va novatorlik-muhandislik ishlanmalaridan bo‘lmish mazkur

---

<sup>1</sup> Бухоро шарқ дурдонаси./ Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.98.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

konstruksiyalar Buxoro me'morchiligi rivojlanishini izchil davom ettirib, nihoyat XVI asr oxirlaridagina poyoniga etdi.

Ikkinchi qurilish davrida Buxorodagi Mir Arab (1536) madrasasining burchak zallari to'rtta o'zaro kesishuvchi ravoqlar tizimi yordamida qoplandi. Biroq, bunda ular hanuz Temuriylar davri me'morchiligiga xos gumbazni ushlab turadigan monumental qism va ikki qavat gumbazga ega edi. Ancha keyingi davr qurilishlarida ulardan voz kechildi va yakka qavat gumbazning cho'qqisiga, ko'pincha, ravoqda oynaband tuynuk qo'yilgan. Bunda ko'rkam kesishma ravoqlar muhandislik g'oyasi naqshdan xoli bo'lib, yukoridan samarali yoritilgan.

Ana sha davrda qurilgan Toqi Sarrofon savdo gumbazi va Bahouddin Naqshband qabri oldidagi xonaqohni kovlash konstruksiyasi gumbaz qobig'idan bo'rtib chiqqan va uzoqdan samarali kuzatiladigan to'rtta kesishuvchi ravoqdan iborat bo'lgan.

Ikkinchi davrda asosan "qo'sh" usulida, ya'ni old tomoni bir-biriga qaragan bir o'qda ro'baro' joylashgan Buxoroning yirik ansambllari vujudga keladi. Bunga Buxoroning Poyi Kalon bosh ansambli fikrimiz dalilidir. Bu erda 1534 yilda ko'hna yo'ldan ajralib chiqadigan maydonda Masjidi Kalon ro'parasida "qo'sh" usulida Mir Arab madrasasi barpo etildi. XIX-XX asrlar chegarasida janubdan shu maydonga Amir Olimxon madrasasi tutashdi. Uch tomoni obidalar bilan egallangan Poyi Kalon maydoni hozirgacha o'sha ko'rinishida saqlanib qolgan.

1535-yilda shahriston janubida hozirda buzilib ketgan G'oziyon ansambli barpo etilgan. U "qo'sh" kompozitsiyasi bo'yicha bir-biriga ro'ba-ro'y joylashgan Katta va Kichik G'oziyon madrasalari va ular o'rtasida G'oziyon hovuzidan iborat bo'lgan. Ana shu ansambldan faqat Katta Madrasa saqlanib qolganki, hozir Mirza Sharif G'oziyon madrasasi deb yuritiladi<sup>1</sup>.

Uchinchi qurilish davri 1560-1590-yillarni o'z ichiga olib, u Abdullaxonning kuchli birlashtiruvchilik hokimiyatiga bog'liq ravishda davlatning barqarorlashuvi tufayli XVI asr qurilishi va me'morchiligida yuksalishning eng yukori cho'qqisiga to'g'ri keladi. Buxoro me'morchilik maktabi faol shakllandi, diniy binolar-masjid, madrasa, xonaqoh, shuningdek, fuqarolik inshootlari: timlar, toqlar,

---

<sup>1</sup> Бухоро шарқ дурдонаси./Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.100.

karvonsaroy, hammom, hovuz, sardoba, ko‘prik va hokazolarning tiplari mukammallashti.

XVI asr boshlarida mo‘l bo‘lgan naqsh, ikkinchi va uchinchi kurilish davrlarida kamroq qo‘llanildi. Bunday naqshinkor qoplamalar endilikda qimmatbaho kiritmalar tarzida asosan binolarning old tomonida, hovli ayvonlarida, ravoqning bezakli tokchalarida to‘plangan. Buxoroda Markaziy Osiyoda ilk bora bino old tomonida ravoq peshayvoni tashqariga qaratib quriladigan bo‘ldi. Masalan, dastlab Ulug‘bek madrasasi old tomoni ravoqli peshayvon sifatida qurildi. Bu usul birinchi marta shahar tashqarisidagi Bahouddin (1545) va Chor Bakr (1560), keyin shahar madrasalari – Ko‘kaldosh, Xiyobon, Bozori Go‘sfand va Muhammadyor Otaliq honaqosida qo‘llanilgan<sup>1</sup>.

Buxorodagi emas, balki, ehtimol, butun Markaziy Osiyoda saqlangan eng ko‘hna mahalla masjidlaridan biri XVI asrga oid Masjidi Balanddir. Odatdagi sinchli mahalla masjidlardan farqli o‘laroq u, istisno tariqasida, baland tosh supada pishiq g‘ishtdan qurilgan, bu hol uning uzoq vaqt yaxshi saqlanishiga imkon bergan.

XVI asr boshlariga oid Xoja Zayniddin masjid-xonaqosi me‘morchilik va bezatilish uslubi jihatidan yuqorida ko‘rib o‘tilgan Masjidi Balandga juda o‘xshash. Lekin undan farqi shundaki, bu bino xonaqoh va mahalla masjidi vazifalarini bajarib, ko‘pxonali va gumbazli bo‘lgan. Bino joylanishiga ko‘ra majmuada ichki hovli hujralari ko‘p bo‘lib, hovli o‘rtasida katta hovuz joylashgan. Gumbazli zalning ichki qismi naqshlarga juda boy. Uning paneli XVI asr naqshlarining noyob namunasi.

Gavkushon ansamblida tilga olingan Buxorodagi ikkinchi Xoja Kalon jome masjidi 1579-1580-yillarda ko‘rib bitkazilgan. To‘g‘ri urchakli bu binoning o‘rtasida hovli bo‘lib, atrofi ustun-gumbazli galereyalar bilan egallangan. Asosiy kiraverishni bezagan peshtoq ro‘parasidagi hovlining g‘arb tomonida masjidning peshayvonli va gumbazli qishki zali “maqsurah” joylashgan.

Buxoro me‘morchilik maktabi XVI asrda yana ham rivojlandi. Buxoroda naqshga boy va hajmiy kompozitsiyasi bo‘yicha ta’sirchan madrasalardan biri 1536-yilda qurilgan Mir Arab, darsxona joylashgan madrasa kiraverishdagi shimoliy burchak zalida dafn etilgan.

---

<sup>1</sup> Бухоро шарқ дурдонаси./Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.101.

Madrasa tarxi bir gaz 104 santimetrga tent modulidan foydalangan holda tuzilganki, bu hol unga aniqlik va muvofiqlik kasb etdi. Temuriylar davriga xos manzarali shakllari saqlangan holda bu erda novatorlik konstruktiv usullar kiritiladi. Chunonchi, burchak zallari tepasidagi ikkita yirik havorang manzarali gumbazlar to'rtta kesishuvchi ravoqlar o'rnashgan, lekin baland gumbazni tutib turuvchi qism oynaband tuynukka aylanadi<sup>1</sup>.

Ko'kaldosh madrasasi (1568-1569 yy.) Abdullaxon II ning vaziri Qulbobo Ko'kaldosh tomonidan qurilgan bo'lib, Buxorodagi eng yirik (86x69 metr, 130 taga yaqin hujrasi bor) madrasadir. Mablag'ni va turar joyi tejash uchun u bo'ylama o'q bo'ylab ikkitagina gumbazli ayvon qilib qurilgan. Bu erda Markaziy Osiyo madrasalari ichida ilk bor odatda yalang, yon tomoni tashqariga ikkinchi kavatning ravoqli peshayvoni bilan ochilgan. Kesishuvchi ravoqlar devorlarga parallel emas, balki diagonal bo'ylab joylashgan kirish guruhidagi (darsxona) burchak zallaridan birining tom to'sini o'ziga xosdir<sup>2</sup>.



**Ko'kaldosh madrasasi**

<sup>1</sup> Бухоро шарқ дурдонаси./Муаллифлар жамоси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.103.

<sup>2</sup> Бухоро шарқ дурдонаси./Муаллифлар жамоси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.103.

Kichik ikki ayvonli Gavkushon va Modarixon madrasalari, shuningdek, ancha oldingi Katta va Kichik G‘oziyon madrasalari (1534-1535 yy.) trapetsiyasimon tarxga ega bo‘ldiki, bu qurilish olib borilayotgan er shaklidan kelib chiqqan. Katta G‘oziyon va Gavkushon madrasalarida butun binoning bir qavatligida unga muhtashamlik baxsh etish uchun old tomoni ikki qavatli qilib qurildi, bu usul keyinchalik Buxoro, Xiva va boshqa erlardagi madrasalarda ham qo‘llandi.

Buxoro me‘morchilik maktabi Abdullaxon madrasasida (1589-1590 yy.) yaqqol namoyon bo‘lgan, unda barcha sanab o‘tilgan mintaqaviy xususiyatlar majmuasi o‘z aksini topgan. Buning ustiga ana shu to‘rt ayvonli Madrasa ikkita o‘ziga xos usul bilan boyitilgan. Birinchidan, masjidning burchak zali uning mehrobi g‘arbga, ya‘ni Makkaga aniq yo‘naltirilishi uchun reja tarxiga nisbatan diagonal holatda joylashtirilgan. Ikkinchidan, hovli peshayvoni ortida, ya‘ni hovlining ancha ichkarisida binoning bosh o‘qida sakkiz qirrali mo‘‘jazgina hovli barpo etildi.



**Abdullaxon madrasasi**

Umuman, madrasalarning buxorocha turi Markaziy Osiyo boshqa mintaqalarning ana shunday inshootlari me'morchiligiga o'sha va keyingi davrlarda katta ta'sir ko'rsatdi.

Masjidi Kalon XV-XVI asrlarda Minorai Kalon zamondoshi bo'lgan katta binoning joyida qurilgan. Masjid peshtoqidagi yozuvlarga asoslanib aytish mumkinki, bu bino 1514-yilda ishga tushirilgan. Bino pishiq to'rtburchakli va yuzasi sayqal berilgan g'ishtlar bilan terilgan<sup>1</sup>.



**Masjidi Kalon (Poyi Kalon majmuasi)**

Masjidning ettita kirish darvozasidan to'rt burchakli 130x80 metr maydoni bo'lgan keng hovliga kirish mumkin. Hovlining to'rt atrofidagi ayvonlar naqshinli peshtoqlar bilan bezatilgan. Ayvonlarning poydevorlarida 208 ustun bo'lib, ularning usti 288 ta qubba bilan yopilgan. Sharq tomonida joylashgan ayvon qadi va bezagi bilan ajralib turadi. Shu tomonda masjidning rangli naqshlar bilan bezatilgan asosiy darvozasi joylashgan. Sharq darvozasidan kirganda bino hovlisining yagona me'moriy sifat va kompozitsion shakl bilan qurilganligi ko'zga tashlanadi. Bu joydan nafis naqshlar

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Том-2. -Тошкент:Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б.



bilan bezatilgan XVI asrda qurilgan mehrob diqqatni tortadi. Peshtoq oldida XX asrning boshida mashhur buxorolik Usto Shirin Murodov qurgan sakkiz oyoqli usti gumbaz bilan yopilgan qurilma bor. Binoning fasad tomonidagi devorlari ravoqsimon tokchalarga o‘xshab qurgan. Sharq darvozasi peshtoqining naqshinkor bezaklari saqlanmagani tufayli keyinchalik binoning peshtoqi boshqadan ta’irlangan.

Miri Arab madrasasi Masjidi Kalon ro‘parasida joylashgan bo‘lib, 1530-1536-yillarda shayx Abdulloh Yamaniy (laqabi Miri Arab) zamonida Buxoro hukmdori Ubaydullaxon in’om qilgan mablag‘ hisobiga qurilgan<sup>1</sup>. Bu obida Masjidi Kalon va Minorai Kalon bilan birgalikda Buxoro shahrining chiroyli arxitektura ansamblini tashkil qiladi.



**Mirarab madrasasi**

Bu obidaning arxitekturasi Masjidi Kalon arxitekturasidan ancha farq qiladi, chunki O‘rta Osiyo diniy maktablari qurilishida qo‘llanilgan an’anaviy reja hajmiy kompozitsiya bu madrasada o‘z ifodasini topgan. Madrasa hovlisi atrofida ikki qavatli hujralar qatori, har qator o‘rtasida qadi raso peshtoqli ayvonlarni ko‘rish mumkin.

---

<sup>1</sup> Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. –Тошкент: Академнашр, 2017. 339-344.

Miri Arab madrasasining shimol tomonidagi darsxona maqbaraga aylantirilgan. Xonaning o'rtasida Ubaydulloxonning yog'ochdan tayyorlangan sag'onasi, undan narirokda Abdulloh Yamaniyning maqbarasi mavjud<sup>1</sup>. Madrasaning asosiy fasadi simmetrik ravishda ishlangan. Uning markazida yarim sakkiz qirrali ravoqdan iborat bo'lgan baland peshtoq qurgan bo'lib, uning ichkarisiga asosiy katta darvoza joylashgan. Peshtoqning ikki yonida qator qilib to'rt qavatli hujralar qurgan. Hujralarga kiradigan qulay va yaxshi ravoqli eshiklar va kitoblar uchun ganchdan tayyorlangan tokchalar bor.

**Tayanch so'z iboralar:** Shayboniylar davlati, temuriy shahzodalar, poytaxt, ko'p hokimiyatchilik, safaviylar, murakkab vaziyat, markaziy xokimiyat, mamlakat hududi, tashqi siyosat, urush harakatlari, Jo'ybor xo'jalari, voliy, shahar darvozalari, me'morchilik maktabi, mudarris.

#### *Nazorat uchun savollar*

1. Shayboniy hukmdorlari haqida ma'lumot bering?
2. Buxoroning 11 darvozasi nomi ayting?
3. SHayx Abdulloh YAmaniy kim?
4. Shayboniy Ubaydullaxon faoliyatini izohlang?
5. Bahouddin Naqshband majmuasi haqida gapirib bering?

#### *Test topshiriqlari*

1. Qaysi Shayboniy hukmdori Buxoro shahri atrofini yangi mudofaa devori bilan o'rashga kirishgan?
  - a. Ubaydullaxon
  - b. Abulfayzxon
  - s. Abdulazizxon
  - d. Amir Olimxon
2. Qarshi darvozasi shaharning qaysi tomonida joylangan?
  - a. janub
  - b. g'arb
  - s. sharq
  - d. shimol
3. So'ngi Shayboniy hukmdori kim?
  - a. Ubaydullaxon
  - b. Pirmuhammad

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Том-5. –Тошкент:Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2003. –Б.

- s. Abdullaxon
- d. Amir Olimxon

4. Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi qachon nishonlandi?

- a. 1995 yilda
- b. 1996 yilda
- s. 1994 yilda
- d. 1993 yilda

5. Buxoro minorasining balandligi ... metr?

- a. 52
- b. 53
- s. 46
- d. 45,6

## **8-MAVZU: ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO**

**8.1. Ijtimoiy- siyosiy hayot, tashqi siyosat**

**8.2. Oliy hukmdorlar va Jo‘ybor xo‘jalari**

**8.3. Ashtarxoniylar davri Buxoro me‘morchiligi**

### **8.1. Ijtimoiy- siyosiy hayot, tashqi siyosat**

Temuriylar davlati inqirozga yuz tutib, Movarounnahrda tashkil topgan Shayboniylar sulolasi boshqaruvi Buxoro tarixida muhim o‘rin egallaydi. Sulolaning davlatni boshqaruv tizimi O‘rta Osiyoda asrlar osha mavjud bo‘lib kelgan tartibni o‘zgartirdi, ya‘ni dargohning mavqei kuchayib borib, natijada devonlar tizimi faoliyati cheklanib qoldi. Buxoro poytaxt shaharga aylantirilgandan so‘ng, unga katta e‘tibor qaratildi. Davlat hududlari kengayib, yagona poytaxt shahar – Buxoro atrofiga birlashtirish jarayoni rivojlantirildi.

O‘rta Osiyoda hukm surgan Shayboniylar sulolasi qudrati sulola namoyandasi Abdullaxon II ning vafoti sabab parokandalikka yuz tutdi. Ammo u hayotining so‘nggi yillarida mamlakatda davlatning iqtisodiy rivojlanishiga, xonlikdagi ichki ahvolga e‘tibor berib, pul islohoti o‘tkazadi<sup>1</sup>. Abdullaxon II mamlakatda tarqoqlikka barham berib, xonlik hududini birlashtirgan va uni yanada

---

<sup>1</sup>Бухоро Шарқ дурдонаси/ Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997,-Б. 55.

kengaytirgan. Uning Movarounnahrni Buxoro atrofida birlashtirish istagiga erishishi oson bo‘lmadi<sup>1</sup>. U Amir Temurdan keyin Dashti Qipchoqqa nisbatan qat’iy siyosat yurgiza olgan yagona va so‘nggi davlat rahbari sanaladi. Chunonchi “Silsilat as-salotin”da keltirilgan ma’lumotdan, uning Amir Temur zabt etgan hudud – Ulug‘tog‘da (*Ulug‘tog‘ hozirgi Qarag‘anda viloyatining g‘arbidagi tog‘lik*) qurdirgan minora qarshisiga minora qurdirishi davlatni tiklash ishiga nechog‘liq hissa qo‘shganligini bilish mumkin. Uning vafotidan keyin, o‘g‘li Abdulmo‘minxon va amakivachchasi Pirmuhammadxon II (Sulaymon sultonning o‘g‘li) qisqa muddat xon bo‘lishgan. Abdulmo‘minning o‘z mavqeini mustahkamlash yo‘lida otasi tomonida bo‘lgan amirlarning aksariyatini qatl ettiradi. Bu esa qolgan amirlarning noroziligiga bevosita sabab bo‘lar edi. Bu bilan ham cheklanmagan yangi hukmdor Shayboniy shahzodalarga ham tinchlik bermay qo‘ydi. O‘sha davr tarixchilarining bergan ma’lumotlariga qaraganda, Xurosonga yurishga yo‘lga chiqqan hamda O‘ratepa va Zomin oralig‘ida bo‘lgan Abdulmo‘minga suiqasd uyushtirilib, u o‘ldirilgan. Abdulmo‘minga qilingan suiqasdning o‘ziyoq mamlakatda markaziy hokimiyatning zaiflashuvi hamda mahalliy kuchlar mavqeining oshib borayotganligining namunasi bo‘lib ko‘rindi<sup>2</sup>. Uning vafotidan keyin Xurosonning boshqa shaharlari shoh Abbos qo‘liga o‘tdi. U hatto Balxni egallashga harakat qildi<sup>3</sup>. Bundan foydalangan ichki va tashqi dushmanlarning harakati natijasida vaziyat tang holatga kelib qoldi. O‘sha davr tarixnavisi Muhammad Yusuf Munshiyning so‘zlariga qaraganda: “Butun davlatda tartibsizliklar boshlandi. Birov birovga bo‘ysungisi kelmasdi”.

XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida yuz bergan mana shunday muhim siyosiy voqealardagi murakkab qarama-qarshiliklar natijasida Shayboniylar sulolasi vakillari hokimiyatdan ayrilishdi. Bundan foydalangan qo‘shni davlatlar Buxoro erlariga tez-tez bostirib kira boshlashdi. Taxt endi so‘nggi Shayboniyzoda Pirmuhammad qo‘liga o‘tdi<sup>4</sup>. Ma’lumki, markaziy hokimiyatni birlashtirish yoki uni ushlab turish hukmdorning shaxsiga bog‘liq sanaladi, ammo bu hukmdorda

---

<sup>1</sup>Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланом/Содиқ Мирзаев тарж. –Тошкент: Шарқ, 2-жилд. 1999, -Б. 201-217

<sup>2</sup>Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.256.

<sup>3</sup>Бухоро Шарқ дурдонаси/ Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997,-Б. 55.

<sup>4</sup>Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2000. -Б.256.

shunday jihatlar mavjud emas edi. So‘nggi Shayboniy Pirmuhammadxon II o‘ziga qarshi chiqqan Samarqand hokimi Boqi Muhammad bilan 1601-yil iyunda Samarkand yaqinidagi Bog‘i Shamolda bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchragach, taxtni unga topshirishga majbur bo‘ldi. Kurashda engilgan Pirmuhammad bilan birgalikda butun boshli sulola taqdiri ham hal bo‘lishi turgan gap edi. Unga qarshi tomonning qo‘shini 50 000 askar atrofida bo‘lgan. Boqi Muhammad boshqa yangi sulola – ashtarxoniylar sulolasi vakili sanalardi. Shunday qilib, 1601-yildan Buxoro xonligini yangi turkiy sulola – Ashtarxoniylar (Joniyalar) boshqarishga kirishgan<sup>1</sup>.

Ashtarxoniylar sulolasining dastlabki vakili haqidagi bahs tarixchilar oldidagi muammoli vaziyatni keltirib chiqargan, ayrim manbalarda uning ilk vakili Jonibek Muhammadning o‘g‘li Boqi Muhammad sanaladi<sup>2</sup>. Ammo uning hukmronligi ko‘p davom etmagan.

Ashtarxoniylar sulolasining vakillari Buxoro xonligi taxtida bir yarim asrga yaqin vaqt mobaynida hukmronlik qilishdi. Ular asli XV asrning 30-yillarida Volgabo‘yi erlarida Ashtarxon xonligiga asos solishgan. Bu so‘z aslida “Hoji Tarxon” so‘zidan olingan. Xuddi shu asrning 50-60-yillarida rus davlatining istilochilik yurishlari tufayli sulola vakillaridan biri Yormuhammad farzandlari Jonibek Muhammad va boshqalar bilan birgalikda Movarounnahrda kelib qolgan<sup>3</sup>. Ularning Buxoro xonlari bilan aloqalari yaxshi bo‘lgan va hatto ular quda-andachilik bilan bog‘langan bo‘lgan. Ularning mavqei oshib borib, oxir-oqibat xonlik taxti mazkur sulola vakillari ixtiyoriga o‘tib qoldi.

1605- yilda Boqi Muhammad o‘ldirilgandan so‘ng, taxtga uning akasi Vali Muhammad o‘tiradi. Biroq tez orada unga qarshi fitna uyushtirilib, hukmdor safaviylar sulolasi podshosi Shoh Abbosga yordam so‘rab murojaat etadi. Ammo uning o‘zi asir olinib, qatl qilingach, taxt uning jiyani, Dinmuhammadning o‘g‘li Imomqulixon (1611-1642) ixtiyoriga o‘tadi<sup>4</sup>. To‘g‘ri, Abbos yordami bilan bo‘lsa-da, Vali Muhammad taxtni qaytarib oladi, ammo bu

---

<sup>1</sup> Аштархонийлар. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси -Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси /www.ziyouz.com кутубхонаси.

<sup>2</sup>Султонов Т. Чингиз и Чингизиды. –Москва: Евразия 2017. Глава 3, § 3.4. -Б. 399.

<sup>3</sup>Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.256.

<sup>4</sup> Султонов Т. Чингиз и Чингизиды. -Москва: Евразия, 2017. Глава 3, § 3.4. -Б. 399.

vaziyat uzoqqa cho‘zilmaydi. 1611-yil oktyabr oyida tomonlar o‘rtasida kechgan to‘qnashuvdan keyin Vali Muhammad Samarqand atrofida halok bo‘ladi. Shu paytda Vali Muhammad Erondan olib kelgan qo‘shinga qarshi Imomqulixon Buxoro xalqining kurashiga rahbarlik qilib qozoqlar yordamida eronliklar qo‘shinlarini tor-mor etadi. So‘ngra 1611-yilda Sirdaryoning quyi oqimidagi hududlarga yurish qilib isyonkor qozoq, qalmoq, qoraqalpoqlarni ham bo‘ysundirishga erishadi. 1612- yilda Toshkent shahrini egallab, unga o‘g‘li Iskandarni hokim etib tayinlaydi, ammo shahar aholisi uning nojo‘ya xatti-harakatlaridan norozi bo‘lib, isyon ko‘taradi va Iskandarni o‘ldiradi<sup>1</sup>.

Imomqulixon mamlakatni deyarli 30 yil davomida boshqarib, siyosiy vaziyatni yumshatishga, hokimiyatni markazlashtirishga qisman bo‘lsa-da erishgan hukmdor. Lekin umrining oxirida ko‘zi ojiz bo‘lib qoladi va ukasi Nodir Muhammadni Balxdan chaqirtirib, taxtni unga topshiradi<sup>2</sup>. 1644-yil Makka ziyorati vaqtida vafot etadi hamda Madina shahrida dafn etiladi.

Manba tili bilan aytganda, davlatning oliy maqom ishlari va muhim mulkiy hamda moliyaviy tadbirlarini ijro qilib kelgan tabaqa Nodir Muhammad sultonning xonlik kursisiga o‘tirishidan manfaatdor emasdi. Chamasi ularga ko‘zi ojiz Imomqulixonning taxtda o‘tirgani ma’qul edi<sup>3</sup>.

Imomqulixonning uzoq davom etgan hukmronligidan so‘ng, taxtga o‘tirgan Nodir Muhammadga nisbatan norozi kuchlar Xo‘jandga bostirib kirgan qozoqlarni haydab chiqarish jarayonida uning o‘g‘li Abdulazizni xon deb e‘lon qiladilar<sup>4</sup>. XVII asrda ashtarxoniylar sulolasidan davlatni boshqargan Buxoro hukmdorlari orasida Abdulazizxon (1645-1680) nomi alohida tilga olinadi. Shu o‘rinda bir fikrni aytib o‘tish o‘rinliki, Abdulazizning dastlabki hukmronlik yillaridagi mavqei uncha ham mustahkam emasdi. Yorqin misol. Balxda turgan Nodir Muhammad boburiy hukmdor Shoh Jahonga yordam so‘rab murojaat etadi. Balx masalasi hukmdorlarni

---

<sup>1</sup> Абдуллахон. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси –Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси /www.ziyouz.com кутубхонаси.

<sup>2</sup> Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.261.

<sup>3</sup> Ўша манба, -Б.262

<sup>4</sup> Султонов Т. Чингиз и Чингизиды. -Москва: Евразия, 2017. Глава 3, § 3.4. -Б. 401

qiynab qo‘ygan, poytaxtdan keyingi ikkinchi maqomga ega yirik shahar sanalardi.

Abdulazizxon taxtni egallaguniga qadar avval Xuttalon, 1630-yildan esa Balxning g‘arbiy tumanlari hokimi edi. Keyinchalik esa, xonlik taxtni egallab, Buxoro xonligida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakatlar qiladi<sup>1</sup>. Abdulazizxon hokimiyatining dastlabki o‘n yilligida Samarqand hokimi Yalangto‘sh Bahodir kuchidan foydalandi. Keyinchalik Yalangto‘sh Samarqand hokimligi mavqeini saqlab qola oldi. “Silsilat as-salotin”da keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, u Abdulazizxon tomonidan berilmoqchi bo‘lgan otaliq unvonini rad etgan<sup>2</sup>.

XVII asrning 60-yillaridan Buxoro siyosiy kurashlar maydoniga aylanib boraverishi natijasida uning madaniy va iqtisodiy ahamiyati biroz pasaygandek bo‘ldi<sup>3</sup>. Xuddi shu davrda Xiva xonlari Abulg‘ozi Bahodurxon va Anushaxonlarning Buxoro erlariga bostirib kirish holatlari kuzatiladi. Abdulazizxon garchi oliy taxtda bo‘lsa-da, ammo Balx muammosi unga tinchlik bermasdi. Uning ukasi Subhonquli deyarli mustaqil faoliyat yuritardi. Ba’zi vaqtlarda diniy ulamolarning aralashuvi va hattoki Balxda Abdulaziz nomidan xutba o‘qilgan bo‘lishiga qaramasdan, 1681-yilgacha shahar amalda o‘zining mustaqilligini saqlab qola oldi<sup>4</sup>. O‘sha davr tarixiy manbalaridan bo‘lmish Xo‘jamquli Balxiyning “Tarixi Qipchoqxon” asarida Subxonquli va Abdulaziz o‘rtasidagi kurashlar uzoq davom etgan va bu uning halokatini yaqinlashtirganligi haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Abdulazizxon hukmronligining oxirida taxtni ukasi va valiahdi Subhonquliga topshirib, o‘zi Eron Safaviylari davlat hududi orqali hajga jo‘nab ketishga qaror qiladi. 1681-yilda uni Eron shohi kutib olgan. O‘sha davr manbalarida bu haqda ma’lumotlar berilgan. 1683-yilda Makka shahrida vafot etgandan so‘ng o‘sha joyda dafn etiladi.

Ashtarxoniylar sulolasining vakillaridan Subhonqulixonning taxtga o‘tirishi shundoq ham murakkab vaziyatni battar

---

<sup>1</sup>Абдулазизхон. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси -Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси /www.ziyouz.com кутубхонаси.

<sup>2</sup>Зияев А. Х. «Силсилат ас-салотин» как исторический источник. /Автореферат. – Ташкент: 1990. -Б. 11

<sup>3</sup>История Бухары. / Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.-С. 113

<sup>4</sup>Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.266.

chigallashtirib yubordi. Podshoh hukmronligining so‘nggi yillari o‘zaro urushlar va boshboshdoqliklar bilan o‘tdi. Natijada xonlik taxti uning o‘g‘li Ubaydullaxonga o‘tadi. Urug‘ va qabila boshliqlari otaliq boshchiligida ba‘zan xonlardan siyosiy maqsadlarda foydalanishgan. Masalan, Nodir Muhammad o‘z o‘rnini vorisiga bergan bo‘lsa, Subhonqulixonning Muhammad Muqim sultonni taxt vorisi etib belgilash istagi amalga ham oshmagan; Xonning xohishiga qarshi Ubaydulla Sulton (1702-1711)ni xonlik taxtiga o‘tqazishgan<sup>1</sup>.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, hukmdorning o‘zaro kurashlarga chek qo‘yish uchun qilgan harakatlari oson kechmadi, sababi unga ko‘plab qarshiliklar bo‘ldi. Kelishmovchiliklar natijasida Balx hokimi Muhammad Muqimxon o‘zini Buxorodan mustaqil deb e’lon qiladi. Yirik amirlar va mansabdorlarning, hokimlarning mavqei oshib borish jarayoni tezlashib boraverdi<sup>2</sup>. “Ubaydullanoma”da otaliq lavozimining obro‘si oshib borganligi ta’kidlanadi. Vaholanki, hukmdorning o‘zi 1707-yilda Odilbiy mingni Balx viloyati mulklarining boshlig‘i etib tayinlaydi<sup>3</sup>.

Ubaydullaxon davrida pul islohoti o‘tkazilib, 1708 yilda mamlakatda yangi tangalar muomalaga chiqarila boshlandi. Lekin bu ham xalqning noroziligiga sabab bo‘lgan, chunki tangalar tarkibidagi kumushning miqdori 4 barobar kamaytirilib, miqdori avvalgi tangalarga tenglashtirilgan. Ammo mahsulot sotib olish jarayonida ularning qiymati avvalgisiga barobar qilib qo‘yilishi xalqning noroziligini keltirib chiqardi<sup>4</sup>. Ubaydullaxon o‘tkazgan pul islohotidan norozi bo‘lgan aholi vakillari qo‘zg‘olon ko‘tarishadi. Natijada hukmdor boshqaruviga putur etadi, ammo 1709-yilda ko‘tarilgan va Movarounnahrning ko‘plab shaharlari bo‘ylab tarqalgan qo‘zg‘olon Ubaydullaxonning toju taxti xavf ostida qolganligini ko‘rsatar edi. Buxoroning himoyasi uchun tayinlangan xon – Xudoyorbiy mang‘it Qorako‘ldan qo‘shimcha kuchlarni chaqira boshlaydi<sup>5</sup>.

Ubaydullaxon hukmronligining so‘nggi yillari O‘rta Osiyo siyosiy xaritasida yangi davlat – Qo‘qon xonligining tashkil topishi

---

<sup>1</sup>Султонов Т. Чингиз и Чингизиды. -Москва: Евразия, 2017. Глава 3, § 3.4. -Б. 403.

<sup>2</sup>Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.266.

<sup>3</sup>Ўша манба, -Б.269.

<sup>4</sup>История Бухары, /АН РУз, под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.-С. 113.

<sup>5</sup>История Бухары. / Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976. –С. 120.



bilan belgilanadi. Minglar sulolasidan bo‘lmish Shohrux ushbu davlat hukmdoriga aylanadi. Shaharlarning bunday boshboshdoqliklari va mustaqil hokimiyatga intilishlari davlatni ich-ichidan emira boshladi. Bu holat esa rasmiy sulola vakillari uchun ushbu hududlarni nazorat qilish imkoniyatini qisqartira boshladi.

1711-yil Ubaydullaxonga nisbatan suiqasd uyushtirildi. Uning tarixini yozgan muallifning guvohlik berishicha, hukmdorning o‘zbilarmonlik siyosati tufayli saroydagi bir guruh kishilar davlat ishlarini qo‘lga olib, zulm yo‘liga o‘ta boshladilar<sup>1</sup>. Ubaydullaxon bunday vaziyatni bilib turib ham chora qo‘llay olmagan. Natijada davlat amaldorlari va lashkarlarining unga nisbatan e’tibori kamayib, suiqasd uchun qulay imkoniyat hosil bo‘lgandi. Bunga sabab noto‘g‘ri pul islohoti, xalqqa solingan 40 dan ziyod soliq va xonlikda yuqori mavqega ega Jo‘yboriy shayxlarga nisbatan ham soliqlarning joriy qilingani edi.

So‘nggi Ashtarxoniy hukmdorlardan biri Ubaydullaxon saroy fitnasi natijasida Buxoroning Piri Marza chorbog‘ida o‘ldiriladi. Fitnaga xonning qo‘riqchilar boshlig‘i rahbarlik qilgan. Hukmdorning jasadi Buxoro yaqinida joylashgan Bahouddin Naqshband mozoridagi “Daxmai shohon”da, otasi Subhonqulixon qabri yonida dafn qilinadi.

Buxoroni boshqargan Joniylar sulolasi vakillarining sakkizinchisi Abulfayzxon Subhonqulixonning o‘g‘li, Ubaydullaxonning ukasi edi. Ubaydullaxon fojiasidan so‘ng mamlakatda markaziy boshqaruv zaiflashib qoladi. Bunday vaziyatda Abulfayzxonning o‘zi ham ularga qarshi biror chora ko‘rishga ojiz edi<sup>2</sup>. Oxir-oqibat markaziy hokimiyat boshqaruvni butunlay yo‘qotib, davlat hokimiyati urug‘-qabila boshliqlari qo‘liga o‘tadi<sup>3</sup>. Abulfayzxon esa ular qo‘lida qo‘g‘irchoq hukmdorga aylanib qoladi. Abulfayzxonning yagona umidi va tayanchi – lashkarlar edi, xolos. Mamlakatda o‘zaro nizolar kuchaygan, chuqur iqtisodiy-siyosiy tanazzul yuz berayotgan edi<sup>4</sup>.

Abulfayzxonning hukmdorlik davrida mang‘it urug‘laridan Muhammad Hakim otaliq lavozimiga tayinlanib, davlat boshqaruvida

---

<sup>1</sup> Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.268.

<sup>2</sup> Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.268.

<sup>3</sup> Султонов Т. Чингиз и Чингизиды. –Москва: Евразия, 2017. Глава 3, § 3.4. -Б. 403

<sup>4</sup> Абулфайзхон. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси -Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси /www.ziyouz.com кутубхонаси.

faol ishtirok eta boshlaydi. 1722-yilda kenegas urug'ining sardori Ibrohimbiy Abulfayzxonga qarshi chiqib, Samarqandda kuyovi Rajab sultonni xon deb e'lon qiladi<sup>1</sup>. Bundan ko'zlangan maqsad Muhammad Hakimbiyning hokimiyatini zaiflashtirish edi. Hattoki Rajab Sulton qo'shin bilan Buxoroga yurish qiladi, lekin u o'z maqsadiga erisha olmaydi. Shundan keyin ular qozoqlar yordamiga umid qila boshlaydilar. Qozoqlarning bu hududlarga kelishi yaxshilik bilan tugamadi. Sababi qozoqlar Movarounnahr shaharlarini 7 yil davomida talon taroj qilib ketishgan.

1739-1740-yillarga kelib sulolaning zaiflashib qolishi eronlik istilochi Nodirshoh uchun qulay imkoniyat yaratib berdi va afshoriylar qabilasidan bo'lmish bu hukmdor Buxoroga tomon yurish boshlaydi. Qarshi va Qorako'l yonidagi janglarda qo'shin soni ko'p bo'lishiga qaramay, Buxoro qo'shinlari engiladi<sup>2</sup>. 1740-yilda Eron qo'shinlari Buxoro xonligi ustidan zafar qozonadilar. Abulfayzxon o'z taxtida qoldirilgan bo'lsa-da, davlat boshqaruvida mang'it urug'i yirik vakillari, xususan, Muhammad Hakim otaliqning mavqei yuksaladi. Bu voqealar mahalliy tarixchi-buxorolik Vafo Karmanagi, xivalik Munis asarlarida mufassal yozib qoldirilgan<sup>3</sup>. Nodirshoh tomonidan qo'lga kiritilgan o'ljalar orasida Amir Temurning qilichi va choroyna, Qur'on nusxasi, qabr ustidagi nefrit toshi bor edi. Ularning ayrimlari Nodirshoh tomonidan asl joyiga qaytarilgan<sup>4</sup>.

Keyinchalik mahalliy hokimiyat Muhammad Hakim otaliq qo'lga o'tadi. Uning vafot etishi bilan, 1743-yildan mamlakatda yana tartibsizliklar avj ola boshlaydi. Hukmdorga nisbatan norozilik kuchayib boraverdi. 1745-yil bahor bayramida Miyonqolda Ibodulla boshchiligida qo'zg'olon ko'targan qipchoqlar Buxoroga bostirib kiradilar. Bu qo'zg'olonni bostirish maqsadida Eronga ketib qolgan Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy qaytib keladi. Ammo uning Buxoroga kelishi oson kechmadi. Rahimbiy Buxoro yo'lida o'z chorbog'i G'ozibodda o'rnashib oladi. Keyinchalik, Abulfayzxonni taxtdan ag'darish borasida Jo'ybor

---

<sup>1</sup>Бартольд В.В.. Сочинения. –Т.II, -Ч.1, - Москва: изд. Восточной литературы, 1963. -С. 268.

<sup>2</sup>История Бухары. / Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.-С. 121

<sup>3</sup>Бартольд В.В.. Сочинения. –Т.IV, - Москва: изд. Восточной литературы, 1966. -С. 241-242.

<sup>4</sup>Ўша асар, -Б. 241-242.

xo‘jalari bilan muzokaralar olib boradi.<sup>1</sup> Nodirshohning 1747-yil sodir bo‘lgan vafotidan keyin Muhammad Rahimbiy mamlakatda o‘z mavqeini mustahkamlab oladi. Oradan ozgina vaqt o‘tmay, Abulfayzxon taxtdan qulatilib, uning o‘rniga o‘g‘li Abdulmo‘min taxtga o‘tqaziladi. Shunday qilib Buxoroning Eronga vassalik davri tugab, Buxoroda ashtarxoniy-joniy sulolasi vakillarining hukmronligi o‘z nihoyasiga etadi. Abdulmo‘min, undan so‘ng esa Ubaydullaxon rasman xon deb e‘lon qilinsa-da, amaldagi hokimiyat mang‘itlar qo‘liga o‘tadi.

XVIII asr O‘rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan parokandalikka yuz tutish davri hisoblanadi. Buxoro ko‘p millatli davlat bo‘lib, shu davrda Buxoro xonligi tarkibiga Afg‘onistonning shimoliy qismlari, Balx kabi bir qator hududlar kirar edi<sup>2</sup>. XVIII asrga kelib, bu vaqtgacha 2400 yillik ulkan tarixiy taraqqiyot yo‘liga ega o‘zbek davlatchiligida bo‘linish, tarqoqlik holati yaqqol namoyon bo‘la boshladi<sup>3</sup>. Bu O‘rta Osiyo siyosiy xaritasida endi uchta alohida davlat ko‘rinishini olishi bilan yakunlandi. Ya‘ni hokimiyat maydoniga minglar sulolasi davlat tepasida bo‘lgan Qo‘qon xonligi qo‘shildi.

Ashtarxoniylarning sulola ichidagi qarama-qarshiliklari, o‘zaro urushlar, boshboshdoqliklar markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, mamlakat hududlarining kichrayishiga va oqibatda jamiyatda urug‘-qabila boshliqlari mavqeining oshib ketishiga sabab bo‘ldi<sup>4</sup>. Va oxir oqibat bu Buxoro taxtining Ashtarxoniylar sulolasi qo‘lidan ketishi va hokimiyatda boshqaruv yangi sulola – mang‘itlar hukmronligining boshlanishi bilan yakunlandi.

Ashtarxoniylar sulolasi vakillarining tashqi siyosati faol tarzda amalga oshirilgan bo‘lib, qo‘shni va chet el mamlakatlari bilan o‘zaro elchilik, diplomatik va savdo aloqalari yaxshi rivojlangan. Hukmdor Imomqulixon davrida Hindiston, Eron va Rossiya bilan elchilik munosabatlari o‘rnatilgan. Aynan uning zamonida Rossiyadan Ivan

---

<sup>1</sup>История Бухары. / Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.-С. 122

<sup>2</sup>Бартольд В.В.. Сочинения. –Т.II, -Ч.1, - Москва: изд. Восточной литературы, 1963. - С.164.

<sup>3</sup>Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.278.

<sup>4</sup>Стэнли Лэн-Пуль. Мусульманские династии. Хронологические и генеалогические таблицы с историческими введениями./Перевод с английского с примечаниями и дополнениями В. В. Бартольда. –Москва: Восточная литература, Муравей, 2004. - С. 199

Xoxlov 1620-1622-yillarda Buxoro xonligi hududiga tashrif buyuradi. Ivan Xoxlov Buxoroga elchilar va savdogarlar jamoasini boshlab kelgan<sup>1</sup>. Uning hukmronligi davridagi elchilik munosabatlari orqali mamlakatning tashqi xavfsizligini ta'minlashga intilganligini ko'ramiz, zero ayrim hududlar, jumladan, Hazorajot va Kobul uchun Boburiylar bilan ziddiyatga borishganligi ham sir emas.

Ayni mana shu davrda Buxoro xonligining Rossiya bilan iqtisodiy va diplomatik aloqalari rivojlanish bosqichiga kira boshlagan. Buxoro elchilari o'zlarining bir qancha savdo karvonlari bilan Moskvaga borishardi. Hatto 1613- yilda ikki davlat orasidagi o'zaro savdo aloqalari pasaygan davrda ham qozonliklar bir necha marotaba xatlar almashinuvi natijasida Buxoro va Xivadan 300 ta savdogar kelgan bo'lsa, javob tariqasida Rossiya Buxoroga elchilar va savdogarlar guruhini jo'natdi<sup>2</sup>.

Bundan tashqari Imomqulixon davrida Buxoroning bir qator mamlakatlar bilan olib borgan tashqi siyosiy aloqalari haqida o'z davri manbalarida juda ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan<sup>3</sup>. 1618-yilda u Xitoyga elchilar yuborgan bo'lsa, Ivan Xoxlov elchiligiga javoban Moskvaga elchilar uzatadi.

Ayrim vaziyatlarda amaldorlar ham keng ta'sir doirasiga ega bo'lishgan. Sulola vakili Vali Muhammadning taxtdan qulatilib, uning o'rniga Imomqulixonning o'tirishi ham elchilik munosabatlari yordamida Xurosonda tiklangan hokimiyatning osongina qo'ldan chiqarilganligi oqibatida sodir bo'lgan<sup>4</sup>. Chunki bu uchun ancha mashaqqat chekkan amaldorlar bunga jimgina qarab tura olmas edilar.

“Silsilat as-salotin” asarida Abdulazizxonning boshqa ashtarxoniy hukmdorlar singari Hindiston, Eron va Turkiya kabi davlat rahbarlari bilan yozishmalaridan namunalar<sup>5</sup> keltirilgan bo'lib, bu bizga shu davrda mamlakatlararo o'zaro aloqalarning qay darajada bo'lganligini bilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari

---

<sup>1</sup>Веселовский Н. И. Хохлов И.Д. “Русский посланник в Персию и в Бухару в XVIIв.” - Санкт-Петербург:, 1891. -С.12, 17

<sup>2</sup>История Бухары, /АН РУз, под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.-С. 118

<sup>3</sup>Зияев А. Х. «Силсилат ас-салотин» как исторический источник. /Автореферат. – Ташкент: 1990. -Б. 11

<sup>4</sup>“Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарк, 2000,-Б.261.

<sup>5</sup>Бўрибой Аҳмедов. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. -Тошкент: Ўқитувчи, 2001. -Б. 232

Abdulazizxon 1669-yilda mullo Farruh boshchiligidagi<sup>1</sup> elchilarni Rossiyaga uzatgan bo'lsa, bu elchilikka javoban Buxoroga aka-uka Pazuxinlar boshchiligidagi rus elchilari tashrif buyurishadi. Keyinchalik, Usmoniylar davlati bilan ham diplomatik aloqalarni mustahkamlab borganlar, masalan, 1673-yilda Abdulazizning elchilari Usmoniylar imperiyasi tomonidan Istambulda qabul qilingan<sup>2</sup>. Tadqiqotchilarning e'tirof etishiga qaraganda, Abdulazizxonning diplomatik aloqa o'rnatish qobiliyati mavjudligi va bundan Xiva, Dehli, Isfahon va Istambulga uzatadigan elchiliklarida foydalangan.

Ushbu hukmdor zamoniga kelib Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan qiziqishi ortib ketishi natijasida, Pyotr I tomonidan dastlabki harbiy ekspeditsiyalar uzatila boshlangan. 1717-yilda Rossiyaga Qulibek to'pchiboshi rahbarligida elchilar uzatilgan. Rossiya tomonidan xonliklarga uzatilgan Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi bosqinchilik harakatlariga zamin tayyorlagan harakatlarning ibtidosi bo'ldi<sup>3</sup>. XVII-XVIII asrlardanoq xonliklarga o'qotar qurollar savdosi ta'qiqlab qo'yilgan edi.

Abulfayzxon davridagi tarixiy voqealar XVIII asrda yashab o'tgan marvlik tarixchi Muhammad Kozimning "Nomayi olamaroyi Nodiriy" asarida ham uchraydi. Unda asosan Eron qo'shinining 1747-yilda O'rta Osiyo hududiga bostirib kirish holatlari tasvirlangan<sup>4</sup>. Bundan tashqari "Silsilat as-salotin"da qo'shni Eron safaviylari va Hindistonda boburiylar bilan olib borilgan aloqalar haqida hikoya qilinadi<sup>5</sup>.

## **8.2. Oliy hukmdorlar va Jo'ybor xo'jalari**

Shayboniylar sulolasi vakillari Buxoro xonligini boshqargan XVI asrning o'rtalariga kelib vaziyat taranglashgan va taxt uchun kurashlar maydoniga bir nechta Shayboniy shahzodalar tushishgan.

---

<sup>1</sup> Прием в России и отпуск среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях. Составил Н.Веселовский.

-Спб.,1884. -С.17

<sup>2</sup> Васильев А. Знамя и меч от падишаха. -Москва: Институт востоковедения РАН, 2014. -С.93

<sup>3</sup> Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.277.

<sup>4</sup> Бўрибой Аҳмедов. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. -Тошкент: Ўқитувчи, 2001. -Б. 232

<sup>5</sup> Зияев А. Х. «Силсилат ас-салотин» как исторический источник. /Автореферат. – Ташкент: 1990. -Б. 16

Ubaydullaxonning vafotidan keyin kechgan davrda hattoki mamlakatda qisqa muddatga bo'lsin ikkita xon bo'lgan. Biroq bunday vaziyat uzoq davom etmaydi. Samarqandda hukmdorlik qilgan Baroqxon Buxoroni zabt etganda taniqli jo'ybor shayxlaridan biri Xo'ja Islom uning hokimiyatini tan olmaydi<sup>1</sup> va o'z shogirdi Iskandarxonning o'g'li Abdullani taxtga o'tqazishga qaror qiladi.

Jo'ybor xo'jalari o'zlarini islom dinini targ'ib qilish uchun Makkadan Nishopurga, undan Buxoroga kelgan Imom Ali Murtazo avlodi deb hisoblaganlar. Ulardan Abu Bakr Sa'dga va uning avlodlariga somoniylar davrida Buxoroning shayx ul-islomi degan mansab beriladi<sup>2</sup>. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida ham ularning kelib qolish tarixi bayon etilgan. Ularning faoliyati, kelib chiqishi, jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" (XVI asr), Husayn as Saraxsiyning "Manoqibi Sa'diya" (XVI asr), Badriddin Kashmiriyning "Ravzat ar-rizvon" (XVI asr), Muhammad Tolibning "Matlab ut-tolibin" (XVII asr), Do'stmuhammad Buxoriyning "Jo'ybor al-asror" (XVII asr), kitoblarida ma'lumot berilgan.

XVI-XVII asrlarda mamlakat siyosiy hayotida, markaziy hokimiyatni kuchaytirish yo'lidagi kurashlarda va hattoki ichki va tashqi siyosatda diniy ulamolar, ruhoniylarning bevosita ta'siri bo'lganligini ko'rish mumkin. Zero, ularning vakolatlari Shayboniylar davrida qudratli tusga kirib, Jo'ybor xo'jalari va Abdullaxon II orasida olib borilgan yozishmalar ham ilmiy o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Jo'ybor xojalarining ta'siri Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi yillarida ham sezilarli mavqega ega bo'lgan. Jo'ybor xo'jalari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi yo'lida ham xizmat qilishgan. Masjid va madrasalar qurilishi ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar sirasiga kiradi. Ko'rilayotgan davr nuqtai nazaridan olib qaralganda, ular nafaqat davlatning diniy va dunyoviy ishlarida qatnashishgan, balki ichki va tashqi savdoda ham faol bo'lganlar. Bunga misol tariqasida 1625-yilda Jo'ybor xo'jalaridan Abdurahimxo'janing Hindistonga elchi qilib jo'natilishini ko'rsatish mumkin<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup>Бухоро Шарқ дурдонаси/ Муаллифлар жамоаси.-Тошкент: Шарқ 1997,-Б. 56.

<sup>2</sup> Жўйбор хожалари. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси -Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси /www.ziyouz.com кутубхонаси..

<sup>3</sup>Бухоро Шарқ дурдонаси/ Муаллифлар жамоаси.-Тошкент: Шарқ, 1997,-Б. 57.

Imomqulixon faoliyatida Jo'ybor xo'jalariga munosabat alohida o'rin tutardi. U bu xonadon ijtimoiy salohiyatini hisobga olgan holda xonadon vakillari bilan yaxshi aloqa o'rnatadi. O'z singlisini Jo'ybor xo'jalari vakili Xo'ja Tojiddinga (1574-1646) nikohlab berib, xon saltanati mavqeini mustahkamlashga harakat qildi. O'z navbatida Xo'ja Tojiddin iltimoslarini ham erda qoldirmasdi. Ba'zan ohu ovi bilan mashg'ul bo'lgan Imomqulixonning bir bor ovi baroridan kelmadi. Bundan darg'azab bo'lib o'z lashkarlariga ov qilinayotgan hudud atroflarida yashayotgan aholining mol-mulkini talashga buyurdi. Lekin Xo'ja Tojiddin aralashuvi bilan aholi mol-mulki g'oratdan saqlab qolindi. Ayrim davlat lavozimlariga odam tayinlashda Imomqulixon Xo'ja Tojiddin maslahatlarini olib turgan.

Nadrmuxammadxon (1642-1645) xukmronligining so'nggi yillarida Buxoroning e'tiborli zotlaridan Xo'ja Tojiddin Jo'yboriy bilan xon o'rtasidagi munosabatlar sovuklashdi. Xo'ja Tojiddin xatto uzining tungich farzandi Muxammad Yusuf Xo'jaga Nadrmuxammadxon bilan aloka kilishni ta'qiqalaydi va u bilan Balxga bormaslikni maslahat beradi. Zero, Nadrmuxammadxonga karshi fitna uyushtirilayotganidan Xo'ja Tojiddin vokif edi. 1645-yilga kelib amirlarning nizolari avjga chiqdi. Nizolar tepasida amir Boqi turardi. Nadrmuhammadxon amirlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf kilish uchun ular ustiga o'g'li Abdulazizxonni yubordi. Rahimbek, Sevinch-biy, Muhammadyor-biy kabi amirlar Abdulazizxonga uni otasi o'rniga xon kilib ko'tarmoqchi ekanliklarini, agar bunga rozi bulmasa, har ikkalasini ham Buxorodan badarg'a qilmokchi ekanliklarini aytishdi. Abdulazizxon ularning shartlarini qabul qilib o'zini Buxoro xoni deb e'lon qildi. Uning nomi xutbaga qo'shib o'qildi. Xo'ja Tojiddin Jo'yboriy Abdulazizxonning taxtga chiqish marosimida ishtirok etdi. Ya'ni Arkka borib davlat xazinasini ochdi va hukmdorga shohona liboslar kiydirish marosimini boshqardi. Yangi sohibi toj, ya'ni Abdulazizxon otasiga maktub yullab, bo'lib o'tgan hodisa uning xohish-irodasiga zid ravishda sodir bo'lganligini ta'kidladi va undan kechirim so'radi. Toj-taxtdan ajragan Nadrmuhammadxon Marv tomonga yuzlandi va boburiy Shohjahondan (1627-1658) yordam so'rashga majbur bo'ldi. Marvga etganda u «Meni Hazrat Eshon (Xo'ja Tojiddin) Buxorodan badarg'a kildilar», degan ekan.

Abdulazizxonning(1645-1680) Buxoro taxtini egallashiga Xo'ja Tojiddin Jo'yboriyning aralashuvi Abdulazizxon zimmasiga

o'zi mansub bo'lgan Jo'yboriyalar xonadoni vakillariga nisbatan muayyan mas'uliyat yuklardi. SHu mas'uliyatdan kelib chiqqan holda, u jamiyat e'tiborida bo'lgan Jo'yboriyalarga yaxshi munosabatda bo'ldi va oldingi hukmdorlar tarafidan o'rnatilgan Jo'yboriyalar bilan chambarchas aloqa olib borish an'anasini davom ettirdi.

Abdulazizxon Buxoro xoni deb e'lon qilingan o'sha suronli kunlarda Samarqanddan Buxoroga o'tlangan yangi xonni, ya'ni Abdulazizxonni kutib olish va uni muborakbod etish uchun Xo'ja Tojiddin Jo'yboriy uning istiqboliga chiqib, Zanjirsaroy mavzeida xon bilan uchrashadi. Bo'lib o'tgan muloqotda har ikkala tomon ham birbiriga iltifotlar ko'rsatishdi.

Haytlarda Abdulazizxon tomonidan Xo'ja Tojiddin Jo'yboriyga alohida hurmat ko'rsatilib, uni xonning yoniga o'tqazishardi. Xon saroyidagi oliy majlislar ham Xo'ja Tojiddin ishtirokisiz o'tmasdi. Xo'ja Tojiddinning tashrifi Abdulazizxon uchun alohida mamnuniyat baxsh etgan.

Jo'ybor xo'jalarining boshqa bir vakili – Muhammad Yusuf Xo'ja (1593-1651) bilan Imomqulixon munosabatlari juda yaxshi edi. Unga Imomqulixon tomonidan ko'plab in'omlar qilingan. Lekin xo'jazodalarning boshqa bir vakili Abdurahimxo'ja (1575-1628) bilan Imomqulixon o'rtasida o'zaro kelishuv amalga oshmadi. Ular o'rtasida yuz bergan ixtilof oqibatida Abdurahimxo'ja hajga ketishga majbur bo'ladi, Mol-mulki esa Imomqulixon buyrug'i bilan musodara qilinadi. Uning tashabbusi bilan Sumitanda boshlangan madrasa qurilishi oxiriga etkazilmay qoldi va g'ishtlari turli maqsadlarda tashib ketildi.

Sulola namoyandasi Ubaydullaxon davriga kelib, mamlakatda avj olib ketgan o'zaro kurashlar va ichki nizolar Jo'ybor xo'jalariga ham ta'sir qilmay qolmadi. Hukmdorning o'tkazgan islohotlari natijasida yuqori tabaqa vakillarini siqib chiqarish, hattoki ularning soliq to'lash daxlsizligi singari huquqlarining poymol etilganligi hodisasi fikrimiz dalili. Vaholanki, Jo'ybor xo'jalarigi nisbatan amalga oshirilgan bunday qaltis siyosat vaziyatni yanada murakkablashtirgan. Mamlakatda sodir bo'layotgan og'ir inqirozlar, siyosiy nizolar va o'zaro urushlar natijasida ular o'zlarining avvalgi mavqe'larini yo'qota boshlaganlar.

Buxorodan uncha uzoq bo'lmagan joyda Chor-Bakr majmuasi qad ko'targan bo'lib, bu erda bir qator ulug'lar va avliyolar dafn



qilingan. Majmua masjid, madrasa, xaziralalar, minora, saqoxona va yirik qabristondan iborat. Ziyoratgohga o'z vaqtida katta vaqf erlari ajratilgan bo'lib, ularga xo'jalarning merosxo'rlari egalik qilishgan va bu erlar ular xo'jaligining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Mustaqillik yillari Buxoroning boshqa tarixiy obidalari qatorida ushbu majmua ham qayta ta'mirlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jo'ybor xo'jalarining ko'p asrlik tarixini, ularning ilm-fan ravnaqiga qo'shgan hissalaridan tortib mol-mulklarini ezgulik ishlariga sarflaganliklarini Narshaxiy, Iso ibn Muso, Muhammad Avfiy, Ahmad ibn Mahmud kabi o'nlab allomalar ijodida ko'rishimiz mumkin. SHuningdek, rus olimlaridan V.L.Vyatkin, P.P.Ivanov, O.Suxareva, g'arb olimlaridan Robert Mekch, F.Shvars, o'zbek olimlaridan B.Ahmedov, H.To'raev, K.Kattaev, S.Husenov va I.Rajabovalar birmuncha tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar<sup>1</sup>.

### **8.3. Ashtarxoniylar davri Buxoro me'morchiligi**

O'rta Osiyo, ayniqsa Buxoro karvon yo'llari kesishmasida joylashgan muhim ahamiyatga ega shahar sanalanganligi uchun bu shaharda xo'jalik, ma'muriy va ma'rifiy ahamiyatga ega binolarning ko'p bo'lishi tabiiy holat edi. Buxoroda sulolalar almashinuvi ko'p kuzatilgan bo'lishiga qaramay, shaharda qurilgan binolar o'zining mahobati, bezak uslublari, foydalanish jihatlariga ko'ra o'zgarib boravergan. Ayniqsa, Buxoro va Samarqand shaharlarida me'morchilik binolarida avval mavjud bo'lgan an'analardan foydalanilgan va ularga qisman o'zgartirishlar kiritib borilgan. Binolarning tashqi va ichki intererlarini bezatishda sirkor g'isht parchalaridan foydalanish davom etgan<sup>2</sup>.

Buxoro Shayboniylar sulolasi taxtdan ketib, ashtarxoniylar sulolasi vakillari hokimiyat tepasiga kelgandan keyin ham o'zining poytaxt maqomini saqlab qoldi. Buxoro xonligi tasarrufiga kirgan hududlarida shaharsozlik va me'morchilik avvalgi mahobat bilan bo'lmasa-da ancha rivoj topdi. Ko'plab ma'rifiy va ma'muriy xo'jalik binolari, jumladan, masjid, madrasa, karvonsaroy, bozor, xonaqoh va hammomlar barpo etildi. Faqatgina ularning tashqi qiyofasidagi ayrim

<sup>1</sup>Хусенов С, Ражабова И. Чор-Бакр. -Тошкент: Шарк, 2001. -Б. 139.

<sup>2</sup> Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. - Москва: Искусство, 1982. – Б. 35.

o'zgarishlarni inobatga olmaganda, avvalgi davrlar an'anasi mavjud bo'lib qoldi.

Buxoro xonlik poytaxti bo'lgan davrda alohida me'morchilik maktablari<sup>1</sup> tashkil etilib, nafaqat poytaxtda, balki boshqa shaharlarda ham shaharsozlik borasida katta ishlar amalga oshirilgan. Siyosiy vaziyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar, hukmdorlar va ularning amaldorlari tarafidan qurilish ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuning natijasi o'laroq, poytaxtda Abdulazizxon, Ubaydullaxon madrasalari, Boqi Muhammad, Ubaydullaxon masjidlari, Subhonqulixon Registonda qazdirgan quduq, Dor ash-shifo, Balxda Nodir Muhammad va Subhonqulixon madrasalari, uning atrofida chorbog'lar, Balx arkidagi imoratlar, hazrati Ali mozoridagi gumbaz<sup>2</sup> hamda boshqalar fikrimizning tasdig'idir.

Ushbu davrda Buxoro me'morchilik maktabi namoyondalari tomonidan barpo etilgan inshootlarda alohida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, ular bir-birini takrorlamaydi, ya'ni har biri alohida geometrik (aniqrog'i stereometrik) chizma asosida tuzilgan. Me'morchilik inshootlarining interer qismlari yangi bunyod etilayotganlari uchun rivojlanish yo'lida manba<sup>3</sup> bo'ldi va bu an'ana keyingi davr tarixiy yodgorliklariga ko'chib o'tdi.

O'zaro urushlar, iqtisodiy tanglik yillarida esa binolarni barpo etishda boshqa oddiyroq, ammo iqlimiy o'zgarishlarga chidamli mahsulotlardan ham keng foydalanilgan. Jumladan poydevoriga nam ko'tarilmasligi uchun qamish yotqizilgan holatlar ham uchraydi<sup>4</sup>. Yoki bo'lmasa, ichki devorlar orasiga g'isht bo'laklari va xom g'ishtlardan ham ishlatilgan.

Ashtarxoniylar sulolasining poytaxti bo'lmish Buxoro shahri me'morchiligida ushbu davrda me'morlar inshootlarning qurilishiga alohida e'tibor berishgan hamda binolarning bezak ishlarida naqshinkor mayolika aralash usuldan foydalanganlar, ko'pincha terrakota asosida geometrik mozaikani ham ishlatishgan<sup>5</sup>. Ammo

---

<sup>1</sup>История Бухары. Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.- Б. 145.

<sup>2</sup>Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарқ, 2000.- Б.273.

<sup>3</sup>История Бухары. Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.- Б. 145.

<sup>4</sup>Бухоро Шарқ дурдонаси/ Муаллифлар жамоаси.-Тошкент: Шарқ 1997. - Б. 99.

<sup>5</sup> Ўзбекистон тарихий обидаларидаги битиклар. Бухоро/ Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Uzbekistan Today, 2016. -Б. 538.

siyosiy va iqtisodiy tanazzul oqibatida ularda ishlatilgan bezaklarning sifati tobora pasayib boravergan.

Buxoro me'morchilik maktabi Temuriylar davrida bunyod etilgan Ulug'bek madrasasi asosida shakllangan bo'lib, buning o'ziyiq mintaqada me'morchilik an'anasiga aylanadi. Bu shakldagi binolarni barpo etish usuli O'rta Osiyoning boshqa inshootlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, XVII asr boshlarida Shayboniy Abdullaxon II davrida erishilgan yutuqlardan kam foydalanilib, asosan Temuriylar davri me'moriy inshootlariga taqlid kuchaya borgan. SHu bilan barovarida yirik ansambllar barpo etish an'anasi qayta tiklana bordi.

O'rta Osiyo me'morchiligining go'zal kompozitsion ko'rinishi sanalmish Labi Hovuz ansambli bugungi kungacha ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. U bir necha tarixiy me'moriy inshootlardan tashkil topgan. Ansambl inshootlari ichida dastlab qurilgani Ko'kaldosh madrasasi sanaladi. 1569- yilda Shayboniy hukmdor Abdullaxon tomonidan O'rta Osiyoda yirik madrasa qurdirishga qaror qiladi. Shuning natijasida davlat amaldori Qulbobo Ko'kaldosh qurilish ishlariga boshchilik qilgan. Qiziqarli jihati, bu Abdullaxon davrida Ko'kaldosh qurdirgan yagona madrasa emas edi.<sup>1</sup> Inshoot O'rta Osiyo madrasalari orasida eng kattasi hisoblanib, o'z ichiga 160 ta hujrani qamrab olgan. Ammo ushbu o'quv binosi mablag' va turar joyi tejash maqsadida ikkita gumbazli qilib barpo etilgan.<sup>2</sup> Inshoot o'z davri me'morchilik qoidalariga ko'ra mozaika va mayolika bilan bezatilgan. Ichki qismida masjid va xujralari mavjud. Lekin bu paytda u ansamblshakliga kirmagan edi.

Bugungi kunda me'moriy ansambl tarkibiga kiruvchi yana bir inshoot Nodir Devonbegi xonaqosi sanaladi. Xonaqohlar kamdan kam holatlarda markaziy ansambllarning tarkibiy qismi sanalgan.<sup>3</sup> Asosiy hollarda ular, davlatning boy amaldorlari va shayxlarning muridlari tomonidan bunyod etilgan. Mazkur inshootning ichki qismi kvadrat ko'rinishidagi zal shakliga ega, uning yuqorisi gumbaz bilan qoplangan. Binoning tashqi tomonidan hujralar taqab qurilganligiga guvoh bo'lamiz. Asosiy peshtoq mozaika bilan bezatilgan bo'lib, arab yozuvidagi yozuvlar tasviri mavjud. Inshootning yon tomoni esa

<sup>1</sup> Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарқ, 2000. - Б.251.

<sup>2</sup> Бухоро Шарқ дурдонаси/ Муаллифлар жамоаси.-Тошкент: Шарқ, 1997.- Б. 103.

<sup>3</sup> Ўша манба. -Б.102

guldasta-mezanalar bilan bezatilgan. Ashtarxoniylar hukmronligi davriga kelib, hovuz atrofida binolar qurilishi bilan Labi Hovuz me'moriy ansambliga aylana bordi.<sup>1</sup> Garchi qurilayotgan inshootlar kam bo'lsa-da, ammo binolarning mahobati bilan avvalgilariga raqobatdosh bo'lgan. Ma'lumki bu paytda Ko'kaldosh madrasasi qurib bo'lingan edi. Qiziqarli jihati bu me'moriy inshootlarning birortasi ham hukmdor nomi bilan atalmasligi bilan alohida ajralib turadi.



**Nodir devonbegi xonaqosi**

Vazir nomi bilan bog'liq bo'lgan yana bir inshoot Nodir Devonbegi madrasasidir. Aslida karvonsaroy vazifasida qurilgan inshootning boshqa madrasalardan farqli jihati miyonsaroyning mavjud emasligida. Bundan tashqari, asli boshqa maqsadda barpo etilgan madrasada dars xonalar, masjid, xos ayvonlar mavjud emas. Aslida yuqorida sanalganlarning hammasi o'quv binolari uchun xarakterli sanalgan.

---

<sup>1</sup>История Бухары. Под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.- Б. 119.



**Nodir devonbegi madrasasi**

Bino 1622-1623-yillar oralig'ida barpo etilgan. E'tiborli tomoni shundaki, Nodir Devonbegi madrasasi peshtoqidagi quyoshga tomon uchayotgan qush tasviri berilganligi 1437-yilda Ulug'bek uchun tayyorlangan jadvalda keltirilgan burjlarning berilganligi bilan izohlanadi<sup>1</sup>. Ayrim manbalarda bunday tarzda ifodalanish ikki xil talqin qilinadi va ikkalasi ham islom dini kirib kelishidan oldingi mazmuni, ya'ni munajjimlikni ifodalaydi<sup>2</sup>. Madrasa hovuzning sharqiy tomonida joylashgan bo'lib, xonaqo bilan birgalikda qo'sh uslubni eslatadi. Madrasaga aylantirilgan karvonsaroyning tarhidan shuni bilish mumkinki, unda madrasa uchun xos bo'lgan o'quv zali uchramaydi<sup>3</sup>. Shuningdek, uning ichki qismida qo'shimcha peshtoqlari mavjud emas. Qiziqarli jihati shundaki, madrasa va xonaqo deyarli bir davrda qurilgan va har ikkalasida ham mozaikadan foydalanilgan. Biroq ulardagi mozaikalar bir-biridan farq qiladi.

---

<sup>1</sup> Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. - Москва: Искусство, 1982. – Б. 148.

<sup>2</sup> Бухоро Шарк дурдонаси/ Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Шарк, 1997. - Б. 106.

<sup>3</sup> Всемирная история архитектуры. Под ред. Н. В. Баранова. В 12 томах. Т.8. - Москва: Издательство литературы по строительству, 1969. – Б. 325.

Masalan, xonaqo peshtoqidagi kitoba mayolikali mozaika uslubida bajarilgan bo‘lsa, madrasa binosida geometrik mozaikani<sup>1</sup> uchratamiz.

Shuningdek, Devonbegi nomi bilan ataladigan hovuz<sup>2</sup> 5 metr chuqurlikka ega bo‘lib, sakkiz qirrali ko‘rinishga ega. Uning uch tomoni me‘moriy yodgorliklar bilan o‘ralgan bo‘lib, faqatgina janubiy – Shohrud kanali va savdo ko‘chasiga ro‘para ko‘chasi ochiq qoldirilgan xolos. Mazkur hovuz shu hududda saqlanayotgan hovuzlar ichida kattalaridan biri hamda me‘moriy ansamblning ajralmas qismi sanaladi. Zeroki, shahar markazidagi ushbu ansamblning nomi ham bevosita u bilan bog‘liq. Hovuzlar asosan yaqin oradagi aholini ichimlik suvi bilan ta‘minlash vazifasini bajargan. Ularning atrofi doim meshkoblar bilan to‘la bo‘lgan. Bu XX asr boshlarida chet ellik fotograflar tomonidan olingan suratlarda ham o‘z aksini topgan.

Ashtarxoniylar davriga kelib monumental qurilishlar kamaysada, shaharning markaziy qismlarida vujudga kelayotgan ansambllar o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turavergan. Jumladan, Labi Xovuz ansambli fikrimiz isboti. Abdulazizxon madrasasi bunyod etilishi bilan Buxoroda qo‘sh madrasalar soni yana bittaga ortgan. Bundan tashqari, 1617-yilda Registon maydonida Poyandabiy masjidi barpo etiladi<sup>3</sup>. 1637-yilda esa Mag‘oki Ko‘rpa masjidi qad rostlagan. Hukmdor qarorgohi sanalmish Ark qo‘rg‘onida joniylar hukmronligi davrida ko‘plab inshootlar qad ko‘targan. Bu haqda Nosirxon To‘raning “Tahqiqoti Arki Buxoro” kitobida etarlicha ma‘lumotlar uchraydi<sup>4</sup>. Masalan, Abdulazizxon davrida barpo etilgan Marosimxona binosi, Subhonqulixon davrida qad ko‘targan Jome‘ masjidi binolari shular jumlasidandir.

XVII asrda Samarqand Registon ansamblining hozirgi qiyofasi shakllantirildi. Samarqand hokimi Yalangto‘sh Bahodir 1619-1635-yillarda Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi qarshisida, vayron etilgan xonaqoh<sup>5</sup> o‘rnida SHerdor madrasasini, 1646-1659-yillarda Tillakori masjid-madrasasini barpo ettiradi. Samarqand Registon ansambli o‘zining rang-barang koshinkor bezaklari, naqshinkor

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон тарихий обидаларидаги битиклар. Бухоро/ Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Uzbekistan Today, 2016. -Б. 538

<sup>2</sup>Б.В. Вейрман. Искусство Средней Азии. -Москва-Ленинград: Искусство, 1940.-С. 104.

<sup>3</sup>История Бухары, /АН РУз, под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.-С. 121

<sup>4</sup>Андреев М.С, Чехович О.Д, “Арк Бухары”. -Душанбе: Дониш, 1972.-С. 14

<sup>5</sup> Регистон. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси -Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси /www.ziyouz.com кутубхонаси.

peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O‘rta Osiyo me‘morchiligining noyob tarixiy yodgorligi sanaladi.

XVII asrning 60-yillaridan Buxoro siyosiy kurashlar maydoniga aylanib boraverishi natijasida uning madaniy va iqtisodiy ahamiyati biroz pasaygandek bo‘ldi<sup>1</sup>. O‘sha davrda Eronga tashrif buyurgan polyak elchisi kuzatuvlariga qaraganda, Abdulazizxon “turli fan sohalarida, ayniqsa, matematika sohasida olim odam” bo‘lgan. U forslarga tez-tez o‘z kuchini his qilish imkoniyatini berardi<sup>2</sup>. Shu o‘rinda yana bir ma‘lumot, qolgan ashtarxoniy hukmdorlar singari Abdulazizxon ham ijod kishisi sanalgan. Jumladan, u “Aziziy” taxallusi bilan she‘rlar bitgan<sup>3</sup>. Shuningdek, u nasx va nasta‘liq xatida yozishni, maktub va insho mashqini zamonasining eng sara allomalaridan o‘rgangan edi. Keyinchalik oliy hukmdor darajasiga etishganda, Hindiston, Eron va Rumga xoh turkiy, xoh forsiyda bo‘lsin, noma bitilarkan, ularni o‘zi tahrir qilib, yoqmasa boshqatdan o‘zi yozarkan<sup>4</sup>.

Abdulazizxon hukmronligi davrida me‘morchilik sohasiga alohida e‘tibor qaratilib, Buxoroda o‘z nomi bilan va Volidai Abdulazizxon, Samarqandda Tillakori madrsalarini barpo ettiradi. Ular orasida tashqi peshtoqi muqarnasi betakror sanaladigani bu Buxoro shahridagi Abdulazizxon madrasasi sanaladi. O‘rta osiyo mem‘orchiligining XVII asrdagi g‘oyat ulkan me‘morchilik namunasi haqida Pugachenkova hamda Rempelning “Ocherki iskusstva Sredney Azii” kitobida etarlicha ma‘lumot berilgan. Shuningdek, hukmdor o‘z davrida qo‘lyozmalar kutubxonasini tashkil etadi. Abdulazizxon tomonidan barpo etilgan Mirakon, Bozori Go‘sfand, Xiyobon madrasalarining ayrimlari bizning davrimizgacha etib kelgan.

---

<sup>1</sup>История Бухары, /АН РУз, под редакцией И.Муминова. -Ташкент: Фан, 1976.-С. 113

<sup>2</sup>Витсен Н. Северная и Восточная Тартария, включающая области, расположенные в северной и восточной частях Европы и Азии./ Николаас Витсен; пер. с гол. яз. В. Г. Трисман; ред. и науч. рук. Н. П. Копанева, Б. Наарден. -Амстердам: Pegasus, 2010. -С. 186

<sup>3</sup>Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Тошкент: Шарқ, 2000,-Б.271.

<sup>4</sup> Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. -Ташкент: Изд-во АНУзССР, 1956. -С. 109



**Abdulazizxon madrasasi**

O‘rta Osiyo me‘morchiligining noyob namunasi sanalgan Abdulazizxon madrasasi tashqi intereri o‘ta nozik did bilan ishlanganligi bilan alohida ajralib turadi. Unda bir-biriga yaqin bo‘lgan ranglar uyg‘unligi muqarnas qismida ajoyib manzara kasb etib turadi. Madrasada ishlatilgan hamma bezaklar – yangi va qadimgi usullarning uyg‘unligi qo‘llanilishining ensiklopediyasi deb hisoblash mumkin<sup>1</sup>. Sababi ajoyib va fusunkor ushbu madrasaning kitobalari uch xil usulda bezatilgan. Bular mayolikali mozaika, naqshinkor mayolika hamda geometrik mozika<sup>2</sup>.

Buxoro shahrida xo‘jalik binolari qurilishiga alohida e‘tibor berilgan bo‘lib, ularning aksariyati shahar markazlarida, bozor va savdo rastalari yaqinida qurilgan. Birgina Registon maydonining o‘zida bozor binosi atrofida Subhonqulixon tomonidan barpo etilgan Dor ash-shifo (apteka) majmuasi mavjud bo‘lgan. Afsuski ushbu inshoot bizning kungacha etib kelmagan.

O‘rta Osiyoda hammomlar joylashgan joyiga qarab turlarga bo‘lingan. Umumshahar yoki guzar hammomlari bir-biridan farq

---

<sup>1</sup>Пугаченкова Г.А, Ремпель Л.И “Очерки искусства Средней Азии” -Москва: Искусства, 1982. -С 36

<sup>2</sup> Ўзбекистон тарихий обидаларидаги битиклар. Бухоро/ Муаллифлар жамоаси. - Тошкент: Uzbekistan Today, 2016. -Б. 538



qilgan<sup>1</sup>. O‘rta asr hammomlarining ayrimlari hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Arxeologik tadqiqotlar natijasida ham hammom qoldiqlari topilgan. Hammomlar jamoat binolari oldida, ko‘p hollarda masjidlar yonida barpo etilgan.

Buxoro me‘morchiligida saroy va boy zodagonlarning mehmonxonalari qurilishiga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bunday inshotlarning hajmi, bezalishi kabi belgilari xonadon sohibining jamiyatdagi mavqeini belgilagan.<sup>2</sup> Dahlizning yuqori qismida alohida mehmonlar uchun shahnishin (shoh o‘tiradigan joylar) qurilgan.

Buxoro me‘morchiligidagi ushbu an‘analar keyingi davrlar uchun ham xarakterli bo‘lib hisoblangan. Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining so‘nggi podsholari davrida Buxoro Registonida Bolo-Hovuz masjidi barpo etilgan.



**Bolohovuz masjidi**

Ubaydullaxonning hukmronlik yillari o‘sha davr saroy munshiyasi vazifasida faoliyat yuritgan Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” kitobida 1702-1716-yillar orasida ro‘y bergan voqealar bayon etilgan<sup>3</sup>. Ammo kitob uning vafotidan keyin yozilgani ma‘lum. Bundan tashqari Ubaydullaxon mamlakatda

<sup>1</sup> X. Алимов. Бухоронинг қадимий ҳаммомлари. Мозийдан садо, 2011. №1-2.-Б.

<sup>2</sup> Б. Буранов. Бухоро шаҳнишинлари. Мозийдан садо, 2003. № 3-4.-Б. 56

<sup>3</sup> Бўрибой Аҳмедов. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. -Тошкент: Ўқитувчи, 2001. -Б. 232

obodonchilik ishlariga e'tibor qaratgan. U madrasa va Buxoroning g'arbida Xonobod chorbog'i(1709)ni barpo qilgan<sup>1</sup>.

XVIII asr shaharsozligida Buxoro Registoni g'arbiy tomonida, Ark qal'asining to'g'risidi 1712-yilda Bolo-Hovuz masjidi barpo etildi<sup>2</sup>. Joniylar davri me'morchiligining ko'plab inshootlari bizning kunimizgacha etib kelmagan va tadqiqotchilar nigohini o'ziga tortib kelmoqda. Bundan tashqari Buxoro shaharsozligida o'rta asr uylari andazasi saqlangan bo'lib, tor ko'chalar suv va daraxtlari kam holatda uchrab turgan<sup>3</sup>. Buxoro shahridagi boy zodagon va savdogarlarning uylari 3 qismdan iborat bo'lib, xo'jalik, erkaklar va ayollar hovlilariga bo'lingan. Buning yorqin namunasi bizning kunimizgacha saqlanib qolgan Ubaydulla Xo'jaev uyi sanaladi. Ushbu hovlidagi mehmonxonalar, xonalarning soni, katta-yu kichikligi xonadon sohibining jamiyatdagi mavqeini belgilagan<sup>4</sup>.

Ushbu davrlarda hukmdorlar saroylari ikki xil vazifani bajarganligi manbalarda yozilgan. Birinchisi – asosan ma'muriy-siyosiy vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'lib, qal'a yoki hisor ichiga qurilgan. Ikkinchisi - shahar tashqarisidagi qarorgoxlar bo'lib, bog'-rog'lar bag'rida edi. Bu erda ham qabul marosimlari bazm bilan o'tgan. Buxoro Arkida yashagan Nosirxon To'ra "Tahqiqot" asarida qarorgohda joniylar sulolasi davrida barpo etilgan inshootlarni ham sanab o'tadi<sup>5</sup>.

Ashtarxoniylar davriga kelib shaharsozlikda asosan ansambl shakldagi tarixiy-me'moriy inshootlar qad ko'tarishni boshladi va bu hozirgi kunda Buxoro shahrining eski shahar qismida saqlanib qolgan tarixiy inshootlarda o'z aksini topadi. Ular o'z davri me'morchiligining ulkan va betakror namunalari sanalib, katta hajmdagi qurilish ishlari ushbu davrda ham jadal davom etganligini ko'rsatadi. Eng qiziqarli jihati shaharni obodonlashtirish va yangi inshootlarning qurilishiga saroy amaldorlari ham o'z hissalarini qo'shib, o'z nomlarini tarix sahifalariga bitib qo'yishdi. Me'morchilikda ushbu davrda me'morlar inshootlarning qurilishiga

---

<sup>1</sup>Убайдуллахон. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси -Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси /www.ziyouz.com кутубхонаси.

<sup>2</sup>Пугаченкова Г.А, Ремпель Л.И "История искусств Узбекистана" -Москва: Искусства, 1965. -С 375

<sup>3</sup>Ўша манба. -С. 383

<sup>4</sup> Буранов Б. Бухоро шаҳнишинлари /Мозийдан садо, 2003. № 3-4. -Б. 56

<sup>5</sup>Андреев М.С, Чехович О.Д, Арк Бухары. -Душанбе: Дониш, 1972. -С. 14

alohida e'tibor berishgan hamda binolarning bezak ishlarida naqshinkor mayolika aralash usuldan foydalanganlar, ko'pincha terrakota asosida geometrik mozaikani ham ishlatishgan<sup>1</sup>. Ammo siyosiy va iqtisodiy tanazzul oqibatida ularda ishlatilgan bezaklarning sifati tobora pasayib boravergan. Hozirga qadar saqlanib qolgan joniylar davri masjid va madrasalardagi devoriy bezaklar bunga misol.

**Tayanch so'z va iboralar:** davlati inqirozi, parokandalik, iqtisodiy hayot, qarama-qarshiliklar, xonlik poytaxti, sulola vakillari, davlat boshqaruvi, diplomatik aloqalar, karvonsaroy, registon maydoni, mozaika, me'moriy inshootlar.

### *Nazorat uchun savolar*

1. Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi haqida fikr yuriting?
2. XVII asrning 60-yillarida Buxoro va Xiva munosabatlari qay ahvolda edi?
3. Ashtarxoniy Abdulazizxon hukmronlik davri haqida gapiring?
4. Ubaydullaxonning pul islohoti va uning oqibatlari?
5. Abulfayzxon hukmronlik yillarida siyosiy hayot?
6. Ashtarxoniylar davrida Jo'ybor xo'jalarining ijtimoiy mavqei?
7. Ashtarxoniylarning bunyodkorlik faoliyati haqida so'zlab bering?
8. Ashtarxoniylar davrida Registon maydonida joylashgan yodgorliklar?

### *Test topshiriqlari*

1. Ashtarxoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan?
  - A) 1605-yil
  - B) 1924-yil
  - C) 1630-yil
  - D) 1601-yil
2. Boqi Muhammad, Vali Muhammad va Dinmuhammad qaysi sulola vakillari?
  - A) Ming'itlar
  - B) Shayboniy lar
  - C) Somoniylar
  - D) Ashtarxoniylar
3. Ashtarxoniy Abdulazizxon hukmronlik yillarini ko'rsating?

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон тарихий обидаларидаги битиклар. Бухоро /Муаллифлар жамоаси.- Тошкент: Uzbekistan Today, 2016. -Б. 538

- A) 1645-1680 -yillar
- B) 1605-1645 - yillar
- C) 1680-1702 -yillar
- D) 1702-1747 -yillar

4. Ashtarxoniylardan keyin Buxoroda hokimiyat tepasiga kelgan sulola?

- A) Mang'itlar
- B) Shayboniylar
- C) Minglar
- D) Kenagaslar

5. Ubaydullaxon pul islohoti o'tkazgan sanani aniqlang?

- A) 1703-yil
- B) 1710-yil
- C) 1701-yil
- D) 1708-yil

## **9-MAVZU: MANG'ITLAR DAVRIDA BUXORO**

**9.1. Mang'it hukmdorlari davrida siyosiy hayot**

**9.2. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi yarim mustamlakasiga aylantirilishi**

**9.3. Buxoro amirligining markaziy va mahalliy boshqaruvi**

**9.4. Mang'itlar davrida Buxoroda madaniy hayot (me'morchilik, adabiyot va san'at)**

### **9.1. Mang'it hukmdorlari davrida siyosiy hayot**

XVIII asr 40-yillariga kelib Buxoro xonligida siyosiy va iqtisodiy inqiroz kuchaydi. Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon (1711-1747) hukmronlik yillarida markaziy hokimiyatning zaiflashuvi natijasida Buxoro xonligidan Qo'qon ajralib chiqib, bu erda mustaqil xonlikka asos solindi. Mamlakatning beklklarga bo'linish xavfi kuchaya bordi. Buning ustiga asli turkman urug'idan bo'lgan Eron shohi Nodirshoh afshorning (1736-1747) Buxoroga hujumi va mamlakatning asosiy shaharlari - Buxoro hamda Samarqandning ular tomonidan egallanishi va talanishi siyosiy vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Shunday murakkab vaziyatda

tarix sahnasida yangi siyosiy kuch – mang‘itlar sulolasi paydo bo‘ldi. Nufuzli mang‘it biylari (beklari)dan Muhammad Hakimbiy otaliq (vafoti 1743) mang‘itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi uchun shart-sharoit yaratib berdi. Muhammad Hakimbiyning o‘g‘li Muhammad Rahim zimmasiga yangi sulola va davlatga asos solishdek ma’uliyatli vazifa tushdi. Muhammad Rahim 1715-yilda tug‘ilgan. Tarixchi Miriy (Mir Husayn ibn Shohmurod)ning yozishicha, u Shahrizabzda mo‘g‘ullar quvg‘in qilingan paytda, amakisi Muhammad Doniyolbiy otaliqdan 5 yil keyin dunyoga keladi<sup>1</sup>.

Muhammad Rahim o‘spirin va yoshlik yillaridan epchil chavandoz bo‘lib, turli qurol-aslahalardan mohirlik bilan foydalangan. Otasining ko‘magi bilan u ashtarxoniylardan Buxoro xoni Abulfayzxon saroyida yuqori lavozimlarda xizmat qiladi. Eron hukmdori Nodirshohning Buxoroga hujumidan keyin mamlakatda uning mavqei yanada oshadi. Buning ustiga Abulfayzxonning qiziga uylanib, o‘z mavqeini yanada mustahkamlaydi. Tarixchilarning yozishicha, u Nodirshoh xujumidan keyin Buxoroning obro‘li kishilaridan 12.000 nafarga bosh bo‘lib, ularni oq uyli sifatida Eron poytaxti – Mashhadga olib kelgan. Muhammad Rahim otasi vafot etganda Nodirshohning ruxsati bilan qiblagohining dafn marosimini o‘tkazish uchun 1743-yil Buxoroga kelib ketadi. Keyinchalik Ibodullohbiy boshchiligidagi xitoy-qipchoq qavmlari ko‘targan isyonni bostirish uchun Nodirshohning buyrug‘i bilan 1745-yil yana Buxoroga qaytadi va qo‘shbegi lavozimini egallaydi. Nodirshoh va Abulfayzxon unga otaliq unvonini berishadi.

Aynan shu yildan boshlab u Buxoro xonligining amaldagi hukmdoriga aylanadi. Nodirshohning to‘satdan o‘ldirilishi haqidagi xabar Buxoroga etib kelgach, Muhammad Rahim qushbegining buyrug‘i bilan 1747-yil Mir Arab madrasasi hujralarining birida yashiringan Abulfayzxon o‘ldiriladi. Biroq Muhammad Rahim Buxoro taxtiga bevosita o‘zi o‘tirishdan hayiqib, taxtga marhum xon Abulfayzxonning 9 yoshli o‘g‘li Abdulmo‘minxonni (1747-1751) o‘tgazadi, va yosh “xon” ga qizini berib, uni o‘ziga kuyov qilib oladi. Biroq oradan 4 yil o‘tgach, o‘z kuyovi Abdulmo‘minxonni ham o‘ldirtirib, taxtga nevarasi Ubaydullaxon III ibn Abdulmo‘minxonni

---

<sup>1</sup> Қ.Ражабов. Муҳаммад Раҳимхон Манғитлар сулоласи асосчиси. Бухоро мавжлари. № 3. 2005. Б.36

(1751-1754), keyinchalik Shergʻozini (1754-1756) oʻtqazadi. Muhammad Rahim qushbegi yuqorida nomlari keltirilgan qoʻgʻirchoq xonlar davrida markaziy hokimiyatga boʻysunishni xohlamayotgan Miyonqol, Nurota, Urgut, Jizzax, Oʻratepa, Xoʻjand, Toshkent, Shahrisabz, Boysun, Hisor, Qabodiyon, va boshqa beklklar ustiga yurish qilib, ularni boʻysundiradi. Xususan, ayirmachilik kayfiyatini namoyon qilayotgan Shahrisabz va Kitobdagi kenagaslar ustiga 3 marta yurish qilib, ularni tobe qiladi. Burqut, bahrin, kenagas, qipchoq, yuz, saroy va boshqa oʻzbek qavmlarini mamlakatning turli hududlariga koʻchirib, Buxoro xonligining yaxlitligi va xavfsizligi uchun izchil kurashgan.

Muhammad Rahim qushbegi hokimiyatni markazlashtirish siyosatini faol suratda olib borb, qudratli amirlarni lavozimlaridan boʻshatadi va ularning oʻrniga oʻrta tabaqa vakillarini tayinlaydi. Nihoyat, Muhammad Rahimxon 1756-yil 12-dekabrda Buxoro xonligi taxtiga rasmiy ravishda xon boʻlib oʻtirgach, Buxoroda mangʻitlar sulolasining hukmronligi boshlanadi. Muhammad Rahimxon Xiva xonligidagi siyosiy nizolardan foydalanib, Xiva taxtiga ham oʻz odamlarini qoʻyadi. Bu haqda oʻsha davr tarixchilarining asarlarida maʼlumotlar saqlanib qolgan. Muhammad Rahimxonning xonlik taxtiga oʻtirishi oʻsha davr muarrixlari tomonidan muhim siyosiy voqea sifatida baholangan. Oʻsha davr manbalarida Muhammad Rahimxon turli faxriy unvonlar bilan tilga olinadi. Biroq Muhammad Rahimxonning mustaqil xonligi uzoq davom etmagan, u ikki yilcha xonlik qiladi, xolos. U Gʻijduvon va Shofirkondagi Xoja Abduxoliq Gʻijduvoni, Xoja Orif Revgariy maqbaralarini ziyorat qilib, Buxoroga qaytayotganida 1758-yil 24-martda, 45 yoshida toʻsatdan kasallanib, vafot etadi. Buxorolik tarixchi Mirzo Abdulazim Somiy Boʻstoniy (1839-1908)ning keyinchalik yozishicha, Muhammad Rahimxon Buxorodagi Shohrud anhuri boʻyida, Mozor darvozasi yonidagi Abu Bakr Tarxon qabristonida dafn qilingan. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Buxoro xoni Muhammad Rahimxon oʻzining qisqa hukmronlik davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qildi, Abulfayzxon davrida qoʻldan ketgan Buxoro xonligi hududlarini ancha kengaytirdi va Buxoroda 173 yil hukm surgan mangʻitlar sulolasiga asos soldi.

Maʼlumki, mangʻitlar sulolasi 1745-yildan boshlab amalda, 1756-yildan esa rasman Buxoro xonligini boshqarganlar. 1758-yil 24-

martda mang'itlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahimxon to'satdan vafot etgach, marhum xonning vasiyatiga ko'ra Buxoro xonligi taxtiga 1758-yil mart oyida shoshilinch ravishda Muhammad Rahimxonning balog'at yoshiga etmagan nevarasi Fozil To'ra o'tkazilib, unga Fozilxon nomi berildi. Fozilxon marhum xonning qizi va saroydagi nufuzli biylardan Norbo'tabiy o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan xonzoda edi. Muhammad Doniyolbiy esa yangi xonga otaliq qilib tayinlandi. Chunki Muhammad Doniyolbiy otaliq bu paytda mang'it urug'ining eng keksa vakili bo'lgan. Siyosiy hokimiyatning bunday o'zgarishidan norozi bo'lgan xonlikdagi ayrim viloyatlarning hokimlari, kenagas, yuz, bahrin, burqut (berkut), saroy urug'larining boshliqlari (biylar va amirlar) markazlashgan hokimiyatga qarshi isyon ko'tarib, 10000 yigitni qurollantirgan holatda poytaxt Buxoro ustiga harbiy yurish boshlaydilar. Ularga qarshi kichik miqdordagi qo'shin bilan ancha tortishuvlardan so'ng bir bitimga kelishadi. Mazkur bitimga ko'ra, Fozilxon taxtdan tushirilib, uning o'rniga ashtarxoniy shahzodalardan bo'lgan Abul G'ozixon xonlik taxtiga o'tkazilgan (758-1785). Muhammad Doniyolbiy esa, ham otaliq mansabini, ham amaldagi hukmdorlikni o'z qo'lida saqlab qolgan va shu bilan birgalikda u o'zini Buxoro amiri deb e'lon qilgan. Muhammad Doniyolbiy amalga oshirgan dastlabki tadbir - o'zboshimcha amaldorlar Tog'aymurodbiy burqut, Nur (Nurota) viloyati hokimi Jahongir saroy va G'uzor viloyat hokimini vazifasidan olib tashlash va ularni qatl qilish bo'ldi.. O'zining isyonkor harakatlari bilan "tanilgan" etti urug' qavmini Miyonqoldan Shahrisabzgacha, Boysundan Sherobodgacha tarqatib yuboradi. Bu orada yuz urug'ining etakchisi Fozilbiy yuz Xo'janddan O'ratepaga kelib, ko'p lashkarlar bilan Jizzaxni oladi. Samarqand ustiga yurish qilib, Buxorodagi Markaziy hokimiyatga qarshi isyonni qaytadan avj oldiradi. Muhammad Doniyolbiy otaliq muzokaralar o'tkazib sulh tuzadi. Muhammad Doniyolbiy otaliq "qo'g'irchoq xon" Abul G'ozixonni taxtdan nomigagina olib tashlaydi. 1758-yili Muhammad Doniyolbiy otaliq Buxoro amiri deb e'lon qilinadi va bu uning dushmanlari tomonidan ham e'tirof etiladi. Biroq rasmiy ravishda Abul G'ozixon Buxoro xoni bo'lib qolaveradi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Ражабов Қ. Муҳаммад Дониёлбий оталиқ.(бийлик мансабидан амирлик рутбасигача). Бухоро мавжлари. № 3. 2005. Б.26-27

Xullas, Muhammad Doniyolbiy 27 yil davomida (1758-1785) Buxoro amirligini boshqaradi va siyosiy markazlashuv jarayonini mustahkamlashga harakat qiladi. Ba'zi qabila boshliqlarining o'zboshimchaligiga qarshi kurashadi. Qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini olib borishga katta e'tibor qaratadi. Rossiya podsholigi bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlashga e'tibor qaratib, 1774-1776 va 1779-1780-yillarda Ernazar elchi (to'liq ismi Mulla Muhammad Ernazarboy Maqsud o'g'li) boshchiligidagi Buxoro elchilarini Moskva va Sankt-Peterburgga jo'natadi. Ular Rossiya malikasi Ekaterina II va valihd Pavel tomonidan rasmiy ravishda qabul qilingan. Shuningdek, Ernazar elchi 1780-yil, Muhammad Sharif 1783-1784-yillarda elchi qilib usmonli turk sultonligining poytaxti Istanbulga jo'natilgan. Tarixchi olim va so'fiy Humuliy (1776- taxminan 1852) o'zining "Tarixi Humuliy" asarida keltirishicha, Muhammad Doniyolbiy shayx, so'fiy va ulamolarga saxiylik ko'rsatgan va ularni juda e'zozlagan. U harbiy qo'shin ta'minotini ham yaxshilaydi. Askarlarni zamonaviy qurollar bilan qurollantiradi.

Amir Muhammad Doniyolbiyning o'n ikki o'g'li bor edi. Davlat boshqaruvida ulardan ayrimlarining ishtirokini kuzatish mumkin U hukmronlik davrining so'nggi yillarida davlat ishlarini aksariyat hollarda qo'shbegi, devonbegi va o'z o'g'illariga taqsimlab bergan. 1775-yil u saroy a'yonlari va ra'iyat talabi bilan amirlik taxtini o'z o'g'li Shohmurodga topshiradi va oradan ko'p o'tmay, 75 yoshida vafot etadi. Amir Muhammad Doniyolbiy Bahouddin Naqshband mozori yonidagi "Dahmai shohon"da dafn etilgan. Xullas, Buxoro amiri Muhammad Doniyolbiy o'zining 27 yillik hukmronligi davrida mamlakat uchun katta ishlar qildi. Muhammad Rahimxondan keyin mang'itlar saltanatini parchalanib ketishdan aynan u saqlab qoladi.

Muhammad Doniyolbiydan so'ng taxtga mang'itlar sulolasining birinchi amiri - amir Shohmurod (1785-1800) o'tiradi. Amir SHohmurod mang'itlarning ilk hukmdorlaridan edi. Doniyolbiy otaliqning o'n bir o'g'lidan eng kattasi bo'lib, garchi bosh qozi uni hokimiyatdan mahrum etishni maslahat bergan bo'lsa-da, u Buxoro taxtiga voris qilib tayinlandi va otasi vafotidan keyin 1785-yilda Buxoro amiri sifatida taxtga o'tirdi. Bu davlat arbobining ham shaxsi



ziddiyatli bo‘lib, u haqida ko‘pgina mualliflar turlicha fikr bildirishgan.

Amir Shohmurodning davlat arbobi bo‘lib shakllanishida so‘fiylik oqimining ta’siri juda kuchli bo‘lgan. Ko‘pgina tarixiy manbalarda uning so‘fiy va darveshsifat bo‘lgani qayd etiladi. U yoshligida shayx xizmatiga kirib, unga sodiqlikka qasam ichgan, xalq ko‘z o‘ngida oddiy hayot kechirib, hammollik bilan shug‘ullangan. Tarixchi Mulla Olim Mahdum Hoji o‘zining “Tarixi Turkiston” asarida: “Shohmurodbiy ziyoda so‘fiy, xudoga yaqinlashish yo‘lini tutgan (doxuli suluk) va taraqqiyparvar, shariat targ‘ibotchisi (shar‘i sharif), taomi o‘z kasbi halolidan edi”, deb xarakterlaydi<sup>1</sup>. Bundan uning Buxoroda vujudga kelib Markaziy Osiyoda keng yoyilgan savdogar va hunarmandlar tariqati bo‘lgan Naqshbandiya tariqatiga e’tiqod qilganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. U ilm ahllarini hurmatlab, ularga homiylik qilgan. So‘fiy, podshoh Shohmurodning ba’zi bir qarashlari uning o‘zi yozgan “Aynul-hikmat” “Bilimdonlik manbai” nomli kitobida ham o‘z ifodasini topgan. Ahmad Donish amir SHohmurod haqida “Amirlik gilamini kambag‘allik kiyimi bilan bezadi, jahon bog‘idan dushmanlik va yomonlik kiyimini sug‘urib tashladi va adolat nihollarini o‘tqazdi”, deb uning faoliyatiga yuksak baho bergan edi. Shohmurodning o‘ta so‘fiyligi uni qahrli, qattiqqo‘l hukmdor bo‘lishiga, mang‘itlar sulolasining davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun birqancha islohotlarni amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmadi. Uning tomonidan o‘tkazilgan harbiy, ma’muriy, moliyaviy islohotlar ko‘p o‘tmay o‘z ijobiy natijasini berdi va mamlakat iqtisodiyotining o‘nglanishiga xizmat qildi. Xarob holga kelgan madrasa hujralarining talabalarga xususiy qilib berilishi va ta’mirlash xarajatlarini ular zimmasiga yuklatilishi bilan madrasalar ikki yilda nochor ahvoldan chiqib oldi. Shohmurod 1800-yil 63 yoshida vafot etdi.

Undan so‘ng taxtga o‘tirgan valiahd amir Haydar (1800-1826) otasining markazlashtirish siyosatini davom ettirdi. Amir Haydarning onasi ashtarxoniyardan Abulfayzxonning qizi Bonu Shams bo‘lgan. Buxoro madrasalarida 10 yil tahsil olib, Qur’oni karim sharhi va hadis ilmlarini puxta egallaydi. Yoshlik paytidayoq diniy bilimlarni chuqur

---

<sup>1</sup> Муқимов З. Амир Шохмурод ислохотлари. Ҳаёт ва қонун. № 2-3. 1995. Б.27

o'rganish, Qur'onni yod olish va kunora ro'za tutishga ahd qiladi<sup>1</sup>. Ushbu uch majburiyatni doimiy tarzda bajarib borgan. Otasi Shohmurodning vafotidan so'ng Qarshidan chaqirib olinadi va an'anaviy tarzda taxtga o'tqaziladi. Amir Haydar Buxoro amirligida vujudga kelgan keskin siyosiy vaziyatni yumshatishga harakat qiladi.

Uning hukmronlik yillarida mamlakatda notinchlik hukm suradi, ya'ni markaz va viloyatlar hamda kechagina viloyat maqomida bo'lgan, lekin endilikda alohida siyosiy birlik - xonlikka aylangan Xiva va Qo'qon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi va mamlakatda har 3-6 oyda uzluksiz ichki urushlar va qo'zg'olonlar bo'lib turar edi. Miyonkol, Shahrisabz, Karki, Marvdagi mahalliy kuchlar yana o'zboshimchalik qila boshlaydi. Amir Haydar ayirmachilik kayfiyatlarni namoyon qilayotgan Shahrisabz, Kitob, Urgut bekliklari, Miyonqol va Samarqand hokimlariga qarshi janglar olib borishga majbur bo'lgan. Amir Haydar Xurosonga ham harbiy yurishlar qilib, 1817-yil Balxni, shuningdek, Badaxshon, Qunduz va Maymanani Buxoro amirligiga qaytaradi. Marv hokimi Din Nosirbek (Amir Haydarning ukasi) Xiva xoni Eltuzarxon qutqusiga uchib, 1804 yil akasiga qarshi bosh ko'taradi va mag'lubiyatga uchraydi. Shu asnoda Xiva xoni Eltuzarxon bir necha marta Buxoroga harbiy bosqinlar uyushtiradi. Ana shunday yurishlarning birida Niyozbek parvonachi boshchiligida 20 ming kishilik Buxoro qo'shini xorazmliklar qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi. Eltuzarxon Amudaryodan qochib o'tayotganda daryoga g'arq bo'lib halok bo'ladi va natijada Eltuzarxonning 3 birodari va qo'plab xivaliklar asir tushishadi. Amir Haydar Eltuzarxonning kichik birodari Qutlug'murodxonni 400 asir bilan ozod qilib, Urganchga jo'natadi. Eltuzarxondan so'ng 1821-1825-yillari amir Haydar Miyonkolda xitoy-qipchoqlar isyonini bostirish bilan ovora bo'lganda xivaliklar Chorjo'y va Marvga harbiy yurish uyushtiradilar. Xivaliklar hatto Marvni zabt etishga ham muvaffaq bo'lishadi. Bungacha ham amirlikning sharqiy qismida ancha yo'qotishlar va o'zgarishlar yuz bergan edi. Masalan, Qo'qon hukmdorlari 1805-yili Xo'jandni, 1809-yili Toshkentni, 1816-yil esa Turkistonni ishg'ol qilib, xonlik hududiga qo'shib olgan edilar. 1806-yili Jizzax, 1806-1813-yillari O'ratepa, 1821-yili Samarqandga tahdid solganlar.

---

<sup>1</sup> Ахмад Дониш. История мангытской династии. –Душанбе:1967. – Б.12

Amir Haydar o'z hukmronligi davrida asosan ichki dushmanlarga qarshi kurash olib boradi. Shahrisabz, Samarqand, Urgut bekliliklarida bo'lib o'tgan g'alayonlar, Marv vohasi uchun Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan olib borilgan urushlar amir Haydarni davlatda harbiy-siyosiy islohotlar o'tkazishga majbur qildi. Amir Haydar boshqa mang'it hukmdorlaridan farqli ravishda o'z qo'shinidagi askarlarga muntazam ravishda yaxshi maosh to'lab borgan. Bundan tashqari u mamlakatdagi soliq yig'uvchilarga yillik maosh ajratish bilan birga, ularga yiliga ikki marta sarupo ulashgan. O'z navbatida kambag'allar, etim-esirlar, qashshoqlar, darveshlar, muhojirlar va mullalarga har yili nafaqa berish uchun katta miqdorda mablag' ajratardi. Amirlikda xitoy-qipchoqlar tomonidan yuzaga kelib turadigan turli mojarolarni oldini olish maqsadida ushbu hududlarga nisbatan turli to'lovlar miqdorini kamaytirgan<sup>1</sup>. Amir Haydar hukmronlik davri qanchalik tahlikali, ziddiyatli bo'lmasin, u ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashish bilan birga mamlakatda birqator islohotlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi.

Amir Xaydardan so'ng Buxoro amirligi taxtini mang'itlar sulolasining keyingi vakili amir Nasrullo (1826-1860) egallaydi. U amir Xaydarning uchinchi o'g'li edi. O'n besh yoshdan otasi uni davlat boshqaruviga jalb qiladi. Otasining hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qildi. Amir Xaydar vafotidan so'ng hokimiyat uchun kurashlarda akalari amir Husayn (1797-1826) va amir Umar (vafoti 1826 y) ni oradan ko'tarib, Buxoro taxtiga o'tiradi. Amir Nasrullo o'z hukmronligi davrida islom shariati ko'rsatmalariga qat'iy amal qilgan. Jasur va dovyurak bo'lganligi bois, uning ismiga «bahodir», «botir» unvonlari qo'shib ishlatilgan. Amir Nasrullo davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida urug' va qavm boshliqlari bo'lgan ko'plab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtirdi. Tarixchi va sayohatchilarning ma'lumotlariga qaraganda, amir Nasrullo hukmdor sifatida davlatning ichki va tashqi dushmanlariga zarba berdi. Uning tomonidan olib borilgan harbiy-siyosiy islohotlar natijasida davlatning harbiy qudrati mustahkamlana bordi. 1837-yilda harbiy sohada islohotlar o'tkazib, o'z qo'shinining jangovar holatini yaxshiladi. Har biri 800 kishidan

---

<sup>1</sup> Шодиев Ж.М.. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши, –Тошкент: 2010. – Б.21.

iborat 50 ta sarboz bo‘luklari va 250 kishilik to‘pchilar guruhi tashkil qilingan. Muntazam piyoda qo‘shining soni 40000 kishidan ortiq bo‘lgan. Amir Nasrullo Xiva va Qo‘qon xonliklarini Buxoro atrofida birlashtirishga urindi. Mamlakatning hududiy yaxlitligini tiklash uchun Qo‘qon xonlari tomonidan tortib olingan Xo‘jand, O‘ratepa, Toshkent, Jizzax va Zominni Buxoro amirligiga qaytardi. 1842-yil Qo‘qonga yurish qilib, xonlik hududini egallaydi. Amir Nasrullo tomonidan Qo‘qonga Ibrohim parvonachi mang‘itning noib qilib qoldirilishi salbiy oqibatlarga olib keladi. Noib mahalliy aholiga zulm o‘tkazib, soliqlarni ko‘paytirdi. Natijada tez orada Qo‘qon qo‘ldan ketadi. Amir Nasrullo 1843-yil Marvni ham Buxoroga bo‘ysundiradi. Shuningdek, Amir Nasrullo 20 yil olib borgan 32 ta harbiy yurishdan so‘ng 1856-yil Shaxrisabzni uzil-kesil egallaydi. Shaxrisabz markaziy hokimiyatga bo‘ysungach, sulh ramzi sifatida mahalliy hukmdor Iskandar Valloma (valine‘mat)ning singlisi Kenagasxonimga uyulanadi.

Amir Nasrullo hukmronlik qilgan yillar Turkiston mintaqasida Rossiya-Angliya manfaatlari o‘zaro to‘qnashgan davr hisoblanadi. Amir Nasrullo Buxoro davlatida qat‘iy markazlashtirish siyosatini olib bordi. Markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni istamagan Shaxrisabz va Kitob bekliklarining qarshiligini sindirib, ayirmachilik kayfiyatlariga barham berdi. Amir o‘z siyosatida butun Movarounnahr va Xorazmni yagona davlatga birlashtirishga intildi. U bu rejasini to‘liq amalga oshira olmagan bo‘lsa ham, qisqa muddat davomida butun Movarounnahrni yagona davlat sifatida boshqardi. Nasrullo 1860-yil 5-oktyabrda vafot etadi. U 56 yil yashagan va 35 yil hukmronlik qiladi<sup>1</sup>. Amir Nasrullo Buxoroda dafn etilgan. Nasrulloning o‘limidan so‘ng taxtga uning yagona vorisi Muzaffar (1860-1885) o‘tiradi. U otasi amir Nasrullo davrida Karmanaga hokimlik qilgan. Muzaffarning hukmronlik davri Rossiyaning O‘rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakatlari kuchaygan davrga to‘g‘ri keladi.

## **9.2. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi yarim mustamlakasiga aylantirilishi**

XIX asrning o‘rtalarida chor Rossiyasi tomonidan O‘rta Osiyoni bosib olish harakatlari Qo‘qon xonligidan boshlanib, Buxoro

---

<sup>1</sup>Ахмад Дониш. История мангытской династии. –Душанбе: 1967. – Б.15

amirlikni qo‘lga kiritishga urinish bilan davom ettirildi. Amirlikning harbiy kuchi Qo‘qon xonligi bilan uzluksiz olib borilgan urushlar tufayli zaiflashgan va chor Rossiyasi uchun qulay vaziyat yuzaga kelgan edi. 1866-yil yanvar oyining oxirida Chernyaev Jizzaxga yurish boshlaydi. Ammo 8-9 ming kishilik shahar himoyachilarining ko‘rsatgan qarshiligi tufayli u orqaga chekinishga majbur bo‘ladi. 1866-yil mart oyida Chernyaev Peterburgga chaqirib olinadi, uning o‘rniga general Romanovskiy yuboriladi. Toshkentga yordam uchun yuborilgan Buxoro amirining 100 ming kishilik qo‘shini bilan general Romanovskiy qo‘mondonligidagi chor Rossiyasi qo‘shinlari o‘rtasida 8-mayda Erjarda bo‘lgan jangda rus qo‘shinlari g‘alaba qozonadi. 24-mayda rus askarlari Xo‘jandda ham g‘alabaga erishadilar. Avgust oyida Romanovskiy Toshkent, Xo‘jand va Chirchiqorti hududlarini Rossiyaga qo‘shib olish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi. Buxoro amiri bilan muzokaralarda kelisha olmagach, Romanovskiy 2-oktyabrda Buxoro amirlikiga qarashli O‘ratepa qal‘asini, 18-oktyabrda esa Jizzaxni bosib oladi. Qizig‘i shundaki, Buxoro amiri rus qo‘shinlariga qarshi birgalikda jang qilishni Qo‘qon xoni Xudoyorxoniga taklif qilganda u turli bahonalar bilan bu ishga bosh qo‘shmaydi.

1867-yilda chor hukumati bosib olgan joylarda Turkiston general-gubernatorligi tuziladi.

1867-yil 7-iyunda rus askarlari Jizzax va Samarqand o‘rtasida joylashgan Yangiqo‘rg‘onda 25 ming kishilik Buxoro qo‘shini va xalq ko‘ngillilarini tor-mor keltiradi. 1868-yil 1-mayda Samarqand ostonasidagi Cho‘ponota tepaligida shiddatli va beayov jang bo‘ladi. 2-mayda Samarqand shahri taslim bo‘ladi. Buxoro amiri Muzaffarxon bu xabarni eshitgach, shu darajada daxshatga tushadiki, jahl ustida bu “shum xabar”ni keltirgan xabarchini osib o‘ldirishga farmon beradi. Samarqandning bosib olinishi bu juda katta yo‘qotish edi. Amir Muzaffarning xalq o‘rtasida obro‘si tushib ketadi. Xalq g‘azabga keladi. Ayniqsa amirning chor hukumati bilan sulh tuzishga moyilligi vaziyatni keskinlashtirib yuboradi. Xalq amirdan urushni davom ettirishni so‘rab qo‘zg‘olon ko‘taradi. Qo‘zg‘olon markazi Cho‘li Malik edi. Amir Muzaffar qo‘zg‘olonning butun Zarafshon vodiysiga tarqalib ketishidan qo‘rqib uni tezda bostiradi-da, beklar bilan kengash o‘tkazadi. Unda urushni davom ettirish yoki sulh masalasi ko‘riladi va urushni davom ettirishga qaror qabul qilinadi. Amir Muzaffar barcha kuchlarni jamlab, Samarqandni qaytarib olishga kirishadi. 15 ming

otliq, 6 ming piyoda va 14 ta to'pli Buxoro qo'shini Zirabuloq tepaligiga kelib o'rtnashadi. Amir Muzaffar qo'shinni ruhlantirish va g'alabaga chorlash niyatida ularga quyidagicha murojaat qiladi: "Sodiq musulmon fuqarolari! Sizlarning zahmatlaringiz uchun rahmat, sizlarni ishontiramizki, g'alaba biz tomonda bo'lgay. Samarqand va Kattaqo'rg'onning qo'ldan ketishi biz uchun unchalik katta yo'qotish emas. Biz temuriylar avlodimiz, o'z erimizni qanday qaytarib olishimizni ko'rsatib qo'yamiz. Musulmonlar! Men dinimiz va vatanimiz uchun musulmon ahlining qahramonona jang qilishini kofirlar ko'z o'ngida namoyon etishingizga umid qilaman. Xalq bizdan g'alaba kutuyapti, u jangdan so'ng sizlarni qarshi olganida din va vatan himoyasi uchun kurashgan va erimizni kofirlardan tozalaganlar, deb aytsin. Zirabuloq jang maydonida halok bo'lganlar sharafiga shonli yodgorlik o'rnatiladi. Ishonchim komilki, sizlar mening umidlarimni ro'yobga chiqarib, samarqandliklar to'nidagi qora dog'ni yuvasizlar. Musulmonlar, sizlarga zafar yor bo'lsin!"

1868-yil 2-iyunda general K.P.Kaufman qo'mondonligidagi qo'shin va himoyachilar o'rtasida jang boshlandi. Buxorolik mudofaachilar ko'p talofot ko'rib mag'lubiyatga uchraydilar. Bu xabar xalq g'azabini battar kuchaytiradi. Amir qo'rqib Qizilqum tarafga qochib ketadi. Samarqandda chorizmga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlanadi. Yurt himoyasiga shahar atrofidagi qishloq va ovullardan minglab kishilar kelib qo'shiladi. Naymanlar, qoraqalpoqlar, xitoy-qipchoqlar, qirq juzlar va boshqa qabilalar Jo'rabek va Bobobek boshchiligida SHahrisabdan kelayotgan 20 ming kishilik qo'shin qasoskorlarga qo'shib, Samarqanddagi qo'zg'olonchilar safini to'ldiradi. Samarqand chorizmga qarshi umumxalq kurashining o'chog'iga aylanadi. K.P.Kaufman Zirabuloq yaqinida Buxoro amirligi qo'shinlarini tor-mor keltirib, tezlik bilan Samarqandga qaytadi. 8-iyunda u Samarqandni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga va shaharni batamom yoqib yuborishga buyruq beradi. 9-iyunda Samarqandda qirg'in boshlanadi va u uch kun davom etadi. Yuzlab odamlar hech qanday so'roqsiz, tergovsiz otib tashlanadi. Samarqanddagi qo'zg'olon yakunlariga ko'ra uning boshliqlaridan 19 kishi o'limga, va yana shuncha kishi Sibirga umrbod surgunga hukm qilinadi. Amir Muzaffar esa sulhdan boshqa chora topa olmaydi. 1868-yil 23-iyunda amir Muzaffarning elchilari Samarqandga K.P.Kaufman huzuriga kelib, sulh tuzishga rozilik bildiradi. Sulhga

ko'ra Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismi xonlikdan ajratib olinib, Rossiya tarkibiga kiritiladi. Amir tovon sifatida 50 ming so'm tilla pul to'lashga va xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa o'rnatmaslikka rozilik beradi. Shuningdek, Rossiya savdogarlariga xonlik tasarrufida bemalol savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanishga hamda karvonsaroylar qurishga ijozat etiladi. Ular to'laydigan boj miqdori buxoroliklar to'laydigandan oshmasligi kerak edi. Xullas, shartnoma tuzilgandan so'ng Buxoro amiri urushni rasman to'xtatib, rus davlatiga tobeligini tan oladi. Bu esa vatanparvar, hurfikrli odamlarning qattiq noroziligiga sabab bo'ladi. Hatto amirning o'g'li Abdumalik Katta to'ra va bir necha nufuzli beklar birlashib, amir Muzaffar va chorizm istilochilariga qarshi kurashni davom ettiradi. Ular amirning taxtdan mahrum etilganini e'lon qilib, Shahrisabz va Kitobda katta kuch to'playdi. Kitob va Shahrisabz beklari Jo'rabek va Bobobek, Katta to'rani xon deb e'lon qiladilar. Natijada amir Muzaffarning ahvoli nihoyatda og'irlashadi. Ota-bola qo'shinlari o'rtasida Samarqand yaqinidagi Jom qishlog'ida sodir bo'lgan jangda amir sarbozlari engiladi. 1868-yilning kuzida Buxoro amiri Muzaffar o'ziga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish uchun general-gubernator nomiga maktub yo'llaydi. Kaufman bu maktubdan shuni anglyaydiki, amirning o'g'li Abdumalik otasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, Qarshi atrofida katta kuch to'plagan. Kitob begi Jo'rabek, Shahrisabz hokimi Bobobek va Sulton Sodiq Kenisarov otryadlari shahzoda armiyasi tayanchlari ekan. O'shanda Samarqand okrugi boshlig'i, general-mayor Abramov bu uch otryad boshliqlaridan eng xavflisi Sodiq Kenisarov ekanini aytgan. Sulton Sodiq Kenisarov 1868-yilda Buxoro amiri qo'shini safida Kaufmanga qarshi kurashadi. Zirabuloqdagi jangda amir qo'shinlari bilan qochganida, Sulton Sodiq o'z yigitlari bilan jang maydonida qoladi. Keyin u Kaufman bilan sulh tuzgan amirga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga qo'shilib, Kitob begi Jo'rabek va Shahrisabz begi Bobobek sarbozlari safidan joy oladi. Kaufman bunday xavfli dushmanlarga qarshi tajribali general Abramovni yuboradi. Qo'zg'olonchilar Qarshi ostonasida rus qo'shinidan engilib, turli tomonlarga tarqab ketadi. Jo'rabek va Bobobek Shahrisabz va Kitobga qochadi. 1870-yil 14-avgustda Kitob shahri shiddat bilan qo'lga olingach, Jo'rabek va Bobobek Qashqar tomon yo'l oladi. Ular Mahram ostonalarida Qo'qon sarbozlari tomonidan hibsga olinadi va

Xudoyorxon amri bilan Kaufmanga topshiriladi. General Kaufman esa ularni o‘z xizmatiga olib rus qo‘shini zobitlari unvonini beradi. Sulton Sodiq esa Qizilqum orqali Xiva xonligi hududiga o‘tib ketadi.

Buxoro amiri Kaufman bilan tuzilgan sulh shartnomasiga ko‘ra, Samarqand hamda Kattaqo‘rg‘ondan ajrabgina qolmay, o‘zining siyosiy mustaqilligidan ham mahrum bo‘ladi. Buxoro amiri rus saltanatining vassaliga aylanib, mamlaka Rossiya saltanati qaramligidagi yurtga-yarim mustamlaka ahvoliga tushib qoladi. Chor Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o‘rtasidagi 1866–1868-yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tgan qattiq janglardan so‘ng Buxoro mag‘lubiyatga uchrab, o‘z hududining katta qismidan mahrum bo‘ldi. Jizzaxdan tortib Kattaqo‘rg‘onga qadar bo‘lgan hududlar Rus hukumati tobeligiga o‘tdi. Rossiya-Buxoro o‘rtasidagi janglarda zabt etilgan hududlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligining Samarqand viloyati tashkil etildi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, Buxoro amirligi 1868-yilga kelib Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on kabi o‘zining yirik aholi manzilgoxlaridan va Zarafshon vohasining yuqori hamda o‘rta oqimidagi hududlardan to‘la mahrum bo‘ldi. Buxoro hukmdori amir Muzaffar o‘z hududining katta qismidan ajralib qolishi bilan bir qatorda, chor Rossiyasiga o‘ta katta miqdorda tovon to‘lashga ham majbur bo‘ldi. Mana shu holatda, Buxoro amirligi XIX asrning 70-yillaridan to 1920-yilga qadar rasman o‘z davlatchiligini saqlab qolgan holda tarix sahnasida faoliyat ko‘rsatib turdi.

Amir Muzaffardan so‘ng taxtga uning vorisi amir Abdulahad (1885-1910) o‘tirdi. Uning hukmronligi Rossiya imperiyasi bilan uzviy bog‘liqlikda o‘tdi. Uning davrida Rossiya imperiyasi hukumati Buxoroda rus siyosiy agentligi ta‘sis etdi. 1868-1873-yillardagi shartnomalar natijasida amirlik Rossiyaga qaram mamlakatga aylantirildi. Buxoro-Rossiya siyosiy, iqtisodiy munosabatlari jonlanib ketganligi, bu munosabatlarda Rossiya manfaatlarini himoya qilish maqsadida oq podsho Aleksandr III ning 1885-yil 12-noyabrdagi farmoni bilan 1886-yil 1-yanvardan boshlab Buxoroda «Rossiya imperatorligining siyosiy agentligi» vakolatxonasi ta‘sis etildi. 1903-yil 6-mayda podsho Nikolay II vakolatxona huquqlarini kengaytirdi.

---

<sup>1</sup> Р.Шамсутдинов, Ш.Каримов, Ў.Убайдуллаев. Ватан тарихи. (XVI-XX аср бошлари), – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б-156.





**P.Yakovlev tomonidan tuzilgan Buxoro shahri xaritasi. 1842 yil.**



**P.I.Lerx arxivida saqlangan Buxoro shahri xaritasi. 1857 yil.**



**Parfyonov-Fenin tuzgan Buxoro shahri xaritasi. 1910 yil.**

Mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishga xizmat qilgan bu muassasaga barcha siyosiy iqtisodiy, harbiy masalalar yuzasidan amir hukumati bilan munosabatda bo'lish, amir va uning vazirlari ustidan nazorat o'rnatish, Zarafshon daryosining suv taqsimoti bilan shug'ullanish, Buxoro-Afg'oniston chegaralarini kuzatib turish, Buxorodagi rus qarorgohlarida gazetalar va teatr p'esalari ustidan nazorat o'rnatish huquqlari berildi. Siyosiy agent chor Rossiyasining rasmiy doimiy vakili bo'lib, Peterburg va Toshkentning Buxoro hukumati bilan qiladigan barcha aloqalari shu agent orqali o'tar edi. Siyosiy agent, shuningdek, Buxoro amirligini o'zining ichki bozoriga aylantirishga intilgan rus sarmoyadorlari manfaatlarini ko'zlab, bojxona tizimi, sanoat, temiryo'l, pochta-telegraf ishlarini to'la o'z nazoratiga oldi. XX asr boshlariga kelib amirlik hududida paxta, qorako'ltari sotiladigan bozorlar joyini belgilash kabi amirlikning mutlaqo ichki ishi hisoblangan masalalarga ham aralasha boshladi. 1917-yil Rossiyadagi Fevral' inqilobidan so'ng agentlik nomi o'zgartirilib Rossiya vakolatxonasiga aylantirildi.

Amir Abdulaxadxon hukmronligining so'nggi yillarida siyosiy vaziyat birmuncha keskinlashdi, buni 1910-yil yanvar voqealari

misolida ko‘rishimiz mumkin: Shaharning shia mazhabidagi aholisi 9-yanvar kuni O‘g‘lon darvozasi yaqinidagi sarbozxonada o‘zlarining motam marosimlari-«shaxsey vaxsey» o‘tkazayotganliklarida sunniy mazhabidagi mullavachchalar ularning bu holidan kuladilar. Bundan g‘azablangan shialar bir mullavachchani o‘ldiradilar va uchtasini qamattiradilar. Sunniylarning vakillari amirning arkiga kelib qushbegi Ostonaquldan gunohkorlarni jazolash va qamalganlarni ozod qilishni talab qiladilar. Qushbegi yig‘ilganlarni haydab yuboradi. Shundan so‘ng aholi registon maydoniga to‘planib, yana o‘z talablarini qo‘yadi. O‘zi shialardan bo‘lgan qushbegi yig‘ilganlarga qarshi sarbozlarni yuboradi va ikki o‘rtada jang boshlanadi. Bozorda ham sunniylar bilan shialar o‘rtasida janjal ko‘tariladi. Sunniylar qo‘lga tushgan narsalar bilan qurollangan edi. Xiyobon madrasasi atrofida shialarning hujumi to‘g‘risida xabar keladi, yig‘ilgan olomon o‘sha tomon yo‘l oladi. Sarbozlar olomonning yo‘lini to‘sadi. Sodir bo‘lgan jangda sunniylardan 240 kishi o‘ldirilgan. Shundan so‘ng sunniylar butun shaharga tarqalib, duch kelgan shialarni qira boshlaganlar. Bu xunrezlik 10-11-yanvar kunlari davom etadi.

Qushbegi Rossiyaning siyosiy agentligiga yordam so‘rab murojaat qiladi. 11-yanvarda Samarqand va Kattaqo‘rg‘ondan polkovnik Panov rahbarligida o‘qchi rota, kazaklar sotnyasi 4 pulemyot bilan keladi. Fojia haqidagi xabar Rossiya poytaxtigacha etib boradi, P.A.Stolipinning buyrug‘i bilan xunrezlikni oldini olish uchun I Turkiston armiyasi korpusi shtabining boshlig‘i general mayor Liliental etib keladi. Karmanada yashayotgan amir Abdulhad Buxoroga o‘zi kelishga jur‘at qilolmay, o‘g‘li (taxt vorisi) Said Olimxonni jo‘natadi. Sunniy xalq qushbegi Ostonaqulni, Said Olim va Mirob Olim to‘qsobalarni hamda xalqqa jabr zulm o‘tkazgan bir qator shia amaldorlarini vazifasidan chetlashtirish, bundan so‘ng ularni davlat ishlariga aralashtirmaslikni talab qiladi. Bu talablar qondiriladi. SHaharda osoyishtalik hukm sura boshlaydi, 15-yanvarda sunniy va shia mazhablari vakillarining yarashish uchrashuvi tashkil etiladi, Shundan so‘ng rus qo‘shinlari shahardan olib chiqiladi.

Bu xunrezlikda shahar hunarmandlari, ishchilar, mayda savdogarlar, mullavachchalar, ruhoniylar va boshqalar qatnashadi. Xunrezlik haqidagi xabar amirlik tumanlaridagi aholini ham junbushga soladi. Yanvar fojialarida umumiy hisoblarga qaraganda mingdan ortiq kishi halok bo‘lgan. Bu xunrezlik amirlik va

mustamlakachi Rossiya ma'murlarini vahimaga solib qo'ygan. Ushbu voqealar XX asr boshlarida amirlikdagi siyosiy vaziyat qanchalar keskinlashganini ko'rsatadi.

Amir Abdulahad vafotidan keyin taxtga o'tirgan uning o'g'li Said Olimxon (1910-1920) Peterburgdagi Nikolaev korpusida ta'lim olgan edi. Hokimiyat tepasiga kelgunga qadar u Qarshi va Karmana bekliliklarida bek lavozida faoliyat ko'rsatadi. Uning davrida Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga qaramligi yanada kuchaydi. Said Olimxon o'z hukmronlik davrida iqtisodiy masalalarga alohida e'tibor qaratib, bir qator yutuqlarga erishadi. Jumladan, amirlik hududida hissadorlik jamiyatlari, banklar, sanoat va ishlab chiqarish korxonalari tashkil etiladi. Olingan daromadlar temir yo'l, aloqa va maishiy xizmat ko'rsatish sohasiga ajratilgan.

Amirlikdagi demokratik harakatlar mahsuli matbuotchilik sohasining kirib kelishida namoyon bo'ladi. Mirzo Sirojiddin homiyligida 1912-1913-yillarda chop etilgan va Buxoro jadidlari organi hisoblangan "Buxoroi sharif" gazetasi demokratik g'oyalarni targ'ib etuvchi qurol bo'lib xizmat qildi.



**"Buxoroi sharif" gazetasi**

Amir Said Olimxon hukmronligi davrida “Yosh buxoroliklar”ning talablari asosida bir qator islohotlar amalga oshirilishi mo‘ljallangan edi. Bu esa o‘z navbatida “Yosh buxoroliklar” ning siyosiy-huquqiy masalalarni hal qilishdagi rolini yanada kuchaytirdi. Jumladan, mahalliy soliqlar 10 foizgacha qisqartirilgan, harbiylar oylik haqi oshirilgan (piyoda xizmatchilarga oyida 3-9 rublgacha, otliq qo‘shinlarga 6-20 rublgacha), harbiy xizmatdan ozod etilgan yoshi ulug‘ kishilarga oyida 3 rublgacha nafaqa tayinlangan. Qozilarga sud jarayonida taraflardan aniq belgilangan miqdordagi boj haqi undirish buyurilgan. Rais – shahar boshlig‘ining xarajatlari qisqartiriladi. Muqaddas erlardan foyda olishga ruxsat berilgan. Keng qamrovli homiylik faoliyatiga asos solingan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, amirlikda o‘tkazilishi ko‘zlangan islohotlar monarxiya davlat boshqaruviga hamda shariat normalariga asoslangan emas edi. Shuning uchun islohotning e’lon qilinishi bilan mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashib, turli kuchlarning qarshiligi yanada kuchaydi<sup>1</sup>. Bu esa 1917-yil aprel voqealarida namoyon bo‘ldi. Amir Olimxonning islohotlar o‘tkazish to‘g‘risidagi farmoni (manifest) e’lon qilingan kunning ertasiga, ya’ni 8-aprelda Buxoroda namoyish o‘tkaziladi. Yosh buxoroliklar, aholining ko‘pchilik qismi mamlakatda demokratik islohotlar o‘tkazishni talab qilib chiqadi. Rossiyadagi muvaqqat hukumat, uning Buxorodagi vakili (rezident) ham Rossiyadagi 1917-yil Fevral’ inqilobidan keyin Buxoroda islohotlar o‘tkazish fursati etganini tushungan edi. Amirning yuqori mansabdorlari, ruhoniylarning mutaassib qismi islohotga qarshi edi. Amir manifestining e’lon qilinishi demokratik hamda konservativ kayfiyatdagi namoyishchilarning ko‘chaga chiqishiga sabab bo‘ldi. Demokratik doiralar amir manifesti mamlakatda tinch yo‘l bilan ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun dastlabki qadam, deb karadilar. Shukrona namoyishi o‘tkazishga qaror qilindi. «Yashasin islohot!», «Yashasin amir!», - degan shiorlar ko‘tarildi. Bir necha yuz kishi shahar markazi-passajdan Gavkushon va Xiyobon orqali Registonga yurish boshlashdi. Namoyishchilar boshida Fayzulla Xo‘jaev,

---

<sup>1</sup> Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. –Тошкент: 2010. – Б.24

Abdulvohid Burhonov, Otaxo‘jaev, Mirbobo, Yusufzoda va boshqa faollar bordilar. Bir necha joyda qisqa mitinglar bo‘ldi, namoyishchilarga yangi-yangi guruhlar kelib qo‘shildi. Namoyishchilarda ko‘tarinki kayfiyat mavjud edi.

Shu kuni konservatorlar va mutaassib guruhlar registonda to‘planib, islohotga, yangiliklarga qarshi jangarilik va murosasizlik kayfiyatlarini ko‘rsatdilar. Ba‘zi amaldorlarga nisbatan, islohot tarafdorlariga qarata dushmanona dag‘dag‘alar, hayqiriqlar qilindi. Ularning jazavasi soat sayin kuchayib bordi. Bunday murakkab vaziyatda ikki lagerning to‘qnashuvi noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Demokratik namoyishchilar boshliqlari registonga borish niyatidan qaytdilar, namoyishchilarni tarqalib ketishga da‘vat qildilar. Tadbir oxirigacha etkazilmagan bo‘lsa-da, u Buxoro amirligi demokratik o‘zgarishlar, islohotlar uchun etilganligini yaqqol ko‘rsatdi. 8-aprel voqealarining yakuni shu bo‘ldiki, hukumatda konservativ kuchlar yana ustunlikka erishdilar. Dovdirab kolgan amir qozikalon Sharifjon Maxdumni lavozimidan bo‘shatdi. G‘azablangan mutaassiblar rais Abdusamadxo‘jani olomon qilib o‘ldirdilar, qushbegi Nasrullobek buyrug‘i bilan shoir Sadriddin Ayniy, yosh buxoroliklar Mirbobo, Mirzo Nazrullo 75-150 kaltak urib jazolandilar. Islohotchilik harakatining bu bosqichi ana shunday noxush yakunlandi. Bu voqealardan so‘ng yosh buxoroliklarning amirlik hokimiyatiga nisbatan munosabati keskin o‘zgardi. Rossiyada podsho hokimiyatining ag‘darilishi Buxoro amirligining sanoqli kunlari qolganligini ko‘rsatdi.

1920-yil fevralda Xiva xonligi bosib olinganidan keyin qizil armiya qo‘shinlari Buxoro amirligi sari yuzlandilar. 1920-yil may oyi boshlarida Moskvaga kelgan Turkkomisiya a‘zolari Sh.Eliava va Rudzutak RSFSR tashqi ishlar vazirligi G.V.Chicheringa “Turkkomisiya ertagayoq Buxoro amirligining mustaqilligini bekor qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi”, degan bayonotini topshirdi. 1920-yil 22-mayda RKP(b) MK byurosi Buxoroga hujum qilish to‘g‘risidagi Turkkomisiya a‘zolarining ushbu fikrini ma‘qulladi. Turkiston fronti qo‘shinlarining qo‘mondoni M.V.Frunze Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarni tezlashtirishni so‘rab 1920-yil 31-iyulda V.Leninga telegramma jo‘natadi. RSFSR qurolli kuchlari

bosh qo‘mondoni S.Kamenev bu telegrammaga “qulay fursatda boshlashga ruxsat beriladi”, deb qisqa javob yuboradi<sup>1</sup>.

1920-yil 12-avgustda Frunze amirlikni tugatish maqsadida Samarqand-Buxoro frontini tuzish haqida buyruq beradi. SHu tariqa amirlik chegaralariga 7 ming piyoda, 2,5 ming otliq askar, 5 og‘ir to‘p, 35 engil to‘p, 206 zambarak, 5 broneavtomobil, 5 bronepoezd va 11 aeroplan shay holatga keltirib qo‘yilgan. Amir Olimxon ixtiyorida 15 ming sarboz, 55 eski to‘p va 12 pulemyot bor edi, xolos. 16-18-avgustda Chorjo‘yda Buxoro kommunistlarining IV-sezdi bo‘lib, u amirga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Bolsheviklarning rejaları amalga osha boshlaydi. Tarixda “yalpi qo‘zg‘olon” deb atalgan harakat 1920-yil 23-avgustda Beshim Sardor boshchiligidagi yollanma turkman otliqlarining Chorjo‘y yaqinidagi Saqor bozorini ishg‘ol qilishi bilan boshlangan. Beshim Sardor va Chorjo‘y kommunistlari Eski Chorjo‘yni ishg‘ol qilib, yuzdan ortiq amaldorni qamoqqa olishadi. Ilgaridan o‘ylab qo‘yilgan rejaga ko‘ra, shu kuni Chorjo‘y revkomi “Butun Buxoro xalqi nomidan” Turkiston frontiga yordam so‘rab murojaat qiladi., Vaholanki, Buxoro xalqi s‘ezd qaroridan ham, Beshim Sardor isyonidan ham bexabar edi. Buxoro taqdiri qizil qo‘shin ixtiyoriga topshirilgandi.

Frunze “yordam” to‘g‘risidagi murojaatni olgach, qo‘shinlarini 4 ta zarbdor guruh (Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Chorjo‘y va Kogon)ga bo‘lgan. Samarqand guruhi 29-30-avgustda Shahrizabz-Kitob yo‘nalishi bo‘ylab harakat qilib, Qarshi va G‘uzorni egallashi, Kattaqo‘rg‘on guruhi Xatirchi, Ziyovuddin va Karmanani olishi, Chorjo‘y guruhi esa eski Chorjo‘yni egallab, Amudaryoning Afg‘oniston bilan chegaralarini nazorat qilishi, Forob va Qorako‘lni egallab, qo‘shimcha buyruqni kutib turishi lozim edi. Asosiy vazifa Kogon guruhi zimmasiga yuklandi. U Buxoroni egallashi, amir Olimxonni asir olishi va arkdagi xazinani egallashi kerak edi<sup>2</sup>. 1920-yildan boshlab Buxoro ham havodan, ham erdan qattiq bombardimon qilindi. Buxoroning Qarshi darvozasigacha tortib kelingan temir yo‘lda turgan bronepoezd va Samarqand, Shayx Jalol, Namozgoh darvozalari yaqinida joylashtirilgan to‘plardan 1-2- sentyabr kunlari shaharga 12 ming snaryad tashlandi. 11 ta aeroplan esa shahar ustiga 3

---

<sup>1</sup>Ўзбек Совет Энциклопедияси, 2-қисм. Т-1972

<sup>2</sup> Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи Тошкент: Tafakkur, 2016. -460 Б.

kun bomba yog‘diradi. Shaharning Qarshi va Samarqand darvozalari tagiga 800 kilogrammdan ortiq porox ko‘milib portlatiladi. Qulab tushgan darvozalardan qizil askarlar shaharga bostirib kiradilar. Ko‘cha janglari boshlanib ketib Amir Olimxon shaharni tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Sho‘ro aeroplanlari uni qidirib toppish bahonasida shahar atrofidagi qishloqlarni, tarixiy obidalarni, Sitorai Mohi Xossani bombardimon qiladi. 2- sentyabrda qizil askarlar arkni egallaydilar. Shafqatsiz o‘q yomg‘iri va bombardimon natijasida shahar obidalarining 5/1 qismi vayron etilib, minglab begunoh odamlar nobud bo‘ladi. O‘sha davr voqealarining bevosita shohidi bo‘lgan Muhammad Ali Baljuvoni o‘zining “Tarixi Nofei” asarida qizil askarlar tomonidan qilingan bosqin oqibatlarini quyidagicha tasvirlaydi: “Buxoroni bosib olish natijasida 34 guzar, 3 mingdan ortiq do‘kon, 20 ta saroy, 29 ta masjid yonib xarob bo‘ldi. Minorai Kalonga ham zarar etib, Olimxon madrasasi, Mir Arab madrasasi yonib ketdi... Hazrati Imom darvozasidan Guzari Nazargacha, Kofirobod, O‘g‘lon darvozasi, Masjidi kalon, Zindondan To‘qimdo‘ziy hammomigacha, minora ostidan to So‘zangaron dahasi, Gul bozor, Lattafurushlar rastasi, registondan to Puli oshiqonning boshigacha batamom yonib ketdi. Qarshi darvozasi ham yonib ketdi... shaharda 3 mingga yaqin hovli yonib kul bo‘ldi. Buxoro shahri qariyb 20 kun yongandi. Buxoroning shu darajada xarob bo‘lganini hech bir tarix ko‘rmagan edi”.

Buxoroliklar bu kunlarni “kichik qiyomat” deb atashgan. Shaharga kirgan qizillar arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qushbegi va boshqa amaldorlarning mulkini musodara qilishgan. Askarlar va qo‘shin rahbarlari katta boylik orttirganlar. Turkiston inqilobiy-harbiy byuro “uchligi”ning a‘zosi A.Mashitskiyning 1920-yil sentyabrda Leninga yozgan ma‘lumotnomasida shahar markazi yakson qilinganligi, registon va ark yondirilganligi, ark erto‘lalaridagi va omborxonalaridagi boyliklar- oltin, kumush ...talangani, bunda qizil armiya bevosita qatnashgani haqida xabar bergan. Sentyabr oyining boshlarida amirlik xazinasini va boshqa boyliklar ortilgan 2 eshelon yuk Toshkent orqali Moskvaga yo‘l oladi<sup>1</sup>. Qariyb 15-sentyabrgacha davom etgan Buxoro talanishining guvohi bo‘lgan Turkkommissiya vakili G.Safarov o‘z xotirasida: “Buxoroga kelgan

---

<sup>1</sup>Ўзбек Совет Энциклопедияси, 2-қисм. Т-1972



qizil qo‘shinlar eng avvalo talonchilik bilan shug‘ullandilar. Ular hammani va hamma narsani taladilar. Umuman qizillar Buxoroni talash uchun kelgan edilar”, deb yozgandi.

Buxorodan so‘ng qizillar amirlik tarkibidagi 27 beklikni ham birin-ketin egallab, Buxoro amirligiga barham berishadi va uning hududida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuziladi. 1920-yil 6-8-oktyabrda amirning yozgi saroyi Sitorai Mohi Xossada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining 1-qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi - BXSR tuzilganligi e‘lon qilinadi. Sobiq yosh buxorolik jadidlardan iborat Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi tashkil topib, uning raisi etib Fayzulla Xo‘jaev tayinlandi.

### **9.3. Buxoro amirligining markaziy va mahalliy boshqaruvi**

Davlat tepasiga mutlaq huquqqa ega amir turgan. Butun hokimiyat amalda unga tegishli hisoblangan. Qushbegi bosh vazir hisoblanib, amirlikdagi ijroiya hokimiyati unga tegishli bo‘lgan. Davlatning barcha moliyaviy ishlari devonbegi nazorati ostida edi. Amir yoki uning vakolati doirasida tayinlangan mansabdor shaxslar, ya‘ni amirning joylardagi vakili, mahalliy boshqaruvchilar hamda beklar davlatning mahalliy boshqaruv organlari hisoblangan. Beklar yuqori tabaqa vakillaridan bo‘lib, asosan yirik er egalari orasidan tayinlangan<sup>1</sup>.

Qoida bo‘yicha mansablar qarindoshlik asosida berilgan, ammo shuni alohida ta‘kidlash joizki, oddiy fuqaro ham bek bo‘lishi yoki aksincha bek oddiy fuqaroga aylanib qolishi mumkinligi o‘z navbatida beklik boshqaruvini mas‘uliyatli vazifa ekanligidan dalolat beradi. Mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan beklar ko‘p hollarda boshqaruv masalasida markaziy boshqaruv tartibini joriy etishga harakat qilar edilar. SHuning uchun amirlikning ayrim hududlarida vaqti-vaqti bilan mavjud hokimiyatni tan olmaslik holatlari kuzatiladi. Har qaysi bek o‘zining saroyiga, mansab va unvoniga ega bo‘lgan. Beklarning ishlarni boshqarish va tashkillashtirish bo‘yicha kotiblari bo‘lib, hududlardan tushadigan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni nazorat qilgan. Xo‘jalik ishlarini dasturxonchi deb nomlangan

---

<sup>1</sup> Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. –Тошкент: 2010. – Б.34

xazinabon boshqargan. Buxoro amirligida beklilar huquqiy maqomi bo'yicha bir-biridan farq qilgan. Masalan, Samarqand bekligi nufuzliligi, Qarshi bekligi ko'p hollarda davlat boshlig'i merosxo'ri hokimligi bilan, Chorjo'y bekligi esa urug' davomchilariga, Buxoro bekligi esa qushbegining o'zi tomonidan boshqarilganligi tufayli keng imtiyozlarga ega bo'lgan. Umuman olganda beklilarning maqomi ularning davlat va jamiyatga keltiradigan foydasi miqdoriga bog'liq bo'lgan. Beklar asosan rentadan daromad olganlar, chunki ular amirdan hechqanday moyana haqi olmaganlar, o'z navbatida ular aholidan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish ishlariga boshqosh bo'lganlar. O'z o'rnida beklar amirning amaldorlari sanalib, amir tomonidan farmon asosida tayinlanganlar hamda amirga hududiy birliklar bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalar yuzasidan hisob berib turganlar. YUqoridagi xususiyati bilan beklar ilgarigi, ya'ni xonlik davridagi bek-amir lavozimidan keskin farq qiladi. Beklik mansabi Buxoro amirligi tomonidan belgilab qo'yilgan "Unvonlar ro'yxati" bo'yicha mansablik unvoni tizimida 9 (to'qqiz) darajadagi unvonlar toifasiga kirgan. Amirlik ma'muriy-hududiy jihatdan 27 ta beklilik (viloyat) va 11 tumanga bo'lingan bo'lib, har bir beklilik o'z navbatida amlokдорliklarga bo'lingan va bek tomonidan tayinlanadigan, lavozimidan ozod etiladigan amlokдор tomonidan boshqarilgan. Amlokдорliklar esa, bir necha qishloqlardan tashkil topgan, ularni qishloqning yoshi ulug' va tajribali oqsoqollari boshqargan. Har bir amlokдорlik uch asosiy mansabdor, ya'ni mirob, zakotchi va dorug'aboshilar orqali boshqarilgan. Mirob-hududning sug'orish tizimini kuzatish va suvni taqsimlash vazifasini bajargan bo'lsa, zakotchi soliq va yig'imlarni nazorat qilib turgan.

Beklik lavozimi meros tariqasida qolmasdan, balki har qanday holatda amir tomonidan almashtirilishi yoki lavozimidan ozod etilishi mumkin bo'lgan. Bek vafot etgan holatlarda uning barcha mol-mulkilari davlat xazinasiga topshirilib, uning merosxo'rlari qolgan merosga nisbatan hech qanday egalik huquqiga ega bo'lmay, balki keyinchalik markaziy boshqaruvda xizmat qilgan. Bekliklarda yuzaga kelib turadigan kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida ayrim hududlarni birlashtirish yoki aksincha ajratish holatlari ham bo'lib turgan. Beklik boshqaruvi saroyida ko'plab mansab egalari mavjud bo'lgan.

1890-yillarga kelib Darvoz bekligi ma'muriy-hududiy jihatdan 11 ta amlodkorlikka bo'lingan bo'lib, beklik Darvoza soqchisi Xudoynazar-Otaliqning nevarasi Muhammad Nazarbek tomonidan idora etilgan. U har yili amirga belgilangan tartibda sovg'a-salom qilib turishi lozim edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, beklik mahalliy boshqaruvida 5 biy, 5 eshikog'asi, 3 to'qsabo, miroxo'rlar, qorovulbegi, jevachi, mirzaboshi, chiroqog'asi va navkarlar ishtirok etishgan.

Sharqiy Buxoro hududidagi Hisor bekligi mahalliy boshqaruvida amal qilgan ma'muriy tuzilishini tahlil etish barobarida Buxoro amirligidagi mahalliy boshqaruv tizimini o'rganib chiqadigan bo'lsak, ushbu hududda qoidaga binoan bek lavozimini amirning yaqin qarindoshlaridan biri, ya'ni amir Abdulahadning tog'asi Ostonaqulibek egallagan edi. Hisor bekligi Buxoro amirligining eng boy hududlaridan biri va bek amirning yaqin qarindoshi sanalganligi sababli unga o'lim jazosiga mahkum etish huquqi berilgan edi. Ostonaqulibek ixtiyorida bir qator mansabdor shaxslar bo'lib, bu hududda ham barcha amaldorlar o'zga bekliklar kabi mahalliy aholidan yig'iladigan soliqlar hisobiga yashaganlar. Bek tomonidan beriladigan moyana amaldorlar daromadining ma'lum bir qismini tashkil etgan. Ostonaqulibek beklikni o'zining qushbegisi va katta yasovulboshisi orqali boshqargan. Undan tashqari beklikda maxsus devonxona bo'limi mavjud bo'lib, ushbu bo'lim etti kotib tomonidan idora etilgan. Shu bilan birga, mahalliy boshqaruvda turli vazifalarni bajaruvchi 25 ta yasovul ham ishtirok etgan.

Hisor bekligida boshqaruvni qulay yo'lga solish maqsadida beklik amlodkorlar tomonidan boshqariladigan 23 ta amlodkorlikka bo'lingan edi. Amlodkorlar bekning qarindoshlaridan tayinlansada, lekin hechqanday moyana haqi olmaganlar. Ular asosan qishloqlardan yig'iladigan daromadlar xisobiga yashar hamda hududdagi aholidan jarimalarni qabul qilib olar edilar. Har bir amlodkor 10 tadan 200 tagacha navkarga ega bo'lib, ular asosan harbiy xizmatni o'tash, bek va amlodkor saroyini qo'riqlash hamda qamoqqa mahkum qilinganlarni nazorat qilib, qamoqxonalarga yuborish vazifasini bajarganlar. Navkarlarning ijtimoiy tarkibi turli-tuman bo'lib, hatto navkarlik xizmatiga ayrim yirik er egalari ham qabul qilingan. Navkarlarning mansab darajasi ularning mulkiy holatiga qarab belgilangan. Undan tashqari xizmat vazifasini a'lo darajada bajargan

navkarlarga bek tomonidan qo‘shimcha ravishda ayrim qishloqlardan to‘lovlarni qabul qilib olish huquqi berilgan.

Amlokdorliklarda navkarlarning soni bir xil bo‘lmagan. Masalan, Esonxo‘ja amlokdorligida 195 ta, Bodroqlida – 90, G‘ozimalikda – 80, Qoratog‘ va Regarda 25 tadan, Xonakida – 24, Sarijo‘yda – 18, Sho‘rkonda – 13, Dashnobodda – 11, Sariosiyoda – 8, Hisorda – 7 tadan navkar bo‘lgan.

Ko‘lob va Qorategin bekliliklarida mahalliy boshqaruvga aloqasi bo‘lmagan doimiy qurollangan zambarak otuvchi qo‘shinlar mavjud edi. Denov va Qo‘rg‘ontepa bekliliklarida esa, amirning doimiy armiyasi bo‘lmay, balki beklar boshqaruvni mahalliy harbiy kuchlarga tayanib amalga oshirganlar. Bekliklarda mahalliy boshqaruv tashkil etishda diniy-huquqiy masalalarni hal etuvchi qozi, rais, muftiy va mirshab kabi amaldorlar ishtirok etganlar. Bekliklar qozilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Buxorodan tayinlangan va o‘z faoliyatida bekdan mustaqil bo‘lganlar. Ular odatda bekning harakatlari haqida maxfiy ravishda Buxoroga xabar berib turganlar. Diniy amaldorlar mamlakatdagi sud hokimiyatini, shuningdek, ta‘lim va tarbiya maskanlari bo‘lgan madrasalar, boshlang‘ich maktablarni, kundalik hayotda katta o‘rin tutgan masjidlar va boshqa shu turdagi ijtimoiy muassasalarni o‘z nazoratlari ostiga olgan edilar. Shahar jamoat tartibini saqlash mirshablarga topshirilgan. Buxoro shahri mirshabboshisiga birvaqtning o‘zida amirlikdagi boshqa barcha shaharlar mirshablari ham bo‘ysungan. Hukumatga tegishli vazifalar mirrasas, ya‘ni mirshab qo‘lida bo‘lib u shahar muhofazasining ma‘muri hisoblangan. Davlatning mahbuslari uning ixtiyorida bo‘lib, amirning shig‘ovullari, xudaychilari (udaychilar) o‘z ixtiyorlari bilan biror ishni qilmaganlar, faqat amir buyrug‘iga bo‘ysunganlar. Tarixchi R.Holiqovanning ma‘lumotlariga ko‘ra, “Buxoro shahri ikki dahaga, dahalarning har biri esa olti jaribga bo‘lingan. Har bir dahani dahaboshi boshqargan. Jaribni esa Bobo boshqargan bo‘lib, uning mahkamasi Boboxona deyilgan. Uning ixtiyorida faqat tunda ishlaydigan maxsus qo‘riqchilar bo‘lib, ular shabgardlar deb atalgan. Shabgardlar (tunda kezuvchi) – fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, “shab” – kechqurun, tun va “gard”-kezmoq, kezuvchi ma‘nolarini anglatadi”. SHabgardlarning asosiy vazifasi tunda shaharni kezib yurish va barcha shubhali shaxslarni aniqlash bilan bir qatorda ehtiyojsiz ravishda shaharda yurgan shaxslarni ushlab tegishli tartibda

chora ko‘rish bo‘lgan. Ushlangan shaxslar dini va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, shahar ko‘chalari va hammomlarni tozalash ishlariga jalb qilingan. Buxoro amirligi mahalliy boshqaruvi tizimida o‘ziga xos o‘rinni rais mansabi egallardi. Ushbu amal yarim diniy, yarim tartibotchi usulda bo‘lib, raisning majburiyatiga eng avvalo, aholining yurish-turishi va hulqini nazorat qilish kirgan. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, Buxoro amirligi 11 tumandan tashkil topib, barcha tumanlar Buxoro shahri atrofida joylashgan edi. Bulardan ikki asosiy tuman – Shohrud kanali atrofida bo‘lib, ushbu tumanlarning qolgan 9 tumandan asosiy farqi shunda ediki, 38 tumanlarning ma‘muriy markazi mavjud emas edi. Shimoliyi Rud va Janubiyi Rud tumanlaridan soliq yig‘ish vazifasini Buxoro shahar sadr-raisi xizmatchilari amalga oshirganlar. Qolgan 9 ta tumanni ma‘muriy jihatdan tuman qozilari boshqargan. Ko‘pgina tumanlar aholi zich joylashgan tuman markazlarining nomi bilan ham ikkinchi nom sifatida yuritilgan. Masalan, Xarkan Rud yoki G‘ijduvon tumani kabi. Undan tashqari A.R.Muxamedjanovning ma‘lumotlariga qaraganda, Kamat tumani Vobkand, Somejon tumani Rometan deb atalgan. Mahalliy hududlarni boshqarishni amalga oshirish maqsadida va har bir tumanni tashkil etish uchun 80 tadan aholi yashash joylari birlashtirilgan. Keyinchalik esa ushbu tumanlarning aholi yashash joylari soni 120 dan 340 taga oshgan. Amirlikda barcha beklklar ma‘muriy markazi bir xil nom bilan atalgan. Aholi yashash joylari sonining ko‘pligiga qarab sharqiy beklklar yuqori mavqega ega bo‘lgan. Masalan, Boljuvonda 1420, Hisorda 1200, Qorateginda 700, Ko‘lobda 635 taga yaqin aholi yashash joylari mavjud edi. Hozirgi Turkmaniston hududidagi beklklarda esa, aholi yashash joylari soni eng kam darajada, ya‘ni O‘stida 15, Burdaliqda 14, Kelifda esa 24 tadan aholi yashash joylari bo‘lgan. Buxoro amirligida beklklar va tumanlar ma‘muriy-hududiy jihatdan turli xil shaklda bo‘lingan. Ko‘pgina beklklar bir necha qishloqlardan, amloklardan iborat bo‘lgan. Bir qator tuman va beklklar mavzelarga bo‘lingan. Masalan, Dexnav, Pirmast, Xutfar, O‘sti va boshqa hududlarda. Xususan, Xutfar tumanidagi mavzelarga kiruvchi bir qator qishloqlar mavjud bo‘lgan. SHu bilan birga, u yoki bu tuman va viloyatning hududi amlok, mavze, guzar va masjid deb atalgan. Har bir mavze 10 dan ortiq masjid deb nomlangan hududiy birliklardan iborat bo‘lgan. Karki bekligi bir necha mavzedan iborat bo‘lgan bo‘lsa ham, lekin ular


bekcha deb nomlangan hududiy birliklardan tashkil topgan. Nurato bekligi guzarlarga, guzarlar esa qishloqlarga bo‘lingan. Shu bilan bir qatorda, Qorategin bekligi rabovlarga bo‘lingan, ular esa mavze va qishloqlardan iborat bo‘lgan. SHo‘g‘non va Ro‘shon bekligi hududlari oqsoqolliklarga bo‘lingan. Undan tashqari Boljuvon bekligining 60 dan ortiq, Qorategin bekligining 30 dan ortiq, Ko‘lob bekligining 22 dan ortiq aholi yashash joylari daha deb nomlangan hududiy birliklardan iborat bo‘lgan. Undan tashqari muallif mamlakat ma‘muriy birlashmalar – viloyatlar, tumanlar va qishloqlarga bo‘linishini hamda ma‘muriy amaldorlar – beklar, amlokдорlar, oqsoqollar deb atalishini ham ta‘kidlab o‘tadi. Yana “Islom odatiga ko‘ra har bir beklilikda raislar va unga itoat etuvchilar mavjud edi. Moliyaviy bo‘lim esa zakotchilar – markaziy va mahalliy soliq yig‘uvchilar tomonidan boshqarilardi. Har qaysi beklilik o‘zining sud apparatiga ega bo‘lib, u bosh qozi va unga bo‘ysunuvchi qozilardan, shuningdek muftidan iborat edi. Hamma idoralar amir nazorati ostida edi”, - deb ta‘kidlaydi. Angliyalik olim Meri Xoldsvort Buxoro amirligining siyosiy ahvoli, markaziy va mahalliy boshqaruv masalalariga alohida to‘xtaladi. M.Xoldsvort “Buxoro va Qo‘qonda amirlik yoki xonlik bekliliklardan iborat bo‘lib, ular viloyatlar deb nomlangan hamda xon yoki amir oilasi bilan qarindosh hokimlar yoki beklar tomonidan boshqarilardi. Viloyatlar Buxoroda tumanlarga, Qo‘qonda esa bekliliklarga bo‘linib, har qaysisi mahalliy hukmdor oilalaridan chiqqan beklar qo‘l ostida edi. Oqsoqol yoki miroblar mahalliy amaldorlar bo‘lib, ular ijro etuvchi shaxs edilar”.

Yana bir ingliz olimi G.Uiler Buxoro amirligida markaziy va mahalliy boshqaruv masalalariga oid quyidagi ma‘lumotlarni beradi: “Buxoro amirligining ma‘muriy tizimi temuriylar va abbosiy xalifalik qo‘l ostida bo‘lgan Movarounnahrning eron-arab ma‘muriyatidan meros qolgan”. G.Uiler ma‘muriy boshqaruv masalasida boshqaruv oddiy va erkin bo‘lib, ko‘proq soliq va o‘lponlar undirishga asoslangan edi, - deb ma‘lumot beradi.

Buxoro amirligining markaziy va mahalliy boshqaruv idoralari o‘rtasida muayyan tizim amal qilib, vakolat va vazifalar doirasi aniq belgilangan bo‘lgan. Amirlikning turli hududlarida mahalliy boshqaruv o‘zini-o‘zi boshqarish tartibida amalga oshirilgan. Boshqaruvda asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha mansabdor shaxslarning o‘zga faoliyatga aralashishiga yo‘l qo‘yilmagan. Millatidan qat‘iy

nazar barcha fuqarolar davlat boshqaruvida ishtirok eta olgan. Mahalliy boshqaruvda ham markaziy boshqaruv singari muayyan tizimga asoslanilgan. Mahalliy boshqaruvdagi o‘zini-o‘zi boshqarish amaliyotidan bugungi kunda tarixiy amaliyot sifatida foydalanish muhim ahamiyatga ega.

### **Buxoro amirligidagi unvon va mansablar**



#### **9.4. Mang'itlar davrida Buxoroda madaniy hayot (me'morchilik, adabiyot va san'at)**

Madaniy jarayonlarning bir yo'nalishi bo'lmish me'morchilik o'zida tarix, san'at, ijtimoiy voqealar natijasi, davr ma'rifati va bilimlar darajasini ifoda etadi. XIX asrda O'rta Osiyo xonliklarida arxitektura inshootlari turlari yanada takomillashdi. Buning natijasida ko'plab jamoat binolari, jumladan, karvonsaroylar, ko'prik, sardoba, hammom, savdo rastalari qurila boshladi, Monumental binolarning tarxi, qiyofasida o'zgartishlar yuz berdi. Monumental arxitekturada, bir tomondan avval ishlab chiqilgan kompozitsion sxemalar izidan borish, ikkinchi tomondan esa maxalliy o'ziga xoslikning namoyon bo'lishi, ko'zga tashlanadi.

Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda Chor minor - Xalifa Niyozqul madrasasi (1807), masjidlar, xonaqohlar, hammomlar qurildi, Xalifa Xudoydod majmuasi qurilishi davom ettirilgan. Buxoroda Amir Haydar onasiga atab maxsus madrasa, Qarshida Ali madrasasi va Mir Muhammad madrasasini ham qurdirgan. Chor Minor yodgorligiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak: Chor Minor madrasasini turkman Xalifa Niyozqul 1807- yilda qurdirgan. To'g'ri to'rtburchakli hovli atrofida bir qavatli ustun ayvonli xonalar joylashtirilgan. Janubi - g'arb tomonidagi burchakda sinchli masjid qavatli bo'lib, pastki qavati madrasaga kirish uchun yo'lak vazifasini bajarsa, tepadagi ikkinchi qavat kutubxona bo'lgan. Chor Minor sodda arxitekturasi hamda ajoyib kompozitsiyasi bilan XIX asr me'morchiligida original ko'rinishga egadir. Ahmad Donishning yozishicha, Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda ilm-fan, xususan, tarix va islom ilmlari rivojlangan. Amir Haydar madrasalarda tahsil olib borish uchun Istanbul, Kobul va бошқа shaharlardan ko'plab qo'lyozma kitoblarni olib kelishni buyurgan. Uning o'zi muntazam ravishda saboq bergan, madrasalarda dars o'tgan. Amir Haydar «al-Favoid al-alfiya» nomli fiqhning xanafiya mazhabiga oid asar ham yozgan.





### **Chorminor yodgorligi**

Mang‘it hukmdorlari mamlakatning obodonchilik ishlariga ham katta e‘tibor qaratganlar. Amir Nasrullo tomonidan va uning davrida Buxoroda Qozi Hasano‘ja, Olimjonboy, Eshoni Pir, Mirzo Ubayd, Modorixon, Ismoilxo‘ja (1829) Aliy Cho‘bin, Mirzo Abdulg‘affor, Tojiddin madrasalari (1860) qurildi, Xalifa Xudoydod me‘moriy majmuasining qurilishi yakunlandi (1855).

Hukmronlik yillarida Amir Abdulahadxon mamlakat hayotini yaxshilash maqsadida birqator islohotlar o‘tkazgan: savdo-sotiq ishlariga qulay shart-sharoitlar yaratib bergan, qorako‘l teri savdosi rivojlantirilgan, amirlik hududida erosti foydali qazilmalari: mis, temir, oltin qazib olinishi yo‘lga qo‘yilib, konchilik rivojlantirilgan. Shahardagi obodonchilik ishlariga homiylik qilgan, savdo toqlari ta‘mirlangan, Yangi Buxoro (Kogon), Yalta, Jelesnovodsk shaharlarida saroylar barpo ettirilgan.

Buxoro amirligida XIX asr o‘rtalarida memorchilikda turar joylar arxitekturasida mahalliy uslublar shakllangan. XIX asrda monumental binolarning, ayniqsa ichki qismlarini koshin, tosh, ganch, yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatilgan. Naqqoshlikda ayniqsa islamiy

naqshi rivoj topgan. Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylantirilishi mahalliy memorchilikda rus uslublari ta'sirini kuchaytirgan<sup>1</sup>. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Buxoro va Xiva me'morchiligida binolar konstruksiyalari yanada takomillashtirilgan. Jome masjidlari saroy tipida serhasham qilib barpo etilgan, guzar-mahalla masjidlari qishlik va yozlik katta ayvonli qilib qurilgan. Bu davrda Buxoroda bunyod etilgan obidalardan biri Sitorai Mohi Xossa (forsa-yulduz oy makoni) – Buxorodan 4 km shimolda joylashgan mang'it sulolasi vakillari tomonidan bunyod etilgan saroy-bog' Sitorai Mohi Xossa saroyi ikki qismdan, ya'ni eski va yangi saroy hamda g'isht to'shalgan 3 hovlidan iborat. Eski saroy Buxoro turar joylari ruhida barpo etilgan bir - ikki qavatli uylardan iborat. An'anaviy uch qismi kompleks bo'lib, undagi dastlabki binolar Nasrulloxon (1826 – 1860) va Muzaffarxon (1860 –1885) hukmronligi davrida qurilgan. Abulahadxon (1885–1910) tomonidan esa 1892-yilda qurilish yakunlanib, saroy va bog' barpo etiladi. Eski saroy bir qancha vaqt Rossiyada rus me'morlari ishi bilan tanishgan usta Hoji Hofiz boshliq Buxoro me'morlari tomonidan qurilgan bo'lib, shu tufayli Eski saroy tarixida Evropa me'morchiligining elementlarini ham kuzatish mumkin. Eski saroyning sharqida Amir Sayyid Olimxon hukmronligi (1910–1920) davrida Yangi saroy barpo etilgan. Bir qavatli bo'lgan ushbu saroy “T” shaklida qurilgan. Yangi saroy bir qator binolar - oqsaroy, oynavand ayvon, kutish xonasi, amirning qabulxonasi, haram, masjid, xazina, hayvonotxona va boshqa xo'jalik xonalaridan iborat. Yangi saroy Evropa va mahalliy an'anaviy me'morchiligining aralashmasidan iborat bo'lib, ko'pgina xonalar rus muhandislari Sakovich va Margulislar rahbarligida bunyod etilgan. Faqatgina 1912–1914-yillarda qurilgan qabulxona va oqsaroy binolari Buxoro ustalari tomonidan bunyod etilgan. Amir qabulxonasi dahlizi devorlari to'liq ganchli naqshlar bilan bezatilgan. Xonaning devorlaridagi guldon va gullar shakli usta Xasanjon tomonidan ishlangan. Qabulxonadan oqsaroy xonasiga o'tilib, ushbu xona ikki yil davomida mashhur me'mor usta Shirin Murodov rahbarligida (25-30 kishi) qurilib pardozlangan. Oqsaroyning ko'zgularidan iborat devoriga sharqning jimjimdor nafis naqshlari jozibador gullari oppoq ganch bilan

---

<sup>1</sup> Vaxitov M., Mirzayev Sh. Me'morchilik tarixi. –Toshkent : 2010. – B. 103.

ishlangan. Saroy Mang‘itlar davri arxitekturasining yorqin namunalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.



**Sitorai Mohi Xosa**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mir Arab madrasasi yonida, Poyi Kalon ansambli tarkibida Amir Olimxon madrasasi bunyod etildi. Madrasaning peshtoqli darvozasidan ichkariga kiriladi. Madrasa ikki qavatli, to‘rtburchak shakldagi hujralar bilan o‘ralgan. Katta xonasi gumbazli tom bilan yopilgan.

Mang‘itlar davri yodgorliklaridan yana biri bu Bolohovuz masjididir. Bolohovuz masjidi XVIII – XX asrlarda barpo etilgan. XVIII asrda hovuz oldida tomonlar o‘lchami 11,5 metrni tashkil etuvchi gumbazli masjid quriladi. Uning ro‘parasida XX asrda buxorolik usta Qurbon Yo‘ldoshev baland ayvon soldiradi. Usta Shirin Murodov esa kichik minora tiklaydi. Nafis naqshlar ayvon shiftining avaylab saqlab kelinishini ta‘minlagan. Ansambl o‘zining badiiy nafosati bilan Registon maydonining tarkibiy qismiga aylangan. Bolohovuz masjidi hozirgi kungacha Registon maydonida saqlanib qolingan yagona yodgorlikdir.

Mang‘itlar davrida ijod qilgan shoirlar, Buxoro adabiy muhiti to‘g‘risida so‘z ketganda Mirzo Sodiq Munshiy, Muhammad Sharif Osif, Junaydullo Hoziq, Ansab Buxoriy, Fitrat Vardonzehiy, Mujrim

Obid, Qori Rahmatulloh Voze, Shamsuddin Shohin, Ojiz, Ahmad Donish, Mirzo Somiy, Sahbo, Sharifjon Maxdum kabilarni alohida e'tirof etish joiz. Mirzo Sodiq Munshiyning ilmiy-adabiy merosida "Ohugir va Xayrobod tumanlariga sayohat", "Qismat", "Daxmai shohon" dostonlari bosh o'rinni egallaydi. Ashtarxoniy hukmdorlarining faoliyatidan bahs yurituvchi Daxmai shohon" nazmiy asarida har bir hukmdorning o'z tilidan uning faoliyatiga baho beriladi. Hayotlik davrida qilgan yaxshi-yomon ishlari, hatto pushaymonlari nazmiy bayon usulida chiroyli ifoda qilib beriladi.

Buxoroning so'nggi o'rta asrlar ilmiy – adabiy muhiti va tarixnavisligida yuqori mavqega ega bo'lgan Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniyning (1838-1907) ijod yo'li serqirraligi bilan diqqatga sazovor. Tarixnavislik, shoirlik, xattotlik, munshiylik kabi sohalarda qalam tebratgan bu ijodkor ilmiy maydonda ko'proq muarrix sifatida nom qozondi. "Mir'ot ul-xayol", "Manozir al-insho" singari asarlar va salmoqli she'riy misralar uning adabiy ijodini bezab tursa, "Daxmai shohon", "Tuhfai shohiy", "Tarixi salotini mang'itiya" kabi asarlar tarixiy merosining umrboqiy yodgorliklari sifatida hanuzgacha o'z qimmatini saqlab kelmoqda hamda zamon ahli, tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda<sup>1</sup>.

Mirzo Somiy uzoq yillar Buxoro hukmdorlaridan amir Muzaffar (1860-1885) va amir Abdulahad (1885-1910) saroyida munshiylik vazifasida xizmat qildi. Chor Rossiyasi istilolari davrida amir Muzaffar qo'shinida voqealarni yozib boruvchi (navisanda) shaxs sifatida ishtirok etdi. U saroy tarixchisi edi. 1898 yil saroy xizmatidan chetlashtirilgach, ijtimoiy qarashlarida ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Takalluflar bilan xizmat qilib, muruvvatlar ko'rgan mang'it amirlari faoliyatining ba'zi qirralariga nisbatan yumshoq tanqidiy munosabat paydo bo'ldi va bu munosabat tarixiy asarlari sahifalariga ko'chdi. Bir muddat saroyda xizmat qilgan boshqa bir tarixchi – Ahmad Donish bilan taqqoslaganda, Mirzo Somiyda mang'it amirlari faoliyatiga nisbatan mo'ladillik va xolislikni sezish mumkin

Mirzo Somiy birin – ketin yozilgan uch tarixiy asar muallifi. Uchala asar ham saroy xizmatidan bo'shagandan va oltmish yoshdan oshgandan keyin yozilgan. Bular "Daxmai shohon" (1902 yil),

---

<sup>1</sup> Мирза Абдал'азим Сами. Та'рих-и салатин-и мангитийа / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л.М.Епифановой. –Москва: Изд-во восточной литературы, 1962.

“Tuhfai shohiy” (1903 yil), “Tarixi salotini mang‘itiya” (1906-1907 yillar). “Daxmai shohon” masnaviyda yozilgan tarix. Ba’zi mulliflar uni adabiy asar sifatida talqin qilishadi. Bu ham to‘g‘ri. Biz asarni tarixiy janr sirasiga kiritdik va bizningcha, ikki xil yondashuv ham to‘g‘ri va bir-birini inkor qilmaydi. Aslida ushbu asar Mirzo Somiy tomonidan Mirzo Sodiq Munshiyning shu nomdagi asariga ilova tariqasida yozilgan. Asarning 1/3 qismi Mirzo Somiyga tegishli. Mirzo Sodiq Munshiy ashtarxoniy hukmdorlar tarixini yozgan bo‘lsa, Mirzo Somiy mang‘it amirlaridan Muhammad Rahimxondan boshlab amir Muzaffargacha o‘tgan mang‘it amirlari va amir Muzaffar tarixini masnaviyda tasvirlab bergan.

“Daxmai shohon”ning qo‘lyozma nusxalari keng tarqalgan. Bir qo‘lyozma nusxasi Buxoro muzeyida saqlanadi<sup>1</sup>. Muallifning mang‘it amirlari faoliyatiga qarashlari turlicha. Muhammad Rahimxon, amir Nasrullo kabi hukmdorlar salbiy bo‘yoqlarda tasvirlansa, amir Shohmurod, amir Haydar va amir Muzaffarga xayrixohlik sezilib turadi. Biroq, muallif ulardagi nuqson va kamchiliklardan ko‘z yummaydi va o‘rni kelganda bu hukmdorlarni ayab o‘tirmaydi. Jumladan, amir Shohmurodning qizilboshlar ustiga qilgan yurishlarini uning o‘z tilidan:

***G‘azoho namudam qizilboshro,  
Buridam sari mardum avboshro.  
Ya’ni: G‘azot qilib qizilboshlar ustiga,  
Bezorilar kallasin chopdim***

misralari orqali ifoda etadi. Shuningdek, Marvga yurish qilib, to‘g‘onni vayron qilganini, Tus va Xuroson ahlini qilichdan o‘tkazganini yashirmay yozadi. SHohmurodning darveshsifatligiga ishoralar mavjud. Amir Haydar to‘g‘risida so‘z yuritib, uning ilm ahliga moyilligini e’tirof etadi.

Asarning amir Muzaffar hukmronlik davriga bag‘ishlangan qismi nisbatan kattaroq. Amir Muzaffar davridagi qusurlar ochiq tilga olinadi. Uning mag‘rurligi va maqtanchoqligini tanqid qiladi. Chor Rossiyasi bilan olib borilgan janglar yakun topib, mamlakatdagi ichki isyonlar podsho armiyasi yordamida bostirilgach, amir Muzaffarning davlat ishlari bilan shug‘ullanmay qo‘ygani, ko‘p vaqtini tantanalarga sarflagani achinish bilan qayd etiladi.

---

<sup>1</sup> Бухоро музейи қўлёзмаси, инв.№ 23720/11

Buxoro miniyura maktabining so‘nggi vakili Sadridin Pochaev ijodida sharq mumkoz adabiyoti namoyandalari asarlari syujetiga miniatyura ishlash etakchilik qiladi. Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostoniga uning tomonidan 27 ta miniatyura ishlangan. Shuningdek, Navoiy asarlariga ham qator miniatyuralar ishlaganki, ular bizgacha etib keldi.

Qit’anavislik xattotlik san’atining yorqin namunasi sifatida Buxoroda keng tarqalgan va uning namunalari mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan muzeylarda saqlanmoqda. Mirza Otali, Nuriddin Madum Samarqandiy, Abdullabek miroxur, Mirza Nuriddin Fozil, Abdulfattoh Mahdixon, Hoji Mir Baqo, Mirza Husan kabi xattotlar badiiy mukammal qit’alar yaratib, xattotlik san’atini yuksak darajaga ko‘targanlar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** siyosiy va iqtisodiy inqiroz, unvon va mansablar, otaliq, qo‘shbegi, urug‘ va qavmlar, urug‘ boshliqlari, harbiy-siyosiy islohotlar, hokimiyatni mustahkamlash, markaziy va mahalliy boshqaruv, rus istilosi, Rossiya imperiyasi, shahar ko‘chalari, Buxoro guzarlari, adabiy muhit.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Muhammad Rahimxonning hokimiyat tepasiga kelishi arafasida Buxoroda siyosiy vaziyat qanday edi?
2. Amir Haydar davrida markaziy hokimiyat qudrati susayganligining sabablari nimalardan iborat?
3. Amir Shohmurod davrida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ahamiyati...
4. Buxoro amirligida qozilikka nomzod bo‘lgan kishilarga qanday talablar qo‘yilgan?
5. Mang‘itlar davrida sud-huquq tizimi qanday edi?

#### **Test topshiriqlari**

1. Amir Doniyolbiy davrida isyon ko‘targan urug‘larni belgilang

- a) kenagas, yuz, bahrin, burqut
- b) qipchoq, kenagas, burqut
- s) kenagas, yuz, ming

2. Mang‘it amirlaridan qaysi birining siyosiy xatosi tufayli davlat boshqaruvida eroniy shialarning ta’siri oshdi?

- a) amir Nasrullo
- b) amir Haydar

s) amir Doniyolbiy

3. “Amirlik gilamini kambag‘allik kiyimi bilan bezadi, jahon bog‘idan dushmanlik va yomonlik kiyimini sug‘urib tashladi va adolat nihollarini o‘tqazdi” Ahmad Donishning ushbu ta‘rifi kim haqida?

a) amir SHohmurod

b) amir Haydar

s) amir Doniyolbiy

4. O‘zining isyonkorligi bilan tanilgan ettiurug‘ qavmini Miyonqoldan SHahrisabzgacha, Boysundan SHerobodgacha tarqatib yuborgan amirni belgilang...

a) amir Doniyolbiy

b) amir Haydar

s) amir Nasrullo

Mang‘itlar davrida qurilgan Xalifa Xudoydod majmuasi qurilishining boshlanishi qaysi amir davriga to‘g‘ri keladi?

a) amir Doniyolbiy

b) amir Haydar

s) amir SHohmurod

## **10-MAVZU: BUXORO BXSР VA SOVETLAR DAVRIDA**

**10.1. BXSР ning tashkil topishi, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot**

**10.2. Buxoro Xalq Respublikasi hududida sovet rejimiga qarshi qurolli harakat (1920-1924)**

**10.3. Sovetlar davrida Buxoro viloyatida iqtisodiy hayot**

**10.4. Sovetlar davrida Buxoroda madaniy hayot**

### **10.1. BXSРning tashkil topishi, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot**

Buxoroga qizil armiya tomonidan qilingan bosqin natijasida 1920-yil 2-sentyabrda amirlik tuzumi ag‘darib tashlandi va yangi respublika boshqaruvi o‘rnatildi. Asli bu xalqaro huquq normalarining bolsheviklar tomonidan qo‘pol ravishda buzilishi va mamlakatda

mustabid sovet tuzumining majburan o'rnatilishi edi <sup>1</sup>. Buxoro amirligida amirlik tuzumi ag'darib tashlangach, yuzaga kelgan xalq respublikasi. Maydoni 182,193 ming km<sup>2</sup>, axolisi 2,2 mln. kishidan ortiq bo'lib, asosan o'zbeklar, tojiklar va turkmanlar, qisman qozoq, qoraqalpoq, tatar va Buxoro yahudiylari yashagan. BXSР Xorazm Respublikasi, Turkiston ASSR va Afg'oniston davlatlari bilan chegaradosh bo'lib, poytaxti Buxoro shahri bo'lgan.

1920-yil 14-sentyabrda bo'lgan Xalq Nozirlar Sho'rosi, Revkom va BKP MKning umumiy yig'ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi (raisi Abdulqodir Muxitdinov) va respublika hukumati – 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho'rosi (raisi Fayzulla Xo'jaev) tuzildi. Buxoro inqilobiy qo'mitasining a'zolari qilib Muinjon Aminov, Olimjon Akchurin, Abdulhamid Oripov, Sobir Yusupov, Hoji Hasan Ibrohimov, Fayzulla Xo'jaev, Qulmuhamedov tayinlandi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar So'rosi tarkibi quyidagicha edi: rais va xorijiy tashqi ishlar (nozir-F.Xo'jaev), maorif (Qori Yo'ldosh Po'latov), ichki (doxiliya) ishlar (M.Saidjonov), moliya (U.Po'latxo'jaev), davlat nazorati (N.Husainov), favqulodda komissiya (raisi- Ibrohimov), adliya (M. Burhonov), harbiy (Shihobuddinov), savdo va sanoat (M. Mansurov) nozirliklari. Bu paytga kelib inqilobchi yosh buxoroliklar firqasi a'zolari Buxoro Kompartiyasi safiga kirishga majbur bo'lgan edilar. Ushbu o'rinda ta'kidlash joizki, asosan jadidlardan tashkil topgan Buxoro hukumati o'sha paytda ma'lumotli kishilar yig'ilgan hukumatlardan biri hisoblangan. Nozirlar Buxoro, Istanbul, Moskva va boshqa shaharlarda ta'lim olishgan edi. Buxoro jadidlari o'zlarining islohotchilik g'oyalarini yangi hukumatdagi faoliyatlari davomida amalga oshirishga harakat qildilar.

1920-yil 6-8-oktyabrda amirning yozgi saroyi – Sitorai Mohi Xosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi – BXSР tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Bu davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrchilik an'analari meros qolgan amir Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi. Qurultoy davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi bo'lgan Buxoro

---

<sup>1</sup> Қаранг: Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. – Т.: Tafakkur, 2016. – Б. 136.



inqilobiy qo‘mitasi (Markaziy Revkom), Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi – dastlabki hukumat tarkibini uzil kesil tasdiqladi.

Ularning vakolat muddati 2 qurultoygacha uzaytirildi. Ushbu qurultoyda I.E.Lyubimov RSFSR hukumati Buxoro Respublikasining mustaqilligini tan olganligini aytishga shoshildi. 1920 yil oktyabr-noyabr oylarida BXSr bilan RSFSR o‘rtasida muvaqqat harbiy siyosiy axdlashuv va shartnoma tuzildi. 1921 yil 4 martda har ikki davlat o‘rtasida “Ittifoq shartnomasi” imzolandi. Ushbu shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklashga olib keldi. “Ittifoq shartnomasi” mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo‘shinlari turishini “qonuniy” asoslab berdiki, mazkur hol BXSr ichki ishlariga Rossiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshqa narsa emas edi.

Ammo bularning barchasi vaqtincha xalqni chalg‘itish maqsadidagi tadbirlar edi. “Inqilob” tashkilotlari qonli voqealarning birinchi kunlaridan boshlab o‘ziga xos inqilobiy tartiblar o‘rnatishga kirishdilar. 4-sentyabrda Eski Buxoroda favqulodda holat e‘lon qilib Favqulodda Komissiya va 3000 kishilik “xalq” militsiyasi tuzildi. 1920-yil kuziga kelib Buxoro iqtisodiyoti tanazzulga uchragan va xalqning turmush darajasi ancha pastga tushib ketgan edi.

Buxoro hukumati oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri er-suv masalasini hal qilish edi. 1920- yil 30-sentyabrda Buxoro Markaziy Revkomi “Er to‘g‘risida”gi dekretni qabul qildi. Dekretga muvofiq, sobiq amir, uning qarindoshlari va amaldorlari qo‘lidagi butun er-mulk kambag‘al va ersiz dehqonlarga berilishi kerak edi. Shuningdek, dekretga ko‘ra, “xiroj”, “amlok” va boshqa soliqlar bekor qilindi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, faqat Eski Buxoro tumanlari va Chorjo‘y bekligida sobiq amir va beklarga qarashli 10000 tanob er musodara qilinib, kambag‘al dehqonlarga taqsimlab berildi. Yangi tuzum va uning ijobiy chora-tadbirlarini aholi ma‘qullab kutib oldi. Joylarda inqilobiy qo‘mitalar tuzildi. Biroq yangi hokimiyat tomonidan mulkdorlar tabaqasiga nisbatan ko‘rilgan qattiq choralar, ularga tegishli butun mol-mulkning musodara qilinishi, saroy a‘yonlari va amir amaldorlarining yoppasiga hibsga olinishi va otib tashlanishi, amir xazinasining Moskvaga olib ketilishi, majburiy oziq-ovqat “razvyorstkasi” va uning qattiq qo‘llic bilan amalga oshirilishi, islom dini va ulamolarga nisbatan dushmanlik siyosati, respublika

hududida turgan qizil armiya ta'minotining aholi zimmasiga yuklatilishi, buning ustiga, qizil askarlarning bosqinchilik va talonchilik "faoliyati" haqqoniy ravishda xalqning kuchli noroziligiga sabab bo'ldi. Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ham keskinlashdi. Yosh davlat etakchisi F.Xo'jaev murakkab va og'ir sharoitda ishlashga majbur bo'ldi. Buxoro hukumati ichida siyosiy bo'linish kuchaydi. Bir tarafdin, Buxoro Kompartiyasi ichidagi "so'l" va "o'ng" kommunistlarga qarshi g'oyaviy jihatdan kurash olib borishga to'g'ri kelsa, ikkinchi tarafdin, RSFSR va uning favqulodda organlari bo'lgan Turkkommissiya, Turkbyuro yosh "mustaqil davlat"ning bosgan har bir qadamini sergaklik bilann nazorat qilib turar edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan F.Xo'jaev, U.Po'latxo'jaev, O.Xo'jaev, A.Fitrat, M.Aminov, M.Saidjonov, S.Xo'jaev, M.Mansurov, A.Muxitdinov va boshqa hukumatda demokratik yo'l tutib, mo'tadil mavqeda turdilar. Ular BXSРning amalda mustaqil bo'lishi, e'tiqod erkinligi, islohotlar o'tkazish zarurligini yoqlab chiqdilar.

1920-yil 18-23-sentyabrda Eski Buxoroda Butun Buxoro Xalq vakillarining ikkinchi s'ezdi (qurultoyi) bo'lib o'tdi. 23-sentyabrda Buxoro tarixida birinchi Konstitutsiya tasdiqlandi<sup>1</sup>. Buxoro tarixidagi dastlabki Konstitutsiya fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun yo'li bilan mustaxkamladi. Konstitutsiyada davlatni idora etish uchun xalqning barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta'minlandi. Konstitutsiyaga binoan butun davlat hokimiyati mexnatkashlar qo'liga o'tgani BXSР o'z hududi chegarasida yaxlit mustaqil davlat deb elon qilindi.

Konstitutsiyaga muvofiq BXSРning 20 yoshga kirgan barcha fuqarosi millat va jinsidan qat'iy nazar saylash huquqiga ega ekanligi aytilib, faqat amir avlodlariga katta er egalari va davlat jinoyatchilari saylov huquqidan mahrum etildi. Konstitutsiya BXSРning barcha fuqarolariga demokratik erkinliklar: so'z, matbuot va mitinglar qilish erkiligini berib, erkak va ayollarni teng huquqli deb elon qildi.

Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari Konstitutsiyada o'z ifodasini topdi. Buxoroda o'rnatilgan tuzum xalq demokratik respublikasi edi. BXSРning Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng

---

<sup>1</sup> Рашидов У. Бухоронинг Россия билан иқтисодий ва сиёсий муносабатлари тарихидан.- Бухоро: Бухоро нашриёти, 2013. -Б. 96.

siyosiy huquq berdi, milliy tengsizlikni yo'qotdi. Konstitutsiyaga ko'ra, BXSRning oliy organi – Butun Buxoro xalq vakillari qurultoyi bo'lib, u har 2000 saylovchiga bir vakil saylanadigan 350 a'zodan iborat edi. Qurultoy yiliga bir marta chaqirilar va unda respublika konstitutsiyasini qabul qilish, o'zgarishlar kiritish, hukumatning hisoboti va davlat byudjetni tasdiqlash kabi muhim masalalar ko'rilar edi. Konstitutsiyaga ko'ra, qurultoylar o'rtasida qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi oliy organ – Butun Buxoro MIK xisoblanadi. Qurultoyda Butun Buxoro MIK raisi qilib Usmonxo'ja Po'latxo'jaev saylandi (1922-yil avgustda bo'lgan 3 qurultoyda bu lavozimni Porso Xo'jaev egalladi). Konstitutsiyaga muvofiq Xalq Nozirlar SHo'rosi davlat hokimiyatini ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi sifatidagi o'z vazifasini saqlab qoldi.

Qurultoyda milliy masalaga katta e'tibor berildi. Buxoro MIK huzurida Omongeldi Omonov boshchiligida Turkman bo'limi tuzildi. Keyinchalik shu asosda Turkman avtonom viloyati tashkil qilinib, unga milliy muxtoriyat huquqi berildi. Turkman va tojik xalqi uchun madaniy ma'rifiy va boshqa muassasalar ochildi.

Buxorodagi demokratik jarayonlarga mamlakat tashqarisidan tazyiq tobora kuchayib bordi. 1923-yil 3-iyunda Buxoroga SSSR Qurolli Kuchlarining Bosh qo'mondoni S.S.Kamenev, Turkfront Inqilobiy Harbiy Kengash raisi A.I.Kork, RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi a'zosi Mixaylov va boshqalar kelishdi. Ular Buxoro hukumati faoliyatidan qoniqmayotganliklarini ochiq aytib, sotsialistik o'zgarishlarni jadallashtirish kerakligini ta'kidlashdi. Oradan ko'p o'tmay – 12 iyunda RKP(b) MK Siyosiy byurosi maxsus qaror qabul qilib, Buxoro hukumatini sovetlashtirish chora-tadbirlarini belgilab berdi. Sovet hukumati o'z buyruqlarini tez va qarshiliksiz amalga oshirish uchun RKP(b) MK kotibi YA.E.Rudzutakni Buxoroga jo'natdi. 23-iyunda BKP MK yopiq plenumida Rudzutak ishtirok qilib, Buxoro hukumati rahbarlari va mahalliy kommunistlar oldiga qat'iy talablarni qo'ydi. F.Xo'jaevning eng yaqin safdoshlari bo'lgan sobiq yosh buxorolik jadidlar Otaulla Xo'jaev (tashqi ishlar noziri), Fitrat(maorif noziri), Sattor Xo'jaev (moliya noziri), Muinjon Aminov (EKOSO raisi) lavozimlaridan chetlashtirilib, Buxoro davlati hududidan chiqarib yuborildi. Qori Yo'ldosh Po'latov, Rahimjon Yusufzoda, Muzaxar Maxsum Burhonov, Hoji Hamro Yo'ldoshev ham mas'ul lavozimlardan olib tashlandi. Buxoro hukumati Moskva

va Toshkentning “kommunistcha sabog‘i”ni olgan “tajribali sovet xodimlari” bilan to‘ldirildi. Plenumning o‘zida Buxoro Kompartiyasi MK kotibi Muhametdinov o‘rniga A.Rahimboev Buxoro Kompartiyasi MK mas’ul kotibi qilib saylandi.

Hukumatda Turkistondan yuborilgan emissarlarning ta’siri kuchayib bordi. Inqilobiy ekstremistik unsurlar bu bilan cheklanib qolmasdan, 14-avgustda bo‘lgan Buxoro MIK favqulodda sessiyasida Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritishga ham muvaffaq bo‘ldilar. 1923-yil 11-17-oktyabrda bo‘lgan Butun Buxoro 4-qurultoyi Konstitutsiyani o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqladi. Unga binoan barcha savdogar, mulkdor va sobiq amaldorlar saylov huquqidan mahrum qilindi. Ammo ishchi va kosiblarning saylov huquqi kengaytirildi. Shuningdek, qurultoyda jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradigan “Sovet qurilishi to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qilindi. Jamiyat tobora siyosiy lashib bordi. Buxoroda o‘tkazilayotgan demokratik islohotlarning takdiri xavf ostida qoldi. Markazning talabi bilan mamlakatda sun’iy ravishda sotsialistik qayta qurishlarni amalga oshirishga kirishildi. Respublikadagi bu keskin siyosiy vaziyat qurolli muxolifat harakatining kuchayishida ham o‘z ifodasini topdi.

Buxoroda amir hokimiyati ag‘darib tashlangan dastlabki haftalardayoq mamlakatning g‘arbiy, markaziy va sharqiy qismlarida qizil armiyaning bosqinchilik siyosati va bolsheviklar zulmiga qarshi istiqloqlilik harakati boshlangan edi.

Buxoro respublikasidagi iqtisodiy siyosat va xo‘jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Buxoro inqilobiy qo‘mitasining 1921-yil 5-yanvardagi dekretida hamma erlarni umumxalq mulki deb e‘lon qildi. Vaqf erlari tugatildi, ayrim toifadagi xo‘jaliklarning chorva mollari va mulklari musodara qilindi. Sug‘orish tizimi izdan chiqdi, ekin maydonlari qisqarib, chorva mollarining soni kamayib ketdi. Shu bilan bir vaktida ko‘plab ijobiy ishlar ham amalga oshirildi. 1921-yil kuzida erni tortib olish bekor qilindi. Buxoro MIKning umumiy afv to‘g‘risidagi 1922-yil 25-may dekretida vaqflarni tugatishni to‘xtatish, qozixonalar ishini, shariat ko‘rsatmalarini tiklash va boshqalarni e‘lon qildi. O‘sha yilning noyabrda yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ga o‘tish e‘lon qilindi. Buxoro davlat banki tuzilib, pul islohoti amalga oshirildi. Dehqonlarni moddiy rag‘batlantirish choralari ko‘rildi. Bu qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishiga olib keldi. 1923-yil sug‘oriladigan erlar maydoni 1913-yildagi darajaga

yaqinlashib qoldi (92,3%). Bu paytga kelib Buxoro respublikasida 19 ta korxonalar, 500 dan ortiq bozor ishlab turdi, xususiy sarmoya 12000 savdogarlar mablag'idan iborat bo'ldi. 1923-yil 4 ta aralash aksionerlik jamiyati, 30 ta yirik savdo firmalari faoliyat ko'rsatayotgan edi. Davlat savdosi va kooperatsiyasiga berilgan yordam o'z samarasini ko'rsatdi. 1923-yil mart oyida Turkiston, Buxoro va Xorazm iqtisodiy jihatdan birlashtirildi va uni boshqarish uchun O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (Sredaz EKOSO) tuzildi. F.Xo'jaev O'rta Osiyoning iqtisodiy jihatdan birlashuvi to'g'risidagi fikrni boshida qo'llab-quvvatlamadi. Chunki u iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, hatto mintaqalar xalq xo'jaligi istiqbollari to'g'risida qaror qabul qilishgacha bo'lgan barcha ishlar Markaz qo'liga o'tayotganligini eng avvalo sezgan va bu siyosatning mash'um oqibatlarini chuqur tushungan arbob edi.

O'zi kuchli iqtisodchi bo'lgan F. Xo'jaev Buxoro tomonidan Rossiya va Turkistonga etkazib beriladigan mollarga aniq tovar ekvivalenti belgilash zarurligi to'g'risida ayniqsa tashvishlanib gapirar edi. Buxoro hududida joylashgan Rossiya qo'shinlari Buxoro davlatining oziq-ovqati va em-xashagi bilan ta'minlanar edi. Hukumat boshlig'i F.Xo'jaev Rossiya qo'shinlari sonini 15000 kishigacha qisqartirish to'g'risidagi masalani Moskva oldiga bir necha marta qo'ydi.

1922-yil iyulida Rossiya hukumati Buxoroga to'qimachilik va kog'oz fabrikalari, ko'n va sovun pishirish zavodlari uchun uskunalari Zarayskdagi "Krasniy Vostok" yigiruv-to'quv fabrikasidan bepul yubordi. Ana shu korxonalarini mantaj qilish va ishga tushirish uchun Buxoroga maxsus muhandis-texniklar komissiyasi keldi. Bundan tashqari, Rossiya Buxoroga 50 milliard so'mlik zayom berdi. 1924-yil oxiriga kelib Buxoroda davlat sektoriga qarashli 26 ta sanoat korxonasi ishlab turdi va ular dastlabki foydani o'z boshladilar. Davlat korxonalarining daromadlari 1923-yildagi 500 ming so'mdan, 1924-yili 13 million so'mga ortdi. 30-yillarda Buxoroda eski sanoat korxonalarini qayta qurish bilan birga ko'n zavodi, shoyi to'qish va tikuvchilik fabrikalari barpo etildi.

Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (BSSR) 1924-yil 18-20-sentyabrda Butun Buxoro xalq vakillarining 5-qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy 19-sentyabrda BXSRni Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi. BSSRning

tuzilishi yuqoridan turib sun'iy tarzda amalga oshirilgan hodisa edi. Natijada taraqqiyotning demokratik yo'li inkor qilinib, sotsialistik yo'nalish tanlandi. Markazdagi bolshevik rahbarlarining Buxoro va Xorazm xalq respublikalarini sotsialistik respublikaga aylantirishdan ko'zda tutgan asosiy maqsadlari mahalliy xalqlarni tezroq sovetlashtirish va ruslashtirish, ularning ongiga kommunizm mafkurasini singdirish edi. Sharqda "sotsializmning porloq g'alabasi"ni ta'minlash uchun bu juda zarur edi. Qurultoyda F.Xo'jaev hukumatning ishi to'g'risida hisobot berdi va "O'rta Osiyoning milliy davlat chegaralanishi to'g'risida" ma'ruza qildi.

Qurultoy qatnashchilari xalq hukumatining 4 yillik ish faoliyati yakunlarini chiqarib, O'rta Osiyoda milliy respublikalar tuzish zarurligini yoqlashdi. 1924 yil 18 noyabrda Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR MIKlari qo'shma qaror qabul qildilar va shu qarorga binoan o'z vakolatlarini O'zbekiston SSR Sovetlarining Ta'sis qurultoyiga qadar ish ko'rib kelgan Fayzulla Xo'jaev raisligida yangi tashkil etilgan O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komitetiga topshirdilar. Shunday qilib, O'rta Osiyo respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishi deb atalmish tadbir asosida 1924-yil noyabr oyi oxirida Buxoro SSR tugatilib, uning hududi yangi tashkil etilgan O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR va Tojikiston ASSR (1929-yildan Tojikiston SSR)ga kiritildi.

Sovet hokimiyati yillarida Buxoroda shahar xo'jaligini takominlashtirish bo'yicha ko'p ish kilindi. Uy-joy kurilishiga aloxida e'tibor berildi. 1921-yil BXSReda tashkil etilgan "Tarixi anjuman" jamiyati o'lkadagi qadimgi obidalarni muhofaza qilish, xalq amaliy san'atini rivojlantirish, fan tarixiga oid qo'lyozmalarni yig'ish, arxeologik ashyolar va xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plab tadqiq etish kabi ishlar bilan shug'ullangan. Olim, yozuvchi va ma'rifatparvarlardan Abdurauf Fitrat, Otajon Payrov Sulaymoniy, Abdulvohid Burhonov (Munzim), Sadridin Ayniy, Salimbek Salimiy, Sharifjon Maxdum (Sadr Ziyoy), Ahmadjon Hamdiy, Musajon Saidjonov, Qori Yo'ldosh Po'latov, Siddiqxon (Hashmat) (1885-1910-yillarda Buxoro amiri bo'lgan Amir Abdulahadning ukasi) jamiyat a'zolari bo'lishgan. Buxoro ilmiy jamoasi ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etgan. Buxorodagi 3 shaxsiy kutubxonada saqlangan sharqshunoslik, tarix, adabiyotga oid qo'lyozma kitoblarni to'plagan. Birgina Sharifjon Maxdum kutubxonasidan 300 jildga yaqin fors-tojik va

turkiy tillardagi noyob qo‘lyozma asarlar ro‘yxatga olingan. Jamiyat to‘plagan qo‘lyozma asarlar orasida tarixchi Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi»), Ahmad Donishning «Navodir ul vaqoe» («Nodir voqealar») asarlari bor. Jamiyatning «Anjumani tarix» bo‘limi «Buxoro arki tarixining qo‘lyozmasi» kitobini tayyorlagan. Buxoro ilmiy jamoasi to‘plagan materiallar O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

BXSRda bir qator vaqtli matbuot, “Buxoro axbori gazetasi”, “Buxoro haqiqati” nashrlari katta ahamiyat kasb etdi. “Buxoro axbori”-BXSR hukumati gazetasi. 1920-yil 9-sentyabrdan 1923-yil iyulgacha o‘zbek tilida chiqqan. Gazeta 3000 nusxada nashr qilingan. U Buxoro jadidlarining minbari bo‘lib, milliy mustaqillikka erishish, mamlakatda burjua demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirishni targ‘ib qilgan. “Buxoro axbori” gazetasida Buxoroda vijdon erkinligini ta‘minlash, milliy hukumat va milliy qurolli kuchlarga tayanish, rus qizil qo‘shinlarini Buxoro hududidan olib chiqib ketish va boshqa siyosiy hamda iqtisodiy masalalar ko‘tarilgan. Gazeta 1923-yil iyulda Sovet hokimiyati tomonidan taqiqlangan. Gazetaga Fitrat, Cho‘lpon, Said Ahroriy, Ziyo Usmoniy, Qori Yo‘ldosh va boshqalar muharrirlik qilgan. 1923-yil sentyabrdan “Ozod Buxoro” nomi bilan chiqa boshlagan. Dastlab “Uchqun” nomi bilan Samarqandda nashr etilib (1920-yil iyun-sentyabr), Buxoroda yashirin tarqatilgan, BXSR tashkil etilgach (1920-yil sentyabr.), Buxoro shahrida “Buxoro axbori” nomi bilan nashr etila boshlangan. Keyinchalik “Ozod Buxoro” (1923-1930), “Buxoro proletari” (1930-1938), “Buxoro haqiqati” (1938-1999) nomlari bilan chiqdi. 1999-yil dekabrdan hozirgi nomda. Gazetaga turli davrlarda Fayzulla Xo‘jaev, Fitrat, Cho‘lpon, Sayid Axroriy, Ostonqul Abduqayum o‘g‘li, Qosim Sorokin, Fotih Sulaymon, Abdusalom Niyoziy, Abbos Aliev, Ahmadjon Yoqubov, Rustam Abdurahmonov, Ashur Bozorov, Turg‘un Yoqubov, Otaxon Toshxo‘jaev, Yo‘ldosh Muqimov, Abdurahim Nurmuhamedov, Toshpo‘lat Hamid va b. muharrirlik qilgan. Gazeta sahifalarida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Sadridin Ayniy, Ibrohim Mo‘minov, Abdulhamid Majidov, Atoulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Muinjon Aminov, Ne‘mat Aminov, Omon Muxtorov kabi taniqli davlat arboblari va ziyolilar dolzarb mavzulardagi maqolalari bilan qatnashishgan. Gazetaning dastlabki sonlaridan boshlab milliy mustaqillik g‘oyasi undagi

maqolalarning bosh mavzui bo'lgan. 20-yillarda gazetada BXSР hududidan sho'ro qo'shinlarini olib chiqib ketish, demokratiyani rivojlantirish, davlat idoralarini ruslashtirishga chek qo'yish, yoshlarni taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlarida o'qitish kabi dolzarb masalalar yoritilgan. Shu bois gazeta tahririyat jamoasi va mualliflari sho'ro tuzumidan ko'p jafо ko'rishgan. Gazetaning sobiq muharrirlari va etakchi mualliflaridan Fayzulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat, Sayid Ahroriy, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmud Badayliy, Ziyо Usmoniy, Ostonaqul Abduqayum 30-yillardagi qatag'onda hibsgа olinib, qatl etilgan. Abbas Aliev, Abdusalom Niyozov, Abdulhamid Majidov, A'lo Kamolov, Ashur Bozorov uzoq muddatga qamalgan.

Shuningdek, Buxoro hukumati mamlakatda madaniy oqartuv muassasalari tashkil qilish va ular faoliyatini yaxshilashga ham e'tibor qaratdi. 1924-yilga kelib BXSРda 14 ta kutubxona, drama teatri, muzey va ko'plab klublar aholiga xizmat ko'rsatdi. O'zbek va rus tilarida yangi gazeta va jurnallar hamda boshqa adabiyotlar chop etish ham yo'lga qo'yildi.

1925-yil 13-17-fevralda Buxoroda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Soovetlarining 1-qurultoyida "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risidagi deklaratsiya" qabul qilindi. Qurultoyda respublika hokimiyatining oliy organlari rasmiylatirildi. 1925-yil fevraldan mayigacha Buxoro shahri O'zbekiston SSRning poytaxti bo'ldi. F.Xo'jaev O'zbekiston SSR XKS raisi va Y.Oxunboboev O'zbekiston SSR MIQ Prezidiumi raisi qilib saylandi.

## **10.2.Buxoro Xalq Respublikasi hududida sovet rejimiga qarshi qurolli harakat (1920-1924)**

Bolsheviklar tomonidan o'rnatilgan kommunistik rejimga qarshi kurash 1920-1924-yillarda Buxoro va unga qarashli tuman va beklklar hududlarini qamrab oldi. Bu harakatga sovet hukumati davrida "Bosmachilik" degan rasmiy nom berildi. "Bosmachi" so'zi aslida turkiy "bosmoq"(hujum qilmoq) so'zidan yasalgan. Milliy ozodlik harakatining mohiyatini soxtalashtirish ajdodlarimizning sovet rejimi va bolsheviklar hukmronligi hamda qizil armiyaning bosqinchilik siyosatiga qarshi olib borgan qonli kurashlarini niqoblash uchun buyuk davlat shovinistlari tomonidan o'ylab chiqarilgan hamda



“banditlik”, “qaroqchilik” degan soʻzlar bilan asossiz suratda tenglashtirilgan<sup>1</sup>.

Buxoro respublikasidagi mustaqillik uchun kurashayotgan kuchlar 1920 yilning kuzida tashkil topgan va ikki guruhdan iborat boʻlib, ularning har biri oʻzining kurash usuli va yoʻlidan borgan. Birinchi guruhdagilar amirlik tuzumini qayta tiklash, yangi hukumatni (“kofirlarga sotilgan jadidlar” hukumatini) ham yoʻqotish tarafdorlari edilar. Bu guruhga Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor va boshqa qoʻrboshilar rahbarlik qilishdi. Bu guruhni sobiq Buxoro amiri Said Olimxon ham qoʻllab-quvvatlab turdi. 1920-yilning avgust oyi oxirlarida u toj-taxtni tashlab Sharqiy Buxoroga ketdi hamda Shahrisabz, Boysun, Hisor va Koʻlob viloyatlarida xalqning qizil askarlar bosqiniga qarshi koʻtarilgan qoʻzgʻolonlariga rahbarlik qilishga urindi. 1921-yilning 4-martida Said Olimxon Afgʻoniston hududiga oʻtib ketdi va oʻsha erdan turib Buxorodagi muxolifat kuchlariga rahnamolik qildi.

Harakatning ikkinchi guruhi qatnashchilari milliy istiqloq gʻoyalari sodiq boʻlgan buxorolik vatanparvarlardan iborat boʻlib, ular Buxoroning muqaddas tuprogʻidan qizil armiyaning olib ketilishi, Buxoro Xalq Respublikasining rasman, soʻzda emas, balki amalda, haqiqiy suratda mustaqil boʻlishi uchun harakat qildilar. Mazkur guruh tarafdorlarining koʻlami keng boʻlib, dastlab Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyorbek, Anvar Posho va boshqalar boʻlib, ularning safiga keyinchalik Buxoro Respublikasining juda koʻpchilik rahbarlari – Buxoro Respublikasi MIQning birinchi raisi Usmonxoʻja Poʻlatxoʻjaev, Favqulodda Qoʻmita raisi Muhitdin Maxsum Xoʻjaev, Respublika Militsiyasining boshligʻi Ali Rizo Afandi, Sherobod viloyati noziri Hasan Afandi, Termiz militsiyasining boshligʻi Usmon Afandi, Respublika Harbiy ishlari noziri Abdulhamid Oripov, shuningdek Surayyo Afandi, M.Qulmuhamedovlar ham qoʻshildilar. Shuni ham taʼkidlash joizkim, qayd etilganlarning koʻpchiligi jadidlar va yosh buxoroliklar boʻlgan. Toʻgʻri, ular ochiqdan-ochiq qurolli kurash olib bormagan boʻlsalarda, qurolli muxolifat bilan yashirin aloqada boʻlishib, imkonlari boricha ularga yordam koʻrsatishgan. Manbalarning guvohlik berishicha, 1920- yildayoq F.Xoʻjaev boshchiligidagi “Milliy Ittihad” tashkiloti tuzilib, tashkilot aʼzolari

---

<sup>1</sup> ЎМЭ, 2-ТОМ. –Б.163.

yashirin kurash olib borishgan<sup>1</sup>. Ammo kurash har doim ham yagona dastur va yagona qo‘mondon qo‘li ostida olib borilmagan.

Buxoroda ham Turkistondagi kabi bolshevikcha andoza asosida sovet tuzumining tashkil qilinishidan, yangi hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidan norozi bo‘lgan, mol-mulkidan ajralgan boylar, dehqonlar va hunarmandlar qurolli muxolifatning asosini tashkil etadi. Kurashga boshchilik qilayotgan qo‘rboshilar ham faqat katta boy va yirik diniy arbob bo‘lmasdan, ular orasida ziyolilar, jadid vatanparvarlari, turli kasb egalari ham mavjud edi.

Buxoro ozodlik kurashchilarining bosh qo‘mondoni G‘ozi, Buxoro inqilobchisi Qori Abdulla, Norqul Botir, Doniyolbek ellikboshilar imzo chekkan maktub Buxoro Respublikasi hukumatiga yuborilib, unda kommunistlarning, favqulodda komissiyaning, umuman bolsheviklarning hatti-harakatlaridan norozilik, Buxoroni haqiqatda mustaqil emasligi qayd etilgan hamda bu Buxorodagi mustaqillik uchun kurashning o‘ziga xosligi bo‘lib, bu erda harakat qisqa fursatda ommaviy tus olgan.

Buxoro Xalq Respublikasi hududida qurolli muxolifatning harakati ikki davrni o‘z ichiga qamrab oladi. Birinchi davr 1920-1924-yillarni, ikkinchi davr esa 1925-1935-yillarni qamrab oladi. Harakatning birinchi davrida kurash Sharqiy Buxoroda va G‘arbiy Buxoroda olib borilib, Sharqiy Buxorodagi harakatga Ibrohimbek, G‘arbiy Buxorodagi harakatga esa Mulla Abdulqahhor boshchilik qilgan.

1921-yil oktyabrda Buxoro shahriga etib kelgan Anvar Posho oradan ko‘p o‘tmay Sharqiy Buxorodagi vatanparvarlar safiga qo‘shildi. Anvar Posho (1881-1922) – yosh turklar inqilobini amalga oshirgan, “Ittihad va taraqqiy” partiyasi rahbarlaridan biri, general (Posho)unvonini olgan, Turkiyaning harbiy vaziri lavozimida ishlagan. U 1921-yil dekabrda boshlab Sharqiy Buxorodagi qo‘rboshilarga rahbarlik qila boshladi. Anvar Posho ko‘rsatmasi bilan Buxoro , Farg‘ona va Xorazm qo‘rboshilarining uchrashuvlari muntazam o‘tkazib turildi hamda ularga kerakli yo‘l-yo‘riqlar berildi. Buxoro amiri Said Olimxon ham Anvar Posho orqali Turkistondagi istiqloqlar guruhlarini bilan muntazam aloqani yo‘lga qo‘yib turdi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб.- Т.: Шарқ, 2000. –Б.251.

Mulla Abdulqahhor (1884-1924) – G‘arbiy Buxoroda qizil armiya qismlariga qarshi kurashgan istiqlolchi kuchlarning bosh qo‘mondoni, Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida tug‘ilgan. Mulla Abdulqahhor Buxorodagi mashhur Mir Arab madrasasida tahsil olib, buxoroliklar orasida katta obro‘ga ega bo‘lib yirik ulamo sifatida nom chiqargan. Uning qo‘l ostida 20 ta qo‘rboshi dastalari birlashgan edi: O‘rmon Polvon, Metan Polvon, Naim Polvon, Shukur Xo‘ja, Jo‘ra Amin, Hayit Amin, Oston Qorovulbegi (Ostoncha), Said Mansur, Murod Meshkob, Azimxo‘ja, Hamro Polvon, Murod Polvon, Tosh Murdasho‘y, Xushvaqt va Sirojxo‘ja kabi sardorlar. Bulardan Metan Polvon va Naim Polvon Mulla Abdulqahhorning ukalari bo‘lib, dushmanga nisbatan shafqatsizliklari bilan nom chiqargan edilar. Ular asosan G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan tumanlari va Nurotada harakat qilgan edilar<sup>1</sup>.

“Buxoro shahri atrofidagi fuqarolar, G‘ijduvon, Pirmast, Vobkent, Xo‘ja Orif, Xutfar, Vang‘oze, Qorako‘l tumanliklari aholisi va fuqarolari, taxminan 15 ming nafar odam uning(mulla Abdulqahhorning) atrofiga jamlangan edi”<sup>2</sup>.

G‘arbiy Buxoroda 1921-yilda tuman markazlari va yirik qishloqlarda qizil askarlarning harbiy garnizonlari tuzildi. Bunday garnizonlar Shofirkon, Talisafed, Vardonze, Vobkent, Romitan, Zandana, G‘ishti, G‘ijduvon va boshqa joylarda tashkil etildi. Ular ko‘pincha qishloqlarni talon-toroj qilish bilan shug‘ullandi. Arxiv ma‘lumotlariga qaraganda, Buxoro istiqlolchilari saflarida ko‘plab o‘zbek va tojik ayollari ham kurashgan<sup>3</sup>.

Bu paytda M.Abdulqahhor qo‘rboshi Afg‘onistonda turgan sobiq amir S.Olimxon, Ibrohimbek va Anvar Posho bilan doimiy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Mulla Abdulqahhorning qo‘shiniga qisqa vaqt ichida minglab buxoroliklar kelib qo‘shildi. S.Olimxonning yozishicha, M.Abdulqahhor qo‘shiniga Buxoro atrofidan taxminan 6 ming nafar, Vobkent tarafidan 2 ming nafar, Shofirkondan 2 ming nafar, Pirmast tumanidan 2 ming nafar, Xutfar va Laqlaqa (Romitan va Peshko‘)dan 2,5 ming nafar, Vag‘onza (Qiziltepa)dan 3 ming nafar va Bahouddin

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. –Б. 258-259.

<sup>2</sup> Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. -Т.:1991. –Б.20.

<sup>3</sup> Қ.Ражабов. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш:тарих ҳақиқати (1920-1924). –Т.: Маънавият, 2002. –Б.81.

(Kogon) tumanidan 2 ming nafar – jami 25 ming nafardan ortiq jamoa yig‘ilgan<sup>1</sup>.

G‘ijduvon jangi natijasida qizil askarlarga qattiq zarba berildi, bir oy ichida ikki ming dona beshotar miltiq, yuz ming dona beshotar miltiq o‘qi, o‘nta pulemyot, uchta zirhli mashina (bronevik) o‘lja qilib olindi. G‘ijduvondan so‘ng Shofirkon, Vobkent va Romitan ham istiqlolchilar qo‘liga o‘tib, Nurotaga hujum uyushtirildi va u harakatning qarorgohi bo‘lib qoldi<sup>2</sup>.

Buxoro istiqlolchilarining o‘ziga xosligi shunda ediki, ular Farg‘ona istiqlolchilaridan farqli ravishda yangi hukumatning rahbarlariga maktub yo‘llab o‘z maqsad va talablarini bayon etishgan. Masalan, yuqorida qayd etilgan harakatlardan keyin istiqlolchilar qarorgohidan Mulla Jalol va Hazratqulbek vakilligida BXSR hukumati raisi F.Xo‘jaevga ultimatum (talabnoma) yuborilib, unda shunday deyilgan edi: “Zarafshon daryosining yuqori qismini berasan, aks holda Buxoroga hujum qilaman”<sup>3</sup>. Istiqlolchilarning talabi rad etilgach, 1922- yilning martida Buxoroga hujum uyushtirildi. Zarafshon daryosining Mehtar Qosim (Vobkent hududida) ko‘prigi atrofida BXSRning qizil askarlari mag‘lubiyatga uchradi. Bu erda bir-ikki kun davomida qattiq janglar bo‘lib o‘tdi.

Shundan keyin M.Abdulqahhor Eski Buxoroga hujum qilib, qisqa fursatda shaharning 6 ta darvozasini egalladi. Erishilgan ustunlikni mustahkamlash maqsadida o‘z qo‘shinini ikkiga bo‘lib, birinchi qismini Kogonga yo‘naltirdi, ikkinchi qismi bilan o‘zi Eski Buxorodagi vaziyatni to‘rt soat davomida ushlab turdi va keyin Qasri Orifon (Kogon)ga harakat qildi.

Biroq bu muddat ichida qizil qo‘shin o‘zining katta kuchlarini bu erga to‘plashga muvaffaq bo‘ldi va istiqlolchilarni mag‘lub etdi. Shu vaqtgacha Anvar Poshoning qo‘shini Shahrisabz va Qarshi orqali Buxoro viloyatiga etib kelishi kerak edi. Afsuski bunday bo‘lmadi va qo‘shimcha kuchlar etib kelolmadi. Aynan shu fursatda Eski Buxoro atrofida vaziyat murakkablashdi. Buxoro shahrini Jabbor qo‘rboshi hamma tomondan qurshab olgan edi (1922-yil 5-mart). BXSR hukumati Turkiston ASSRdan yordam so‘radi va Samarqanddan, Toshkentdan qo‘shimcha kuchlar, Zakaspiydan esa otliqlar polki

<sup>1</sup> Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. -Т.:1991. –Б. 23.

<sup>2</sup> Қ.Ражабов. Кўрсатилган асар. –Б.82.

<sup>3</sup> А.Набиев. Жанговар йиллардан лавҳалар. -Т.: 1968. –Б.13.

yordamga etib keldi. Oqibatda Jabbor qo‘rboshining qo‘shini ham mahv etildi. Bir necha kunlik shiddatli janglardan so‘ng Vobkent, G‘ijduvon, Shofirkon va boshqa shaharlar birin-ketin qizillar tomonidan bosib olindi. Shunday bo‘lsada, harakat davom etgan. Masalan, 1922-yilning aprel oyi boshlarida Buxorodan 15 chaqirimlik masofadagi Jondorda qizil qo‘shin bilan ayovsiz to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tgan.

1922-yilning bahorida Buxoro Respublikasidagi qurolli harakatda vaziyat yanada keskinlashdi. 1922-yilning 19-mayida Anvar Posho Sovet davlatining poytaxti –Moskvaga ultimatum yuborib rus qo‘shinlarini Turkiston tuprog‘idan olib chiqib ketishni talab qildi. Talabnomaga javob berilmadi va aksincha qarshi harakat kuchaytirildi. 1922-yilning 1-iyunidan boshlab BXSR hududida ikki front: Sharqiy va G‘arbiy front tashkil etildi. Natijada qizil armiya qo‘shini qat‘iy hujumga o‘tib, shu yilning 4-avgustida Sharqiy Buxoroda (Baljuvon atroflarida) Anvar Posho qo‘shiniga qarshi katta kuchni tashladi. Jang paytida besh joyidan yaralangan Anvar Posho o‘ldirildi. Shu jangda og‘ir yaralangan Davlatmandbek ham jangdan keyin o‘ldi. Anvar Poshoning dafn marosimida 250 ming turkistonliklar ishtirok etishgan.

Istiqlolchilik harakati 1922- yilning kuzi va 1923- yilning boshlarida ham faol davom etgan. Buxoro qo‘rboshilari orasida o‘zining jasurligi bilan nom chiqargan Hamro Polvon (1892-1941) asosan Romitan tumanida faoliyatini kuchaytirdi. Qo‘rboshi Murod Meshkob asosan Peshko‘ va Romitan tumanlarida harakat qildi. 1922-yilning dekabrda Oston qo‘rboshi SHofirkonda harakatini kuchaytirdi. Jo‘ra Amin qo‘rboshining dastasi esa shu vaqtda Jondorda qizillarga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Qo‘shimcha kuchlar etib kelgachgina, qizillar Jondorni egallab olishga muvaffaq bo‘ldilar. Qizillarning ustunlikni qo‘lga kiritishlaridan so‘ng shu yilning dekabrda Buxoro atroflarida istiqolchilardan 511 kishi halok bo‘lib, 127 kishi asirga olindi.

1923-yilning boshi va bahorida Buxoro viloyati hududida, umuman G‘arbiy Buxoroda qurolli harakat yana jonlandi. Jo‘ra Amin (Jondor-Yakkatutda), Oston Qorovulbegi (Zandananing g‘arbida), Murod Meshkob (Xo‘ja Za‘faronda), Mulla Abdulqahhor, Metan Povon va O‘rmon Polvon (Nurotada), Naim Polvon (G‘ishtida), Hamro Polvon (Buxoro shahridan shimoliy g‘arbda), Tosh

Murdasho‘y (Kumushkentda) harakat qildilar. Amudaryo bo‘yi rayonida Ochil Sardor (Qorako‘l atrofida), Qilich Sardor (Denovda), Rustam (Burdaliqda), Qilich Mergan (Karkida) kurashdilar.

1923- yilning bahori-yozida qurolli harakat markazi Nurotada bo‘lib, Mulla Abdulqahhorning qarorgohi shu erda edi. Bu paytga kelib unga Metan Polvon, Latif Devonbegi, Abdurasul Afandi, Xushvaqt, Og‘a Gulbek, Yodgor Xo‘ja, Siroj Xo‘ja, Musaboy, Azim Yuzboshi, Mulla Qarshi, Nazir Yuzboshi, Asadulla Qorovulbegi, Oqil Qorovulbegi, Mustafo Qorovulbegi, Mulla Mansur kabi qo‘rboshilar bo‘ysunardi. Qorako‘l tumanida harakat qilayotgan Murod Polvon safdoshlari Jo‘ra Amin va Hayit Polvonlar bilan birgalikda aprel oyining oxirida Jondordagi qizil askarlar garnizoniga muvaffaqiyatli hujum uyushtirib, dushmanning ikkita aeroplani (samolyoti)ni urib tushirishdi. 10 iyunda Tosh Murdasha‘y va A‘zam Xo‘janing 300 otliq otryadi Xargo‘sh atroflariga hujum qilib, bu erdagi qizillar garnizonini qirib tashladi (Q.Rajabov. Ko‘rsatilgan asar,115-bet). Jo‘ra Amin (1889-1926)ning yigitlari Jondor va Qorako‘l tumanlarida Pavlov qo‘mondonligidagi 13-o‘qchi korpusiga qarshi shafqatsiz janglar olib borishdi.

1924-yilning boshlarida G‘arbiy Buxoroda Zandanada (Mulla Abdulqahhor), Qorako‘lda (Jo‘ra Amin), Jondorda (A‘zamxo‘ja), Buxoro shahrining shimoliy g‘arbida (Tosh Murdasha‘y), Vobkentda (Ko‘r Ota), G‘ijduvonda (Islom Qorovulbegi), Shofirkonda (O‘rmon Polvon, Metan Polvon va Naim Polvon) kurashni davom ettirdilar. Ammo 1924-yilning 5-iyulida boshlangan “Bosmachilikni tugatish oyligi” natijasida 17 qo‘rboshi va 250 yigit qo‘lga olindi. Mulla Abdulqahhor 1924- yilning noyabrida Qizilqumda o‘ldirildi. Shunday qilib, 1924-yilning oxirlariga kelib Buxoro va Karmana (G‘arbiy Buxoro) viloyatlaridagi istiqloqlilik harakati asosan mag‘lubiyatga uchradi. Lekin bu istiqloqlilik harakatining batamom mag‘lubiyatga uchraganini bildirmasdi. Keyingi davrda bu harakat yangi bosqichga ko‘chdi <sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Қаранг: Мирзакулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. 1-китоб. – Т.: Lesson Press, 2016. – Б.263-268.

### **10.3. Sovetlar davrida Buxoro viloyatida iqtisodiy xayot**

Qizil armiya tomonidan Buxoroning bosib olinishi, bosqinchilarga qarshi olib borilayotgan milliy ozodlik kurashi iqtisodiy inqirozni yana ham chuqurlashtirdi. Dehqon xo‘jaliklarining xonavayron bo‘lishi natijasida 1918 yilga nisbatan olganda 1920-yil oxirida dehqonchilik 30%, 1922-yil boshlarida 40%, chorvachilik esa mos ravishda 40% va 53%ga tushib ketdi. 1922-yilga kelganda ekin maydonlari deyarli ikki baravar, qorako‘l teri tayyorlash 20 baravar, paxta etishtirish esa 26 baravar qisqardi. Ana shu davrda hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 50%, savdo-sotiq aylanmasi esa 75% ga tushib ketdi.

BKPning 1 s‘ezdi “Yer mehnatkashlarga” shiori ostida o‘tdi. S‘ezd Buxoro revkomining 1921-yil 2-fevral “Xamma yer umumxalq mulki, ya‘ni davlat mulki deb amirning milliylashtirilgan yerlari, shuningdek vaqf yerlari, ulardagi ko‘chmas mulklar bilan birga, yersiz va kam yerli dehqonlarga bo‘lib berildi” - deb e‘lon qilgan dekretini ma‘qulladi. Yer islohotini amalga oshirish uchun barcha viloyatlarda va tumanlarda yer komitetlari tuzish va bularga eng kambag‘al dehqonlarni jalb etish zarur deb topdi.

Mamlakat iqtisodini rivojlantirishda vaqflar ham katta ahamiyat kasb etdi. 1921-yil 10-avgustdagi rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Buxoroda 208 ta masjid va 215 ta madrasaga qarashli 200 vaqf muassasasi ro‘yxatga olingan. Vaqf yerlarining miqdori 3000 tanob /750 desyatina/, 57 ta saroy, 1414 ta do‘kon, 23ta bozor joyi , 10ta hammom, 18ta tegirmon va 133 turar joy hujradan iborat bo‘lib, bir yilda 1 mln. so‘m sof daromad keltirar edi. Yangi hukumat ana shu vaqf mulklarini to‘la musodara qilingan yer va ish anjomlarini xalqqa berish bilan cheklandi. Yosh BXSRR oldida turgan eng muhim masala siyosiy iqtisodiy va xarbiy masalalar bo‘lib bularni amalga oshirish uchun yirik moliyaviy resurslar kerak edi.

Ana shu davrda hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 50%, savdo-sotiq aylanmasi esa 75%ga tushib ketdi<sup>1</sup>.

O‘zbekiston SSR 1925-yilda tashkil topgach, Buxoro shahri sovet hokimiyati tomonidan birin - ketin tuzilgan. Zarafshon viloyati (1925-yil 29-yanvardan), Buxoro okrugi (1925-yil 29-sentyabrda) ,

---

<sup>1</sup> Рашидов У. Бухоро Россия билан иқтисодий ва сиёсий муносабатлар тарихидан. – Бухоро: Бухоро, 2013. –Б.105.

Buxoro oblasti (1938-yil 15-yanvardan) ning ma'muriy markazi sifatida rivojlanishda davom etdi. Bu paytda qadimiy Buxoro shahri o'zida faqat oblast markazi maqomini saqlab qoldi.

Buxoro shahrida 1929-yili vodoprovod qurilishi tugallandi, Shaharni elektrlashtirish boshlandi. Shaharda 1935-yili markaziy elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bu davrda Buxoroda o'nlab turar joy binolari, 2 kavatli mehmonxona, Buxoro davlat pedagogika institutining 2 qavatli binosi, O'kituvchilar instituti uchun 3 qavatli yotoqxonona qurildi. Shahar markaziy qismining tarixi yangidan tuzildi. Shaharda yangi ko'chalar ochildi, mavjud ko'chalar kengaytirildi, eski ko'priklar ta'mirlandi, yangi maydonlar va xiyobonlar barpo etildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Buxoroda asosan o'z ishini harbiy izga solgan engil va oziq-ovqat tarmoqlari rivojlandi. Buxoroda paxta tozalash zavodi qurib ishga tushurildi, yigiruv fabrikasi va ko'n zavodi barpo etildi. Urush davrida (1941-1942-yillar) Buxoroga front va front orti hududlaridan 10000 kishi, asosan, bolalar keltirilib joylashtirildi. 50-60-yillarda Buxoroning barcha sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlari yangi texnika bilan jixozlandi, qo'l mexnatiga asoslangan ayrim sermehnat jarayonlar mexanizatsiyalashtirildi. Ishlab chiqarishni avtomatlash va mexanizatsiyalashga alohida e'tibor berildi. Yangi korxonona va sexlar, engil sanoatda kanvierlar va hokazolar qurildi.

Sovet hokimiyati yillarida Buxoroda Hazrati Imom qabristoni tashlandiq joy va xarobaga aylantirildi. Bu erdagi qadimiy masjid va maqbara, darvoza boshqa tarixiy yodgorliklar ham buzib tashlandi. Hovuz va ariqlar ko'mib yuborilib daraxtlar kesib tashlandi. Qabrlar ustidagi marmar sag'ana toshlari yo'qotildi va tashib ketildi. Shuningdek Pushtai Behishtiyan qabristoni va maqbaralari buzib tashlanib, ular o'rnida Buxoro shahar yog' zavodi, 4-maktab hamda Buxoro kooperativ texnikumi qurilgan.

70-yillardan e'tiboran O'zbekiston sanoati, shu jumladan Buxoro sanoatining rivojlanishi sanoat ishlab chiqarish hajmi va mexnat unumdorligining o'sish sur'atlarining pasayishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining aynishi va xokazolar singari inqiroz hodisalari bilan bog'lik tarzda susaya bordi. Yangi sanoat ob'ektlari-fabrika, kombinat, sex va hokazolar barpo etish yo'li bilan sanoatdagi turg'unlikni bartaraf etish tadbirlari ko'rildi. Shu bilan birga, bu sharoitda Buxoroning an'anaviy xalq hunarmandchiligi bilan



bog‘liq korxonalari rivojlantirishda davom etdi, inqiroz ular faoliyatida aks etmadi. Ular orasida o‘z soxasida Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Buxoro zardo‘zlik fabrikasini aloxida ko‘rsatib o‘tish lozim. Uning zarbof va yo‘rmado‘zlik buyumlari, yo‘rma bezakli milliy oyoq kiyimlari turli mamlakatlarda manzur bo‘lgan. Fabrikada 500 dan ziyod kishi mexnat qilardi, shulardan 90% ayollar, asosan o‘zbek ayollari edi. Tikuvchilik-attorlik buyumlari fabrikasi muvafaqqiyatli ish olib bordi. O‘zbekistonning eng yirik korxonalaridan bo‘lgan Buxoro Qorako‘l zavodi maxsuloti dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida mashhur. Biroq so‘z yuritilayotgan davrda zavod faqat xomashyo chiqardi, maxsulot esa Rossiya fabrikalarida tayorlandi. 1987-yili Buxoroda yangi poyavzal fabrikasi ishga tushirildi. O‘sha yilning o‘zida ikkinchi to‘qimachilik fabrikasi va to‘qimachilik kombinatining pardozlash fabrikasi maxsulot bera boshladi. 1980-1990-yillarda to‘qimachilik kombinati qurib ishga tushirildi. Buxoroliklar 1988- yil dekabrda zil-ziladan zarar ko‘rgan Armaniston aholisiga 1989-yildagi yanvar zilzilasini boshidan kechirgan Tojikiston aholisiga qardoshlik yordami ko‘rsatdilar.

80-yillarning o‘rtalariga kelib, inqiroz xolati sho‘ro jamiyati xayotining barcha sohalarini qamrab olgan bir sharoitda, avvalo, iqtisodiyotiga jiddiy o‘zgarishlar qilish zarurati tug‘ildi. Tub iqtisodiy islohotlar o‘tkazish muqarrarligi ravshan bo‘lib qoldi, uni amalga oshirish uchun O‘zbekiston, shu jumladan Buxoro sanoatining ayrim tarmoqlari xo‘jalik hisobiga yoki jamoaviy pudratga o‘tkazildi<sup>1</sup>.

Bu davrda Buxoroda shaxar xo‘jaligini yangilash bo‘yicha ko‘p ishlar qilindi. Qadimiy obidalar va tarixiy yodgorliklar makoni bo‘lgan Buxoroda sayyohlikni rivojlantirishga ham asos soladi. Buxoroda “Inturist”, “Zarafshon” va “Guliston” mehmonxonalari qurib ishga tushirildi. Abu Ali ibn Sino nomidagi madaniyat saroyi barpo etildi.

Buxoroda sovet davrida sanoat korxonalarining soni va salmog‘i ortib bordi. Xususan, Buxoro viloyat xududida katta miqdordagi gaz va neft xamda oltin va uran konlarining topilishi sovet xokimiyati yillarida shaharda yangi sanoat korxonalarini rivojlantirishga asos bo‘ldi. Uysozlik, madaniy-maishiy hizmat tarmoqlarini barpo etish jadallashdi. Obodonlashtirish va

---

<sup>1</sup>Бухоро шарқ дурдонаси /муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.81.

ko‘kalamzorlashtirish ishlari tubdan yaxshilandi. Xalqaro va mahalliy turizm yo‘lga ko‘yildi.

### **10.3. Sovet davrida Buxoro madaniy hayoti**

Sovet hokimiyati tomonidan Buxorodagi hovuzlarning aksariyati quritilib, o‘rniga binolar qurildi. Sovet hokimiyati davrida juda ko‘plab tarixiy yodgorliklar abgor ahvolga kelib qoldi. Faqatgina mustaqillik yillariga kelib tarixiy yodgorliklar tiklandi va ta‘mirlandi<sup>1</sup>.

Ismoil Somoniy maqbarasi gumbazi 1925-yilda ta‘mir etilgan. V.Vyatkin boshchiligida arxeologik tekshiruvlar olib borilgan (1927). Bino uni ko‘mib yuborgan zax tuproqdan tozalanib Usta Shirin Murodov va B.Zasipkin boshchiligida ta‘mirlangan.

Abduraxmon Vali maqbarasi 1950-1986-yillarda o‘rganilgan va ta‘mirlangan. Xoja Ali Rometaniy maqbarasi yonida ikkita qabr bo‘lib har uchala qabr ustida 20-asrning 80-yillarida maqbara quriladi.

Sovetlar davrida Buxoroda madaniy hayot to‘xtab qolmadi. Qadimiy Buxoroda san‘atning rivojlanishiga katta e‘tibor berildi. Ayniqsa Buxoro kinosining yaratilishi katta voqea bo‘ldi. 1924-yil O‘rta Osiyodagi 1-kino tashkiloti, BXSRS bilan Leningrad “Sevzapkino” tashkiloti o‘rtasidagi shartnoma asosida shu yilning 21-aprelida tashkil qilindi. Bu tashkilot badiiy-tashviqiy, ijtimoiy-xronikal filmlar ishlab chiqarish, ularni ijaraga olish, sotib olish, kinoteatrlar qurish va ishlatish kabi masalalar bilan shug‘ullangan. 1925 yilda rus va Buxoro kinomotografiyasi “Sevzapkino” bilan hamkorlikda Buxoroda suratga olingan “O‘lim minorasi” kinosi ekranlarga chiqarilgan. Bu film Buxoro dehqonlarining amir tuzimiga qarshi kurashi xaqida bo‘lib dunyoning ko‘plab mamlakatlarida namoyish etilgan. Film rejissyori mashhur kinorejissyor V.Viskovskiy edi. Buxkino o‘z faoliyati davomida respublikada bo‘layotgan muhim voqealarni aks ettiruvchi “Buxoro madaniy qurilish yo‘lida”, “O‘rta Osiyo bo‘ylab”, “Moskvada Buxoro ma‘rifat uyi” , “Butun Buxoro qurultoyi” kabi hujjatli-xronika, “Musulmon qiz” (D.Bassaligo) kabi to‘lametrajli badiiy filmlar chiqardi. Badiiy filmlari ancha bo‘sh bo‘lsada, tushunarli va soddaligi bilan ajralib turadi. Rollarni asosan chetdan taklif etilgan aktyorlar (N.Vendelin, V.Baranova, O.Frelix, O.Tretyakova, G.Levkoev, X.Roxatova, R.Saidaliev va boshqalar

---

<sup>1</sup>Ражабов Қ. Иноятов С. Бухоро тарихи. –Тошкент: Tafakkur, 2016. -Б.190- 218.

ijro etdi). 1940-yilga kelib Buxoro viloyatida 36 ta kino oladigan apparatlar bor edi. 1925- yilda Buxkino (“Turkiston davlat kino tashkiloti”) bilan birlashtirilib, O‘zbek davlat kino tashkiloti tashkil etildi<sup>1</sup>. BXSР hukumati o‘zining qisqa tarixiy davrida ma’naviy madaniyatning eng nafis sohalaridan biri bo‘lgan teatr san’atini takomiliga ichki muammolarning ko‘pligiga qaramay mumkin qadar e’tibor karatdi. O‘z vaqtida respublikaning o‘zbek tilidagi yakka-yu yagona matbuot organi bo‘lgan “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” (1923-yil oxirida) sahifalarida teatr sanati sohasidagi kamchilik va foydalanilmagan imkoniyatlarni keskin tanqid ostiga oluvchi maqolalar e’lon kilindi.

Buxoroda teatr va sahna ishlari “Sirli”, “So‘nggi so‘zim”, “O‘rtoq Qilichzodaga javob”, “Cho‘lpon”, “Sahna”, “Abu Varaja” “Sahnamiz bolalar uyni bo‘lmasin”, “Rafiq” “Tomoshaxonalarimiz ahvoli” (Said Ahroriy) kabi kamchiliklardan voqif bo‘lamiz. Sadriddin Ayniy nomidagi davlat musiqali drama va komediya teatri-to‘ng‘ich o‘zbek professional teatrlaridan. 1921- yil F.Xo‘jaev tashabbusi bilan havaskorlar guruhi asosida tashkil qilinib, 1922- yil “Tuhmatchilar jazosi” (Hamza)spektakli bilan ochilgan. Ikkinchi spektakli “Turkiston tabibi” (M.Uyg‘ur, 1923). Tashkilotchisi va badiiy rahbari – Mannon Uyg‘ur, H.Latipov, L.Nazrullaev, N.Rahmonov, L.Latipov, S.Habibullaev, N.G‘aniev va boshqalar teatrning ilk ijodkorlari bo‘lib, teatr taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar. 1924 yilda teatrning bir guruh aktyorlari Moskvadagi o‘zbek drama studiyasiga o‘qishga yuborildi. 1930 yilning oxirigacha kichik pesa va konsert dasturlari bilan kifoyalandi. Drama studiyasini tugatgan aktyorlar (B.Xo‘jaev, S.Abdullaev, A.Olimova, B.Jamolov, M.Musaev va boshqalar.) qaytgach teatr tom ma’noda professional teatr maqomiga ega bo‘ldi. Ular sahnalashtirgan “Isyon” (D.Furmanov va S.Polivanov), “Zo‘raki tabib” (J.Moler), “Qon va suv” (L.Sayfullina) spektakllari teatrning professionallik darajasini yanada mustahkamladi. 1931- yil Ya.Bobojonov badiiy rahbar, Sh.Shorahimov esa bosh rassom etib tayinlandilar. 30-yillarning o‘rtalari teatr ijodiy faoliyatida burilish davri bo‘ldi. Realizm uslubini chuqur egallash, erishilgan ijodiy muvaffaqiyatlarni mustahkamlash borasida jiddiy ish olib borildi. Shu ijodiy jarayon davomida o‘zbek dramaturgiyasi, rus va chet el mumtoz

---

<sup>1</sup> Муминов Х. Музаффаров А. Бухарская область. Тошкент: Ўзбекистон, 1976. –С. 54-55.

asarlari aktyorlarning ijro mahoratini oshishida, teatr jamoasining o‘z ijodiy yo‘nalishiga ega bo‘lishida muhim rol o‘ynadi. 1936-yildan teatr “musiqali drama teatri”ga aylantirildi. Shu yillari teatr jamoasi A.Xo‘jaeva, S.Yarashev, A.Oxunov, N.Ne‘matova, A.Atoev, Z.Solieva kabi ijodkorlar bilan boyidi. Urush yillari o‘zbek xalqining mardonavor kurashi aks ettirilgan asarlar sahnalashtirilgan bo‘lsa, tinch qurilish davrida repertuar mavzu jihatdan boyidi. Asosiy e‘tibor davrning dolzarb muammolariga qaratildi, xalqimizning fidokorona mehnati, ahloqiy va ma‘naviy go‘zalligi, tinchlik, insonparvarlik g‘oyalariga intilish spektakllarda o‘z ifodasini topdi. “Layli va Majnun” (Xurshid, T.Sodiqov, R.Glier musiqasi), “Ravshan va Zulxumor” (K.Yshin, T.Sodiqov musiqasi), “Qurbon Umarov” (S.Abdulla, Chustiy, T.Jalilov musiqasi), “Oltinko‘l” (Uyg‘un, M.Leviev musiqasi), “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar” (A.Qahhor), “Yurak sirlari” (B.Rahmonov), “Oftobxon” (K.Yashin, X.To‘xtasinov musiqasi), “Boy ila xizmatchi” (Hamza), “Alisher Navoiy” (Uyg‘un, I.Sulton), “Iymon” (I.Sulton) va boshqa spektakllar sahnalashtirildi. 1958-yil teatrga Sadridin Ayniy nomi berildi. 60-70-yillar teatrning mustaqil repertuar yaratish borasidagi ijodiy izlanishlari o‘z samarasini berdi va teatr o‘z ijodiy cho‘qqisiga ko‘tarildi. Sahnada realistik ijro asoslarini o‘rnatishda, ijrochilik san‘atini yuksak professional darajaga ko‘tarishda M.Musaev, B.Jamolov, A.Akobirov, R.Botirov kabi rejissyorlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Buxoroning o‘tmishi mavzuida spektakllar sahnaga qo‘yildi. Shuningdek, ayrim kishilar ongi va xulq-atvoridagi illatlarni fosh etish, shu yul bilan jamiyatga munosib fazilatli kishilarni tarbiyalash teatr repertuarining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Bir qator musiqali drama va komediya asarlari sahnalashtirilib, o‘zining ijodiy dadilligini, ijtimoiy psixologik asarlar yaratishga qodirligini ko‘rsatdi. Teatr sahnasida namoyish qilingan bir kator pesalarda milliy, ahloqiy madaniyatimiz mezonlariga to‘g‘ri kelmaydigan jihatlar, aktyorlarning ortiqcha, bachkana xatti-harakatlari tanqid qilindi. “Revizor”, “Uylanish” (N.Gogol), “Hamlet” (U.Shekspir), “Xushchaqchaq gadolar” (K.Gotssi), “Mirza Izzat Hindistonda” (B.Gargi; M.Ashrafiy musiqasi), “Gulisiyoh” (S.Jamol; D.Soatqulov musiqasi), “Qalamqoshligim” (M.Karimov; S.Jalil musiqasi), “Zebizebona” (T.Tula; I.Akbarov), “Laqma” (Uyg‘un; S.Jalil musiqasi) va boshqalar shular jumlasidan. 1980-yildan boshlab yuksak saviyali, badiiy

pishiq va g'oyaviy mukammal spektakllar ("O'z arizasiga ko'ra2, "Abulfayzxon", "Bir kam dunyo", "Janoza o'qilmasin", "Ibn Sino" va boshqa) sahnalashtirildi. 90 yillardan teatrga yangi kuchlar (M.Sodiqova, S.Zohidova, B.Boltaev, F.Abdullaev va b.) kelib qo'shildi va o'zlari bilan teatrga yangi hayot nafasini olib kirdilar. "Urush" (Sh.Nurmatov), "Yuragimni sotaman", "Sohibqiron Temur" (S.Sirojiddinov), "Chimildiq" (E.Xushvaqtoev), "Tentak farishtalar" (Sh.Boshbekov), "Davlat bolalari" (R.Muxammadjonov), "Haqrost" (Y.Muqimov) kabi spektakllar bilan teatr o'z mavqeini tikladi. Teatrda H.Naimov, N.Ne'matova, A.Fayziev kabi O'zbekiston xalq artistlari turli yillarda ijod qilganlar. Teatrning etakchi aktyorlari: Z.Karimov, A.Mavlonov, N.Mo'minova, B.Baqoev, R.Ergashev, S.G'ulomova, Sh.Yo'lliev va boshqalar va Bosh rejissyor Ubaydulla Baqoev kabi aktyorlar etakchilik qildilar. Buxoro drama, musiqa va bolalar teatri 30-yillarda tashkil topgan bo'lib, Buxoroda yangi saxna sanatini boshlab berdi. Teatr va kino bilan birgalikda Buxoro matbuoti ham rivojlanib bordi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda "Buxoronoma" shaklan va mazmunan tubdan o'zgarib, Buxoro viloyati hayotini har vaqtdagidan yaxshiroq yoritishga harakat qilmoqda. 1938-yildan chiqqan "Buxoro haqiqati" gazetasi shahar aholisi orasida nafaqat bilimlarni balki totalitar rejim mafkurasini ham tarqatdi. Buxoro aholisini madaniy rivojlanishida muayyan yutuqlarga erishdi.

**Tayanch so'z va iboralar:** qizil armiya bosqini, BXSR, inqilobiy qo'mita, qurultoy, jadidlar, yosh buxoroliklar, sovet hokimiyati, totalitar rejim, yirik korxonalar, ma'rifatparvarlik, musiqali drama, davriy matbuot, muxolifat, qurolli harakat.

### **Nazorat uchun savollar**

1. BXSR tuzilgan vaqtda yangi hukumat BXSR Nozirlar Sho'rosining raisi kim edi?
2. Qachon Buxoro shahrida markaziy elektr stansiyasi ishga tushirildi?
3. Bux komstaris tashkiloti nima maqsadda tuzildi?
4. Qachondan boshlab Buxoroda yirik arxeologik ekspeditsiyalar ish olib bordi?
5. "Uchqun" gazetasining muharriri kim edi?
6. "Buxoro axbori" gazetasi 1923 – yil sentabrdan qanday nom bilan chiqqan boshladi?

7. “Buxoro axbori” gazetasi qaysi yilda sovet hokimiyati tomonidan taqiqlangan?
8. Qachon Buxkino tashkil etildi?
9. Qizil armiya tomonidan qachon Eski Buxoro ham havodan ham yerdan qattiq bombardimon qilindi?
10. BXSRda qachon Butun Buxoro Markaziy Ijroiya Qo’mitasi tashkil qilindi?

### **Test topshiriqlari**

1. BXSR qachon tashkil etildi?
  - A) 1920-yil
  - B) 1924-yil
  - C) 1930-yil
  - D) 1925-yil
2. Qachon BXSR tugatildi?
  - A) 1929-yil oktabr
  - B) 1924-yil 18-20-sentabrda bo’lib o’tgan V qurultoyda
  - C) 1921-yil 18-sentabr
  - D) 1924-yil noyabr
3. BXSR Konstitutsiyasi qachon qabul qilindi?
  - A) 1920-yil 6-8-oktabr
  - B) 1924-yil 18-20-sentabr
  - C) 1921-yil 18-23-sentabr
  - D) 1922-yil avgust
4. Qachon Buxoro oblasti tuzildi?
  - A) 1938-yil 15-yanvar
  - B) 1925-yil 25-sentabr
  - C) 1925-yil 25-yanvar
  - D) 1924-yil 15-yanvar
5. II Jahon urushi davrida qancha kishi Buxoroga keltirib joylashtirilgan?
  - A) 20 ming
  - B) 30 ming
  - C) 40 ming
  - D) 10 ming
6. 1920-yil avgustda qizil armiyaning hujumi natijasida Buxoro darvozalari yondirilgan va yo’qotilgan. Faqatgina qaysi darvozalar bir qadar saqlanib qoldi?
  - A) Talipoch, O’g’lon

B) ShayxJalol, Namozgoh

C) Shergiron, Qorako'l

D) Talipoch, Qorako'l

7. Qachon Buxoroning barcha sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlari yangi texnika bilan jihozlandi?

A) 20-asrning 50-80-yillari

B) 20-asrning 30-40-yillari

C) 20-asrning boshlari

D) 20-asrning 90-yillari

8. 1937-yilda qaysi me'moriy majmua Sovet hukumati tomonidan buzib tashlandi?

A) Poyi Kalon me'moriy ansambli

B) Said Mir Kulol me'moriy majmuasi

C) Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasi

D) Xo'ja Zayniddin me'moriy majmuasi

9. "Buxoro axbori" gazetasi 1923-yil sentabrdan qanday nom bilan chiqa boshladi?

A) "Buxoro proletari"

B) "Krasnaya Buxara"

C) "Ozod Buxoro"

D) "Sovetskaya Buxara"

10. "Uchqun" jurnalining muharriri kim edi?

A) A. Fitrat

B) F.Xo'jayev

C) Cho'lpon

## **11-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO**

### **11.1. Buxoroning 2500 yillik yubileyining nishonlanishi va o'lkada o'tkazilayotgan xalqaro festivallar**

### **11.2. Mustaqillik yillarida Buxorodagi bunyodkorlik ishlari**

### **11.3. Transport, ishlab chiqarish, sanoat va turizm**

#### **11.1. Buxoroning 2500 yillik yubileyining nishonlanishi va o'lkada o'tkazilayotgan xalqaro festivallar**

Buxoro tarixiy obidalarga juda boy. Mustaqillik yillarida qadimgi me'moriy yodgorliklarning barchasi ta'mirlanib, o'zining asliy qiyofasiga ega bo'ldi. Hozirgi davrda Buxoro mamlakatimizda tobora kengayib borayotgan turizmning jozibador maskanlaridan biriga aylandi. Buxoroga yo'l olgan sayohatchilar shaharning dovrug'ini jahonga taratgan noyob me'moriy obidalardan Ismoil Somoniy maqbarasi (IX –X asrlar), Minorai Kalon (XII asr), Mag'oki Attori masjidi (XII asr), Chashmai Ayub (XII-XIV asr), Toqi zargaron, Toqi telpakfurushon, Toqi sarrofon ansambllari (XVI asr), Ark (mil. avv. IV - III-asrlar - XX-asr boshi) Ulug'bek madrasasi (1417), Kalon Jome masjidi (XVI asr), ayniqsa Labi hovuz maydonidagi me'moriy obidalar majmui (XVI-XVII asrlar) kabilarni zavq-shavq bilan tomosha qiladilar. Shuning uchun ham bu obidalar hozirgi kunda minglab sayyohlarning diqqat- e'tiborini o'ziga jalb etmoqda.

1997 yilda YUNESKOning qaroriga asosan dunyoning eng ko'hna shaharlaridan biri bo'lgan Buxoroning 2500 yillik yubileyi jahon jamoatchiligi vakillari ishtirokida keng nishonlandi. Buxoro shahrining jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan alohida o'rnini hisobga olgan holda, YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995-yil oktyabr-noyabr oylarida Parijda o'tgan 28-sessiyasi Buxoro shahrining 2500 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlash haqidagi qarordan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasi 1996-yil 3-yanvarda "Buxoro shahrining 2500 yilligi yubileyiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qildi. Qaror doirasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, YUNESKO Bosh konferensiyasi 28-sessiyaning Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyini 1997-yilda YUNESKO rahnamoligida jahon miqyosida o'tkazish haqidagi qarori qo'llab-quvvatlangan holda mazkur tarixiy sana tadbirlarini tayyorlash



va o‘tkazish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mitasi tuzildi. Tashkiliy qo‘mita Buxoro shahri yubileyiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish yuzasidan asosiy tadbirlar rejasini ishlab chiqdi va amalga oshirdi<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, Moliya vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi va “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi YUNESKO ekspert mutaxassislari bilan birgalikda Buxoro shahrining tarixiy markazida va asosiy turistik marshrutida joylashgan noyob tarixiy-madaniy obidalarini 1996-2000-yillarda ta‘mirlash va obodonlashtirish dasturini ishlab chiqildi va bu dastur doirasidagi ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirligi Buxoro viloyati hokimligining buyurtmasiga muvofiq “O‘zsuvqurilish” konserni, Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi bilan birgalikda 1996-1997-yillarda shahar akvatoriyasida er osti suvlari sathini belgilangan normativlarda bo‘lishini ta‘minlovchi chora-tadbirlarni ishlab chiqilib, amalga oshirildi.

“O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Buxoro viloyati hokimligi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Buxoro vohasida xorijiy va mahalliy turizm infrastrukturasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus madaniy turizm dasturlari ishlab chiqilib, bajarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Matbuot qo‘mitasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda 1996-1997- yillarda Buxoro tarixiga oid nashrlarni tayyorlanildi va chop etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tashqi ishlar vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi bilan birgalikda 1997-yilda Buxoro shahrida shaharning 2500 yilligi yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi.

Tashqi ishlar vazirligi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi va Buxoro viloyati hokimligi bilan birgalikda 1997-yilda Buxoro shahrining yubileyini YUNESKOning Parijdagi qarorgohida yuksak darajada nishonlandi.

Buxoro viloyati hokimligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Buxoro shahrini obodonlashtirish, aholini ichimlik

---

<sup>1</sup> <http://www.lex.uz/ru/docs/-1618194>

suvi bilan ta'minlash, aloqa transporti, sog'liqni saqlash va maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Buxoro shahrining yubileyini o'tkazish uchun 1996-1997-yillardagi tayyorgarlik ishlarini bajarishga har yili belgilangan tartibda moliyaviy mablag' ajratib borildi, ushbu harajatlarning 50 foizidan teng ulushlarda respublika byudjeti hamda Buxoro viloyati mahalliy byudjeti hamda tashkilotlar va korxonalarining ixtiyoriy badallari hisobiga qoplandi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi, "O'zdavkinokompaniya" va ommaviy axborot vositalari Buxoro shahrining qadimiy tarixi va madaniyati, o'ziga xos san'atini targ'ib etuvchi video, telefilmlar yaratishni, ommabop materiallar berib borilishini ta'minladilar.

1997- yil 19-oktyabrda Buxoro shahrining 2500 yilligi nishonlandi. Poyi Kalon maydonida ulkan teatrlashtirilgan tomosha bo'lib o'tdi, u yorqin badiiy shakllarda Sharqning eng qadimgi shahri tarixi, shahar mehnatkashlarining bugungi kuni haqida hikoya qildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tantana ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Buxoro shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zida (1997-yil 19-oktabr) "Bugun O'zbekiston hayotida buyuk bir sana - shonu shavkati etti olamni tutgan, qadimiy va hamisha navqiron Buxoroi sharifning 2500 yillik qutlug' to'yini nishonlamoqdamiz... Buxoro o'lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma'naviy, madaniy va diniy qadriyatlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan, sharaflil nomga sazovor bo'lgan muqaddas joylaridan biridir.

Buxoro "qubbatul islom", ya'ni "islom dinining gumbazi" va buyuk ulamolar so'zi bilan aytganda, "quvvati dini islom" deb tan olinishi ham Buxoroning jahonda, bugungi Sharq mintaqasida musulmon dunyosining mo'tabar markazlaridan biri bo'lishidan e'tirofdir. Buxoro tarixiga nazar tashlar ekanmiz, millatimizning 25 asrlik yo'lini ko'ramiz. Buxoroning har bir qarich eri, har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchilik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilmu ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo'lidan darak beradi...

O'tgan 2500 yil davomida o'zbek davlatchiligini boshqargan xorazmshohlar, kushonlar, eftalitlar, somoniylar, qoraxoniylar, anushteginlar, temuriylar, Shayboniylar, ashtarxoniylar, mang'itlar sulolalari tariximizda, xususan, Buxoroi azimda o'ziga yarasha nom va iz qoldirdilar.

Buxoro, ayniqsa temuriylar zamonida gullab yashnadi. Jahon maydonida eng mo'tabar shaharlardan biri darajasiga ko'tarilgan Buxoro ham diniy, ham dunyoviy ilmlar markazi sifatida nom chiqardi. Hazrati Bahovuddin Naqshband faoliyati aynan shu yillarda kechdi.

Buxoro nafaqat yurtimiz, balki butun Sharqning ilm markazi bo'lib kelgan. Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mir Kulol... va boshqa shu kabi buyuk zotlar etishib chiqqan, tahsil olgan bu makon bundan buyon ham ilmu fan, m'rifat va ijod beshigi bo'lib qolaveradi."-deb ta'kidlagan edi.

Buxoroda o'tkazilayotgan Ipak va ziravorlar xalqaro festivali va Buxoro kunlari tadbirlari, ularning madaniy-ma'rifiy ahamiyati Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida istiqlol yillarida ozod, erkin va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilgan ulkan ishlar milliy ma'naviyatimizni tiklash va yuksaltirish, azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, izchil rivojlantirish bilan uyg'un tarzda olib borilmoqdi. Bu festival va tadbirlarning xalqaro ahamiyati ayniqsa keyingi uch yilda yanada oshdi va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev rahnamoligida mazmunan yangi bosqichga ko'tarildi.

2006-2012-yillar mobaynida o'tkazib kelingan Asrlar sadosi an'anaviy madaniyat festivali milliy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yanada rivojlantirish, bu yo'nalishda unutilayozgan uslub va maktablarni qayta tiklashni maqsad qilgan edi.

Buxoro viloyati hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Respublika "Hunarmand" uyushmasi viloyat boshqarmasi va boshqa qator tashkilotlar hamkorligida an'anaviy o'tkazib kelinayotgan festival milliy hunarmandlikni rivojlantirish, uni xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish, hunarmandlar o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish, turizmni yanada ravnaq toptirish, Buxoroni jahon sayyohlik markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Festival ko'hnasi Ark qal'asi oldida qadim davrlarni eslatuvchi teatrlashtirilgan tomoshalar bilan boshlanadi. Karnay-surnay sadolari yangrab, o'tmish lavhalari, ertak qahramonlari aks ettirilgan bayramona tantanali yurish festival tadbirlari markazi bo'lgan Labi hovuz majmuasi tomon yo'l oladi.

Labi hovuzda o'tkazilgan festivalning ochilish marosimida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, sayyohlar, yoshlar ishtirok etadi. Prezidentimiz rahnamoligida turizm va turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yurtimizga kelayotgan chet ellik sayyohlar oqimini yanada ko'paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuksak samaralar berayapti.

Festivalda jahonning ko'plab davlatlaridan xalq amaliy san'ati ixlosmandlari, mutaxassislar, sayyohlik tashkilotlari vakillari, hunarmandlar ishtirok etyotgani xorijda yurtimizga, xalqimizning moddiy va ma'naviy merosiga qiziqish yil sayin ortib borayotganidan dalolatdir.

Tadbir doirasidagi ko'rgazma-savdo rastalarida Buxoro mis-kandakorlik asarlari, kulolchilik va zargarlik buyumlari, zardo'zlik liboslari, devoriy kashtalar, vodiyning atlasu adraslari, do'ppilari, chinni idishlari, Surxonning jun va ipakdan ishlangan mahsulotlari, toshkentlik ustalarning yog'och o'ymakorlik ashyolari, Jizzaxning biser-munchoqli san'at asarlari, umuman, yurtimiz va xorijlik hunarmandlarning ipak mahsulotlari, ziravorlar, giyohlardan tayyorlangan shifobaxsh darmondorilar namoyish etiladi. Buxoro rassomlik va miniatyura, zargarlik, zardo'zlik, mis-kandakorlik, temirchilik, gilamchilik va G'ijduvon kulolchilik maktablari ustalarining mahorat darslari tashkil etiladi<sup>1</sup>.

Festivalda barcha viloyatning folklor-etnografik jamoalari o'z dasturini namoyish etadi. Ayniqsa, milliy sport musobaqalari, xalq o'yinlari ishtirokchilarga manzur bo'lib kelmoqda. Tadbir doirasida taniqli modelerlar, yosh dizaynerlar ishtirokidagi "O'zbek ipagi - dunyo nigohida" deb nomlangan dastur, milliy taom - palov tayyorlash bo'yicha oshpazlar ko'rik-tanlovi o'tkaziladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> <http://www.uza.uz/uz/society/ipak-va-ziravorlar-festivali-26-05-2017>

<sup>2</sup> <http://www.uza.uz/uz/society/ipak-va-ziravorlar-festivali-26-05-2017>

## **11.2. Mustaqillik yilarida Buxorodagi bunyodkorlik ishlari**

Uch ming yildan ziyod tarixga ega Buxoro jahon tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan shaharlardan biri. Qadimdan ilmu ma‘rifat, madaniyat maskani bo‘lgan bu go‘sha ta‘rifi butun olamga yoyilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, madaniy merosni, ayniqsa tarixiy-me‘moriy obidalarni asrash, ularni kelgusi avlodlarga etkazish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Lekin bu ishlar o‘z-o‘zidan amalga oshgan emas. O‘tgan asrning 90- yillari boshlarida butun mamlakatda bo‘lgani singari Buxoro viloyatida ham qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ko‘ndalang turardi. Sobiq Ittifoq davridagi iqtisodiy aloqalar uzilib qolgan, mavjud sanoat korxonalari to‘xtagan, ishlab chiqarish deyarli izdan chiqqan, aholining turmush darajasi esa tushib ketgan bir davr edi. Shunga qaramasdan, ahvolni o‘nglash maqsadida islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlarini shakllantirish sari dadil qadam tashlandi va bunday sa‘y-harakatlar xalq irodasi bilan o‘z samarasini berdi.

Mustaqilligimizning dastlabki qadamlaridan Buxoroga e‘tibor hukumat siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandiki, bu borada qabul qilingan qarorlar ushbu fikrni taqdiqlaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 3-noyabrdagi “Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligini nishonlashga tayyorgarlik va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-dekabrdagi “Abdulxoliq G‘ijduvoni tavalludining 900 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007- yil 11-sentyabrdagi “Buxoro shahrining tarixiy qismidagi madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish masalalari to‘g‘risida”gi 191-sonli qarori. Buxorodagi Masjidi Kalon, Chorbakr, Ark qal‘asi kabi qator osori-atiqalar ta‘mirlanib, asl qiyofasiga keltirildi. Tasavvuf namoyandalari, Naqshbandiya tariqati asoschilari Abdulxoliq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari obod etildi. Bularning barchasi yuqorida e‘tirof etilgan hukumat qarorlarining ijrosi to‘la-to‘kis ta‘minlanganligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, Buxoro madaniy markazi amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarining yorqin namunasi sifatida alohida madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Birinchi Prezidentimiz tashabbusi va g'oyasi asosida barpo etilgan 107 gektardan iborat madaniy markaz yirik inshootlar - 700 o'rinli viloyat musiqali drama teatri, 2000 tomoshabinga mo'ljallangan amfiteatr, ular o'rtasida esa "Ko'hna va boqiy Buxoro" monumentidan iborat.



### **Buxoroda Ipak va ziravorlar xalqaro festivali kunlari**

Madaniy markaz turli burchaklaridan boshlangan yo'laklar balandligi 18 metrli "Ko'hna va boqiy Buxoro" monumentiga kelib tutashadi. Monumentni taniqli haykaltarosh, O'zbekiston san'at arbobi Ilhom Jabborov ishlagan.

Obida zinapoyalari orqali ko'tarilganda, monument tevaragidagi zarhal koshinlar diqqatni tortadi. Unda Buxoroning tuprog'i oltinga teng, degan ma'no mujassam. Chunki Buxoro azaldan oltin makoni bo'lgan. Asl va toza oltin konlari, yombilar shu erdan topilgan. Ayni chog'da monumentda nafaqat Buxoroning oltin zamini oldida, balki Buxoroni sharif shaharga aylantirgan uning fidoyi, mehnatkash odamlari oldida bosh egish kerak, degan g'oya ifoda etilgan. Bu zamin kishilari ezgu ishlari bilan tilga tushganlar. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino, tarixchi olim Narshaxiy, islom dini ravnaqi va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan Imom Buxoriy, tariqat allomalari Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xoja Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy kabilar, shuningdek, millatimiz adabiyoti, madaniyati taraqqiyotida munosib iz qoldirgan

Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, xalqimizning boshqa asl farzandlari shu zamindan etishib chiqqan. Ularning nomlari obidada zarhal harflarda naqshlangan. Bu bitiklar yuqorisida “Ilm o‘rganmoq har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir”, degan hadis o‘zbek, arab va ingliz tillarida yozilgan. Ajdodlarimiz va ularning bugungi vorislari bu da’vatni hayot mazmuniga aylantirishgan. Buxoroning dunyoda ilm-ma’rifat maskani sifatida shuhrat qozongani bejiz emas.

Xuddi shu erda Buxoroning ko‘hnaligidan darak beruvchi me’moriy yodgorliklar - Mag‘oki Attor, Ismoil Somoniy, Chorbakr, Minorai Kalon, Ark qal’asi, Labihovuz, Chorminor, Bahouddin Naqshband maqbarasi va boshqa qator obidalar tasviri toshda muhrlangan. “Dil ba yor-u, dast ba kor”-ulug‘ pir Bahouddin Naqshbandning monumentga bitilgan bu hikmati donishmand ajdodlarimizning qoldirgan ulkan ma’naviy merosining o‘ziga xos namunasi sifatida ko‘zga tashlanish barobarida bugungi avlodni mazkur da’vatga amal qilishga chaqiradi.

Monument markazida uch avlod - baxtiyor yosh oila-ota, ona va bola, nihol o‘tqazayotgan bobo va nabira hamda uy qurayotgan ota va o‘g‘ilning barelefli haykallari aks ettirilgan. Bunda chuqur falsafa bor: hayot adabiy, umr o‘tkinchi, insonning ezgu amallari mangu qoladi, bu dunyoda inson ezgu ishlar qilmog‘i, farzandlari kelajagini, el-yurtining ertasini o‘ylamog‘i kerak.

Obida tepasiga o‘rnatilgan balandligi 5 metr, vazni 32 tonnadan iborat, aylanib turuvchi ulkan Er shari uzoq-uzoqlardan ko‘zga tashlanadi. Unda O‘zbekistonimiz xaritasi tasvirlangan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, dunyo bilan yuzlashdi, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini egalladi, degan teran ma’no ifodalangan. Ushbu obida milliy ma’naviyatimizning monumental ifodasidir.

Istiqlolning dastlabki yillarida respublikamizda qator teatrlar rekonstruksiya qilinib, ijodiy jamoalar ixtiyoriga topshirilgan edi. Buxoro davlat musiqali drama teatrining madaniy markazdagi muhtasham binosi so‘nggi chorak asrda mamlakatimizda poydevordan qurilgan yagona teatrdir. San’atkorlar va tomoshabinlarning bir necha avlodi armonlari ro‘yobga chiqib, barpo etilgan bu teatr o‘zining ko‘rkamligi, zamonaviy sahna imkoniyatlari va yoritkichlari bilan jihozlangani, unda yaratilgan qulay shart-sharoitlari bilan Markaziy Osiyodagi eng go‘zal san’at maskanidir.

“Ko‘hna va boqiy Buxoro” monumenti, viloyat teatrining yangi binosi hamda zamonaviy loyiha asosida barpo qilingan amfiteatrni o‘z ichiga olgan gulzor va xiyobonlardan iborat madaniy markaz sharif shaharni yanada go‘zal qilib, uni chinakam Sharq gavhariga aylantirdi.

“Ko‘hna va boqiy Buxoro” panoramasida aks ettirilgan tarixiy obidalar

- Poykent (era.avv. V asr)
- Varaxsha (I-VI asrlar)
- Mag‘oki Attor masjidi (IX asr)
- Buxoro arki (V asr)
- Ismoil Samoniy maqbarasi (X asr)
- Minorai Kalon (1127 yil)
- Sayfiddin Boharziy maqbarasi (XIV-XV asr)
- Xoja Abduxolliq G‘ijduvoni me‘moriy majmuasi (XV asr)
- Mir Arab madrasasi (XIV asr)
- Bahouddin Naqshband majmuasi (XIV asr)
- Chorbakr (XIV asr)
- Labi Hovuz majmuasi (XVII asr)
- Chorminor (XIX asr)

“Ko‘hna va boqiy Buxoro” panoramasida aks ettirilgan tarixiy shaxslar

- Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar)
- Imom Buxoriy (810-870 yillar)
- Muhammad Narshaxiy (899-959 yillar)
- Mahmud Torobiy (1238 yilda mo‘g‘ullarga qarshi ozodlik harakati rahbari)
- Xoja Abduxoliq G‘ijduvoni (1103-1179 yillar)
- Xoja Orif Revgariy (XIII asr)
- Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy (XIII asr)
- Xoja Ali Romitaniy (XIII asr)
- Boboi Samosiy (XIV asr)
- Amir Kulol (XIV asr)
- Bahouddin Naqshband (1318-1389 yillar)
- Ahmad Donish (1827-1897 yillar)
- Sadridin Ayniy (1878-1954 yillar)
- Abdurauf Fitrat (1886-1938 yillar)



- Fayzulla Xo‘jaev (1886-1938 yillar)
- Olim Xo‘jaev (1910-1977 yillar)
- Mutal Burhonov (1916-2002 yillar)<sup>1</sup>

O‘zbekiston istiqloлга erishganidan so‘ng o‘tgan 28 yil ichida mamlakatimiz, jumladan, viloyatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida, jumladan, ajdodlarimizdan meros qolgan tarixiy yodgorliklarni ko‘z qorachig‘idek asrash, ularni qayta ta‘mirlab, kelajak avlodlarga etkazish borasida asrlarga tatigulik ulkan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov qarori asosida Buxoroning 2500 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha belgilangan tadbirlar doirasida Kalon me‘moriy majmui, Mir-Arab, Ulug‘bek madrasalari, Ark qal‘asi, Somoniylar maqbarasi, Labi Hovuz majmui va boshqa ko‘plab yodgorliklar asl holiga keltirildi. Abdulxoliq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Sayyid Mir Kulol va boshqa tasavvuf allomalarining qadamjolari yangidan qurildi, asrlar silsilasi va qarovsizlik oqibatida nuray deb qolgan Chorbakr me‘moriy majmui qayta qad rostladi.

Buxoroi sharifni o‘rab olgan qadimiy qal‘a va undagi darvozalar asrlar davomida bu ko‘hna zamin shaharsozligi va me‘morchiligining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Ammo 1920-yilning kuzida qizil qo‘shinlarning Buxoroga bosqini chog‘ida shahar qal‘asi va darvozalarining to‘plardan o‘qqa tutilgani, bombardimon, socialistik shaharsozlikda milliy qadriyatlar va an‘analarga umuman e‘tibor berilmagani, yurtimiz obidalarini ta‘mirlashga davlat byudjetidan etarli miqdorda mablag‘ning ajratilmagani sababli 12 kilometr uzunlikdagi qal‘aning bir necha o‘n metri, qadimiy darvozalardan atigi ikkitasining qolgani bu ko‘hna zaminning o‘ziga xos me‘moriy qiyofasi yo‘qolib borishiga olib kelishi mumkin edi. O‘sha vaqtdagi Viloyat hokimi S.Husenov ana shuni hisobga olib, bir necha yil muqaddam bir guruh oliyhimmat homiylar, iste‘dodli me‘morlar va ta‘mirlovchi ustalar ko‘magida qadimiy qal‘aning bir qismini, shahar darvozalarini qayta qurishdek xayrli ish tashabbuskori bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati Olim Abdiev boshchiligidagi ta‘mirlovchi ustalar guruhi XVI asrda Buxoro hukmdori Abdulazizxon tomonidan Buyuk Ipak yo‘li yoqasida

---

<sup>1</sup> <http://buxoro.uz/post/ko‘hna-va-boqiy-buxoro-11291>

qurdirilgan Samarqand darvozasining poydevori o'rnida 2009-yilda me'mor Mahmud Ahmedov loyihasi asosida bu muhtasham obidani yangidan bunyod etdi.

Buxoroning eski shahar qismiga borgan kishi Labi Hovuz me'moriy majmuidagi obidalarni ta'mirlandi, yo'laklarga bezakli plitalar yotqizildi, ko'chalarni obodonlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Viloyatdagi barcha ta'mirlovchi ustalar, qurilish tashkilotlari mutaxassislari, tumanlardan jalb etilgan hasharchilar ikki smenada ishladilar. Sovetlar davrida yodgorliklarni buzilishdan saqlashga davlat byudjetidan ajratilgan mablag' nihoyatda kam bo'lgani sabab 1000dan ziyod tarixiy obidaga ega viloyatimizda yiliga atigi bitta yoki ikkita masjid-madrasa engil-elpi darajada ta'mirlangan, xolos. Ochil Bobomurodov, Aminjon Salomov, Ahror Asrorov singari o'nlab qo'li gul ustalar 1960-1970-yillarda yodgorliklarni ta'mirladilar. So'nggi yillarda viloyatimizda obidalarni ta'mirlash ishlari ko'laming keskin kengaygani tufayli nafaqat buxorolik naqqosh va o'ymakorlar, ganchkorlar o'z sohalari bo'yicha ish bilan ta'minlandilar, balki sharif shahardagi qadimiy qal'aning bir qismini qayta tiklash, ziyoratgohlarni obodonlashtirishdek xayrli yumushlarga Xorazm, Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Samarqanddan va Farg'ona vodiysidan ustalar ham jalb qilindilar.

Ismat Muhsinov me'morchilik borasida uzoq yillar olib borgan tadqiqotlari, arxiv materiallari va eski fotosuratlariga tayanib, rus olimlari tayyorlagan sxemalarga aniqlik kiritib, Buxoro darvozalari ko'pgina adabiyotlarda qayd etilganidek 11 ta darvozani, hamkasbi Komil Ikromov bilan birgalikda XVIII-XIX asrlarda Buxoro shahri darvozalari joylashgan hududlar xaritasini yaratdi. Ismat Muhsinov har bir darvozaning tarixini yozib, ularni fotosurati bilan matbuotda e'lon qildi. Bu materiallar alohida kitob holida chop etildi.

Shayx Jalol, Samarqand, Hazrati Imom va Sallohxona darvozalari qurilishini loyihalashtirishda bu obidalarining azaliy joyida, qadimiy ko'rinishida qad ko'tarishini ta'minlash barobarida ma'lum hudud chiroyiga uyg'unlashib ketishi hamda ularning shunchaki dekorativ inshoot bo'lmay buxoroliklarga xizmat qilishi maqsadlarini ko'zlangan. Ushbu loyihalar muallifi, qator xalqaro va respublika tanlovlarining sovrindori, taniqli me'mor Mahmud Ahmedov hisoblanadi. Shayx Jalol darvozasining yangidan tiklangan shahar qal'a devoriga va Xo'ja Ismat Buxoriy ziyoratgohiga, yoxud

Hazrati Imom darvozasining Abu Hafs Kabir me'moriy majmuiga uyg'unlashib ketgani bu boradagi ijodiy izlanishlarning samarasidir. Samarqand darvozasi yonida hunarmandchilik markazining bunyod qilinishi, qurilishi poyoniga etgan Sallohxona darvozasiga tutash hududda yaqinda barpo etilgan ulug' avliyo Boboyi Porado'z qadamjosi ham Buxoroi sharifning ko'rkiga ko'rk qo'shadi<sup>1</sup>.

Buxoro asrlar davomida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelgan, haqli ravishda shariflik maqomiga sazovor bo'lgan muqaddas shaharlardan.

Mustaqillik yillarida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida Buxoroda beqiyos bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. "Buxoro madaniy markazi", uning tarkibidagi "Ko'hna va boqiy Buxoro" monumenti buxoroliklar va viloyatga keluvchi sayyohlarning sevimli maskaniga aylangan.

So'nggi yillarda bu boradagi ishlar viloyatda yanada keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. 2016-yilda viloyat iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanib, yalpi hududiy mahsulot hajmi 7,9 foizga oshdi. Viloyat yalpi hududiy mahsuloti tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 67,9 foizni tashkil etdi.

Qandim gazni qayta ishlash majmuasining qurilishi oxiriga etkazildi. Majmua tarkibiga yiliga 8,1 milliard kub metr tabiiy gazni qayta ishlash quvvatiga ega zavod, 114 qazish qudug'i, 11 maxsus maydon va 4 yig'uv punktini o'z ichiga olgan tabiiy gazni to'plash tizimi kiradi. 370 kilometr gaz quvuri, 160 kilometr avtomobil yo'li qurish rejalashtirilgan bu loyiha O'zbekiston gaz konlarini o'zlashtirishni yangi bosqichga ko'taradi. Markaziy Osiyodagi yirik ishlab chiqarish majmualaridan biri bo'lgan ushbu zavodda 2 mingdan ziyod doimiy ish o'rni yaratiladi.

2016-yili eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida Toshkent - Buxoro yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" elektr poezdining ilk qatnovi amalga oshirildi. Bundan viloyat ahlining ko'ngli ko'tarilib, ertangi kunga ishonchi yanada mustahkamlandi.

---

<sup>1</sup><http://www.buxoro.uz/post/tarixiy-obidalar-49813>



### **Qandim gazni qayta ishlash zavodi ma'muriy binosi**

Eski tuzum davrida Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasini xarob bo'lib qolgan edi. Istiqlol yillarida milliy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimizni, tarixiy obidalarimizni tiklash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1993-yilda Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi munosabati bilan mazkur ziyoratgoh ta'mirlandi. Majmuadagi daxmalar, maqbaralar, masjidlar, ayvonlar va madrasaning tarixiy qiyofasi tiklanib, qutlug' qadamjoga aylantirildi. Bugun bu maskan yurtdoshlarimiz va xorijiy sayyohlar qadami uzilmaydigan ziyoratgohlardan biridir.

### **11.3. Transport, ishlab chiqarish, sanoat va turizm**

Uzoq istiqbolga mo'ljallangan maxsus dasturlar, loyihalar asosida temir yo'l sohasida keng ko'lamli islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Buning samarasida o'tgan yillarda yangi temir yo'l liniyalari barpo etilib, mavjudlari rekonstruksiya qilindi, elektrlashtirildi. Yangi yo'nalishlar ochilib, yangi temir yo'l vokzallari qurildi, mavjudlari ta'mirlandi.

Mazkur vokzal Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2015-yil 6-martdagi 2015-2019-yillarda muhandislik-kommunikatsiyalari va yo‘l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturi to‘g‘risidagi qaroriga asosan yangidan qurilib, foydalanishga topshirilgan.

Vokzalda VIP va turli xizmatlar ko‘rsatish zallari, tibbiyot, ona va bola, dam olish xonalari, kutubxona, savdo shoxobchalari mavjud. Bino tashqarisida 4 yangi chiptaxona va favvora qurilgan.



**Buxoro vokzali**

Maydoni 2,9 gektar bo‘lgan vokzal bir vaqtning o‘zida 500 dan ziyod yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadi. Bir kecha-kunduzda 2 mingdan ortiq yo‘lovchini kutib olib, jo‘natish imkoniyatiga ega.

Buxoro - Miskin temir yo‘l 350 kilometrdan ziyod. Loyihaning umumiy qiymati 283 million dollarni tashkil etadi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha quriladigan temir yo‘lda 8 ta temir yo‘l stansiyasi va raz‘ezdlar barpo etish belgilangan<sup>1</sup>.

2015-yil 6- noyabrda “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati va Ispaniyaning “Patentes Talgo, S.L.U” kompaniyasi o‘rtasida yuqori tezlikda harakatlanuvchi yana 2 ta elektropoezdni xarid qilish bo‘yicha shartnoma imzolangan edi. Shartnomaga

<sup>1</sup> <https://uz24.uz/society/prezident-buhoro---miskin-temir-yo'l>

muvofig, ushbu zamonaviy elektropoezdlarning bittasi mamlakatimizga olib kelindi.

Zamonaviy yangi “Afrosiyob” elektropoezdi oldingilariga qaraganda yanada keng imkoniyatlarga ega. Xususan, shu vaqtga qadar harakatlanayotgan yuqori tezlikdagi elektropoezdlar 215 yo‘lovchi sig‘imiga ega edi. Yangi poezd 287 yo‘lovchiga mo‘ljallangan. Unda “ekonom” toifali vagonlar soni 2 ta ko‘p.



**Toshkent-Buxoro “Afrosiyob” tezyurar poezdi**

Tez kunlarda elektropoezdning ikkinchisi ham olib kelinadi. Poezdlar harakatini yo‘lga qo‘yish barobarida qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilib, 15 mashinist va 50 ga yaqin vagon kuzatuvchisini ish bilan ta‘minlash ko‘zda tutilgan. “O‘ztemiryo‘lmashta‘mir” unitar korxonasi hududida yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoezdlarga xizmat ko‘rsatish sexi qurilmoqda. Bu ham yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish imkonini beradi.

2010-yilda tashkil etilgan, zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlangan “Buxoro brilliant silk” O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma korxonasida pilla qayta ishlanib, turli o‘lcham, ko‘rinish va rangdagi matolar tayyorlanmoqda. Bunda buyurtmachi taklifi va bozor talabi asosida ish tutilmoqda. Hozir bu erda “Bahor”, “Yomg‘ir”, “Yulduzlar” kabi o‘nlab ko‘rinishdagi matolar ishlab chiqarilmoqda.

Matoga bosilgan gullarning o‘ziga xosligi shundaki, ularning rangi o‘chmaydi, suv va quyosh nuriga chidamli.



**“Buxoro brilliant silk” O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma korxonasi ma‘muriy binosi**

Ipak matolar ekologik toza, har qanday iqlimga mos. Mahsulot buyurtma asosida Farg‘ona, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahridagi xaridorlarga etkazib berilmoqda. Tayyor mahsulotni eksport qilish bo‘yicha xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar olib borilayotir.

Ayni paytda “Buxoro brilliant silk” qo‘shma korxonasining ipak tolalari xorijda xaridorgir. O‘tgan yili Eron, Vetnam, Turkiya, Hindistonga qariyb 2,5 million dollarga teng mahsulot eksport qilindi.

Bunday korxonalarni ko‘paytirishimiz kerak, dedi davlatimiz rahbari. Bu korxonalar uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, hududdagi kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlik qilish lozimligini qayd etdi.

Buxoro viloyatida etishtirilgan paxta tolasini qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan “O‘zbekengilsanoat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan sobiq “Buxoroteks” AJ negizida tashkil etiladigan “Indorama Indast LTD” O‘zbekiston - Singapur qo‘shma korxonasi

ishga tushgach, 400 ga yaqin ish o'рни yaratiladi. Korxonaga Shveysariyaning "Riter" kompaniyasida ishlab chiqarilgan zamonaviy va energiyatejamkor texnologiyalarni o'rnatish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizning barcha shahar va tumanlarida paxtani qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalar tashkil etilmoqda. Bu hududda etishtirilgan paxta tolasini shu erning o'zida qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Bugun Buxoroda etishtirilayotgan paxta tolasining 20,6 foizi viloyat hududida sanoat usulida qayta ishlanmoqda. Yangi loyiha bo'yicha viloyatning 7 shahar va tumanida 13 yirik sanoat korxonasini foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Bu viloyatda etishtirilgan paxta tolasining 65 foizini qayta ishlash, 5 mingga yaqin ish o'рни tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

"O'zbekengilsanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2017-2018-yillarda Buxoro viloyatida paxta tolasini qayta ishlash dasturini bajarish uchun mamlakatimiz tijorat banklari mablag'lari va chet el investitsiyasini jalb qilish rejalashtirilgan.

Erdan unumli foydalanish, tuzorlar barpo etish bo'yicha yangi loyiha taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Mamlakatimizda etishtirilgan ipak tolasiga dunyo bozorida talab yuqori.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan Buxoro viloyatining turizm salohiyatini yanada oshirish dasturi asosida 39 loyiha hayotga tatbiq etiladi.

Mamlakatimizda turizmning ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Dastur doirasida BMTning Butun jahon turizm tashkiloti (YUNVTO) hamda turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, sayyohlik industriyasi ob'ektlarini jadal rivojlantirish, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini qurish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlariga 18,5 milliard so'm mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.

Mahalliy aholi va xorijiy sayyohlar orasida mashhur muzeylar va moddiy madaniy meros ob'ektlarida tashrif buyuruvchilar uchun qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida bugungi kunga qadar Buxoro



viloyati bo'yicha 17 ta ob'ektlarda jumladan, Buxoro shahridagi 9 ta (Buxoro xalqaro aeroporti, Poyi kalon majmuasi, Toqi Zargaron, Labi Havuz, Toqi telpakfurushon, Toqi Sarrofon, favvoralar maydoni, Ark qo'rg'oni, Moxi-Xossa yozgi saroyi), Kogon tumanida 1 ta (temir yo'l vokzali) hamda "Etti pir" ziyoratgohlarida bepul Wi-Fi hududlar tashkil qilingan.

2019-yilning oxiriga qadar qo'shimcha 27 ta ob'ektlarda Wi-Fi hududlarni tashkil etib, ular sonini 44 etkazish rejalashtirildi.

O'tgan ikki yil davomida juda ko'plab xorijiy davlatlarda Buxoro viloyatining turistik salohiyati, turizm sohasiga, jumladan, sayyohlarga yaratilayotgan imkoniyatlar bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi.

Xususan, 2018 yilda viloyat turizmni rivojlantirish departamenti tomonidan Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston, Turkiya, Indoneziya kabi davlatlarda viloyatning turistik potentsiali bo'yicha taqdimotlar o'tkazilgan bo'lsa, 2019-yilda bunday taqdimotlar Belorussiya, Rossiya Federatsiyasi, Italiya, Fransiya, Chexiya, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, kabi mamlakatlarda o'tkazildi.

Ichki turizm va ziyorat turizmini keng yo'lga qo'yish maqsadida Etti pir ziyoratgohlarining tubdan ta'mirlanishi va ular oldida zamonaviy infrastrukturaga ega inshootlarning barpo etilishi viloyatning va umuman mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

"O'zmilliybank" huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va Property Industry MCHJ ta'sisshiligidagi Buxoro tumanida 38 gektarda agrologistika markazi barpo etildi. 21,8 million dollarlik mazkur loyiha doirasida bu erda Xitoy, Germaniya, Daniya texnologiyalari asosida meva-sabzavotlarni quritish, muzlatish, murabbo, jem va tuzlamalar ishlab chiqarish quvvatlari, muzlatkich va sublimatsiya tashkil etiladi. Bu yilga 10 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlash, dastlabki yillarda 6,5 million dollarlik mahsulot eksport qilish imkonini beradi.

Yangi chorvachilik kompleksi 1000 bosh qoramol va 1 ming 500 bosh qo'y boqishga mo'ljallangan. Umumiy qiymati 10 milliard so'mdan ortiq bo'lgan mazkur loyiha natijasida 2 ming 650 tonna sut, 200 tonna go'sht, 2,5 tonna jun ishlab chiqarish rejalashtirilgan. 800 gektar maydonda ozuqa etishtiriladi.

Umumiy qiymati 406 million dollardan ortiq bo'lgan Amu-Buxoro irrigatsiya tarmoqlari loyihasi doirasida Amu-Buxoro-1 yangi nasos stansiyasi quriladi, Amu-Buxoro-2, Quyi mozor, Qiziltepa va Qiziltepa-1 nasos stansiyalari rekonstruksiya qilindi. Buning samarasida Buxoro viloyatida 275 ming, Navoiy viloyatida 40 ming gektar er suv bilan barqaror ta'minlanadi. Yiliga 134,2 million kilovatt elektr energiyasi, 25,6 milliard so'mdan ziyod byudjet mablag'i tejaladi<sup>1</sup>.

Buxoro shahri Respublika hukumatining ijtimoiy yo'sindagi bozor iqtisodiyotining bosqichma - bosqich shakllanishini, tashabbuskorlik va ishchanlikni har tomonlama kuchaytirish, iqtisodiyotni markazlashuvdan va monopoliyadan chiqarish, korxonalar va tashkilotlar mustaqilligini kengaytirishdan iborat siyosatini og'ishmay amalga oshirmoqda.

Buxoro ip-gazlama ishlab chiqarish birlashmasi to'qimachilik kombinati va to'rtta tuman filiali singari bazaviy korxonalarni o'z ichiga oladi. 1994-yil ushbu birlashmada 18 mingdan ziyod kishi ishlagan. Birlashma mutaxassislarining sa'y-harakatlari tufayli ishlab chiqarish birmuncha oshdi. Natijada 1994-yilning birinchi yarmida 1991-yilning o'sha davriga nisbatan kalava chiqarish 2 foizga, tayyor gazlama esa 12 foizga o'sdi<sup>2</sup>.

Birlashma tashabbusi bilan birqancha savdo uylari ochilib, ular yaqin xorijda Buxoro to'qimachilari manfaatini ifodalab, mol ayirboshlashni amalga oshirishadi. Masalan, sochiq va dag'al gazlama evaziga Sankt-Peterburg birlashma korxonalariga zaxiraviy qismlar yuborilgan. Korxonalar Rossiyaning Ivanovo viloyatiga 250 million so'mlik mahsulot yuborib, 170 million so'mlik mahsulot oldi. 1994-yilda birlashmaning 28 ta xorijiy sheriklari bo'lib, ular savdo yo'llari orqali mol ayirboshlashni amalga oshirishdi.

Viloyati iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari majmuidan iborat bo'lib, qishloq xo'jaligida paxta, don, qorako'lti va pilla etishtirish asosiy o'rinni egallasa, sanoatda paxta tozalash va to'qimachilik korxonalari ustun, sanoatda ham jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Agar viloyatda 90-yillarning boshida atigi bir necha respublika ahamiyatiga ega sanoat korxonalari faoliyat yuritgan

<sup>1</sup> <http://uza.uz/oz/programs/sog-lom-bola-yili/prezidentimiz-ishlo-kh-zhaligi-so-asidagi-isti-bolli-loyi-al-10-03-2017/>

<sup>2</sup> Бухоро шарқ дурдонаси /муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.164.

bo'lsa, hozirda ularning soni 100dan oshdi. O'tgan yillar davomida umuman sanoat tarmog'ida 27 ta yangi turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga keng imkoniyatlar yaratilib, uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulishi 2000-yildagi 33.0 foizdan 2010-yilda 64.1 foizgacha oshdi. Hozirda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 17.9 foiz, qishloq xo'jaligida 98.2 foiz, qurilishda 53.4 foiz, investitsiyalar hajmida 14.4 foiz, chakana savdoda 48.2 foizni tashkil etmoqda. Mustaqillik yillarida olib borilgan izlanishlar natijasida Qandim, Oqqum va Porsonqul hududlariga neft va tabiiy gazning kata zaxiralari ochildi. Ana shu konlardagi energetika xomashyosini qayta ishlash uchun 1997-yilning avgust oyida Qorovulbozor shaxrida yirik neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan ushbu korxonalar Buxoro - Xiva neft - gazli hudud xom-ashyosini qayta ishlash bilan birga viloyat aholisini ish bilan ta'minlash borasida asosiy manbalardan biri vazifasini ham o'tamoqda. Buxoro viloyati misolida oladigan bo'lsak, bu erda keyingi etti yilning o'zida 9.8 milliard dollar hajmida investitsiya kiritildi. Kelgusi besh yilda 7.8 milliard dollardan ortiq investitsiya jalb etish hisobidan bir qancha loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Xorijiy firmalar bilan hamkorlik hamda qo'shma korxonalar faoliyati mustaqillik sharoitida shahar iqtisodiyotining rivojlanish darajasi va sifatiga yangitdan yondashishni taqazo qilmoqda. "Omega" grek firmasi Buxoro qorako'l zavodi asosida jahon bozorida mutlaqo raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara boshladi.

Buxoroning "Sitora" korxonasi bolgarlar bilan hamkorlikda telefon apparatlari, Janubiy Koreyaning "Goldstar" firmasi bilan hamkorlikda Buxoro uysozlik kombinati negizida televizorlar ishlab chiqarmoqda. Isroil Firmasi bilan hamkorlikda chigitni qayta ishlovchi yirik korxonalar qurilishi nihoyasiga etkazilmoqda, chigit yuz foiz shu erning o'zida qayta ishlanadigan bo'ldi.

"Gufik" hind firmasi bilan hamkorlikda Buxoro zaminida o'sayotgan o'tlardan dori-darmon tayyorlovchi farmasevtika fabrikasi ishga tushirildi. 1994-1996- yillarda Buxoroda yana 25ta qo'shma korxonalar tuzildi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Бухоро шарқ дурдонаси /муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.166.

Xorijiy sheriklar bilan oʻrnatilgan yaqin aloqa boʻyash pardozlash fabrikasida Gollandiyaning “Shtork” firmasi hamda Hindistonning “Stovek” kompaniyasining ishlab chiqarish liniyalarini oʻrnatish imkonini berdi. Ushbu uskunalarni Germaniyaning “Romesh Klyaynevefers” firmasi oʻrnatdi, natijada fabrikada eni 2 metr 40 santimetr boʻlgan yangi namunadagi gazlama ishlan chiqarish yoʻlga qoʻyildi. Boʻyovchi moddalar muammosi toʻla hal etildi. Shveytsariyaning “Siba-Gaygi” firmasi fabrikaga 18 tonna kalava boʻyogʻi va 38 tonna toʻqimachilik yordamchi boʻyoqlarni etkazib berdi.

Buxoro toʻqimachilari Mudofaa vazirligidan harbiy kiyim tikish uchun kerakli miqdorda material tayyorlab berishga buyurtma oldi. Harbiy gazlama ishlab chiqarishning oʻziga xos xususiyatini eʼtiborga olib, birlashma jahonga mashhur “BASF” firmasi bilan bitim tuzdi. Shuningdek, Germaniyaning “Baer” va “SXT Tyubingen” kompaniyalari bilan ham oʻzaro bitim imzolandi<sup>1</sup>.

Birlashmaning 25 ming nafarlik jamoasi yaqin xorijning 200 isteʼmolchisiga va uzoq xorijning 40 dan ziyod isteʼmolchisiga raqobatbardosh mahsulot yubormoqda.

Buxoro Gʻarb mamlakatlari orasida-Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya bilan nihoyatda mustahkam aloqalar oʻrnatgan. Gʻoyat istiqbolli sheriklari-Turkiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya firmalari bilan aloqa oʻrnatildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018-2019-yil Buxoroga tashrifi davomida viloyatni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlantirish boʻyicha qimmatli taklif va tavsiyalar, aniq koʻrsatmalar ilgari surildi. Jumladan, Buxoroda tasavvuf maktabini, Mir Arab oliy madrasasini, Buxoro tarixi, Islom tarixi va manbashunosligi taʼlim yoʻnalishlarini ochish toʻgʻrisidagi koʻrsatmalar bugungi kunda toʻla amaliyotga joriy qilindi. Turizmni rivojlantirish, etti pir ziyoratgohini obodonlashtirish, Buxoroning eski shahar qismini YUNESKO talablari doirasida saqlab qolish, aholi uchun yangi turar-joylar qurish, Buxorositi markazini tashkil etish, chorvachilik sohasida mashhur Buxoro qorakoʻlini qayta tiklash, qishloq xoʻjaligida klaster tizimini yoʻlga qoʻyish borasida amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlar diqqatga sazovor.

---

<sup>1</sup> Бухоро шарк дурдонаси /муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарк, 1997. –Б.165.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab quvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4243-sonli qaroriga asosan chorva hayvonlari ozuqa bazasini yaratishga mo‘ljallangan ozuqabop ekinlarni etishtiruvchilarga sug‘orish tiq quduqlari burg‘ulashga subsidiya, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini joriy qilishlari uchun esa kredit mablag‘lari ajratildi.

Chorvachilik sohasi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini ta‘minlovchi asosiy tarmoq bo‘lib, bu soha aholi ehtiyojlarini ta‘minlashda qimmatli chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum va boshqalar) va engil sanoat tarmoqlari uchun xom ashyo (teri, jun va boshqalar) etkazib beradi. Mazkur sohani tubdan rivojlantirishda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklari sharoitida mustahkam ozuqa bazasini yaratish, chorva mollari va parrandalarni oqsilga boy, servitamin, ozuqalar bilan yil davomida uzluksiz ta‘minlab borish, seleksiya-naslchilik ishlarini zamonaviy usullarda takomillashtirib borish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga keng joriy qilish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

2016-2019-yillarda chorvachilikni rivojlantirishga mo‘ljallangan Dasturlarning qabul qilinishi chorvachilik sohasini rivojlanishini ta‘minladi.

Prezidentimiz tomonidan sohani rivoji uchun qabul qilingan qarorlar bilan chorvachilik sohasiga berilgan imtiyozlar evaziga, tejalgan mablag‘lar naslchilik ishlarini yaxshilashga, yangi texnologiyalarni olib kirishga zamin yaratib, chorva mol bosh sonlari va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni qo‘payishiga olib keldi.

Buxoro viloyatida naslchilik ishlarini mustahkamlash, chorvachilik fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, ularda naslli qoramollar podasini ko‘paytirish, naslchilik yadrosini shakllantirish va kengaytirish, qoramollar mahsuldorligini oshirish maqsadida 2016-2019-yillar mobaynida chetdan 6000 bosh naslli urg‘ochi tanalar Ukraina va Germaniya davlatlaridan olib kelindi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buxoro viloyatida zamonaviy paxta-to‘kimachilik klasterini tuzish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 19-maydagi PQ-2978-sonli qaroriga asosan Buxoro viloyati hokimining 2017-yil 24-maydagi 328-sonli qarori qabul qilindi va “Bukhara Cotton**

**Textile Cluster**” korxonasi tashkil qilinib, Romitan tumanidan 8,0 ming gektar ekin eri ajratib berildi.

**Buxoro viloyatidagi paxta-to‘qimachilik “BCT cluster” korxonasi tomonidan 3 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha investitsiya loyihalari jalb qilindi.**

1. Paxta xom-ashyosini etishtirish.
2. Paxta xom-ashyosini birlamchi qayta ishlash.
3. Tekstil va to‘qimachilik tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish.

Mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan, ta‘sischilarning o‘z mablag‘lari hamda tijorat banklari hisobidan jami 621 mlrd. 670 mln.so‘m (74,9 mln.dollar) investitsiyalar jalb qilindi.

Keyingi uch yilda Buxoro viloyati ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida sodir bo‘lgan ulkan ijobiy o‘zgarishlar Prezident Sh.M.Mirziyevning yillar mobaynida to‘planib qolgan muammolarni tezkorlik bilan bartaraf qilish borasida amalga oshirayotgan tinimsiz sa‘y-harakatlari samarasidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentyabrdagi “2019-2023-yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 794-sonli qarori viloyatni qisqa muddatda yangi tarixiy bosqich - taraqqiyot va farovonlik bosqichiga ko‘tarilishining kafolatidir.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Mustaqillik yillari, bunyodkorlik ishlari, yubileylar, xalqaro festivallar, madaniy markaz, qo‘shma korxonalar, me‘moriy majmualarni ta‘mirlash, hamkorlik, xorijiy firmalar, sanoat, turistik salohiyat.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Buxoroning 2500 yillik yubileyi qachon nishonlandi?
2. Buxorodagi “Asrlar sadosi” an’anaviy madaniyat festivali haqida ma’lumot bering?
3. “Ko‘hna va boqiy Buxoro” monumenti qachon barpo etildi?
4. “Ko‘hna va boqiy Buxoro” monumenti qaysi haykaltarosh tomonidan ishlangan?
5. Ko‘hna va boqiy Buxoro” panaramasida aks ettirilgan tarixiy obidalar haqida gapiring?
6. Mustaqillikdan keyin Buxorodagi qaysi darvozalar qayta tiklandi?

7. Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi qachon nishonlandi?
8. Buxoroda ipak va ziravorlar xalqaro festivali haqida ma'lumot bering?
9. Buxorodagi Qandim gazni qayta ishlash zavodi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
10. Buxoroga Afrosiyob elektr poezdining ilk qatnovi qachon amalga oshirildi?

### **Test topshiriqlari**

1. 1993 yil Bahouddin Naqshband tavalludining necha yilligi qachon nishonlandi?
  - A) 675-yil
  - B) 924-yil
  - C) 130-yil
  - D) 925-yil
2. Mustaqillikdan keyin Buxorodagi nechta darvoza qayta tiklandi?
  - A) 11
  - B) 10
  - C) 15
  - D) 4
3. Buxoroga Afrosiyob elektr poezdining ilk qatnovi qachon amalga oshirildi?
  - A) 2010-yil
  - B) 2009-yil
  - C) 2019-yil
  - D) 2016-yil
4. Qandim gazni qayta ishlash zavodi qaysi tumanda joylashgan?
  - A) Olot
  - B) Pushko'
  - C) Jondor
  - D) Korako'l
5. Buxoroning 2500 yillik yubileyi qachon nishonlandi?
  - A) 1993-yil
  - B) 2010-yil
  - C) 2001-yil
  - D) 1997-yil

6. Buxoroda “Asrlar sadosi” festivali qachon bo‘lgan?  
A) 2011-yil  
B) 2010-yil  
C) 2013-yil  
D) 2009-yil
7. Mustaqillik yillarida Buxoro shahri darvozalari joylashgan hududlar xaritasini kimlar yaratdi?  
A) Ismat Muhsinov, Komil Ikromov  
B) Ismat Muhsinov, SHirin Murodov  
C) R.Almeev, Komil Ikromov  
D) To‘g‘ri javob yo‘q

### **Seminar mashg‘uloti mavzulari:**

1. Shayboniylar davrida Buxoro
2. Ashtarxoniylar davrida Buxoro
3. Buxoro mang‘itlar davrida
4. Buxoro sho‘rolar davrida
5. Mustaqillik yillarida Buxoro



## TARIHIY ATAMA VA TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG‘ATI

- Avorizot** – favqulodda xarajatlar uchun to‘planadigan yig‘im.
- Avqof** – masjid va madrasalarning vaqf xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi.
- Amid ul-muluk** – davlat hujjatlarining yuritilishiga mas‘ul va elchilik aloqalari vaziri.
- Amir ul-umaro** – amirlar amiri, bosh sarkarda.
- Amlok** – davlat erlari.
- Ark** – ichki qal‘a, hukmdorlarning shahar ichidagi saroyi, qarorgohi.
- Arkbegi** – podsho qarorgohining boshqaruvchisi.
- Barzikor** – qo‘shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.
- Bek** – el-yurt, viloyat hokimi.
- Begor** – jamoat ishlariga safarbar etish, hashar.
- Biy** – urug‘ va jamoa oqsoqoli.
- Boj** – savdogarlardan olinadigan soliq.
- Bosqoq** – mo‘g‘ullar hokimlik qilgan XIII-XIV asrlardagi mahalliy hokim.
- Botmon** – og‘irlik o‘lchovi. XIX-XV asrlarda 20 kg ga teng bo‘lgan.
- Vaqf** – diniy muassasalarga tegishli mulklar.
- Visoqboshi** – to‘rt nafarli askariy guruh boshlig‘i; chodir boshlig‘i.
- Devon** – o‘rta asrlarda vazirlar mahkamasi shu nom bilan yuritilgan.
- Devonbegi** – vazirlar mahkamasining bosh ma‘muri.
- Dehqon** – ilk o‘rta asrlarda qishloq hokimi, erdor.
- Dinor** – bir misqol, ya‘ni 4,8 gr og‘irlikdagi oltin yoki kumush tanga.
- Dodxoh** – fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi va hal qiluvchi amaldor.
- Dorug‘a** – harbiy ma‘mur.
- Yom-jom** – savdo yo‘llaridagi qo‘noq.
- Jarib** – 958 kv. m. er maydoni.
- Jeta** – qaroqchi; qoloq.
- Jiz‘ya** – g‘ayridinlardan jonboshiga olinadigan soliq.
- Jome‘ masjid** – juma kunlari jamoat namozi o‘qiladigan katta masjid.
- Juvong‘or** – qo‘shinning so‘l qanoti.
- Zobitona** – kirimni hisoblovchi moliya xodimi uchun olinadigan to‘lov.

**Zakot** – chorvadan olinadigan soliq; to‘plangan mol-mulkdan to‘lanadigan daromad solig‘i.

**Zarbxona** – chaqa va tangalar so‘qiladigan, ya’ni zarb qilinadigan ustaxona.

**Iqto’, iqta’** – yirik mansabdorlarga hadya qilingan er va mulk.

**Kadivar** – yirik savdogarlarga mute qishloq aholisi.

**Kalon** – XIII asrdagi er solig‘i.

**Koriz** – er osti suv inshooti.

**Kofiya** – arab tili morfologiyasi.

**Koshin** – usti sirlangan pishiq g‘isht.

**Ko‘kaldosh** – xonning eng ishonchli kishisi.

**Ko‘shk** – istehkomli baland qo‘rg‘on.

**Lavh** – yozuv taxtasi, yozuv kursichasi yoki kursi. Buxoroda kitob qo‘yib o‘qiydigan yog‘och taxtacha ham lavh deb atalgan.

**Lag‘m** – er osti yo‘li.

**Mirob** – suv xujaligi boshqaruvchisi.

**Miroxo‘r** – xon otxonasining boshlig‘i.

**Mirshab** – tungi qorovul boshlig‘i.

**Muzahhib** – zarhal beruvchi mo‘yqalam sohibi, rassom.

**Muzoriy** – qo‘shchi, ziroatkor, ekin ekuvchi.

**Mulk** – xususiy er.

**Mulki vaqf** – masjid va madrasalarga tegishli er-mulk, xayrli ishlar uchun ajratilgan mol-mulk.

**Mulki devoniy** – davlat erlari.

**Mumallikayi xos** – davlat mulklari boshqaruvchisi.

**Mustavfiy** – markaziy hokimiyat devonxonasi daftardor hisobchisi, moliya vaziri.

**Muftiy** – diniy huquq masalalarda fatvo (qaror) chiqaruvchi amaldor.

**Muxtasib** – tosh-tarozi, narx-navo va diniy amallarning bajarilishini nazorat qiluvchi amaldor.

**Mushrif** – saroy ish boshqaruvchisi.

**Muhoraba** – jang, urush, harbiy to‘qnashuv.

**Naddof** – jun tituvchi, jun savalovchi.

**Namozgoh** – iyd ibodatleri o‘qiladigan masjid. Buxoroda shahar tashqarisidagi masjid.

**Ozodkor** – hunarmand.

**Otashkada** – otashparastlar ibodatxonasi.

**Otaliq** – shahzodalar murabbiysi.

**Pandus** – ko‘tarma yo‘l.  
**Parvonachi** – biror lavozimga tayinlangan kishiga uning shu lavozimga tayinlanganini etkazuvchi amaldor.  
**Rabod** – tashqi shahar, karvonsaroy.  
**Rais** – shahar hokimi.  
**Rangrez** – matoga rang beruvsi usta.  
**Sadr** – vaqf mulklarini boshqaruvchi.  
**Sanad** – shahodatnoma, hujjat.  
**Sardoba** – pishiq g‘ishtdan qurilgan gumbazli hovuz.  
**Sarrojlik** – egar va jabdug‘ yasovchi ustaxona.  
**Sahhob** – muqovasoz, muqovachi.  
**Sohibqiron** – asr, ya‘ni zamonning egasi, jahonning egasi, jahongir.  
**Sohibi muayyad** – maktubot va axborot vaziri, aloqa ishlari vaziri.  
**Sohibi shurat** – harbiy vazir.  
**Suyurg‘ol** – zodagonlarga in‘om qilingan er-mulk.  
**Tavocho** – mamlakat miqyosida qo‘shin to‘plovchi amaldor.  
**Tazar** – er osti kanalizatsiya inshooti. Bu tizim Buxoro shahrida yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.  
**Tang‘a** – savdo boji; savdogarlardan olinadigan soliq.  
**Tanob** – 2-2,5 ming kv.m. hajmdagi er maydoni.  
**Tariqat** – komillikka erishishni ko‘rsatuvchi yo‘l.  
**Toq** – usti yopiq bozor va hunarmandchilik rastasi.  
**Tudun** – turk xoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili.  
**Tuman** – o‘n minglik harbiy qism.  
**To‘qsoba** – xon tug‘i sohibi, keyinchalik harbiy amaldor.  
**Urbanizatsiya** – jamiyat taraqqiyoti davrida shaharlar rolining oshish jarayonlari.  
**Ushr** – hosilning 10% hisobida olinadigan dehqonchilik solig‘i.  
**Xatib** – din peshvosi.  
**Xattot** – kitob va risolalar ko‘chiruvchi kotib, xat ustasi.  
**Xiroj** – hosilning 20-25% hisobida olinadigan qishloq xo‘jalik solig‘i.  
**Xonaqoh** – g‘aribxona, musofirxona, darvishlar istiqomatgohi.  
**Chilangar** – temirchi.  
**Chiqir** – tuya yoki ho‘kiz qo‘shib aylantiriladigan suv ko‘targich.  
**Chokar** – harbiy otryad, ko‘ngillilar to‘dasi.  
**Chorikor** – hosildan 25% olish hisobiga ishlovchi yollanma qo‘shchi ziroatkor.  
**Chorsu** – bozor joyi.

**Shayxulislom** – din va diniy bilimlar peshvosi.

**Shahriston** – ichki shahar. Buxoro shahrining ilk qad ko‘targan hududi.

**Shulen** – XIII asrda olingan oziq-ovqat solig‘i.

**Eloqxon** – elning oq xoni; yurtning kichik hukmdori, viloyat hokimi.

**Etnogenez** – xalq va elatlarning kelib chiqishi.

**Yabg‘u** – el-yurt hokimi, mahalliy hokim.

**Yasovul** – soqchi.

**Yasoq** – soliq, jarima, to‘lov.

**O‘lpon** – er solig‘i.

**O‘rdugoh** – qo‘shin to‘xtaydigan qo‘noq; podsho qarorgohi.

**Qozikalon** – sud ishlarini bajaruvchi amaldor.

**Qopchur** – mo‘g‘ullar davrida chorvadan olinadigan soliq.

**Qoraxon** – buyuk xoqon.

**Qutvol** – davlat qurilishi boshlig‘i, sarkori.

**Qo‘sh** – bir juft ho‘kiz bilan haydaladigan er maydoni.

**Qo‘shbegi** – bosh vazir.

**Hazora** – minglik harbiy bo‘linma.

**Hojib** – harbiy boshliq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Asosiy adabiyotlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: Шарқ, 1998.
2. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. –Т.: Ўзбекистон, 1999.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
5. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz (uzbek va rus tillarida). –Т.: O'zbekiston, 2016.
6. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak (o'zbek va rus tillarida). –Т.: O'zbekiston, 2017.
7. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Т.: O'zbekiston, 2017.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1992 йил 3 ноябрдаги “Баҳовуддин Нақшбанд таваллудининг 675 йиллигини нишонлашга тайёргарлик ва уни ўтказиш тўғ‘рисида”ги қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 4 декабрдаги “Абдулхолиқ Г‘иждувоний таваллудининг 900 йиллигини нишонлаш тўғ‘рисида”ги қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 11 сентябрдаги “Бухоро шаҳрининг тарихий қисмидаги маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш масалалари тўғ‘рисида”ги 191-сонли қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 сентябрдаги “2019-2023 йилларда Бухоро вилоятини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари тўғ‘рисида”ги 794-сонли қарори.
12. Абдуллаева Д. XX асрнинг 20-йиллари ва XXI аср бошларида меъморий обидаларни сақлаш ва таъмирлаш ташкилотлари фаолияти тарихи (Жаҳон ва Ўзбекистон

тажрибаси): магистрлик диссертацияси.- БухДУ Тарих кафедраси, 2014.

13. Акимушкин О. Накшбанд // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Том 1. – М.: Восточная литература, 2006. – Б.299-301

14. Анке фон Кюгелген. Легимитация среднеазиатских династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв). – Алматы: Институт Востока Германского Восточного общества, 2004.

15. Аһмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. -Т.: Ўқитувчи.1994.

16. Аһмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. - Т.: Ўзбекистон, 1995.

17. Ахметова Ш.С. Историческое краеведение в Казахстане: учебное пособие. – Алма-Ата, 2012.

18. Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. в 9-томах Т.1. -М.: Наука, 1963.

19. Бобожонова Ф.Х. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири – XX бошларида): Тарих фан. номзоди ... дисс. автореф. –Тошкент, 2011.

20. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағ‘ишланган халқаро симпозиум тезислари. -Т.: Ўзбекистон, 1997.

21. Бухоро шаҳри 2500 ёшда. –Т.: Фан, 1998.

22. Выборова И.В., Распопина А.А., Распопина И.А. Иркутское краеведение: основы экскурсионной работы: учебно-методический материал. – Иркутск: БГУЭП, 2008.

23. Зоһидова С.А. XIX аср охири–XX бошларида Бухорода шаҳар маданияти тараққиёти (Носируддин ибн амир Музаффарнинг “Тухфат уз-зоирийн” асари маълумотлари асосида): Тарих фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.

24. Корнилов Г.Е. Историческое краеведение Урала: учебное пособие. – Екатеринбург: Уралский государственный университет, 2015.

25. Курбанов Г. Печати Бухарского ханства XIX - начала XX вв (источниковедческое исследование) History and Culture of Central Asia.,- Токуо. –Р.85-126.

26. Матюшин Г.Н. Историческое краеведение: учебное пособие. – М.: Просвещение, 1987.

27. Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида.1-китоб. – Т.: Lessor Press, 2016.
28. Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида.2-китоб. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2018.
29. Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи (IV асрдан XVI аср бошларигача): ўқув қўлланма. – Т.: G‘афур G‘улом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2004.
30. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик: ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
31. Наршахий. Бухоро тарихи. –Т.: Фан, 1966.
32. Неъматов Б. Бухоро миллий меъморчилиги – шаҳарсозлик маданиятининг таркибий қисми: битирув малакавий иш. БухДУ Бухоро тарихи кафедраси, 2019.
33. Равшанов Ў. Шарқ ва Европа мамлакатлари тарихини ўрганишда Бухоро музейи материалларининг аҳамияти: магистрлик диссертацияси. - БухДУ, Бухоро тарихи кафедраси, 2018.
34. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 йиллар). –Т.: “Маънавият”, 2002.
35. Ражабов Қ., Муҳаммаджонова Л. Ромитан тумани тарихи. Қисқача маълумотнома. – Т.: Tafakkur, 2015.
36. Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. – Т.: Tafakkur, 2016.
37. Тешаева Ю. Тасаввуф алломалари юбилейларининг нишонланиши: битирув малакавий иш. - БухДУ Бухоро тарихи кафедраси, 2019.
38. Хисматулин А. Ходжаган // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Том 1. – М.: Восточная литература, 2006. – Б. 417-425.
39. Юсупов М.С. Суд в Бухаре. Судоустройство и судопроизводство в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX в. / Текст и вводная статья: Улфат Абдурасулов и Паоло Сартори. – Ташкент – Вена 2016.
40. Нотамова Ю. Мирза Салимбек илмий меросида Бухоро тарихи: битирув малакавий иш.- БухДУ Бухоро тарихи кафедраси, 2019.
41. Anke von Kugelgen. Die Legitimierung der mittelasiatischen

Mangitendynastie. – Stambul, 2002.

42. Bakhtiyar Babajanov et Mariya Szuppe. Les inscriptions persanes de Char Bakr, necropole familiale des Khwaja Juybary pres de Boukhara // Corpus Inscriptionum Iranicarum. London, 2002.

43. Devin De Weese. Kojagani Origins and the Critique of Sufism ..., Ed. by Frederick De Jong and Bernd Radtke. Leiden-Boston-Köln, 1999. – P. 492-519.

44. Florian Schwarz. Unser Weg schließt tausend wege ein. Derwische und Gesellschaft im islamischen... Berlin, 2000.

45. Jürgen Paul. Doctrine and Organization the Khwajagan-Naqsbandiya in the First Generation After Baha'uddin: Das Arabische Buch, 1998 (ANOR 1).

46. سید منصور عالیمی بخارا گهواره ترکیستان Саййид Мансур Олимий. Бухоро-Туркистон бешиги. Анқара – 1996.

47. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S., Ubaydullaev O'. Vatan tarixi (o'quv qo'llanma). Ikkinchi kitob. – T.: «Sharq» nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016.

## II. Qo'shimcha adabiyotlar:

48. Ahmedov S. Jahon hazinasini javohiri. -Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 1997.

49. Бартолд В.В. Географический очерк Мавераннахра. Соч. в 9-томах. Т.2. -М.: Наука, 1963.

50. Бартолд В.В. Бухара. Соч. в 9-томах. Т.1. ч.2. – М.: Наука, 1965.

51. Жумаев А.Ш. Бухоро археологияси (ўқув услубий қўлланма). -Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2006.

52. Жумаев А.Ш. Қуйи Зарафшон жой номлари тарихи. - Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2006.

53. Жумаев А.Ш., Муҳаммедов И.Т., Намроев А.Н. Ўлкамиздаги жой номлари. - Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 1998.

54. Жумаев А.Ш., Қурбонова М.Б. Бухоро этнографиясидан лавҳалар. -Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2006.

55. Жумаев Қ. Ситораи Моһи Хосса. - Т.: Фан, 2005.

56. Жумаев Қ. Ситораи Моһи Хосса (тўлдирилган иккинчи нашр). –Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2010.

57. История Бухары. Авторский коллектив. –Т.: Фан. 1976.



58. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века. – Т.: Фан, 2012.

59. Йўлдошев Н., Қурбонов Н. Бухоро шаҳри ва атрофидаги зиёратгоҳлар тарихи. - Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2001

60. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут- таворихи Муиний / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Г‘улом Каримий. –Т.: Ўзбекистон, 2011.

61. Муинов А.М. Аҳмад Дониш ҳаёти ҳақида. –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2008.

62. Мухаммеджанов А.Р. История орошения Зерафшанского оазиса. –Т.: Фан, 1980.

63. Муҳаммаджонов А.Р. Қадимги Бухоро. –Т.: Фан, 1991.

64. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаг‘он. Мусаххир ал- билод /Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Исмоил Бекжонов, Дилором Сангирова. –Т.: “ Янги аср авлоди”, 2009.

65. Муҳаммад Найдар Мирзо. Тарихи Рашидий / Сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Воҳид Раҳмонов ва Янглиш Эгамова. – Тошкент: “Шарқ”, 2010.

66. Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд. –Т.: Абу матбуот Консалт, 2011.

67. Наимов Н. Амирнинг хазинаси. –Бухоро: “ Бухоро” нашриёти, 2005.

68. Наимов Н. Бухорои шариф. –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2005.

69. Рашидов У. Бухоро халқ Республикаси(1920-1924 йиллар). –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2003.

70. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йй.). – Т.: Abu matbuot-konsalt, 2012.

71. Саиджонов М. Бухоро шаҳри ва эски бинолари / Нашрга тайёрловчи Н.Тўраев. –Т.: IFEAS, 2005.

72. Саййид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. Тадқиқоти арки Бухоро (Бухоро арки ҳақида тадқиқот) / Таржима, сўзбоши, изоҳлар ва кўрсаткичлар Г‘. Каримовники. –Т.: Тафаккур, 2009.

73. Сирожев О. Бухоро фидоийлари. –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1995.

74. Содиров Ф. Муҳаммад Али Балжувонийнинг “Тарихи нофеий (Фойдали тарих) асари”. Магистрлик диссертацияси. ТДШИ, Марказий Осиё халқлари тарихи кафедраси, 2012.

75. Налимов Т. XVI-XVIII асрларда Ниндистон ва Ўрта Осиё хонликлари. Магистрлик диссертацияси. БухДУ, Тарих кафедраси, 2014.

66.

76. Тураев Х. Чорбакры и их преемники. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2011.

77. Тураев Х. Традиция посещений культовых мест в Бухаре: Социальная и религиозная оценка//History and Culture of Central Asia. – Tokio, 2012.- С.213-228.

78. Тўраев Н. Бухоро обидалари ва Жўйбор хўжалари // Бухорои шариф 2500. - № 4. - Маънавият нашрлари, 1997.- Б. 12-15.

79. Тўраев Н. Убайдуллахоннинг сўнгги кунлари // Мулоқот. - Тошкент, 1997.- № 4.- Б.41-42.

80. Файзиев Т. Бухоро феодал жамиятида қуллардан фойдаланишга доир ҳужжатлар (XIX аср). – Т.: Фан, 1990.

81. Холиқова Р. XIX иккинчи ярми XX аср бошларида Россия-Бухоро муносабатлари тарихи: Тарих фан. док... дисс. автореф. – Тошкент, 2006.

82. Холназарова Л.С. XIX–XX аср бошларида Бухоро амирлигида китобат ва кутубхоначилик тарихи: Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент, 2011.

83. Шукуруллаев Ю.А. Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш: Тарих фан. номзоди ... дисс. автореф.–Тошкент, 2006.

84. Ўзбекистон халқлари тарихи. II жилд. Академик А.Асқаров таҳрири остида.- Т.: Фан, 1993.

85. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов. – Т.: Fan va texnologiya, 2014.

86. Қиличев Р.Э. Ремесло в городе Бухаре во второй пол. XIX – нач. XX вв.: Автореферат дисс. канд. ист.наук. – Ташкент, 1997.

87. Қосимов Ф.Н. Темурийлар даврида Бухоро. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1996.

88. Қосимов Ф.Н. Бухоро - Париж: асрлар садоси. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1997.

89. Қосимов Ф.Н. Бухоро республикиси тарихшунослиги. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1996.

90. Қосимов Ф.Н. Истиқлол ва тарихий хотира. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2006.

91. Г‘афуров А. Рашидов У. Бухоро халқ шўролар жумҳурияти тарихидан лавҳалар (1920-1924). –Т.: 1992.

92. Г‘уломов Я. Қадимги маданиятимиз изларидан. –Т.: Фан, 1960.

93. Найитов Ш. Ўзбек муҳожирлиги тарихи (1917-1991). – Т.: Abu matbuot- konsalt, 2008.

94. Нусайн ас-Сарахий. Маноқиб Саъдия / Сўзбоши, форс-тожик тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Н.Тўраев. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1997.

### **III. Internet ma'lumotlari:**

1. [www.buxoro.uz](http://www.buxoro.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.beruni.uz](http://www.beruni.uz)

### **IV. Mustaqil o'qish uchun tavsiya etilayotgan manba va adabiyotlar:**

1. Азизов И. XIX аср сўнгги чораги - XX аср бошларида Бухоро амирлигида солиқ тизими. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2019.

2. Антоний Женкинсон. Россиядаги Москвадан Бактирядаги Бухоро шаҳригача 91558 йилги саёҳат) / Рус тилидан таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсатгичлар Б.Аминов ва А.Замонов томонидан амалга оширилган. – Т.: Bayoz, 2017. – 70 бет.

3. Ахмад ибн Маҳмуд Бухорий. Тарихи Муллозода /Сўз боши, форс тилидан таржима, изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, Б.Аминов. – Т.: Янги аср авлоди, 2009.- 102 бет.

4. “Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан hozirgacha)”. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Бухоро, 2016 – 220 бет.

5. “Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)”. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Бухоро, 2017 – 221 бет.

6. “Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)”. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Бухоро, 2019 – 256 бет.

7. “XIX аср охири - XX аср бошларида Бухоро”. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Бухоро, 2016 – 177 бет.

8. Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2019.

9. Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Т.: Akademiya, 2017. - 579 бет.

10. Замонов А. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви (XVI аср). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2018.

11. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: Н.Норкулов. – Т.: 2009 - 330 бет.

12. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий /Форс–тожик тилидан Нарзулла Йўлдошев таржимаси. - Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2003. – 343 бет.

13. Мухаммад ан-Наршахи. Тарих-и Бухара (История Бухары)/ Вступительная статья Д.Ю.Юсуповой. Перевод, комментарии и примечания Ш.С.Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г.Некрасовой. – Т.: SMI – ASIA, 2011. – 600 бет.

14. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих) / Тожик тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, З.Чориев. – Т.: Академия нашриёти, 2001. – 121 бет.

15. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаг‘ан. Мусаххир ал-билод (Мамлакатларнинг эгалланиши) / Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Исмоил Бекжон, Дилором Сангирова. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 429 бет.

16. Некрасова Е.Г. Архитектурные памятники Бухарского оазиса. Чашма-и Аййуб. Бухоро воҳасининг архитектура ёдгорликлари. Чашма-и Аюб ( рус ва ўзбек тилларида). – Т.: ВАКТРИА PRESS, 2019. – 135 бет.

15. Ражабов Қ., Очилов Э. Убайдуллахон. – Т.: Abu matbuot-konsalt, 2011. – 31 бет.

17. Ражабов Қ. Насруллоҳхон. – Т.: Abu matbuot- konsalt, 2011. – 47 бет.

18. Ражабов Қ. Файзулла Хўжаев (тарихий эссе). Т.: Abu matbuot- konsalt, 2011. – 47 бет.

19. Раҳимов К. Мустамлий Бухорийнинг “Шарҳ ат-таърифу” асари ҳамда унинг IX-XV асрлар Мовароуннаҳр ва Хуросон тасаввуф манбаларига таъсири. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2018.

20. Садрӣ Зиё. Наводири Зиёия / Тоҷик тилидан таржима, кириш, кириш, изоҳлар муаллифи Б.Аминов. – Т.: Вауоз, 2017. – 182 бет.

21. Сайид Мансур Олимий. Бухоро –Туркистон бешиги / Сўзбоши, форс тилидан таржима ва айрим изоҳлар муаллифи Н.Тўраев. - Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2004. – 127 бет.

22. Тураев Х. Исторические хроники в научном наследии Миён Бузрука. – Т.: Навруз, 2019. – 23 бет.

23. Тўраев Н. Маҳаллий ўлкашуносларнинг илмий меросида тарихий топография ва меъморий обидалар тарихи.- Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2019. – 72 бет.

24. Шуқуриллаев Ю. Ражабов Б. Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш. 1756-1920 йиллар. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2019. -. 164 бет.

25. Темиров Ф. Пўлат Солиев.- Т.: Abu matbuot- konsalt, 2011.- 23 бет.

26. Қандаҳоров А. Бухоро хонлиги ва ва унда карманалик шайхлар фаолияти. – Т.: Tafakkur qanoti, 2018. – 199 бет.

27. Насанхожа Нисорий. Музаққирӣ аһбоб (Дўстлар ёдномаси) / Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси.- Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 342 бет.

## **А Н Н О Т А Ц И Я**

### **К учебному пособию “История Бухары” профессора кафедры истории Бухары Бухарского государственного университета Х.Тураева**

Учебное пособие охватывает вопросы истории Бухары с древнейших времен до наших дней. В хронологическом порядке освещено археологическое изучение Бухарского оазиса, древние городища края, образование города Бухары, социально-экономическая, политическая и культурная жизнь и её различные аспекты в период правления династий.

Рассчитано на студентов специальности 5121000- История. История Бухары Бухарского государственного университета, а также, на интересующихся историей Бухары историков, музееведов, краеведов архивоведов и исследователей.

## **A N N O T A T I O N**

### **To the textbook "History of Bukhara" by H.Turaev, Professor of the History Department of Bukhara state University**

The textbook covers the history of Bukhara from ancient times to the present day. In chronological order, the archaeological study of the Bukhara oasis, the ancient settlements of the region, the formation of the city of Bukhara, socio-economic, political and cultural life and its various aspects during the dynasties are covered.

Designed for students majoring in 5121000-History. History of Bukhara Bukhara state University, as well as interested in the history of Bukhara historians, museologists, local historians, archivists and researchers.

## ILOVALAR

### Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridan

#### Podshohlarning Buxoroda bo‘lgan manzillari haqida

Buxoro hisorining g‘arbiy darvozasidan to Ma’bad darvozasigacha bo‘lgan masofa Registon deb ataladi. Mana shu Registonda qadim johiliyyat davrlaridan beri podshohlarning saroylari bo‘lgan. Somoniylar davrida Amiri sa’id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyy Registonga bir saroy qurishni buyurdi. G‘oyat go‘zal bir saroy qurdilar. Amir bunga ko‘p mol sarfladi. U o‘z saroyi darvozasi oldida amaldorlari uchun saroy qurishga buyurdi, uni ham qurdilar, shundayki, har bir amaldorning podshoh saroyi darvozasi oldida qurilgan o‘z saroyida alohida devoni bor edi. Masalan, vazir devoni, moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni, davlat hujjatlarini boshqarish ishlari devoni, soqchilar boshlig‘i devoni, xat-xabarlar mutasaddisi devoni, saroy ish boshqaruvchisi devoni, davlat xos mulklari devoni, muxtasib devoni, vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni. Amir mana shu tartibda devonlar qurishga buyurdi va ularni qurdilar.

Abdulmalik ibn Nuh ibn Nasr ibn Ismoilning davrida uning vaziri va “Kitobi YAminiy” ning muallifi Xudo rahmat qilgur Ahmad ibn Hasan al-Utbiy uning go‘ri Darvozai Mansur mahallasida, xon hammomining yonidadir, madrasa ro‘parasiga juda yaxshi bir masjid bino qildi va shu masjid tufayli o‘sha mavze kamol topdi. U dono otdan yiqilib o‘lgach, qullar kechasi saroyga kirib, uni talashga kirishdilar. Amirning yaqin kishilari va kanizlari o‘rtasida janjal chiqib, saroyga o‘t qo‘yib yubordilar. Saroy butkul yonib ketdi va undagi tilla va kumushdan ishlangan hamma go‘zal narsalar yaroqsiz bo‘ldi. SHunday yong‘in bo‘ldiki, u binolardan biror nishon ham qolmadi.

Uch yuz elliginchi yil shavvol oyida (13 noryabr – 11 dekabr 961) Amiri sadid Mansur ibn Nuh Jo‘yi muliyon degan joyda taxtga o‘tirtgach, uning farmoni bilan u saroyni yangidan qurib nobud va zoe bo‘lgan narsalarni avvalgidan ham yaxshiroq qilib vujudga keltirdilar. Shunda Amir sadid saroyda joylashdi. Biroq hali bir yil ham o‘tgani yo‘q ediqi, bir bayram kechasi bir parcha olov uchib saroyning shipi alanga oldi va saroy yana butunlay kuyib ketdi. Amiri sadid kechasi Jo‘yi muliyonga ketdi va vaziriga shu kechadayoq hamma xazina va dafinalarni olib chiqishga buyurdi. Vazir bu narsalarni ishonchli kishilar orqali Jo‘yi muliyonga yubordi. Tong otgach, bitta tilla kosadan boshqa hech bir narsa yo‘qolmaganini aniqladilar. Amiri sadidning vaziri xolis o‘z puliga og‘irligi etti yuz misqol keladigan bir kosa buyurtirdi va uni xazinaga

yubordi. O'sha vaqtdan beri bu mavze, ya'ni registon – “bo'sh maydon”ga aylanib qoldi.

Keyingi podshohlar saroylari Jo'yi muliyonda bo'lgan. Jo'yi muliyonning jannatni eslatuvchi go'zal maqomidan ko'ra yaxshiroq biror joy va manzil Buxoroda yo'q edi. Chunki uning hamma joyi saroylar, bog'lar, gulzorlar va bo'stonlar bilan qoplangan. Doimiy oqib turuvchi suvlar bilan ta'minlangan. Uning chamanzorlari bir-birlariga tutashib ketgan va ularning oralaridan ariqlar o'tib chamanzorlar va gulzorlar tomon ming tarafga qarab oqar edi. Oqib turgan suvlarni tomosha qilgan har bir kishi, bu suv qaerdan kelayapti-yu, qaerga ketayapti deb hayratda qolar edi. O'z zamonining nodir ustodlariva me'morlari ana shunday tarh chizgan edilar.

Yana Registonning darvozasidan to Dashtakkacha bo'lgan hamma er toshdan ishlanib naqshlangan, bir tartibda qurilgan baland uylar, turli suratlar ishlangan mehmonxonalar, chiroyli chorbog'lar va yaxshi sarhovuzlar bilan band edi. Sada qayrag'ochlar shunday bir tarzda chodir shaklini olgan ediki, sarhovuz labidagi o'tiradigan joyga sharq tomondan ham, g'arb tomondan ham zarracha quyosh tushmas edi. Bu chorbog'larda nashvati, bodom, yong'oq, gilos, jilon jiyda va anbar bo'yli jannatda bo'ladigan har bir meva g'oyatda yaxshi va go'zal tarzda o'tqazilgan edi.

(Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расулов таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев (Мерос). – Т.: Камалак, 1991. – Б.105-107.)

### **Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard” kitobidan Buxoro**

Buxoroda butun Xurosonning hokimiyat idorasi joylashgan. U Movarounnahr viloyatlariga olib boruvchi katta yo'l boshida joylashgan, undan keyin u bilan bog'liq bo'lgan boshqa shaharlar keladi. Aslida uning nomi Bumijkat bo'lib, u tekislikda joylashgan shahardir. Uning binolari ulama yog'ochdan qurilgan bo'lib, bir-biri bilan chatishib ketgan, bu chatishgan binolarni esa qasrlar, bog'lar, mahallalar, tosh yotqizilgan ko'chalar va har tomondan o'n ikki farsax masofagacha bir-biriga ulanib ketgan qishloqlar o'rab turadi. Ularning hammasini, bu qasrlar, binolar, qishloqlar va qasabani o'z ichiga oluvchi devor o'rab turadi. Bu maydonning barchasida biror bir cho'l, xaroba yoki tashlandiq er ko'rinmaydi.



Bu devordan boshqa qasabani o'z maxsus devori bo'lib, uning ichida qasabaga kiruvchi qasrlar, uy-joylar va mahallalar joylashgan. Ularda qasabada qishin-yozin yashovchi odamlar turadilar.

Bu devordan boshqa yana [bir] devor bo'lib, uning har tomoni taxminan bir farsaxga teng. Bu devor ichida mustahkam devor bilan o'ralib turuvchi madina, tashqarisida unga ulanib ketgan ko'xandiz bor. Uning kattaligi kichik bir shahardek, uning ichida yana bir qal'a bor. Somon oilasidan bo'lgan Xuroson voliyalarining turar joylari shu ko'xandizda joylashgan.

SHahardada keng va uzun rabod bor. Uning jome masjidi madinada, Bob al-Ko'handiz darvozasi yonida joylashgan, uning qamoqxonasi ko'xandizda, bozorlar esa rabodda joylashgan.

Xuroson va Movarounnahrda Buxorodek binolari qatishib ketgan, egallagan maydoniga nisbatan aholisi ko'p shahar yo'q. Uning rabodida as-Sug'd daryosi oqib o'tib, rabodni va uning bozorlarini kesib o'tadi. Bu as-Sug'd daryosining oxiri bo'lib, bu erda u tegirmonlar, qishloqlar va ekinzorlardan oqib o'tadi. Uning qoldig'i Baykand yonida, Farabr yaqinida joylashgan va Som Xosh deb atalgan bir suv havzasiga tushadi.

Buxoro madinasining ettita temir darvozasi bor. Bular Bob al-Madina, Bob Nur, Bob Xufra, Bob al-Hadid, Bob al-Ko'handiz, Bani Asad, bu esa Muhr darvozasidir, va nihoyat Bob Bani S'a'd nomli darvoza. Ko'handizning ikki darvozasi bor, ularning biri ar-Registon deb ataladi, boshqasi jome masjidiga qaragan bo'lib, Bob al-Jome deb ataladi.

Raboddan bir nechta darblar bor. Ulardan Xuroson yo'liga chiquvchi Darb al-Maydon, sharq tomonga chiquvchi Darb Ibrohim, so'ngra Darb ar-Riv, keyin al-Murdkashon darbi, keyin Darb Kalobod, bu darvoza va Murdkashon darvozasidan Nasaf va Balx tomonga chiqiladi. Darb Kaloboddan keyin Darb an-Navbahor va Samarqand darbi keladi, undan Samarqandga va Movarounnahrning boshqa shaharlariga boriladi. Darb Samarqanddan so'ng Darb Bag'oshkur va Darb ar-Romitana, keyin Darb Jadsarun bo'lib, undan Xorazm yo'liga chiqiladi. Undan keyin Darb G'ashaj keladi.

Rabodning o'rtasida uning bozorlarida ham darblar bor. Ulardan Bob al-Hadid darvozasi. Undan so'ng Bob Qantarot Hasson darvozasi, keyin Mox masjidi yonidagi ikki darvoza keladi. Ulardan keyin Bob Ruxna nomli darvoza va Abu Hishom al-Kinoniy qasri yonidagi darvoza keladi. So'ngra Qantarot as-Suvayqa ko'prigi yonidagi darvoza, keyin Bob Forjak va Bob Darvozacha darvozasi hamda Bob Sikkat Mug'on daryuzasi va Ichki Darb Samarqand darvozasi keladi.

## *Buxoro shahri ariqlari*

Madinada ham, ko‘handizda ham oqar suv yo‘q, chunki ular baland erda joylashgan. Ularning ichimlik suvi Samarqanddan oqib keluvchi eng azim daryodan. Bu daryodan shaharga bir necha ariqlar ajralib chiqqan. Ulardan biri Fashirdiza nomli ariq bo‘lib, u Buxoro daryosidan al-Bapag‘ nomli erda suv oladi va Darb Murdkashon darvozasi va Jo‘ybor Ibrohimdan oqib o‘tib, Bob al-Bal‘amiy darvozasiga etib boradi va Navkanda arig‘iga quyiladi. Bu ariq atroflarida undan ichimlik uchun suv oluvchi ikki mingga yaqin bog‘lar, qasrlar va ko‘plab erlar joylashgan. Bu ariqning boshlanish eridan oxirigacha masofa bir farsaxga yaqin.

Jo‘ybor Bakor nomli ariq yuqorida zikr etilgan katta ariqdan shahar markazidagi Ahyad masjidini nomli erda suv oladi va Navkanda arig‘iga quyiladi. Bu ariqdan rabodning bir qismi va mingga yaqin bog‘lar suv ichadi. Hozir uning atroflaridagi suvli erlarga ko‘p daraxtlar ekilgan.

Jo‘ybor al-Qavoririyin nomli ariq *madinada* al-‘Orid masjidini degan erda [katta] ariqdan boshlanadi va *rabodning* bir qismini sug‘oradi. U Bakor arig‘idan ko‘ra kattaroq bo‘lib, erlar va bog‘larga ko‘proq [suv] beradi.

Ju-[y] G‘ashaj nomli ariq al-‘Orid masjidini yonida [katta] ariqdan boshlanib, *rabodning* bir qismini sug‘oradi va Navkanda [arig‘i]ga chiqadi. U taxminan Jo‘bor al-‘Orid [arig‘i] bilan teng.

Nahr Baykand nomli ariq [katta] ariqdan *madinada* Xata<sup>12</sup> ko‘chasining boshi yonida boshlanib, *rabodning* bir qismini sug‘oradi va Navkanda [arig‘i] ga quyiladi.

Navkanda arig‘i [katta] ariqdan Dor Hamduna yonida boshlanadi. U [hamma ariqlarning] suvlari to‘planadigan eridir. Uning suvidan *rabod* aholisining bir qismi ichimlik uchun [foydalanadi]. [Keyin] u cho‘lga ketadi va uning suvidan ichimlik uchun hech kim [foydalanmaydi].

Undan keyin at-Tohuna arig‘i keladi. U [katta] ariqdan *madinada* an-Navbahor degan erda boshlanadi. Uning [atrofida] *rabod* aholisining bir qismining uylari [joylashgan]. U ko‘p sonli qo‘l tegirmonlarini aylantiradi va Baykandga etib boradi. Undan Baykand ahli suv ichadi.

Nahr Kushna nomli ariq *madinada* [oqib o‘tuvchi katta] ariqdan an-Navbahor [mahadlasi] yonida suv oladi. Undan *raboddagi* an-Navbahor [mahallasi] ning ahli suv ichadi. [Keyin u] qal‘alar, ko‘plab qishloqlar va bog‘lardan o‘tib, Qo‘shna va Moymurg‘ga boradi.

Raboh nomli ariq ar-Regisgon nomli ariqdan boshlanib, *rabodning* bir qismini sug‘oradi va Raboq qasrigacha etib boradi. U mingga yaqin bog‘lar, u erdagi qasrlar va [bu] bog‘lardan boshqa ko‘p erlarni sug‘oradi.

ar-Registon arig‘i [katta] ariqdan ar-Registon yaqinida boshlanadi. Undan ar-Registon, *kuhandiz* va *amir* saroyida yashovchi aholi ichimlik uchun [suv] oladi. [Keyin] u Jaloldiza qasrlarigacha etib boradi.

*Madinada* Hamduna ko‘prigi yaqinida [katta] ariqdan [yana bir] ariq boshlanib, er ostidan Bob Bani Asad [darvozasi] yonidagi hovuzlargacha oqib boradi. Uning [suvining] qoldiqlari *kuhandiz* suv omboriga quyiladi.

Nahr Zug‘orkanda nomli ariq [katta] ariqdan Varag‘ degan erda boshlanib, Darvozacha darvozasidan oqib o‘tadi. Uning bo‘yida Darvozacha [mahallasi]ning uylari [joylashgan]. [Keyin] u Samarqand darvozasidan [oqib o‘tib], Sabiz-Moshagacha etib boradi. Bu [masofa] taxminan bir *farsaxdan* kuproq bo‘lib, unda qasrlar, bog‘lar va ko‘plab erlar [joylashgan]. Bu ariqlar Buxoro va uning bog‘laridan oqib o‘tadi.

## BUXORO RUSTOQLARI

[Buxoro] ning ko‘p sonli *rustoqlari* boy va gullab-yashnagan *nohiyalari*, katta viloyatlari va gullab-yashnagan qishloqlari bo‘lib, mazmuni va shakliga ko‘ra biror bir mamlakat ahlidagi [qishloq] lar ularnikiga o‘xshamaydi. Agar dunyodagi biror-bir *nohiya* yoki hududda boshqalarnikiga o‘xshash [fazilat] lar bo‘lsa, shunda xam ular mo‘l-ko‘llikda va to‘kin-sochinlikda [Buxoro]dek bo‘la olmaydi. Bular ad-Dar, Barg‘idar, Satijan, at-Tavovis *rustoqi*, Bardaq, Kuyi Xarg‘ona, Naqrina, Najor Xitfar, Koxushtuvon *rustoqi*, Andiyon Kandiyon, Orqa Somjan, Pastki Somjan, Quyi Farovuz, YUqori Farovuz va Arvon kabi [*rustoq*] lardir.

Bu *rustoqlarning* hammasi [Buxoro] viloyatini to‘siq kabi o‘rab turuvchi devor ichida [joylashgan]. Bu devorning tashqari [tomoni] da esa Xuda, SHobxash, Nashar, bu esa Karminiya *rustoqi*, YUqori Xarg‘ona, G‘arqand<sup>20</sup> *pycmoqu*, Baykand va Farabr [*rustoqlari* joylashgan].

## BUXORO VILOYATI ARIQLARI

Al-Buttam tog‘laridan tushib, Samarqand tomondan Buxoroga oqib keluvchi daryo Nahr as-Sug‘d deb ataladi, as-Sug‘d va Samarqandda esa [u] Nahr Buxoro deb ataladi. Buxoro chegarasida shahar tashqarisidagi tashqi devorga etmasdan [joylashgan] at-Tavovis *nohiyasidan* [boshlab] Bob al-Madina [darvozasi]ga etguncha undan ko‘p ariqlar ajralib chiqib, devor o‘z ichiga olgan qishloq va ekinzorlarga tarqalib ketadi, Buxoro qishloqlarining tirikchiligi shu [ariq] larga asoslangan.

Ulardan [biri] Shofrikom deb atalgan ariq bo'lib, u daryodan boshlanib, Vardona [qishlog'i]ga etguncha [xamma] qishloqlarni suv bilan ta'minlaydi, [Vardona ahli] ning ichimlik suvi undan.

Xapg'on-rud nomli ariq daryodan boshlanib, Zovash [qishlog'i] ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Zovash ahli] ning ichimlik suvi undan.

Najor Xitfar nomli ariq daryodan boshlanib Xurmitanga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Xurmitan ahli] ning ichimlik suvi undan.

Nahr Jarg' nomli ariq daryodan boshlanib, Jarg' nomli chiroyli qishloqgacha boradi, uning [ahli] ichimlik suvini undan [oladilar]. Suvning ortib qolgan qismi yana daryoga qaytib qo'yiladi.

Navkanda nomli ariq daryodan boshlanib, Faroya [qishlog'i] ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Faroya ahli] ning ichimlik suvi undan.

Nahr Baraxsha nomli ariq daryodan boshlanib, Baraxsha [qishlog'i] ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Baraxsha ahli] ning ichimlik suvi undan.

Nahr Kushna nomli ariq daryodan boshlanib, Kushna [qishlog'i] ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Kushna ahli] ning ichimlik suvi undan.

Nahr ar-Romitana nomli ariq daryodan boshlanib, ar-Romitana [qishlog'i] ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [ar-Romitana ahli] ning ichimlik suvi undan.

Quyi Farovuz nomli ariq daryodan boshlanib, Boryoba [qishlog'i] ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Boryoba ahli] ning ichimlik suvi undan.

Arvon nomli ariq daryodan boshlanib, Bonab [qishlog'i]ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Bonab ahli] ning ichimlik suviga umidlari undan.

YUqori Farovuz nomli ariq daryodan boshlanib, Rivaqon [qishlog'i] ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Rivaqon ahli] ning ichimlik suvi undan.

Xoma nomli ariq daryodan boshlanib, Xoma [qishlog'i] ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Xoma ahli] ning ichimlik suvi undan.

Nahr Navkanda nomli ariq daryodan boshlanib, Navbor al-Amir [qishlog'i] ga etguncha [hamma] qishloqlarni sug'oradi, [Navbor al-Amir ahli] ning ichimlik suvi undan.

Bu ariqlarga [suv] beruvchi as-Sug'd daryosi suvining ortib qolgan qismi ad-Dar nomli daryoga quyiladi. Bu Buxoro *rabadini* sug'oruvchi

daryo bo‘lib, *rabadda* undan yuqorida zikr etilgan shahap ariqlari [tarqaladi].

Ularning ko‘pchiligida suvning ko‘p va mo‘l-ko‘lligidan qayiqlar yuradi. Ularning hammasi Buxoro devorining ichida at-Tavovis *nohiyasi* ning chegarasida boshlanadi va shahargacha oqib keladi.

## **BUXORO BOYLIKLARI VA NOZ-NE‘MATLARI**

Buxoro binolarining barchasi bir-birga ulanib ketgan, uylar bir tartibda va binolarning asosi er [sathi] dan balandga ko‘garilgan. Shahar *ko‘handizlar* va uylarning zichligi bilan [mustahkam]. Bu devor ichida hech qanday tog‘, cho‘l yoki taqir er yo‘q.

Unga eng yaqin [joylashgan] tog‘ Varka tog‘i bo‘lib, undan shahar [ko‘chalari] ga yotqizish va binolar [qurish] uchun toshlar olinadi. Undan [yana] kulolchilik uchun loy, ohak va gips [olinadi]. Devordan tashqarida ularning tuz konlari bor. O‘tinlar ularning bog‘laridan keladi, dashtlardan esa saksovul va yulg‘unlar keltiriladi.

Buxoro erlarining hammasi suvga yaqin [joylashgan], chunki bu as-Sug‘d [daryosi] suvining to‘planish eridir. Shu sababli u erda chinor, yong‘oq va ularga o‘xshash baland daraxtlar o‘smaydi.

Agar ushbu daraxtlardan birortasi bo‘lsa ham, uning [bo‘yi] past va [katta bo‘lib] o‘smaydi.

Buxoroning mevalari Movarounnahrning eng yaxshi mevalaridir, ta‘mi ham eng shirindir. Buxoroning to‘kin-sochinligi [shundan] ko‘rinadiki, [agar] bir kishining bir *jarib* eri bo‘lsa, u o‘zini ham, o‘ziga tegishli odamlarni va o‘z oila a‘zolaridan bir nechtasini ham mablag‘ va oziq-ovqat bilan [ta‘minlashi] mumkin bo‘ladi.

Ularning son jihatdan ko‘pligi va xarajatlar miqdorining ko‘pligi shundan [ko‘rinadi]ki, ularning ko‘pligidan ularning mamlakatida ishlab chiqariladigan [mahsulotlar] ularga etmaydi, zero ularning ehtiyoji erdan olinadigan [hosil miqdori] dan ikki barobar ko‘pdir. [Shuning uchun] ularga oziq-ovqat mahsulotlari va kerakli bo‘lgan boshqa narsalar butun Movarounnahrdan keltiriladi.

Yonbag‘irlari Varka qishlog‘iga tutash bo‘lgan tog‘ bu Kesh va Samarqand orasidagi [maydonda] Samarqandgacha cho‘zilib kelgan tog‘ tizmasi bo‘lib, [keyin u] al-Buttam tog‘lari bilan qo‘shilib ketadi, [keyin] Ushrusana va Farg‘ona tomonga burilib, Shalji *nohiyasi* va at-Tarozgacha davom etadi. Keyin [u], men o‘z ko‘zim bilan ko‘rganim va bu yo‘ldan [ko‘p] yurganlarning [aytishicha], sharqqa as-Sin dengizi tomonga yurishni istaganlarning yo‘lini to‘sib, [yana shimolga] davom etadi.

Ushrusana, Farg‘ona, Iloq, Shalji, Labondan Xirxiz erigacha bo‘lgan [hududlardagi] konlarning hammasi mazkur tog‘ [tizmasi] va unga qo‘shni bo‘lgan [boshqa] tog‘lardadir.

Al-Buttam viloyatidagi novshadil, shisha, temir, simob, mis, qalay, oltin, kumush, neft, qorasaqich, saqich, Farg‘onaning feruza [toshi] va novshadili hamda men [avval] zikr etgan u er da ko‘mir o‘rniga yondiriladigan toshlar, yukorida zikr etilgan Fag‘ronadagi [yovvoyi holda usuvchi] mevalar- bularning barchasi ham shu tog‘ [tizmasi] dan, uning yonbag‘irlaridan yoki chuqqilaridan, yoki ularga ulanib ketgan adirlar va pastliklardan [kelib chiqadi].

U erda al-Buttam *nohiyasida* va Samarqandning *nohiyalaridan* biri bo‘lgan az-Zobaj tog‘larida issiq va sovuq suvlarning [buloqlari] bor. Yana u erda yozda kun issiq bo‘lgan va *as-samum* [shamoli] esgan vaqtda muzlovchi suv manbalari bo‘lib, muz [shunchalik katta hajmdagi] toshdek bo‘lib ketadiki, suvning harakatini to‘sib qo‘yadi. Qishda bu suvlar issiq bo‘ladi, ularning issiqligi va atrofidagi erlar va vodiylarning [havosi] iliqliigi tufayli chorvalar ularning yoniga kelib [isinadilar].

## BUXORO VILOYATIDAGI SHAHARLAR

Buxoro devorining ichkarisida [ham], tashqarisida [ham] shaharlar bor. [Devor] ning ichkarisidagi [shaharlar]: at-Tavovis, unda eng katta *minbar* [joylashgan], Namijkat, Zandana, Murkon, Xujoda-ularning hammasi devorning ichida [joylashgan]. [Devor] tashqarisidagi [shaharlar]: Baykand, Farabr, Karminiya, Xudimankan, Harg‘onkat, Madyomijkat.

At-Tavovisga kelsak, u erda [oddiy] bozor va [undan tashqari] katta [maxsus] bozor [kuni] bo‘lib, Xuroson erining [turli] taraflaridan yilning ma‘lum vaqtida odamlar keladi. U erdan al-‘Iroqqa paxtadan [tikilgan] kiyimlar ko‘p miqdorda olib ketiladi. Bu bog‘lari va oqar suvlari ko‘p hosildor shahardir. Unda *ko‘handiz*, *madina* va uning [atrofida] *hisor* [devori] bor. Uning jome masjidi *madina- da* [joylashgan].

Devor ichida [joylashgan] shaharlarning hammasi [egallagan] maydoni va aholisining [soni] bo‘yicha bir-biriga yaqin. Ularning hammasida gavjum *ko‘handizlar*, keng bozorlar, ko‘plab bog‘lar va katta bozor [kun]lari bor, ularning har birida mustahkam *hisor* [devor] i bor.

Karminiya Tavovisdan ko‘ra kattaroq aholisi ko‘proq va [eri] hosildorroqdir.

Xudimankan Karminiyaga qarashli [shahar] bo‘lib, uning tarkibiga kiradi. U bilan Xarg‘onkat va Madyomijkat chegaradosh. Ularda aholining [soni] bir-biriga yaqin va taxminan bir xil.

Karminiyaning bir qancha qishloqlari [ham] bor. Bu shaharlardan har birining *minbarlariga* [o'zining] viloyatlari, qishloqlari va ekinzorlari [qarashli], [faqat] Baykand bundan istisnodir. U boshqa viloyatlardan ajralgan holdagi tengi yo'q yagona [shahardir]. Unda *rabotlar* [shunchalik] ko'pki, Movarounnahrning boshqa [birorta] shahrida bunchalik ko'p yoki unga yaqin [miqdorda] yo'q.

Aytishlaricha, unda mingga yaqin *rabot* bor. [Shahar] ning mustahkam devori ham bor. [Shahar]da jome masjidi bo'lib, uning qurilishi va *mehrobining* bezaklari g'oyat nafisdir. Movarounnahrda bezaklari unikidan chiroyliroq bo'lgan [*mehrob*] yo'q.

Farabr Jayxun [daryosi] ga yaqin [joylashgan] shahar bo'lib, uning aholisi ko'p qishloqlari bor. U hosildor, yoqimli [shahar], [unda] ovqatlari shirin va mazali [bo'lgan] ajoyib oshxonalar bor.

## BUXORO AHOLISI

Buxoro [ahli] ning tili *as-sug'd* tilidir, lekin [ularda] ayrim [so'zlar] o'zgargan holda. Ularda [shuningdek] *ad-dariyya* tili [ham ishlatiladi].

[Buxoro] ahli odob, ilm, *fiqh*, diyonat, adolat, yaxshi hayot tarzi, muloyim muomala, yomonlikning ozligi, yaxshilikning ko'pligi, xayrli ishlarda saxiylik, ko'ngil sofliqi va yaxshi niyat bilan ajralib turadilar va bu [narsalar] da Xurosonning [boshqa] hamma ahlidan ustun turadilar.

Ularning [muomaladagi] puli *dirhamlardir*, *dinorlar* esa [qimmatbaho] mol [hisoblanadi]. Ularda *al-g'itrifiyya* nomli *dirhamlar* [bop]. Bu *dirhamlar* temir, mis, qalay va boshqa turli qimmatli [ma'dan] lar qorishmasidan [iborat]. Ular faqat Buxoro va daryo ortidagi unga tutash erlarda muomalada [ishlatiladi].

[YAna] *al-muhammadiyya* nomli *dirhamlar* bor. [Bu] tangada suratlar, [shuningdek] shakli ma'lum [bo'lsa xam], [lekin] o'qib bo'lmaydigan harflar chizilgan. Ular islom [davri]da zarb etilgan, lekin [ularning qoliplarini] Asad ibn Somon oilasining ajdodlari tayyorlaganlar.

[Ularning] yana bir [tanga] si *al-musayyabiyya* deb ataladi. Ularda u boylik [hisoblanadi]. [Ular] hamma [tangalar] dan *al-ismo'iliyya* kumush tangalarini afzal kuradilar. Abu Ibroxim bu *dirxamlarning* birinchisi zarb etilganini ko'rgan, va u birinchi bulib Movarounnahrda ularni zarb etishni boshlagan.

Savdo-sotiq ishlarida *falslar* ishlatiladi.

Ularning kiyimlari ko'proq to'n va [o'ziga xos] bosh kiyim [dan iborat], go'yoki [bu] Movarounnahr [ahli] ning yagona kiyimidek.

Devorning ichida va tashqarisida har oyning ma'lum [bir] kunida [o'tkaziladigan] muntazam bozorlari bo'lib, ularda uy xayvonlari, kiyimlar, qullar, bronza va misdan yasalgan turli xil buyumlar, idishlar va odamlar kqp [ishlatadigan] uy anjomlarining oldi-sotdisi amalga oshirilganidan [katta] daromad keladi. Buxoro va uning atroflaridan al-'Iroqqa va boshqa erlarga *al-buxoriyya* nomli kiyimliklar, *karbos* [matolari], tarozu toshlari, yo'g'on simlar, yigirilgan to'qima iplar olib ketiladi, arablar uni yoqtiradilar. Shuningdek gilamlar, ko'rpalar uchun g'oyat chiro yli junli matolar, kursilar va *mehrob* [yoni]ga solinadigan joynamozlar [olib ketiladi].

## BUXORO-SOMONIYLAR POYTAXTI

Buxoro ahli qadim zamonlar haqida qiziq rivoyatlar aytib keladilar. [Masalan], ularning [hammasi] bir ovozdan ta'kidlaydilarki, ularning qal'asi va *ko'handizining* fazilatlaridan [biri] shuki, undan hech qachon [birorta] hukmdorning janozasi chiqmagan, unda xech qachon chetga chiqib, mag'lub bo'lgan [qo'shin] ning tug'i yoki bayrog'i o'rnatilmagan. Bu g'aroyib [bir] mos kelish [hollari] dandir.

Aytishlaricha, Buxoroning ilk [aholisi]ni qadim zamonlarda Istaxrdan ko'chib kelgan odamlar [tashkil etgan].

Somon xonadonidan [bo'lgan] Xuroson hokimlarining qarorgohi Buxoroda, chunki u Movarounnahrning Xurosonga eng yaqin shahridir. Kim u erda [bo'lgan] bo'lsa, Xuroson uning oldida, Movarounnahr esa orqasida [bo'ladi].

[Ular] sodiq itoatli, hukmdorlarga muxolifati oz, [ularning] farmonlarini imkon qadar [bajarish]ga vojiblidirlar. Bularning [hammasi] Movarounnahrning hamma erlaridagi [boshqa] odamlarning yaxshi fazilatlari bo'lsa ham, [hokimlarning] ular orasida [yashashni] ixtiyor etishlariga olib keladi.

[Buxoro] ni birinchi bo'lib o'ziga turar joy va Somon xonadonining qarorgohi etib tanlagan [hukmdor], Alloh uning [gunohlarini] kechirsin, Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmad edi. U Buxoroda yashab turgan vaqtda, Xuroson voliysi [etib] tayinlangan edi. U [Buxoro] eridan marhamat olib, o'zining u erdagi maqomini davom etdirdi, [chunki unda turish] unga rohat bag'ishlar edi va lazatlantirardi. Uning avlodlari davrida ham hokimiyat [Buxoro] da qoldi. Ungacha Movarounnahr hukmdorlari yoki Samarqandda, yoki ash-Shoshda, yoki Farg'onada yashar edilar. Buxoro hukmdorlari Toxiriylar [sulolasi] ning davri tugaguncha Xurosondan mustaqil bo'lishga intilar edilar.



## BUXORO VILOYATI QISHLOQLARI

Xujoda [qishlog‘i] Buxorodan Baykandga boradigan yo‘lining o‘ng tomonida [shahar] dan uch *farsax* [masofa] da joylashgan. U bilan yo‘l orasidagi [masofa] taxminan bir *farsax*.

Mug‘kon [shahridan] besh *farsax* [masofa] da, Baykand yo‘lining o‘ng tomonida. U bilan yo‘l orasidagi [masofa] uch *farsax*.

Zandana shaxardan to‘rt *farsax* [masofa] da, shahardan shimolda [joylashgan].

Namijkat at-Tavovisga boradigan yo‘lining chap tomonida, [shahardan] to‘rt *farsax* [masofa] da. U bilan yo‘l orasidagi [masofa] taxminan yarim *farsax*.

Karminiyadan Xudimankangacha as-Sug‘d tomonga [yurganda] bir *farsax*. Xudimankan bilan Samarqand yo‘li orasidagi [masofa] bir *g‘alva* [Buxorodan] Samarqandga boradigan yo‘ldan chapda.

Madyomijkat as-Sug‘d daryosining orqasida, Xudimankandan yuqoriroqda, bir *farsax* masofada [joylashgan].

Xarronkat Karminiyaning qarshisida, bir *farsax* [masofa] da daryoning orqa [tomoni] da [joylashgan].

(Ибн Навқал. Китоб сурат ал-ард /Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолiddин. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. –Б.40-52.)

### **Badriddin Kashmiriyning “Ravzat ar-rizvon” asaridan**

Abdullaxonning hijriy 996/1588 yildagi quyidagi farmonlari Xo‘ja Sa‘d manfaatlariga qaratilgan edi.

#### **“U G‘ANIDIR!**

Abulg‘oziy Abdullo bahodirxon so‘zimiz!

Nomdor birodarlar, saodatyor farzandlar, zavi al-iqtidor amirlar, kifoyat osor vazirlar, din va davlat arboblari, mulk va millat a‘yonlari bizning oliyhazrat, valoyat martabat, hidoyat manzilat, irshodpanoh, maorif dastgoh... Hazrat Sayyid al-mursalin avlodi Xoja Kalon Xojaga nisbatan irodat va ixlosimiz komillik nihoyasida ekanligini [yaxshi] biladilar. Binobarin, hukm qildikki, YAzd va Isfahon viloyatlarini onhazrat va [ul zotning] xodimlariga niyoz qildi. [Bu mavzelarni] onhazratning maxsus darubasti deb bilib, daxl qilmasinlar va onhazrat gumashtalari

vakillari tasarrufiga o‘tkazsinlar. Mazkur viloyat a‘yoni va arboblari [buni] o‘z hujjat va muhrlari bilan tasdiqlasinlar. Hijriy 996 yil”.

### **“U G‘ANIDIR!**

Abulfath Abdulquddus [Abdullo] bahodir sulton so‘zimiz!

Toshkent viloyatining oliy a‘zom amirlari, kifoyat najom vazirlari, davlat arkonlari va millat a‘yonlari... bilingki, 250 juft mol, er va suvlarni... hazrat Xoja [Sa‘d]ga in‘om qildik.

[Ul hazrat] ziroat qilsinlar va yoxud korandaga berib hosilini olsinlar. Yobislar va amloklarni oliyhazratning darubastlari deb bilib, [amaldorlar] Hazrat Eshonning vakillarini tashvishga solmasinlar. Va sababsiz daxl qilmasinlar. Hashar va mardikor talab etmasinlar. Farmoni oliyga tajovuz qilmasinlar, har yil farmonning yangilanishini talab qilmasinlar. Hijriy 991 yil”.

Shayboniyzodalardan O‘zbekxon, Dinmuhammad sulton, Bobo sulton, shuningdek, Badaxshon hokimi Sulaymonshoh turli maqsadlarni ko‘zlab Xoja Sa‘dga maktub orqali murojaat qilishgan, uning yordamidan umidvor bo‘lishgan. Quyida maktublardan ba‘zilaridan keltiramiz.

### **O‘ZBEKXON MAKTUBI**

“Oliyhazrat, valoyat martabat, hidoyat manzilat, ... qutb ul-aktob... Xoja Kalon Xoja... rajab oyining seshanba kuni Toshkentning barcha o‘zbeklari, sahroliklari va fuqarolari yog‘iy bilan ittifoq bo‘lib, Toshkentdagi hamma mol-mulkini olib qal‘a atrofiga o‘tirdi va bizni qamal qildi. Yigirma kun qamalda qoldik. Atrofdan yordam kelar deb kutdik, lekin hech kim kelmadi. Oxiri sha‘bon oyining seshanba kuni qal‘adan chiqib, akobirlar ruhidan madad tiladik va yog‘iy bilan yuzma-yuz bo‘ldik. Eshon [Xoja Sa‘d]ning himmatlari bilan ul badkirdor jamoatning ba‘zilarini qatlgaga etkazdik. Qolganlari qochib qoldi. Ajib bir g‘alaba ro‘y berdi va uni onhazrat [Xoja Sa‘d] mehnatlaridan deb bilamiz. Umid qilamizki, bundan keyin ham shunday g‘alaba va zafarlar ro‘y beraveradi. Iltimos shulki, barakotli fotihalari bilan bizni yod etib tursalar”.

### **Balx podshohi Dinmuhammad sulton bin Pirmuhammadxonning maktubi**

### **“ALLOH SUBHONA [TAOLO] TIRIKDIR!**

Oliy hazrat mat‘oi manzilat, hidoyat martabat... valoyatpanoh... mashaixlar sultoni... avliyolarning munosib vorisi Hazrat Xoja Kalon Xoja... arzi niyoz va ixlosdan so‘ng arz qilamizki, bu sodiq muxlis aqidani xotir go‘shasidan mahv etmaydi. Ba‘zida uni madat fotihasi bilan yod

etib, [biror] xizmatlari bo'lsa ishorat qilib sarafroz etsalar...Lutf qilib bars so'ragan ekanlar, uzatdik. Boshqa biror narsa buyursalar bajonidil bajaramiz va xizmatni joyiga qo'yamiz. [Hazrat] Eshonning muxlis va qullariman, boshqa pushti panohim yo'q... Davlatlari [bundan] ham ziyoda bo'lsin".

Badaxshonda hukmronlik qilayotgan Temuriylardan Sulaymonshohning o'g'li Pirmuhammad sulton Xoja Sa'dga qilgan arzida quyidagi iltimosni ilgari suradi. Maktub mazmunini aynan keltiramiz.

### **“U-G‘ANIDIR!**

Arizachi Davlatshoh Pirmuhammad duogo'y. Arzdan so'ng shulki, chodir va tuya jihatdan ojizimiz. Faqirning Hazrat Eshondan o'zga pushtipanohi yo'q. Buni o'zingiz ham bilasiz. Iltimos shulki, inoyat qilib chodir va tuya yuborsangiz".

Xoja Sa'dning ijtimoiy-siyosiy ta'sir doirasi keng ekanligini turli viloyat hokimlarining unga qilgan murojaatlaridan ham bilsa bo'ladi. Bandilikdan ozod qilish kabi nozik masalani hal qilishda ba'zan Xoja Sa'd obro'-e'tibori qo'l kelgan. Badaxshon hokimi temuriy Sulaymonshohning Xoja Sa'dga yozgan maktubini misol tariqasida keltiramiz:

«Duo va niyozmandlik adosidan so'ng [arzingizga etkazamizki], xizmatkorlarimizdan biri Sunbul muqaddas shaharlarni tavof qilishga o'tlanib, g'oyib bo'lib qoldi. Agar uni Buxoro yoki Balx shaharlariga olib borgan bo'lsalar, oliyhazratdan iltimos shulki, uni bandilikdan ozod qilsalar, behad minnatdor bo'lar edik. Norasida bolalari bor. Agar bolalari diydorini ko'rishga muyassar bo'lsa, katta savob ish bo'lardi. Sharif mulozamatlariga ba'zi tuhfa yuborgan edik. Etib bordimi-yo'qmi, bilmadik. Arzimiz inobatga olinadi degan umiddamiz. Gumrohlik qildik».

Kobul hokimi Boburiy Humoyunning o'g'li Mirzo Muhammad Hakim ham Xoja Sa'dga ixlosi yuzasidan unga maktub yo'llab, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi narsalarni bildirib turgan.

Qaysar SHayboniy sultonlaridan Bobo sulton shayboniyzodalar o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilishda Xoja Sa'd vositachiligining ahamiyatini yaxshi tushungan holda, unga quyidagi maktub bilan murojaat qiladi.

### **“U [ALLOH] AZIZDIR!**

Oliyjoh... hidoyat martabat...irshodpanoh... zubdat ul-ashob... Hazrat Xoja Kalon Xoja Sizning avlod-ajdodlaringizga ixlosimiz [yuqori] edi. Zamona zayli bilan onhazrat mulozamatlaridan [bir oz] uzoqlashdik, ixlos-aqidamiz boqiy bo'laversin. Sizdan iltimos shulki, bizni o'zingizning qadimiy duogo'yingiz deb hisoblab, xotiringiz hoshiyasidan o'chirmang.

Zamona fasodligi bilan bu [Shayboniy] birodarlar jamoati o'rtasida nifoq voqe bo'ldi. Sizdan iltimos, o'rta tushib, gina-kuduratlariga barham bersangiz..... to do'stlar shodmon, dushmanlar ko'r bo'lsin... [Oldingizga] sadr as-sudur Xoja Muhammad Tohirni yubordik. Qolgan gaplarni u aytadi".

Bobo sulton va uning birodarlari tarafidan qilinayotgan talonchilik harakatlarini tizginlashni so'rab Nurmuhammadxon tomonidan Xoja Sa'dga yuborilgan maktub ham e'tiborga loyiq:

«Aqidaga sodiq Nurmuhammadxonning ikkinchi maktubi... Maxfiy qolmasinki, necha yildirki Bobo sulton o'zining birodarlari bilan har yil kelib, fuqarolarning mol-mulkini talaydi va ularga zarar etkazadi. [Yaxshi] bilasizki, bu bandazodaning ul oliy ostonaga mulozimlari va hazratdan boshqa umid qiladigan [kishisi] yo'q...Niyozmandlik va kifoyatlarni Javonmardali mulozimlar arzigaga etkazadi».

(Badriddin Kashmiriy. Ravzat ar-rizvon. O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmasi, inv. №2094, 331-346 ab sahifalar )

### **Muhammadyor ibn Arab Qatag'anning "Musaxxir al-bilod (Mamlakatlarning egallanishi)" asaridan**

#### **Baroqxon laqabli Navro'z Ahmadxon ibn Sevinchxoja sultonning zikri**

Olovdek gurillovchi o't yurak podshox edi. Akasi Keldi Muhammad sulton vafot etgach, Toshkent viloyatida mustaqil ravishda hukumat bayrog'ini hilpiratdi. Abdullatifxon Samarqand shahrida bu jahondan mangulik olamiga ko'chgach, Barokxon 957 yili xonlik taxtiga chiqib, xutba va tangani o'z nomi va alqobi bilan bezatdi. Samarqandni Sulton Sa'id sulton va Javonmardalixon qo'lidan tortib olib, jannatmisol ul o'lkada ham hukumat bayrog'ini yuksak ko'tardi. Ko'pincha Miyonqol ustiga lashkar tortib, Buxoroni ham bosqin-chopqinga duch qilib yurdi. Hatto, bir marta Buxoroni bosib ham oldi. Biroq, hech qancha vaqt bo'lmay, u erni tashlab chiqdi va asl egalariga qaytarib berdi.

Tahmosbshoh qo'shini bilan 1528 yil bo'lgan Jomi urushida boshqa shayboniy sultonlar bilan birga qatnashdi.

Xonlik ayyomidan olti yil mustaqil shaklda o'tgach, Samarqandga qarashli va Ko'hak daryosi boshlanishi bo'lgan Xoja rabot mavzeida 963 yili oxiratga ketdi.

Undan sakkiz o'g'il farzand qoldi. Birinchisi Darveshxon, ikkinchisi Bobo sulton, uchinchisi Do'st Muhammad sulton, to'rtinchisi Amin sulton,

beshinchisi Jalol sulton, oltinchisi Xorazmshoh sulton, ettinchisi Qosim sulton, sakkizinchisi Tohir sulton.

### **Darvishxon ibn Baroqxon ibn Sevinchixonnnig zikri**

Xalqning arzdodiga etuvchi odil va darveshxislat bir podshoh edi. Hamisha davlat ishlari va tijorat muomalasining sarvari koinot, xulosayi mavjudot shariati asosida bo'lishini talab etar va o'zi ham bunga amal qilardi. Shariatga xilof hech bir ishga qo'l urmasdi. Diyonatda kuchli va unta rioyatda etuk edi. Otasi Baroqxon Samarqandda vafot etgach, o'sha shaharda turgan akasi Bobo sulton davlatni qo'lga olib, mustaqil hukumat yurgizishga kirishdi. Bundan xabar topgan sohibqiron Abulg'oziy Abdulloh sulton ibn Iskandar sulton samarqandlik sulton va amirlarni yoniga olib, Samarqandni olish uchun mulk olish egariga mindi. Bobo sulton bu yurish xabarini eshitib, shahar qal'asini mustahkamladi, darvozalarni ham berkitdi hamda voqeani qalamga olib, maktubni Toshkent sari ukasi Darvishxonga yordam so'rab yubordi. SHunga ko'ra, Darvishxon Toshkent, Turkiston va Aysi, Andijonning ko'p sonli lashkari bilan ilg'or solib yo'lga tushdi. Sohibqiron (Abdullaxon) bundan xabar topib, Samarqand qamalini tashlagancha tezlikda parishon hol muxolif qarshisidan chiqdi va Ilon o'tti darasida taraflar to'qnashuvi ro'y berdi. Darvishxon shu urushda ko'p lashkar va shijoatli aka-ukalari bilan barqarorlik oyog'ini qattiq tirab, dovyuraklik bilaklarini sarmadi. Biroq, shularga qaramay, ozgina fursat ichida engilib, qochish vodiysi sari yuzlandi. O'sha paytda Bobo sulton askarlari va lashkari bayrog'i Samarqand tomondan ko'rinish berdi. Ikki qo'shin bir-biri qarshisiga kelgach, har ikki taraf jangchilari g'arb maydoniga kirdilar. Iskandarnishon sohibqiron maliki mannon inoyati yordamida qisqa bir hamladayoq bu qo'shin ustidan ham g'alaba qozondi. Ya'ni, sohibqiron bir kunda ikkita katta g'alabani qo'lga kiritdi.

Baroqxon avlodlari Samarqand saltanatidan umidlarini uzgach, Toshkent viloyatida to'planib, Baroqxon farzandlari ichida yosh jihatdan ulug' Darvishxonni sultonun no'yonlar hammasi yakdillik bilan qo'llab, boshiga saltanat tojini qo'ydilar va Toshkent mamlakatida uni podshohlik o'rindig'iga o'tqazdilar Turkiston viloyati va unga qarashli erlarni ukasi Bobo sultonga berdi. Andijonni yana bir ukasi Amin sultonga topshirdi Xorazmshoh ismli ukasini Sayram viloyatiga hokim qilib yubordi. Baroqxonning uchinchi o'g'li Do'st Muxammad sultonni Axsikatga voliy qilib tayinladi. Shuningdek, har bir diyor va shaharga bironta qobiliyatli inisi yoki taniqli amirini hokim qildi.

Ul diyorning taniqli qo‘shchilaridan va e‘tiborli amirlaridan sanalgan amir kabir Ali Sayidiyni o‘ziga otoliq qilib qo‘ydi. Bu yaxshi xulqli amir ul diyor ishlari boshqaruvchisi bo‘lib tayinlangach, fuqaro va xalq ahvolidan xabar olish borasida adolat o‘rindig‘iga o‘tirdi va adolat, insof eshiklarini ochib, zulm va jabr ahlining kirar teshiklarini butunlay berkitdi. Toshkent mamlakati ul saodat buluti adolati sharofatidan ma‘mur va obod bo‘ldi. Chunki, ul amir adolat va arzu dod so‘rash qoidasini to‘la ado etdi va yomon ishlar uyini butunlay buzib tashladi. Hech so‘zsiz, amir Ali Sayidiy bu xayrli va savobli ishlari bilan o‘z chiroyli zikrini qiyomat soati etguncha davom etuvchi turmushning kecha-yu kunduz varaqlari sahifasida abadiy qoldirdi. Ancha vaqt o‘tgach, tavfiq yo‘lboshchisi ul aqlli va tadbirkor amirga Ka‘bayi tahqiq sari yo‘l ko‘rsatib, baytulloh ziyorati va rasuli alayhissalom Madinayi mukarramasi tavofiga undadi. U ham «kishilar zimmasida Olloh uchun mana shu uy (Ka‘ba)ni haj-ziyosat qilish burchi bordir», da‘vatini «labbayka» qulog‘i bilan eshitib, ul muqaddas er va mutabarrik oliy vodiy tomon yo‘l oldi.

Shundan so‘ng hech qancha vaqt o‘tmay ul oliy tabor tabaqa saltanati poydevori nobudlik tomon yuz burib, hashamatli imorati er tuban qulay boshladi. Toshkent, Turkiston, Axxi, Andijon mamlakatlari ular qo‘lidan chiqib, iskandarnishon sohibqiron Abulg‘oziy Abdullohxon tasarrufi doirasiga kirdi. Alqissa, iskandarnishon sohibqiron qalbida Darvishxonga nisbatan inoyat, iltifot hamda do‘stlik va birdamlik tuyg‘ulari mavjud bo‘lsa-da, biroq ukasi Bobo sultonning doimo qarshilik yo‘lidan yurgani amalda bu yaqinlikni hadeb chippakka chiqaraverdi. Gapning qisqasi, Toshkent shahri yurt oluvchi sohibqiron tomonidan egallangach, odam yuborib, ukasi Bobo sulton topshirig‘i bilan Turkistonda mahbuslikda ushlab turilgan Darvishxonni ozod qildirdi va Toshkentga oldirib kelib, shu yurt taxtiga o‘tqazdi. Iskandar sifat sohibqiron ul mamlakatni Darvishxonga topshirib qaytgach, Bobo sulton ko‘p qo‘shin to‘plab, Dashti Qipchoq tomondan Toshkentga keldi va ozgina hamla bilan shaharni egalladi. Akasi Darvishxonni ushlatib, shu zahoti o‘ldirishga qaror qildi va ul darvesh asosli podshoh shahodat sharbatini tatidi. Bobo sulton shu tariqa saltanat taxtiga o‘zi chiqib oldi.

Darvishxondan ikkita o‘g‘il farzand qoldi: Shoh Muhamma sulton, Muzaffar sulton.

(Муҳаммадёр ибн Араб Қатаг‘ан. Мусаххир ал-билод (Мамлакатларнинг эгалланиши) /Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Исмоил Бекжонов, Дилором Сангирова. - Т.: Янги аср авлоди, 2009.- Б.168-170).

## Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asaridan

### Abdullaxonning Buxoroni birinchi marta egallashi va uni tashlab ketishi to‘g‘risida

Sulton Sa‘id zafarnishon sipohdan (engilib, Farabdan) chekingandan so‘ng, a‘lo hazrat (Abdullaxon) Burhon sultonning talabiga binoan, azimat jilovini Buxoro tomonga qarab burdi. Burhon sulton izzat va shavkatlik mavkabning (Buxoroga) kelayotganidan xabardor bo‘lib, barcha ulamo va a‘yonlarni (hamda) bozor va boshqa kasb egalarini tengi yo‘q xonning istiqboliga jo‘natib, o‘zi ularning ketidan farmonbardorlik qadami bilan jo‘nadi. SHahardan bir mo‘g‘uli, (ya‘ni 6 farsax masofada) bo‘lgan SHahri Islom degan joyda (xonning) sharaflı muloqotiga musharraf bo‘lib, toju taxt dushmanlarining fitnalari gardidan g‘uborlangan davlat ko‘ziga ul xazratning bosgan tuprog‘ini surma qilib qo‘yib munavvar qildi; uning oyoqlarini o‘pib, g‘ururlik boshini izzat avjiga chiqardi. U erdan turli takalluf va tobelik ko‘rsatib, ul hazratni (Buxoro) shahriga olib kelib, izzat-ikrom taxtiga o‘tqazdi.

Xizmatkorlik va farmonbardorlik marosimi tugagach, (Burhon sulton) qubbatı islom Buxoroni a‘lo hazratga tortiq qilib, o‘zi (otining) jilovini mazkur shaharga tobe‘ bo‘lgan Qorako‘l tomonga burdi. Fathu zafar quyoshi mashriqdan chiqib, yaxshi kun ko‘ringanligi sababli, shunday viloyat hazrat sohibqiron (Abdullaxon)ning tasarrufiga kirdi. (So‘ng) ul hazrat baxtu davlat bilan podshohlik taxtiga o‘ltirib, mamlakat va xalq ishini tartibga soldi.

O‘sha viloyat katta-kichik odamlarining ko‘zi falak iqtidorli podshohning oyog‘i g‘uboridan anchayin ravshan bo‘ldi. Kishilik jamiyati ulamolari va ehtıromlik fuzalolarining zamonning ko‘p ayanchli hodisalari tufayli yomonlashgan ahvoli (endi) shohona marhamat va iltifotlar natijasida tuzaldi.

Bu yoqimli voqeadan bir necha kun o‘tgach va tamom mamlakat ul hazratning adolat va rioyati barakotidan obod bo‘lgach, Buxoroning hokimi (Burhon sulton) hayosizlik qilib, (Abdullaxonning) bunday (zo‘r) ne‘matini unutdi; boshini itoat xalqasidan chiqarib, isyonkorlik yo‘lini tutdi; (uning) dimog‘i kibru havo bilan to‘lib mag‘rurlikka mahliyo bo‘ldi va hatto (xon bilan ilgari qilgan) ahdini buzib, o‘zining jur‘at oyog‘ini itoat vodiysidan chiqardi; sitam qo‘lini cho‘zdi va askar to‘plab, urush bayrog‘ini ko‘tardi; mustaqillikni xayol qildi va Qorako‘ldan (Abdullaxonga) qarshi otlanib (Buxoro) shahriga qarab yurdi.

Uning (bu) jasorati ovozasini (hamma yoqqa) tarqalgach, bu andishaning shu'lasini ul hazratning xotirlarida toblangach, (ilgari bo'lgan) iliq hamiyati (endi) o'ch olish qasdigacha aylandi va buyurdiki, nusratpanoh sipoh urushga hozirlanib (Abdullaxonning) qutli o'zangisiga to'plansinlar. O'zi yo'lga tushib butun qarindoshlari va huzuridagi birodarlari bilan zafarnishon bayrog'ini ko'tardi va oliy ne'matlik himmat yuzini davlatning dushmanlari tarafiga qaratdi.

Burhon sulton Sulaymon martabali xonning kelayotganidan xabar topgach, (u bilan) urushmoqqa ojiz bo'lganidan otining jilovini Buxoro viloyatining tumanlaridan bo'lgan Romiton qal'asiga burdi va qo'rqib-pisib o'sha vayron bo'lib ketgan qal'aga yashirindi. Qo'rqqanidan qal'aning burj va devorlarini mustahkamladi. Nusrat nishonli askar (Abdullaxonning) farmoniga ko'ra, qal'ani o'rab oldi va qamalni to'xtovsiz boshlab, urush olovini yoqib yubordi. Paymonasi to'lgan, xoksor dushmanlardan ko'pini o'ldirdi.

O'sha kuni kun bo'yi urushda tajribakor pahlavonlar, qal'a olib dushmanini enguvchi kahramonlar jur'at etagini belga qistirib (qal'a) devoriga tashlandilar va qal'aga qarab juda ko'p tosh va sanoqsiz o'qni bahor yomg'iridek yog'dirdilar. Lekin ba'zi kishilarning tabiati va balki barcha insonning xulqi bevafoqlikka moyil, «albatta, inson zolim va nodon bo'lgandir» (oyatida ko'rsatilgan)day, shishadek tiniq osmonning podshohi (ya'ni quyosh) g'arbga tomon chopib, kechaning qora (libos kiygan) sipohi Rum lashkari (quyosh) qalbi ustidan g'alaba qilganda, ya'ni namozshom vaqtida (Abdullaxon) mulozimlaridan bir guruhi bevafoqlik yo'lini tutdilar va Buxoro sipohi birin-ketin a'lo hazrat ostonasidan yuz o'girib, dushman tomoniga o'tdilar. Iskandar martabali hazrat (Abdullaxon) bu voqea sodir bo'lgandan so'ng, Romiton qal'asi atrofidan, vaqtning talabiga qarab, (otining) jilovini burdi va (Buxoro) shahri tomon shoshildi. Komil aql va ziyraklik bilan angladi va «(har qanday) ish o'z vaqtiga garovdir» (maqolining) hukmiga ko'ra, nochor bir necha kun hashamat va ulug'vorlik vositalari hamda shon-sharaf va yuqorilik odobi yig'ilib, shavkat va davlatning asoslari dushmanlarni engilish vodiysiga va tor-mor bo'lish yo'lga yuz qo'yishga majbur qilganga qadar taqdirga tan berishga majbur bo'ldi, (lekin) shunday bir vaqt (qam) keladiki, davlat yulduzi hashamat avjidan (yana) ko'rinib, qasos oluvchi bahrom qilichi bilan mamlakat dushmanining oyog'ini qirqib, tegishli jazosini berur, (chunki) «bu (ish) Tangriga mushkul emas» (deb jang maydonidan chekindi).

Binobarin, (Abdullaxon) Buxoro shahrida ham to'xtamay, qo'zg'olon bayrog'ini ko'tarib (yana) Balxga qarab jo'nadi. Ilgari g'aybi suratlar oynasi va shubhasiz nurlari shohidi bo'lgan (achchiq) tajriba



ko'rsatganki, qachonki Tangri, qudrati ulug' bo'lsin, bir davlatmandning baxtu taxt poyalarini Farqadonning yuqorisiga chiqarmoqchi bo'lsa va saltanatli taxtini davom, sabot, hashamat va yuqorilik (dan iborat) to'rtta poyasi bilan ko'tarishni, ulug'lashni istasa, dastlab uning davlati ajoyib fitnalar va g'aroyib o'zgarishlarga ilojsiz duchor bo'ladi.

(Нофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома /Биринчи китоб; Форс тилидан Содиқ Мирзаев таржимаси; Илмий муҳаррир, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: академик Бўрибой Аҳмедов. –Т.: Шарқ, 1999. –Б.127-128).

### **Muhammad Tolibning “Matlab ut-tolibin” asaridan Abdulloh Bahodirxonning hazrat eshoni kalonga ta'zimi haqida**

Bir kuni Abdulloh Bahodirxondan bir gunoh sodir bo'ldi. Hazrat eshoni kalon (Xoja Islom) tobi yo'qligi uchun taxti-ravonga o'tirib Zarminoqqa<sup>283</sup> bordi. Oliy nasab xon uzr so'rash uchun hazratning izidan borib, ko'rinadigan joyga etgach, sallasini qo'lga olib, o'tinch so'rab to'xtadi. Hazrat eshoni kalon unga iltifot qilmay, yuzini teskari o'girdi. Xon boshqa tarafdin kelib to'xtadi va hazratning muborak peshanasida g'azab alomatlari zohir bo'lganini ko'rib, boshini erga shunchalik qattiq urdiki, burnidan qon oqa boshladi. Xon dedi: Xojam, qulning ishi xatolik va xojaning ishi afvdir! Yig'lab, o'hu zor qila boshladi. Hazrat eshoni kalonning g'azabi pasayib dedi: Yoqangdan tutib Buxoro taxtiga o'tqazganimiz esingdan chiqdimi?! Birovni tomga chiqargan kishi uni pastga tushirishni ham eplaydi. Nima qilayki, sendan tuzukroq odam yo'q va suv o'zi parvarish etganni g'arq qilmaydi! Sohibqironning ishiga rivoj tilab fotiha o'qidi va xon hazrat eshoni kalonning taxtiravonini elkasiga olib, ancha joygacha ko'tarib bordi. Shundan so'ng hazrat unga ijozat berdi.

Naql: Abdulloh Bahodirxon hazrat eshoni kalon davrida hazrat hoja Sa'd va hazrat Abubakr Ahmad ibn Sa'd mozorlari ustida sag'ana qurirdi va oliy jome masjidini bino etdi. Masjidning toqu ravoqlari va bo'lmalari a'lo koshinlar bilan qoplangan edi. Yuz tanob erda chahorbog' barpo etilib, unda turli-tuman mevali daraxtlar va rango-rang gullar ko'kartirilib, pishiq g'ishtdan sarhovuz va oliy imoratlar bunyod etildi. SHuningdek, shodona ko'rinishxona qurildi. Xon amirlarga ham farmon berdi: Bizning xos chahorbog'imiz atrofida amirlar ham chahorbog'lar bino etishsin! SHu tarzda har bir amir chahorbog' bunyod etdi.

O'sha paytda hazrat eshoni kalonning manzili va hovlisi Buxoro qal'asidan tashqarida edi. Abdulloh Bahodirxon farmoniga ko'ra, Shergaron darvozasining janubiy tarafidan to Shayx Jalol darvozasigacha qal'a devori buzilib, hazrat eshoni kalonning manzil, hovli, bog'u chahorbog'lari shahar ichkarisiga olindi.

Valimuhammadxon akasi Boqimuhammadxonning o'limidan so'ng saltanat taxtiga o'tirdi. Mazkur xon Balx viloyatidan Samarqand viloyatiga kelib, podshoh bo'ldi. Hazrat padari buzurgvorimiz va hazrat Abdurahimxoja xonni qutlash uchun Samarqand viloyatiga borishdi. Samarqand viloyatiga etishganida Valimuhammadxon Qoqlik qo'rug'ida saroparda bayrog'ini oyu quyoshga etkazgan edi. Hazrat padari buzurgvorimiz muzaffar askarlarga yuzlandi. Valimuhammadxon hazrat eshonning kelganini eshitib, darhol o'ng qo'l tarafida oliy joy hozirlatib, shoshilinch holda davlatxonadan chiqib, hazratning istiqboliga yugurdi va hazrat padari buzurgvorimizning saodatli muloqotiga musharraf bo'lib, shodu xurram holda to'la ta'zim bilan davlatxonaga olib kirib, uni o'tirg'izdi va so'ngra o'zi o'tirdi. Barcha ulug'lar va shariflar o'z joylarida qaror topishdi va zamon rahbari va davron peshvosi bo'lgan hazrat eshon Hoja Hoshimiy Ahroriy padari buzurgvorimiz va hazrat Abdurahimxojadan pastroqda - jargada o'tirdi. Dasturxon, taom, oftoba va dastsho'yni xon va hazrat eshonga barobar keltirib, so'ngra o'ngu so'l tarafga dasturxonlar yozishdi. Turganlarida hazrat eshonga ergashib, davlatxona tashqarisiga chiqdi va to'la e'zoz bilan kuzatib qo'ydi. Bir necha kundan keyin Valimuhammadxon hazrat eshonning qarzi borligini eshitdi. Eshitgan zahotiyuq hazrat padari buzurgvorimizga qirq ming xoniy berib, bir necha qishloqni suyurg'ol qildi. Hazrat Abdurahimxojaga yigirma ming xoniy in'om qildi. Bu in'omlarni keltirgan kishilarning har biriga hazrat padari buzurgvorimiz va hazrat Abdurahimxoja egarlangan ot va bir necha ming tanga berishdi. Mazkur xon Balx va Badaxshonda bir necha yil, ba'zi xabarlarga ko'ra olti yil podshohlik qilib, akasi Boqimuhammadxon o'limidan so'ng Movarounnahrda ham olti yil podshohlik qildi va xutba va tanga uning nomida edi. Akasining o'g'li Imomqulixon bir ming yigirma birinchi yilda uni shahid etdi.

**Ikki sharif haram hojisi Imomqulixon** saltanat taxtiga Valimuhammadxondan so'ng o'tirdi. Xonning hazrat padari buzurgvorimizga nisbatan e'tibori, yaqinligi va niyozmandligi kundan kunga oshib, a'lo darajaga etdi va singlisi Poyandasultonxonimni hazrat eshonga berdi. Buxorodan Pirmast hazorasini va G'uzordan Dehinavni, shuningdek, shunqor, to'qqizta italgu va uchorchini Mirzo Mirak Sug'duvoniy bilan birgalikda hazrat padari buzurgvorimizga in'om qildi.

Yana yigirma ming xoniy mablag‘, tuyalar, xachirlar, farroshxona va bovarchixona asbob-anjomlarini berdi. Bu paytda hazrat padari buzurgvorimiz turna ovida edi va bu in‘omlarni keltirgan kishilarga naqd mablag‘, egarlangan ot va sarpolar hadya qildi. Xususan, Mirak mirshikorga naqd mablag‘, egarlangan ot, sarpo, bir necha tuya va qush anjomlari: gilam, namat, mis qozon va tovoq in‘om etdi.

Xonning davlati zamonida u oliy majlislar, bayramlar va ma‘rakalarga hazrat padari buzurgvorimizni to‘la izzat bilan taklif qilardi. Hazrat eshon uzoqdan ko‘ringanda, xon o‘z joyidan turib, uyning ostonasigacha borib, hurmat-ehtirom bilan o‘ng qo‘l tarafda namat yostiqlik va baxmal ko‘rpalar qo‘yib, alohida hozirlangan joyga o‘tirg‘izardi. Shundan so‘ng o‘zi joyiga borib o‘tirar va aql qulog‘ini hazrat padari buzurgvorimiz tarafga qaratib, uning pandu nasihatlaridan bahramand bo‘lardi. Taom kiritilganda avvalo hazrat eshon oldiga dasturxon yozilar va shundan so‘ng xonning oldiga taom qo‘yishardi. Hazrat padari buzurgvorimiz turganida xon uy tashqarisigacha kuzatib ko‘yardi.

Imomqulixon Movarounnahrda Valimuhammadxonidan keyin o‘ttiz uch yil podsholik qildi, xutba va tanga uning nomidan edi. Xonning ko‘zi ko‘r bo‘lib qolgach, ikki haram sari otlanib, ziyoratdan so‘ng bir ming ellik ikkinchi yilda vafot etdi va [Madinadagi] Baqi‘da dafn qilindi.

**Janob Nadrmuhammadxon** janob Imomqulixon davlati zamonida Balx viloyatidan akasini ko‘rishga kelgan edi. Imomqulixon ukasini mehmon qilib, poyonozlar to‘shab, sochiq rasmiga ko‘ra uch yuz ming xoniy in‘om qildi. Ushbu mehmondorchilikda jami ulug‘lar, amirlar va fozillar yig‘ilib, xon o‘z taxtida o‘tirib, Nadrmuhammadxon so‘lda o‘tirdi. Hazrat padari buzurgvorimizning joyi xuddi Imomqulixonnikidek yasatilib, xalq o‘z o‘runlarida barqaror bo‘lib, hazrat eshonga intizor bo‘lishdi. Bir necha kishi paydar-pay hazrat eshon oldiga kelib, xonning intizor bo‘lib turganini arz qilishdi. Padari buzurgvorimiz majlisga otlandi. Davlatxona darvozasiga etganida Imomqulixon va Nadrmuhammadxon to‘la ta‘zim bilan joylaridan turib, to‘xona poygohigacha kelib, xon hazrat padari buzurgvorimizni joyiga taklif qilib, e‘zoz-ikrom bilan o‘tirg‘izdi. Xonlar, amirlar, fozillar va ulug‘lar – barchasi o‘z joyida qaror topib, hech kimda so‘z boshlashga mador yo‘q edi. Ushbu asnoda shoir Mullo Ashkiy joyida turib, qasida o‘qiy boshladi. Hazrat padari buzurgvorimiz u tarafga vahshat bilan qarab dedi: Bu shoirni turg‘izib majlisdan chiqarib yuboring! Bunday oliy majlislarda bu nav so‘zlarga o‘rin yo‘q!

So‘ngra xon tarafga qarab dedi: Bunday oliy ma‘rakada Alloh kalomi va Rasul so‘zlari zikr qilinsa, yaxshi bo‘lar edi! Shundan so‘ng mavlonolar har biri oyat va hadislardan so‘z yuritishdi. So‘ngra dasturxon keltirib, xon

va hazrat padari buzurgvorimiz oldiga barobar solishdi va o'ngu so'lga ham dasturxon yozib, taom qo'yishdi. Taomdan so'ng oftoba va dastsho'yni xon va hazrat eshon oldiga barobar keltirishdi. Shundan so'ng hazrat padari buzurgvorimiz turdi va Imomqulixon xona poygohigacha hazratni kuzatib bordi. Nadrmuhammadxon Buxoroda o'ttiz kun bo'lib, so'ng Balxga qaytib ketdi.

Uch yil o'tgach, janob Imomqulixonning jahonni ko'ruvchi ko'zlari ko'rishdan qoldi. Ukasi janob Nadrmuhammadxonni Balx viloyatidan chaqirib, o'z istagi va rag'bati bilan xutba va tangani ukasining nomiga qilib, o'zi Baytullohga otlandi. Nadrmuhammadxon ham sobiq xoqonlar dasturiga ko'ra hazrat padari buzurgvorimiz bilan muomala qilib, izzat-ikrom ko'rsatdi. Hazrat eshonni majlislarga chaqirishda bir daqiqa ham hayallamas, o'sha qoidaga ko'ra oldiga chiqib, shohnishin tepasidagi alohida hozirlangan joyga o'tirg'izardi. Xonga va hazrat eshonga dasturxon va taom dastur bo'yicha bir paytda keltirilardi. Ikki hayitda Namozgoh taxtida hazrat padari buzurgvorimizning qo'lidan ushlab, o'z yonboshiga o'tirg'izardi.

O'zbekiya [jamoasi] Nadrmuhammadxondan yuz o'g'irgach, u Balx va Badaxshonda o'ttiz uch yil, ya'ni akasi Imomqulixon podshohligi muddatiga barobar hukumat surdi. Akasidan so'ng Movarounnahrda uch yil podshohlik qilib, xutba va tanga uning nomida edi. Mazkur xonning o'g'illari Abdulazizxon va Subhonqulixon otalarini ikki sharif haram ziyoratiga kuzatib qo'yishdi. U yo'lda vafot etdi va xonning jasadini eltib, Baqi'da akasining yoniga dafn qilishdi.

Janob Abdulazizxonni Samarqand viloyatida podshoh qilib ko'tarishdi va mazkur xon Samarqanddan Buxoroga otlandi. Hazrat padari buzurgvorimiz uning istiqboliga Zanjirsaroyga bordi. Xon hazrat eshonning tashrifidan xabar topgach, darhol padari buzurgvorimizning qoshiga kelib, turfa ixloslar zohir qilib, fotiha so'radi. Tayyor taomlar tanovulidan so'ng, yana fotixa olib, o'rnidan turdi. Hazrat padari buzurgvorimiz uni kuzatib qo'yib, shu kuni namozga o'g'li Muhammadyusufxoja bilan xon ko'rinishiga borishdi. Xon hazrat eshon kelganini eshitgach, darhol joy soldirib, o'zi istiqbolga chiqdi va to'la ta'zim bilan davlatxonaga olib kirib, uni o'tirg'izdi, so'ngra o'z joyiga o'tirdi. Muttasil o'zining ixlosmandligini arz qilib, hazrat padari buzurgvorimizdan fotiha tiladi. Tayyor taomlar tanovulidan so'ng padari buzurgvorimiz joyidan turdi va xon uni davlatxona tashqarisigacha kuzatib, ta'zim bajo keltirib qaytdi. Buxoroga kelgandan so'ng ham xonning ixlosi kundan-kunga ziyoda bo'lib, ikki hayitda Namozgoh taxti tepasida hazrat padari buzurgvorimizning qo'lidan ushlab, o'z yoniga

o'tirg'izar, oliy majlislarda katta iltimos bilan chaqirardi. Hazrat eshon davlatxona yaqiniga etganida, xon darhol joyidan turib, padari buzurgvorimiz istiqboliga chiqib, lutfu marhamat bilan joyiga boshlab o'tirg'izar, so'ng o'zi joyiga o'tirardi. Dasturxon va hozir bo'lgan taomlar avval hazrat eshonga keltirilib, so'ngra xon oldiga dasturxon solinardi. Shundan so'ng jarg'aga dasturxon keltirilardi. Tanovuldan so'ng hazrat eshon turganida xon hurmat bilan xona tashqarisigacha kuzatardi. Yigirma yildan buyon Abdulazizxon Movarounnahr va Turkiston viloyatlarida podshohlik qilmoqda hamda xutba va tanga uning nomidadir. Ukasi Subhonqulixon akasi amriga ko'ra Balx va Badaxshon viloyatlari hokimi bo'lsa-da, lekin xutbani akasi nomiga o'qittirib, tangani akasi nomidan zarb qildiradi.

(Мухаммад Толиб ибн Тожиддин Насанхожа ал-Нусайний ас-Сиддиқий. Матлаб ут-толибин / Ўзбек тилига таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Г'улом Каримий, Эркин Миркомиллов. -Т.: "Movarounnahr", 2016.- Б.114-115, 208-210 )

### **Amir Muzaffarning Rum sultoniga maktubi**

Ma'lumki, 1865 yil iyunida Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi. So'ngra Xo'jand Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tdi. Rossiya imperiyasining bunday istilochilik harakatlari Buxoro hukmdori Amir Muzaffarni tashvishga sola boshladi. Natijada u o'sha davr musulmon mamlakatlari etakchisi Rum (Turkiya) davlati va uning hukmdori Abd ul-Lazizga (1861-1876) yordan so'rab murojaat qilishga qaror qildi. 1866 yil Xo'jand Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan zabt etilgach, amir tezda mashvarat chaqirib Rum sultoniga yordam so'rab maktub yozish kerakligi to'g'risida topshiriq beradi. Uning farmoniga binoan kotiblar tomonidan maktublar tayyorlanib, ular ichida Mulla Abd ul-Vohid sudur tomonidan nasta'liq xatida bitilgan maktub amir nomidan Rum sultoniga yozilgan maktublar ichida eng sarasi va mukammali deb topiladi. Maktubni elchi Porso Xo'ja sudur olib borgan.

Ushbu maktub Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini, jumladan, Buxoro amirligi hududlarini tasarruf etish tarixi to'g'risidagi ayrim ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi manba hisoblanadi. Shuni hisobga olib, quyida maktubning mazkur satrlar muallifi tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjimasini keltiramiz.

## **Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan!**

...Shahrizabz shahri va uning atroflarida yashovchi fitnachi kenagaslar jamoasi qaysarlik tug'ini ko'tarib, fisq-fasod boshladilar. Bu jamoa fitnasi hamon o'chmagan...

Yigirma yil muqaddam (Rusiya) g'ayridinlari makr va firib yo'lidan kelib, hiyla va aldov eshigidan kirib, ular hiylasiga aldangan qozoqlar firqasiga tajovuz qildilar. Va (bu firqaga) tegishli bo'lgan Dashti Qipchoq yaylovlarini egalladilar. Farg'ona (mulkiga) qarashli Oqmachit mavzesida metindek qal'a barpo qilib, uning burjlarini istehkomga aylantirdilar va (u erni) sarbozu lashkarlar bilan to'ldirdilar.

Bu mutasaddilar shundan so'ng Farg'ona mulkining muhim erlarini qo'lga kiritib, (farg'onaliklar mudofaasiga) qadam qo'yishga tayyorgarlik boshladilar. U erdan shijoat qadamini tashlab, bir necha shahar va qal'alarni o'z tasarruflariga kiritdilar... (So'ngra esa) hujum boshlab, Toshkand ustiga yurdilar. Bu shahar aholisi himmat va mardonalik kamarini beliga bog'lab, (shahar) mudofaasi uchun harchandki jang qilsa (ham), foydasi bo'lmadi. Oqibatda (Rossiya imperiyasi lashkarlari) mazkur shaharni egallab, haddan ziyod va qiyosdan tashqari (jabr-zulm) sodir etdilar. Ushbu shahar aholisi (o'tmishda) Farg'ona hokimlari va farmondorlaridan neklik ko'rmaganligi sababli (ulardan) madad ham umid qilmadilar. Bu niyozmand (Amir Muzaffar) keyingi (rejalar bo'yicha) maslahatlashib olishni (o'z amaldorlaridan) iltimos qildi. (Allohdan) xayr va yaxshilik so'ralgandan so'ng, maslahat shunday bo'ldiki, avvalo Rusiya davlati hokimlariga elchi yuborib, (haqiqiy ahvolni bilish lozim va) jang qilmoq uchun qurol-yarog'larni hozirlash (zarur). Bu muhim ishni bajarish uchun kishi tayinlanib, (muxolif tomonga) jo'natildi, toki u ahvolni bilib kelsin. Firib, hiyla va makr ul (g'anim) jamoasini vatan qilgan ediki, elchi murojaatini erta-indin (deb paysalga solib), (muxolif) bu jamoa qish ayyomining yomg'irli (kunlarida) bir bora Sirdaryodan o'tib, davlatxoh (Amir Muzaffar) mulki bo'lgan Dizaq (Jizzax) qal'asi ustiga yurishni ixtiyor etdi hamda zulm va fasod otashini bu (o'lka) ahli ustiga tashlamoqchi bo'ldi...

(Bizning lashkarlarimiz) tig' va miltiq zarbi bilan ul jamoani to Sirdaryo sohiligacha (quvib) bordilar. Mazkur (rus lashkarlari) jamoasi (esa) u erda qudrat (topib) fitna, fasod va isyon tadorigini (boshladilar). (So'ngra) jabr va zulm qo'llarini har tarafga cho'zib, shu atrofda yashovchi aholi tinka-madorini quritdilar (va sabr kosasini to'ldirdilar)...Shundan so'ng bu niyozmand (Amir Muzaffar) jihodni farzi ayn deb bilib, sovuq va izg'iringa (qaramasdan) mujohidlar hamrohligida (g'animga qarshi) hujum

boshladi.

Dizaq (Jizzax) qal'asidan o'tib, Sirdaryo sohiliga qo'ndi va (o'sha erda) chodir tikdi. SHu atrofda bir necha kun turib, so'ngra (muxolif) bilan jangu jadal qilishga qaror qilindi. Mashvarat va kengashdan so'ng mujohidlar (ya'ni Buxoro qo'shinlari) jang tayyorlarligini boshladilar. (Buxoro) lashkari to hozirga qadar bunday g'anim bilan jang maydonida (jiddiy mahoraba) qilmaganligi bois, ularning madadkori bo'lgan to'p va to'fanglar to'g'risida to'la tasavvurga ega emas edi. Harchandki jang qilsalar ham, g'alaba shohid bo'lmadi va zafar ro'y bermadi. (SHundan so'ng) chekinish nag'oralari chalindi... Bu g'addodlar jamoasi shu asnoda fursatni g'animat bilib, (ayni kunlarda) Qo'qand (tasarrufidan chiqib), Buxoro ta'siriga o'tgan xush ob-havoli Farg'ona zaminidagi firdavsmonand Xo'jand shahriga yurish qildilar va uni uni qamal etdilar. SHahar aholisi birlashib, rus lashkarlariga qarshi kurash va jang tayyorgarligini ko'rdi. Bu shahar Sirdaryo qirg'og'ida joylashgan edi. (Uning) soddadil aholisi (g'anim) makr-hiylasidan g'ofil bo'lib, daryoni (shahar mudofaasi uchun) bir devor deb bildi... (Va o'sha tomonni) xoli qoldirdi. Beandisha (g'anim) jamoasi...daryo tomondan o'lim olovini to'plar orqali shaharga etkazdi. Shaharning ulamo va arkoni-fozillaridan bir nechasi shahidlik darajasiga etdi...Hatto ayollardan ba'zilari bu holatni ko'rib, baliqlar komini istiqomat uchun afzal sanadi va o'zini daryoga tashladi...Xo'jand shahri (g'anim) jamoasi dilbandiga aylangani bois...(ular) bu erda lashkar va sarbozlarini jam qilishga harakat qilmoqdalar. Agar badjilav bu toifa ishlari shu usul va tartibda qolaversa, xom xayollar ularning buzuq nafslariga yo'l topadi hamda qudrat va qaror paydo qiladi...(Bu esa) ahli islom ishlariga ziyon keltirib, dini muttayinga rahna soladi...va Hazrat sayyid mursalin shariati binosiga futur etkazadi... (Shularni hisobga olib), shafqat va mehribonlik qo'llarini boshimizdan tortmay, zarur bo'lgan yordamlarini... turk-tojikdan darig' tutmasinlar.

Bayt:

Chi hojatki, go'yand ba oftob,  
Ki bar farq nazdik, yo dur tob.  
Chu xurshidi tobon dihad fayz nur,  
Zi fayzash na nazdik monad, na dur.

Mazmuni:

Quyoshga , uzoq yo yaqin nur soch deyishga hojat yo'q,  
Chunki quyosh fayzli nurlar taratadi.

Va bu nurlardan yaqin ham, uzoq ham,  
Baravar bahramand bo‘ladi.

Porso Xo‘ja sudurni... (Siz) olampanoh dargohiga jo‘natishga qaror qilindi... Bu arznomaga sig‘may (qolgan) ko‘p gaplarni va qalam (qayd etmagan) zarur maqsad va iltimoslarni (Porso Xo‘ja sudur og‘zaki) aytadi.

(Fors-tojik tilidan H.To‘raev tarjimasini. Buxoro muzeyi qo‘lyozma hujjati, inv.№ 11007/11. Maktubning boshqa nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik institutida №282/IV inventar raqami ostida saqlanadi)

**Amir Muzaffarning qushbegi Muhammadshoh-biyga Farantu mavzesidagi 12 tanob davlat erini sotish to‘g‘risida bergan farmoyishi.  
1871 yil**

[Alloh] tirikdir!

Vazoratpanoh va imorat joygoh bosh qushbegi Muhammadshoh-biy bilingki, Allohga hamdu sanolar bo‘lsin, Oliy hazratning xotiri har jihatdan jamdir. Oliy hazratga yuborgan arizangiz etib keldi. Uning mazmuni tushunarli. Sizning tavsiyalarangiz to‘g‘ri. Yuborgan narsangizni oldik. Oylik maosh oluvchilar masalasida yuborgan tavsiyalarangizga biz oliy yorliq (sanad) berdik. Siz quyidagi mazmunda ariza jo‘natgan edingiz.

“Farantu mavzesida joylashgan 12 tanob zamini sultoniy erlarini Oliy hazrat ruxsati bilan dehqonlarga 13 tilloga sotish uchun savdolashdim. Dehqonlar oldi-sotti to‘g‘risida vasiqa berishimni talab qilishdi. Ularga vasiqa beraymi?”

Oldi-sotti to‘g‘risida vasiqa tuzib, ularga bering. Sizning odamingiz dushanba kuni peshin namozidan so‘ng arizangizga javob olib, mening huzurimdan chiqib ketdi. Assalomu alaykum! Hijriy 1287 yil.

**Muhammad Sharif Sadr (Sharifjon maxdum)ning “Ro‘znoma” asaridan**

Xoqonlik marhamati va shohona fuqaroparvarlik yuzasidan haqqoba (suv taqsimoti) masalasida farmoni oliy berildi. SHu farmonga muvofiq [mutasaddilar] kom boshiga borib suvni Buxoro tumanlariga taqsim qildilar. Somjin va Komot tumani komlari o‘n besh kun bog‘lanib, bu tumanlarni sug‘orib turuvchi suv Xutfar [tumani] komiga burib yuborildi. Shu muddat ichida Xutfar tumani erlari to‘la sug‘orildi.



Alloh marhamati bilan daryo suvi bir marta har yilgidan ziyoda bo‘lib, barcha tuman ariqlari suvga to‘ldi.

(O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi, inv.No 2277)

**Buxoroning Komot tumanidagi Mo‘minobod qishlog‘i aholisiga davlat yerlaridan bir qism berish to‘g‘risida Mir Homid miroxurning amirga arizasi. XIX asr ikkinchi yarmi**

Umiddog‘! Hazratimning boshiga tasadduq bo‘lay. Qulingiz Homid miroxur shunday arz qiladi: ”Komot tumani Mo‘minobod qishlog‘i dehqonlari Oliy hukmdorning yozma farmoniga binoan Komot tumani Mo‘minobod qishlog‘ida 75 tanob mulk erlariga ega. Odamlar va o‘zinning taxminlarimga ko‘ra, ularning ixtiyorida bo‘lgan mulk erlar miqdori ayni paytda 100 tanobdan oshadi. SHu bois tanobkashni olib kelib, erlarni o‘lchash va dehqonlarning 75 tanob mulk erlarini mamlakai sultoni, (ya’ni davlat) erlaridan ajratib berish to‘g‘risida qozi Mir Muhiddin sudurga muboraknomai oliy yuborasiz, degan umiddaman!”.

**Abdusamadbek jibachiga tanxoh berilishi to‘g‘risida Amir Muzaffar farmoni. 1880 yil.**

Alloh tirikdir!

Fazilatpanoh, irodat ma’ruf Mirza Sayyidxo‘ja mushrif, bilingki, Abdusamadbek jibachi yuzaboshi bizga quyidagilarni ma’lum qiladi: “Men Oliy hazrat farmoni bilan yuzaboshi unvoniga musharraf bo‘ldim. Buning uchun Oliy hazratni duo qilaman va o‘z unvonimga muvofiq menga tanxoh in’om qilinishiga umid bog‘layman”.

Marhamat qildik, unvoniga muvofiq unga tanxoh ajratilsin va bu to‘g‘rida Oliy hukm tayyorlab, duo oling! Hijriy 1297 yil.

**Ahmad Donishning “Mang‘itlar sulolasining qisqacha tarixi” asaridan**

احمد مخدوم دانش رساله يا مختصرى از تاريخ سلطنتت خاندان منغتيه

Amir Nasrulloning Amir Muzaffardan boshqa o‘g‘li yo‘q edi. O‘g‘lining tabiatida illatlar mavjudligini yaxshi anglagan Amir Nasrullo, qo‘shin va fuqaro to‘g‘risida qayg‘urib, taxtini o‘g‘li Muzaffarga topshirishni istamadi. SHuning uchun o‘z nabiralaridan birini toj-taxt

vorisi etib tayinladi va bu istagini [vafotidan so'ng] amalga oshirishni ba'zi amaldorlarga vasiyat qildi.

Amir Muzaffar taxtga o'tirgandan so'ng, otasining vasiyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan barcha amaldorlarni qirib tashladi. Valiahd esa Buxoroni tashlab qochishga majbur bo'ldi. Amir Muzaffar valiahdning avlodlari va tarafdorlarini ham qilichdan o'tkazdi. Otasi davrida vazir va boshqa mansablarni egallab turgan amaldorlarning mol-mulkini musodara qilib, o'zlarini quvib yubordi. Ular o'rniga o'z kishilarini tayinladi...

Buxoroga qarashli viloyatlarning Rusiya [hukumati] qo'l ostiga o'tishining sababi quyidagilar: [Buxoroda] bir lashkarga mo'ljallagan maosh to'rt lashkarga taqsimlanib berilardi. Bir harbiy boshliqning oylik maoshi esa ikki harbiy boshliqqa to'lanardi.

Ulamolar jihod to'g'risida bong ursalar-da, bu urushning nega zarurligini va sabablarini bilmasdilar. Dushmanning kuchi, harbiy qurollari to'g'risida tasavvurga ega emas edilar. Dushmanga qarshi kuchlarni qaysi tarafga yo'naltirish kerakligini anglab etmasdilar. Viloyatlardan yig'iladigan soliqlar hisobidan maosh oladigan qo'shin nega kerakligini va uni ta'minlash nimaga zarurligini ular idrok eta olmasdilar. Vaholangki, bularning bari xalq elkasidagi og'ir yuk edi. Doimiy qo'shin udda qilolmagan ishlarni xalq qo'shini udda qila olarmidi? Jangchilarni ta'minlashning ma'nosi shuki, dehqonlar dushman hujumidan xalos bo'lsin, jangchilar ularni himoya qilsin.

Dehqonlar urush davrida qo'shinni himoya qilishi umuman zarur emas, chunki qo'shin tinchlik davrida fuqaroning qonini so'radi. G'alayonlar paytida esa dehqonlarni jangning oldingi saflariga jo'natishadi. Bu quloq eshitmagan yangi tartib edi. Biror bir boshqa mamlakatda bunday tartibni uchratmaymiz. Xalqning ishonchini qozonish uchun Amir Muzaffar tomonidan davlat tizimida quyidagi ishlar amalga oshirildi. G'azovot janggi va qo'shinni ta'minlash uchun xalqdan yig'iladigan naqd dirham va dinorlar xazinaga topshirildi. Agar biror kishida dirham va dinorlarga ehtiyoj tug'ilsa, u bu pullarni amirga muayyan xizmati evaziga olardi va davlatga tobe bo'lib qolardi.

### **Mirzo Sirojiddinning "Tuhfai ahli Buxoro" asaridan**

Buxorolik ma'rifatparvar Mirzo Sirojiddin (1876-1912) Buxoro jadidchilik harakatining ilk darg'alaridan. Uning faoliyati bir tomondan tadbirkorlik, ikkinchi tarafdan ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Ikki bir-birini istisno qilmaydigan faoliyatni uyg'un tarzda olib borish va bu sohalarda e'tiborga molik muvaffaqiyatlarga erishish kamdan kam jadid ma'rifatparlariga nasib etgan. Mirzo Sirojiddin ana

shundaylardan. Qisqa umr ko'rganiga qaramay, dunyoning ko'p mamlakatlariga sayohat qilib, ham tijorat ham ma'rifat ishlari bilan shug'ullandi. Tijoratchi bo'lganda ham, haqiqiy vatanparvar, e'tiqodli, xalqiga sodiq, vatan ravnaqi va taqdiri uchun qayg'uradigan tijoratchi edi. O'z zamonasining ziyoli, ilg'or fikrli namoyandasi sifatida vatanining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolganini angladi, buning sabablarini qidirdi, o'z xulosalarini ilgari surdi. Qoloqlikdan qutulish uchun jiddiy islohotlar zarurligini, ilg'or Evropa davlatlari tajribasiga tayanish lozimligini, faqat ma'rifatgina najot yo'lini munavvar qiluvchi omil ekanligini qayta-qayta takrorladi. U Buxoro jadidlari organi bo'lgan "Buxoroi sharif" gazetasi muassislaridan. O'z ijtimoiy-ma'rifiy qarashlarini "Tuhfai ahli Buxoro" (Buxoro ahliga tuhfa) nomli asarida bayon etdi. Asar "Sayohatnoma" nomi bilan 1913 yil "Buxoroi sharif" gazetasida chop etildi.

Besh yoshimda otam meni maktabga berdi. O'n yoshimda savodim chiqib, forsiyda o'qish va yozishni o'rgandim. So'ngra qariyb ikki yil mobaynida o'z uyimda bir savodli muallim qo'lida axloq va tarixga oid ba'zi forsiy kitoblarni, arab lug'atlarini va she'rlarni mutolaa qildim. Kasbim sarroflik bo'lganligi sababli, otamning maslahati bilan sarmoyadorlik bilan shug'ullanib, sarroflik do'kolarining birida o'tirdim. Lekin o'qish va yozishga maylim kuchli edi. SHuning uchun bir yildan so'ng rus tilini biladigan muallim qo'lida ruscha o'qish va yozishni o'rgana boshladim va olti oyda ruscha o'qish va yozishni o'rgandim. SHundan so'ng o'sha paytda Buxoroda ochilgan yangi rus maktabiga o'qishga kirdim. Bir yil davomida til, matematika, geografiya fanlaridan saboq oldim. Rus va turk gazetalariga obuna bo'lib, turkiyni ham yaxshi o'rgandim. Olti oy muddatda bir fransuz muallimi qo'lida tahsil olib, bu ilmni ham o'zlashtirdim. Ba'zan she'r yozishni ham mashq qilardim. Arabcha o'qishni ham o'rgandim.

Bu ishlar orasida kasbim bilan ham shug'ullanib turardim. Tijorat do'koni ochib, tijorat ishlari bilan shug'ullandim. Xizmatkor va o'rinbosarlarim bor edi. Ko'p hollarda paxta bilan savdo qilardim. Natijada katta tijorat idorasi paydo bo'ldi.

Buxoroda ham odamlar mening paxtamni sotib olishardi. Har oyda bir marotaba Buxoroga kelib, o'z manzilimda qolib ketardim va bu erdagi ishlarim bilan mashg'ul bo'lardim. So'ng yana Farg'onaga otlanardim. CHunki Farg'onada mashina va paxta zavodlari ko'p, hatto qishloqlarda ham bor edi. Bu erdagi tijorat Turkistonning biror shahrida yo'q. Mamlakat boyliklaridan keladigan foydani ko'pincha banklar, rus kompaniyalari

ko‘rardi. Aholi ilm-fan va tijoratdan bexabar. Farg‘ona aholisiing aksariyati dehqon, kosib va to‘quvchidir.

Samarqanddagi uch kunlik muqimlikdan so‘ng Buxoroga keldim va bir kecha tunab, yana tezda Qo‘qonga yo‘l oldim. Pillalarim qurigandan so‘ng idoraga borib, o‘z odamlarimdan ba‘zilarini ta‘tilga chiqardim va yana Buxoroga qaytdim. Uch vagon pilla Marselga jo‘natilgan edi. Ularning kvitansiyalaridan bittasini saqlab qolganini Buxorodagi Xitoy banki bo‘limiga topshirdim. Barcha pilla Marsel va Milanga jo‘natildi.

Qariyb o‘n kun Buxoroda o‘z ishlarim bilan mashg‘ul bo‘ldim. Keyinroq Fransiyaga safar qilish maqsadida Evropaga ravona bo‘ldim. Chunki dunyo voqealari havasimni tortardi...

### **Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro - Turkiston beshigi**

سید منصور عالیمی بخارا گھوارہ ترکیستان

### **Amir Olimxonning sovetlarga qarshi qurolli harakat rahbarlaridan biri Ibrohimbekka Afg‘onistondan yo‘llagan maktubi (1930 yillar boshlari)**

“Vatan ruhi Sizning do‘stingiz va hamrohingiz. U misli oftob singari ravshandir. Bizning kurashimiz vatan ozodligi va Buxoro xalqining poymol bo‘lgan haq-huquqlarini qaytarishga qaratilgan. Bunday muqaddas vazifani siz bir o‘zingiz ado etmoqdasiz, vatan ozodligi uchun xizmat qilmoqdasiz. Bu xizmatigiz albatta Turkiston tarixi sahifalariga yozilajak. Vatan ishqini uchun o‘z jonini fido etayotganlarga salom yo‘llaymiz.

Olingan ma‘lusotlar shuni ko‘rsatadiki, bolsheviklarning vahshiyona hamlalari oqibatida Afg‘oniston shimolidagi fidoyilar shahid bo‘ldilar. Ular soni kundan kunga orta boshladi. Bunday gunoh ishlarga Kobul davlati ham qo‘l urdi. Bilamizki, jang Afg‘onistonda istiqomat qilayotgan movarounnahrlik birodarlarimizga ham ko‘p fojialar keltirdi. Bu begunoh aholini qutqarishning yagona chorasi Sizning Afg‘oniston hududidan chiqib ketishingiz hisoblanadi. Afg‘oniston hukumati ham shuni istaydi. Men yaxshi bilaman, bu amr fidoyilar qo‘shinlarini tarqatib yuborishga qaratilgan. Lekin kurashni davom ettirish ham xatarli oqibatlarga olib keladi.

Biz Sizga Turkiston qahramoni sifatida qaraymiz. Amudaryoning narigi tomonida sovetlarga qarshi kurashga tayyorlanavering. Xudodan Sizga zafar yor bo‘lishini tilab qolaman!

Sayyid Olimxon”

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR  
MAHKAMASINING  
QARORI**

**BUXORO SHAHRINING TARIXIY QISMIDAGI MADANIY  
MEROS OB‘EKTLARINI MUHOFAZA QILISH  
MASALALARI TO‘G‘RISIDA**

Buxoro shahrining shakllangan tarixiy qismidagi madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish va tartibga solish, tarix, madaniyat va me‘morchilik yodgorliklarini har tomonlama o‘rganish, ommalashtirish va targ‘ib qilish, o‘zbek xalqining bebaho milliy qadriyatlarini kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish, Buxoro shahrining tarixiy qismi yagona kompleks sifatida to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Belgilab qo‘yilsinki, Buxoro shahrining tarixiy qismidagi ko‘chmas madaniy meros ob‘ektlarini restavratsiya qilish ilmiy asoslangan tadqiqotlarni, tarixiy hujjatlar va arxiv hujjatlaridan foydalanishni, shahar muhitining tarixiy qadriyatlarini, jamiyatning zamonaviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, tarixiy markazni rekonstruksiya qilish yuzasidan ishlab chiqilgan maxsus normalar va qoidalarga muvofiq, Madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*Keyingi tahrirga qarang.*

2. Buxoro viloyati hokimligi (Xusenov) Buxoro shahrining bosh rejasini ro‘yobga chiqarishda:

Buxoro shahrida qurilishlarni shaharni rivojlantirish yuzasidan tasdiqlangan bosh reja talablariga qat‘iy rioya qilgan holda amalga oshirsin;

Buxoro shahrining tarixiy qismida yangi qurilishlarni taqiqlasin;

shakllangan tarixiy muhitni saqlab qolishni hisobga olgan holda shaharning qismini mukammal rejalashtirish loyihasi ishlab chiqilishini ta‘minlasin;

konservatsiya qilish, ta'mirlash, restavratsiya qilish, zamonaviy foydalanish uchun moslashtirish, shuningdek ular bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot, loyihalashtirish va ishlab chiqarish ishlarini o'z ichiga olgan madaniy meros ob'ektlarini saqlab qolish chora-tadbirlarini ko'rsin, bunda «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda Vazirlar Mahkamasining «Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002 yil 29 iyuldagi 269-son qaroriga qat'iy amal qilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Buxoro shahrining madaniy meros ob'ektlarini tadqiq etish, konservatsiya qilish, restavratsiya qilish va zamonaviy foydalanish uchun moslashtirish hamda 2020 yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirish davlat dasturini 2008 yil 1 noyabrgacha ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

4. «Davarxitektqurilish» qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan birgalikda 2008 yil 1 iyulgacha SHNK 2.07.01—03 «Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi yashash punktlari hududlarida qurilishni rivojlantirishni rejalashtirish» qoidalarining aholi yashash punktlarini qurishda madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilishga oid qismiga belgilangan tartibda qo'shimchalar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari N.M.Xanov va R.S.Qosimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOEV**

Toshkent sh.,

2007 yil 11 sentyabr,

191-son

شده بر پیراه ششافت و از غایت نیاز و بندگی و نهایت بجزه پراکنده کی از پشت  
 زمین بروی زمین افتاد و روی فقر و پای و سپس آن مقدای اهل کفر نماه و بعد  
 از آنکه حضرت ایشان بنیاز مندی خان اطلاع یافتند به سرعت از پرب فرود آمدند و از  
 دیدار یافتند و حضرت محمدی ارشاد پناهی مولانا محمد قاضی فرموده اند که یونس خان می  
 شنودیم و مکان می بودیم که اطوار او مثل سایه تراک در شستن غلله بود چون او را دیدیم  
 پادشاهی بود خوش بجا و در تکیه یک چهره از غایت عاطفت پیشانی از حقیقت پستان  
 با بهره با بید و پنهان چون بنگر کیمیا از ایشان در آمد حضرت در بلوکه او عنایت فرموده  
 با طراف و جواب از پیر حد کاشته و دست قیامی تنوایان و حوثن مکاتبات نامی و  
 مرایات کرامی از پال اشته مضمون نگه یونس خان را دیدیم و مردم منول پسندیم هم  
 مذمت اهل سنت و جهات پاک عقیدت و صفای طوینت ایشان را هیچ صورت بزده نمان  
 پاینت همه جا بجهت امثال امر از دست بجا از آن بزده منول نخریدند و نخره منند و بیدار  
 و احوال اصلاح حضرت ایشان میان برادران سلطان احمد میرزا و عمر شیخ میرزا  
 و دیگران بر کنار در یابی سپهر و سبب نخبند در و سبب ۱۰۰

قصه نزع و حصولت برادران و مصالح حضرت تیمان

شرح این واقعه آنست که شیخ جمال خود در کنگنه چون خانه عمر شیخ میرزا با هر خیزه و کنگنه  
 سپهر کرد و اند و ازین مرمیان برادران سلطان احمد میرزا و عمر شیخ میرزا از آن ریاضت پیش  
 جمال خود در از توابع سلطان احمد میرزا نمیداشت با و در آنک بکب بقلل امر بر طاعت  
 در جلد متابعت از میکده است مگر خصوصت ایشان یکدی رسیده که سلطان احمد میرزا نفع  
 تقوی عمر شیخ میرزا کرده و عمر شیخ میرزا نیز از او متوجه شد که کس یونس خان در پستان و کنگنه  
 بخار زمان او و همه داد و سپهر کنگنه از ولایت بندگان او شمر غنی ساز داده بود بنابراین  
 خان بولد خود و سلطان محمود خان بسیرام آمد با که اگر سلطان احمد میرزا بر سپهر  
 آید ایشان نیز اجابت او نمایند چون میرزا سلطان احمد بر سر میرزا عمر شیخ کنگر کشید و بصر  
 تا کنگنه توجه کرد و از آن طرف عمر شیخ میرزا بکینت ل استار رسد و با غنچه تمام الی

“Abdullanoma” qo‘lyozma asaridan parcha

در آمدند چه تکبر و غنا و سلطان محمود خان بیاسیت مشهور بود و بر این سینه و او را در سال  
مذکور و ظهور این مصالحه و جلوس پس نشان در تاشکند در تاریخ کتیبین نامانیه روی نمود اما  
اختتام احوال یونس خان آن بود که چون خان در ویش نشان در تاشکند بر سر بر خانی و  
پسند جباتبانی تکبیه فرمود پس سلطان احمد میرزا بدین فرستاده و او را که در تاشکند و در  
جبه سلطان محمود خان نو استادی نمود و نیز این نیز بقول او در تاشکند این احوال یونس خان  
افصح شده تاریخ پسند نشان و تبیین نامانیه وفات یافت و نبین او در جوار فرزند طایض  
الانوار امام مرحوم منصور شیخ خواند ظهور که نسبت شریف حضرت خواجه فخر الدین محمد  
پسند با ویت و فن کردند و بر سپهر مقدس نور لوه عمارت عالی و بناهای تمسایه  
سپارند و کسبندی بنایت رفیع شش بر جوارت بدین معنی انداختند و در آن بودیت  
نام آن عمارت بنان فراری شرف یا قریب و چون یونس خان رجعت نمود و در تاشکند  
شستافت و حد و نشان واقعه که جاگشته با یافت در پسند مذکور تمام و در تاشکند  
سپر بر خط اعانت سلطان محمود خان گذاشتند و او را بر پسند خانی نشانده با این معنی  
کاپه داشتند به از جلوس او و عمر شیخ میرزا و سلطان احمد میرزا از هر طرف و در آن عمارت  
فرع نمودند و نخبست عمر شیخ میرزا جمعی کثیر از دلاوران نامدار و میان بر این با اعتبار که در تاشکند  
دولت او با نشان بود تاشکند روان ساخت با امرای مذکور بیان خوب توجه و توجه  
کی از قلاع نامور تاشکند در آن که حصنی بنایت حسین و در آن وقت نمود و در آن قلعه عالی که در  
و سلطان محمود خان نیز بی توقفت خود متوجه شده آن حصار را و دیگر باره پسند خانی نمود  
ذو پست با کان عمر شیخ میرزا را تا به قتل عام نمود و خان از این فرستاد شوکت و قوی نام  
دست داد و پانامای فراوان از جا دشته آنجا نیکرفتند و عمر شیخ میرزا را بعد از جد و  
این واقعه دیگر کمال لغت نماند و خود در از طریق نزع کرد زاندا سلطان احمد میرزا تاریخ پسند  
شد و تبیین نامانیه بنا بر بحریص امر بحیثی لایحه و لایحه بر بر تاشکند نگه کشید و هر چند  
حضرت خواجه اجاز سلطان پیر آسیم کار راضع فرموده گفتند که آن ولایت را بعد از تاشکند  
مهام مصالحه دادیم و اقدام برین واقعه بنایت علی طریقی

“Abdullanoma” qo‘lyozma asaridan parcha



امارت و فصلت بناهان غوث و  
سلطان

او بیا قس ملک در دعوای فخر مدعی  
سلطان

سر زور گشته بر بندگی دولت  
کتاب

بمرض عاریبند که موضع ایام  
نور

زمین مورد درم که مدت چند سال  
کار

فراخ او در دوده دعا کرده گشته ام  
حاله

قولی بر آیه بدر بر زمین  
عبد القیوم

محمد رسول نام تعدی آمده خانه  
سیار

مقرر خیال شده چاره ام  
بسیار


بحقیقت آنها رسیده نسخ  
نموده زمین

بهید که گشت کار کرده  
دی ناید و هر چه رسیده  
نعلیق


Buxoro tarixiga oid qo'lyozma hujjat (XIX asr oxiri)

دردنخدايک  
بفررسیده که رعیم باقی  
سپهر حکیم که مقلب صمیم جان شده مردمانک  
باززم بود بعد از قتل در شاه در ایام سلطنت نورمحمد  
از ایران که خفته آمده جان مغفور شود در شمشیر خنده خند لکون جان سپهر  
خود سقد امور ملک شده در اندک صحت آن حال با دوه ایغ حکیم در که در حسن حال شکر در وقت  
سن بوده صحت و در دوه متاع کاتاش شکر و شمشیر خنده خنده خند لکون جان سپهر  
بدون شسته علم از یاد و شیر بر افراشته کسین تصدیک با مو قضا و قدر ملک کاتاش شکر در وقت  
که در وقت صبر ملک کاتاش تفصیل سن حال که بعد از که در زمان ملک لاریغ کرد شکر زایغ کاتاش شکر  
نمانده موجود و از در مطومین در شاه خود ساخت از رنج که روز در صاریغ کاتاش شکر  
این زمین در سر راه غار باغ دروغ شده نظر در وقت در کور کاتاش شکر در وقت  
ویران که در طبع جبار باغ از نوزند با بن فلک کاتاش شکر در وقت  
شاهت که در قبیل کرده اهر در کورد غیرت لکون کاتاش شکر در وقت  
وجودش سن عمر از سن خفته سیاه کاتاش شکر در وقت  
از خند اول مقدم دولت سن فالوده ایوب غیرت لکون کاتاش شکر در وقت  
دارت ملک در ایام که در در حکیم کاتاش شکر در وقت  
سنگ در شسته با بر حسن خلاق کاتاش شکر در وقت  
در سر سلطنت لکون


Mirzo Somiyning “Tarixi salotini mang‘itiya” asari xomaki nuxasidan parcha



Buxoro amirligi devonxonasida yuritiladigan harf va raqamlar yig'indisi



Mirzo Somiyning shaxsiy muhri



Amir Muzaffarning Rum sultoniga maktubining nusxasi

## MUNDARIJA

So'zboshi .....	3
Muqaddima.....	8
1-Modul. Qadimgi va o'rta asrlarda Buxoro.....	31
1-mavzu: Buxoro vohasining o'rganilish tarixi .....	31
2-mavzu: Buxoro vohasi tarixiy geografiyasi .....	51
3-mavzu: Buxoroda ilk o'rta asr shaharsozlik madaniyati .....	60
4-mavzu: Ilk o'rta asrlarda Buxoro .....	71
5-mavzu: Somoniylar va Qoraxoniylar davrida.....	83
6-mavzu: XIII-XV asrlarda Buxoro .....	107
2-Modul. XVI-XXI asrlarda Buxoro .....	131
7-mavzu: Shayboniylar davrida Buxoro .....	131
8-mavzu: Ashtarxoniylar davrida Buxoro.....	155
9-mavzu: Mang'itlar davrida Buxoro.....	180
10-mavzu: Buxoro BXSR va sovetlar davrida.....	215
11-mavzu: Mustaqillik yillarida Buxoro .....	240
Tarixiy atama va tushunchalarning izohli lug'ati .....	265
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	269
Ilovalar.....	279

## Содержание

Предисловие .....	3
Введение.....	8
1- модуль. Бухара в древности и средневекове .....	31
1-тема. История изучения Бухарского оазиса.....	31
2-Тема. Историческая география Бухарского оазиса.....	51
3-тема. Раннесредневековое градостроительство в Бухаре.....	60
4-тема. Бухара в раннем средневекове.....	71
5-тема. Бухара в период Саманидов и Караханидов .....	83
6-тема. Бухара в XIII-XV веках .....	107
2-модуль. Бухара в XVI-XXI веках.....	131
7-тема. Бухара при шейбанидах.....	131
8-тема. Бухара при аштарханидах .....	155
9-тема. Бухара при мангитах.....	180
10-тема. Бухара в период БНСР и советской власти.....	215
11-тема. Бухара в годы Независимости .....	240
Толковый словарь исторических терминов и понятий.....	265
Исползованная литература.....	269
Приложения .....	279



**Halim To'raev**

**BUXORO TARIXI**

*O'quv qo'llanma*

*Muharrir:*

*G`.Murodov*

*Texnik muharrir:*

*G.Samiyeva*

*Musahhah:*

*A.Qalandarov*

*Sahifalovchi:*

*M.Ortiqova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 22.07.2020. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog`ozi. Bosma tobog`i 20,0. Adadi 100. Buyurtma №98.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi  
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45